

**“ZAMONAVIY FAN VA TALIM-TARBIYA:
MUAMMO, YECHIM, NATIJA”
ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari
(2020 yil 27 oktyabr)**



2020



“ZAMONAVIY FAN VA TALIM- TARBIYA: MUAMMO, YECHIM, NATIJA” ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari 2020. № 1.

Tahririyat raisi: Akramova G.R.

Tahririyat raisi o‘rinbosari: Maxmudova D.B..

Tahririyat a‘zolari:

«FAN VA TA’LIM»
MChJ nashriyoti
Buxoro sh.DXM
tomomnidan 2020 yil 7
sentyabrda 888703-son
reyestr raqami bilan
ro‘yxatga olingan

Akramova G.R. (pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, BuxDU), Tilavova M.M (pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, BuxDU), Ro‘ziyeva M.Yo. (Filologiya fanlari bo‘yicha PhD., dotsent. BuxDU), Tosheva N.T. (pedagogika fanlari bo‘yicha PhD. BuxDU), Karimova G.Q. (pedagogika fanlari bo‘yicha PhD. TSHPXQTMOI) Aminova F.X. (pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Navoi DPI), Maxmudova D.B (pedagogika fanlari bo‘yicha PhD. Chirchiq DPI), Samarova Sh.R (psixologiya fanlari nomzodi, dotsent. Chirchiq DPI), Narziyeva M. (Buxoro VPXQTMOI katta o‘qituvchisi), Davronov I.E. (BuxDU katta o‘qituvchisi), Akramova S.R. (BuxDU), Luqmonova S.G. (BuxDU)

Tarqatish hududi:
<http://interscience.uz/>
onlayn.

MUNDARIJA

KIRISH	8
PEDAGOGIKA FANLARI	9
Джурраев Д. У., Журраева М. У “ИЛМ, МАЪРИФАТ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙИЛИ”ДА ИНСОН КАПИТАЛИГА КИРИТИЛАДИГАН ИНВЕСТИЦИЯ АҲАМИЯТИ	9
Axatova D. A., Axatova X. A SHAXSGA YO’NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI AMALGA OSHIRISH BO’YICHA TA’LIM TURLARI	11
Abdushukurova N. A. XALQARO BAHOLASH «PISA DASTURI» RIVOJLANISH TENDENSIYASI	13
Baxronova D. B. BOLANI KITOBGA MEHTINI OSHIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI.....	15
Kuzieva M. YOSHLAR BILAN ISHLASHDA XORIJYIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI.....	17
Mamatov D. ANDROGOGIKANI –KATTALAR TA’LIM Olishining ASOSIY NAZARIYALARI.	19
Rahmonov X. X. MEHNAT BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH BANDLIKNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDA	21
Болтаева Ф. Т. РОЛЬ МАХАЛЛЫ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ	22
Diyor S. O’QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	24
G.Kushakova, D.Toshtemirova, Z.Erkinova YOSH AVLODNI MA’NAVIY- AXLOQIY VA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	26
Yusupova X. O’QUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOTGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI	27
Бобомухамедова Ш. А. АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЗОВАНИЯ БЛОГ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ	29
BOSHLANG’ICH TA’LIM	31
Tosheva N.T., S.J.Nasullayeva BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.....	31
M. Boltayeva KITOB – FARZAND TARBIYASIDAGI ENG MUHIM OMIL	34
Temirova M., Berdiyeva G. INTEGRATSIYALASH – BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	35
Temirova D., Abdurahmonova D. O’QUVCHIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O’RGANISHNING O’RNI (BOSHLANG’ICH).....	37
Rustamova D., Nurmatova D. BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TA’LIMIY O’YIN VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH.....	39
Ravshanova S., Karimova M. DIDAKTIK O’YINLAR BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI TAMINLASH OMILI SIFATIDA	40
Qobilova F.a, Xodiyeva G. BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI.....	41
Nazarova G., Rajapova F. BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINI DARSLAR JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH.....	43
Maxmudova M., Xoliqova N. ONA TILI VA O’QISH DARSLARIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING NUTQINI O’SHTIRISH	46

Najmiddinova M. TA'LIM - INSON VA JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM OMIL.....	49
Narziyeva M. ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHI USLUBIY ISHINING AHAMIYATI.....	51
Bozorova G., Ochilova G. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLAR O'RNI.....	54
Asadova Z. TEACHING ENGLISH THROUGH PLAY IS AN IMPORTANT WAY TO BE EFFECTIVE IN PRIMARY EDUCATION.....	55
Jumanova N. BOSHLANG'ICH TA'LIMNING NATIJASI – “NIHOL”NING HOSILIGA BOG'LIQ.....	57
Sadullayeva G. O'QITUVCHINING O'QUVCHI BILIMINI VAHOLASH XUSUSIYATLARI.....	58
Хайдаров И.О. БОШЛАНГИЧ СИНФИ ўҚУВЧИЛАРИНИНГ ўҚУВ ФАОЛИЯТИ ВА ШАХСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	60
Ismatullayeva I. O'QUVCHIDA IZLANUVCHANLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH - IJODIY TAFAKKURGA QADAM.....	61
Astanova M. YAPONIYA TA'LIMIDA HAMKORLIKDA O'QITISH.....	63
Ashurova D. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI.....	65
Barakayeva M. BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	66
Aminova F. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFATLI TA'LIM-TARBIYA – BOSH MAQSADIMIZ.....	67
Kamolova D. TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI.....	68
Abdullayeva T., Murtazayeva I. O'QUVCHILARIDA JISMONIY XATTI-HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	70
Yarasheva N. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	72
Xalilova G. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH (BOSHLANG'ICH).....	73
Tohirova Sh. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH USULLARI.....	74
Sadullayeva G. TA'LIMIY O'YINLAR TA'LIM SAMARADORLIGINI TAMINLASH OMILI SIFATIDA.....	76
Rajabova F. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	77
Ikromova S. BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINING O'RNI.....	80
Ш.А.Буранова Ф.Нуманжанова БОЛАЛАРНИ ҲАР ТОМОНЛАМА РИВОЖЛАНИШИДА ХАМКОРЛИК ТИЗИМИ ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА.....	81
Amonova M. BO'LAJAK PEDAGOGDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	83
Kamolova D. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRALLASHGAN DARS TURLARI VA SHAKLLARI.....	85
Jumanova N. O'QUVCHILAR BILIMINI VAHOLASH MUAMMOLARI (BOSHLANG'ICH TA'LIM).....	87

Boltayeva A. MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH (BOSHLANG'ICH SINFLAR).....	88
Obloqulova G., Obloqulova S. O'QUVCHILARNI IJODIY FAOLIYATGA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR ORQALI YO'NALTIRISH METODLARI	90
Eshova F., Zebo S. BOSHLANG'ICH SINFLAR SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISH MASALALARI	91
Ortiqova S., Sharipova N. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YANGICHA YONDASHUV	95
Nasimova G. TIL VA NUTQ JARAYONIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	97
Fatullayeva L. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH.....	99
Tohirova O. Sh. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI	100
Saydig'aniyeva D. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH.....	102
MAKTABGACHA TA'LIM	105
Tashbayev N. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA MONITORING.....	105
Narimbayeva L. MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH	108
Narimbayeva L. MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYON SAMARADORLIGINI BOG'CHA VA OILA HAMKORLIGI	109
Sadullayeva M. BOLA NEGA QO'RQADI?	110
Dosbekova G. RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ILG'OR TAJRIBALAR TAHLILI	111
Abdullayeva M. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING QOBILIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL	112
Xamzayeva G. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK O'YINLARNI AMALGA OSHIRISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI.....	114
Ixxomova M.Z., Berkinova Ch.I., Xamrayeva E. BO'LAJAK PEDAGOG TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....	116
Д.Ш.Мирзаева, Д.Рахматова «ИННОВАЦИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ»	117
Д.Ш.Мирзаева, З.Кенжаева. ПОЛЬЗА ПОДВИЖНЫХ ИГР ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	119
G.Kushakova, D.Raxmonova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASH	121
Matmuradov A. MATEMATIKA FANI O'QITUVCHILARINING DARSLARNI LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	123
PSIXOLOGIYA FANLARI	125
Sayyora M. OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZI MUHITI – SOG'LOM KELAJAKDIR	125
FILOLOGIYA FANLARI.....	126
Qazaqova S. TIL -MILLAT KO'ZGUSI.....	126
Adilova N. SPEAKING IS ESSENTIAL PHENOMENON IN ENGLISH LANGUAGE.....	127
Kiyasova R. XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ONA TILI DARSLARIDA	128

U. Jumanazarov O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATIGA DOSTONLARNING IJOBIY TA’SIRLARI	130
Jabborova SH. QISASI RABG’UZIY” – O‘ZBEK NASRINING ILK NAMUNASI MAVZUSIDAGI DARS ISHLANMASI	132
Yuldasheva F. O‘QUVCHI-YOSHLARDA “OMMAVIY MADANIYAT”GA QARSHI KURASHISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	138
Xolmuminova S.A., Mirzayeva S.R. OLIY HAMSHIRALIK ISHI YO‘NALISHI TALABALARIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	139
Raximova N. XORIJIY TILNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI	139
Мамедова Н. НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА: ТЕХНОЛОГИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ	141
Mamasoliyeva Nilufar Suyundikovna BADIY ADABIYOTDA ZAMONAVIY QAHRAMON MASALALARI	142
Umarxodjayeva D. WHY DO WE LEARN ENGLISH LANGUAGE?	143
Suyarova Sh. BO‘LAJAK CHET TIL O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA MOTIVATSIYANING ROLI	145
Azizova Z. CHET TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MULOQOTNING AHAMIYATI	146
Aripova Sh. CHET TILIDAGI SO‘ZLARNI TEZ VA OSON O‘RGANISH METODIKASI	148
Тулаева Г. СОВРЕМЕННЫЙ УРОК РУССКОГО ЯЗЫКА	149
Jumayeva L., Qo‘ziyeva D. TIL O‘RGANISHDA O‘QISH FAOLIYATI	150
Bazarova G. NAVOIY IJODIDA ORIFONA BAYTLAR	151
Adizova G., Xolova N. TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	152
Axunxadjayeva G. PEDAGOGIK TA‘SIRNING TA‘LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI	153
Abdullayeva B. O‘QUVCHIGA QOIDA YODLATMASDAN AMALIY KO‘NIKMANI RIVOJLANTIRAYLIK	155
Husenova G. FRAZELOGIK BIRLIKLARNING BADIY TARJIMADA BERILISHI	158
G. Jo‘rayeva TA‘LIMDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR VA MENTALLIKNI O‘RGATISHNING AHAMIYATI	159
Shamsiyeva H. AUDIOVIZUAL MATERIALLAR ASOSIDA CHET TILIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH	161
Хомидова С ФОРМЫ РАБОТЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРЕЗЕНТАЦИЙ MICROSOFT POWER POINT НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	164
Жумаева Д ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ЛЕКСИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА	165
Qobilova A. A., Jumayeva O. ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA VIDEO LAVHALARDAN FOYDALANISH	166
Bafoyeva N., Nuriddinova M. BADIY MATN TAHLILIDA MUSTAQIL TA‘LIMG A INNOVASION YONDASHUV	167
N.Z.Qodirova INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	169
Дустова Д.С., Шарапова Н ФОРМИРОВАНИЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ТЕКСТОВЫХ УМЕНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	171
Abdurahmonova M. BUYUK SHARQNING KITOBXONLIK TARIXI VA KELAJAGI	173

Amanova N. ONA TILI DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASH.....	175
IQTISODIYOT FANLARI	177
M.M.Tairova MARKETING FANINI O'QITISHDA MINTAQADA TOVAR VA XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA INNOVASION YONDOSHUV	177
FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI	178
Soatmurodova X. FIZIKA FANIDA MASALALARNI YECHISHNING SAMARALI USULLARI .	178
Teshayeva R. MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALARNI YECHISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH	179
Shukurova Z., Tolibova Sh. MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON O'QUV QO'LLANMADAN FOYDALANISH	181
Н.Б. Юлдашев РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛНЫХ КЛАССАХ	182
Raximova G. O'QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIK BO'YICHA PISA TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR	186
Rajabova Z. BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA OID ILMIY YONDASHUVLAR	188
Ataboyeva Sh. MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVACION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	190
Turdiyev Y. TA'LIM TIZIMIDA MATEMATIKA FANIDAN SAVODXONLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION METODLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI .	191
KIMYO FANLARI	194
Davlatov I., G'aybullayeva M. KIMYO FANIDAN UY TAJRIBALARI – O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODHONLIGINI OSHIRISH OMILIDIR	194
G'aybullayeva M., Zayniyeva R. O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODHONLIGINI OSHIRISHDA KIMYO O'QUV FANIDAN AMALIY MAZMUNDAGI, INTEGRASIYALASHGAN MUSTAQIL ISHLARNING ROLI	195
Zayniyeva R., G'aybullayeva M. KIMYO FANINING O'QITISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MUAMMO VA YECHIMLAR	197
BIOLOGIYA FANLARI	200
Mirzayeva G.A., Mirzayeva M. O'QUVCHILARDA MORFOFUNKSIONAL O'ZGARISHLARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	200
Atavullayeva M. Q., Mirzayeva G. BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	204
TARIX FANLARI	206
Yakubova S. Sh., Sohibova N. S. TARIX FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	206
Hayitbayeva S. N. ZAMONAVIY TARIX TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI	207
TASVIRIY SAN'AT VA TEXNOLOGIYA FANI	216
Rajabova G.A. CHIZMACHILIK DARSLARIDAI ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH VA OMMALASHTIRISHDAGI UZVIYLIK	216
Atamurodova F. Z. CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA XORIY TAJRIBASI	217
Sattorova F. I. TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVASION YONDOSHUVLAR ASOSIDA QR- KODLI DARSLARNI TASHKIL ETISH	219

<u>Xaydarova M. D.</u> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MEHNATGA AXLOQIY JIHATDAN TAYYORLASH.....	220
<u>Ro'zmetova Z.M.</u> TEXNOLOGIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI MASHG'ULOTLARIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY VA REFLEKSIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI.....	222
<u>Maxmudov Y. B.</u> BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT TALIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI	225
<u>Yaqubova R. M.</u> KASBLAR TO'G'RISIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY MADANIYAT	227
<u>Atabekov F. O'.</u> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA JISMONIY HATTI-HARAKATLARNI MUSTAQIL EGALLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	229
<u>Rashidov K. K., Manzura X.</u> JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLASH MASALALARI.....	231
<u>Toshpo'latov J. T., Rashidov K. K.</u> MAKTAB O'QUVCHILARI JISMONIY TARBIYASINING MAQSADI VA SPORT FAOLIYATIGA QIZIQISHNING MAZMUN-MOHIIYATI.....	234
<u>Mashrapova O. P.</u> JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI.....	235
<u>Xurramov E. E.</u> AJDODLARIMIZ BOLALARDA IJTIMOIIY SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIDA	236
<u>Ubaydilloyev D. H., Yoldoshov A.</u> MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN JISMONIY MADANIYAT DARSLARIDA FOYDALANISHNING AXAMIYATI.....	238
<u>Abdullayev A. A.</u> JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	239
<u>Xayitova N. B M Tilavova</u> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL QILIB UTKAZISHDA INTRFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING YO'L VA USULLARI.....	241
<u>Sharopiva Z. T. M.Tilavova</u> TA'LIMDA GENDER TENGLIK VA FARQLARNI INOBATGA OLISHNING MUHIM JIHATI	243
<u>Dilova N. G., Raxmatullayeva N. K.</u> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	244
<u>Davronova D.S.</u> OILADA YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI TARBIYALASHNING MA'NAVIY ASOSLARI	246
<u>Do'stov B. A.</u> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI JISMONIY TARBIYASINING IJTIMOIIY-RUHIY ASOSLARI.....	247
<u>G'afurova M. Yu.</u> JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN KASBIY TALABLAR	249
<u>Nurullayev A. R.</u> BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASHDA XALQ VA MILLIY O'YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	250
<u>Narzullayev F. A.</u> 15-16 YOSHLI VOLEYBOLCHILARNING TEZKORLIK KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MA'NAVIY VA AXLOQIY TARBIYALASH.....	251
<u>Kadirov Sh. N.</u> O'QUVCHINI SPORTGA QIZIQISHINI OSHIRISH SABAB VA MOTIVLARI	252
<u>Fatullayeva M. A.</u> SPORT RIVOJLANISH, HAR TOMONLAMA TARBIYALASH VA HAYOTIIY TAJRIBAGA TAYYORLASH VOSITASI SIFATIDA	253

<u>Shoximov J. J.</u> MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH IMKONIYATLARI	254
<u>Usmonov A. Sh.</u> YENGIL ATLETIKA SPORT TURI XUSUSIDAGI QIZIQARLI TARIXIY MA’LUMOTLAR	256
<u>Toshov M. X.</u> O‘QUVCHINI JISMONIY TARBIYALASHDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIK	257

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 1 oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda hurmatli muallim va o‘qituvchi, qadrlil tarbiyachi, jonkuyar ziyoli professor-o‘qituvchilarni kasb bayrami bilan qutlab, yo‘llagan murojaatida “millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”, - deb ta’kidladi.

Shuningdek, “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”, - degan murojaati har bir professor-o‘qituvchi, izlanuvchi va tadqiqotchi, bo‘lg‘usi yosh olimlar-magistr-talabalarning ijod qilishiga, innovatsion tadqiqotlar yaratishiga turtki bo‘ladi.

Haqiqatdan ham, O‘rta Osiyo tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, yurtimiz, Vatanimiz azaldan yuksak tadqiqotlar, sivilizatsiya va madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan. Ajdodlarimiz, Buyuk mutafakkir-olimlarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, Sohibqiron Amir Temur bobomiz, Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning bebaho me’moriy obidalari, nodir qo‘lyozma va asarlari tariximizning uch ming yillik teran ildizi mavjudligidan hamda bizning tomirimizda ana shunday buyuk ajdodlarimizning qoni oqayotganidan dalolat beradi.

Shunday ekan, yosh ijodkor, o‘qituvchi-ustoz, professor-o‘qituvchi, talaba-magistr, tadqiqotchi va izlanuvchilar Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganib, ularning o‘lmas merosidan kuch-quvvat va ilhom olib o‘zlarining ilmiy sohada yaratgan tadqiqotlari natijasi, qolaversa pedagogik tajribalaridagi ijodiy ishlari, yaratgan innovatsion g‘oyalarini ommalashtirish maqsadida ushbu “ZAMONAVIY FAN VA TALIM-TARBIYA: MUAMMO, YECHIM, NATIJA” ilmiy-amaliy, onlayn konferensiyasini tashkil etdik.

Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyev aytganlaridek: -“Agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo‘limizdan keladi. Biz ma’rifat borasida, ta’bir joiz bo‘lsa, “iligi to‘q” xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor”.

**Buxoro davlat universiteti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
G.R.Akramova**

PEDAGOGIKA FANLARI

“ИЛМ, МАЪРИФАТ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙИЛИ”ДА ИНСОН КАПИТАЛИГА КИРИТИЛАДИГАН ИНВЕСТИЦИЯ АҲАМИЯТИ

Джураев Д. У., Жураева М. У.

Джураев Дусмурод Уралович

ЎзДЖТУ Педагогика ва психология кафедраси мудири, педагогика фанлари доктори

E-mail: jurayevd@mail.ru

Жураева Мукаддас Ураловна

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти доценти

Республикамызда иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизими – рақамли иқтисодий ривожлантириш йўналишидаги ишлар жадал амалга оширилмоқда. Жумладан, янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари яратиш ва уларни кундалик ҳаётга жорий этиш орқали мавжуд иқтисодий янгича тизимга қўчириш борасида аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқилган. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев жорий йилнинг 27 июн куни Наманганда вилоят ҳокими, туманлар ҳокимлари, ташкилотлар раҳбарлари ҳамда жамоатчилик вакиллари иштирокида ўтказган йиғилишида бугунги жаҳон ҳамжамиятини қийнаб қўйган пандемия шароитида янги иш ўринлари яратиш, камбағалликни қисқартириш ва аҳоли даромадини оширишда таълим тизими аҳамиятига яна бир бор тўхталиб ўтдилар. Жумладан, Республикамыз узлуксиз таълим босқичларининг барча бўғинларида яхши билим бериш орқали камбағалликни 60-70 фоизгача камайтиришимиз, таълимни тўғри ташкил этиш орқали бир қанча масалаларни ҳал қилиш мумкинлиги ҳақидаги фикрларини билдирдилар.

Республикамызда фақат олий таълим муассасаларининг сони сўнги уч йилда 40 тага, Республикамыз олий таълим муассасаларида таҳсил олувчи талабалар сони 1,7 баробарга ошди. Таълим жараёнига сиртки ва кечки таълим шакллари жорий қилинди. Фақат сўнги 3 йилда олий таълим муассасаларининг 1611 нафар профессор-ўқитувчиси хорижий олий таълим муассасаларида стажировка ўташи ва малака ошириши таъминланди. Халқаро ҳамкорлик доирасида хорижий олий таълим ва илмий муассасалар магистратура мутахассислигига 112 нафар, докторантурасига 51 нафар ёшлар таълим олишга қабул қилинди. “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали 46 нафар профессор-ўқитувчининг Канада, Буюк Британия ва Италия давлатларида стажировка ўташи таъминланди [1].

Жамият пайдо бўлибдики, инсонлар турмуш тарзини яхшилашга, янгиликка интилиб яшайди. Мазкур фаровонликларга эса халқ саводхонлигини ошириш орқалигина эришиш мумкин. Бу соҳада жаҳон олимлари билан бир қаторда Республикамыз олимлари томонидан доимий изланишлар, тадқиқотлар олиб борилмоқда. Жаҳон банки гуруҳи экспертлари мунтазам иқтисодийнинг ўсишига хизмат қилувчи, одамларга камбағалликдан халос бўлишга ёрдам берувчи ҳамда ривожланаётган мамлакатлар тараққиётига сармоя киритиши мумкин бўлган ҳар бир жиҳатни ўрганиб келдилар. Жаҳон банки президенти Жим Ён Кимнинг таъкидлашича, инсон капиталига инвестиция киритишга нисбатан бепарволик мамлакат рақобатбардошлигини кескин пасайтириб юбориши мумкин. Зеро, мамлакат иқтисодий жиҳатдан тараққий этиши учун истеъдодли одамларни тарбиялаш талаб этилади. Ҳақиқатда, тарих саҳифаларидан маълумки, сиёсатчилар ва бюрократлар ўз ишини уddалай олмаса, камбағал аҳоли энг кўп азият чекади [2].

Экспертларнинг фикрича инвестиция киритиладиган йўналишлар ичида айнан таълим катта самарадорлик келтиради, шунинг учун у қашшоқлик кўламини қисқартиришда муҳим роль ўйнайди. Мазкур ҳолатни ёритиш мақсадида Гана давлати тарихидан мисол келтириш мумкин. 1990 йилларда ва 2000 йиллар бошида мамлакат таълимга кетадиган ҳаражатлар миқдорини икки баробар кўпайтириш орқали асосий кўрсаткичларни кескин оширишга муваффақ бўлди. Натижада 1999 йилдан 2012 йилгача мамлакат аҳолисининг саводхонлик даражаси 64 фоизга етди, қашшоқлик даражаси эса 61 фоиздан 13 фоизга тушди.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” Фармони.

2 Жим Ён Ким “Сиёсатчилар ўз ишини уddалай олмаса, камбағал аҳоли энг кўп азият чекади”, “Foreign affairs” журнали, 2017.

Кўриниб турибдики, инсон капиталига сармоя киритишдан жамият катта манфаат кўради. Узлуксиз таълим тизимига киритилган сармоялар жамиятда ижтимоий тенгсизликни камайтириш билан бирга турли жиноятлар содир этилиши эҳтимолини ҳам камайтиради. Жаҳон банки экспертлари томонидан олиб борилган тадқиқотлар ҳар бир қўшимча таълим йили инсон даромадини ўртача 10 фоизга оширишини кўрсатади. Бунда албатта, таълим сифати ўта муҳим. Мисол учун, АҚШдаги бошланғич мактабнинг алоҳида синфида малакаси паст ўқитувчини ўрта даражадаги мутахассисга алмаштириш ўқувчиларга бутун умри давомида 250 минг долларгача умумий даромад олиш имконини беради. Аммо когнитив имкониятлар инсон капиталининг ягона кўрсаткичи эмас. Мардлик, ирода ва ҳалоллик каби ижтимоий-ҳиссий кўникмалар одатда катта иқтисодий самарадорлик келтиради. Болаликда когнитив ва ижтимоий-ҳиссий имкониятларда йўл қўйилган айрим камчиликларни балоғат ёшига етганда тузатиш қимматга тушади. Шунинг учун ҳукумат томонидан инсон капиталини бола ҳаётининг дастлабки 1000 кунлигида ривожлантириш иқтисодий самара бериши тадқиқотлар натижасида ўз исботини топади. Мазкур ҳолат узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир бўғини аҳамиятини, улар орасидаги боғлиқликнинг қанчалик муҳимлигини яққол кўрсатади [3].

Таълимнинг аҳамиятини яхшироқ англаш учун Жаҳон банки гуруҳи ЮНЕСКОнинг Статистика институти билан ҳамкорликда ўқувчиларнинг ўзлаштиришини баҳолаш натижалари бўйича янги маълумотлар базасини ишлаб чиқди. 2010 йилда Мичиганда ишлаб чиқилган мактабгача таълим дастурларидан бирининг самарадорлиги ўрганилганда сарфланган ҳар бир доллар жамиятга 7 доллардан 12 долларгача фойда бўлиб қайтганлиги аниқланган. Экспертларнинг таҳлилига кўра Сингапурда ўқувчиларнинг 98 фоизи, Жанубий Африкада 26 фоизи ўрта мактабда халқаро базавий даражага эришади. Бошқача айтганда, Сингапурда ўрта мактаб ўқувчиларининг деярли барчаси дунёнинг исталган жойида ишлаш учун етарли малакага эга. Жанубий африкалик ёшларнинг қарийб тўртдан уч қисми саводсиз. Бу ҳолат эса инсон салоҳиятини йўқотиш билан бир қаторда жамият ривожига салбий таъсир кўрсатади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бугунги кунда инсон капиталига энг кам сармоя киритилган мамлакатларда келгусида ишчи кучининг самарадорлиги, агар одамлар тўлиқ соғлом бўлиб, сифатли таълим олса, эришиш мумкин бўлган кўрсаткич сезиларли пасайиб кетади. Олимларнинг фикрича, инсон капиталига инвестиция киритиш ишонч даражасини ҳам оширади. Ўқимишли инсонлар бошқаларга кўпроқ ишонади, ишонч даражаси баланд бўлган жамият одатда нисбатан юқори иқтисодий ўсишга эришади. Шунингдек, улар анча сабрли ҳам бўладилар. Тадқиқотлар натижалари йигирманчи аср ўрталарида Европада амалга оширилган мактаб ислохотлари одамларнинг мигрантларга нисбатан бағрикенгроқ бўлишига хизмат қилганлигини кўрсатади.

Экспертларнинг таъкидича мамлакатлар инсон капиталига самарали инвестиция қила олмас экан, айниқса, камбағаллар учун катта харажатлар юзага келади. Ушбу харажатлар келгуси авлодларни оғир аҳволга солиб қўяди. Катта харажатларни талаб этувчи технологик тараққиёт туфайли фуқаролари самарали турмуш кечириши учун замин яратишга қодир эмаслик, нафақат юқори харажатлар билан бирга кечади, балки жиддий тенгсизликни келтириб чиқаради. Бу эса хавфсизликка ҳам таҳдид солади, зеро, қондирилмаган талаблар тартибсизликлар келтириб чиқариши мумкин.

Олимларнинг фикрича энг яхши маълумот – жавобнинг бир қисми, фақат бир қисми, холос. Биринчидан, агар маблағ етарли бўлмаса, ҳукумат сифатли хизмат кўрсата олмайди. Шу тариқа инсон капиталига сурункали тарзда инвестиция киритмайдиган мамлакатлар солиқ нуқсонлари ва истисноларини бартараф этишга, тушумлар йиғилишини яхшилашга ва харажатларни қайта йўналтиришга мажбур бўлади. Натижада инсон капиталига инвестиция қилишга қодир бўлмаслик тараққиёт учун, бутун инсоният учун ниҳоятда қимматга тушади [4].

Бугунда Республикамизда узлуксиз таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш, тизимни доимий такомиллаштириб бориш борасида олиб борилаётган ислохотларнинг гувоҳи бўлмоқдамиз. Юқорида билдирилган фикрлар мазкур ислохотларнинг миллат келажаги учун ўта аҳамиятли ва асосли эканлигини яна бир бор исботлайди. Бугунги кун педагоглари олдида турган яна бир муҳим вазифалардан бири бу узлуксиз таълим тизими босқичлари ўртасидаги узвийликни таъминлаш масаласидир. Мазкур жараёни занжирга ўхшатамиз. Занжирнинг бирор қисмида узилиш бўлса у

3 Жим Ён Ким “Инсон капиталига инвестиция киритиш мамлака рақобатбардошлигини оширади”, “Foreign affairs” журнали, 2017.

4 Бурунчук Л. Доклад регионального директора Всемирного банка на тему: «Инвестиции в будущее» в «Газета.uz», 2017.

занжирлик функциясини йўқотади. Демак, таълимнинг ҳар бир босқичи аҳамиятидан келиб чиқиб улар ўртасидаги узлуксизликни таъминлаш муҳимдир.

Биз педагоглар мамлакатимизда яратилган шароитлардан унумли фойдаланиб, таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар моҳиятини ёш авлодга тўғри етказиб бера олсак, уларнинг ислохотлардан кенг фойдаланишлари учун муносиб шароит яратиш бера олсак халқ олдидаги бурчимизни бажаришга муносиб ҳисса қўшган бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар руйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” Фармони.

2. Жим Ён Ким “Сиёсатчилар ўз ишини удалай олмаса, камбағал аҳоли энг кўп азият чекади”, “Foreign affairs” журналі, 2017.

3. Жим Ён Ким “Инсон капиталига инвестиция киритиш мамлакат рақобатбардошлигини оширади”, “Foreign affairs” журналі, 2017.

4. Бурунчук Л. Доклад регионального директора Всемирного банка на тему: «Инвестиции в будущее» в «Газета.uz», 2017.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA TA'LIM TURLARI

Axatova D. A., Axatova X. A.

Axatova Durdona Aktamovna

NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Axatova Xilola Aktamovna

NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

Davlatimiz intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bunda albatta ta'lim sohasidagi innovatsiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Buni 2020 yil 23 sentaybrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ham ko'rishimiz mumkin. Qonunda “Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan” [1; 20-6.] ligi ta'kidlanadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va o'quvchi va talabalarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarini biladigan, ulardan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilari pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni bilishi va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llashga o'rganishlari lozim.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e'tibor kuchayganining asosiy sabablari sifatida: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligi, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berishi, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyalar ichida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'rni va ahamiyati juda muhimdir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular shaxs rivojlanishini qandaydir buyurtma asosida shakllantirishga emas, aksincha uning(shaxsning) tabiiy qobiliyatlari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi [2; 14-6.].

Bu turdagi ta'lim bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Shuning uchun ham shaxsga yo'naltirilgan texnologiyani o'rganish va uning usullaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari o'qituvchi-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir [3; 8-6.]:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o'yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog'liq. O'quvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakllariga misol keltiramiz:

Musobaqa darsi- o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Ijod darsi- o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Shubha bildirish darsi- dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar notog'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi- o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.


Ilmiy-fantastika darsi- o'quvchilarning o'rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o'ylab topishlari mashqini o'tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi- dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishni ta'minlash darsi.

Ekskursiya darsi- bu darslarda o'quvchilarni turli ob'yektlar: muzey, ziyoratgoh, korxonalar, ustaxona, tabiat ob'ektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog'lash va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta'lim o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur.

Hozirda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlari mavjud :



Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchi ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan voz kechib, uni rag'batlantirishi, bajargan ishlarining foydali ekanini ta'kidlashi zarur. Maqsad o'quvchi-talabada avvaldan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish emas, balki uning o'z-o'zini anglashi, o'zligini namoyon etishi uchun imkon berishdir.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasida shaxs ta'lim jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Bunda o'quvchi-talabaning intellektual-psixologik rivojlanish darajasi, qobiliyati va sifatleri inobatga olinadi; o'quv faoliyatida ta'lim oluvchi bilimlarni mustaqil egallab, amalda qo'llashga o'rgatiladi.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O'quvchi-o'qituvchi hamda o'quvchi-o'quvchi hamkorligi ko'zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar, ularning mazmuni va mohiyati, turlari va amalga oshirish yo'llari haqida keng bilimga ega bo'lishi lozim. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya usullarini qo'llaganda bolalarning erkinligi, ijodkorligi, faolligiga keng sharoit yaratish kerak. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechishi lozim.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshirish uchun musobaqa darsi, ijod darsi, shubha bildirish darsi, ijodiy hisobotlar darsi, ilmiy-fantastika darsi va shu kabilardan samarali foydalanishi ta'limning yanada samaraliroq bo'lishiga olib beladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.– Т.: 2020 йил 23-сентябрь
Ш.Шодмонова. «Педагогик технологиялар» курси бўйича таълим технологияси.-Т.: 2010 й
И.Муслимов, М.Усмонбоева ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари.-Т., 2015 й
Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А.. Таълимда инновацион технологиялар.-Т., 2008

XALQARO BAHOLASH «PISA DASTURI» RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Abdushukurova Nazokat Abdug'affor qizi

Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti talabasi

Ta'lim jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgaralar boryaptimi, demak, ta'lim ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor.

YUNESKO 1988 yili o'zining mashhur qarori bilan XX asr pedagogik konsepsiyalarining shakllanishiga jiddiy hissa qo'shgan to'rt pedagogni alohida e'tirof etgan. Bular Djon Dg'yui, Georg Kershenshteyner, Maria Montessori va Anton Makarenkolar. Ular tomonidan ilgari surilgan ta'limning maqsad va vazifalari o'z davri uchun hamda aksariyat g'oyalar bugungi kun ta'limi uchun ham g'oyat dolzarbdir.

Hususan, A.Makarenkoning fikricha, ta'limning bosh maqsadi ta'lim oluvchilarning sifatlarini shakllantirishda aks etmog'i kerak. O'tmishdan hozirgi kungacha ta'limning bosh maqsadlari o'q tomir sifatida quyidagilar belgilanib kelingan: yoshlarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb etish, insoniyat madaniy merosini keyingi avlodga tizimli ravishda yetkazish, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiya qilish. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini yuksaltirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.[1;98\99-b]

Bugun mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring qilish xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi

xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. Shunga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi "2017-2018 o'quv yilida ta'lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to'g'risida"gi 299-sonli buyrug'ining 3-band 2-xatboshida: Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg'or xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.) ni o'rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralari ko'rish haqida aytib o'tilgan.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo'lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarimoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta'lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta'limning pedagogik asosi sanaladi. O'quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mayl va intilishlari bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir. [2;4/5-b]

Umuman aytganda, o'quv jarayonini takomillashtirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdir. Shunga ko'ra o'qituvchining faoliyatida qanday yangilik vujudga kelishi kerak? Avvalo, u materialni shunchaki bayon etmasligi va o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi, balki ularning fikrini o'rganiladigan obyektga jalb qilishi, undan muammo topishi yoki imkoni bo'lsa, o'quvchilarning o'zlarini mazkur obyektidagi muammoni mustaqil holda o'ylashga rag'batlantirishi, muammoli vaziyatni yaratib ularning diqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, ta'limdagi loqaydlikni bartaraf etishi, o'quvchilarga o'zlaricha mulohaza yuritib, zarur xulosalar va umumlashmalar chiqarishda yordam berishi, ularni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o'rgatishi, ya'ni u o'z tarbiyalanuvchilarini olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy dalillar va hodisalarga taqqoslash, shu asosda to'g'ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirishi kerak. Mana shularning hammasi ta'lim jarayoniga zamonaviy mazmun baxsh etadi.[3;91-b]

Bilim ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash o'quv jarayonini eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

a) bolalar tamonidan o'zlashtirilayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarini nazorat qilish;

b) bilimlarning sifatini aniqlash;

s) o'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash.

O'quvchilar bilimni baholashning asosiy maqsadi bilimni tekshirish orqali ulardagi nuqson va kamchiliklar sezilib, mazkur sabablar aniqlanadi, kamchiliklar bartaraf etish choralari belgilanadi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish xususiyatlari aniqlash imkonini beradi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish modeli va asosiy mezonlari belgilandi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish mazmuni, shakl va metodlari tavsiya etildi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish samaradorligi darajasi aniqlandi.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmuni, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.[4;4-b]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. -T.: «Fan va texnologiya», 2018y

2.Boltaeva Sh.T., Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. Monografiya, Navoiy 2012y

3.R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, N.X.Voxidova. Pedagogika.Darslik, Toshkent 2010y

4.B.U.Normo'minov. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda ta'lim sifati natijalarini baholash texnologiyasi. Samarqand 2015y

5.www.lex.uz

BOLANI KITOBGA MEHTINI OSHIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Baxronova Dilnavo Baxodirovna

Navoiy shahridagi 6- maktabning O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Kitob – inson tafakkurining kamoloti. Zero, tafakkuri, fikr doirasining keng, ma'rifatli kishilar jamiyatining chinakam boyligidir. Shu bois mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida ta'lim sohasi rivojiga oid ko'plab vazifalar belgilangan.

Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitob mahsulotlarni

nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risidagi 2017- yil 13- sentabr PQ-3271- sonli qarori bo'yicha "XXI asr bolalar kitobxonligini oshirish: muammo va vazifalar" bo'yicha ishlar olib borilmoqda hamda kitobga bo'lgan e'tibor yanada takaomillashib bormoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek: "Men shunga aminman: kitobsiz taqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q" "Bu borada bizning maktabimizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda olib borilayotgan targ'ibot ishlarini kitobxonlik mavzusidagi tadbirlar samarasi o'laroq, o'qituvchi va o'quvchilarning maktab kutubxonasidagi adabiyotlardan foydalanish faolligini oshiradi.

Oilada kitobxonlikni oshirish, bolalarda kitobga mehr uyg'otish uchun, avvalo, oila bilan hamkorlikda ish olib borish lozim. Chunki oila bola tarbiyasida boshlang'ich bilim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Qaysi oilada kitob o'qilmasa, u ma'nadan to'laqonli oila bo'lmaydi. P.A Pavlenko deb aytib o'tgan: "Bola kitob o'qish orqali dunyoni bilib oladi, uning dunyoqarashi o'sadi, xarakteri shakllanadi, hayotni o'rganadi, bilimi oshadi" Albatta, ota-onalar ham qisman bo'lsada pedagog bo'lishlari hamda bolalar uchun yozilgan asarlar bilan yaxshi tanish bo'lishi, ularni amalda qo'llay olishi zarur. Turk yozuvchisi Bilol Chivelekning "Do'stlik ham kitobga o'xshaydi, unda senga yoqmaydigan sahifalar bo'lishi tabiiy. Muhimi, senga yoqmaydigan sahifalarni, yirtmasdan, kitobni o'qishda davom etmoqdir." degan ibratomuz so'zlardan foydalansalar maqsadga muvofiqdir. Demak, avvalo ota-onalar bola tarbiyasiga doir bilimlar, farzandlarining o'qishga qiziqishlari qay ahvolda ekanligi kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari muhimdir.

Hozirgi vaqtda bolalar kitobxonligi yordamga muhtoj. Oilada eng birinchi bo'lib bola uchun kitobdagi rasmlarni birga tomosha qiladi. Bolani ertak eshitib quvonganini va hayratga qolishining guvohi bo'ladi. Bolaning onasi o'qib bergan ertakning qahramonlari uning sevimli insonlariga aylanadi. Bola

uchun kitoblarni ota –ona tanlaydi. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda farzandlarimiz ongi ham erta rivojlanib bormoqda. Bir yasharlik go`dakning ham uyali aloqa vositasini qulog`iga tutib, kattalarga qilayotgan taqlidiga nima deysiz? Kompyuterni otasidan yaxshi biladigan farzand yoki(ustozidan) o`qituvchilaridan ko`ra tez o`zlashtirib olayotgan maktab o`quvchisiga-chi? Ommaviy axborot vositalari, jumladan televideniye dasturlari ham bolalarimizni jalb qiluvchi omildir. Ulardagi chet mamlakatlardan kirib kelayotgan multfilmlar, turli reklamalarni bolalarimiz tez yodlab olyaptilar. E`tibor bering: “Mening qahramonim- Boburning onasi, chunki u har kuni “Chokko-tella” olib beradi”, degan rolik. Reklama yaxshi ishlangan. Yosh-u qari yaxshi ko`radi: o`qituvchi ayol chiroyli, bolalar yoqimtoy.

Demak, kim farzandiga shirinlik bersa, u qahramon ekan-da! Reklamani ko`rayotgan qanchadan –qancha bolalarimizning ongiga shu fikr singib bo`ldi...

Hozirgi kundagi kitobxonlikni oshirishdagi muammo bolalarni kitobxonlikka o`rgatishdan oldin, ota- onani kitobxonlikka o`rgatish, Ota –onalar bilan kitobxonlik kechalarini o`tkazishdir. Ota –onalar ishdan charchab toliqib kelganda , bolarning sho`xligidan nolishar, chora topish o`rniga bolarla tanbeh berishadi yoki boshqa xonaga chiqarib yuborishadi, Shunday holatda ota –onalar farzandiga yoshiga mos kitob sovg`a qilib o`zi ham biror kitobni olib birga o`tirib o`qib kitobxonlik vaqtini o`zkazsa muammolar hal ,ya`ni bola sho`xligi yo`qoladi .Kitobxonlikka ota- ona va bola yo`naltiriladi. Sukunatda kitob o`qish bilan xordiq chiqariladi

Mustaqilligimiz bizga juda ko`p ne`matlarni berdi. Milliy qadriyatlarimiz, tilimiz, ma`naviy merosimizni anglashni o`rgandik. Ilgari eng sara , qiziq kitoblarni qiynalib yurib topib o`qirdik. Hozir- chi? Yoshlarimiz badiiy kitob o`qiyaptimi? Vaholanki, bugungi kunda qaysi maktab kutubxonasiga kirmang, kitob do`konlarini aylanmang, kitoblarning yangidan –yangi nashriga ko`zingiz tushadi. Jildlari qalin, yaltiroq, sifatli qilib ishlangan kitoblarni ko`rib ko`zing quvnaydi. Maktab o`qituvchilari- ku mustaqil kitob o`qish, badiiy kitobning ahamiyati haqida o`quvchilarga ko`p ta`kidlaydilar. Lekin ota-onalarimiz ham shu narsaga e`tibor berishganda edi. Farzandingizning tug`ilgan kuniga turli kiyim- kechak, o`yinchoq emas, kitob sovg`a qilib ko`rganmisiz? Keling, biror marta shunday qilib ko`ring. Badiiy asar insonni katta hayotga tayyorlaydi. Oq-qorani ajratishni, qoqilmay yashashni o`rgatadi. Dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati, madaniyati, ma`naviyati shakllanadi. Farzandingizga kitob sovg`a qiling. Ana shunda siz chinakam Qahramon bo`lsiz chunki bolangiz bo`sh qolib, zararli o`yinlar emas, kitob o`qish bilan vaqtini o`tkazadi.Biz esa hech ikkilanmay” Boburning onasi emas, farzandiga kitob olib bergan ona qahramon” deymiz. Ma`naviyatli ota –onalar , insonlar farzandlari kelajakda yetuk, komil tafakkuri keng , vatanparvar ruhida tarbiyalanishlarini istasalar, kitob sovg`a qilishlarini tavsiya etardim . Nafaqat yosh avlodga kattalar , keksalar uchun ham kitobning roli beqiyosdir. Kitob o`qigan insonning ma`naviy boyligi keng , fikrlash doirasi ,dunyoqarashini o`zgartiradi, uning olamiga kirib ijobiy fikrga ega bo`ladi. Insonlar ikki xil ijobiy va salbiy. Salbiy xulqi yomon insonlar bilan gaplashganingizda ham undagi yaxshi xislatlarni ko`rasiz. Kitob ham shunday undagi yaxshi xislatlarni olgingiz keladi.Kitob bamisoli hayot, uni o`qisangiz, unga bolgan qiziqishingizni oshiradi, zero u kuch qudrat manbayidir unga tashna qalblar ko`payadi undan ruhiy poklik mujassam . Lekin hozirgi jamiyatda kitob o`qish o`zining madaniy ilmiy o`rnini yo`qotmoqda.kitob o`qish axborot olish manbaasiga aylanib qolmoqda.

Kitob o`qisangiz, shuncha oz bilim bilganingizni sezasiz ,uni mukammal bo`lishni istaysiz , intilasiz kitob o`qigan inson ma`nan, qalban boy insondir. Shaxsning ma`naviy shakllanishi doimo kitob orqali amalga oshiriladi. Kitob faqatgina axborot manbayi bo`libgina qolmay, u qalb dunyosi bo`lib ,kitob orqali olam va odam bilan muloqot qilish mumkin.

Buni hozirgi kunda o`quvchilar uchun foydalanilayotgan darsliklar va o`quv metodik qo`llanmalar bilan jahon adabiyoti va badiiy adabiyotlarni uzviy bog`liqligini tushuntirish dolzarb muammo bo`lib kelmoqda. Darskilarda chiqayotgan manbaalarini shu fan o`qituvchisi va o`vuchilaridan boshqa kech kim o`qimaydi. Jahon adabiyotlari va badiiy adabiyotlarni fanlarga qiyoslab solishtirib kitobini taqdimot qilsalar, kitoblarga bo`lgan mehr yanada oshadi. Bunga misol qilib jahon adabiyotiga yuzlansak (7- sinf darsligidagi Ernest Seton-Tomsonni bosib o`tgan yillarini va u o`zi sevib o`qimoqchi bo`lgan kitobini qay yo`l bilan bo`lsa ham qo`lga kiritish maqsadida mehnat qiladi, intiladi, izlanadi, bularni darliklarga bog`lasak Texnologiya fani, Boiligiya faniga Iqtisod bilim asoslari faniga bog`lash mumkin.

O`zek adabiyotining buyuk nomoyondasi Said Ahmadning “UfQ” romanidagi parcha ya`ni “Tursunboyning boshdan kechiran qiyinchiliklaridan qiynalib ketib o`zgarsa-da uning ko`zlari o`zgarmaydi” shuni Zoolologiya fanida aytib bolarani qiziqтира ,yoki bo`lmasa O`tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi asarida “shinni oqizib uning lavlagilari kalladay –kalladay bo`lgani ”Biologiya fanida aytib o`tsa va hokazo...

Hozirgi kundagi darsliklarda va bolalar adabiyotlarida yosh bolarga xos she'rlar, hikoyalar, ertaklar bolalar shoirlarining bola tilidan yozilgan haqchil asarlari kam uchramoqda. Biz sevib o'qigan Anvar Obidjon, Po'lat Mo'min, Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalarga xos haqqoniy asarlaridan foydalanilsa va undagi rangli suratlarining kamligi ustida ishlansa, jazzi kitobxonlarni fikrlashlari, tasavvur olami kengayib boradi. Darsliklardan foydalanuvchi fan o'qituvchilari badiiy adabiyotlar bilan dars davomida yoshlarga o'rgatsalar, hayotiy tarzda ma'lumot berib borsalar ishonarli dalil sifatida esda qolish ijobiy bo'lar edi. O'quvchilar bunday to'liq ma'lumot olish maqsadida maktab kutubxonalaridan, Axborot-resurs markazlaridan, internet tarmoqlaridan izlanib, foydalanishadi va kitobxon qatnovlar soni yanada ko'payadi. Fan o'qituvchilarning taqdimotiga asosan kitobxonda kitob mutolaasiga bo'lgan mehri yanada oshadi. Fan o'qituvchilarining yillik ish rejalariga mavzulariga qo'shimcha reja asosida kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kitobxonlikka talab kuchli bo'lsa-yu kutubxonalar talabiga javob bermansa- chi? Aytishadi-ku! "Bejirim kiyim ichida qanchalik xunuk inson bo'lmasin, unga odamlar baribir qaramaydi. Yoki aksi- juldur kiyim ichida qanchalik go'zal inson bo'lmasin odamlar qiyo boqmaydi". Bu bilan tashqi ko'rinish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'xshatishdan maqsad hozirgi kunda maktablardagi kutubxonalarning holati va joylashuvidagi muammolar uchrab turibdi.

Kutubxonalarning kitob fondiga boy bo'la turib, uning joylashish tartibi noo'rin bo'lsa foydalanuvchi kitobxon uchun noqulayliklarga olib keladi. Albatta bejizga "Kubxona Nurxona" deb aytimagan. Kutubxonalar hozirgi kungi talab darajasida jihozlangan axborot texnologiyalari bilan taminlangan bo'lsa, zamon talabiga javob bersa, bunday kutubxonalardan kelajak yosh avlod

,kitobxonlar ma'naviy bilim va ko'nikmalrga ega bo'ladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, kungil mulki hisoblangan kitobdan unumli foydalansak, uni kundalik hamrohimizga aylantirsak, jamiyatda, oilada kitobsevarlar safini kengaytirsak, oramizda hayotga muhabbat ko'zi bilan qarydigan, yaxshi-yomonni farqlay oladigan, Vatan uchun jonini fidi qilishga tayyor Vatanparvar, insonparvar, ma'naviyatli, marifatli bir so'z bilan aytganda komil insonlar safi yanada kengayadi.

Zero, biz duyodagi dong'i ketgan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur Al-Farg'oniy, Ibn Sino kabi buyuk zotlarning avlodlarimiz. Ularga munosib voris bolish bizning burchimizdir.

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Kuzieva Muxayyo Kudratovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti Buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash va monitoring bo'limida Yoshlar bilan ishlash bo'yich muxandis

Davlatimizda iqtidorli yoshlarga e'tibor ta'lim sohasidagi davlat siyosati darajasida ekanligi bejiz emas. Chunki, mazkur pedagogik muammo dunyoning turli mamakatlarida mazkur masalani tadqiq etishga, iqtidorli yoshlarni tanlash, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga doir o'ziga xos tajriba to'planganligini alohida qayd etib o'tish o'rinlidir. [1].

XX asr boshlarida Amerikada pedagogik-psixologik adabiyotlarda odatdagi tarbiyalanuvchilardan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladigan bolalar turli nomlar bilan atalgan. Psixologiya fanlari doktori G. Uilli yuksak qobiliyatlarga ega bolalar uchun "iqtidorli bolalar" atamasini qo'llashni taklif etgan. Adabiyotlar tahlili Amerikada iqtidorli bolalarni yuqori intellekt va a'lo darajada o'zlashtiruvchilar deb hisoblashganligini ko'rsatadi.

Yevropa davlatlaridan biri – Germaniyada ham iqtidorli yoshlar bilan ishlashda o'ziga xos tajriba to'plangan. Germaniyada iqtidorli yoshlarni aniqlash maxsus metodikalar yordamida

10 – 12 yoshda amalga oshiriladi. Mazkur davlatda iqtidorli yoshlar uchun alohida ixtisoslashtirilgan gimnaziyalarni tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Berlindagi "Anna-Lindh-Schule"da 80 nafar "Yevropa iqtisodining kelajagi" tahsil oladi. [4]. 1988 yilda Germaniyada iqtidorli yoshlar uchun "Nemis maktab akademiyasi" (Deutsche Schuler Akademie) yozgi dasturi ishlab chiqilgan. Har yili mazkur dasturda Germaniyaning turli hududlaridan 90 nafar yuqori iqtidorga ega yoshlar jalb etiladi. 16 kun davomida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida ular bittadan oltitagacha akademik fanlar bilan shug'ullanishadi. Masalan, 2009 yilda mazkur dastur doirasida yoshlarga "Giperbolik geometriya", "Molekulyar genetika", "Biologiya va yuqumli kasalliklar sotsiologiyasi", "Nevrologiya", "Jamiyatda avlodlar o'zaro munosabatlari muammosi", "Kinofilmlarda musiqa" kabi o'quv kurslari tashkil etilgan.

Akademiyaning bosh maqsadi bolalarning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun intellektual atmeosferani yaratish hamda yuqori intellekt va motivatsiyaga ega tengdoshlari bilan o'zaro muloqotni tashkil etishdan iborat. [4].

2000 yilda Frankfurtda alohida iste'dod va qobiliyatli bolalar, ota-onalari, o'qituvchilar va yoshlarga yordam berish maqsadida iqtidorli bolalar uchun Markaz (Hochbegabtenzentrum der Stadt Frankfurt am Main) ochildi. Markazning maqsadiga iqtidorlilikni tashxis etish usullari va natijalari, bolalarni rivojlantirish imkoniyatlari, boshqa muassasalar bilan aloqalar to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish; ota-onalar uchun bolalar iqtidorliligi bo'yicha ochiq ma'ruzalar va seminarlar tashkil etish; o'quv va o'quv jarayonidan tashqarida iqtidorli bolalar va o'smirlar uchun tadbirlar, kurslar tashkil etish; maktab o'qituvchilariga maslahatlar berish; pedagog va ota-onalar uchun maxsus adabiyotlar taqdim etish kabilar kiradi.

Buyuk Britaniyada ham iqtidorli yoshlar bilan ishlashga doir katta amaliy tajriba to'plangan. Mazkur jarayonga Buyuk Britaniya ta'lim vazirligi, ko'plab universitetlar, kollejlilar va jamoatchilik tashkilotlari faol ishtirok etishadi. Mamlakatda iqtidorli yoshlarga yordam ko'rsatish Milliy Assosiativasi faoliyat yuritadi, 1982 yildan "Xalqaro iqtidorlilar ta'limi" (Gifted Educational International) maxsus jurnali nashr ettirib kelinadi. [2].

Angliya pedagogikasida ijodiy iqtidorlilikka alohida e'tibor qaratiladi. Britaniyalik mutaxassislar fikricha, "ijod (kreativlik) – iqtidorlilikning eng muhim unsuri hisoblanadi va iqtidorlilikning barcha turlari ijodiy komponentdan alohida qaralishi mumkin emas" [5; 212-b].

Angliya maktablarida ta'limni tabaqalashtirishning ikkita – ichki va tashqi turi mavjud. Ular o'zaro uyg'unlikda o'quv jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [3; 6-b]. Tashqi tabaqalash-tirish o'quv jarayonini tashkil etishning xilma-xil maxsus shakllarida o'z aksini topadi: test va suhbat asosida qobiliyatlarini darajasi bo'yicha yoshlarni yo'nalishga taqsimlash; ta'limning ma'lum bir bosqichida yoshlarni qobiliyati va qiziqishlariga ko'ra guruhlarga taqsimlash; "aralash" qobiliyatli guruhlarda o'qitish va hk.

Rossiyada ham iqtidorli yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor qaratiladi. 2000 yilda mazkur davlat hukumati tomonidan "Iqtidorli bolalar" dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi iqtidorli, iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, mamlakatning intellektual, ijodiy quvvatlarini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni tanlov asosida aniqlash mexanizmlarini vujudga keltirish nazarda tutilgan.

Xitoyda iqtidorli yoshlar qoidaga muvofiq ta'limning keyingi bosqichlarini davom ettirishda turli imtiyozlar – davlat stipendiyalari, ishlab chiqarish korxonlari va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Xitoyda iqtidorli yoshlar uchun maxsus maktablar mavjud emas, biroq universitetlar qoshida ochilgan o'rta maktablarning imkoniyalaridan samarali foydalaniladi. Har bir universitet qoshida kadrlar va yuqori darajada ta'lim berishni ta'minlaydigan maktablar mavjud. [4].

Koreya Respublikasida ham iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning asosiy yo'nalishi sifatida maxsus maktablarni yaratish va qo'shimcha ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtidorli bolalar uchun Busan shahrida "super maktab" tashkil etilgan. Maktab "Busan Fan akademiyasi" ("Bussan Science Academy"), 2006 yildan "Koreya Fan Akademiyasi" ("Korean Science Academy") nomini olgan. Mazkur maktab Xitoydagi "super maktablar"dan tubdan farq qiladi. Eng avvalo, u universitetdagi qat'iy tartib-qoidalarini o'zida aks ettirmaydi, biroq o'z-o'zidan "bolalar universiteti" funksiyasini bajaradi. Maktabda iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishga doir metodlar ishlab chiqilgan. Maktabda butun jahonda iqtidorli yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish bilan shug'ullanadigan "Iqtidor ta'limi va taraqqiyot" (Institute For Gifted Education & Promotion) instituti faoliyat yuritadi. Institut o'qituvchilarni tayyorlashga doir AQSh, Isroil, Rossiya va Singapurda xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshiradi. Institut xodimlari Busan shahridagi iqtidorli yoshlar bilan ishlaydigan barcha o'qituvchilarning malakasini oshirish bilan ham shug'ullanadi. Barcha kurslarning natijalari muntazam tahlil etib boriladi va qo'llanma sifatida nashr ettiriladi. Barcha o'qituvchilar refleksiv tanlovda ishtirok etishadi. Kurslarning samaradorligi asosida o'qituvchilarning refleksiv imkoniyatlari baholanadi. [5].

Yuqoridagi tahlillardan shularni e'tirof etish mumkinki, mamlakatimizdagi iqtidorli yoshlarning intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kjangimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.
2. Габдулхаков В. Ф. Одаренность и ее развитие в условиях взаимодействия общеобразовательной школы и университета. Учебно-метод. пособие. – Казань: РИЦ «Школа», 2012. – С. 64 –65, 87–88.
3. Образовательные модели и технологии работы с одаренными детьми. / Сост. Башева Е. И. и др. – Красноярск: ККИПКППРО, 2011. – С. 6, 12.
4. Рахматова Ф. Иктидорли ўқувчилар билан ишлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед.фан.б/ча (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. СамДУ . 2020 й. 170 б.

ANDROGOGIKANI –KATTALAR TA'LIM OLISHINING ASOSIY NAZARIYALARI.

Mamatov Dilmurad Normurodovich

Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarini atestasiyadan o'tkazish bo'limi boshlig'i


Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(Phd), dosent

e-mail: mamatovdil@mail.ru

Androgogika - bu kattalarni o'qitish va tarbiyalash amaliyoti. Kattalar ta'limi ish joylarida, "kengaytirilgan" yoki "uzluksiz ta'lim " kurslari orqali o'rta maktablar , kollejlar yoki universitetlarda maqsadga muvofiq muhitda amalga oshirilishi mumkin. Amaliyot ko'pincha "Ta'lim va taraqqiyot" deb nomlanadi va ko'pincha ishchi kuchi yoki malakasini oshirish bilan bog'liq. Boshqa tomondan, kattalar ta'limi, asosan, malakasini oshirish uchun ish joyiga asoslangan kasb-hunar ta'limi bilan farq qilishi mumkin. Ta'limning ushbu shakli norasmiy bo'lishi mumkin, bu ta'lim qobiliyatlariga yoki shaxsiy rivojlanish uchun o'rganishga qaratilgan. Androgogika-ushbu nazariya doirasida kattalar o'zlarining hayotiy tajribalari va bilimlari asoslaridan foydalanib, ta'limning qadr-qimmatini anglash uchun avtonom va o'zlarini boshqaradiganlar sifatida qaraydilar.

Kattalar ta'limining ikkala qarashlari ham to'g'ri va shaxsning bevosita ehtiyojlariga asoslanadi. Kattalar uchun ta'limning ikkala shakli ham tegishli shaxslar uchun aniq ko'nikmalar va mashg'ulotlarni taklif etadi. Ularning orasidagi farq mohiyatan o'qitish uslubining rasmiyatchiligidadir. Biri rasmiy ta'limga ko'proq e'tibor beradigan bo'lsa (auditoriya, web-sayt, seminar-oflayn o'qish), ikkinchisi norasmiy ta'lim usullariga e'tibor beradi (forumda qatnashish, jamoat klubida qatnashish-onlayn o'qish). Shuni ta'kidlash kerakki, kattalarga ta'lim berish usullari orqali xalq ta'limi rivojlandi. Xalq ta'limi siyosat va pedagogika o'rtasida chorrahada bo'lib, ma'rifatparvarlikning demokratik idealiga qattiq ishonadi. Xalq ta'limi individual va jamoaviy ozodlikning asosiy vositasi va shu tariqa ta'lim samaradorligini oshirishda zarur shart-sharoitlari sifatida qaraladi. Ijtimoiy adolat texnikasi sifatida xalq ta'limi muvaffaqiyati uchun juda muhim, bu aloqalarni o'rnatish va bir-birlarini tajribalarini hurmat qilishdir. Garchi ko'p odamlar ommaviy ta'limni radikallar va ekstremal faoliyatning ishi deb bilsalar ham, bunday emas. Ommaviy ta'lim, amaliyotni xabardor qilish uchun, asosan, davolovchi doiralar, san'at turlari, jamoaviy, an'anaviy muqaddas bilimlarni almashishning usullariga tayanadi. Ishtirokchilar o'zlarining o'ziga xos kuchli tomonlarini va tajribasini ko'tarib, jamiyat uchun bebaho boylik sifatida qaraladilar. Ommaviy ta'lim - bu faol tinglash, haqiqiy til, jamoat tajribasi va mahalliy yo'nalish orqali hamkorlik qilish harakati. Kattalar ta'limi kattalarni o'rganish va ommabop ta'lim nazariyasi asosan amalga oshirilgan ish atrofida yaratilgan fikr maktablaridan kelib chiqadi.

Malkolm Noulz 1913- 1997 yillar




Malkolm Noulz kattalar ta'limining asoschisi deb hisoblanadi. Noulzning asl tadqiqotlari va yozuvlari kattalar o'quvchilari va o'n sakkiz yoshga to'lmagan o'quvchilar o'rtasida sezilarli, aniqlanadigan farqlar mavjudligidan kelib chiqqan. Noulzning fikriga ko'ra, farqlar kattalar o'zini o'zi boshqarishi, tajriba repertuariga ega bo'lishi va darhol qo'llanilishi mumkin bo'lgan mavzuni o'rganishga intilishi bilan bog'liq. Ushbu o'rganish "uning ijtimoiy rolining rivojlanish vazifalari bilan chambarchas bog'liq", shuning uchun darhol qo'llanilishi mumkin bo'lgan tegishli ko'nikmalarni shakllantiradi:

1. O'z-o'zini anglash tushunchasi: Inson etuklashganda, u qaramlikdan o'zini o'zi boshqarishga o'tadi.
2. Tajriba: Kattalar o'zlarining bilimlarini oshirish uchun o'z tajribalaridan foydalanadilar.
3. O'rganishga tayyorlik: kattalarning o'rganishga tayyorligi yangi ijtimoiy rollarni egallash bilan chambarchas bog'liq.
4. Yo'nalish: Inson yangi bilimlarni o'rganayotganda, uni darhol muammolarni hal qilishda qo'llashni xohlaydi
5. Motivatsiya: Inson kamolotga erishganida, u ichki omillardan o'rganish motivatsiyasini oladi.

Noulz nazariyasi asosan o'rganuvchining hozirgi hayotiy holatidan kelib chiqib o'rganishni xohlash istagiga asoslangan. "Etuk o'rganish" ga yo'naltirilgan ushbu nazariya kattalar o'rganuvchilarining xususiyatlariga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, Andragogika ta'limni loyihalashtirishda quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Kattalar nima uchun nimanidir o'rganayotganligini bilishlari kerak.
2. Kattalar asosan amaliyot orqali o'rganishi.
3. Kattalar muammolarni hal qilishadi.
4. Kattalar, mavzu darhol foydalanilganda yaxshi o'rganadilar

Paulo Freire 1921- 1997 yillar



Paulo Freyrening ijtimoiy adolat va o'zini o'zi kuchaytirishga bo'lgan ishtiyoqi uni o'sha paytdagi kattalar ta'limi nima ekanligini qayta tasavvur qilishga undadi.

Paulo tanqidiy pedagogika deb atagan "talabalar erkinlik ongini rivojlantirish, avtoritar tendentsiyalarni tan olish, bilimlarni kuch va konstruktiv harakatlar qilish qobiliyati bilan bog'lashga yordam berish uchun" psixologik xissiyot va tamoyilga asoslangan ta'lim harakati"ni yaratdi. Freyraning pedagogikasi zulmga qarshi amaliyotga asoslangan bo'lib, ular hozirgi zolim institutlarga qarshi chiqish uchun mo'ljallangan edi. Freire ushbu o'quvchilarga o'zlarining tajribalarini da'vo qilishlari va aytib berishlari, ijtimoiy tarix sodir bo'lgan odamlar bo'lishni to'xtatishlari va ongli ravishda yashab, o'zlarining tarixlarini yaratishda ishtirok etgan insonlar bo'lishlariga yordam berishga intildi. Uning amaliyotida asosiy narsa haqiqiy so'zlardan foydalanish edi, Freire atrofdagi so'zlarni o'z so'zlari bilan emas, balki ilmiy tomonidan berilgan so'zlarni ta'riflashlarini talab qildi. Freire o'qituvchilar har kimning boshqalarga o'rgatish uchun qimmatli narsaga ega ekanligini anglab, o'quvchilarning tajribasi va madaniyatini sharaflashi muhimligini ta'kidladi. Quyida Freire tomonidan yaratilgan xalq ta'limining beshta asosiy tentensi keltirilgan. Paulo Freyrening xalq ta'limi bo'yicha 5 ta fikri:

1. Muloqot hurmatni o'z ichiga oladi. Hech kim boshqasiga ta'sir qilmaydi, lekin bir-biri bilan odamlar ishlaydilar.

2. Axborotli harakat. Dialog - bu odamlarni adolat va insoniyatning gullab-yashnashiga yordam beradigan harakatlarni olib boradigan jamoatchilikni kengaytirish va ijtimoiy kapitalni yaratish maqsadidagi hurmatni o'z ichiga olgan kooperativ faoliyatdir.

3. Dunyoga nom berish (vijdonlashtirish), ongni rivojlantirish, ong o'zgarishga qodir.

4. Tajriba, o'qituvchilarga amaliyotga yaqinlashishning yangi usullari to'g'risida ma'lumot beradi.

5. Sinfni yo'q qilish. Hurmat va haqiqiy suhbatni kuchaytiradigan o'quv muhitini yaratish uchun o'qituvchilar o'rtasidagi ierarxik aloqalar tugatilishi kerak. Freyrening xalq ta'limi ijtimoiy adolat va zulmga qarshi amaliyotga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O' M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva "Androgogika" o'quv qo'llanma. Namangan. 2014 yil

2. A.X. Абдуллаев, Н.С. Рахимов, М.О. Хадаев "Катта ёшдаги аҳолини ўқитиш марказига: қадам-бақадам" Услубий қўлланмаси, Тошкент, 2013 йил.

3. "Andragogika" Milan Benešyan, 2008 Grada Publishing a.s.

4. В.И.Подобеда, А.Е.Марона «Современные адаптивные системы и технологии образования взрослых»

MEHNAT BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH BANDLIKNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDA

Rahmonov Xurshid Xayriddinovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti Buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash va monitoring bo'limida 1-toifali iqtisodchi

Har qanday jamiyatning iqtisodiy asosini yaratuvchi kuch – bu ishchi kuchidir. Hozirgi sharoitda ishchi kuchini har tomonlama tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Jamiyatdagi barcha moddiy va ma'naviy ne'matlar shu jamiyatda mavjud bo'lgan ishchi kuchlari orqali yaratiladi. Inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Ijtimoiy hayot esa juda murakkabdir. Inson jamiyatda yashar ekan, o'ziga xos va o'ziga ma'qul bo'ladigan turmush tarzini yaratadi. U o'z hayotini davom ettirish uchun oziq-ovqat topishi, uy-joy qurishi, kiyim-kechak bilan taominlanishi va atrof- muhitning noqulay ta'sirlaridan himoyalaniishi kerak. Buning uchun u o'ziga kerakli bo'lgan narsalarni tabiatdan qidiradi va topgan materiallaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanadi. Bunday jarayon davomida inson tomonidan jamiyatning boshqa a'zolari ehtiyojlarini ham qondirish uchun zarur bo'ladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratish sohasidagi maqsadga muvofiq faoliyati, ya'ni mehnat amalga oshiriladi. Bugungi kunda mehnat va bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishga bo'lgan intilish yanada rivojlanmoqda va u iqtisodiyotda juda muhim ahamiyatga ega [2].

O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishda mehnat to'g'risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o'zgartirib, jamiyat faoliyati rivojining mutlaqo yangi asoslari ishlab chiqilishini taqozo etadi. Mehnat tushunchasi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, u muntazam ravishda tadqiq etish va aniqlashni talab qiladigan ko'p qirrali tushunchadir. Demak, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashish mumkin.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mehnat munosabatlarining mazmuni va xarakterida ham tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mulk shakllarining xilma-xilligini vujudga keltirdi, mehnat yollanadigan bo'lib, ishchi kuchi tovarga aylandi.

Shu bilan birgalikda ishchi kuchining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, ulardan iqtisodiyotning turli tarmoqlarida unumli foydalanish, ularning kasbiy va texnikaviy bilim darajasini zamon talablariga moslashtirish hozirgi davrdagi eng muhim masalalardan biridir [3].

Aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish maqsadida mehnat bozorida haqiqiy holatni respublikamiz mintaqalari kesimida chuqur tahlil qilish asosida aholi bandligini taominlash bo'yicha hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish

bo'yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish bo'yicha aniq tizim asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Men hududlarga tashrif buyurganimda odamlar bilan ko'proq muloqot qilishga harakat qilaman. Hayron qolasiz, joylarda oddiy quruvchi, tarkorchiy yoki mexanizator yo'q. Ishning ko'zini biladigan yer tuzuvchi yoki suvchi topish amrimahol. Qani, kasb tarbiyasi? Qani, mehnat bozorini o'rganish? Afsuski, hech kim bu masala bilan jiddiy shug'ullanmayapti"³⁶ [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlardan ko'zda tutilgan bosh maqsad – inson manfaatlarini ekanligini bugun xalqimiz va jahon jamoatchiligi yana bir bor e'tirof etdi.

Bu esa mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashni, ishsizlikni kamaytirishni taqozo etadi. Ularni ijobiy hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi.

Hozir mamlakat mehnat resurslarining ish bilan band bo'lmagan qismi ko'rsatkichi asta-sekin o'sib borish an'anasiga – tendensiyasiga ega. Bunday holat sanoat mehnatining tor doirada qo'llanilishi, yangi ish joylarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining yetarli emasligi, mehnat resurslari sonining ish joylari miqdoriga nisbatan tezroq o'sishi, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida mutanosiblikning mavjud emasligi, mahalliy kadrlar malakasi va raqobat qobiliyatining pastligi va ularning ish axtarish harakatlarining sustligi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga yangi yerlar o'zlashtirilishining kamayishi, intensiv texnologiya va kam mehnat talab qiladigan texnikaning yuqori unumsiz qo'llanilishi, xo'jalik yuritish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning yangi bozor usullaridan samarasiz foydalanilishi, kichik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining past darajasi, ish bilan band bo'lganlar moddiy manfaatdorligining pasayishi va inflyatsiya jarayonlari kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Holbuki, sanab o'tilgan omillar - bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining muqarrar belgilaridir.

Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. Bu, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi uzviy aloqalar va ziddiyatlarni, ular hamkorligining samaradorlik mezonlarini aniqlashga, qishloq mehnatkashlari kasb malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashga hamda jonli mehnat resurslarini «ortiqcha» va ish joylari «taqchil» sharoitlarda ishchi kuchiga talab va taklifni makroiqtisodiy tartibga solishga, pirovardida iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqishga samarali imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 9.12.2018 y.
2. Abdurahmonov Q.X., Murtazoyev B. "Mehnat bozori" o'quv qo'llanma. T: TDIU. 2016 yil.
3. Буланова Б.С. Волгина Н.А. «Рынок труда». Москва. Экзамен. 2017 г.

РОЛЬ МАХАЛЛЫ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Болтаева Фарангис Толибовна,

*Она студентка 2-курса Бухарского Государственного университета факультет
дошкольного и начального образования.*

В древности махалля (от арабского слова «местность») формировалась из объединения крупных патриархальных семей (по Авесте «нмана») (1.2010. 11) и составляла социально – экономическую основу общества. В системе управления зороастризма она (по Авесте «вис») (1.2010. 11) была основой развития родоплеменных отношений в обществе. Высший орган «вис» была «собрание народа» (по Авесте «ханжамана») (2.1989. 11-17) которую возглавлял глава рода (по Авесте «виспати») (1.2010. 11). В средние века в эволюции махаллы прослеживается феодальная – теократическая тенденция развития. Из налогооблагаемых доходных земель создаётся новые единицы феодальных общин. Для централизованного управления этих общин в крупных общинах создавали «минбари» (сборные мечети пятничных молитв) (3.1991.84-86).

Система образования махаллы в городах средневековья Средней Азии был связан с образованием разных ремесленных кварталов. В Бухаре, как и в других древних городах Узбекистана до наших дней существует кварталы «телпакдузов-шапошников», «темирчи-кузнецов», «кулол-гончаров», «бофанда-ткачей» и т.д. До Октябрьского переворота 1917 года развития махаллы был непрерывным. Она обеспечивала социально-экономическую и культурную развитию народов Средней Азии. Махалля была фактором устойчивости в эпоху феодальных междоусобных войн.

В советское время махалля был заменен системой местных советов. Местные советы на основе идеи марксизма отвергали многовековые традиции самоуправления народа на местах. Они были своего рода «справочное бюро» для партийных органов и силовых структур государства. Через них был создан крупная коррупционная система непосредственного ограбления народа. В результате идеологического и бюрократического давления махалля окончательно потеряла свою общественную сущность самоуправления.

В годы независимости в Узбекистане на основе традиционных народных ценностей была создана система самоуправления махалля и их деятельность законодательно обосновано в 11-статье Конституции Республики Узбекистан. Для управления махалля на местах были сформированы центры Гражданского собрания. 1993 год была создана правовая основа системы местного самоуправления и благотворительный фонд «Махалля». В 2012 год в Узбекистане функционировал 1449 местных Гражданских собраний. Глава местного самоуправления избирается из местных граждан с 21 год на 2,5 года. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана прослеживается в следующих направлениях:

Церемониальная функция. Все церемониальные акты (праздник малыша, обрезание, мулжал - 12 летие, свадьба, хашар - взаимопомощь, гап-гаштак - малчишник, поминальные мероприятия) в жизни человека с детской колыбели до последних дней обязательно происходит в большом круге махаллы.

Все функции махаллы тесно взаимосвязаны и охватывает все сферы жизни членов данной местности. Махалля связующая звено между школой и родителями.

Особенна роль махаллы в воспитании молодежи в духе гуманизма, патриотизма, в сфере уважения старших, бережное отношение к детям и родителям, товарищества и взаимовыручки. Воспитания молодежи в махалле основывается на взаимодействии и взаимопомощи в вопросах формирования личности семьи и местных жителей определенного пункта. Система воспитания в махалле включает в себе все сферы деятельности и воспитания человека. Она прослеживается в умственной, нравственной, физической, эстетической, трудовой, экологической, правовой и экономической воспитании нового поколения детей махаллы. Умственно развитая, нравственно чистая и физически здоровая молодежь – это основной цель воспитания махаллы в современном Узбекистане. Эти направления воспитания имеет глубокие корни просветительского и практического характера.

В городах средневековья ребенка с детства (6 – 7 лет) отдавали мастеру определенного направления. В свою очередь мастер был членом

«цеховой управления» данного направления. В итоге ребенок с малых лет попадал в атмосферу общественного влияния группу людей данной профессии. Его мировоззрение формировался под контролем «цеховой воспитании». На Востоке это называется системой «устоз – шогирд» или система «мастер - подмастерья» на Западе. Все мероприятия связанных с ростом ребенка в профессиональной иерархии проводился непосредственно с участием жителей махаллы. Обычно к 16 – 18 лет юноша становился мастером своего направления и имел право голоса в махалльнских собраниях. В динамике роста «ребенок – юноша – взрослый человек» путем трудового обучения и воспитания в махалле сыграла основную роль.

В XX веке отрицание многовековых традиций воспитания в махалле, раскрепощение и политизация народа привели к отчуждению друг к другу внутри махаллы. Был нанесен большой урон на межличностных отношениях внутри махаллы. В этот период с процессами общенародного объединения в борьбе за светлую жизнь параллельно прослеживается рост политиканства, доноительства, взятки - подкупа, воровства и индивидуализма в сфере жизни махаллы. В итоге это привело застою и распаду общественного строя того периода.

В современном мире, в эпоху глобализации воспитания в махалле можно проследить новые черты влияния. Без преувеличения можно сказать, что некоторые влиятельные круги фундаменталистов через огромный поток информации и влиянием высокотехнологических СМИ

формирует сознание молодежи в нужном для себе направлении. На основе фальсификации истории, «восстановление истинного Ислама» под «маской демократии» фундаменталисты и псевдо либералы в начале разъединяет народ махаллы на своих и чужих, потом дезорганизует населения именно этой местности.

В этих непростых условиях воспитания и учебы роль махаллы в формирование мировоззрения нового поколения имеет особенную ценность профилактического характера. Где нет такого влияния, там молодежь попадает под пресс «чужой воли» радикальных направлений. Воспитание в махалле с участием школы и семьи охраняет молодежь от таких отрицательных влияний чужой воли. Только систематическая и интересная работа с молодыми людьми, трудоустройства и создания возможности жизнеобеспечения их в махалле приводит к результатам положительного характера в этом направлении.

Литература

1. Узбекистон тарихи (История Узбекистана). –Тошкент.: Давр Пресс, 2010.

2. Гафуров Б.Г. Таджики. –Душанбе: Дониш, 1989.

O‘QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Diyor Sunnatovich Tursunov

Jizzax davlat pedagogika instituti,

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

diyor-tursunov@mail.ru

Bugungi yoshlarning tafakkur salohiyati yaqin o‘tmish avlodning fikrlash tarzidan serqatlamligi, dunyoviylashgani bilan ajralib turadi. O‘zbekiston mamlakati rivojlanib, jahon xalqlari bilan turli sohalarida aloqalar kuchayib borishi natijasida tashqi tomondan kirib kelayotgan ma‘naviy-mafkuraviy xurujlar soni ham tobora ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi minbarida turib: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarimiz o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virus”i tarqalishining oldini olishdir”, [1]- deya aytgan ezgu gaplari mazmunidan yosh avlodning mustaqil tafakkurini, analitik fikr yuritish layoqatini rivojlantirish biror mamlakatning xususiy tashvishi bo‘lmay, dunyo xalqlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ekani anglashiladi.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta‘lim tizimi oldiga qo‘yayotgan talablar bilan bog‘liqlikda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta‘lim mazmuni va metodlarini o‘zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko‘rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko‘plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o‘zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma‘lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan.

Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma‘nolarini bildiradi) – sub‘ektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub‘ektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [2].

N.M.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi [3].

N.V.Tarasova “kompetensiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta‘minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat» sifatida talqin etadi [4]. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma‘lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo’lgan o’quvchining avvaldan belgilangan ta’limiy tayyorgarligiga qo’yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar)dan ham o’zib ketishidir. Shu bilan bir qatorda kompetensiyaviy yondashuvda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) – “Bilim – Ko’nikma – Malaka”ni olti birlik (sikstet) “Bilim – Ko’nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik” tarzida tahlil etish talab etiladi [5].

Tarixiy tafakkurni rivojlantirish muammosini tadqiq etgan pedagog olim B.X.Xodjayeov tadqiqot ob’ekti bilan bog’liqlikda motivatsion-kognitiv, informatsion; kommunikativ, g’oyaviy-mafkuraviy, fuqarolikka doir, ma’naviy-axloqiy, akmeologik, aksiologik, estetik kompetensiyalar tizimini aniqlashtirgan [6].

Guruhiy munozara orqali o’quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini ko’rib chiqish mumkin.

Guruhiy munozara.

Maqsad: Internet tarmog’idagi suhbat jarayonida hamsuhbatining qadriyatga yo’naltirilgan fikrlarini aniqlashtirish.

Guruhiy munozarani tashkil etish uchun savol va topshiriqlar -jadvalda keltirilgan:

1-jadval

“Internet tarmog’ida notanish suhbatdosh shaxsini baholash” mavzusi bo’yicha guruhiy munozarani tashkil etish

O’quvchilarga topshiriq	Munozara uchun savollar
Sizning vazifangiz Internet tarmog’idagi suhbatdoshga tavsif berish. Baholash mezonlari va ko’rsatkichlarini taklif eting.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sizning suhbatdoshingizga bahoingiz uning savodxonlik darajasiga bog’liqmi? 2. Suhbatdosh shaxsini baholash uchun umumiy mezonlarni taklif etish mumkinmi? 3. Internet tarmog’idagi faoliyati bilan bog’liqlikda istisno tariqasida shaxsga ishonchli baho berish mumkinmi? 4. Suhbatdosh shaxsini baholashning qaysi mezonlari Siz uchun ko’proq muhim? 5. Suhbatdosh bilan dialog orqali uning tarixiy-madaniy merosga munosabati va fuqarolik pozitsiyasini aniqlash mumkinmi?

Amaliy tavsifdagi savollarni mustaqil o’rganib bo’lishganidan so’ng, o’quvchilar guruhiy munozara jarayonida o’zlarining taassurotlari va o’z nuqtai nazarini isbotlashga doir dalillar va misollarni boshqalar bilan o’rtoqlashishadi. O’qituvchi o’quvchilarga munozara qoidalarini eslatib turadi, fikrlarni bayon etish jarayoniga bosqichma-bosqichma tuzatishlar kiritib boradi, bir savoldan ikkinchi savolga o’tishni amalga oshiradi, oraliq xulosalarga kelinishini ta’minlaydi.

Munozara jarayonida guruh reflektiv savollarga javob beradi va umumiy yakuniy xulosaga kelishadi.

Munozara yakuni sifatida o’quvchilarga Internet tarmog’idagi axborotlar bilan ishlash, shuningdek, mazkur ishni bajarish jarayonida faol reflektiv nuqtai nazarni aniqlashga yo’naltirilgan “Afsona emas muammolar” topshirig’ini bajarishni taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqi, 2017 yil 19 sentabr.

Pedagogicheskiy slovar / Pod red. V.I.Zagvyazinskogo, A.F.Zakirovov. – M.: «Akademiya», 2008. – S.41.

Muslimov N.A. Kasb ta’limi o’qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: O’MKHTTKMOQTI, 2007. – B.130.

Tarasova N.V. Mirovoy opyt realizatsii kompetentnostnogo podxoda v professionalnom obrazovanii// Sredneye professionalnoye obrazovaniye. – 2007. – №2. – S. 36.

Xodjayeov B.X Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 84 b.

Xodjayeov B.X. Umumta’lim maktablari o’quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – B.92-94.

YOSH AVLODNI MA'NAVIY- AXLOQIY VA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G.Kushakova

A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası v/d

D.Toshtemirova , Z.Erkinova

2-kurs magistratura yo'nalishi talabasi

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Mamlakatimizda yashab ijod qilib o'tgan ota-bobolarimiz barkamol avlodni tarbiyalashda, ularni ma'rifatli - madaniyatli qilishda katta ishlarni olib borganlar. Buning asosida esa xalqimiz milliy mafkurasining jahonda yuksakligi biz yosh avlod uchun namuna bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kundanoq xukumatimiz, jumladan, I.A.Karimov tomonidan o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga jiddiy yondashila boshladi. U yoshlar tarbiyasida ahloqiy mezonlar asosiy omil ekanligini bir necha bor ta'kidlab: «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi», - degan edi. Demak, jamiyatda yosh avlodni tarbiyalash, ularni axloqan yetuk, barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Har bir ulug' donishmand bobolarimizning hozirgacha yetib kelgan tarixiy asarlari va dono fikrlariga murojaat etar ekanmiz, albatta ushbu asarlarning asosi ma'rifat-madaniyatga yo'naltirilganligiga ishonch hosil qilib, ularning bu ishlari jahonshumul kashfiyotlarni yaratish bilan yakunlanganligining guvohi bo'lamiz.

Har tomonlama yetuk komil insonni shakllantirishda milliy qadriyat tarbiyasining o'rni o'ziga xosdir. Estetik tarbiya va qadriyatlar ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi.

Umuman olganda qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli, ob'ekt-sub'ekt munosabati natijasida yuzaga chiqadigan hodisalar majmuasidan iborat bo'lib, qadriyat tushunchasi kishilarning turli sohadagi turmush zarurati asosida avvalo ishlab chiqarish, turli mehnat yo'nalishlari sohalaridagi faoliyat uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'ngra asta – sekin sub'ekt faolligining orta borishi bilan nisbatan mustaqil soha sifatida amal qila boshlaydi.

I.A.Karimov o'zining qator asarlarida, xususan, keyingi “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” kitobida, nutq va ma'ruzalarida milliy mustaqilligimizga, xavfsizligimizga tahdid soluvchi omillarni atroflicha tahlil etar ekanlar, ular orasida bevosita yoki ko'proq ma'naviy xarakterga ega bo'lganlarini ham alohida uqtirib o'tadilar. Bular diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, ashaddiy millatchilik, mahalliychilik va urug'-aymog'chilik kabilardir. Jumladan, yurtboshimiz: “...insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdiqini uzoq, va yaqin tarixdagi ko'p-ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgai har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.”– deb ta'kidlaydi. Asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Xalqimiz ma'naviyati o'zining tabiiy-tarixiy, milliy, diniy va falsafiy sarchashmalariga qaytmoqda. Ayniqsa ma'naviy meroslarimizni o'rganish, buyuk allomalarimiz va ulug' ajdodlarimizning muborak nomlari xalqimizga qaytarilishi, tilimiz va dinimiz rivojlanishi uchun sharoit yaratilgani o'zbek ma'naviyati uchun buyuk xaloskorlik va millatimizning kelajak taraqqiyoti uchun qudratli kuch, omil bo'ldi.

Mustaqillik sharoitida, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda ma'naviy merosimizga munosabatimiz, uning bugungi va ertasi, qanday bo'la oladi, komil inson mezonlarida tarbiya topayotgan bugungi yoshlarimiz mamlakatimizning barqarorligi, taraqqiyotida egallaydigan o'rni, umuman, yuksak ma'naviyatli jamiyatni barpo etish, boshqa ilg'or xalqlarda bo'lgani kabi, bizning millatimiz, jamiyatimiz uchun o'zining dolzarbligini hech qachon yo'qotmasligi milliy ma'naviyatimiz qanchalar teran ekanligidan dalolat beradi.

Vatanimiz zaminida kamolotning poydevori oilada bunyod etiladi. Asrlar davomida shakllangan an'anayu udumlarimiz, ijtimoiy ma'naviy qadriyatlarimiz barhayotligini ta'minlab, avloddan-avlodga yetishiga xizmat qilayotgan ham shubhasiz oila qo'rg'onidir. Qolaversa, oila bugungi kunga kelib butun dunyoda, hatto shaxs individualizmi har narsadan ustun qo'yiladigan g'arb mamlakatlarida ham jamiyat ustuni, insonga o'zligini anglatuvchi dargoh sifatida tan olinmoqda. Oilaga jamiyat instituti maqomi berilganiyoq uning mustahkamligi jamiyat ravnaqi uchun naqadar ahamiyatli ekanidan dalolatdir.

Jumladan, yurtboshimizning quyidagi fikrlari so'zimizning yorqin isbotidir: "Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda xayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Shaxsan menga «nasl» va «nasiba» degan so'zlar o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bordek tuyuladi. Albatta, har bir bandaga rizk-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu xayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, zurriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mexnatsetar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

O'QUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOTGA TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI

Yusupova Xabiba Iriskulovna,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zDJTU o'qituvchisi

Hamkorlikni insonning muayyan jamiyatdagi xatti-harakatlarining o'zi taqozo qiladi. Chunki, har qanday ijobiy aloqalar va munosabatlar hamkorlik negizida namoyon bo'ladi. Hamkorlik va o'zaro munosabatlar millatlararo muloqot tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik o'zaro g'amxo'rlik ko'rsatish, muloqotga moyillik va do'stona munosabatlarning yuqori cho'qqisidir. O'quvchilarning millatlararo muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallashlarida turli millat vakillarining o'zaro hamkorlikka kirishishlarini taqozo qiladigan o'quv vaziyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Turli millat vakillari bo'lgan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari bevosita o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi natijasida ularning jamiyatda turli millat vakillari bilan o'zaro tenglik va hamjihatlik asosida hamkorlik qilishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham, o'quvchilar bilish, ijodiy faoliyat ko'rsatish, aqliy mehnat qilish jarayonida millatlararo muloqot ko'nikmalarini egallashlari lozim.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biri – tarixiy obidalar, milliy-madaniy markazlar, tarix muzeylariga uyushtiriladigan ekskursiyalardir. Mazkur metod yordamida o'quvchilarda O'zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillarining madaniyatlari, urf-odatlariga nisbatan alohida qiziqish shakllantiriladi va ta'lim jarayonining jozibadorligi ta'minlanadi. Bunday ekskursiyalar jarayonida o'quvchilarning individual topshiriqlarni bajarishlari uchun ham qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Masalan, o'quvchilar "Meni qiziqtirgan eksponat", "Jozibali san'at namunasi", "Bizning do'stlarimiz" kabi mavzularda referatlar, insholar, yozma ishlar yozishlari haqida topshiriqlar berish mumkin. Shu bilan bir qatorda, mehnat darslarida o'quvchi-qizlar turli millatlarga xos bo'lgan kiyimlarni tikishlari, tasviriy san'at darslarida ayni shu millat vakillariga mansub bo'lgan liboslar dizayinini yaratishlari mumkin. Ekskursiyalar jarayonida o'quvchilar o'qituvchilar bilan bir qatorda, muzeylar va madaniy markazlarning xodimlari bilan ham muloqotga kirishadilar hamda millatlararo muloqot usullarini o'zlashtiradilar.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda mashq usulining boshqa variantlarini ham qo'llash mumkin. Masalan, 6-sinf Vatan tuyg'usi darslarida "O'zbekiston – ko'pmillatli mamlakat" [4; 150-b.] mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilarga O'zbekistonda yashovchi turli xalqlarning kiyimlari, taomlarining nomlari ifodalangan slaydlar ko'rsatilib, ularning qaysi millatga tegishlilikini sharhlab berishga oid vazifalar yuklatildi. Buning uchun har bir slaydda O'zbekistonda yashaydigan muayyan millat vakilining milliy xususiyatlari o'z ifodasini topishiga o'qituvchilar alohida e'tibor qaratishlari lozim.

O'quvchilar oldiga mazkur yo'nalishlarda referatlar yozib kelib, krossvordlar yechish, she'rlar yodlab kelish, manzarali rasmlar chizish kabi vazifalar qo'yildi. Ushbu jarayonda milliy naqshlar,

kashtachilik uslublari, milliy taomlar, milliy matolar bilan o'quvchilar yaqindan tanishishga harakat qildilar.

Shuningdek, texnologiyani amalga tatbiq etish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishga ham keng e'tibor qaratish zarur. Jumladan, O'zbekiston – ko'p millatli diyoy (6-sinf Vatan tuyg'usi, amaliy mashg'ulot).

Maqsad: o'quvchilarni O'zbekistonning ko'p millatli tarkibi bilan tanishtirish.

Vazifalar: o'quvchilarda turli millatlarning e'tiqodiga hurmat hissini qaror toptirish; ularning boshqa millatlarning urf-odatlarini, rasm-rusmlariga tolerant munosabatda bo'lishlariga o'rgatish: ijodkorlik sifatlarini shakllantirish.

Mashg'ulotning borishi:

O'qituvchi: O'quvchilar, qani aytingchi, O'zbekistonda qanday millat vakillari istiqomat qilishadi? (O'quvchilarning bir nechta javobi tinglanadi).

To'g'ri, respublikamizda turli xil millat vakillari istiqomat qilishadi. Hozirda O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari yashashadi.

Siz qanday o'ylaysiz, O'zbekistonda eng ko'p sonli millat vakillarini kimlar tashkil etadi? (O'quvchilarning javoblari).

O'zbekiston aholisining 80%dan ortig'ini o'zbek millatiga mansub kishilar tashkil etadi.

O'quvchilar, o'zbeklardan tashqari respublikamizda yana qanday millat vakillari istiqomat qilishadi? (O'quvchilarning javoblari).

O'qituvchi: O'zbekiston o'z tarkibiga ko'ra ko'p millatli davlat hisoblanadi. Aholining ko'pchilik qismini (80%dan ortig'ini) o'zbeklar, qolgan qismini esa, ruslar (5,5%), tojiklar (5%), qozoqlar (3%), qoraqalpoqlar (2,5%), tatarlar (1,5%) tashkil etadi. Aholisining 88% musulmon diniga e'tiqod qiladi, qolganlari xristianlik, buddiylik, iudaizm kabi dinlarga e'tiqod qilishadi. O'zbekistonda ta'lim yetti til (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman)da olib boriladi.

Keling bolalar endi, sizning tengdoshlaringizning O'zbekistonda yashovchi uch millat vakillarining madaniyati haqidagi ma'lumotlarini tinglaymiz.

Birinchi o'quvchi (rus millati haqida ma'lumot beradi). Ona tili – rus tili. Dini xristian. Uylari to'rtburchak shaklda quriladi. Xonalari ixcham, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Asosan, cho'chqa, baliq go'shtidan qilingan taomlarni sevib iste'mol qilishadi. Ruslar, ayniqsa, borini juda mazali tayyorlashadi. Qishda sho'ba va paltolarda, yozda esa, yengil kiyimlarda yurishadi.

Ikkinchi o'quvchi. (tatar millati haqida ma'lumot beradi). Ona tili – tatar. Dini – islom. Tatarlarning uyi labirint ko'rinishida quriladi, ko'k va yashil ranglar bilan bo'yaladi. Ayol va erkaklarning ustki kiyimi beshmet deb nomlanadi. Erkaklari boshlariga do'ppi, ayollari esa do'xoba ro'mol o'rashadi. Tatarlarning milliy oyoq kiyimi "ichigi" deb ataladi.

Uchinchi o'quvchi (qozoq millati haqida ma'lumot beradi). Ona tili – qozoq tili. Dini – islom. Qozoqlar o'ziga xos o'tovlar qurishadi. Qimiz va qazini sevib iste'mol qilishadi. Milliy taomi – "Beshbarmoq" deb ataladi.

O'qituvchi. Bolalar bugun biz siz bilan O'zbekiston xalqining ko'p millatli ekanligi haqida gaplashdik. Hozir aytib o'tilganlar asosida o'z daftarlaringizga "O'zbekiston – ko'p millatli diyoy" mavzusida bayon yozing.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz, 5-9-sinf o'quv rejasidan o'rin olgan o'quv fanlari, sinf soatlari hamda darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda bir qator mavzularni o'tishda treninglar, rolli o'yinlar, ijtimoiy-psixologik muloqot loyihalari, ekskursiyalar uyushtirish usullaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

Safarova R.G'., Sh.Ne'matov va boshq. O'quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar. – T.: Fan va texnologiya, 2011. –160 b.

Yusupova X.I. Ta'lim oluvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning nazariy asoslari. // Monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. -152 b.

Vatan tuyg'usi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi/ Mas'ul muharrir A.Erkayev. – 4-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. -112b.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЗОВАНИЯ БЛОГ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ

Бобомухамедова Шоира Агзамовна
Докторантка 2 го курса ТГПУ имени Низами

В XXI веке, по праву признанном информатсионном, наблюдается стремительное развитие технологии, связанных с повсеместным применением вычислительной техники.

Согласно Д.А. Иванченко, к числу наиболее популярных ресурсов Веб 2.0 сегодня можно отнести блоги (блог, от англ. веб лог,) и микроблоги, ориентированные на организацию персонального информатсионного пространства ползователя в виде дневника (журнала), позволяющего публиковать, хранит, обрабатывает, передават различную по виду и содержанию информатсию и осуществляют эе поиск во всем массиве [1].

Д.А. Иванченко выделяет следующие преимущества использования блогов в качестве среды общения перед электронной почтой, форумами, новостными группами и чатами:

Простота использования и доступность;

Эффективность организации информатсионного пространства;

Интерактивность и мультимедийность;

Надежность и безопасность [2, с.121].

Большой коммуникатсионный потенциал и возможности, предоставляемые блог-технологиями, позволяют по-новому подойти к решению таких вопросов организации дистансионного обучения, как:

организация личного информатсионного пространства преподавателей и учащихся, в котором суммируются все документы и сообщения ползователя, хранятся в одном месте, что не только позволяет осуществлять кросспостинг (публикацию сообщения более чем в одно сообщество), но и облегчает работу с накопленными данными;

организация открытых и закрытых сообществ для коллективного обсуждения различных вопросов и осуществления совместной работы под наблюдением модератора (преподавателя), что существенно расширяет эффективность групповой учебной деятельности;

создание электронных и медиабibliothек, в состав которых будут включены каталогизированные тематические базы обучающихся, справочных, иллюстративных и других документов и данных для обеспечения адресного поиска и свободного сетевого доступа;

обеспечение оперативной и надежной связи между учащимся и преподавателем для решения вопросов, получения ответов, обсуждения текущих проблем и организатсионных моментов;

удобство добавления, чтения и поиска нужных сообщений предоставляет возможность разворачивания конструктивных дискуссий, которые являются неотъемлемой частью педагогического процесса;

предоставление учащимся возможности обмена информатсией друг с другом для само- и взаимообучения;

использование электронных конспектов и лекций, когда обучающимся пересылаются тексты в электронном виде, выдержки из рекомендованной литературы и т. п., а затем проводятся групповые консультации;

применение в учебном процессе тестов и опросов, позволяющих выявить промежуточный уровень знаний или определит отношение учащихся к какой-либо проблеме и т. д.

А. Солтыс в аналитической статье о популярности блогов, приводит их такие возможности как удобный способ архивироват информатсию в хронологическом порядке или по темам; удобная площадка для разговоров на интересующие темы; отличный ресурс для появления творческих идей и концептуальных проектов [3].

Так, согласно А.А. Андрееву, блог – это веб-сайт, основное содержимое которого составляют регулярно добавляемые записи, изображения или мультимедиа. Для блогов характерна возможность публикации отзывов («комментариев») посетителями. Также блог можно определит как информатсионное пространство в сети Интернет, где ползовател (блоггер) может регулярно публиковать различную информатсию (текстовую, аудио/видео, изображения и т.д.), организуя тем самым виртуальное сообщество для интерактивного общения ползователей. Огромным преимуществом является то, что текстовые комментарии в блогах связаны между собой, дополнены

гиперссылками, ориентированными на справочные материалы. Это позволяет получать расширенную информацию из других статей в текстовых массивах.

Использование блогов повышает интерес к процессу обучения и способствует поддержанию высокого уровня мотивации студентов. Новизна технологий является одним из важных факторов, влияющих на успешность обучения. Открытость публикаций и наличие потенциальной читательской аудитории способствуют улучшению качества письменных работ. Ведение блога способствует развитию учебной автономии, пониманию необходимости обучения на протяжении всей жизни, так как сам студент управляет процессом своего обучения, занимаясь активным поиском информации и получая комментарии от других людей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

Иванченко Д.А. Перспективы применения блог-технологий в Интернет-обучении // Информатика и образование. – 2007. – № 2. – С 120–122.

Иванченко Д.А. Роль Интернет-пространства в формировании образовательной информационной среды // Дистанционное и виртуальное обучение. – 2011. – №2. – С. 19-31.

Солтыс А. Интернет-дневники как социальное явление. [Электронный ресурс]. – URL: http://www.мобимаг.ру/Артислес/1915/Интернет-дневники_как_социальное_явление.хтм (дата обращения: 01.07.2013).

Сервисы Интернет. Мегаэнциклопедия Кирилла и Мефодия. [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.мегабук.ру/Артисле.асп?АИД=607237>.

BOSHLANG'ICH TA'LIM

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI

N.T.Tosheva

BuxDU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası dotsenti

S.J.Nasullayeva

BuxDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar. XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Barkamol avlodni tarbiyalash Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinif o'quvchilarini o'qishiga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va oquvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq. O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqloq g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellectual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagogining o'z kasbiga bo'lgan ma'suliyati va bilimlari zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'qituvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: —Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu hamqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebeho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalari suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamlil, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi. Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi? Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga

xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini - ozi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda.

Birinchiidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchiidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchiidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv obyektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda. Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'limning sifat samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim. "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq

Texnologiya deganda subyekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi. Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinayapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum —material— bilan ish ko'radi. Biroq pedagogik texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: “Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar”. Uning fikricha, “Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar”.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik goyalarining ustuvorligiga O'qituvchining faoliyati mezonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:
- maqsadning aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;
- o'rganilayotgan mavzuga oid nazariy va amaliy masalalar va uni yechish usulining tizimli tarzda taqdim etilishi;
- mavzularning kema-ketligi, mantiqiyli, bosqichma-bosqich bayon etilishi;
- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilarning o'zaro harakat usullarining ko'rsatilishi;
- o'qituvchining eng samarali o'qitish vositalaridan foydalanishi;

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va obyektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi. Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni obyektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Pedagogik texnologiya fan sifatida ham, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan prinsiplar, yo'l va usullar sifatida ham shakllanib kelmoqda. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi. O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasining «ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.
- 2 . I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008-y. 130-bet
3. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil 55-bet.
4. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003-yil
5. Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005-yil.
6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-184-185-b.

KITOB – FARZAND TARBIYASIDAGI ENG MUHIM OMIL

Maqsuda Boltayeva

Toshkent shahar Uchtepa tumani 283-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Kitob inson ma'naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kitob o'qigan inson mulohazali, bilimli bo'lib, yuksak ma'naviy dunyosi bilan boshqalardan ajralib turadi. Kitob shunday katta kuch-gudratga egaki, u insonni va hatto uning taqdirini ham o'zgartirib yubora oladi.

Aksincha, bu xazinadan bahra olmagan inson johillikka yuz tutadi. U har qanday tubanlikka qo'l urishi, insoniylikni, vijdonini arzimagan narsaga sotib yuborishi mumkin. Qaysi jamiyatda kitobxonlik keng ommalashgan bo'lsa, o'qimishli insonlar shunchalik ko'p bo'lib, umuminsoniy qadriyatlar barqaror turmush tarziga aylanib qoladi.

Shunday ekan, jamiyatimizda kitobxonlikni oshirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Chunki millatimiz sha'nini, milliy g'ururimizni yuksaltiruvchi kuch bu - yoshlar.

Shuning uchun kitobxonlik madaniyatini aynan o'quvchilarda boshlang'ich sinfdanoq shakllantirishning ahamiyati juda katta. Bu borada quyidagi tavsiyalarni belgilab o'tamiz:

---Ma'lumki, boshlang'ich sinflar o'qish predmetida sinfdan tashqari o'qish darslariga juda ko'p soatlar ajratilgan. Aynan mana shu soatlarni unumli tashkil etish maqsadida o'quvchi yoshiga mos kitoblarni tanlab olish talab etiladi. Tanlangan kichik hajmli asar bola dunyoqarashini boyitishga turtki bo'lishi bilan birgalikda, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ham lozim. Bunda voqealar rivoji eng qiziqarli nuqtaga yetganda asar yechimini uyda o'qib kelish o'quvchilarga topshiriq qilib beriladi. Darsda qiziq hikoyani tinglagan bola voqea nima bilan yakun topishiga albatta qiziqadi. Izlanadi, matnni topib o'qishga harakat qiladi. Asta – sekinlik bilan bolada mustaqil o'qishga qiziqish va intilish paydo bo'lib boradi.

---Sinf o'quvchilari orasida tez-tez kitobxonlik bellashuvlari uyushtirib turish ham kitobxonlik madaniyatini oshirishda yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi ikki-uch oy oldin sinf o'quvchilariga o'qilishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati va bellashuv shartlarini e'lon qiladi. O'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida ota-onasi bilan birgalikda tavsiya etilgan kitoblarni xarid qiladi yoki maktab kutubxonasidan oladi. Bellashuv shartlari asosida tayyorlanadi. Masalan: asar muallifi haqida ma'lumotga ega bo'ladi, kitobni qiziqish bilan o'qiydi. Asar mazmuniga mos rasmlar chizadi. Voqealar rivojini ma'lum vaqt orasida so'zlab, xulosa chiqarishga harakat qiladi. Chiqarilgan xulosani bugungi kun bilan bog'laydi, o'z maqsadi va pozitsiyasini belgilaydi. Xuddi shu yozuvchining yana boshqa asarlarini o'qishdek ulkan ishtiyoqni tuyadi.

Bellashuv so'ngida o'qituvchi o'quvchilarni taqdirlaydi. Yaxshi natijaga erishganlarni e'tirof etadi. O'z navbatida keyingi bellashuv sanasini va o'qilishi lozim bo'lgan yangi adabiyotlar ro'yxatini e'lon qiladi. Ro'yxatdagi asarlar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'iy nazar uning mohiyati inson shaxsining kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bir qator didaktik talablarga javob berishi talab etiladi.

Xulosa shuki, maqsad bolalarning kitobni ommaviy ravishda sevib o'qilishiga erishish ekan, o'qituvchi bu yo'lda bor imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishi talab etiladi. Zero, kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, ruhimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat o'quvchilarimizni yuksaltiradi, balki ularga jahonni tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.

INTEGRATSIYALASH – BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA

Temirova Ma'mura Norboyevna, Berdiyeva Gulbahor Muhammadovna

Navoiy shahridagi 14- maktabning Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jixatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigiyenik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda muayyan o'quv predmeti doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda jamoa bo'lib, olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida bo'lgan topshiriqlarning har tomonlama o'ylab ishlab chiqilgan tizimi har bir mavzuning o'zlashtirilishi muayyan pedagogik shart- sharoitlarni talab qiladi. Bunday sharoitda ta'lim rivojlanishi nisbatan ilgarilab boradi. O'quvchi odatda mustaqil bajariladigan topshiriqni kichik guruhda o'zaro yordam, hamfikrlik natijasida tez bajaradi. Kichik guruh uchun murakkablik qiladigan mashq va masalalarni o'quvchilar jamoa bo'lib, oson va sifatli bajarishlari mumkin. Savol va topshiriqlarni tabaqalashganlik darajasidan kelib chiqqan holda hamda bir mavzu bo'yicha belgilab beriladigan topshiriqlar ularning sifati, har bir o'quvchining o'zligini namoyon qilishini talab qiladi. Shu bilan birga bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi o'z rivojlanishi va bilim sifatining darajasi va individual hatti-harakatlarini ham belgilab oladi. Ta'lim mazmunini tanlashda har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi,

alohida hisobga olinishi kerak. Har bir bolani uzluksiz rivojlanish tamoyili o'quv materiallarini integratsiyalashni, integratsiyalashgan o'quv materiallarini qamrab olgan darsliklar yaratishni taqozo qiladi. Taqdim etiladigan bilimlarning mustahkamligi, o'quvchining umumiy rivojlantirish darajasi o'quv materialining tarkibiga (turli ranglar, ramzlar, ularning ma'nosi, hajmi bilan tanishtirilishiga) bog'liq bo'ladi. Buning natijasida o'quvchida kuzatuvchanlik faoliyati tarkib topadi. Chunki kuzatuvchanlik shaxs faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida fikrlash faoliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish yoki tasviriy san'at darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Qish", "Bahor" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

Umumlashtirish-o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash- umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

O'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

Ulug' didaktik Yang Amos Kamenskiy fikricha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa huddi shunday holda o'rganilishi kerak".

Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. Jumladan D.Lohk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mavzuning aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari bilan va faktlari bilan to'ldirilishi kerak".

I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida shunday deydi. "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni onginga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla"-deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto havfliligini ta'kidlaydi.

D.Uskenskiy shunday deydi: "Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g'oya dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim".

Bir turdagi qism yoki elementlar mavjudligi va ularning bir maqsadga tabiiy bo'ysundirish imkoni va bir qator o'quv fanlari uslubidagi yaqinlik integratsiya atamasini aniqlashga asos beradi, ya'ni o'qitish tarbiya qilish va o'quvchilarni ma'lum o'quv fanlarini o'zlashtirish uyg'unlashtirish usullari haqidagi fan. Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida tahlil qilib bergan I.Koljvari va L.Pechnikova takidlashicha: "Integratsiyaning kelajagi porloq". Bu usul natijasida o'quvchilar ongida olamning faol va ko'p tomonli tasviri shakllanadi. O'quvchilar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishligi boshlanadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarini aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o'zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo'lgan munosabatini ravshanlashtiradi.

O'qituvchi qachon va qanaqa fanlarni integratsiyalash mumkin yoki integralash shartlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

E.Smirnova fikricha: "Birinchi sinfdagi quyidagi fanlarni integrarlash mumkin: o'qish, yozuv, tasviriy san'at va mehnat". Faqat o'qish va faqat yozuv bolani juda charchatadi va unda salbiy tuyg'ularni uyg'atadi. 1-sinf o'quvchisida birinchi darslardayoq o'qishga bo'lgan istak yo'q bo'lmasligi kerak. Uning ko'zlaridagi uchqun o'chmasligi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan fanlarni tartiblashda o'quvchining o'rganish jarayonini, qiziqishini ushlab turish, faollashtirishga e'tibor beriladi.

Bir xil sinflarda turli fanlardan dars beruvchi o'qituvchilarning bir-birlarining darslariga qatnashib turishlari hamda o'quvchilarning bilim va malakalariga qanday talablar qo'yilishi lozimligini kelishib

olishlari predmetlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar o'qish darslarida olgan bilim va malakalaridan boshqa fanlarni o'rganishda qanday foydalanayotganliklarini va bunda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini muntazam ravishda kuzatib borish ham muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, o'qish fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlik tamoyiliga erishish ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmasdan, uni yanada takomillashtirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'QUVCHIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O'RGANISHNING O'RNI (BOSHLANG'ICH)

Temirova Dilrabo Norboyevna

Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Abdurahmonova Dilfuza Norboyevna

Navoiy shahridagi 2- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchisi

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurnipg mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. SHubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda «So'zning tarkibi» bo'limi katta imkoniyatga ega. O'quvchilar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalishi bilan tanishadilar. Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi:

limon tipida limonzor, suvchi tipida bo'zchi kabi. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: ishli, ishsiz, ishchi kabi.

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratpsh muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan xarakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilar nutk faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi.

Dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrof-dagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari «topgan» yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi.

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, yani fonetikasi, leksikasi, so'z yaslishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi.

Tilning barcha tomonlari o'zaro bog'lanishining ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon bo'ladi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o'zaro bog'lanishda bajaradi. Har bir so'zga xos bo'lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so'zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz aqlga to'g'ri kelmaganidek, o'zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajarmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasaliş turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydinlashadi. Gap va so'z birikmasi "qurilish materiali" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezon matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmat, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

SHunday qilib, tilni o'rganish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmat hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi. Tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xshash murakkabdir.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TA'LIMIY O'YIN VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH

Rustamova Dilafroz Komiljonovna, Nurmatova Dilfuza Nasriddinovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchilari

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional – xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi.

O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga xarakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni “qoniqish hosil qiluvchi” faoliyat sifatida tadqiq etadi.

L.S. Vygotskiy, A. N. Leontevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jixatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir.

Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda xaqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, dedaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos holda amalga oshadi. Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o'yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida ishtirokchilarni rag'batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi.

Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. didaktik o'yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Frebel va M.Montessorilar ishlab chiqqan bo'lsa, boshlang'ich ta'lim uchun O. Dekroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o'yinlar keng tarqala boshlandi.

Ishbop o'yinlarning asosiy xususiyati o'yin rejasining o'quv maqsadiga yo'nalganligidadir. Chunki o'quv maqsadi o'yin vazifalari doirasida etiladi.

Demak, o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hayotni, borliqni, tevarak- atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. O'yin paydo bo'lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

o'yin ishtirokchilari bilan bo'lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo'lishi;

tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi;

o'yin davomida o'quvchilarning o'zining tabiiy extiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash;

zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

Aynan faol o'qitish metodlari ham ana shunday o'yinlarga tayanilgan xolda tashkil etiladi. Har bir o'yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko'proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o'n o'quvchigacha ishtirok etadi.

Demak, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy- psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

DIDAKTIK O'YINLAR BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI TAMINLASH OMILI SIFATIDA

Ravshanova Surayyo Rustamovna, Karimova Marhabo Oripovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchilari

Bugungi kun talabi yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiyani kelajakka, ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan-texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Boshlang'ich sinf darslarini o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirishlari uchun ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan samarali foydalanishimiz zarurdir.

Ta'lim va o'qitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rganadi. Umuman pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Kamenskiy hissa qo'shdi. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining asoslari Shvetsariya pedagogi I.G.Pestolotsi asarlarida ishlab chiqilgan. Bulardan tashqari rus didaktikasining atoqli namoyondasi K.D.Ushinskiy bo'lgan. U ham o'qitish masalalarini chuqur psixologik asosini yaratdi. O'zbek xalqi orasida ham H.H.Niyoziy, A.Avloniy kabi pedagoglar yetishib chiqdi. Ular ham o'zbek xalq maktablarini ochish, o'quvchilarga darsliklar yozish kabi ishlarni davom ettirdilar. Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o'yin yelementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini yegallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. O'yin orqali bola faoliyati mukammallashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O'yin jarayonida qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar.

O'yin- bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik lozim. Bola hayotining asosiy turi o'yindir. "Bola uchun o'yin voqelik"- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarli, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa bor. Bolalarning o'yin faoliyati maktabgacha yoshda paydo bo'lib, o'z taraqqiyotida oddiy taqlid qilishdan murakkab rolli o'yinga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi, bu o'yin dastlab kishilarning predmetlar bilan bog'liq faoliyatini, so'ngra o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

O'yin o'sib borayotgan bola organizmining zaruriy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalari tarbiyalanadi. Ammo o'yin har qanday sharoitda ham o'yindir. Shunday o'yinlar ham borki, ular bolalarga mustaqillikni, oddiylilikni, bir- biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi.

Yan Amos Kamenskiy Grammatik o'yinlardan sistemali foydalanishning ahamiyati xususida gapirib, bunday deb yozgan edi: "Bola sog'lom bo'lishi uchun u doimiy harakatda bo'lishi zarur,

shundagina o'yin qiziqarli o'tadi. O'yinga rahbarlik qilish va bolalarning hatti- harakatlarini doimo kuzatib turishi kerak. Chunki bolalar o'yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar.

Psixologik olimlar o'yinlarni to'rt guruhga bo'ladilar:

Funksional o'yinlar.

Bu o'yinlar bola organizmining har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu kichik yoshdagi bolalar uchun karakterli bo'lib, unda bolalar nima bilandir shug'ullanadilar, turli predmetlar bilan tanishadilar.

Qoidali o'yinlar.

Bu o'yinlarda bolalar tevarak-atrof va muhitdagi voqealardan habar topib, idrok etish bilan kifoyalanadi. Bunda ko'rish, eshitish, his qilish kabi sezgi organlari idrok qiladi.

Rolli o'yinlar.

Bu o'yinda bolalar o'zlarini ma'lum bir rolini, qandaydir kasb egasi (shifokor, o'qituvchi, quruvchi kabi) vazifasini bajarayotgandek his etadilar. Har bir bola o'ziga tegishli rolni muvofaqiyatli bajarishga harakat qiladilar.

Konstruktorli o'yinlar.

Bu o'yinning asosiy mazmuni qurilishi komplekslari, taxta, qum, qog'oz materiallarining parchalarini qirg'ish, taxlash singari mehnat ko'nikmalarini hosil qilish kabilardan iboratdir. Konstruktorli o'yinlar asosan ikkiga bo'linadi. Ijodiy o'yinlar bolalar o'zlari o'yinning mazmunini, maqsadini, qoidasini topadilar. Ijodiy o'yinlarning asosiy qismini syujetli rasmi o'yinlar tashkil qiladi. Ijodiy o'yinlardan yana biri dramatik o'yindir. O'yinning mohiyati hikoya va yertaklardagi voqealarning mazmunini tasvirlashdan iborat bo'lib, ularda badiiy adabiyotlardagi

personajlar tasvirlanadi.

Qoidali o'yin. Huddi xalq o'yinlari singari qiziqarli bo'lib, unda bolalar hayoti, o'z tengqurlari va kattalarning mehnat faoliyatini tasvirlashga harakat qiladilar. Demak, barcha turdagi o'yinlar bolalarning kattalar faoliyatiga qiziqishlariga, ularga taqlid qilishiga intilishlarining mehnati va oilaviy hayotini, uchuvchilar, kosmonavtlar, dengizchilar hamda boshqalarning qahramonliklarini aks ettiradi. Ko'pchilik o'yinlarda didaktik o'yinchoqlar va bunga bevosita a'loqador bo'lgan boshqa qo'llanmalar foydalaniladi. Didaktik o'yin jarayonida shunday holatlar ham tez-tez bo'lib turadiki bolalardagi eng yaxshi kayfiyat birdan sho'xlik, notinchlik va intizomsizlik bilan ham almashib qoladi. Bunday paytlarda o'qituvchi ayrim bolalarga tanbex berishga majbur bo'ladi va bu boshqarning o'yin kayfiyatini shubhasiz tushiradi. Agar shunday vaziyat sodir bo'lsa ham o'yin qoidasi bilan birga qo'shib tushuntirsa metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Demak, o'quv jarayonida olib boriladigan mashg'ulotlarda biz faqat og'zaki usul bilan tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi o'quv axborotlaridan ham foydalanishimiz zarur. Bular sonli va yozma ko'rinishda, ovoqli va tasviriy ko'rinishda, xajmiy va harakatli ko'rinishda, elektron va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz

har bir didaktik o'yin va vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning qay biridan qaysi vazifani, qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini bilib olamiz.

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

Qobilova Feruza Nuriddinovna, Xodiyeva Gulhayo Ne'matullayevna
Navoiy shahridagi 5- maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

O'quvchilar ilgari darsliklardan uyda bilimlarini mustahkamlash uchun foydalangan bo'lsalar, maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida esa ulardan yangi material bayon qilinishi bilan o'qituvchi foydalanishmoqda. O'quvchi kitob bilan muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun tegishli ko'nikma va malakalarni egallashi kerak. Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasidir. Binobarin, ular kelajakda turli bilimlarni o'zlaricha tahlil qilishga, o'rganishga va umumlashtirishga ham majbur bo'ladilar.

Kitob bilan ishlashni o'rgatishning dastlabki bosqichida izohli o'qish metodidan foydalaniladi. O'qituvchi bolalarga kitobni diqqat bilan o'qishni, undagi har bir so'z va ifodaning ma'nosini oylab ko'rish hamda butun mazmunni qamrab olishni o'rgatadi. Darslik bilan ishlashning asosiy bosqichlari - o'quvchilar sinfda va uyda o'zlari uchun yangi materialni mustaqil holda o'rganadilar. Ishning bu usuli quyi sinflardagi

darslarda dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish uchun bir oz qiyinlik qiladi. Shunday ekan, darslik va kitob bilan ishlashning o'qitish metodi sifatidagi mohiyatini qanday ta'riflash mumkin?

Bu metodning mohiyati bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchilarning darslik va kitob bilan mustaqil ishlashi jarayonida amalga oshirishdan, va ayni paytda, ularning kitob bilan ishlash malakalarini egallashidan iboratdir. Mazkur metodning o'zaro bog'liq ikkita muhim tomoni mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning o'rganiladigan materialni mustaqil o'zlashtirish va ularda o'quv adabiyoti bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishdir. Dars mashg'ulotlari tizimida darslik bilan ishlashning to'g'ri yo'lga qoyilishida o'qituvchining ta'limiy ishlari bilan o'quvchilar faoliyatining o'zaro muvofiqligi masalasi g'oyat muhim ahamiyatga molikdir.

Darslikni mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun foydalaniladigan qandaydir yordamchi vosita deb bilmaslik kerak. Darslik, avvalo, o'quvchilar uchun muhim bilim manbalaridan biridir. Lekin u bayon etilgan materialni mustahkamlashning va o'quvchilar bajaradigan aqliy ishlarni faollashtirishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo buning uchun o'qituvchi darslikni qo'llashda eng muhim metodik talablarga rioya qilishi zarur. U mashg'ulotlarni o'tkazishdagi muayyan holatda darslikni qay yo'sinda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi, shu orqali bolalarni fikrlashga rag'batlantirishi, ularning o'rganiladigan materialni quruq yodlashi va yuzaki eslab olishiga yo'l qoymasligi kerak. Shu boisdan dars mashg'ulotlari jarayonida darslik ustida ishlashni tashkil etishga qoyiladigan ayrim umumdidaktik talablar haqida bir oz to'xtalish joizdir.

Avvalo, o'quvchilar darsda mustaqil o'rganishi uchun kerakli materialni to'g'ri tanlashi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilar barcha masalalarni o'qituvchining oldindan tushuntirishsiz o'zlashtiravermaydilar. Ko'p mavzular mutlaqo yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va ular umumlashtiruvchi xarakterda bo'ladi.

Darslik va o'quv kitoblari bilan ishlashdan oldin doimo o'qituvchi mufassal kirish suhbatini o'tkazishi shart. Unda o'quvchilarni o'rganiladigan mavzudan xabardor qilishi, yangi materialning asosiy masalalariga e'tibor berishi (lozim bo'lsa, doskaga yozishi yoki oldindan tayyorlangan jadvalni ilib qoyishi), shuningdek, mustaqil ishning tartibini belgilashi kerak.

Darslik bilan ishlash butun dars mobaynida davom etmasligi kerak. Uni o'qitishning boshqa shakllari va metodlari bilan birlashtirish lozim. Masalan, darslik bilan ishlab bo'lingach, material qanday o'zlashtirilganini tekshirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, o'quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazish kerak.

O'tilgan material ustida ishlash, yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda darslikdan foydalanish yo'llarini ko'rsatamiz. Yuqorida aytilganidek, so'nggi yillarda o'tilgan material ustida ishlashda qo'llanilgan metodika uy vazifalariga o'xshash tayyorlanish mashqlari bilan bog'liq anchagina usullarni o'z ichiga oladi va bunday mashqlar darslik bilan bajariladi. O'quvchilar masalalarni yechadilar, mashqdarni ko'chiradilar, darslikdagi savollarga yozma javoblar qaytaradilar va hokazo. Lekin o'tilgan material bo'yicha darslik bilan ishlashning yana bir turi borki, uni ko'pchilik o'qituvchilar bilmaydilar. Ishning bu turi o'quvchilarning darslikdagi materialni mashg'ulotning boshida, bilimlarni tekshirish oldidan o'qishidir.

O'qitish jarayonidagi rahbarlik didaktik savollar yoki o'qituvchining savollari yordamida amalga oshiriladi. O'quvchi o'qituvchining savollariga tobe bo'lib qolmasligi uchun o'zi o'ziga mustaqil holda savollar qoyishni o'rganishi, ya'ni o'zicha fikr yuritish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Bunga o'qitish jarayonida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi nima qilishi lozim? U avvalo zarur tushunchalar va operatsiyalarni o'rgatadi. Buni muayyan misollar orqali bajaradi. Ammo har bir o'qituvchi yangi materialni, yangi tushuncha va operatsiyalarni o'rgatganidan keyin ham o'quvchi ularni mustaqil holda qo'llashga qiynalishini biladi.

Qoida tushuntirilishi bilananoq taklif etilgan topshiriq ustida ishlashda o'quvchida avval ikkita faoliyat, ya'ni qoidani o'zlashtirish va qoidaning mazmunini tushunish faoliyatlari qo'shib ketadi. Qoidani o'zlashtirish faoliyatini nuqtai nazar yoki o'qituvchining savoli boshqaradi. Ayni paytda o'quvchi qoidaning mazmunini tushunishga ham harakat qiladi. Keyingi faoliyat muayyan misolga qaratiladi. Bularning hammasi mazkur vaziyatda qoshilib ketadi. Agar qoida faqat bitta misol yordamida ko'rsatilsa, u tushuntirilgan vaziyatga o'xshasada, boshqa vaziyatlarga o'quvchilar mustaqil holda ko'chira olmaydilar. Shuning uchun o'quvchilarga oldin bir necha misollarni o'qituvchi rahbarligida yechish imkoniyati yaratiladi. Ular qoidani yaxshi o'rgangach va mashqlar bilan mustahkamlagach, ularga asta-sekin murakkablashib boradigan misollar, topshiriqlar asosida mazkur qoidani qo'llash bo'yicha mustaqil ishlar taklif etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsda endigina o'rganilgan mazmunning o'zini emas, balki ana shu mazmunni o'rganishda qo'llangan usullarni takrorlash yo'li bilan yangi tushunchani mustaqil holda o'zlashtirishga tayyorlanadi. Sinfdagi hamma o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida qandaydir mavzuni o'rganganlaridan keyin o'qituvchi ularga "teskari yurish" qilishni, ya'ni darsning har bir nuqtasiga qaytishni va unda nima qilingani hamda qanday qilinganini kuzatishni tavsiya etadi. Bunda eng muhimi darsning mazmuni emas, balki o'quvchilarning ana shu mazmun ustida qanday ishlashidir. Bu esa ularga ta'limiy ishning usullarini anglashda yordam beradi. Sinfdagi qanday masalalar qoyilganini, hodisani tushunishga yoki muammoni yechishga qanday qilib erishilganini bilib oladilar. Bu ish o'qish usullarini egallash mashqidir. Mana shu mashqning natijalarini bir o'quvchi doskaga yozadi, qolgan o'quvchilar darsning qanday o'tganini qayta tiklashda unga yordam beradilar.

Buning uchun doska ikki qismga bo'linadi va uning chap tomoniga darsdagi eng muhim faktlar hamda fikrlar qisqacha reja ko'rinishida yoziladi. O'ng tomonga masalalar, sinfdagi bajarilgan barcha ishlar, aytaylik, kuzatishlar, mo'ljallar, topshiriqlarning yechimlari va hokazolar yoziladi. Bu mashq orqali nimalarga erishiladi? Darsning asosidagi barcha masalalar, harakatlar va ifodalar darsning umumiy mazmunidan ajratiladi va shu tariqa o'quvchilarning tushunishi uchun moslashtiriladi. Natijada, o'quvchilar darsda nima qilish lozim bo'lganini va qanday qilinganini bilishga hamda tushunishga odatlanadilar. Vaqt o'tishi bilan bilish harakatlarini yangi hodisalarga yoki misollarga ko'chirish ko'nikmalari tarkib topadi. Lekin bilish harakatlarini ko'chirish mashqi o'quvchilar uchun darsda materialning o'zini o'zlashtirishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Ushbu mashqdan ko'zlanadigan maqsad material va o'qitish vositalari orqali aynan bilish jarayonini anglashdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan izlanishlar topshiriqlari savollarga yodlangan darslik matnidan yoki o'qituvchining tushuntirishidan tayyor holda olingan javoblarni qaytarish emas, balki har bir savolga tegishli javob topishni tavsiya qilishdan iboratdir. Ular aslida evristik-ta'limiy savollardir. Ana shu maqsadda quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish mumkin:

- ✓ kuzatish materiallarini yoki o'qituvchi bergan mavzu bo'yicha to'plangan faktlarni tizimlashtirish: asosiy masalalarni ajratish, reja tuzish, faktlarni guruhlashtirish;
- ✓ taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish va uni asoslash;
- ✓ bilimlarni qo'llash: yangi faktlar va misollar bilan tasdiqlash, yangi hodisani o'rganilgan hodisa darajasida tushuntirish.

Kuzatishlar, amaliy ishlar, tajribalar, eksperimentlar davomida yaxshi o'zlashtirilgan bilimlarni emas, balki ularni qo'llashni ham talab qiladigan savollar va muammolarni o'z ichiga oladi, murakkabroq izlanishlar amalga oshiriladi.

Darsda bilishdagi mustaqillikning rivojlanishi avval o'qituvchining yordamidan, darslik, ma'lumotnoma, lug'at, shaxsiy kuzatish va tajribalardan foydalanib, savollarga mustaqil holda javob topish ko'nikmasini egallash, keyin esa hech qanday yordamsiz o'rganilgan materialga mustaqil holda savollar qo'yish ko'nikmasini egallash asosida amalga oshadi. Keyinchalik o'quvchi boshqacha sharoitda namunaga taqqoslab, topshiriqlarni hal qilish va savollarga javob berish ko'nikmasini o'zlashtiradi.

Bunda induktiv va deduktiv mushohada yuritish ko'nikmasi tarkib topadi. Umuman olganda, darsliklar bilan ishlash natijasida o'quvchi fanlar sohalari bo'yicha bilimlarni egallash bilan birga, milliy istiqbol g'oyasi va mafkurasining tub mohiyatini tushunib yetadilar. Bunda, ayniqsa, o'qituvchining roli kattadir.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI DARSLAR JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Nazarova Gulshanda Olimovna, Rajapova Feruza Zavqiddinovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchilari.

Umutalim maktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham ijtimoiy siyosiy, ham ijtimoiy pedagogik jihatlarga ega.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy sub'yekti o'qituvchi. Shu sababli maktab "ma'naviy- axloqiy ishlar tizimi"ni maktab tarbiyaviy ishlar tizimining boy g'oyasi sifatida tushunish mumkin.

Shu sababli yuqoridagi fazilatlarni shakllantirish uchun ma'suliyatning asosiy yuki uning zimmasiga yuklanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilaridan, maktab jamoat orasida o'z bilimi, ma'naviy axloqiy fazilatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishlari, shaxsni hurmat qilishlari, ma'naviy tarixiy, milliy

va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashlari; o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni bir birini tushunish, xalqlar, millatlar va el-elatlar o'rtasida tinchlik, ahillik va inoqlik ruhida tarbiyalashlari va ularni zo'ravonlikning barcha ko'rinishlaridan himoya qilishlari va boshqalar talab etiladi.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarni yaratganlar. Shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashning asosi- kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalanadi, qo'llaydi, bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va butun sinf jamoasining sifatlarini ko'zlab biron-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni hisobga oladi.

O'qish va odobnoma darslarida axloqiy odatlarni hosil qilish uchun odob normalarini, ma'naviy, axloqiy jihatlarni, o'qish darslarida turli xil ertaklar, rivoyatlar, maqollar, hikmatli so'zlar bilan o'quvchilar dars jarayonida mavzuga qiziqtirish yo'llari va usullarini o'qituvchi ishlab chiqishi kerak. Jumladan 3-sinf o'qish kitobida berilgan go'zal fazilat inson husni bo'limida bir qator ma'naviy- axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan mavzular mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda mazkur fikrdan kelib chiqib, shunday ma'naviy me'ros vakilidan biri bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida.

“Hidi, tilimi va mazasi” matnini o'rganish orqali o'quvchilarni o'zbek xalqining milliy qadriyatlari haqida ma'lumot berishga hamda matn mazmunida asoslangan materialga mos holda ko'nikma va odatlarni tarkib toptirishga harakat qildim.

Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib u yerning sultoni, ya'ni podshohi bo'libdi. Bobur Hindistonga podshoh bo'lgan davrida ko'plab qurilishlar, obodonchilik va xalqqa g'amxo'rlik qilish bilan birga o'zidan yodgorlik qolsin deb Hindistonning ko'rkam joyida katta bir bog' barpo etibdi. Bu bog'ga dunyodagi turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribdi. Hind xalqi dunyodagi eng katta bu bog'ga “Bog'i Boburiy” deb nom qo'yibdi. Bog'dagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribdiki, ularni hech joyga sig'dirib bo'lmabdi.

“Bog'i Boburiy”ning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring bitibdi. Ammo handalak bilan qovun bo'lmabdi. Shoh bir yil qovun ektiribdi, bo'lmabdi. Ikkinchi yil ham ektiribdi, bo'lmabdi, uchunchi yil ham ektiribdi baribir qovun bitmabdi. Qovun bitishga bitibdi-yu, birinchi yili gulidanoq hosilni tashlab, ikkinchi yili palagi o'lib qolibdi, uchunchi yili pishib yetilmas, palagi so'lib qolibdi. Boburshoh bo'lsa qovun topishni talab qilaveribdi.

Keyingi yili Boburshoh bu yili qovun ekib pishirmasanglar hammangizni jazolayman,- deya g'azablanibdi. Bog'bonlar nima qilishini bilmay rosa boshlari qotibdi. Oxiri Boburshohga bildirmay uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bu orada bir necha oy ovga ketishibdi. Shu payt bog'bonlarning boshlig'i o'zi bilan o'n bir kishini yoniga olib, Farg'onaga boribdi. Karvon ot aravalariga qovun ortib, tezda Hindistonga qaytibdi.

Boburshoh ovdan qaytgach, bog'bondan qovun yo'qlatibdi. Qovunni olib borishibdi. Boburshoh qovunni hidlab ko'rib: - Qayerda bitgan deb so'rabdi. – “Bog'i Boburiy”da bitgan, deb javob beribdi bog'bon.- yo'q, hidi boshqacha. Faqat bir o'lkada yetishadi xolos. Sen meni aldayapsan,-debdi Boburshoh. – Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun “Bog'i Boburiy”da bitgan,- deb bog'bon so'zidan qaytmay.

Boburshoh qovunni hidlab-hidlab, uni tilmoqchi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmas tarsillab yorilib ketibdi. Boburshoh bog'bonga qarab:-Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Bunday hidli, tilni yoradigan qovun faqat men bilgan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga to'g'ri javob bermading, qahrim qattiqligini bilasan-a,-debdi.

Oliyhazrat, aldasam boshimni tanamdan judo qiling, mayli roziman. Siz ko'rib turgan qovun “Bog'i Boburiy”da bitgan,-debdi bog'bon yana bilmagan bo'lib. Tilda shunday debdi-yu, o'zini bilmaganga olibdi. Boburshoh qovunni so'yib, bir tilim olibdi-da uni yeya boshlabdi. Qovun shirinligidan tilni yorar emish. So'ng Boburshoh yana bog'bonga debdi:- Yo'q, sen meni aldayapsan, bunaqa shirin tilyorar qovun bu yerlarda bitmaydi. Boshqa joydan keltirgansan. To'g'risini aytasang gunohingdan kechaman. Bordi-yu, meni aldab yana yolg'on gapirgan bo'lsang, boshingni tanangdan judo etaman,- debdi.

Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi. – Farg'ona viloyatidan keltirdik, -debdi ko'ziga yosh olib. Bog'bonning gapidan Boburshohning ko'ngli buzilib yig'lab yuborishiga ozgina qolibdi. Bog'bon:- Shohim, qovunni qayerdan olib kelganimni bilib oldingiz.

O'limim oldidan men ham sizdan bir so'rovimga javob qaytarishingizni tilayman,- debdi. – Qovun bu yerdan emasligini qayerdan bildingiz?- debdi.

Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilyorar shirinligidan ona yurt qovuni ekanligini angladim. Rahmatli otam bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bitardi. Uzoq Hindu yurtida meni qovun bilan siylaganing uchun gunohkor bo'lmay, in'om-ehsonga loyiqsan, debdi. Boburshoh bog'bonga rahmat aytib, bosh oyoq sarpo beribdi.

Mazkur dars materialini hikoya qilib bo'lgach, dars matnida ilgari surilgan mashhur shoir va davlat arbobi Mirzo Boburshoh hayoti haqida va uning amalga oshirgan ishlari haqida atroflicha ma'lumot beraman. Mirzo Boburning uzoq Hinduda o'z ona Vataniga sevgisi, mehr-muhabbati, sadoqati o'ziga xos tarzda asoslangan. Ona Vatan zaminining sahovatini birgina qovun orqali "Uning hidi, tilimi, pichoq tegar-tegmasdan tarsillab yorilib ketadigan va shirinligi tilni yorar bunday qovun men bilgan bir o'lkadagina bitadi", degan iboralari Mirzo Boburshohning o'zi yashagan ona tabiatiga yaqinlik, uning har bir ekini, narsalari muqaddas, e'zozli, qadrli ekanligini, o'sha zaminga bo'lgan hurmati, e'tibori, sadoqati, mehr-muhabbati bog'bonning qovunni "Farg'ona viloyatidan keltirdik", degan gapi Boburshohning butun vujudiga, hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgani, uning ko'ngli buzilib yig'lab yuborishiga ozgina qolganligi kabi satrlar Boburshohning o'z ona Vataniga bo'lgan milliy tuyg'uning shakllanganligini isbotlaydi.

Yuqoridagi Boburshohning bog'bon bilan bo'lgan muloqoti uning o'ta zehni, fahmi, axloqli, madaniyatli, hamda yuksak ma'naviyat sohibi bo'lganligini ko'rsatadi. Bog'bonning qovunni bu yerning qovuni emasligini qayerdan bildingiz deb bergan so'roviga, "Hidi pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurt qovuni ekanligini angladim". "Rahmatli otam Bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bitardi" gaplari orqali Boburshohning o'zi yashab o'tgan ona yurtiga cheksiz muhabbat va ajdodlarga sadoqat, xotirlash kabi ma'naviy me'rosga hurmat, e'zoz, qadrlash sifatleri mujassamlashgan. Ana shunday yuksak milliy ma'naviy qadriyatlarni o'zida tarkib toptirgan Mirzo Boburshoh kabi hamyurtlarimizga hozirgi umum ta'lim maktab o'quvchilarida hurmatni, e'zozni, qadr-qimmatni rivojlantirish xullas butun o'tmish turmush tarzidan ibrat olish va uni amalda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma va odatlarni tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor.

Shu jumladan o'quvchilarga mlliy qadriyatlarimizni to'liq va to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishimiz uchun "Qovun sayli" didaktik o'yini o'tkaziladi.

O'yin sharti:

Qovun rasmi chizilgan maketlar magnet doskaga betartib yopishtiriladi. Bunday ko'rinish polizni ifodalaydi. Guruhlarga bo'lingan o'quvchilar jamoasi polizdan qovun terishni boshlaydi. Tashkil etilgan uchta guruhdan bittadan o'quvchi doskaga chiqib polizdan qovunlarni terib olish topshirig'ini oladi. O'yinda eng ko'p qovun tergan guruh g'olib bo'ladi. qovun terish uchun magnit doskasidagi qovunlardan bittasini oladi va orqasiga yozib qo'yilgan Mirzo Bobur hayoti, ijodi va faoliyatiga oid berilgan ta'riflarga javob beradi. Ta'rifga to'g'ri javob bergan o'quvchi qovun uzishda davom etadi. Aksincha ta'rifga noto'g'ri javob bergan o'quvchi qovunni yorib qo'ygan hisoblanadi va u o'rniga jamoasidan boshqa o'quvchi chiqib o'yinni davom ettiradi. O'yinda eng ko'p qovun uzgan guruh g'olib sanaladi. O'yin shu tariqa davom etadi va g'olib guruh a'zolari rag'batlantiriladi.

X. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga savollar beraman.

Boburshoh nima uchun uzoq Hinduda bog' yaratishni ma'qul ko'rdi?

Nima uchun o'zga yurtda Boburshoh bunday ezgu ishni amalga oshirdi?

Boburshohning bu ishi uning qanday ma'naviy tarbiyalanganligini ko'rsatadi?

Boburshohning aql-farosati, zehni nima uchun bog'bonning yolg'on gapirganligini fosh qildi?

Buning sababini siz nimada deb o'ylaysiz?

Nima uchun Boburshoh bog'bonni jazolash o'rniga unga rahmat aytib, boshdan oyoq sarpo bilan siylaydi?

Boburshohda ona vatanga, uning tabiatiga, ajdodlarga sadoqatini, va mansubligini qanday izohlaysiz?

Sizlar yana Boburshohga o'xshagan qaysi ajdodlarimizni bilasizlar?

kabi ko'plab savollar bilan o'quvchilarga ma'naviy kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsataman.

ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISH

Maxmudova Muhayyo Qosimovna, Xoliqova Nafisa Komilovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Boshlang'ich ta'lim uzliksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bildir. Undagi ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z g'alalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi (1).

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqini o'stirish asosiy va muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi. Binobarin, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish texnologiyasi orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, so'zlamol bo'lishga, o'z fikrini mustaqil bayon qilishga, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga, tafakkur dunyosini boyitishga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish texnologiyasidan samarali foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi, lug'atini boyitadi, ayniqsa, ularning ona tili va o'qish darslariga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi. Ma'lumki, nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Metodikada nutq o'stirish ikki xil yo'nalishda tushuniladi. Ya'ni, agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam

beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi (2). Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, musiqa darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar

nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi.

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida «Ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir», deyiladi (1). Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Til bilishning grammatik qonun-qoidalarni, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona till darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi.

Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'z g'alalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir.

Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiy

jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak. Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish.

O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi so'zning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf «Ona tili» darsligida habib (do'st), darparda (oyna o'rni shaffof qog'oz yopishtirilgan deraza parda), mag'rur (kekkaygan, mag'rur — kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq — xazon bo'lmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do'st, birodar, qarindosh-urug'), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo'mondan, lashkarboshi), zeb (bezak, ko'rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko'shk) kabi so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan, izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.

O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma'nosini o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-2-sinflarda o'quvchilar ko'p ma'noli so'zning bir-ikki ma'nosi bilan tanishsa, 3-4-sinflarda yana boshqa ma'nolarini bilib oladi. Bunda tasviriy ifodalar, iboralar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlarning ma'nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi.

Xususan, 1-sinf darsligida «Xiva ona tarix tilmochi», «urush yo'lini taqqa bekilik», «biz ma'nosiga zeb bersak», «rediskaga akaman», «karvon bo'lib kelamiz» («Turnalar»), «chehrasiga tabassum yugurdi», «bahor oq bulutni yetaklab ketdi», 2-sinf darsligida «dov-daraxtning soch-soqolin qirishdi», «Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi» kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini so'z va iboralardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsionalligini oshiradi.

O'quvchilar tilida kam qo'llanadigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.

Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, jim — tinch ~ osuda — osoyishta, yurakdan - dildan, soat strelkasi — soat millari, garmdori — qalampir, rayon — tuman kabi. So'zlarning qo'llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o'tkazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborni ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo'lishi, biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi.

Masalan, Shirinsuxan-shirinso'z, nasim- tonggi yel (shamol), tanbeh berdi - dashnom berdi, zilol suv- tiniq suv, kichik - mo'jaz, tik - adil, nafis - nozik kabi. Yozma bayon ozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf) so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash.

Shunday so'zlar darslikda kam qo'llanadi. Shunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib —Bilib qo'ygan yaxshi» rukni ostida ishlansa, o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish.

Avvalo, grammatik atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida uning mazmuni ochiladi, so'ngra o'qitish va mashqlar bajarish orqali

o'quvchilarning atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakldosh so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi. Masalan, ziyrak - zirak: odamning xususiyati (sezgirli) - ziyrak; quloqqa taqiladigan taqinchoq - zirak. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakkidosh so'zlarni o'rganish jarayonida, ko'm-ko'k, oppoq, qip-qizil kabi sifatning ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar guldon, gulchi, gulli, gulsiz so'zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan

ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog`liq. So`zlarni guruhlash uchun, avvalo ular kuzatiladi, so`ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o`xshash va farqli tomonlari ajratiladi:

Masalan, qavm-qarindoshlik bo`yicha guruhlash quyidagicha bo`lishi mumkin:

Ota urug`i: ota, amaki, amma, dada, buvi, buva.

Ona urug`i: ona, xola, tog`a, buvi, buva..

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlar (sho`x, og`ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazl.), ta`m bildiruvchi sifatlar (shirin, achchiq, nordon, taxir, shoir, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo) va shu kabilar guruhlash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin. Shuningdek, so`zlarning izohli lug`atini sinf yoki maktab miqyosida tuzib, osib qo`yilib, umum iste`molga kiritish mumkin. Bunda «O`quvchilar pochtasi» tashkil etilishi ham mumkin. O`quvchilar qaysi so`zning ma`nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so`zni yozib yashilikka tashlaydilar.

Hafta oxiridagi darsda shu

so`zlar ma'nosi, imlosi, izohi ustida ishlanadi. Boshlang`ich sinf o`qish darslari ham nutq o`stirishda alohida o`rin tutadi. Zero, nutq tafakkur bilan bog`liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog`liq holda o`stiriladi. O`qish darsida o`qilgan asarni o`quvchilar ongli tushinishi, asosiy mazmunini, g`oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo`llanadi. O`qilgan asarni analiz qilishda har xil usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o`qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi

shaxslarni o`quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o`qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so`raydi. Natijada o`qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O`qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi. Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o`quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O`qish bilan bog`liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi. Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`quvchilar nutqining o`sish darajasi to`g`ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to`liq qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang`ich sinf o`quvchilari

uchun matnni to`liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan muhimroqdir. O`quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xustisiatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O`qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so`zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o`zaro bog`liqligini yoritishga yo`naltirilishi lozim. O`quvchi o`qilgan asar mazmunini o`qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o`zaro bog`lanadi (sintezlanadi), bir- biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Ko`pincha boshlang`ich sinf o`quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba`zan noto`g`ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o`qituvchisavolni juda o`ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o`ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog`lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o`zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo`lishi lozim. O`quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko`z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O`qilgan asar mazmunini o`zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo`linadigan, bu bo`limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o`rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o`qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo`ygan qismini o`qiydi va o`quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o`quvchilar ba`zan asardagi so`zlardan foydalanadilar. Bu o`quvchilarga qiyinlik qilsa, bo`limdagi asosiy fikrni o`z so`zlari bilan aylib berishlari mumkin. Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o`stirish vositalaridan biridir.

Tanlab hikoyalashda o`quvchi: - o`qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so`zlab beradi; - hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; - hikoya mazmunini faqat bir sujet yo`nalishida so`zlab beradi.

O`quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o`qilgan matnni tahlil qiladi. Sunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o`stiradi va o`qilgan matn mazmunini o`zlashtirishga yordam beradi. Hikoyani o`qish bilan bog`liq holda o`tkaziladigan ijodiy ishlar ham o`quvchilar nutqini, tafakkurini

o`stiradi. Ijodiy qayta hikoyalashda o`qilgan hikoyaning sharoiti yoki shakli o`zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to`ldirib hikoya qilish ham mumkin. Ko`rinadiki, boshlang`ich sinf ona tili va o`qish darslarida o`quvchilar nutqini o`stirishning, tafakkurini rivojlantirishning turli shakllari bo`lib, ulardan samarali foydalanish har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisining eng muhim vazifasi sanaladi. Zero, nutq o`stirish ishlari metodik jihatdan to`g`ri tashkil qilinsagina o`zining samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Qosimova K., Matchonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. – Toshkent,—Nosir, 2009.

TA'LIM - INSON VA JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM OMIL

Najmiddinova Mexrinisa

Buxoro viloyat G`ijduvon tuman 52-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo`lidan ma`lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo`lishi o`sha davlatda yoshlar ta`lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e`tibor darajasiga bog`liq. Shu ma`noda, O`zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo`lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko`p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to`g`risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O`zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o`sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko`prog`i yoshlardan iborat bo`lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o`z qat`iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo`lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg`ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O`zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o`rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Alohida ta`kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida o`z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog`lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat`iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

ikkinchidan, o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo`llab-quvvatlash va ro`yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O`zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to`g`risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo`ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg`armasi tashkil etildi va ushbu jamg`arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g`oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkn lizingga berishi belgilab qo`yildi. Ushbu hujjatga e`tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko`rish mumkin.

O`z navbatida, O`zbekistondagi barcha o`zgarishlarning negizi hisoblangan ta`lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta`lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko`prog`ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko`tara olmaydi, ammo qanchalik og`ir bo`lmasin, buning uchun zarur mablag` va resurslar izlab topilmoqda.

O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamogda. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'li javob bera olishiga bog'liq.

Shu maqsadda, mamlakatda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keying ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va ba yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloqch yozdi.

Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingga to'garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va «Yoshlar klublari» faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko'rib, barcha umumta'lim maktablari sport anjomlari bilan to'liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada ko'paytiriladi.

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantiriladi, «startap» loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga osiriladi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi.

Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, yangi tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'magan miqdorda kitoblar yetkazib berildi. Shuning barobarida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etiladi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib boriladi.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o'rin egallaydi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni bartaraf etishga mislsiz ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limga nisbatan inson hayotining ajralmas bir bo'lagi va unga o'zining jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishida muhim vosita sifatida qarash asrlar davomida o'zgarib bordi. Biroq ta'limning bu borada tutgan o'rni ko'pincha ma'naviy-intellektual nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

So'nggi yillarda ta'limning jadal sur'atlarda rivojlanishi uni inson va jamiyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylantirdi. Ta'limning insonning ma'naviy va aqliy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatini shakllantirishga ta'sirini aniqlashda uning muhim jihatlarini bir-biri bilan bog'liq holda davlat, jamiyat va shaxs nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mezonini qabul qilingan.

Shaxsiy darajada — bu shaxsning o'z qobiliyat va iste'dodlarini to'liq namoyon etish. Ayni paytda, bu insonga mehnat faoliyatida o'zini namoyon etish imkonini beradigan umumiy va kasbiy bilimni egallashdir. O'qimishli kishining ma'naviy olami nisbatan boy, hayoti faqat moddiy farovonlik bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim insonga o'zining ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshirish, hayotini to'laqonli va mukammal qilish imkonini beradi.

Davlat darajasida — davlat mamlakat aholisining aqliy salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lishi darkor. «Iqtisodiy fanlar»ni keng joriy etishda zarur bilimga ega bo'lish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uning milliy boyligini to'plashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Aholining ma'naviy boyligi mamlakatda huquqiy madaniyatni, shuningdek, xalqning ozod, demokratik, huquqiy davlatda yashash va mehnat qilish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaati yo'lida foydalanish qobiliyatini uzviy hamda oson shakllantiradi.

Jamiyat darajasida – ta'lim jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan alohida global ma'naviy qadriyatlar, o'ziga xos ijtimoiy mentalitet va inson dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Chunki faqat o'qimishli va ma'nun boy odamlargina muammolarni urushlar yordamida hal qilishni mutlaqo rad etishga qodir jamiyatni shakllantirishi mumkin.

Tarixan qisqa davr ichida ta'lim sohasini tubdan yangilash va isloh qilish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Yurtimizda yoshlarning umumta'lim va kasb tayyorgarligini ta'minlashning zamonaviy modeli amalga oshirilib, pirovardida har tomonlama barkamol va mustaqil fikrlovchi, mehnat bozorida talab katta bo'lgan kasblarni egallagan, qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlar tarbiyalanmoqda. Bugun yoshlarimiz mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish, uni yangilash va ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Ta'lim tizimini boshqarishni xalqaro tajribani hisobga olib, ta'lim tizimini markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holda boshqarishni muvozanatli muvofiqlashtirish orqali yanada takomillashtirish mumkin.

ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHI USLUBIY ISHINING AHAMIYATI

Narziyeva Mastura Sunnatovna

BVXTXKT va ularni MO xududiy markazi "maktabgacha.boshlangich va maxsus talim metodikalari " kafedrasi katta o'qituvchisi

Ta'lim jara yonlarini zamonaviylashtirish jahon talablariga mos o'quvchilarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish va ta'lim oluvchini o'z ortlaridan ergashtira olish uchun bugungi o'qituvchiga qanday tartibda yordam berish mumkin? Ular munosib ilmiy, uslubiy va ma'naviy muhit yaratilishining yo'llari qay tarzda belgilanadi? Faqat o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari yordamida muayyan muammolarni yechish mukminmi? O'qituvchi, o'quvchilarga ijodkorlik muhitini yaratish orqali o'z ustida mustaqil ishlay olishi, izlanishi, mavjud muammolarni yecha olishini qanday tashkillashtirsa bo'ladi? kabi savollar o'z yechimini kutmoqda.

Pedagogik faoliyat cheksiz, murakkab, sermehnatdir. O'qituvchi mehnatida o'z garmagan elementlar mavjud emas doimo bilim sohasi rivojlanadi, ya'ni o'qituvchi o'qitadigan uning asosi bo'lgan o'quvchilar kontingenti o'zgaradi, pedagogika fani to'lib boradi. Bularning barchasi eng muhim bo'lgan mazmunni, maqsadga mos keladigan o'qitishning shakl, usul va o'qitish vositalarini, o'quv jara yonida o'quvchilar bilan hamkorlikning samarali yo'llarini doimiy ravishda izlab topishni talab etadi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini takomillashtirishning qismi, uning ilmiy-uslubiy ishi hisoblanib, u quyidagilarni nazarda tutadi, ya'ni to'plangan tajribalarni tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirishdir. Uslubiy ish – o'qituvchini majburiyatlaridan biri hisoblanib, maxsus fanlardan o'qitish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning natijasi bo'lib o'quv mashg'ulotlarida fan bo'yicha topshiriqlar va vazifalar majmui, didaktik materiallar, o'quv-ko'rgazmali qurollarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Uslubiy ish- bu ilm-fan va ilg'or pedagogik tajribalarning yutuqlariga va har bir o'qituvchini kasbiy bilimdonligini va kasbiy mahoratini har tomonlama oshirishga yo'naltirilishga asoslanuvchi, amaliy tadbirlarning maxsus majmuidir.

Uslubiy ishlar keng miq yosdagi muammolarni qamrab oladi, bular:

- mutaxassislarni kasbiy faoliyati tahlili; asosiy mehnat ishlari va kasbiy malakalarini aniqlash (mutaxassis faoliyatini modelini ishlab chiqish);
- o'quv jara yonida mutaxassisni kasbiy faoliyatini modellashtirish (mutaxassisni kasbiy tay yorgarlik modelini ishlab chiqish);
- zarur ko'nikmalarni egallash uchun topshiriqlar majmuini ishlab chiqish, o'qitish mazmunida uning o'rnini aniqlash;
- o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish;
- o'qitish mazmunida (aniq soha mutaxassisligida) ilm-fan, ishlab chiqarish sohalaridagi rivojlanish bashoratlarini aks ettirish;
- o'quvchilarni fikrlash faolligini rivojlantirishni ta'minlovchi, ta'limning shakl va usullarini (muammoli ta'limning shakl va usullari) takomillashtirish;
- o'quvchilarni fikrlash faolligini va mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlovchi, ta'limning shakl va usullarini (o'quvchilarning mustaqil ishlarining shakl va usullari) takomillashtirish;
- ta'limni individuallashtirish (individual topshiriqlar va ishlar, jamoaviy shakldagi ishlarda topshiriqlarni individuallashtirish, individual o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish);
- didaktik materiallarni (dasturlashtirilgan ta'lim uchun o'qituvchi dasturlar, topshiriqlar majmui, mashqlar, ishbilarmon o'yinlar, tahlil uchun ishlab chiqaruvchilik vaziyatlar ba yoni) ishlab chiqish.

Aniq mavzuni tanlash pedagogik mahoratdan kelib chiqadi. Tajribali o'qituvchi o'zining ishini va hamkasbini ishini tahlil qilishi va umumlashtirishi mumkin, u mustaqil ravishda, o'zining ijodiy imkoniyatlarini qo'llab ta'limning yangi usullarini ishlab chiqishi mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablardan biri shuki, u o'zining fanini chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. Fan va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi o'quvchilarni shu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quvchilar o'qituvchi bilimining ularga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu fanga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyiligini taqdirlashadi.

Uzluksiz ta'limning barcha o'qituvchilari qo'yilgan talablar bilan birga bevosita faoliyat yo'nalishlariga oid quyidagilarni bilishlari va uddalay olishlari lozim:

- Uzluksiz ta'limda o'quv ishlab chiqarish jara yoni va amali yotlarini nazariy-metodologik, pedagogik asoslarini;
- o'qitila yotgan umumkasbiy fanlar va maxsus fanlar, ishlab chiqarish ta'limi va amali yoti bo'yicha tarmoq ta'lim standartlari talablarini;
- mutaxassislik yo'nalishiga oid fanlar bo'yicha ishlab chiqarish amali yotini rejalashtirish, loyihalashtirish, tashkillashtirish, boshqarish, takomillashtirish, nazorat qilish asoslarini hamda ularga oid me'yoriy hujjatlar yuritilishini;
- o'quv va ishlab chiqarish amali yotining dolzarb muammolari va ularni yechish usullarini;
- mehnatni tashkil etishni ilmiy asoslarini;
- iqtisod sohasiga oid mehnat qonunchiligini;
- o'quvchilar bilan o'zaro munosabat odob-ahloq me'yorlarini va muomala madaniyati asoslari va shu kabilarni.

Uslubiy ishning asosiy maqsadi- bu o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish, aniq bir fan doirasida uning bilimdonligini oshirishdan kelib chiqib, uning asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin, ya'ni ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'qituvchilarni kasbiy va madaniy darajalarini oshirish;
- uning xizmat va jamoat ishlari faolligini rag'batlantirish;
- o'qituvchi yotgan o'quv fani sohasidagi bilimlarini yangilash va takomillashtirish;
- ilg'or-pedagog va ijodiy ishlovchi o'qituvchilar g'oyasi asosida pedagogik va uslubiy mahoratini takomillashtirish;
- o'quvchilar bilan o'zaro harakat usul va yo'llarini insonparvarlik, oshkoralik va erkinlik prinsiplarida takomillashtirish;
- o'quvchilarni mashg'ulotda va darsdan tashqari vaqtlarida ijodiy, mustaqil ishlari bo'yicha faoliyatlarini takomillashtirish;
- umumiy holda ta'lim jara yonini tahlil qilish va shu bilan birga o'quv-tarbiya jara yonidagi o'z faoliyatini o'zi tahlil qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ilg'or pedagogik tajribani aniqlash, umumlashtirish va tatbiq etish;
- o'qituvchilarni sodda va tushunarli bo'lgan uslub asosida tadqiqotchilik faoliyatiga qatnashtirish.

Uslubiy ishlar shakli quyidagicha bo'ladi:

- pedagogik o'qishlar va anjumanlar;
- ochiq o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlar;
- uslubiy birlashmalarning seminarlari;
- ijodiy ishlar ko'rigi;
- uslubiy ko'rgazma, kabinetlarni tashkillashtirish;
- uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish;
- seminar-amali yotlar;
- ilmiy, texnik, pedagogik, iqtisodiy va boshqa adabi yotlar sharhi;
- maxsus mashg'ulotlar va boshqa shakllar.

Uslubiy ishlar odatda yakka tartibda va jamoaviy shakllarda tashkil etilib, quyidagilarni ko'zda tutadi:

ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ularni ommalashtirish maqsadida targ'ib qilish;

o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish;

axborot resurs markazi imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

-o'qituvchilarga o'z imkoniyatlarini namo yon etishlariga shart-sharoit yaratish;

namunaviy dars tashkil etib o'tkazuvchi o'qituvchilarga ko'mak berish;

pedagogik jamoani yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

fan yutuqlarini amaliy tajriba- sinovidan o'tkazish;

-o'quvchilarni olimpiadalar, ko'rik-tanlovlar va turli tadbirlarga tay yorlashga ko'maklashish kabilardan iborat.

Uslubiy ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi.

G'oyaviy yo'nalganlik - uslubiy ishlar zamon talablariga hamnafas chuqur g'oyaviylikka ega bo'lishi kerak. Mustaqil O'zbekiston respublikasining kelajagi buyuk davlat ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish, tarbiya asosida milliy mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Buning uchun, yoshlar bilan ishla yotgan o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan olib boriladigan metodik ishlarning mazmuni ham davr va istiqbol talablari darajasida bo'lishi muhimdir.

Ilmiylik - uslubiy ishlarni ilmiy g'oyalar, nazariyalarga tayangan holda olib borishni ko'zda tutadi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning psixologiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasini o'qitadigan o'quv predmeti mazmunini, ta'lim-tarbiya nazariyasi qonuniyatlari, prinsiplari, tashkil etish shakllari, o'qitish metod va vositalarini har tomonlama mukammal bilishi zarur. Ular kasbiy pedagogik mahoratlarini oshirishlari uchun muntazam ravishda o'z ustida mustakil ishlab ijod qilishi darkor.

Maqsadga muvofiqlik va tizimlilik-dolzarb pedagogic muammolarning maqbul yechimlarini topishni rejalashtirishda shart-sharoit, imkoniyat, talablar muvofiqligini ta'minlash va amalga oshirish tizimini yaratishda o'z ifodasini topadi.

Ijodiylik va mustaqillik-o'quv yurti rahbariyati har bir fan o'qituvchilarining o'z qobiliyati va iste'dodlarini namo yon etishlari uchun shart-sharoit yaratib ko'mak berishlarini ko'zda tutadi. Chunki uslubiy ishlar ijodkorlik, faollik, ilg'orlikka asoslangandagina ko'zlangan natijalarni beradi.

Ta'sirchanlik va oshkoralik - uslubiy ishlarning ta'sirchanligi eng avvalo, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish sifati bilan aniqlanadi. Agar o'quvchilarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalari sifatida ijobiy siljishlar bo'lmasa, uslubiy ishlarning samarasi past hisoblanadi. Bu borada sustkashlikka yo'l qo'yish mumkin emas. Shuning uchun, uslubiy ishlarning ta'sirchanligi ko'p jihatdan rejalashtirilishiga, rejalarining aniqligiga, amalga oshirilgan ishlarning hajmiga va boshqa omillarga bog'liq. Shuningdek, o'quv yurtlarida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarishda oshkoralikka e'tiborni qaratish zarur bo'lib, bunda har bir o'qituvchi mehnatining natijalarini o'z vaqtida xolisona ko'rsatish, rag'batlantirish, tanqid qilishni me'yorida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Odatda uslubiy ishlar ma'lum aniq rejaga binoan bajariladi. Bu holat ayrim ishlarni bir necha marta takrorlanishini bartaraf etib, o'qituvchilar o'rtasida ishlarni maqbul taqsimlanishini ham ta'minlaydi.

O'quv yurtlarida uslubiy ishlarning umumiy rejasida ilmiy-pedagogik kengash, uslubiy kengash, seminar-amaliy yotlar ochiq darslar, pedagogik o'qishlar, ilg'or pedagogik tajriba maktablari kabilar o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga, o'qituvchilar uslubi yotchi va mutaxassis sifatida bir necha talablarga rioya qilishi talab etiladi.

O'qituvchilar uslubchi va mutaxassis sifatida quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

psixologik-pedagogik bilimlar yuzasidan malaka, mahorat va ijodkorlik faoliyatlarini boyitish, kengaytirishi;

ijtimoiy bilimlarni boyitish, kengaytirish, yangilashi;

kasbi bo'yicha tajriba oshirish zaminida tay yorgarlik;

ishning oxirgi natijalariga qarab, o'z faoliyatini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lish, hamkasblari bilan doimo kelishishga intilishi;

yangiliklarga intilishda ijodiy imkoniyatlarni ma'lum bir tizimga keltirib, ular yuzasidan ko'nikma hosil qilish hamda ularni tezlik bilan hal etish, axborotlarni mustaqil qabul qilish va baholash, xulosa chiqarish, natijalarni baholash, farazlarni ifodalash, ularni mujassamlashtirib, noan'anviy qaror qilishidir.

BOSHLANG'ICH SINIF O`QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMY O`YINLAR O`RNI

Bozorova Guljamol Ismatullayevna, Ochilova Gulnora Fozilovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchilari

Xoliqulova Mahbuba Qaysarovna Mirzaobod tumani 4-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

O'yin-bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar, dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilar aqlini charxlaydi, so'z boyligining oshishi, og'zaki nutqining rivojlanishiga, mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

Didaktik o'yinlar jaryonida, o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his-tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ayniqsa, o'yin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ziyrakligi, diqqati, topqirligi ortib boradi. O'quvchilarning istedodi, ijodiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik imkoniyatini yaratadi. Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin.

Didaktik o'yinlarni tashkil etishda qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekani o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosida harakat qiladilar.

Bolaning asosiy faoliyati o'yin davrida ham mehnat, o'qish faoliyatining ma'lum qismlari bilan shug'ullanadi, mehnat faoliyati asosiy hisoblangan katta yoshdagilar ham o'qish faoliyati bilan o'z yo'nalishlari bo'yicha shug'ullanib boradilar. Shularni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham asosiy faoliyati o'qish bo'lsada, lekin ularning yosh va individual psixologik xususiyatlari bolalarni o'yindan to'laqonli ajratish imkonini bermaydi. Shu bois boshlang'ich sinflarda berilayotgan materialni o'yin vositalaridan foydalangan holda berish o'quvchilarni faoliyatini samarali bo'lishiga olib keladi.

O'quvchi ta'limiy o'yin asosida o'zida erkinlikni his etadi, tushunmaganini o'yin asosida tushunish vaziyati yuzaga keladi, darsga qiziqishi ortadi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Tavsiya etilayotgan didaktik materiallar va o'yinlardan har bir o'qituvchi samarali va ijodiy foydalanishlari mumkin. Bu esa o'qituvchilarning ta'lim sohasida erishadigan yutuq va muvaffaqiyatlari uchun omil bo'ladi, degan umiddamiz.

„KIM KO'P SO'Z TUZADI“ o'yini.

O'quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so'zlar topish vazifasi yuklanadi. Bu harf (tovush) so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi.

Masalan, “a” tovushiga oid so'zlar toping.

So'z boshida: ayiq, asal, So'z o'rasida : sariq, maktab....

So'z oxirida: bog'cha, chana...kabi

“KIM KO'P BILADI” O'YINI.

O'rganilayotgan harf yuzasida bir guruh meva, 2-guruh, hayvon, 3-guruh gul, 4-guruh narsa, 5- guruh savzavot nomlarini topishlari so'raladi.

Masalan: “B” harfi

guruh: banan, behi,

guruh: begemot, baqa..

guruh: binafsha, boychechak.. 4-guruh: belkurak, botinka..

guruh: baqlajon, bodring kabi

Bu o`yinlar asosida bolalar tovush va harf haqidagi tushunchalari kengayib boradi. "BERILGAN BO`G`INLARDAN GAP TUZING" O`YINI.

Biror maqol, hikmatli so`z yoki mavzuga oid gapni bo`ginlar orqali hosil qilish vazifasi beriladi. Masalan: Qat-ra-qat-ra yi-g`i-lib dar-yo bo`-lur. Maqoli bo`g`inlarda aralash holda beriladi, o`quvchilar topshiriqni bajarishlari uchun bo`g`inlarni to`g`ri qo`ya bilishlari lozim.

"SO`Z ICHIDAN SO`Z TOP" O`YINI.

O`quvchilarga bir so`z beriladi, bu so`z ichidan so`zlar topish vazifasi yuklanadi, yani 1-2-sinflarga 2-3 bog`inli so`zlar. Masalan: "Mirzacho`l" so`zi ichidan so`zlar hosil qilish:

Mirza , cho`l , zira, zo`r, zar , o`ra , lim kabi... O`zbekiston: o`z, o`zbek, bek, is, zeb , zebo kabi...

"Guliston", "Maktabshunoslik", "Tabiatshunoslik" so`zlarini ham shu asosda berish mumkin. Bu o`yin aqliy hujum metodi asosida tashkil etilsa , maqsadga muvofiq bo`ladi.

"BERILGAN SO`ZLARGA BO`GIN, SO`ZLAR QO`SHISH ORQALI YANGI SO`ZLAR HOSIL QILING" O`YINI.

O`quvchilarga so`z beriladi bu so`z so`z boshida o`rtasida oxirida kelishi mumkinligi ta`kidlanib, yangi so`zlar hosil qilish so`raladi. Masalan: "Oy" so`zi Oygul, Oybek, Shirinoy, Oysanam kabi...

"Gul" so`zi asosida Gulnora, Gulchehra, guldon, gulchi kabi...

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan o`yinlar asosida bolalarda mustaqil fikrlash o`z fikrini o`zgalar bilan muhokama qilish va o`z lug`at boyligini oshirish, og`zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

TEACHING ENGLISH THROUGH PLAY IS AN IMPORTANT WAY TO BE EFFECTIVE IN PRIMARY EDUCATION

Asadova Zebiniso Maxmudovna

Teacher of English language at school № 32 in Bukhara

The necessity of using communicative games in teaching English to primary school children is substantiated in the article. Complex of games for different stages of learning are described. Factors affecting communicative competence development are analyzed.

The teaching of English is a growing focus of many nation states as English is considered to be a key competence in the information society. Consequently, many nation states focus on teaching English to children at the early stages of schooling, a strategy that may create both competent citizens and competitive nation states. This calls for new learning designs and new learning materials for primary school levels.

Early language learning will produce successful language learners, where an early language start is often seen as an advantage.

There are indications that young learners are more open to and engaged in learning a new language — and that early beginnings may give them a head start on learning — issues such as pedagogy, teacher education and feedback, exposure, distribution of lessons and progression are also significant. This supports the idea that the design of learning material for young learners that address several of these contextual issues is of great significance to the quality of learning. Unlike most other school subjects foreign language learning has a long history of integrating different games into learning, using paper, cards and classroom games. Generally, games in language learning are associated with intrinsic motivation, meaningful exposure to the target language, as well as perceived associations between children's language play and second/foreign language learning.

Games are often difficult to integrate into formal learning. However, a recent study concludes that «foreign language teachers believe that there is a larger potential for pupils to learn more from games in their subject compared to teachers of other subjects».

Almost everybody loves playing whether they are young or old. From early childhood playing is an enormous part of most children's lives and it plays a big part of their development as well. Children start playing as early as infancy but as they develop throughout their childhood they keep playing, and as they grow up and mature the nature of their play changes. When children enter middle childhood (6–12) their play starts to change into games which are different from play in the sense that they are more organized and planned, and they usually include a variation of rules and a specific objective.

When playing most games participants are almost forced into communicating with each other in order for the game to work. The need for communication during games, and the informal setting games

provide encourages students to be unafraid to talk, which practices their fluency, a valuable communication skill.

Because of this fact it is vitally important for teachers to create a positive learning environment, and to try to spark interest amongst their students both in the foreign language and culture because that is important to a successful language learning process. Games help achieve these goals as they help satisfy the requirement of the national curriculum that language learning should be enjoyable for students.

Teaching today has changed a lot over the past years. Once it was all about learners being passive and listening in the classroom, but today learners are usually much more active in the classroom, and what better way to be active than by playing games.

Teachers can help sustain diversity in a variety of ways, for example by using activities that require students to be creative in thinking and by emphasizing individual learning and cooperative learning equally. A more specific way that teachers can use in order to keep diversity within the classroom is to not be afraid of using games as a teaching method along with other methods. According to the national curriculum games can be a good teaching method and games, such as role playing games, imitation games, theatrical expression and problem solving activities are especially fitting for all stages of language learning.

There are a number of reasons that games deserve a place in the language classroom. First of all, they are fun, which is extremely important, because they can help activate students who may have been inactive before, due to lack of interest. Keeping students active is vital because teachers will never be able to actually teach students anything unless they can get them to participate in their own learning process.

Second, games also play a big part in helping participants build relationships, and to feel equal. Playing games in the classroom can also help create a friendly and positive atmosphere where seat arrangement can differ from game to game, and thus cause diversity from the norm which can be extremely helpful in keeping an exciting learning environment.

Third, the reason most people want to learn a language is to be able to use it in real situations, for example when travelling. Games can be a very good way to practice this skill because they can easily be used to reenact various situations from real life and provide students with practice in their fluency. Also, by using games in the classroom the teacher is giving his students a bigger role, and he himself is stepping out of the frontline which is a positive thing because it allows students to take on more responsibility. Also that allows students to do more on their own, and that can very well result in an increase in their confidence level.

Fourth, language students need to be exposed to the language in a variety of situations, which is a need games can fulfill. Language students also need to be ready to take on the experience, keeping their minds open and being willing participants. Again, games make this possible.

Fifth, language students need to be emotionally involved, meaning they need to feel something while they are exposed to the language. Strong emotions, such as happiness, excitement, amusement and suspense allow students to feel positively about their learning situation and are therefore likely to have a positive effect on language learning.

Sixth, games are good for shy students and students with low confidence, and that applies specifically when playing takes place in smaller groups because then they get a chance to speak in front of fewer audience instead of having to express themselves in front of the whole class. Also it is sometimes easier to open up and forget the shyness when playing a game because the atmosphere is not as serious and more emphasis is put on fluency rather than grammatical correctness.

Seventh, games can be a good strategy when teaching various subjects because they are very likely to spark interest amongst students. They can be used with students of all ages, and when they are used with other teaching methods they create diversity which is ideal for school work. A study that was undertaken in different primary schools in Karaganda shows clearly the need for diversity in schools. Many participants in that study complained about the lack of diversity, and that they wanted more of it in order for their learning to become more fun and progressive in their school.

Finally, using games in the classroom is important because many children do not get enough opportunity to play during their free time, which can be traced to the rapid changes in our society. Cities are getting bigger and traffic is getting heavier which means that more and more parents are hesitant to let their children play outside. Also passive activities such as watching television, or the computer screen are seen as being more exciting than actually physically playing, so today the sight of children playing various games in groups outside is becoming much more rare than it was 10 or 15 years ago. This is not a good development, and it can have several bad consequences for our society. One possible

consequence is that the lack of movement can cause health problems because even though not all games are physical some certainly are.

Also teachers must make sure they explain the rules of the game in detail and that all instructions are clear before starting the game. During the game it is important for the teachers to observe and be ready to help, but without unnecessarily interrupting the flow of the game because that might affect the fluency, which could result in discouraging students from participating. After the game, it is a good idea to have some sort of a follow up activity planned because it gives the student's time to reflect upon the game and how it turned out. It is important for teachers to know that augmenting a game is allowed and can certainly be necessary in some cases. More difficult games can be made easier so they become a challenge instead of too hard for less skilled or younger students and vice versa.

Although games can usually be modified to suit students of various ages, there are certain characteristics in games that appeal to children within specific age groups. For children age 6–8 repetition is very common in games, rules are often few, and the games usually do not take a very long time. When it comes to children age 9–11 they have patience for longer games, which often include much more suspense. Also when children reach this age they start to be able to augment the games themselves, for example to bend the rules to make the game more suited for their group. For children older than 12 games are often much more planned and they often emphasize teams and teamwork.

Writing is a skill that, even in the native language, is learnt and not acquired. That fact could explain in part why writing is often considered to be difficult, or even boring in the target language. Another explanation could be that it is often assigned as homework, and many students don't like homework. One possible reason why writing can be viewed as being difficult is because the writer does not get an immediate feedback similar to what happens during conversations, and as a result the writer could feel more insecure about his work. Some teachers also unwisely use writing as punishment: «Ok, just for that Sasha, I want to see an essay on my desk tomorrow!» Writing also demands a completely different language than normally used in conversations. For students in school this must not become their experience of writing because that can lead to their loathing of writing. Games can be a good way to prevent this because not only are games fun but they can provide writers with a reason to write and it is obvious that writing will become easier when there is a clear reason instead of just having to write because the teacher said so. Another thing that games can provide for writers is an audience. In many games other students will play the reader's part and therefore provide the writer with the necessary feedback that writing often lacks. A variety of interactive writing games can be found on the internet and teachers can, without much effort, create a game that practices writing. For example, when teaching students how to write a formal letter a game where participants would have to rearrange sentences to position them correctly, so they make a formal letter, could be a good game.

Most people remember training their listening skill mainly by doing listening activities when they were in school. Listening activities might very well be an effective way of training that particular skill but teachers need to remember to keep the activities versatile or their students might get bored. By combining listening with games, teachers might prevent their students from getting bored, and by keeping them interested they are increasing the chances of the students achieving their goals. An example of a good listening game is the famous game «Simon says» where one participant plays the role of Simon and gives the others directions, for example by saying: «Simon says jump», or «Simon says stop jumping» and then everybody would have to do that. If Simon only says «everybody jump» and does not attach the phrase «**Simon says**» at the front then the other participants are not supposed to follow the direction. Because of this, students need to listen carefully in order to know when to follow Simon's directions and when to ignore them. **This game can also be used to train any vocabulary.**

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING NATIJASI – “NIHOL”NING HOSILIGA BOG'LIQ

Jumanova Nafisa Bobodustovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani 179-maktab matematika fani o'qituvchisi

Respublikamizda ta'lim sohasida yoshlarga zamonaviy bilimlarni berish, ularning intellektual salohiyatini oshirish va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga qaratilgan tub o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, intellektual, estetik va jismoniy barkamol avlodni shakllantirishni hamda yoshlarga ta'lim berishni yangi sifat darajasiga

ko'tarish, shu jumladan, chet tillari, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi muhim va talab yuqori bo'lgan boshqa fanlarni chuqurlashtirib o'rganish 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston qurishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda OAVda, ijtimoiy tarmoqlar ta'lim tizimining muammo va kamchiliklari keng jamoatchilik tamonidan muhokama qilinayotgani bejizga emas. Sababi — ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan kichik bir xato keyinchalik jamiyatdagi boshqa bir illatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi kunda jamiyatimizda mavjud jinoyatchilik, huquqbuzarlik, giyohvandlik, terrorizm kabi illatlarga qarshi kurashish hamda oldini olish uchun birinchi navbatda ta'lim tizimini mukammal darajaga chiqarish lozim.

Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Yaponiya nima uchun jinoyatchilik, xuquqbuzarlik, giyohvandlik, terrorizm kabi illatlarni uchratish qiyin? Sababi — Yaponiyadagi maktab o'quvchilari 4-sinf gacha imtihon topshirishmaydi, faqat kichik mustaqil ishlar yozishadi. Ilk uch yilda asosiysi — akademik bilim emas. Boshlang'ich sinflarda asosiy e'tibor tarbiyaga qaratiladi: bolalar insonlar va jonivorlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglik, birovning dardiga sherik bo'lish, haqiqatparvarlik, o'z-o'zini nazorat qilish va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

Yoki Ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan, mamlakat iqtisodiyoti tanazzulga uchragan Germaniya qisqa vaqt ichida rivojlangan davlatga aylandi. Nemis pedagoglari **iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q**, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra, ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etib, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. Pedagoglar birinchi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

Biz kuchli davlat barpo etishimiz uchun, har bir sohani yuksak darajaga olib chiqishimiz uchun ta'limning har qanday ko'rinishiga jiddiy e'tibor berishimiz, ta'lim olayotgan yosh avlodning va ta'lim berayotgan o'qituvchilarning fikrlarini inobatga olgan holda o'zgarishlar qilishimiz lozim. Buning uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim:

1. Agar niholni boshidanoq noto'g'ri parvarishlasangiz yoki nihol ekishda xatolikka yo'l qo'ysangiz, oqibati niholimiz hozi bermaydi. Shuning uchun ham o'quvchini boshlang'ich sinq partasiga ilk qadam qo'ygan kundan boshlab, o'qituvchi unga namuna bo'lib ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishi zarur.

2. Ta'limning maqsadini aniq belgilab olib, dars jarayonini shu maqsadni amalga oshirishga qaratish lozim.

3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga munosabatda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirilishi kerak.

4. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi buyuk allomalarimizga qay tarzda ta'lim berganliklari, ularning pedagogik g'oyalarini o'rganib amaliyotga qo'llanilishi muhim.

Xulosa o'rnida shuni aytmogchiman, ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan **«Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir»**, degan iborasi ayni kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, dunyoning rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'QITUVCHINING O'QUVCHI BILIMINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI

Sadullayeva Gulsara Abdullayevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 7-maktab

O'quvchining psixologiya bo'yicha bilimlarini baholashni ushbu o'quv fanini o'zlashtirishning zarur komponentidir. Baholash o'quvchilarning maktab dasturi ko'zda tutgan bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mashhur rus pedagogi va psixologi P.F.Kapterev bola rivojlanishida hurmat hissi aralash ijtimoiy bahoga intilishlarini ko'rgan, uning fikricha, biz qanchalik zavorligimizga qarab boshqalar, ayniqsa, yaqinligimiz qobiliyatlarimizni baholashlari, bizni hurmat qilishlari lozim.

Bola o'z xatti-harakatlarini atrofdegilar baholashlariga befarq emas — mazaxlarga g'azab bilan javob berishi mumkin, biroq unga munosabat yetarlicha jiddiy emas. Darsdagi bahoga har biri befarq bo'lmaydi.

B.G.Ananayev ta'kidlaydiki, o'quvchi uchun ahamiyatli intellektual zo'riqish va bajarilgan ish uchun bahoni kutish vaziyatlarida pedagogik bahoning yo'qligi o'qituvchining yorqin ravishda ma'qullamasligidan depressivroq ta'sir ko'rsatadi.

Baho S.L.Rubinshteynning ko'rsatishicha, o'z psixologik xususiyatlariga ega: u faoliyat maqsadi emas, natijasi bo'lishi kerak. Agar baho muvaffaqiyat faoliyatning asosiy maqsadi hisoblansa, u holda inson bajarayotgan ishi haqida emas, uni qanday baholashlari uning ishi baholashadiganlarda yoqimli yoqmasligi haqida uylaydi.

Ishga yoki muvaffaqiyatga bo'lgan psixologik mo'ljalga olish ko'p jihatdan o'z kuchiga ishonish yoki ishonmaslikka bog'liq bo'ladi. Agar inson o'ziga unchalik ishonmasa, u holda u xato qilishdan ko'rqadi. Yangi ishda xato qilishdan qo'rqish ahamiyatli darajada bo'lishiga zarar keltiradi. Agar, qadimdagi insonlar ham, xato – bu insonga oldinga intilishiga yordam beruvchi fan, deb aytishgan. Yomoni xato emas, balki undan dars olmaslikdir.

Buni bolalar bilan ishlashda ayniqsa, hisobga olish muhim, axir ularni o'zini o'zi baholash ahamiyatli darajada ularga kattalar – ota-onalari, o'qituvchilari beradigan bahoga bog'liq bo'ladi. Kattalarning o'quvchining noto'g'ri harakati yoki darsdagi noto'g'ri javobiga pozitiv munosabatning mazmuni quyidagicha: "Sen yaxshisan. Biroq sening bu ishing, javobing va h.k. yaxshi emas".

Maktabdagi baho doimo bilimlarni tekshirishga asoslangan. Bilimlarni tekshirish va baho nafaqat o'quvchilarni bilimlarini o'zlashtirganliklari darajasi va sifatini qayd etish imkonini beradi, balki bu bilimlardagi, o'quv materialini tushunishdagi muammolarni yuzaga chiqarishga ham yordam beradi. Bu o'qituvchiga muammolarni bartaraf etish yordam beruvchi, aqliy va amaliy ish usullarini o'rganishga, o'quvchilarning rivojlanishga ko'maklashuvchi individual yo'nalgan usul, metodlarni qidirish uchun asos beradi. Bahosiz javoblar sifati va o'quvchilar ishlarining sifati, ularning o'quv faoliyati kam samaralidir.

O'quv fani bo'yicha baholash o'quvchilarda bilimlarni egallash bo'yicha o'z harakatlarini, ushbu ma'lumotlarni qanchalik bilimlari, tushunishlari, o'z faoliyat natijalarini baholay olish ko'nikmasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Psixologiya o'qituvchisining baholovchi mushohadalari quyidagilarga taalluqli bo'lishi lozim:

-o'quv materialini bilish;

-bu materialni tushunish, bajarilgan topshiriqlar darajasi.

O'quvchining sifat va xususiyatlari emas, insonning psixik sifat va xususiyatlar haqidagi bilimlari baholanadi. Bilimlarga berilgan bahoni o'quvchilarning rivojlanish shaxsi, intellekti, qobiliyatlariga berilgan baho va xarakteristikalar bilan almashtirish va aralashtirish mumkin emas. Yana bir bor eslaymiz, o'quvchi uning ichki olamiga aralashmaslik huquqini ta'minlash maktabdagi psixologiya o'qituvchisining muhim tamoyilidir.

Pedagogik savodni baho o'quvchilarida o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlanishiga yordam beradi, bu esa shaxsning muhim xususiyatini o'zini o'zi baholashni shakllanishiga asos bo'lib, xizmat qiladi. O'zini o'zi baholash malakalarga bolalarni o'rgatish psixologiya o'qituvchisining markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Baho bolaga har qanday ishga muvaffaqiyatga doimiy, zo'riqishli va tizimli mehnatsiz erishib bo'lmasligini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, u faqat mana shu muvaffaqiyat haqiqiy rohatlanish va bunday mehnat evaziga keladigan g'ururni his etish imkonini beradi. "Sehrli tayoqchani qimiratish" evaziga kelgan yutuqni hech nimaga arzimastligini anglash imkonini beradi. Bunday muvaffaqiyatni hech kim hurmat qilmaydi. U o'sayotgan inson uchun zarar narsani o'z-o'zini ta'kidlash, o'z aqliy va boshqa mehnati natijasidan g'ururlanish hissini beradi.

Pedagogik bahoning professional darajasiga ko'p jihatdan bola lokus nazorati rivojlanishi qanday yo'nalish olishi – ichki yoki tashqi yo'nalish olishiga bog'liq bo'ladi. Eslatamiz, ichki lokus nazorati quyidagilarni ko'zda tutadi: inson o'z omad va omadsizliklari birinchi navbatda o'ziga bilimlari, aqli, qobiliyatlari, qat'iyatligi istak va boshqalarga bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi. Barchasiga uning o'zi javob beradi.

Tashqi lokus nazoratida inson omad va omadsizliklarini tashqi sabablariga bog'laydi: omad kulib boqdi, omad kulib boqmad, juda qiyin juda oson, tashlanishmoqda, faqat adolatsizliklar va boshqalar. Bu holatda inson o'z faoliyati natijalari uchun o'zini javobgar deb hisoblamaydi. Ayniqsa, shaxs rivojlanishi uchun lokus nazoratining birinchi varianti maqbul.

Maktabdagi baholash odatda, nafaqat o'qituvchining baholovchi mushohadalari shaklida ifodalaniadi. Baholash - o'z mohiyatiga ko'ra – bu o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan, baholanish jarayon, faoliyatidir. Baho – bu jarayon, faoliyatning formal – mantiqiy natijasi hisoblanadi.

Psixologik pedagogik adabiyotlarda turli o'quvchilar bahoni turlicha qabul qilishlari pozitiv tan olinishi ifodalangan.

L.S. Vigotskiy bola o'z harakatlari yakuniy natijasini bilishi zarurligi va bu bilishlar pedagog qo'lidagi yaxshi tarbiyaviy vosita ekanligini tan olgan holda baho salbiy munosabatda bo'lgan. U baho salbiy ta'sir

ko'rsatishni va bola ko'p o'tmay o'z ta'limiy qiziqishlari ustidan dominantlik qila boshlaydi va o'quvchi yomon baholardan qochish va yaxshi baholarni olish uchun o'qiy boshlaydi, deb hisoblaydi.

Har bir o'qituvchida o'quvchilarni bilimlarini baholash mezonlari va baholarga ega bo'ladi (albatta, umum qabul qilingan mezonlar asosida). Bu mezonlar o'quvchi oldida ular o'zlaridan nima talab qilayotganini, ular qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi, u yoki bu o'quv materialini o'rganishda ular egallashlari lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni aniq tushunishlari uchun ochib berish muhim. Buning uchun o'quvchilar yangi o'quv fanini o'rganish oldidan o'qituvchi bilan birgalikda baholash va nazorat mezonlarini ishlab chiqishlari, darsda pedagoglar bilan kelishgan holda o'zlariga baho qo'yishlari ko'zda tutiladigan o'quv vaziyatlarini yaratish lozim.

D.B.Elkonin shuni ta'kidlaydiki, bolani o'qituvchi tomonidan qo'yilgan baholarni tushunishlari o'zini o'zi baholashlari yetarlicha yuqori darajasini talab etadi, bu esa darrov yuz beradi. Busiz o'qituvchilar bilan baholar orqali yuz beradigan dialogi ikki karni suhbatiga o'xshaydi.

O'zini o'zi baholashning rivojlanishiga mashg'ulotlardagi shunday muhit yordam beradiki, unda har o'quvchi mustaqil ravishda o'qituvchiga maslahat uchun murojaat etish mumkin. Shu bilan birga undan zarur ko'rsatma va yordam olishi mumkin, o'quvchi bu muhitda xato qilmasdan qo'rqmasligi va uyalmasligi, nimanidir tushunmasligini tan olish, o'z shubha va kelishmovchiliklarini aytishdan tortinmasligi lozim. Buning evaziga o'qituvchiga, uning ma'lumotlariga ishonch ortadi.

Baholash vaziyatida o'qituvchi va o'quvchi faqat sub'ektiv vaziyatdagina bir-birini tinglaydi va tushunadi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda o'quvchi javobi yoki bajargan topshirig'i sifatini tahlil qilishadi va baholashadi.

O'quvchining ta'lim sub'ekti sifatidagi pozitsiyasi bu yerda shu holatdagina namoyon bo'ladi, bunda u nafaqat o'quv materialining mazmunini o'zlashtirib oladi, balki o'zi ham o'z bilish – o'quv faoliyatini nazorat va korreksiya qiladi. Bunday sharoitlarda, ya'ni o'quvchi diqqati bahoga emas, topshiriqni bajarishga qaratilgan vaziyatda bo'lishi va o'quv qiziqishlari bilan bog'liq motivlar rivojlanadi. Darsdagi baholash faoliyati jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini buzilishi, o'quvchi nima uchun qanday va qachon unga baho qo'yilishlarini bilmoqchiligi bahoni o'zi motivlashtiruvchi omilga ega.

БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИ ВА ШАХСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хайдаров И.О.

ЎзДЖТУ н.ф.н.доц.

Бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш фаолияти кичик мактаб давридаги болалар психикаси ривождаги ўзгаришларни белгилаб беради. Мактабга биринчи бор келган бола ўз фаолиятининг туб моҳияти ва вазифасини тўла тушуниб етмайди, балки ҳамма мактабга бориши керак деб билади. Катталарнинг кўрсатмаларига амал қилиб, тиришқоқлик билан машғулотларга киришиб кетади. Орадан маълум вақт ўтгач, шодиёна лаҳзаларнинг таассуроти камайиши билан мактабнинг ташқи белгилари ўз аҳамиятини йўқота боради ва бола ўқишни кундалик ақлий меҳнат эканлигини англайди. Шунда бола ақлий меҳнат кўникмасига эга бўлмаса унинг ўқишдан кўнгли совийди, унда умидсизлик ҳисси вужудга келади, ўқитувчи эса бундай ҳолнинг олдини олиш учун болага таълимнинг ўйиндан фарқи, қизиқарлилиги ҳақида маълумотлар бериши ва уни шу фаолиятга тайёрлаши керак.

Ўқиш фаолияти давомида таркиб топган хусусиятлар боланинг келгуси ривожини учун замин бўлиб хизмат қилади.

Мактабдаги ўқиш болаларнинг билиш эҳтиёжларини тез ривожланиши ва сифатли таркиб топиши, уларнинг атроф ҳаётга фаол қизиқишларини юзага келтириб, янги билим ва кўникмаларни эгаллашлари учун шароит яратади.

Сўнги йилларда собиқ иттифоқ давлатларида, Шунингдек, Полша, Германия каби мамлакатлардаги илгор ўқитувчиларнинг ишларида гуруҳий билиш фаолияти ҳар бир ўқувчига дarsда максимал фаоллик ва мустақилликни таъминланиши зарурлиги тасдиқланган. Сўнги йиллардаги олиб борилган тадқиқотлар тафаккур мустақиллигини фаолият сифатида анъанавий тушунишга жиддий тузатишлар киритди. Ўқувчиларнинг ўзаро назорати ва жавобгарлигига асосланган гуруҳий ўқув фаолияти тафаккур мустақиллигини ривожланиши учун қулай шароитлар яратиши аниқланган.

Таниқли психолог ва педагогларнинг илмий асарларида кичик мактаб ёшидаги ўқувчининг ўқув фаолиятидаги мустақиллиги учун шарт- шароитларни яратиш ниҳоятда аҳамиятли эканлиги ҳақида фикрлар мавжуд. Шундай шарт-шароитлардан бири бошланғич синфларда ўқув фаолиятини жамоавий фаолият сифатида ташкил этилишидир.

Қуйидаги белгилар мавжуд бўлган тақдирдагина ишни жамоавий деб ҳисоблаш мумкин.

1. Ўқитувчи томонидан берилган ўқув вазифаси ёки алоҳида бир микрогруппа томонидан баравар бажариш қабул қилинса.

2. Вазифаларни ўзаро тақсимлаган ҳолда биргаликда бирон-бир иш бажарилса.

3. Ўзаро назорат ва маъсулият мавжудлиги.

4. Ишларни тақсимлашни ташкил этиш ва унинг кечишини ўқувчиларнинг ўзлари назорат этишлари.

Ўқув фаолиятида назорат ва ўз-ўзини назорат этиш кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ўқув ҳаракатларини мустақил режалаштириши ва бажаришни шаклланишида жуда муҳимдир.

Кичик мактаб ёшидаги болалар ўқув фаолиятининг ўзига хос хусусиятларидан яна бири шундаки, шу даврдан бошлаб, ўқув материални ўзлаштирмасликнинг дастлабки белгилари кўзга ташланади. Кичик мактаб ёшида паст ўзлаштириш сабаблари ва ўқишдаги қийинчиликлар қуйидагилар билан боғлиқдир:

1) нейрофизиологик сабаблар;

2) билиш жараёнларининг етарли даражада ривожланмаганлиги;

3) эркин ва мустақил ҳаракат қилиш даражасининг пастлиги;

4) мотивацион соҳаларининг етарли ривожланмаганлиги;

5) оила тарбиясидаги, оилавий муносабатлардаги камчиликлар;

6) мактаб таълими ва тарбиясидаги камчиликлар;

7) ўзаро мулоқот ва муносабатдаги камчиликлар;

8) шахс хусусиятлардаги оғишишлар.

Кичик мактаб ёшидаги болалар ўқишидаги қийинчиликлар бола шахсининг барча шахсий, билиш, мотивацион ва ҳиссий ва иродавий соҳаларда акс этади. Бу қийинчиликлар ўзаро бир-бири билан боғлиқ. Бир қийинчиликни бартараф этилиши иккинчи қийинчиликни ҳам камайишига олиб келади.

Ўқув фаолияти кичик мактаб ёшидаги ўқувчи учун нафақат билиш жараёнларининг юқори даражада ривожланиши, балки шахс хусусиятларини ривожлантириш учун ҳам имконият яратади. Кичик мактаб ёши даврида бола шахсининг шаклланиши давом этади. Ўқувчининг мактабдаги муваффақияти унинг кейинги психик ривожини ва шахсининг шаклланишида тўлиқ ижобий асос бўлади. Бунинг натижасида боланинг ўз-ўзидан оиласи, ўқиётган синфи ва бошқа жамоалардаги ўз ўрнини англай бошлаганини кўриш мумкин.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бошланғич синф ўқув фаолиятининг асосий вазифаси - бу ўқувчиларни “ўқиш”га, билим олишга ўргатишдир. Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг психик ривожланишида таълимнинг таъсирида жиддий ўзгаришлар юз беради. Бу ўзгаришлар уларни ҳаётларининг маъсулиятли даври бўлмиш ўсмирлик даврига ўтиш учун тайёрлайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Давлетшин М. Г. Умумий психология. Т., ТДПУ, 2002.
2. Иванов И., Зуфарова М. Умумий психология. Ўз.ФМЖ., 2008.
3. Немов Р.С. Психология. М.: Владос, 2003. 1-2-т.
4. Ғозиев Е.Г. Онтогенез психологияси.-Т.: Ношир. 2010.

О‘QUVCHIDA IZLANUVCHANLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH - IJODIY TAFAKKURGA QADAM

Ismatullayeva Inobat Nutfilloyeva

Buxoro shahar 9- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Bilish faoliyati ko‘p qirrali, murakkab jarayon bo‘lib, uning ta‘limni amalga oshirishdagi samaradorligi o‘quvchi qobiliyati, izlanuvchanligi, tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy yondashuviga

bog'liq. Shuning uchun ham bilish jarayonida ijod muhim o'rinni egallaydi. Ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste'dod namoyon bo'ladi. Ijodkorlik o'quvchilar egallayotgan bilimlarning mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu holat bo'lajak mutaxassislarining fan asoslarini o'zlashtirishida, bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda, kasbiy ijodkorlikka asoslangan yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli davrlarda ijod va izlanuvchilik faoliyati tushunchalariga berilgan ta'riflarda bu hodisa haqidagi o'zgarib borayotgan tasavvurlar o'z aksini topgan. Masalan, falsafiy lug'atda ijod biror narsani yaratish bilan bog'liq ekanligi, ijod qilish qobiliyati oliy darajada ilohga xosligi, inson esa faqat ayrim ijodiy harakatlarni bajarishi mumkinligi qayd etilgan. Keyinroq ijod mutlaqo yangi mahsulotni yaratish sifatida tushunila boshlandi va u inson faoliyatining turli jabhalarida namoyon bo'lishi qayd etildi.

«Ijod» tushunchasi fikrlash tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Aksariyat mualliflar fikrlashning ikki asosiy turini farqlaydi: reproduktiv fikrlash va ijodiy fikrlash. Izlanuvchilik shaxs mustaqil fikrlash sifatлари namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Unga berilgan tariflar bir-biridan jiddiy farq qilsa-da, uning ba'zi umumiy jihatlarini ko'rsatish mumkin, bular: birinchidan, ijodkorlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo'lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlarining ijodkorlik dastlabki asoslarida mavjud bo'lmaganligi; uchinchidan, har qanday ijodkorlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi.

Ijodkorlik pedagogikasi dialektik asoslarining tarbiya va o'z o'zini tarbiyalash vositasida uyg'un ijodiy shaxsni shakllantirish asosidagi pedagogik nazariyasi A.Leontev, F.Talizina, P.Galperinlar tomonidan ishlab chiqildi. Ular tadqiqotlarida asosiy e'tibor o'quv faoliyatning maqsadga yo'naltiruvchi asoslarini aniqlash, teskari aloqa kabi omillarga qaratildi.

V.V. Davidov izlanuvchanlikning bu turlari o'rtasida jiddiy farq mavjudligini qayd etadi. Uning fikricha, «tafakkur, formal mantiq doirasidan chetga chiqmaydigan empirik bilishning dastlabki bosqichidir; u predmetning muhim xususiyatlarini, uning ichki aloqalarini qayd etmaydi, hodisalar va mohiyatni farqlashni ta'minlamaydi. Nazariy fikrlash esa, o'zining alohida mazmuniga ega bo'lib, u empirik fikrlash mazmuniga o'xshamaydi. Bu amalda o'zaro bog'langan, yaxlit tizimni tashkil etadigan hodisalar sohasi, bu umumiy va ayrimning ob'ektiv aloqasidir».

Ijodiy izlanish natijasida hosil bo'ladigan bilim mazmuni yangi texnik yechim, badiiy asar, matematik formula, nazariya, qonuniyat kabi shakllarda jamiyatga taqdim etiladi. Ulardan jamiyat bahramand bo'lishiga erishilgandagina, ijod haqiqiy to'laqonli namoyon bo'ladi.

Talabalar ijodkorlik faoliyatini quyidagi belgilariga ko'ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, aralash); ijod darajasi (mono ijod, multi ijod, mega ijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, xalqaro, mintaqalararo); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning murakkablik darajasi (oddiy, murakkab, juda murakkab); ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'limiy, investitsion, aralash).

Yangi sifat – ijodkorlik mahsuli – faqatgina ikki yoki undan ortiq nisbatan avtonom tizimlar bitta yangi tizimga birikkanida yuzaga keladi.

Aynan ularning yangi tizim doirasida o'zaro ta'sirlashuvi yangi sifatning yuzaga kelishini belgilab beradi. Boshqa sohalar bilan tutash bilim sohalari, amaliy hayotda esa odatda o'tish davrlarida ijodiy potentsiali yuqori hisoblanadi.

Turli-tuman, o'zaro qarama-qarshi jihatlarni biriktirish izlanuvchilikning eng muhim manbalaridan biri sanaladi. Buning muhim jihati yangi hosil qilingan jihatning dastlabki mahsulotda mavjud bo'lmaganligidir. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish izlanuvchilikning yana bir manbaidir. Inson tomonidan turli buyumlardagi umumiylikni ko'ra olishi abstrakt tafakkur bilan bog'liq. Agar ikki voqea qaysidir jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa, u sabab-oqibat bog'liqligida o'z aksini topadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish izlanuvchilikning san'at va falsafa bilan bog'liq turlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Eng umumiy jihatlariga ko'ra ijodkorlik faoliyati turlarini uch guruhga bo'lish mumkin: a) prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; b) ushbu yangilikning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uni detallashtirish, konkretlashtirish, ishlab chiqish; v) yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish, u yoki bu moddiy shaklda keltirish bilan bog'liq faoliyat.

Yaratilgan ijod mahsulini ma'nosi va murakkabligiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: ratsionalizatorlik taklifi – eng oddiy ijodiy ishlanma bo'lib, mavjud va avvaldan qo'llanilgan tizim, jarayon

va vaziyatlarning ayrim tarkibiy qismlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan yangi fikr; ixtiro – yuqori darajada texnik ishlanma hisoblanib, mavjud bo'lganlaridan jiddiy farq qiluvchi texnik yechim; kashfiyot – moddiy dunyoning ilgari ma'lum bo'lmagan ob'ektiv mavjud qonuniyat, xossa va hodisalar aniqlanishi.

Zehnlik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatleri, mustaqil va tanqidiy fikrlashning tarkib toptirilishi shaxs ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarining ushbu asosda tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchi muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ijodiy faoliyatni pedagog va o'quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Aniq metod, shakl, vositalarga intilish ularni boshqalarni tan olmasliklariga olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan: azaldan umuman fikr va mulohazalarni qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtai nazardan qat'iy himoyalanih; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski metodlarni qo'llash; yangi metodlarda eski shakllarning saqlanib qolinishi; umuman yangi masalani an'anaviy yechish usullari kabilar.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilar xulq-atvoriga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi maqsadlarni aniqlash va hisobga olish zarur. Bu borada pedagog ko'proq yakuniy natijaga qadar bosqichma-bosqich amalga oshadigan oraliq maqsadlarni izlash va ulardan foydalanishi kerak bo'ladi. Talabalar xulq-atvorini muayyan yo'nalishga solishga qaratilgan maqsad orqali istalgan loyihani barqaror, aniq qilib bajarish mumkin. Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (bilim olish jarayonining rivojlanish darajasi), ijtimoiy-psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

YAPONIYA TA'LIMIDA HAMKORLIKDA O'QITISH

Astanova Marhabo Aslanovna

Buxoro viloyat G'ijduvon tuman 45 umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlangich sinf o'qituvchisi

Shaxsning har tomonlama o'sishi uchun boshlang'ich ta'limga, xarakterining shakllanishiga, shaxsning butun umri davomidagi kamolotiga ahamiyat beriladi. Barcha darajadagi o'quv yurtlarida inson shaxsini hurmat qilishga qaratilgan tarbiya amalga oshiriladi, o'quvchilarning demokratik va jamoatchilik tafakkuri rivojlantiriladi, ularning ijodiy imkoniyatlari va amaliy mahoratlari kashf etiladi.

Institutlarga kirguncha o'n ikki yillik ta'lim davomidagi har bir yilda yapon bolalari ilmiy fanlarni o'rganib boradilar. O'qitishning ilk bosqichida ilmiy tafakkurni taraqqiy ettirish imkonini beruvchi o'qitishning guruh bo'lib ishlash-hamkorlikda ishlash usuliga alohida e'tibor beriladi. Chunki Yaponiyada kishining qadri, uning jamoaga nisbatan o'z burchini qanday ado etishiga ko'ra baholanadi.

Maktab o'qituvchisi odatda o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi, ular o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlarni hal etishgandan so'ng erishilgan natijalarni butun guruhga e'lon qiladi. Bunday holat o'quvchilarda o'zaro yordam va o'z jamoasi muvaffaqiyatlari uchun g'ururlanish tuyg'usini tug'diradi. Binobarin, jamoatchilik mezoni yaponlar qalbida ularning nafaqat guruhning balki, umumiy o'rta ta'limning ham a'zosi ekanligini anglashga o'rgatadi. Yapon o'quvchilari xotirani yaxshi saqlabgina qolmay, balki yod olingan narsani qaytadan xotirada tiklay olishadi ham.

Yaponlar pog'onali subordinatsiyaga rioya qilishadi, ular keksalarga xonalarni yig'ishtirishda, ovqat tayyorlashda, jamoat ishlarida ko'maklashadilar. Yapon ta'lim tizimidagi ana shunday ijobiy tajribani e'tirof etgan holda, pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning asosiy sharti bo'lib - o'quvchilar jamoalarining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlariga erkinlik berish bilan zamonaviy ta'lim strategiyasi ishlab chiqiladi (pedagog tomonidan o'quvchiga o'z imkoniyatlarini rivojlantirishda yordam berish bilan shaxsiy va ijtimoiy maanfaatlar yuzasidan uning kasb va hayotdagi o'rmini belgilab olishi).

Bizda ham inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Jahon madaniyati va maorifining ilg'or g'oyalaridan oqilona va unumli foydalanish bilan birga bir necha o'n asrlk tarixga ega bo'lgan, hatto unutilish darajasiga borib qolgan milliy tuyg'u, milliy xarakter,

milliy qiyofa, milliy didsiz iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, soflilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, mas'uliyat va burch kabi hislarni tarkib toptirib bo'lmaydi. Milliy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, bunda tarbiyaga asosiy e'tiborni qaratish, uning birlamchi ekanligini tan odirish muhimdir.

Ta'lim tizimida o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi – uning faolligiga bog'liq. O'quvchilar bajaradigan kasbiy o'quv mehnati, ijtimoiy foydali ishlar, unumli mehnat yoshlarda kasbiy malaka va ko'nikmalar, qobiliyat va xarakter, boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish va ijtimoiy foydali mehnat natijasida shaxsning fuqarolik qiyofasi tarbiyalanadi, shaxs va jamiyat manfaati yo'lida xizmat qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, mehnatga va mulkka munosabat hissi rivojlanadi. Faoliyatning barcha turlarida izchil qatnashish o'quvchining mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi, ularda professional-kasbiy sifatlari va axloqiy fazilatlarini o'stirishga imkon beradi.

Bizningcha, nazariy tahlilga ko'ra jahon tajribalarini e'tiborga olgan holda pedagog tomonidan ta'lim tizimida interfaol usullardan dars mashg'ulotlarini tashkil etish, hamkorlikda o'qitish usullaridan samarali foydalanish aynan ham zamonaviy, ham milliy ruhda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “o'quvchi – o'qituvchi” va “o'quvchi-o'quvchi”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin.

Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol o'qitish o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

o'qituvchining jadal faoliyati – o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – o'quvchi hisoblanadi;

muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan o'quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi⁴. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining ta'lim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish.
2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish.
3. Hamkorlikda o'qitishni «Zig-zag yoki arra» metodi.
4. Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiyimiz» metodi.
5. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil

olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu esa ularda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, istiqbolda kasbiy mahorat va savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi. Vaholanki, pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik takomillashuvi:

yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishda;

bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tishida;

o'rtacha o'quvchiga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tishda;

o'quvchining tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tishda namoyon etadi.

Demak, o'quvchi turli fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida o'rganish natijasida unda bilim olishi kuchayadi, ya'ni o'z ilm, tajriba va qobiliyatini ijtimoiy hayotga qo'llash uchun shaxsiy intilish ortib boradi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Ashurova Dilfuza Azimovna

Qiziltepa tumani 12-maktabning Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ma'lumki, maktab bu—o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish o'chog'idir.

Ammo, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish jarayonlari asosan odobnoma darslari yoki darsdan tashqari sharoitlarga mo'ljallab amalga oshiriladi, to'g'ri, bu pedagogik shart-sharoitlar sifatida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish vositalari sifatida muhim ahamiyatga ega jarayondir. Vaholanki, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu darsdir.

Ko'zlangan maqsadni faqat odobnoma darslarida emas, har qanday fanni o'tish jarayonida ham amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir.

3-4-sinflarda barcha fanlarni o'qitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadini ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, matematika-o'quvchilarning aqliy jihatdan ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, o'qish, ona tili-boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatlarni aniqlashning, tabiatshunoslik—o'quvchilarning ekologik jihatdan, texnologiya darsi-o'quvchilarning iqtisodiy va mehnatga oid ijodiy fikrlash qobiliyatlarining, musiqa-estetik tasviriy san'at-o'quvchilarning badiiy jihatdan ijodiy fikrlash qobiliyatlarining asosiy vositalari bo'lib xizmat qiladi. Amaliyotda ko'pchilik 3- 4-sinf o'qituvchilari nafaqat o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, hattoki ta'limiy maqsadlarni ham oldindan aniq belgilay olmaydilar. Ularning dars-reja ishlanmalarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadlari qo'yilmaydigan hollar ham uchrab turadi. Ular belgilab olingan taqdirda ham umumiy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, darsning o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida «boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash», «o'quvchilarning ekologik ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish» kabi umumiy tushunchalar bilan cheklanadi. Bir soatlik dars davomida bu borada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emasligini har qanday pedagog tushunadi. Demak, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdan ko'zlangan maqsad aniq qo'yilishi, u darsning o'quv materialini mazmunidan kelib chiqib oldindan aniq belgilanishi lozim.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadi dars jarayonida qanchalik aniq bo'lsa, unga erishish yo'llarini tanlash ham shunchalik qulay bo'ladi. Yuqorida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadlariga erishish uchun 3-4-sinf o'qituvchisi suhbat, hikoya, namuna, uyaltirish, topshiriq, mashq, rag'batlantirish kabi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, «Sen ham o'rtog'ingga yoki ukangga sumkangdan, qo'lingdagi shirinliklardan berasanmi yoki bermaysanmi?», degan savol bilan murojaat qilib, o'qituvchi ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilaridan aniq javob olishi, ayrimlarini uyaltirishi mumkin.

Ma'lumki, o'qish, ona tili darslari o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra kuchli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatlari aniqlash vositalaridan sanaladi. Ushbu fanlar dars mavzulari, Vatanni madh etuvchi, do'stlik, to'g'rilik, halollik, jasurlik, mardlik, ezgulik singari g'oyalarni ilgari suruvchi o'quv materiallariga boydir. Undagi ertak, doston, hikoya, rivoyat, maqol, topshiriq, she'r, badiiy asar matnlarida kishining insoniy fazilatlarini yuksaklarga ko'tarilib, salbiy fazilatlar esa qoralanadi. O'qituvchi bolalarning badiiy qahramonlarining ijodiy fazilatlaridan namuna olishlari, salbiy fazilatlaridan esa nafratlanishlari, ularning qarashlarini chuqur tushunib etishlari uchun o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning milliy usullaridan ham foydalanish kerak.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini o'quv jarayoniga moslashtirish, ularning fanlarni yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun maktab psixologlari o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish borasidagi ishlarni hamda yakka holda yondashuv uslublarini amalga oshirishsa ma'qul bo'lardi. Kichik yoshdagi bolalarning oila a'zolari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun ayniqsa, qishloq oilalaridagi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga o'g'il bolalarning ham otasiga, ham onasiga nisbatan bo'ladigan munosabatlariga alohida e'tibor berish, o'z navbatida ota-onalarning o'g'illariga nisbatan hissiy munosabatini oshirish, ular bilan ko'proq amaliy muloqotda bo'lishliklarini ta'minlash zarur.

Demak, ta'lim mazmunida kichik yoshdagi maktab o'quvchilari ongiga milliy g'urur, inson sha'ni, insonga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, odamiylik, to'g'rilik, mardlik kabi insonparvarlik g'oyalarini singdirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki vatanparvarlik iymon, e'tiqod va vijdon amri bilan vatan oldidagi mas'uliyat hissini, muqaddas burchni anglashdir. Vatanparvarlik, Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda o'zbek xalq maqollari va she'riyat ham muhim o'rin tutadi. Birinchi sinfga kelgan o'quvchi savod o'rgatish davridayoq, dastur talabiga muvofiq atrof-muhitni kuzatishi va sayohatlar vaqtida tevarak-atrof haqida jonli taassurotlar olishi kerak. Bu bolalar tasavvuri- ni kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, nutqini o'stiradi.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Barakayeva Muhabbat

Shofirkon tumani 31-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim tizimini isloh etishni boshlang'ich maktabdan boshlash kerak. Har qanday islohotlar aniq maqsadga yo'naltirilgan, ma'lum muddat ichida amalga oshiriluvchi, puxta ishlab chiqilgan loyiha bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu loyiha taxminan 10-15 yilga mo'ljallangan bo'lib izchil jarayon bo'lmog'i lozim.

Ta'lim tizimini boshlang'ich maktab bosqichidan to oliy o'quv yurtigacha bo'lgan qismida amalga oshiriladigan islohotlar mazmuni taxminan quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin:

Birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi sinfni bitirib, boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan maktab o'quvchisi bitiruv imtihonini topshiradi va umrida birinchi marotaba rasmiy hujjat ya'ni boshlang'ich ma'lumoti haqidagi guvohnoma (shahodatnoma)ga ega bo'ladi. Bu hujjat bir marotaba beriladi va qalbakilashtirilishdan himoyalash maqsadida boshqa berilmaydi, u bankdagi maxsus – daxlsiz quti yoki qimmatli qog'ozlar depozitariysida saqlanishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi bilimini o'rtacha tortilgan reyting ball yordamida aniqlanadi. Masalan, fan bo'yicha 5 yoki 10 ballik tizim qo'llanishi mumkin. Agar 5 ballik tizim qo'llansa, o'quvchi har bir fandan yil choragi davomida ko'pi bilan o'rtacha tortilgan 5 ball, kami bilan 3 ball olsa, fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Demak, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchi jami to'rtta asosiy fanlar bo'yicha maksimal 20 ball to'plashi mumkin bo'lsa, kamida 12 ball to'plaganda o'quvchi maktabning boshlang'ich ta'lim bosqichini muvaffaqiyatli tugatgan hisoblanadi.

Maktab ta'lim bosqichining ikkinchi bosqichi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi sinflarni tugatgach, yana asosiy beshta fandan o'rtacha tortilgan reyting ballari yig'indisi yakuniy imtihonlar natijasida aniqlanib, maksimal 50 ball, minimal 30 ballga ega bo'lgan o'quvchi uzluksiz ta'limning bu bosqichini muvaffaqiyatli tugatgan hisoblanadi va jami maktab ta'lim tizimida yiqqan o'rtacha tortilgan ballari maksimal 70 ga, kamida 42 ga teng bo'ladi. Ya'ni maktabni a'lo baholarga bitirgan o'quvchi maksimal 70 ballga ega bo'lishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichining yakunlovchi 2 yilida o'quvchi maktab, kollej yoki akademik litseyini to'qqizinchi, o'ninchi sinflarni bitirib, asosiy fan yo'nalishlari bo'yicha yakuniy imtihonlar natijasida yana maksimal o'rtacha tortilgan 30 ballga, minimal 18 ballga ega bo'ladi. Ya'ni o'quvchi

akademik litseyini bitirgan bo'lsa umumiy o'rta ta'lim ma'lumotiga, kollejini bitirgan bo'lsa, o'rta maxsus ta'lim ma'lumotga ega bo'ladi va maxsus guvohnoma yoki shahodatnoma bilan taqdirlanadi. Bu xujjat ham avval berilgan hujjatlar kabi qalbakilashtirilishidan muhofazalanish maqsadida bir marta beriladi va bankdagi daxlsiz qutida saqlanadi.

Demak, o'quvchining oliy o'quv yurtiga kirib o'qishni davom ettirgungacha yiqqan ballari maksimal (20, 50, 30 ballar yig'indisi) 100 ballga teng bo'ladi, bu maksimal ko'rsatkich minimal (12, 30, 18 balla yig'indisi) 60 ga teng bo'ladi va o'quvchi kelgusida o'z hayot yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida oliy o'quv yurtlariga kirish tartibotlari ko'p yillik tajriba va sinovlardan o'tib shakllangan bo'lib, o'qishni davom ettirish istagida bo'lgan, o'rta ma'lumotli o'smirlar uchun keng imkoniyat yaratadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda 100 dan 90 ballgacha yiqqan talabalar kasb tanlashga ko'maklashuvchi mutaxassislarning tavsiyanomalari asosida xohlagan oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz kirib, o'qishni davom ettirishlari mumkin. Ba'zi mamlakatlarda maktab va kollejda 90 balldan kam ball yiqqan yoshlarning reytingi yuqori, bo'lsa ham mashhur tibbiyot oliy o'quv yurtlari qabul qilmaydilar va ularga o'qishni davom ettirishlari uchun boshqa, reytingi pastroq oliy o'quv yurtiga murojaat qilishlari tavsiya etilar ekan. Masalan, ba'zi ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlariga ko'ra 80 balldan kam ball yiqqan yoshlarni huquqshunos mutaxassis tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari ham qabul qilmaydi.

Albatta yoshlarning dunyoqarashlari, bilim ko'nimalari faqat maktab yoki kollejda shakllanmaydi, ko'pgina mashhur ixtirochilar, olimlar maktabda o'rtacha, ba'zi hollarda o'rtachadan past baholarga o'qiganliklari haqidagi ma'lumotlar ham emas, lekin bunday holatlar juda kam bo'lib, olim va yuqori malakali mutaxassislarning deyarli barchasi yoshligidanoq o'tkir zehnlari bilan ajralib turganlar maktab va kollejlarda a'lo baholarga o'qiganliklarini hech kim inkor etmasa kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar "Qozonda bori, cho'michga chiqadi" degan xalqimiz naqli juda to'g'riligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda yuqorida bayon etilgan uzluksiz ta'lim tizimini yaratilishi yoshlarimizni maktabdanoq yaxshi o'qishga undovchi asosiy omil bo'lishi muqarar.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFATLI TA'LIM-TARBIYA – BOSH MAQSADIMIZ

Aminova Feruza Hikmatovna

Qiziltepa tumani 11-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ayni paytda o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni to'la egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, iqtidorli, iste'dodli hamda ayrim fanlarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb vazifalardandir.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, DTS va o'quv dasturlarini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali qonuniy asosga ega bo'ldi. Barcha fanlardan yangidan-yangi ta'lim texnologiyalari va interfaol usullar ishlab chiqilib, muntazam modernizatsiyalashtirilmoqda.

Iqtidorli bolalarning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish, iste'dodli, izlanuvchan, ijodkor pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilg'or tajribalarini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishini ta'minlash, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvi, "Ingliz tili bilim-donlari", "Prezident asarlarini o'rganamiz", "Huquq bilimdonlari", "Soliq bilimlari — bolalarga", "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" kabi ko'rik-tanlovlar va fan oyliklari o'tkazilib, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy izlanishi uchun keng imkoniyat yaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yurtimizda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlarning mazmun-mohiyatini pedagoglarga yetkazish maqsadida joriy

yilning 13–14-iyul kunlari “Boshlang‘ich ta‘limni modernizatsiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish” mavzusida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun respublika forumi o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bolalarga beriladigan umumiy ta‘limning dastlabki bosqichidir. Bu jarayonda bolalar atrof-dunyo haqidagi ilk bilimlarni egallaydilar, o‘zlarida muloqot va amaliy masalalar borasidagi ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Aynan shu bosqichda bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi, bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich ta‘limning davlat va jamiyat taqdirida ham qanchalik muhimligini belgilaydi. Bejizga emas, 2013-yilning noyabr oyida xalq ta‘limi vaziri U.I. Inoyatovning “Boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirish” bo‘yicha qarorlari chiqdi. Bu o‘z navbatida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari oldiga katta bir mas‘uliyat, o‘z ishiga sidqidildan yondoshish va o‘zidagi bor bilim, salohiyat, ijobiy potensialni turli qulay yo‘llar, usullar orqali yosh avlodga yetkazishni taqazo etadi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini puxta o‘rgangan holda ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish ustida tinimsiz izlanishi, bor mahoratini ishga solishi lozim.

Mahorat- o‘qituvchining ijodkorlik darajasidir. Mahorat 4 turga bo‘linadi:

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro ta‘sirni tashkil etish darajasi. Ya‘ni, o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan qulay, pozitiv hamkorlik muhitini, psixologik aurani yarata olish darajasi. Masalan, darsni ochiq chehra bilan, bolajonlarim barchangiz sog‘lommisiz? Omonmisiz? Bilim olishga, yangidan-yangi qiziqarli ma‘lumotlarni olishga tayyormisiz?... kabi rag‘batomuz tashbehlar bilan boshlash.

Optimallashtirish darajasi. Ya‘ni, bilim olishni turli metod, texnologiyalardan unumli, sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda qulaylashtirish, ulardan mohirlik bilan foydalanishdir. Masalan, matematikada 10 likdan o‘tib ayirishni o‘rgatishda “qo‘shninikiga yordam so‘rab chiqamiz, ya‘ni qarz so‘raymiz” deb tushuntiramiz. Ayni vaqtda tarbiyaviy daqiqa o‘tkazib, matematikada qarz olib qaytarmaslik mumkin, hayotda esa olgan qarzlarni o‘z vaqtida qaytarish insonning ibratli fazilatlaridan ekanligini tushuntirib o‘tishimiz lozim. Mana shunday hayotiy misollar, solishtirishlar orqali mavzuni yaxshiroq anglashga erishishimiz mumkin.

Evristik daraja. Ya‘ni, o‘quvchilar bilan jonli muloqot sharoitida ular uchun qulay ijodiy imkoniyatlar yaratiladi. Buni “Pushti bodring” misolida tushuntiraman. Tasviriy san‘at darsi edi, o‘quvchilar sabzavotlardan bodring tasvirini ishlayotgan edilar. Qator oralab bolalarni ishlarini kuzatib yurganimda orqa parta tomondan qattiq kulgu eshitildi. Sababini surishtirsam, o‘quvchilarimdan biri Rasul chizgan bodringini pushti rangga bo‘yab qo‘yganiga guvoh bo‘ldim. Avvaliga kulgim keldi, ammo Rasulni ko‘ngli cho‘kib qolishidan qo‘rqdim va bu o‘quvchimning boshqalarga o‘xshamasligini his qildim. Hali ham kulishdan to‘xtamayotgan bolalarga qarata esa: bunday ajoyibotlar hayotda uchrab turishini, balki sinfdosh o‘rtoqlari kelajakda bodringning aynan shunday turini yaratuvchi selliksioner, yoki biolog olim bo‘lishi mumkinligini atganimda o‘quvchilar Rasulgacha masxara emas, balki havas nazari bilan qarayotganlarini payqadim.

Shaxsiy-mustaqil daraja. Bunda o‘qituvchi o‘z sinfining intellektual darajasidan kelib chiqqan holda o‘zi yaratgan yangiliklar, uslublardan unumli foydalanadi. Ya‘ni o‘quvchilar mustaqil ravishda turli axborot vositalaridan olgan yangiliklari, xabarlar to‘g‘risida o‘z sinfdoshlariga so‘zlab beradilar, bu orqali jamiyat hayotida va dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlardan bohabor bo‘lib, o‘z dunyoqarashlarini kengaytirib borishga erishadilar.

TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Kamolova Dilobar

Buxoro viloyat Gijduvon tuman 45 umumiy o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf oqituvchisi

Bugungi kunda ta‘lim samaradorligiga erishish uchun har bir fan o‘qituvchisi o‘zi o‘qitaётgan fanning ta‘lim texnologiyasi va ta‘lim modelini to‘liq tarzda ishlab chiqishi lozim. Unda asosan fanning xususiyatlaridan va talabalarining o‘zlashtirish darajalari kelib chiqish ko‘zda tutiladi. O‘quv mashg‘ulotining ta‘lim texnologiyasini ishlab chiqish o‘qituvchi harakatlarining quyidagi izchilligini o‘z ichiga oladi: ta‘lim texnologiyasini loyihalashtirish va uning natijalarini ta‘lim texnologiyasining modeli ko‘rinishida rasmiylashtirish; texnologik xarita ko‘rinishida o‘quv mashg‘ulotida talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini

bosqichma bosqich rejalashtirish; o'quv jaraenining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqish (texnologik xaritaga ilova qilingan o'quv-uslubiy va vizual materiallarni).

O'quv mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

o'quv mashg'ulotining maqsadli belgilanishini aniqlovchi didaktik maqsadi: shakllantirish/chuqurlash/ tizimlashtirish/bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish, tayanch laeqatlilikni rivojlantirish;

O'quv faoliyatining kutilajak natijalari – bu o'qitish natijasida talaba egallashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar. Ular lo'nda va fe'l shaklida shakllantiriladi, tugallangan harakatni bildiradi (.....gapirib beradi,sanab beradi,tavsiflaydi,echimini topadi va hokazo).

Natijalarga mos pedagogik vazifalar-talabaning o'quv faoliyatini belgilangan natijasiga qarab harakatlanishini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlari(tushuntirish,ochib berish);

Qurilgan ta'lim modeli – bu belgilangan vaqtda va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakllari, usullari va vositalari majmuidir;

rejalashtirilgan o'quv natijalarini monitoringini amalga oshiruvchi qaytar aloqa yo'l va vositalari (kuzatuv, tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalarini taqdimoti, testlash, e'zma ishlarni tekshirish va boshq.)

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jaraenli (protessual) baenini aks ettiradi va jadval qo'rinishida rasmiylashtiriladi.

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati, o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti, ta'lim berishning usul, shakl va vositalari, ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari aniq ko'rsatiladi.

Texnologik xaritaga ilova o'z ichiga quyidagilarni oladi: talabalar bilimni faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan savollar ro'yxati; guruhlarda ishlash uchun yo'riqnoma, o'quv faoliyati natijasida talabalar tayanishi mumkin bo'lgan qoidalar (aqliy hujum qoidasi, guruhlarda ishlash qoidasi, munozara ishtirokchilariga eslatma); o'qituvchi tomonidan o'quv jaraenida foydalaniladigan slaydlar, jadvallar, va boshqa vizual materiallar; munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar; guruhlarda va yakka holdagi faoliyatni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

Bu yerda taqdim etilaetgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini amalga oshirish asosan quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- 1.O'quv mashg'ulotiga kirish
- 2.O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi
- 3.O'quv mashg'ulotining yakuniy bosqichi

Har bir bosqich doirasida pedagog ko'zlangan maqsad asosidagi natijalarga erishsagina, dars jaraenlari samarali yakun topadi. Talabalarning o'zlashtirishlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ta'lim maqsadlarini belgilash va natijalarni shakllantirishda ta'limning o'zlashtirish darajalari hisobga olinishi lozim. Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali endashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash yo'llari besh qismga bo'linadi:

Bilishlikka oid (tanish bo'yicha harakatlanish);

Tartibliikka oid (algoritm, namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish);

Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash);

Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash).

Bilishlikka oid (tanish bo'yicha harakatlanish) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.

Natijalar:

(ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi;

(o'z so'zlarida) qaytarib beradi;

tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi;

(so'zma-so'z) e'zadi.

2.Tartibliikka oid (algoritm, namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).

Natijalar:

asosiy fikrni ajratadi;

baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi, tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi.

3. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Natijalar:

shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi;

kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi;

yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi;

bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi;

4. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash) ta'lim maqsadlarini belgilashda

maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayërgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish).

Natijalar:

muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi;

tadqiqot ob'ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi.

O'QUVCHILARIDA JISMONIY XATTI-HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Abdullayeva Tamara Normamatovna, Murtazayeva Iroda Norqulovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Boshlang'ich sinfo'qituvchilari

Maktabda jismoniy tarbiyaning xilma-xil shakllari mavjud. Afsuski, boshlang'ich sinflarda faqat dars shaklini tashkil qilish va o'tkazish bilan cheklanib qolinmoqda. Bu esa o'quvchilarda harakatga bo'lgan talablarini qoniqtirmaydi. Pedagogik kuzatishlarning ko'rsatishicha jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilar hayot uchun zarur bo'lgan harakat faolligini nihoyatda kam qismini oladilar. O'zbekiston xalq ta'limi Vazirligining 1989 yil

30 yanvar, 45- sonli buyrug'iga binoan haftasiga 3 soat jismoniy tarbiya darsini o'tish mo'ljallangan edi. Lekin jismoniy tarbiya o'qituvchilari bundan unumli foydalana ololmadilar. Bundan tashqari darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinmasligi (ko'pchilik maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darsini mutaxassis bo'lmagan o'qituvchilar tashkil qiladi va o'tkazadilar), o'quvchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy rivojlanishini hisobga olmagan holda mashqlar tanlanishi natijasida o'quvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash, harakat malakalarini shakllantirish yetarli darajada emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun zarur va faol dam olishiga qaratilgan tadbirlar: mashg'ulotgacha o'tkaziladigan gimnastika, katta tanaffuslarda qiziqarli harakatli o'yinlar, umumta'lim darslar jarayonida o'tkaziladigan quvnoq daqiqalar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishiga e'tibor berilmay qoldi. Natijada o'quvchilarning harakat faolligi, ishchanligi tez pasayib boradigan bo'ldi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalaridan biri – kelajakdagi barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga qadar bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv ishlarni rejalashtirishda va samarali olib borishda yangicha hamda ijodiy qarashimiz lozim, ishga tashabbuskorlik bilan yondashishmog'imiz kerak.

Demak, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish zarur, bolalarni harakat mahoratini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning tarbiyasida, ularni jismonan baquvvat, aqlan barkamol bo'lib yetishishlarida jismoniy tarbiya yetakchi rolni o'ynaydi. Bu muammolarni hal etishda asosiy o'rin bolalar orasida, o'qituvchilar, ota-onalar o'rtasida organizmni chiniqtirish, gigiyenik qoidalari va talablarini o'rgatish va tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini tartib etish egallaydi. Shu sababli birinchi navbatdagi vazifa bolalarni har tomonlama to'liq rivojlanishiga yordam berish, salomatligini mustaxkamlash, hayotga va mehnatga tayyorlash, yetuk shaxs bo'lishiga hissa qo'shishdir.

O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning turli xil shakllaridan foydalanish maktabda nafaqat jismoniy tarbiya o'qituvchisining vazifasi, balki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining, maktab jamoatchiligining va maktab yoshlar uyushmasi faollarining ham bevosita vazifasidir. Ammo ko'pgina maktablarda jismoniy tarbiya davlat dasturida ko'zda tutilgandek tashkil qilinmaydi. Buning birinchi sababi maktab o'qituvchilarining jismoniy tarbiya mas'ul bo'lganlarning barchasida jismoniy tarbiya nazariyasiga va metodikasiga oid bilimlar yetarli emas. Bu muammolarni hal qilishga qaratilgan, metodik adabiyotlar va qo'llanmalar ham juda kam.

Respublikamiz mustaqilligining xalqimizga bergan eng buyuk ne'matlaridan biri yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga berilayotgan katta e'tibordir. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli ma'ruzasida har tomonlama rivojlangan yetuk va barkamol avlodni voyaga yetkazish, jismoniy kamolotni shakllantirishga va taraqqiy ettirishga alohida ahamiyat berish, omma orasida jismoniy tarbiya va sport madaniyatini yuqori saviyaga ko'tarish lozimligini alohida uqtirib o'tgan.

Keyingi yillarda bolalar sporti va jismoniy tarbiyani rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani hammamiz uchun quvonarlidir. Ammo shunga qaramay hali ta'lim muassasalarida bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish borasida qator muammolar mavjud.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy jihatdan sog'lomlik darajasi qoniqarli emasligi ko'pgina mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'rtinchi uch qismi birdaniga ortiqcha o'quv yuklamalari bilan band etilganligi oqibatida odatdagi o'quv predmetlarini o'zlashtirishga qiynalmoqdalar.

Sir emaski, ko'pincha boshlang'ich sinf o'qituvchilari birinchi sinfga kelgan o'quvchilarining savodini tezroq chiqarish, ularni yozishga va o'qishga, hisob-kitobga tezroq o'rgatish uchun yozuv, o'qish va matematika mashg'ulotlariga asosiy e'tiborni qaratadilar-da, aksincha, bolalarning qiziqishi va ehtiyoji ko'proq seziladigan jismoniy tarbiya, musiqa, mehnat kabi mashg'ulotlarni ikkinchi o'ringa surib qo'yadilar. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisi rivojlanishida ham jismoniy, ham psixologik nosozliklar vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida bolaning maktabdan, o'qishdan tez bezib qolishiga sabab bo'ladi. Maktab uning uchun o'z imkoniyatlarini namoish etadigan, bilish, o'qish va o'rganish ehtiyojlarini qondiradigan, uni takomillashishga bo'lgan intilishini qanoatlantiradigan joy emas, balki uni har tomonlama ezib qo'yadigan zindonga aylanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi uning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan asoslanadi. Bu davrda bolaning suyak- muskul tizimi shakllanishda davom etib, uning organizmida suyaklashish davri kechayotgan bo'ladi. Ana shu holatning o'zi uning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Ko'p aqliy mehnat talab etadigan mashg'ulotlarda vaqti-vaqti bilan fizkuldaqiqalarni o'tkazib turishning o'zigina bolaning yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Hatto haftada ikki marta o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'zi ham o'quvchilarda jismoniy ko'nikmalarni, qolaversa, jismoniy madaniyatni talab darajasida shakllantirish uchun yetarli emas.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining faqat 9%i - yuqori darajadagi, 57%i – o'rta darajada, 34%i – past darajadagi jismoniy ko'rsatkichlarga ega.

T.V.Korneyevaning fikricha, 95,3% boshlang'ich sinf o'quvchilari darsdan tashqari paytlarda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaydilar, 87,8 %i esa ertalabki badantarbiyani bajarmaydi, faqat 12% bolalar ota-onalari bilan faol dam oladilar.

Bu ko'rsatkichlar, albatta, bizni tashvishga soladi. O'quvchilarda boshlang'ich sinfdan, hatto undan ham oldinroq jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish faqat ta'lim muassasalarining emas, balki ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan barcha ijtimoiy institutlar – oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari, huquq-targ'ibot organlarining birgalikdagi bahamjihat faoliyat ko'rsatishlariga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, barcha ijtimoiy institutlar ishini bolalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishga oid zarur metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar, zarur bilimlar bilan qurollantiradigan

tashkilot – bu ta’lim muassasalaridir. Ta’lim-tarbiya ishi bilan shug’ullanadigan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini yuqori darajada takomillashtirish ham muammoning yechimini topish uchun asosiy shartlardan biri bo’lib hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida jismoniy ko’nikmalar va sog’lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vositasi bu jismoniy tarbiya mashg’ulotlaridir.

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA O’QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Yarasheva Nigora Roziqovna
Buxoro tuman 9 maktab boshlangich sinf oqituvchisi

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o’z imkoniyatlarini ro’yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo’naltirilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni hamda “Kadrlash tayyorlash milliy dasturi”da ham barkamol shaxs tarbiyasiga asosiy e’tibor qaratilgan. Chunki, o’z bilimi, salohiyati, imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to’liq sarflab, mustaqil fikrlay oladigan ijodkor shaxslarni shakllantirish, jamiyatda tub o’zgarishlar bo’lishiga zamin yaratadi.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o’zgarishlar bo’lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to’g’risida va insonning hayotda tutgan o’rni to’g’risidagi tasavvurlari o’zgarimoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o’zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o’tish yuz bermoqda.

Boshlang’ich sinf o’quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta’lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta’limning pedagogik asosi sanaladi. O’quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo’lishi uchun aniq maqsadga yo’naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yorlarga ega bo’lgan, o’z-o’zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o’quvchida atrof-olam ob’ektlari va ular haqidagi bilimlarni o’zlashtirish; ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

O’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo’ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarining ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo’lib hisoblanadi. Chunki boshlang’ich ta’limda o’quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M. Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G’oziev, G’.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov [ta’kidlashlaricha, - bu davrda o’quv faoliyati ta’sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg’usi kabi jarayonlar rivojlanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatlari bir-biridan farq qilar ekan, ularning iste’dodi ham turlicha namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham boshlang’ich sinf o’quvchilarining mayl va intilishlari bilish va ijodiy faoliyatlari, iste’dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o’z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o’z hissasini qo’shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog’liq. Shunga ko’ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o’quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo’ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo’lishidan tortib, to namoyon bo’lishigacha jarayonini o’z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo’yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta’lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o’qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o’z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o’tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga etkazish garovi bo’lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo’nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga etkazish g’oyasiga mos keladi.

O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ularga o'ziga xos yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir bola o'ziga xos, betakrordir. Shaxsning o'ziga xosligi uning turli xil individual va ijtimoiy rivojlanish omillari ta'sirida shakllanadigan psixikasining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi paytda ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, ijodiy faoliyatini shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lim shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Hozirgi davrda ayniqsa, Ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishidagi shaxsiy faolligini oshirishga qaratilgan. U bilim olish uchun shaxsiy ijodiy izlanish qobiliyati va imkoniyatini shakllantiradi. Hozirgi talablarga ko'ra, o'qituvchi bilim berishda passiv ob'ekt bo'lib qolmaydi, balki o'quvchining mustaqil va ijodkor bo'lishiga intiladi. Insonparvarlik yondashuvi maktabni bolaning shaxsiyatiga, uning ichki oamiga, hali namoyon bo'lmagan qobiliyat va imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.

SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH (BOSHLANG'ICH)

Xalilova Gulshan Izzatullayevna

Kogon 1-maktab boshlangich sinf o'qituvchisi

Sifatli ta'lim poydevori boshlang'ich sinflarda mustahkamlanadi. Ko'p yillik tajribalar asosida isbotlanib, ta'limda aksioma maqomini olgan bu ibora zamirida eng avvalo, o'qituvchi mahorati va pedagogik salohiyati, kasbiy malakasi ham muhim o'rin tutishi sir emas. Ustoz qanchalar bilimdon va mahoratli bo'lsa, o'quvchilar puxta bilim va tarbiya olishaveradi. Ta'lim sifatini oshirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar alohida o'rin tutadi.

O'quvchilar o'quv materialining asosiy mazmunini sinfda dars davomida o'zlashtirib oladilar, albatta. Biroq, o'quvchilarning fan dasturi yuzasidan o'rganishi zarur bo'lgan bilim va malakalarning hammasini ham sinf-dars mashg'ulotlari doirasiga sig'dirib bo'lmaydi. Buning ustiga tarixiy bilimlar, ilmiy va siyosiy ma'lumotlar hajmi tez kengayib, muttasil oshib borayotgan sharoitda o'quvchilar o'z bilimlarini tinmay to'ldira borishlari uchun sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish g'oyat zarurdir.

Metodist V.N. Bernadskiy sinfdan tashqari ishlar turkumiga bilish manbalarini asos qilib olib, ularni quyidagi turlarga bo'ladi. Ma'lumki, o'quvchilar faqat darslikni o'qish bilangina chegaralanib qolsa, ularning bilim doirasi va tasavvurlari tor bo'lib qoladi. Shuni e'tiborga olib V.N. Bernadskiy sinfdan tashqari ishlarning asosiy ko'rinishi sifatida qo'shimcha o'qishni tavsiya etadi.

Qo'shimcha kitob o'qish. U o'qiladigan kitoblarni uch guruhga bo'ladi: a) ilmiy- ommabop kitoblar, b) tarixiy belletristika, v) badiiy adabiyot.

Qo'shimcha suratlar ko'rish.

Jamoa bo'lib teatr va kinolarga borish hamda ularni birgalikda muhokama qilish.

Ijodiy kechalar uyushtirish.

Sahna ko'rinishlari yoki pesalar qo'yish.

Maktab tarixiy ko'rgazmalarini tashkil etish.

Olisdagi tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish. V.N. Bernadskiy fikricha, o'quvchilar sinfdan tashqari qo'shimcha kitob o'qib, filmlar ko'rib, radio, ma'ruzalar eshitib olgan bilimlari va tasavvurlarini amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borgandagina ko'zlangan maqsadga erishadi — mustaqillikni, tashabbus va ijodiy ishlash qobiliyatini o'stira oladi. Keyingi 10–15 yil ichida sinfdan tashqari ishlar ko'lami kengaydi, mazmunan boyidi, ko'rinishlari ko'paydi. Bu ishlarning nazariy tomonlari ham ishlab chiqildi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan mashg'ulotlardan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilar o'z qiziqishlariga va layoqatlariga qarab turli xil to'garaklarga qatnashadilar, darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan oilaviy va individual ishlarga ham o'z istaklari bilan ishtirok etadilar. Sinfdan tashqari ishlarning turlari va shakllari xilma-xil bo'lib, har bir maktab bu ishga istenosiz, hamma o'quvchilarni tortishi talab etiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni va formasi asosan o'quvchilarning qiziqishlariga, talablariga hamda ularning shaxsiy xohishlariga va mahalliy sharoitlariga bog'liq holda amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy vazifasidan biri - o'quvchilar hayotini zavqli, sermazmun va madaniy qilish, ularni jamoa bo'lib yashashga va ishlashga o'rgatishdan iborat. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning shakllari:

a) og'zaki ish usullari ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, bahslar va x.k.);

b) amaliy ish usullari: ekskursiyalar, sport musobaqalari, olimpiadalar, tanlovlar va o'quvchilar faollari bilan olib boriladigan ishlar, mohir qo'llar, texnika ijodi, yosh texniklar to'garaklari va boshqalar;
v) ko'rgazmali ish usullari: maktab muzeylari, mehnat qahramonlari galereyasi, badiiy ijod ko'rgazmalari va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari bo'lib, ular quyidagilarga bo'linadi:

jamoaviy ishlar-o'quvchilar orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan, suhbatlar, uchrashuvlar, ma'ruzalarga bag'ishlangan adabiy-badiiy yig'ilishlar.

Madaniy-badiiy tadbirlar: – adabiy kechalar, spektakllar, badiiy havaskorlik kechalari, o'tkir zehnlilar tortishuvlari va boshqalar

Guruqli ishlar: Bunda o'qituvchi sinfdan tashqari o'quvchilarning ma'lum bir guruhi bilan tarbiyaviy ishlar va tadbirlarni o'tkazishi mumkin.

Individual yakka tartibdagi ishlar: bunda o'qituvchi yoki tarbiyachi o'quvchining individual yosh xususiyatlariga qarab ish tutadi. Masalan: tortinchoq, passiv o'quvchilar har bir sinfda ham uchraydi.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyoxlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi..

Tarbiyaviy ishlar sistemasida maktab va maktabdan tashqari muassasalari, jamoatchilik, mahalla qo'mitalari va oqsoqollari bilan o'zaro hamkorlik qilishi ijtimoiy va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Ko'rinib turibdiki, sinfdan tashqari ishlarning ko'rinishlari turli-tuman, mazmuni boy, hatto maktab tarix kursining mavzusidan chetga chiqishi ham mumkin. Shuni aytish kerakki, sinfdan tashqari ishlarning mazmuni qanchalik boy va turli- tuman ko'rinishlarda olib borilmasin, ular bir maqsadga: ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va ularni kompleks hal etishda maktablardagi, gimnaziya, kollej va litseylardagi ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchisi ham alohida o'rin egallaydi. Uning bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari, sinf rahbarlari, va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chukurlashtiruvchi, malaka, ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirishdan iborat.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH USULLARI

Tohirova Shozoda Shamsullayevna

Buxoro tuman 8-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Insonda yaxshi fazilatlar, ya'ni odob-ahloq, muomala madaniyati kabi fazilatlar ta'lim-tarbiya bosqichlarida yillar osha shakllanadi. Bu borada boshlang'ich ta'lim muhim bosqich sanaladi.

Nutq va uning turlari gapirganimizda quyidagi natija orqali fikr yuritimiz. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o'ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan,

«o'ylangan» (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi. tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi – tashqi nutqda nutq a'zolarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi; ichki nutqda nutq a'zolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o'stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O'ylash, fikr yuritish ichki nutq asosida bo'ladi. Ichki nutq o'quvchini tashqi nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga o'rgatadi. Ichki nutq jarayonida o'ylash o'quvchining nutqi va tafakkurining o'sishida muhim vositadir.

Maktabda o'quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o'stiriladi. Bolalar ichda o'qishga o'rganadilar va ichki nutqda materialni o'zlashtiradilar, turli vazifalarni o'zlariga hal qiladilar, asosiysi – o'zlarining og'zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og'zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko'rish va motor-harakat (qo'l harakati) sezgisi asosiy o'rin tutadi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og'zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi. SHuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf darslar jarayonida o'quvchilarni og'zaki nutqini ostirish uchun ko'proq hikoya va ertak o'qitilishi lozim.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. SHuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari «Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish», «O'qish va nutq o'stirish», «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» deb nomlangan.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

SHunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli, o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yunaltilishi lozim.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. SHuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi

lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Otaqulova G. "Vatanni sevmog' iymondandir" Boshlang'ich ta'lim jurnali 2001- yil №2 mart-aprel 12-13-bet

Azimova "O'zbekistonim mening" Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil №15 mart-aprel 4-5-bet

3.Q.Rahimboyeva vatanim –yorug` maskanim Boshlang'ich ta'lim jurnali 2001- yil №1 mart-aprel 6-7- bet

Azimova Istiqbolim – istiqbolim Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil №5 martaprel 6-9-bet

TA'LIMIY O'YINLAR TA'LIM SAMARADORLIGINI TAMINLASH OMILI SIFATIDA

Sadullayeva Gulsara Abdullayevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 7-maktab

Bugungi kun talabi yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiyani kelajakka, ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan-texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Boshlang'ich sinf darslarini o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirishlari uchun ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan samarali foydalanishimiz zarurdir.

Ta'lim va o'qitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rganadi. Umuman pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Kamenskiy hissa qo'shdi. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining asoslari Shvetsariya pedagogi I.G.Pestolotsi asarlarida ishlab chiqilgan. Bulardan tashqari rus didaktikasining atoqli namoyondasi K.D.Ushinskiy bo'lgan. U ham o'qitish masalalarini chuqur psixologik asosini yaratdi. O'zbek xalqi orasida ham H.H.Niyoziy, A.Avloniy kabi pedagoglar yetishib chiqdi. Ular ham o'zbek xalq maktablarini ochish, o'quvchilarga darsliklar yozish kabi ishlarni davom ettirdilar.

Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o'yin yelementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini yegallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz.

O'yin orqali bola faoliyati mukammallashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O'yin jarayonida qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar.

O'yin- bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik lozim. Bola hayotining asosiy turi o'yindir. "Bola uchun o'yin voqelik"- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarliki, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa bor. Bolalarning o'yin faoliyati maktabgacha yoshda paydo bo'lib, o'z taraqqiyotida oddiy taqlid qilishdan murakkab rolli o'yinga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi, bu o'yin dastlab kishilarning predmetlar bilan bog'liq faoliyatini, so'ngra o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi O'yin o'sib borayotgan bola organizmining zaruriy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalari tarbiyalanadi. Ammo

o'yin har qanday sharoitda ham o'yindir. Shunday o'yinlar ham borki, ular bolalarga mustaqillikni, oddiylikni, bir- biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi.

Yan Amos Kamenskiy Grammatik o'yinlardan sistemali foydalanishning ahamiyati xususida gapirib, bunday deb yozgan edi: "Bola sog'lom bo'lishi uchun u doimiy harakatda bo'lishi zarur, shundagina o'yin qiziqarli o'tadi. O'yinga rahbarlik qilish va bolalarning hatti- harakatlarini doimo kuzatib turishi kerak. Chunki bolalar o'yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar.

Psixologik olimlar o'yinlarni to'rt guruhga bo'ladi:

Funksional o'yinlar.

Bu o'yinlar bola organizmining har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu kichik yoshdagi bolalar uchun karakterli bo'lib, unda bolalar nima bilandir shug'ullanadilar, turli predmetlar bilan tanishadilar.

Qoidali o'yinlar.

Bu o'yinlarda bolalar tevarak-atrof va muhitdagi voqealardan habar topib, idrok etish bilan kifoyaladi. Bunda ko'rish, eshitish, his qilish kabi sezgi organlari idrok qiladi.

Rolli o'yinlar.

Bu o'yinda bolalar o'zlarini ma'lum bir rolini, qandaydir kasb egasi (shifokor, o'qituvchi, quruvchi kabi) vazifasini bajarayotgandek his etadilar. Har bir bola o'ziga tegishli rolni muvofaqiyatli bajarishga harakat qiladilar.

Konstruktorli o'yinlar.

Bu o'yinning asosiy mazmuni qurilishi komplekslari, taxta, qum, qog'oz materiallarining parchalarini qirqish, taxlash singari mehnat ko'nikmalarini hosil qilish kabilardan iboratdir. Konstruktorli o'yinlar asosan ikkiga bo'linadi. Ijodiy o'yinlar bolalar o'zlari o'yinning mazmunini, maqsadini, qoidasini topadilar. Ijodiy o'yinlarning asosiy qismini syujetli rasmi o'yinlar tashkil qiladi. Ijodiy o'yinlardan yana biri dramatik o'yindir. O'yinning mohiyati hikoya va yertaklardagi voqealarning mazmunini tasvirlashdan iborat bo'lib, ularda badiiy adabiyotlardagi

personajlar tasvirlanadi.

Qoidali o'yin. Huddi xalq o'yinlari singari qiziqarli bo'lib, unda bolalar hayoti, o'z tengqurlari va kattalarning mehnat faoliyatini tasvirlashga harakat qiladilar. Demak, barcha turdagi o'yinlar bolalarning kattalar faoliyatiga qiziqishlariga, ularga taqlid qilishiga intilishlarining mehnati va oilaviy hayotini, uchuvchilar, kosmonavtlar, dengizchilar hamda boshqalarning qahramonliklarini aks ettiradi. Ko'pchilik o'yinlarda didaktik o'yinchoqlar va bunga bevosita a'loqador bo'lgan boshqa qo'llanmalar foydalaniladi. Didaktik o'yin jarayonida shunday holatlar ham tez-tez bo'lib turadiki bolalardagi eng yaxshi kayfiyat birdan sho'xlik, notinchlik va intizomsizlik bilan ham almashib qoladi. Bunday paytlarda o'qituvchi ayrim bolalarga tanbex berishga majbur bo'ladi va bu boshqarning o'yin kayfiyatini shubhasiz tushiradi. Agar shunday vaziyat sodir bo'lsa ham o'yin qoidasi bilan birga qo'shib tushuntirsa metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Demak, o'quv jarayonida olib boriladigan mashg'ulotlarda biz faqat og'zaki usul bilan tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi o'quv axborotlaridan ham foydalanishimiz zarur. Bular sonli va yozma ko'rinishda, ovozi va tasviriy ko'rinishda, xajmiy va harakatli ko'rinishda, elektron va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz har bir didaktik o'yin va vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning qay biridan qaysi vazifani, qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini bilib olamiz.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Rajabova Feruza Suvonovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani.2-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olish kutilgan natijaning qo'lga kiritilishiga yordam beradi.

Tashkilotchilik layoqatiga egalik shaxsning jamoa faoliyati ni uyushtirish, ijtimoiy, shu jumladan, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, tadbirlarni

metodik jihatdan maqsadga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash hamda tadbirlar jarayonida har bir ishtirokchi tomonidan muayyan vazifalarning bajarilishiga rahbarlik qilish ehtiyojining mavjudligini ifodalaydi. Jamoa faoliyatini uyushtirishda tashkilotchi shaxs o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish, mas'uliyatni chuqur his etish, dadil harakatlanish, berilgan so'z (va'da)da qat'iy turish, har bir a'zoga nisbatan talabchan bo'lish, jarayon natijasi uchun javobgarlik hissini tuyish kabi sifatarni o'zida namoyon eta olishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim yoshi psixologik nuqtai nazardan mustaqillik, o'z imkoniyatlarini baholash va o'z-o'zini boshqarish kabi sifatlar shakllanadigan davr sanaladi. Mazkur yosh davri bolalarining turli faoliyat ko'rinishlariga, yin, mehnat va ta'lim jarayonlaridagi ishtiroklari ularda faollik, harakatchanlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'z imkoniyatlarini baholash hamda o'zlari mansub bo'lgan mikrogruhda tengdoshlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish layoqatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim davrida sinf rahbarlari hamda fan o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning turli ko'rinishdagi faoliyatlarini tizimli, doimiy kuzatib borishlari o'quvchilarni o'z xattixarakatlariga baho berishga o'rgatadi.

Sinf rahbarlari va fan o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yin, mehnat va o'quv faoliyatida erishayotgan eng oddiy muvaffaqiyatlari uchun ham rag'batlatirib borishlari ularda o'z imkoniyatini munosib baholash, o'z kuchiga ishonish, mustaqillik, tashabbuskorlik va maqsadga intiluvchanlik kabi sifatarni shayutaantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Maktabdagi faoliyatlari davrida o'qituvchilar tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z atrofida tengdoshlarini ergashtira olish, topshirilgan vazifani bajarishda mas'uliyatli bo'lish, bajarilgan ishlar natijasi haqida mas'ul sub'ektlarga o'z vaqtida hisobot berib borish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tez anglash, xatolarni tan ola bilish va uni bartaraf etishda tashabbus ko'rsatish va bu yo'lda mustaqil harakat qilishga izchil ravishda o'rgatib borish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi.

Nazariy tahlil natijasida ma'lum bo'lishicha, manbatarda "tashkilotchilik" tushunchasining muqobillari sifatida "etakchilik", "liderlik", "sardorlik" va "yo'l boshchilik" kabi atamalar ham qo'llaniladi. Mazkur tushunchalar o'rtasida o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik mavjud bo'lib, jamoaning uyushgan holda faoliyat ko'rsatishida individual shaxslarning ustuvor rolini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga yuqorida tilga olingan tushunchalarning har bir o'ziga xos mazmuni ifodalash bilan birga shaxs faoliyatining muayyan darajalarini belgilaydi. Quyidagi mazkur tushunchalarning lug'aviy ma'nolarini bayon etish orqali ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liq hamda farqlar xususida to'xtalib o'tiladi. Tushunchatarning lug'aviy ma'nolarini yoritishda besh jildlik "O'zbek tilining izoxli lug'ati"da berilgan ma'lumotlar asos qilib olindi.

Tashkilotchilik (arabcha "tashkil" so'zidan olingan) muayyan ish harakatni boshlab berish, tashkil etish, uyushtirish yoki uyushtirishni oqilona rejashtirish xislati.

Liderlik (inglizcha "Sheg" sardor, rahbar) jamoa faoliyatini tashkil etishda asosiy o'rin tutish yoki bosh vazifani bajarish, jamoa a'zolarini yagona maqsad atrofida birlashtira olishi qobiliyati.

Sardorlik (forscha boshi bor) jamoa faoliyatini tashkil etishda yo'l -yo'riq ko'rsatish, zarbdorlik, ilg'orlik.

Yo'l boshchilik (yo'l boshlovchilik) jamoa ijtimoiy harakatiga g'oyaviy va siyosiy rahbarlik qilish.

"Tashkilotchilik", "etakchilik", "liderlik", "sardorlik" va "yo'l boshchilik" tushunchatarning lug'aviy ma'nolari bilan tanishish ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liq jamoa faoliyatining tashkil etilishi, a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning yagona maqsad, umumjamoa manfaatlari sari yo'natirilishi, shuningdek, jamoa faoliyati mazmunini g'oyaviy jihatdan boyitilishi hamda takomillashtirilishi kabilarda aks etishiga ishonch hosil qilindi. Tushunchatar o'rtasidagi farq esa ular yordamida ifodalangan sifatarga ega shaxs tomonidan jamoa faoliyatiga turlicha ta'sir o'tkazilishi (tashkil etish, uyushtirish, rejashtirish (dastlabki bosqich); jamoa faoliyatini yo'naptirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, g'oyaviy rahbarlik qilish (jarayonni tartibga solish, boshqarish (asosiy bosqich))da yaqqol namoyon bo'ladi. Tashkilotchilik zamonaviy, ishbilarmon shaxsga xos sifatlar majmui sanaladi. Ingliz olimi F.Teylorning fikriga ko'ra, zamonaviy shaxs qiyofasida aql-idrok, maxsus ma'lumot hamda texnikaviy bilimlarga egalik, chidamlilik, bardoshlilik, xushmuomalachilik, ta'sirchanlik, qat'iyatlilik, xaqiqatgo'ylik, mulohazakorlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Boshqaruv sohasida faoliyat yuritayotgan olim A.Fayol tashkilotchi shaxs, eng avvalo, uzoqni ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini uqtiradi. Uzoqni ko'ra olish qobiliyati negizida jamoa ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layokati, mustaqkam sog'lik, intellektual salohiyat, jismoniy barkamollik, yuksak madaniyatlilik va axloqyailik. Muallifning fikricha, tashkilotchilik sifatleri jamoani uyushtira olish, mutaxassis (kadr)larni joy-joyiga qo'yish, istiqbolda hal etiluvchi vazifalar (uyushtiriluvchi tadbirlar)ni

rejalashtirish, qat'iy nazoratni yo'lga qo'yish bilan xarakterlanadi. Shaxsda tashkilotchilik sifatleri muayyan psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lish jarayonida shakllanadi.

Bir qator manbalarda "etakchi" va "etakchilik" tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Ya'ni: yetakchi yo'l ko'rsatuvchi ma'nosini anglatadi. Bu xususiyatga ega inson boshqalarga ta'sir eta olishi, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikda faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega; yetakchilik bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Yetakchi va uning izdoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u yetakchidan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'nachtirilgan bo'ladi; yetakchilik-bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozitsiyadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatleri o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etish taqozo etiladi. Pedagogik faoliyatni tashkil qilish jarayonida esa muayyan shartlarga amal qilingandagina qo'llangan natijani qo'lga kiritish mumkin. Quyidagi shartlarga amal qilingandagina boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlerini samarali shakllantirishga erishilishi aniqlandi:

Dars jarayonida:

o'quvchining yoshi, individualpsixologik xususiyatlerini chuqur tahlil qilish, bilim saviyasini munosib baxrlash;

dars jarayonida zamonaviy texnologiyalar, ilg'or tajribalardan foydalanish uchun qulay shartsharoitlarga shng yaratilishi;

pedagog hamda o'quvchilar o'rtasida ob'ektiv va sub'ektiv munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi;

dars jarayonida o'quvchilarni turli muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topish orqali ijtimoiy hayot sohalariida faol tashkilotchi sifatida qobiliyatini namoyon qilishga zamin yaratish:

dars jarayonida o'tiladigan mavzularning mazmuniga mos ravishda ularda tashkilotchilik sifatlerini shakllantirishga undovchi o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida:

o'quvchilar jamoasi, o'quvchining jamoadagi ishtiroki, o'zaro munosabatga kirishuvchanligi:

o'qituvchi tomonidan muayyan ijtimoiy vaziyat, pedagogik shartsharoit, mavjud holatning o'rganilishi;

sog'lom ijtimoiy muhit, qadriyatlar, jamoada rioya qilinadigan tartibqoida, intizomni o'quvchilar tomonidan anglab yetilishi;

bajarilgan va bajarilishi lozim bo'lgan faoliyat turiga ko'ra o'quvchilarni o'z vaqtida rag'batlantirilib borilishi.

Oilada: oilaning ijtimoiy mavqei, sog'lom muhit, otaona va farzand o'rtasidagi munosabatlar;

farzandining xohishistaklari, qiziqishlari va ehtiyojlari darajasini hisobga olish;

ota-onalar va kagga yoshli oila a'zolarining oilada tashkilotchilik qobiliyati, uni bolaning ongiga ta'siri, shaxsan ibrat, namuna bo'lishlari;

oilalada maqsadning yagonaligi hamda duch kelgan muammolarning birgalikda hal etilishi;

otaona va farzand o'rtasida o'zaro psixologik birlikning qaror topganligi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlerini shakllantirishda o'quvchilar jamoasi yetakchi o'rin tutadi. Zero. o'quvchilar jamoask o'z-o'zini boshqarish xususiyatiga ega bo'lib, u maqsadning birligi, yagonaligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umumjamoaga bilan bog'lanadi. Bu borada Abu Nasr Farobiyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish g'oyat o'rinlidir: "har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita almaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoaga a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi". O'quvchilar jamoasidan faolini, tashkilotchisini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINING O'RNI

*Ikromova Sadoqat Baxtiyorovna
G'ijdivon 41- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlarni ma'naviy-axloqiy milliy madaniy, tarixiy an'analariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanib, zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan eng asosiy ma'suliyatli vazifalardan sanaladi.

Inson bolasi dunyoga kelar ekan u tashqi olam bilan doimiy ravishda, tashqi olam ta'siri asosida kamol topadi, o'sadi, ta'lim tarbiya oladi. Kelajak vorislari bolalarni to'g'ri o'sib ulg'ayishida eng muhim omillardan biri oila tarbiyasi bo'lsa, yana muhim omillardan biri ta'lim- tarbiya beruvchi muassasalar hisoblanadi.

Insoniyat tamonidan o'nlab ming yilliklar davomida yaratilgan o'zgarmas qadriyatlar orasida oila eng buyugi hisoblanadi. Hech bir millat, hech bir madaniy jamiyat oilani chetlab o'tmaydi.

Oila insonning rivojlanishi va takomillashuvi uchun eng yaxshi muhit hisoblanadi. Oila shaxsning ijtimoiylashuvida muhim instituti hamdir. Aynan oilada ijtimoiy o'zaro muloqatning dastkabki tajribasini oladi. Ma'lum bir vaqt davomida oila bola uchun shunday tajriba olishning yogona joyi hisoblanadi. Shundan keyin inson hayotiga bolalar bog'chasi, maktab, ko'cha singari ijtimoiy institutlar kirib keladi. Biroq bu vaqtda ham oila va ota-ona rivojlanishida muhim omillardan biri, ba'zida esa eng muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Aynan oilada bolalar oddiy va tabiiy hayotga o'rganadi, shuningdek har kuni ertalabdan kechgacha, ba'zan tuni kun oila yoki ota-ona shaxsi aka-uka, opa-singillar, buvi va buvalar tamonida o'z o'rnida namuna bo'lib xizmat qiladigan turli tuman xulq atvor shakllari, so'z, shuningdek mehnatga o'rganadi.

Bolalikdagi tajriba asosida oilada insonning muhimroq ijtimoiy tavsifi shakllanadi. Bunday shaxsiy qirralar, ishonch o'z-o'zini baholash, "Men" konsepsiyasi ota-ona va aka- opalarning bolaga qaratilgan munosabatlar asosida yuzaga keladi.

Bola faqatgina oilada qanday yashashni va nimani his qilishni, nimani bilish kerakligini tinglash his etish asosida emas, balki hayot haqiqatdan qandayligini, aslida odamlar o'zini qanday tutishi kerakligini ularning bir-biriga va boshqalar nisbatan munosabatini baholash va fikrlash orqali o'rganadi.

Oilaviy tarbiya uzluksiz, davom etadi. Bunda hech bir institut oila bilan tenglasha olmaydi. Haqiqatan, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxirigacha oilaning ta'siri ostida bo'ladi. Oilaning bolaga noyob ta'sirini oilaviy tarbiya jarayonining o'ziga xosligi ham belgilaydi. Ota va ona shaxsiy namunasi, qarindoshlik tuygulari, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hissiy munosabatlarining bolani har tamonlama rivojlanishida roli katta, bularga oiladan tashqarida erishib bo'lmaydi.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, shaxs oilada shakllanadi. Aynan oilada shunday qimmatbaho sifatlar- borlig'ni diqqat bilan kuzatish, tabiat va san'atdagi go'zallikni his qilish, bilimga serhavas bo'lmoqlik, intizomlilik, vijdonli, o'z mehnat majburiyatlariga ma'suliyat bilan yondashish, boshqalarning ehtiyojlariga hamdardlik bilan qarash va zarur bo'lgan holarda yordam ko'rsatish kabi xislatlar shakllanadiki, xuddi shu sifatlar yetuk insoniy shaxsning fazilatlar hisoblanadi

Oila bilan maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi juda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki oilada ota-ona boshlagan ta'lim tarbiya ishini ta'lim muassasasida o'qituvchi pedagoglar davom ettiradi. Shunday ekan ota-onalar oilani tashkil etuvchi a'zolar kelajak davomchilarini ta'lim muassasalarda erishayotgan yutuqlari bilan nega qiziqmay qo'yishmoqdalar. Ko'pchilik ota- onalar har chorakda ota-onalar yig'ilishlarida ishtirok etsa bayramlarida tomoshabin sifatida ishtirok etish bilan chegaralanadi. Shuni o'zi yetarlimikin. Yo'q albatta. Ota-onalar hozirgi kunda faqat pul topish bilan band bolib, bolani qornini to'yg'azish ustini kiyintirish bilan chegaralanib qolmadikmikan?

Bugungi kunda mamlakatimizdagi har bir oilada mobil telefoni, kompyuter, planshet kabi vositalar mavjud bo'lib, ularni kimdir asosan muloqot qilishda qo'llasa, kimdir mustaqil bilim oshirish maqsadida foydalanadi. Mazkur vositalar taqdim etadigan imkoniyatlardan biri internet xizmatidan keng foydalanish ham odatiy hol bo'lib qoldi. Hozirgi davrda ko'plab mahallalarda bolalar va yoshlar uchun turli to'garaklardan tashqari, Internet kafe, kompyuter o'yinxonalari ham mavjud. Mazkur maskanlar doim bolajonlar bilan gavjum bo'ladi. Shu boisdan ham Internet tarmog'idan yoshlar ongiga kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrimizning mo'jizalari bo'lgan kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari juda

qulay imkoniyatlarni taqdim etishi bilan birga, talay jiddiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammolarning oldini olish va ularni hal etish uchun esa ota-onalar, o'qituvchilardan farzandlariga yanada hushyor va e'tiborli bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy- mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi.

Shu maqsadda mahallalar qoshidagi yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, ota-onalar va pedagog xodimlar bilan har oyda tuman ichki ishlar bo'limi xodimlari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etilishi ham yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, komissiya a'zolari Internet kafe va kompyuter o'yinxonalari va vaqt o'tkazib, dars qoldirayotgan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashishlari ham muhim ahamiyatga molik. Mahalla guzarlarida o'smir bolalarning bo'sh vaqtlarini turli to'garaklar bilan band etish ham yaxshi samara beradi. Mahallalarda olib boriladigan mazkur tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'sib kelayotgan avlodni kamolga yetkazish, oila- mahalla-maktab hamkorligini ta'minlash va yanada kuchaytirishdan iborat.

Bundan xulasa shu kelajak vorislari bolalarimiz ta'lim tarbiya olishiga xar tamonlama sog'lom va etuk bo'lishi biz ota-onalar va jamoachilik qo'lida. Kelajakni qanday ko'rmoqchi bo'lsangiz ung poydevorini hozirdan mustahkamlang.

БОЛАЛАРНИ ҲАР ТОМОНЛАМА РИВОЖЛАНИШИДА ҲАМКОРЛИК ТИЗИМИ ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА.

Ш.А.Буранова

ЖДПИ ўқитувчиси

Ф.Нуманжанова

3 курс талабаси

Маълумки, ота-оналар ўз фарзандлари учун илк устоз ҳисобланади. Шунини таъкидлаш лозимки, мактабгача таълим ташкилотидида таълим-тарбия қанчалик аҳамиятли бўлмасин, мактабгача ёшдаги болалар учун оиладаги тарбия ҳам муҳимдир. Бола уйда ўрганганини мактабгача таълим ташкилотидида давом эттиради, мактабгача таълим ташкилотидида оиладаги тарбия маълум даражада коррекция қилинади. Бундай шароитларда ота-оналарга мактабгача таълим ташкилотлари педагоглари яъни, тарбиячилар, психолог, услубчи, дефектолог томонидан олиб бориладиган суҳбатлар орқали кўмак бериш, бунда мактабгача таълим ташкилоти ва оила ҳамкорлиги тизимини такомиллаштириш муҳимдир. Ҳар қандай шароитда ҳам ота-оналар ва тарбиячининг болани мактабгача таълимни сифатли олиши учун бирдек маъсулият сезиши, болани таълим – тарбиясида аниқланган бўшлиқлар устида оилада ҳам ишлаши учун оила ва мактабгача таълим ташкилотидида ўзаро мулоқотни, алоқани мустаҳкам бўлиши, ота-она ва тарбиячи ўртасидидаги самарали ҳамкорлик орқали ўзаро келишилган ҳолда давомли учрашувлар ўтказилиши, боланинг ривожланишига кўмаклашуви зарурдир. Режалаштирилаётган ҳар бир машғулот шунчаки расмиятчилик учун ўтказилишига йўл қўймаслик зарур, аксинча, кенг жамоатчилик вакиллари (намунали оила вакилларида ҳам) жалб этган ҳолда ота-оналарнинг қалби ва онгига етиб борадиган, уларнинг руҳи ва кайфиятини кўтарадиган, кенг маълумотларга эга бўлиш баробарида янги марралар сари илҳомлантирадиган, ташаббускорликка ундовчи таъсирчан шаклда ўтказилишига эришиш лозим. Ота-оналар билан йиғилишлар, учрашувлар, машғулотлар жараёнини бошқарувчилар машғулотни бошлашдан олдин кадам-бақадам тартибини кўз олдида келтириши, зарурий воситаларни тайёрлаши ва вақтдан унумли фойдаланиши шарт. Машғулотнинг ҳар бир босқичида умумий хулоса чиқаришга аҳамият қаратилиши, имкон қадар тавсиялар ишлаб чиқилиши, келгуси режалар белгиланишига (айирим машғулотлар тартибидида тавсиялар ишлаб чиқилиши, келгуси режалар белгиланиши юзасидан намуналар) алоҳида аҳамият қаратиш мақсадга мувофиқдир. Бу оила ва мактабгача таълим ташкилоти ишларини такомиллаштиришга, яқдиллигини таъминлашга замин яратади. Мактабгача таълим боланинг мактабда аъло баҳоларга ўқиши, ақлий қобилиятини намоён эта олиши, келажакда комил инсон бўлиб етишиши ва яхши натижаларга эришуви, унинг ақдан етук инсон бўлишига хизмат қилади. Сифатли мактабгача таълимни олган бола келажакда кўп имкониятларга эга бўлади, нотўғри йўللарга кириб кетиши эҳтимоли кескин пасаяди, яхши инсон бўлиб шаклланиши мактабгача ёшдаги олган билим ва кўникмаларга боғлиқ, эканлиги ота-оналарга тушунтирилади. Болаларга доимий ғамхўрлик қилиш, уларга меҳр-муҳаббат ва қувонч бағишлаш, маънавий соғлом оила муҳитидида камол топиши ва келажакда комил инсон бўлиб вояга етишини таъминлаш давлат сиёсатини юқори даражасига кўтарилган вазифалар қаторидан ўрин олган, яъни мактабгача таълим соҳасидида фаолият юритаётган ходимларнинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Мактабгача ёшдаги болаларга сифатли таълим-тарбия бериш давлат аҳамиятидаги

вазифа эканлигини барчамиз яхши биламиз. Мактабгача таълим ҳаётий қарашлар билан ўлчанганда қисқа вақтни ташкил қилса ҳам, ҳаётнинг кейинги йиллари учун таъсири жуда аҳамиятлидир. Ҳаётий кўникма, билим ва одатларнинг асосини ташкил этган мактабгача ёшдаги болаларга берилаётган имкониятлар қанчалик кенг бўлса, ёш ота-оналарга болалар тарбияси ҳақида сабоқ бериш ҳам шунчалик муҳимдир. Тарбия давомида ота-оналар ўз таъсирининг аҳамиятлилигини ва уни тўғри ташкиллаштириш учун фаол иштирокчилар эканликларини қалбдан ҳис этишлари лозим. Мактабгача таълим ташкилоти соғлом, ҳар томонлама етук болаларни тарбиялаш учун зарур ташкилий, услубий, психологик, педагогик шарт-шароитлар яратади, болаларни мунтазам равишда таълим олишига ота-оналарга ёрдам беради. Мактабгача таълимни тўғри ташкил этилиши оила ва мактабгача таълим ташкилотига ҳар томонлама боғлиқ. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 30 сентябрьдаги ПҚ-3955 сон қарорига мувофиқ, шунингдек, мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, соғлом, фаол, тўлақонли, жамиятга мослашган бола шахсини шакллантириш, ўсишида турли нуқсонлари бўлган болаларни, шунингдек, реабилитация қилиш ва соғломлаштиришга муҳтож болаларни ўқитиш, тарбиялаш ва интеграция қилиш учун қулай муҳит яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги “Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” ги 391-сонли қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ мактабгача таълим ташкилотининг мақсади этиб, боланинг таълим олишига бўлган ҳуқуқини амалга оширишини таъминлаш, боланинг жисмоний, ақлий ва маънавий камолотини сақлаш ва мустаҳкамлаш, умумтаълим ташкилотларида боланинг жамиятга мослашишини ва таълим олишини давом эттиришга тайёргарлигини таъминлашдан иборат. Вазифалари этиб ўзига хос эҳтиёжлари бор болаларга яқка тартибда таълим дастурларидан фойдаланиш, шунингдек, ўз вақтида инклюзив мактабгача таълим ва тарбия олиш имконини берадиган қулай муҳит яратиш, болаларда Ватанга муҳаббат туйғусини, оилага, ўз халқининг миллий, тарихий, маданий қадриятларига ҳурмат билан муносабатда бўлишни, атроф муҳитга эҳтиёткор муносабатни шакллантириш, боланинг шахсини шакллантириш, унинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш, ижтимоий тажриба орттиришни таъминлаш, боланинг жамиятга мослашишини ва бошланғич таълимга тайёргарлигини таъминлаш, таълим - тарбия жараёнига замонавий таълим дастурлари ва технологияларни жорий этишдан иборат. Бола мактабгача таълимни доимий фаолият олиб бораётган мактабгача таълим ташкилотларида, нодавлат мактабгача таълим ташкилотларида, оилавий мактабгача таълим ташкилотларида, қисқа муддатли гуруҳларда олади. Ота-оналар ўз болалари учун таълим-тарбия шакллари, таълим бериш тилини, болага таълим-тарбия бериш учун зарур шарт-шароитлар яратилишини ҳамда боланинг шахсига нисбатан ҳурмат билан муносабатда бўлиши белгиланган. Болани мактабга тайёрлашда оиланинг ўрни жуда каттадир. Бола тарбиясида оиланинг барча аъзоларидан нафақат болаларга нисбатан тўғри муносабатни, балки уларнинг тақдири учун юксак маъсулият ҳиссини ҳам талаб қилувчи қийин ва мураккаб ишдир. Бола ҳар бир ҳаракатимизга тақлид қилади, биз бу борада бепарволикка йўл қўймаслигимиз керак. Оиладаги илк ёшдаги бола бир қанча омиллар таъсирида тарбияланади ва беихтиёр муайян қонунларга бўйсинади. Бола табиий ривожланишида бешиқдан хонага, уйни танишга, кўчаси, маҳалласи, теварак-атрофни билишга ўтади. Одатда, шахс шаклланиши учун учта асосий омил бор. Бу ирсият, атроф-муҳит ва тарбиядир. Бу ҳақда ҳам алоҳида тўхталиб ўтиш лозим. Атроф-муҳит таъсири – бу оилавий муҳит бўлиб, мактабгача ёшли боланинг ақли, онги етмайди деган хулоса чиқариш нотўғри. Уни ривожлантириш учун ҳар томонлама ҳаракат қилиш лозим, ушбу омилларнинг ҳеч бири вазият ва шароитларга боғлиқ бўлмаган ҳолатда мустақил равишда шахс шаклланишига таъсир эта олмайди. Бундан ташқари баъзи омиллар фаолроқ, мунтазамроқ таъсир кўрсатади. Сўнгги йилларда эфирга узатилаётган миллий руҳдаги ўзбек халқ эртақ қаҳрамонлари акс этадиган янги мультфильмлар яратилиб, экран орқали болажонларнинг эътиборини тортмоқда. Юртбошимиз таъбири билан айтганда, фарзандларимизнинг қалби, онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуммиллий қадриятларга ҳурмат-эҳтиром туйғусини болалик пайтидан бошлаб шакллантиришимиз зарур. Ёш авлодни буюк келажак ва улўғвор мақсадлар сари бошлаш, мамлакатимизда яшайдиган миллати, тили ва динидан қатъий назар, ҳар бир фуқаронинг ягона Ватан бахт-саодати учун доимо маъсулият сезиб яшашига чорлаш, аждодларимизнинг бебаҳо мероси, миллий қадрият ва анъаналаримизга муносиб бўлишига эришиш, юксак фазилатли ёшларимизни тарбиялашда илк ёшдан эътиборан кучайтириш, маҳалла, жамоатчилик маъсулиятини ошириш, уларни яратувчилик ишларига даъват қилиш муҳим масалалардан саналади. Маҳаллада, оилада ва мактабгача таълим

ташкilotида болани мактабга тайёрлашда тарбияни ҳар томонлама, жумладан, маънавий, ахлоқий, ақлий, эстетик, жисмоний ва меҳнат тарбияларини биргаликда олиб бориши яхши самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Болага йўналтирилган таълим дастурини ташкил этиш” Т.:”Квинта Принт” нашри 2012й, 263б
2. “Сифатли мактабгача таълим-бола келажакнинг пойдевори”Т.: 2014 й 14-бет
- 3.Ф.Қодирова ва бошқалар.”Мактабгача педагогика”-Т.:”Маънавият” 2013 йил, 160 б
4. «Мактабгача ёшдаги болалар таълим тарбиясини такомиллаштиришнинг муаммо ва ечимлари» мавзусидаги ЖДПН нинг республика илмий-амалий анжуманининг мақолалар тўплами.-Жиззах “Иқтисод молия” 2009 йил ,211б

BO‘LAJAK PEDAGOGDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Amonova Maqsuda Savurovna

Buxoro tuman 18- umumiy òrta ta'lim maktab boshlang'ich sinf òqituvchisi

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar kasbiy rivojlanishlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda talabalarning mavjud bilimlari, kasbiy mayllari, ehtiyojlarini o‘rganish lozim.

Pedagog-tarbiyachilar o‘z faoliyatlari davomida hamkasblari va bolalar jamoasi orasida sog‘lom muhitni vujudga keltira olishlari, jamoada obro‘ qozonishlari kerak.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar, birinchi navbatda, ijodkor, keng tasavvur, dunyoqarash va tafakkur, kuchli xotira, yuqori darajada hissiy o‘z-o‘zini boshqarish layoqatiga ega bo‘lishlari zarur. Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglarida bunday sifatlarning hosil bo‘lishida auditoriyadagi o‘quv jarayoni bilan bir qatorda pedagogik amaliyot ham muhim o‘rin egallaydi. Talabalarning pedagogik amaliyotda faol ishtirok etishlari, tajribali metodistlar va tarbiyachilarning ish faoliyatlari bilan tanishishlari, ulardan kasbiy mahorat sirlarini o‘rganishlari istiqbolda o‘z pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etishlari uchun zarur hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarning ilg‘or tajribalarni o‘rganishlari ularning o‘z kasbiy rivojlanish darajalarini ob‘ektiv baholashlari, mavjud bo‘shliqlarni o‘z vaqtida ko‘ra olishlariga ko‘maklashadi.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar kasbiy rivojlanishlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda talabalarning mavjud bilimlari, kasbiy mayllari, ehtiyojlarini o‘rganish lozim.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarda quyidagi kasbiy sifatlar shakllangan bo‘lishi lozim:

Bilimdonlik, vaziyatni o‘z vaqtida va to‘g‘ri baholay olish, ijodkorlik, mulohazalilik, kuchli xotira va mustaqil fikrlash layoqatiga egalik tezligi, mantiqiy xulosa chiqara olish, diqqatning barqarorligi kabi intellektual sifatlar.

Fikrni to‘g‘ri va ta‘sirchan bayon qila olish, nazokat bilan so‘zlash, xushmuomalalilik, hozirjavoblik, samimiylik, o‘zgalar fikrini tinglay olish, mustaqil fikrga ega bo‘lish, bolalar bilan dialog o‘rnata olish kabi kommunikativ sifatlar.

Qat‘iyatlilik, jur‘atlilik, shijoatlilik, mardlik, jasurlik, tartib-intizomlilik, vaziyatni to‘g‘ri baholash hamda oqilona qarorlar qabul qila olish, vazminlik, insonparvarlik, mehribonlik, mehr-shafqatlilik, mustaqillik, shijoatlilik, jismoniy barkamollik, faollik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, chidamlilik, harakatchanlik kabi irodaviy sifatlar.

Nafosat hissiga egalik, ozodalik, saranjom-sarishtalik, jozibadorlik, qaddi- qomatni to‘g‘ri tuta bilish, nutqning ta‘sirchan bo‘lishiga erishish, emotsionallik, ijodkorlik, improvizatsiya va fantaziyaga moyillik kabi estetik sifatlar.

Shu bilan bir qatorda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar ijtimoiy-g‘oyaviy jihatdan yetuklik, ijtimoiy faollik, faol fuqarolik pozitsiyasi kabi sifatlariga ham ega bo‘lishlari kerak.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarda kasbiy shakllanish jarayoni kommunikativ ko‘nikmalar va pedagogik mahoratni egallashdan boshlanadi. Bo‘lajak pedagog-tarbiyalarning kasbiy tayyorgarligini ta‘minlashga xizmat qiladigan bilimlarni ularga taqdim etishda zamonaviy yondashuvlar, konsepsiyalarga tayanish lozim. Shunga ko‘ra,bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarga zamonaviy kasbiy bilimlarni taqdim etishda xalqaro tajribalarni ham alohida hisobga olish kerak. Chunki maktabgacha ta‘limning bugungi kungi

taraqqiyot darajasi, uni ta'minlovchi pedagogik-psixologik bilimlarni o'zlashtirmasdan turib, yetuk mutaxassis bo'lish mumkin emas.

Abu Rayhon Beruniy insonni tabiatning uzviy ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Shunga ko'ra, u o'zining pedagogik qarashlarida inson, uning baxt-saodati, ta'lim- tarbiyasi va kamoloti kasbiy faoliyatning asosini belgilashini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy esa o'zining bir qator "Hayrat-ul Abror", "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" kabi asarlarida inson muayyan bir kasbni egallashi lozimligi, uning ustasi bo'lishi zarurligini ijtimoiy ehtiyoj mahsuli ekanligini e'tirof etadi.

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dastlab kasbiy ehtiyojni shakllantirish, ularning qiziqish va mayllarini aniqlash asosida ularga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatish, bosqichma-bosqich kasbiy tayyorgarlik darajasini tahlil etish asosida o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritishi talab qilinadi.

Qobiliyat shaxsning muayyan faoliyatni egallashga layoqatlilik darajasini ifodalaydi. Layoqat-bu nasldan-naslga o'tadigan irsiy xususiyat bo'lib, insonda barcha turdagi faoliyatga nisbatan layoqat kurtaklari mavjud. Lekin bu layoqatlar o'z-o'zidan qobiliyat darajasiga ko'tarilmaydi. Buning uchun qulay ijtimoiy-pedagogik muhit, sharoit va shaxsning faolligi zarur. Bularning barchasi kasbiy faoliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy- pedagogik qobiliyat tadrijiy tarzda rivojlanadi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachi o'z kasbini chuqur o'zlashtirishi, pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish san'atini egallashi lozim. Buning uchun u bolalarda yangi bilimlar va ko'nikmalar hosil qilishi, ularning rang-barang faoliyatlari, bilish jarayonlarini samarali boshqarish mahoratini egallashi kerak. U, birinchi navbatda, tarbiyalanuvchilar orasida jamoani shakllantirishi, ularni mashg'ulotlarga jalb qila bilishi, kasbiy ko'nikmalaridan o'z o'rnida foydalana olishi talab qilinadi.

Pedagog-tarbiyachining muhim sifatlaridan biri bolalarni sevishdir. Bolalarni sevish tarbiyachilarga ularda muayyan ko'nikmalarni osongina shakllantirish imkonini beradi. Bola qalbiga yo'l topish, u bilan samimiy muloqotga kirishish, uni har tomonlama rivojlantirish ta'lim jarayoniga tayyorlashda tarbiyachilarga qulaylik tug'diradi.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak pedagog-tarbiyachilar mashg'ulotlar mazmunini bolalarga tushunarli tarzda bayon etishi, ularni mustaqil fikrlash, faollikka o'rgatishi, qiyin topshiriqlarni oson bayon qilish usullarini topishi, bolalar bilan osongina muloqot o'rnatish olishi, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasiga oid manbalar bilan tanishishi, ular ustida ishlay olishi, o'zining kasbiy rivojlanishi yo'lida mustaqil bilim olishi, tarbiyalanuvchilarning psixologik holatini his eta olishi, ularning qalbini zabt eta olishi, ertak va topishmoqlarni bolalarga jonli, obrazli o'qib bera olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari, usullari va metodlarini puxta egallagan bo'lishi zarur.

Adabiyotlar :

1. Ahmadxo'jayev H. T., Mirdadayev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. – Toshkent: Ilm Ziyoy, 2004. – 36-39-b.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
3. Zvereva V.I. Organizatsionno-pedagogicheskaya deyatelnost rukovoditelya shkolы. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Novaya shkola, 1997. – 320s.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti. – Toshkent, 2006. – 73 b.
5. Kalinin I.V. Strategiya podbora kadrov kak stilevaya xarakteristika upravlencheskoy deyatelnosti rukovoditelya: Diss kand. psixol. nauk. – M., 1996. – S. 33-36.
6. Komilov N., Begmatov A., Quronov M. Rahbar va xodim. – Toshkent: Akademiya, 1998. – 170 b.
7. Murakayev I.U., Saifnazarov I.S. Menejment asoslari. – Toshkent: O'zbekiston,
8. 2001. – 191 b.
9. Petrovichev V.M. Regionalnoye obrazovaniye: organizatsiya, upravleniye razvitiyem. – Tula: Priokskoye izd., 1994. – S.6.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRALLASHGAN DARS TURLARI VA SHAKLLARI

Kamolova Dilobar Tairovna

Qashqadaryoga Viloyat ixtisoslashtirilgan san'at maktab -Internat boshlang'ich sinf o'quvchisi

Insoniyat yuksak rivojlangan texnika va axborot texnologiyalari asriga qadam qo'ydi. Shunga ko'ra murakkab tizimdagi texnika va texnologiyalar bilan muomala qilib, ko'p miqdordagi axborotlar oqimidan o'rinli foydalanishga, ta'limga mas'uliyat bilan yondashadigan, har tomonlama chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlar zarur. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ dastur va darsliklardan foydalanmoqdalar.

Shu jihatdan kelib chiqib, zamon talabiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning ish tajribalariga tayanib, ta'limning usul va shakllarini integrallashtirib o'qitish muammosini hal etishni zarur deb hisobladik. Integrallashgan ta'lim predmetlararo aloqalardan keng foydalanuvchi darslar o'tkazilishini ham ko'zda tutadi. Eksperimentator-o'qituvchilar tomonidan tatbiq etilayotgan vositalar sinovdan o'tkazish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini va shaxslararo munosabatlarini pedagogik nazorat qilish integrallashgan diagnostikasi shakllarini amalga oshirish uchun tavsiya qilingan bu darslarning turlari va shakllarini biz quyida ko'rib chiqamiz.

Yangi bilimlar hosil qilish darsi quyidagi shakllarda loyihalanaadi:

ma'ruza dars

sayohat dars

tadqiqot dars

teatlashtirilgan dars

o'quv konferensiyasi

sayr dars

multimediya dars

muammoli dars.

Darslarning tuzilishi quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, bilimlarning dolzarblashuvi, bilimlarni kiritish, dastlabki mustahkamlash va tizimlashtirishni umumlashtirish, o'qishga yakun yasash, uy vazifasi va uni bajarish bo'yicha maslahatni belgilash.

Bilimlar hosil qilish darsining maqsadi – o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida ko'zda tutilgan tushunchalar va ilmiy faktlarni o'zlashtirish bo'yicha ish tashkil qilish.

Vazifalar:

Ta'limiy vazifalari: tanishtirish; tasavvur uyg'otish; kartalar, sxemalarni o'qish va tahlil qilishni o'rgatish; bilim faoliyatini kuchaytirish; tipik xususiyatlarni ochish va h.k.;

Tarbiyaviy vazifalar: Vatanga muhabbat hissini, o'z yurti uchun faxr tuyg'usini tarbiyalash; ekologik madaniyatni shakllantirish, estetik tarbiya va h.k.;

Rivojlantiruvchi vazifalar: tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, asosiy narsani ajrata olish, sabab-oqibat aloqasini belgilash, misollar keltirishni davom ettirish, adabiyot, kartalar, jadvallar, sxemalar va boshqalar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

An'anaviy va zamonaviy darslarni ajrata bilish kerak.

An'anaviy dars umumta'lim vazifalarini hal qiladi o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantiradi va u tushuntirish-illyustrativ metodi asosida quriladi. Bunday darsda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi, ko'rganlarni kuzatish va tasvirlash tashkil etiladi.

Ta'limning turli metodlari va vositalari birligi asosiga qurilgan bilimlar hosil qilishning zamonaviy darsi kompleks vazifalarni hal qiladi. Ta'limning tushuntirish-illyustrativ metodidan ham, qisman izlanish, tadqiqot metodlaridan ham, bahs-munozara, bilimlarning turli manbalaridan, teledasturlardan, kinofragmentlar, magnit yozuvlardan, multimediya kurslari, internet-texnologiyalar, ta'lim va nazoratning boshqa texnik vositalaridan foydalanadi. Shuningdek, turli ish shakllaridan ham keng foydalanadi: guruh, frontal, zveno, juft, individual shakllar.

Bunday darslarda bilim orttirish vazifalarini hal etish uchun ijodiy potensialni ishga solish takliflarini aytish uchun katta imkoniyat yaratiladi, bir so'z bilan aytganda, o'quvchi shaxsining to'la rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, yangi bilimlar hosil qilish darsi turlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: bilimlarni hosil qilish va rivojlantirish darslari, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish darslari, yangi muammoli

(tasavvurni) hissiyotni shakllantirish darslari. Unga sanab o'tilgan dars shakllaridan seminarni, yakuniy konferensiya, yakuniy sayohatni qo'shish mumkin.

Dars tuzilishi o'quvchilarga juft, guruh va individual ishning har xil turlariga qo'shilish imkonini beradiki, ular dars vaqtining katta qismini band etadi. Ta'limning individuallashtirish va individual-guruhlashgan shakliga murojaat qilish ham mumkin.

Bu dars juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat o'quv materiali g'oyaviy mazmunidan samarali foydalanish hisobiga, balki ratsional muloqot va jamoaviy ishni tashkil etish ham iborat bir-biriga g'amxo'rlik qilishi, yordam ko'rsatishi va qo'llab-quvvatlashining namoyon bo'lishi uchun sharoitlar yaratiladi. Bu o'rinda amalga oshirilgan o'zaro nazorat, o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanishiga yordam beradi. Rivojlantiruvchi vazifalar shunda hal qilinadi.

Bilimlarni mustahkamlash bo'g'inlari birlashishida, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish darsi tuziladi.

Bu darsda o'quvchilar avvalgi bilimlariga suyanib, ularni rivojlantiradi, turli vaziyatlarda ularni qo'llashni o'rganadi. Bilimlarni anglash mahorati va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni kechadi.

Bunday darslarda ta'limning amaliy metodlari hukmronlik qiladi, bilish faoliyati xarakteriga ko'ra esa afzallik qisman izlanish, reproduktiv metodlarga beriladi.

O'qituvchining faoliyati o'ziga xos bo'ladi. O'quvchilarning ishini avvaldan rejalashtirib olib, u tezkor nazoratni amalga oshiradi, yordam ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi va ularning faoliyatiga tuzatishlar kiritadi.

Bilimlarni amalda qo'llash darsi.

Bu turdagi darslarning asosiy shakllari:

aylanma va amaliy o'yinlar;

praktikumlar;

loyihalarni himoya qilish darsi;

sayohat;

ekspeditsiya va h.k.

Dars tuzilishi quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi: tashkiliy, maqsadning qo'yilishi, uy vazifasini tekshirish va bilimlarni dolzarblashtirish, amaliy vazifalarni bajarishda bilim, malaka va ko'nikmalarni ishga solish. Bu darsda o'quvchilar avval orttirgan bilimlariga asoslanib amaliy faoliyat bilan shug'ullanadi. Avval uy vazifasining bajarilishi tekshiriladi, so'ng bilimlarni dolzarblashtirish maqsadida nazariy material ko'rib chiqiladi. Shundan keyin o'quvchilar aniq ifodalangan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konstruktiv topshiriqlarni bajarishga kirishadilar.

Masalan, ekskursiyadan olingan materiallarga tayanib o'quvchilar maktab tomorqasiga almashlab ekishni joriy etish sxemasini tuzadi. Konkret iqtisodiyot masalalarini o'rgana borib, sanoat korxonalarini mahsulot hajmini ko'paytirish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzadi, iqtisodiyot qonunlariga suyanib iqtisodiy rivojlanish sxemasini tuzadi. Bu yerda ta'limning hayot bilan aloqa prinsipini amalga oshirish, turli jabha va predmet sohalarini integratsiyalash uchun keng imkoniyatlar beriladi.

Bu turdagi darsning maqsadi – bilimlarni amalda qo'llash.

ta'limiy vazifalari: olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganish; mavjud imkoniyatlarni konkret vaziyatda ishga sola bilish; o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash; o'z nuqtai nazarini himoya qilishni o'rgatish; muammolarni ajrata olish ko'nikma va malakasini mustahkamlash;

tarbiyaviy vazifalar: aktiv faoliyatga jalb qilish; madaniyatni shakllantirish; jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish, o'quvchilarda insonparvar shaxs sifatini shakllantirish; muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish;

rivojlantiruvchi vazifalar: bilim manbalari bilan ishlash malakasini takomillashtirish, tahlil qilish, turkumlashtirish ko'nikmalarini takomillashtirish va h.k.; chiqishlar qilish va o'z nuqtai nazarini himoya qilishni bilish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, guruhlarda ishlashning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish; atrofda hayotni bilishga qiziqishni rivojlantirish.

Bilimlarni amalda qo'llash darslari juft, frontal, guruh bo'lib va individual ishning birligi asosiga quriladi. O'quvchilarning jamoaviy ishlarning har xil turlariga kirishishi shaxsda insonparvarlik sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy xarakterdagi vazifalarni hal etish asosida rivojlanayotgan o'quv faoliyati ularning samarali rivojlanishiga yordam beradi.

O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH MUAMMOLARI (BOSHLANG'ICH TA'LIM)

Jumanova Naima Bobodustovna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 283-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib xalqaro dastur reytingida jahonning ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning bilim darajasini baholashga yo'naltirilgan - ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. [1]

Bunga esa, eski baholash tizimi bilan erishib bo'lmaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda baholash tizimi biznikiga umuman o'xshamaydi, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim. Ularning ko'pchiligida boshlang'ich sinflarda o'quvchilar baholanmaydi, faqat og'zaki rag'batlantirilib boriladi, o'quv yili yakunida test yoki yozma ish o'tkaziladi.

O'quvchining ta'lim faoliyati natijalarini baholash har doim va barcha turdagi maktablarda mavjud bo'lgan. O'quvchi faolligini baholash albatta aniq shaklda va ma'lum algoritmgaga muvofiq ifoda etilishi kerak.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarning yutuqlarini baholash va qayd etish tizimidir. Baholash tizimining ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir, chunki bu maktabdagi ta'lim sohasidagi eng aniq birlashtiruvchi omil, o'quv muammolarini tashhislash va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi. Bunday holda, baholash tizimi deganda nafaqat markalashda foydalaniladigan o'lchov va odatda belgilanadigan ballar belgilanadi, balki umuman o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi nazorat-dagnostik munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi, shuningdek, o'quv jarayonining muvaffaqiyati to'g'risida tushuniladi. [2]

Bugungi kunda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash joriy va oraliq nazorat natijalari 5 ballik tizimda amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari 1-sinflarda birinchi yarim yillikda raqamli bahodan voz kechishadi, chunki bu belgi bolalarning o'zini o'zi qadrlashi uchun noto'g'ri asos yaratadi: yaxshi belgi ko'pincha bola uni sevishini, yomon belgisi shikast yetkazishini anglatadi.

Bolani muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga undash uchun psixologik jihatdan qulay o'quv muhitini yaratish lozim:

Baholashning sub'ektivligi, ayniqsa, past ko'rsatkich, ko'pincha bolalar, o'qituvchilar va ota-onalarning bezovtalanishi va asabiylikni kuchaytiradigan, ularni sherik emas, balki o'quv jarayonidagi raqibga aylantiradigan ishonchsizlik va nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Amaliy baholash amaliyoti o'quvchilarni bilimlarni emas, balki baholar olishga undaydi. Baho, siz bilganingizdek, nafaqat baholash shakli, balki maktabdan tashqarida jazolash va rag'batlantirishning kuchli vositasidir. Shu munosabat bilan vaziyatni konstruktiv tahlil qilish va muammoli joylarni yo'q qilish usullarini izlash lozim.

Faoliyat natijasini jarayonning yetarlicha aks etmasdan baholashga qaratish o'quvchilarning o'zini o'zi hurmatini shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi. [3]

Xalqaro baholash dasturlari mezoni asosida baholash faoliyatini amalga oshirishning umumiy vositalari va shakllarini ishlab chiqish. O'quvchining muvaffaqiyat darajasi o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy munosabatlariga, shuningdek, o'qituvchining natijalarini subyektiv baholashiga bog'liq bo'lmasligi kerak.

Maktab o'quvchilarining bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarining o'sishi, ular uchun yetarli qadriyatlar tizimini shakllantirish, ba'zi bir shartlar bilan o'qituvchining faoliyati natijasi deb hisoblanishi mumkin. Yuqorida biz o'quvchining bahosi o'qituvchi samaradorligining ko'rsatkichi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keldik, ya'ni o'quv faoliyati sifati to'g'risidagi hisobot o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazishda ob'ektiv ko'rsatkich hisoblanmaydi.

Baholash tizimidagi islohotlar, agar yangi vositalar va ish shakllarini eskilar, o'qituvchilar, bolalar va ularning ota-onalari o'zlari 5 balldan foydalanishni rad qilsalargina, o'zlarining pedagogik vazifalarini bajaradilar.

Masalan, o'quvchi savolga mukammal javob berdi, barcha materiallarni taqdim etdi, o'z nuqtai nazarini bildirdi. U "5" deb baholandi. Boshqa bir o'quvchi matnni aniq takrorladi va bir xil "5" oldi. Bu esa noto'g'ri chunki, tekshirish uchun yetarli emas. Buni har bir ta'lim fanining yutuqlarini baholashning yanada mazmunli usuli bilan almashtirish muhimdir. Yoki bo'lmasa, xalqaro baholash dasturlari – PISA,

TIMSS, PIRLS mezonlari asosida baholashni tatbiq etish, bizni baholash mezonlarimini unga moslashtirishimiz maqsadga muvofiq.

Misol uchun, PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi: javobni tanlash bilan topshiriqlar 1 ball bilan baholanadi, tadbirlar ketma-ketligini belgilash uchun vazifalar 1 ball bilan baholanadi, erkin javobga ega bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishni maqsad etar ekanmiz baholash tizimini tubdan o'zgartirish kerak, deb hisoblayman.

Adabiyotlar:

Tashkenbayev U.N. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. –Toshkent, “Sharq”, 2019. 5-bet.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimlarini baholashning takomillashtirilgan reyting tizimi to'g'risidagi NIZOM (XTVning 2010 yil 20 iyuldagi 178-sonli buyrug'iga 1-ilova).

Bashkin M. V. Formirovaniye psixologicheski komfortnoy i bezopasnoy obrazovatelnoy sredy. Yaroslav, YarGU, 2014. 44-45 s.

MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH (BOSHLANG'ICH SINIF)

Boltayeva Aziza Aminovna

Buxoro viloyati Peshko' tumani 36-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlarini uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o'tishiga olib keladi, o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik qarashlarda "Oddiy o'qituvchi - gapiradi, yaxshi o'qituvchi - ko'rsatadi, juda yaxshi o'qituvchi- motivatsiya qiladi", degan gap bor. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini, chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo'lishi lozim. Ayni paytda o'qituvchi har bir darsning muallifi hisoblanadi. Chunki o'qituvchi ushbu darsni tayyorlashda ilg'or o'qituvchilar tajribasiga tayanadi, uslubiy qo'llanmalarni o'rganadi va uni amalda qo'llaydi.

Matematika darsida o'quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil kilish shakllari bilan uzviy bog'liq. Boshlang'ich sinflarda ishlaydigan o'qituvchi vatanparvarlik burchini to'g'ri anglaydigan, o'z ixtisosligiga doir bilimlarni chuqur biladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol bo'lmog'i lozim. Boshlang'ich ta'lim asosiy poydevor hisoblanadi. Bolaning o'qishga bo'lgan munosabatini zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi hamda o'qituvchi tinmay o'z ustida mustaqil ishlashi fandagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi ilg'or metodikalarga ega bo'lgan tajribali metodist-o'qituvchilar bilan o'z tajribalari to'g'risida o'rtoqlasha olishi, samarali o'qitish metodikalarini namoyish eta olishi lozim. Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini o'rganishni taqozo etadi. Shuningdek hozirgi kunda matematika fanidan juda ko'p misol va masalalar to'plamlari, qiziqarli matematika o'quv adabiyotlari nashr etilgan. Ushbu fanga taalluqli qoshimcha adabiyotlardan foydalanib, darslarni mustahkamlash qismida foydalanib o'tish ham ijobiy samara

beradi.

Bugungi kunda darslarni turli xil metodlar bilan boyitib borishimiz mumkin. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lib borayotgan Xalqaro baholash dasturi TIMSS ga tayyorlash ayni davr talabi desak adashmagan bo'lamiz. Topshiriqlarni esa o'zimiz tayyorlab borishimizga to'g'ri keladi.

Bunda "Tushunchalar tahlili" degan metodimizni bir eslaylik. Bu metod orqali otilgan mavzularni eslab qolishda, yangi mavzuni mustahkamlashda va olgan bilimlarimizni eslab qolishda ayni muddao bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. Masalan: o'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi, ular bu topshiriqlarga o'zlarining javoblarini yozishlari kerak.

Tushunchalar	Tahlil
Kub	Hamma yoqlari kvadratdan iborat to'g'ri burchakli parallelepiped kub deb ataladi.
Uchburchak	Uchburchak <u>geometrik figuralardan</u> biri bo'lib, bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan uchta <u>nuqta</u> va shu nuqtalarni ketma-ket tutashtirishdan hosil bo'lgan figura. Nuqtalar uchburchakning uchlari, <u>kesmalar</u> esa uning tomonlari hisoblanadi. Uchburchak uning uchlarini ko'rsatish bilan belgilanadi.
Kvadrát	Qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng bolgan to'g'ri burchakli to'rtburchak yoki burchaklari to'g'ri burchaklardan iborat bo'lgan <u>romb</u> kvadrat deb ataladi
Aylana	Aylana – muayyan <u>nuqtadan</u> teng uzoqlikda yotgan nuqtalar <u>to'plami</u> . Aylana — faqat chiziq. Oq qog'oz ustiga dumaloq stakanni qo'yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo'lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo'ladi Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo'lmasa, qog'oz varag'ini yog'och taxtachga ustiga qo'yib, o'rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog'lab qo'ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog'lang. Qalamning ip bog'langan joyidan ushlab, tarang torting-da, aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo'ladi.
Doira	Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qirqib chiqsangiz, doira hosil bo'ladi. Doira va aylana «egizaklar», «opa-singillar»dir. Ular har doim birga «yurishadi»: aylana chizingizmi — doira hosil bo'ladi, doira qirqib oldingizmi — qaychi yurgan yo'l aylanani bildiradi. Sirkul qo'yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi. Limon bo'lagi va velosiped g'ildiragi markazini topish oson.

Bu metodni nafaqat matematikada balki boshqa fanlarda ham ishlatsak bo'ladi. Bolalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, mavzularni eslab qolishda bu metodlarni dars davomida foydalanish ularda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilgan bo'lamiz. Har bir metodning o'ziga xos tomonlari bor, biz undan darslar jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Bu esa fanimizni yanad qiziqali o'tishimizga o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga sabab bo'ladi deb o'ylayman.

Fikrimni Rudakiyning ushbu gaplari bilan tugatmoqchiman " Bilim odamiing ijodiy maqsadlariga xizmat etmog'i lozim. Bilim orttirishning o'zi kifoya emas, uni iloji boricha keng yoymoq va hayotga tatbiq etmoq zarur".

O'QUVCHILARNI IJODIY FAOLIYATGA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR ORQALI YO'NALTIRISH METODLARI

Obloqulova Gulshoda Fazliddinova

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 61-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Obloqulova Sayyora Fazliddinova

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 21 -maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

Bugungi kunda davlat va jamiyatimiz sinfdan tashqari ta'limga yangi, eng qulay shakl, metod, vosita hamda metodikani jalb etishni talab etmoqda. O'z mamlakati madaniyati tarixini o'rganish bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkil etilishi va samarali amalga oshirilishi yosh avlodga suv va havodek zarur. Bu, birinchi navbatda, madaniyatga faol qiziqish bildirayotgan, faoliyat jarayonida idrok qilish, intellektual va ijodiy rivojlanishga qodir bo'lgan yuqori sinf o'quvchilariga taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'quvchi yoshlarni zamon talablariga muvofiq yangicha ishlash va fikrlashga, izlanish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikka chaqirmoqda. Shu sababli ta'lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni real hayotga yaqinlashtirish, shuningdek, yoshlarda intellektual-ijodiy rivojlanish, ijtimoiy- kommunikativ qobiliyatni o'stirish lozimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda qabul qilingan qator qarorlari va farmonlarida ham ushbu g'oya yetakchi o'rinni egallaydi. [1]

O'quvchilar intellektual-ijodiy – kreativ faoliyati katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, u barkamol avlodning bazaviy sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning omilidir. Zero, intellektual-ijodiy rivojlanish "shaxsning ma'naviy sohasi bilan bog'liq. Bu faol faoliyat jarayonidagi axloqiy, intellektual va estetik talablar va manfaatlarning shakllantirilishi va qanoatlanirilishidir" [2]. Demak, mazkur jarayonda inson ma'naviyatining muhim qirralari shakllantiriladi, rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Zero, uzluksiz va izchil intellektual-ijodiy faoliyat shaxsda intellektni, ya'ni fikrlash qobiliyati va kreativlik (o'ziga xos qadriyatlarni yaratish, nostandart, ijodiy qarorlarni qabul qilish qobiliyati)ni rivojlantiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi markazida shaxsning intellektual-ijodiy potensiali (shiddatli qiziquvchanlik, idrok qilishga oid faollik, idrok qilishning kuchliligi, dadil, o'ziga xos tafakkur, tahliliy, ijodiy, umumlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatga ko'chirish qobiliyati kabilari), intellektual-ijodiy, ayniqsa, ma'rifiy-funksional qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi turadi, o'z navbatida, idrok qilishga oid faoliyatga qiziqish, fikrlarni mantiqiy, aniq, yorqin va tushunarli tarzda ifodalash zarur lug'aviy tushunchalar zahirasiga ega bo'lish, undan foydalana bilish, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni safarbar qilish, o'z-o'zini tanqid qilish va uzluksiz takomillashtirish kabi o'ta muhim layoqatlarni rag'batlantiradi. Shu sababli Milliy dasturda "...inson qobiliyatlarini ochib berish va uning xilma-xil ta'limiy ehtiyojlarini qanoatlanirish" vazifasi ilgari surilgan [3].

O'tgan vaqt mobaynida ta'lim amaliyotida ushbu vaziflarni hal etishda birmuncha yutuqlarga ham erishildi. Xususan, maktablarda tarixiy-madaniy merosni o'rganish bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk mutafakkirlar: al-Xorazmiy, imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Ogahiy va boshqa buyuk ajdodlarimiz, shuningdek, Mahmudo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar pedagogik merosi madaniy-ma'rifiy tarbiyaning asosini tashkil qiladi, bu zamonaviy yetuk shaxsni shakllantirishning ishonchli yo'nalishidir. O'quvchilarning ma'naviy intellektual-ijodiy rivojlanishida xalq pedagogikasidan foydalanish faollashdi.

Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchi shaxsida kreativlikni shakllantirishga, o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuviga, intellektual-ijodiy va ma'naviy rivojlanishiga asos yaratuvchi gumanitar fanlarni o'rganish jarayoniga e'tibor qaratish zamon talabidir. O'quv jarayonida milliy-madaniy merosning idrok qilinibgina qolmay, intellektual-ijodiy nuqtai nazardan o'rganilishi zarur. Chunki intellektual-ijodiy kreativ idrok qilish va uni ijodiy faoliyat jarayoniga joriy etishni, zarur kommunikativ munosabatlarni amalga tatbiq qilishni sinfdan tashqari sharoitlarda to'liq

amalga oshirish mumkin. Unga ko'ra, o'quvchilari bilan amalga oshiriladigan intellektual-ijodiy ishlar tizimi va sifatiga quyidagi talablar qo'yiladi:

– mashg'ulotlar mavzusi va mazmunning munosabatdorlik;

– variativlik va komplekslik;

– ijodiy faoliyatga qodir bo'lgan shaxsning intellektual-ijodiy rivojlanishini afzal ko'radigan, umummilliy va milliy ahamiyatga ega oliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida shakllantiriladigan tizim hosil qiluvchi fazilat,

– “uning hayotiy faoliyati asosini barhayot insoniy qadriyatlar tashkil qilib, shaxs rivojlanishi va o'z-o'zini boshqarishining eng oliy darajasi sanaladi”

– tarixiy-madaniy materialni o'rganish davomidagi, murakkablashganlik,

– o'quvchida kreativlik qobiliyatni rivojlantira olish;

– ularni o'z-o'zini kreativ rivojlantirishga yo'naltirish.

Kreativ qobiliyatni o'stirishga qaratilgan bunday faoliyat (idrok qilish, axborot materiallarini ijodiy tayyorlash, ularning turli o'quv auditoriyalarida ijtimoiylashtirish) o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularning ehtiyojlariga mos keladigan, ahamiyatli, zarur o'quv faoliyati hisoblandi. Bunday faoliyat, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarini o'ziga jalb qiladi. Bu yosh davri idrok qilish, ijodiy faollik, shakllangan intellekt, ijodiy potensial, ijtimoiy-kommunikativ faoliyatga intilish, intellektual-ijodiy rivojlanish, takomillashishga intilishning kuchliligi bilan ajralib turadi. O'smirda nafaqat ijodiy- intellektual, balki muloqot qilish, ijtimoiy faoliyatga intilish, ommaviy axborot vositalari, milliy va jahon madaniyatiga qiziqish, o'z bilimlari bilan o'rtoqlashish kabi ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlar ham shakllanadi. Unda oldindan sezish, rejalashtirish, mas'uliyat, qat'iyat, o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish kabi emotsional, intellektual va irodaviy xususiyatlar faollashadi. Zarur shart-sharoitlar ta'minlanganida, unda “o'z-o'zini baholash, individualligi va betakrorligi”ni [4] tushunib yetish, bir so'z bilan aytganda, kreativlikning tarkib topishi, estetik did, ma'naviy-axloqiy dunyoqarash, ijtimoiy faollikka ehtiyoj, sinfdan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etish, e'tirof etilish va ma'qullanishga ehtiyojning kuchayishi kuzatiladi. Bu yoshdagi o'smirlar xalqimizning tarixi va madaniyatiga katta qiziqish bilan qaraydilar. Bu qiziqishlarini yuzaga chiqarish uchun o'z yurti tarixiy-madaniy yodgorliklarini kreativ o'rganish lozim. Bu jarayonda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda “Sayohat darsi”, “Ziyorat darsi”, “Moziyga bir nazar” kabi dars mashg'ulotlaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Natijada bola shaxsining mavzuni o'zlashtira olishida, dars sifat samaradorligini oshishida, guruhda va sinflarda o'quvchilarning intellektual-ijodiy talablar darajasida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini rivojlanishi uchun muhim tayanch o'rinlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Bugun ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Elektron resurs. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/>.

2. Formirovaniye intellektualnogo, duxovno-nravstvennogo i fizicheskogo potentsiala obuchayushixsya obshchobrazovatelnoy shkoly Respubliki Uzbekistan na sovremennom etape: Uchebno-metod. posobiye dlya uchiteley i vospitateley/ Ped. fanlari doktori, prof. R.X. Jo'rayevning umumiy tahriri ostida. – T., 2005. – 190 b.

3. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat – yengilmac kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b

4. Psixologiya i pedagogika. – M., 1998. – 311 b.

BOSHLANG'ICH SINIF SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISH MASALALARI

Eshova Farida

Shofirkon tumani 1-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Sulaymonova Zebo

Shofirkon tumani 1-maktab boshlang'ich talim o'qituvchisi

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, mavxum tafakko'rini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqning eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvoffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: 1

Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratibolinadi: ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadilar. O'qituvchi o' tovushini cho'zib (o-o-o-ot) aytadi va qaysitovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o' tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O' tovushli nso'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o' harfi kesma harfdan yoki rasmi alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o' harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko'rsatadilar.

Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin. Bunda «Alifbe» sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, lekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni harf xattaxtasiga bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan xolda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, «Alifbe» sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lam, Man-non, tipidagi bo'g'inlarda — o-la:m, Ma: n- no: n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'st tipidagi bo'g'inda ring, do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, har bir o'qish darsida albatta bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiriladi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

«Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmi kuzating, matnda nima haqida gap boradi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?

Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi?

Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qiganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchilik bo'lib qoladi,

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarni o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq xolda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'irlash;

ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq xolda lug'atini boyitish;

o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;

gap va uch-to'rt gapli kichik «hikoyacha» (bog'lanishli nutq)ni og'zaki turli tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yirik gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashadi, ukasiga qaraydi), tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy -mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqni o'stirishda bolalarning o'yin va ertaklari, rasm ko'rish va Bu nima? Bukim? Bu qanday predmet? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq ma'lum bir temada (kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yirik gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va xodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish. Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi.

Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlaydilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olam, Naima kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar.

Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul—gulchi-guldon—gulzor, bog'-bog'bon- bog'cha kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni «O'zakdosh so'zlar» mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasilishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILLARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Saydig'aniyeva Dildora Qaxramanovna

Toshkent Shaxar YODJU Institutining II-bosqich " Boshlang'ich ta'lim " yo'nalish talabasi.

Hayotda har xil kasb egalari bor .Ularning qiyinchilik darajasi xam turli -tuman.Lekin men uchun eng mashaqqatli kasblardan biri sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'rinadi. Sababi shundaki hamma kasb egalari dars berib, ilk savodini chiqaradi.Meni o'ylashimcha hamma poydevorni mana shu boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi quradi.Buning uchun o'qituvchidan katta ma'sulyat talab etiladi.Boshlang'ich sinf o'qituvchillari ko'proq o'quvchini qiziqtirish kerak. Chunki makabga ilk qadam qo'ygan bola har taraflama qiynalishi mumkin .Sababi bolada o'yin faoliyati hali davom etayotgan bo'ladi.

Shuning uchun biz o'qituvchilar ularni o'qishga qiziqtirishimiz kerak.Buning uchun biz metod,turli xil o'yinlar,multimedialardan foydalanamiz.

O'quvchillarni 3-4 sinfga o'tganida biz eng asosiysi o'quvchillarni ijodiy fikrlashga o'rgatamiz. Albatta o'qish ,ona tili darslari o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga mo'ljallangan.O'quvchillarni qiziqtirish uchun oddiy bo'lmagan usullardan foydalanish kerak.Masalan xar hil metod ,ko'rgazmalar,tarqatma materialar multimedialar bizga qo'l keladi. Masalan boshlang'ich sinf o'quvchillari uchun foydali metodlardan biri bu-"Orfagrafik estafeda" metodi.Bu metodi asosan 3-4 sinflarda o'tkazish mumkin.

"Orfagrafik Estafeda" metodi

"Orfagrafik estafeda" kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashning qiziqarli shakli bo'lib ,u o'quvchilarda mantiqiy taffakur qobilyatini rivojlantirish imlonini beradi.U intensiv o'qitish bilan bir vaqtda bolalardagi harakat ehtiyojini ham qondirishga sharoi yaratadi. Orfografik estafeta an'anaviy aytib turib yozdirish maqsadida ,"an'anaviy" diktantga o'xshamay erishish imkonini beradi. Estafeta juda o'zgaruvchan ish shaklidir .Ozgina moslashuvdan so'ng undan birinchi sinf o'quvchilariga alifboni tanishtirishdan boshlab ,beshinchi va oltinchi sinflaeda ham foydalanishi mumkin.

Materiallar:

- 1.Diktant matni;
- 2.Qog'oz varog'i,ruchka,qizil siyohli ruchka guruxga bittadan;
3. G'oliblarga yutuqlar bo'lishi ham mumkin;

Mashqning borishi:

1.O'qituvchi o'quvchillarni 3-5 ga guruhga ajratadi .Ularning har birida o'quvchilar quydagilarni tanlaydilar:

- a) Yozuvchi(har bir guruhga bittadan).
- b)Yuguruvchillar(guruhda 1-3) .
- d) musahhix(har bir guruhdan bittadan) .

O'qituvchi sinfdan tashqarida,10 -30 metr masofada(masalan ,karidorda oxirida) diktant matni yozilgan doskani osib qo'yadi .

2.Xar bir guruh o'z joyiga ega bo'lib shu joydan yozuvchi va musahhix o'tiradi.

3.Mashq o'qituvchi ishorasi bilan boshlanadi .Guruhning vazifasi doskadagi matni bexato ko'chirib yoxishdir. Yuguruvchillar doska yoniga yugurib boradilar ,doskadagi yozuvni o'qiydilar va yozuvining mumkin qadar ko'proq qismini eslab qolishga harakat qiladilar (ularga birorta yozuvlar qilishga ruhsat etilmaydi).Yozuvchillar yuguruvchillar eslab qolib aytgan matnlarni yozadilar.Musahhix yozuvchi butun matni yozib bo'lgan ,uni tekshiradi ,xatolari bo'lsa,to'g'irlyadi.Tayyor matn o'qituvchiga tekshirtiriladi.

Tayyor matn o'qituvchiga tanishtiriladi.

Estafedani 1 sinfdan 1-yarim yillikda kiritar ekanmiz ,uning eng oddiy ariantidan foydalanmiz. Taqdirlash usuli o'qituvchi fantaziyasi va ishtiyoqiga havola. Vaqti kelib, diktantlar uzayib guruh soni ortib borganda eng yaxshi guruh uchun mukofot baho bo'lishi kerak.

Tassavur etish ,taffakurning rivojlanishidir .Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo'lgan davri juda muhim o'rin tutadi.Bu davrda bolaning jismoniy ,axloqiy,psixalogik salomatligi shakllanadi va aqlliy rivojlanish qobilyatlari takomillashadi.Bolaning ijodiy va mantiqiy taffakurini rivojlantirishda quyidagi yo'llarni amalga oshirish mumkin. Kitob o'qish. Bola bilan birga kitob rasmlarnin tahlil qilib o'qish ,undagi ertakning mazmunini bolaga o'yin tarzida qayta so'zlatish ,o'yinchoqlariga kitob mazmunini aytirish juda

foydali va qiziqarli mashg'ulot sanaladi .Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o'xshatishga harakat qiladi,u o'zi ertak yoki hikoyalarni mustaqil to'qiy olishi ham mumkin.

Chizish (bo'yoq, un,qum bilan). Bolalar odata chizishni juda yaxshi ko'rishadi.Lekin uddalay olishmasa ,hafa bolib chizmay qolishi mumkin.Bolaga qalamning o'rniga qollarida chizishni (faqat maxsus boyoqlar bilan)taklif qilib ko'ring. Bola rasm solar ekan ,rasmni sozlar bilan to'ldirib ,faollik bilan harakat qiladi,u o'z tasavvurlari asosida keyinchalik katta yoshdagi odamlarning soziga binoan rasmlar yaratishi mumkin,unda ayrim narsalarning obrazlari keladi. Pazl.Pazl yasash bola xotirasini rivojlantiruvchi juda foydali mashg'ulot. Bola yaxshi ko'rgan rasmlardan unga pazl olib bering yoki o'zingiz yasab bering .

Bolalar dominosi .Ertaklar qahramoni aks ettirilgan dominolarni bolangiz bilan birga o'yanab ,ba'zida unga yutqazib tursangiz ,bola juda zavq bilan o'ynaydi. Maktabgacha yoshidagi bola har tomonlama rivojlana olsa ,keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo'ladi. Yana bir boshlang'ich sinf o'quvchillar uchun ijodiy fikrlashiga yordam beradigan metodi ko'rib chiqsak: "Kichik Esse "texnologiyasi. Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib ,o'rganilayotgan muommo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taasurot ,tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchillar tomonidan o'rganilgan mavzu ,muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish ,mazmun – mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik essenini yaratishda o'quvchillar mavzu g'oyalarini umumlashtirish ,xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi. Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda yo'lga qo'yiladi :

1.O'qituvchi kichik essenini yaratish uchun muommo yoki masalani tanlaydi; 2.O'qituvchi tanlangan muommo (masala) bilan O'quvchillarni tanishtiradi; 3.O'quvchillar muommo (masala) ning umumiy mohiyati yuzasidan fikr yuritadi;

4.O'quvchillar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladi;

5.Har bir o'quvchi kichik essenini yaratadi;

6.Sinf (guruh) jamoasi a'zolari esse yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi;

Bu metodi odatda 3-4 sinflar orasida maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu sinflarda ko'proq ertak, hikoyalar,she'rlar berilgan.Ularni o'qigan har bir bolada ijodiy fikr vujudga kelishi aniq va bu metod aynan shuning uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari yana har hildagi metodlar ham mavud. Boshlang'ich sinflarni ijodiy fikrlashini oshirish uchun biz ustozlar ularga maktab darsliklaridan tashqari ularga ertak ,hikoya ,xar hil turdagi she'rlar yodlatish kerak. Mana shularni hammasi aqliy faoliyatni yanada oshirradi. Keyin esa topishmoqlar, tez aytishlarni ko'proq berish lozim bunda o'quvchillar hozirjavob bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ta'lim jarayonida qo'llanadigan interfaol metodlar //O'quv uslubiy qo'llanma.T.: 2008 y

2.Bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirish ko'rgazma qurollarining ahamiyati va yo'llari //@ustozlarim kanalidan

3.Ta'lim jarayonida qo'llanadigan interfaol metodlar //O'quv uslubiy qo'llanma. T .:43 bet.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YANGICHA YONDASHUV

Ortiqova Sitora Sharopovna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi

14-1 BTU-19 guruh talabasi

Boshlang'ich ta'lim ta'limning keyingi bosqichlariga tamal toshini qo'yar ekan, bugungi jadal rivojlanish zamonida zamon bilan hamnafas bo'lyapmizmi ? Qanchadan qancha muammolar girdobida qolmayapmizmi? Bolaning savodini chiqarish unga yozishni o'rgatish birmuncha boshqa fanlar yordamida tasavvurini kengaytirishimiz mumkin, ammo uni salohiyatini, madamiyatini, mustaqil fikrlash, har qanaqa holatga xolis fikrlashini talab darajasida emasligini bilamiz. Boshlang'ich ta'limga hal yechimini kutayotgan muommolar talaygina. Rivojlangan davlatlar qatorida ulardanda yuksak bilim va tafakkurga erishishimiz uchun ta'lim tizimini qayta va yana qayta isloh qilishimiz, kerak bo'lsa yangi darslar, mantiqiy fikrlashni o'stiruvchi hamma maktablarda shaxmat saboqlari kabi bosiqlik, vazminlik, o'ziga ishonch kabi fazilatlarini rivojlantiruvchi fanlarni kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Ta'limning har qanday turida xoh u maktabgacha, xoh boshlang'ich yoki undan keyingi ta'limda badiiy kitoblarning o'rin topishida ota-ona va o'qituvchining o'zni juda muhim. Boshlang'ich sinfdan boshlab ota-onalar homiyligida sinf kutubxonasini tashkil qilish, uni yildan-yilga boyitish. Har bir o'quvchiga shaxs sifatida qarash, u bilan har kun muloqotda bo'lish, uning fikri ham muhim ekanligini his qildirish, kelajakda u ham

yaxshi g'oyalar egasi bo'lishiga zamin yaratadi. Sinfda do'stona bir-biriga hurmat muhitini yaratish, yosh avlodni metin irodali, yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, qadriyatlar asosidagi odob-axloqni, vatanparvar, sobit qadam bo'lishligida boshlang'ich ta'lim juda katta ahamiyatga egaligini yana bir bor ta'kidlab, endi o'quvchiga dars o'tibgina qolmay, u bilan muntazam shug'ullanish lozim. Oddiygina o'quvchiga kun davomida nimalar bilan band bo'lganini yozib kelishini qo'shimcha uyga vazifa sifatiga berish orqali boshlang'ich sinf o'quvchisida mustaqil fikrlashga ya'ni o'quvchida shaxsiy fikrlashni rivojlantirishga, erkin fikrlashiga o'rgatish va qo'shimcha tarzda yozuvining chiroyli bo'lishiga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf sifat va samaradorligini oshirish uchun endi eski tizimdan voz kechish va har darsda izlanish va innovatsiya kiritish lozim.

Masalan, darsda katta tennis koptokchalarini olib kirish orqali bo'ladigan ijobiy o'zgarishlar: - koptokchani rangi kayfiyatni ko'taradi;

-qiziqishni orttiradi;

-barcha o'quvchilarni diqqati jamlanadi;

Bu koptokchalarga eng faol, bilimli, chiroyli yozuv egalarini ismini yozib qo'yamiz koptokchalar ko'rinadigan joyda, parta yoki shkaf ustida, turadi. Boshida 4-5 ta koptokcha yetadi, keyinchalik natijaga qarab koptokchalar soni ortadi. Ishlash, izlanish, yangilik kiritish faqat yaxshi natija beradi.

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sharipova Nargiza Nafiddin qizi

*Buxoro viloyati G'ajduvon tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.*

Zamonaviy maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri ona tilini atrof-muhit bilan aloqa va bilish vositasi sifatida o'rganishdir. Bunday holda, ijtimoiy ahamiyat nutqining buzilishi bo'lgan bolaga nutqning leksik tomonining boyligini o'zlashtirishda yordam berish uchun imkoniyat yaratishdir.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining so'z boyligini oshirishda, ona tili va adabiyot fani bilimlarini o'zlashtirishda, an'anaviy vositalar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar ham muhim o'rin egallaydi va bu hozirgi davrga kelib ta'lim standartiga qo'yilayotgan talablardan biri desak aslo adshmaymiz. Ushbu texnologiyalarning afzalliklarining eng maqbulini yaratishda quyidagilar inobatga olinadi:

- o'quv materiallarini multimedion ko'rgazmali shaklda taqdim etish;

- harakat, ovoz effektlarini qo'shish, diqqatni jalb qilish;

- o'quvchilarning o'quv materiallariga qiziqishini kuchaytiradigan o'yin topshiriqlarini ishlab chiqish va ulardan faol foydalanish;

- o'quvchilarda motivatsiyani saqlab qolish, kognitiv rag'batlantiruvchi o'rinli musobaqalar tashkil etish.

- ish sur'atini mustaqil ravishda tartibga solish imkoniyati;

- natijalarni baholashda xolislik;

- xatolarni tuzatish (boshqa variantni taklif qilish, ko'rsatma);

- ta'limga individual-tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish.

Ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar orasida, kreativ uslublarni qo'llash, nutqida nuqsoni bo'lgan, o'zlashtirish saviyasi boshqa o'quvchilarga nisbatan past bo'lgan maktab o'quvchilarining so'z boyligini kengaytirishda, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga samarali usul bo'la oladi.

Ushbu texnologik uslubning afzal tomonlaridan yana biri bu leksik materialni o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadigan onlayn-ilovalar yaratilishi va har bir mavzuga doir materiallarning yuklanishi va keyinchalik o'zlashtirishdan orqada qolgan o'quvchining mavzularni takroriy ravishda o'rganib chiqishga imkoniyat yaratadi.

Ona tili adabiyot fanini puxta o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq ravishda maktab o'quvchilariga mavzu yuzasidan ham an'anaviy ham online o'qitish uslublarida jami informatsion ma'lumotlarni taqdimotlar rasmlar, video roliklar, slaydlar tag'dimoti bilan taminlanishi, o'quvchilarda dars davomida zerikishdan va fanga nisbatan qiziqishining pasayib borishini oldini oladi desak xato bo'lmaydi.

Prezentatsiyalarning mazmuni va ularda o'rganilgan materialni taqdim etish uslubiyati nutq terapiyasi darslarining maqsadi va vazifalariga qarab tanlandi (yangi narsalarni o'rganish, qoplangan materialni mustahkamlash, o'rganilganni takrorlash yoki umumlashtirishda bilimlarni yangilash va

boshqalar). Boshlang'ich maktabda taqdimotlardan foydalanadigan darslar ayniqsa dolzarbdir, chunki ular rasmiy materiallarni o'z ichiga oladi, ushbu bosqichda yosh o'quvchilarda eng rivojlangan vizual- majoziy fikrlashni hisobga oladi va eshitish, hissiyot va xayolotni faollashtiradi. Masalan, yilning har fasli bilan tanishish jarayonida "Qish", "Bahor", "Yoz", "Kuz" leksik mavzularidagi taqdimotlarimiz nafaqat bolalarning so'z boyligini oshirishga yordam beradi, shu bilan birga vizual-majoziy va og'zaki-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, matn, grafik, audio- video ma'lumotlari, animatsiyalardan foydalanish orqali ta'minlanadi, ta'limiy ma'lumotlarning sifati va umuman o'qitishning muvaffaqiyati sezilarli darajada yaxshilandi. O'tmishni birlashtirish bosqichida "Fasllar" taqdimotida o'rganilgan so'z boyligini umumlashtirish amalga oshirildi. Jumboq, maqollar, didaktik o'yinlar, mashqlar ushbu lug'atning ishlashini ko'rsatadigan o'quv va uslubiy materiallar sifatida ishlatilgan. Elektron tematik prezentatsiyalar yordamida tanlangan so'z birikmalarini faollashtirish samaradorligi, mustaqil ishlarni tashkil qilishda, o'quvchilarning bilim faolligini oshirishda ham ta'kidlandi.

Yuqorida aytilganlarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, innovatsion va kreativ texnologik yondashuvlardan foydalanish va ular orqali ona tili va adabiyot faniga o'quvchilarning qiziqishini ortirish, dars sifatini oshirish, so'zlarni talaffuz qilishda nutqida nuxson bo'lgan va qolgan o'quvchilarga nisbatan o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ushbu yondashuvlar asosida qayta takroriy darslar o'tqazish (tayyor multimedion taqdimotlarni kiritish va uni yuklab olish imkoniyatini yaratilish asosida) imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Emelyanova O. A. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3
2. Sunagatullina I. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq faolligining xususiyatlari yumshoq tarzda ifodalangan nutqning umumiy rivojlanishi Boshlang'ich maktab. - 2009. -№
3. "INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM" Materials of the VIII international scientific conference on February 20–21, 2018 (99p).

TIL VA NUTQ JARAYONIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI

Nasimova Gulnoza

Buxoro viloyati G'ajduvon tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amaliyotga joriy qilishning keyingi bosqichlarida barcha o'quv fanlari bilan bir qatorda adabiy ta'lim tizimida ham ta'lim metodlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish, tabaqalashtirilgan ta'lim mazmuni va metodlarini yaratish, ularni ma'rifiy-ma'naviy tarbiyaga mos ravishda takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Xususan, o'zbek tili o'quv mazmunida adabiy materialni o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Til ta'limi sohasida asosiy natija o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi. O'zbek tili mashg'ulotlarida nutqning asosiy material- so'z ustida ishlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirish nutq madaniyatini rivojlantirish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, keying paytlarda til va nutq ta'limida quyidagi muammolarga duch kelyapmiz.

O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning darsda ayrim so'zlarni o'z ona tilida emas, balki boshqa tilda talaffuz qilishi;

O'zbek tilidagi ayrim fonemalar, x, h, harflarini talaffuzda ajrata olmasligi;

Tutuq belgisining ma'no farqlashga e'tiborsizlik, aniqrog'i, bilmasliklari;

Yozma savodxonlikda shevadan foydalanish;

Gapda so'zlar tartibini to'g'ri ishlatmaslik va natijada uslubiy xatoning kelib chiqishi;

Tilda va nutqda noo'rin so'zlarni ishlatish;

v, f va p harflarining talaffuzda almashtirilib ishlatilishi;

8. Ta'lim boshqa guruhlarda olib boriladigan tillarda guruhlarda o'zbek tilini o'qitish borasida o'zbek tili mutaxassislarini duch kelayotgan muammolar, ya'ni o'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning darsda ayrim so'zlarni o'zbek tilida emas, balki o'z ona tilida talaffuz qilishi;

O'quvchilar nutqidagi tipik kamchiliklar

Matnda mavzuga uyg'un holda asosiy fikrni yoritib bera olmaslik;

So'z tanlashdagi xatoliklar, ma'nodosh so'zlardan foydalana olmaslik;

Bitta gap yoki yondosh gaplarda bir so'zni o'rinsiz takrorlash;

Gap tuzishda so'zlar tartibiga e'tibor bermaslik, gap bo'laklari o'rnini chalkashtirish;

Ko'proq bir qolipdagi oddiy va sodda sintaktik qurilmalarni qo'llash;

Yozma nutqda murakkablashgan sodda gaplar qo'shma gaplarning deyarli ishlatilmasligi;

Turli tasvir vositalari ishlatilgan jumlarlar, hissiy-ta'siriy bo'yoq bildiruvchi ifodalarning qo'llanmasligi.

O'quvchilar nutqida kamchiliklarning sabablari o'quvchilar va o'qituvchilar lug'at boyligining kambag'alligi;

kitob mutolaasi, kitobxonlikka e'tiborning yuqori emasligi;

dars jarayonida nutqiy kompetensiyalarga oid tajribalarning yetarli emasligi;

ona tili darslarida berilgan mashq va topshiriqlarning ko'proq lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilganligi;

Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilish kerak, degan savol tug'iladi. Fikrimizcha, ayni chog'da, lo'nda qilib aytganda, umumiy o'rta ta'limda "Grammatika- grammatika uchun emas, balki "Grammatika –fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun" shioriga amal qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun: O'quvchilarning aniq va ravon so'zlashlariga qaratilgan, o'z pedagogik faoliyatim davomida dars tashkil qilishda ayrim usullardan foydalanish xususidagi fikr-mulohazalarimni kasbdoshlarim e'tiboriga havola etmoqchiman.

1. O'zbek xalq maqollari " Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo'lgan janrdir. Ularni qo'llash natijasida dars jarayoni nihoyatda qiziqarli o'tadi, pirovardida o'quvchilarning talaffuz nuqsonlari bartaraf etiladi. Masalan: "Yaxshi niyat qil, yomoniga tayyor tur" maqoil tarkibiga kelishiga qarab birgina yomon so'zi o'z ma'nosi –yomonlikdan tashqari, xudbinlik, tekinxo'rlik, egrilik, insofsizlik, dushmanlik, qo'rqqoqlik, nodonlik, ilmsizlik, odobsizlik, baxillik, manmanlik, noshudlik, yolg'onchilik, sabrsizlik, bevafoqlik, ochko'zlik, nomussizlik, isrofgarchilik va hokazo salbiy xususiyatlarni ham ifodalaydi. Bu holat maqollarda so'zning ma'no imkoniyatlari naqadar kengligini ko'rsatadi.

2. Tez aytishlar "Tez aytishlar kichik va maktab yoshidagi bolalar nutqidagi ayrim tovushlarni buzib talaffuz etish hollarini tuzatishga, to'g'ri so'zlaydigan bolalarda esa adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga, nihoyat, bolalarga jummalardagi mantiqiy urg'uni topib olishga yordam beradi". Xuddi shu kabi, tez aytishlardan foydalanish ham ikkinchi tilni o'rganuvchilarni qiziqtiruvchi, ular nutqidagi ba'zi nuqsonlarni bartaraf qiluvchi usuldir. Dars jarayonida quyidagi tez aytishlardan foydalanish mumkin:

1. Jamila jiydani joyiga joyladi.

2. Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir.

3. On sakkizda bir sakkiz, sakson sakkiz juft sakkiz.

4. Qishda kishmish pishmasmish, kishmish pishsa qishmasmish.

3. x va h harflari ishtirok etgan so'zlarni ustida ishlash natijasida ulardagi farqni o'rgatish.

4. Lugatlar ustida ishlash. Bunda dars davomida, ayniqsa, mashqlarni bajarishda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohli lug'atdan topishni o'rgatish kerak bo'ladi.

5. Frazologik birliklar bilan ishlash, shevadagi so'zlarning adabiy nutqdagi variantlari bilan ishlash, til ta'limini rivojlanishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Demak til ta'limida maqol, tez aytish, talaffuzdan ajratish qiyin bo'lgan so'zlar, lug'at boyligini oshirish, iboralar bilan shug'ullanish va ulardan foydalanish- darsning qiziqarli va mazmundor bo'lishini ta'minlovchi amaliy –didaktik omillardan biridir. Yana shuni aytib o'tish kerakki, o'quvchilarni badiiy asarlar o'qishga va bu orqali ularni teran fikrlashga, hozirjavoblikka, boshqalar oldida o'z fikrini aytish olishga, har voqea yuzasidan to'g'ri, xolisona baho berishga o'rgatish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo'llanilgan usullar o'quvchilarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko'nikmalarining malakaga aylana borishini ta'minlaydi. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Adabiyotlar.

Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-Toshkent: O'zbekiston,2000,23-bet.

Abdullaeva Q. Nutq o'stirish.Toshkent: O'qituvchi,1980.

Mamajonov A. Tekst lingvistikasi.-T.TDPI.1999

Oripov Q.,Obidova M. Ifodali o'qish.Toshkent: O'qituvchi,1982

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

Fatullayeva Lola

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi. Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablashib boradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha toppish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Asarni o'qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja xattaxtaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o'zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning xiyla mustaqil shaklidir. O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2—3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish

quyidagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'ygan qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar.

Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga II sinfdan boshlab o'rgatiladi. Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

- 1) o'qilgan matndan bir qismini, lining chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;
- 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;
- 3) hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari erkin fikrlashi ularni darslarda o'z fikrlarini bayon qila olishlari ularning nutq jarayoniga bog'liq. Shuning uchun o'qish darslarida erkin fikrlashga katta ahamiyat berish lozim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zamonaviy dars. Ilmiy - metodik to'plami A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI.-T.:2007
2. S. Matjononov, X.G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilga 6-nashri.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent, "Nosir" nashriyoti 2009. 71-73-bet

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Tohirova Ozoda Sherzod qizi

Toshkent shahridagi YEOJU texnika instituti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, talabasi,

Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to'g'risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz»

Zamonaviy pedagogik yondoshuv ta'lim jarayonining diqqat markazida o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini qo'yish, ta'lim jarayonini taxminiy loyihalash, diagnostikligi, maqsadning aniqligi va natijaning ob'ektiv nazorati (o'z-o'zini nazorat), ta'lim jarayonining yaxlitligi kabilarga qaratilgan. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi uni o'quv-biluv faoliyatini o'zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning, o'quvchi ongining predmetiga aylanishidir. Bu maqsadni mustaqil qo'ya bilish, faoliyat usullarini tanlay bilish, o'z ta'sirlari va munosabatlari doirasida boshqalar bilan kelisha bilish va koordinatsiyalash, o'z-o'zini nazorat qila bilishlarda ko'rinadi. Bunday faoliyat ta'limning modulli texnologiyasi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Modul nima va uni qanday shakllantirish kerak? Modul lotincha "modulus" so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi. O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyorlashning har xil usullari mavjud. Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materialini blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi. Modul qo'llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o'qish natijasida sifat tasniqlariga kiritilgan yaxlit maqsad.
- ta'lim standartida berilgan predmet "o'quv elementlarida" maqsadning oydinlashishi.

- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar.
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi.

- o'z - o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Ta'lim jarayonida alohida modullar asosida o'quv faoliyatini tashkil etilishi o'quvchining ta'lim faoliyatining sub'ekti sifatida mustaqil, rejali bilim o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo'llash o'qituvchidan modulli ta'lim printsiplarini yaxshi bilishni talab etadi:

Modullilikning 1-prinsipi ta'limning konstruktivligi:

- a) o'quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o'quvchi oldiga qo'yilgan har bir maqsadga erishish ta'minlangan bo'lsin;

- b) o'quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;

- v) ta'limning har xil shakl va turlari integrallashsin;

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi: ta'lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta'lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida sinfga tegishli har xil darajali - yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3-prinsip: ta'limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqligi va ularni almashtiraolish imkoniyati, o'quv-biluv faoliyatining har bir o'quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qilish imkoniyati bo'lgan shakli.

4-prinsip: ta'sirlarning tizimligi: ta'limning har xil metod va usullari, mazmuni, o'quv faoliyatining o'zgaruvchanligi asosida bilim o'zlashtirishning qulayligi, maxsus ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

5-prinsip: ta'limning ixchamligi; O'quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning ixcham yo'nalishi;

6-prinsip: ta'limni individuallashtirish: har bir o'quvchining o'zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasi va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab, baholash tizimida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faolligini oshirish ta'limni individuallashtirish demakdir.

7-prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi: modul dasturi axborotlarni oson o'zlashtirish uchun o'qituvchi maslahatidan foydalanishni taqozo etadi.

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog'i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijobiy hamkorlik muhitini yaratadi;

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

MODULLI O'QISH

O'qish darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar o'qituvchidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga jalb qilish, badiiy adabiyotni san'atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e'tibor qaratish talab etiladi. O'quvchilar modul topshiriqlarini mustaqil o'qiy oladigan davrdan boshlab modulli o'qishga o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni ikkinchi sinfdan boshlab modullarni kiritish yaxshi natija beradi. Quyida modulning qisqartirilgan variantini tavsiya etamiz (O'qish darsining algoritmi)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSINING ALGORITMI

1-modul Uy vazifasini tekshirishga tayyorgarlik. Darslikning ...betini och (Agar u she'r bo'lsa takrorla (hikoya bo'lsa birinchi abzatsgacha o'qi). She'rning bir bandini o'qib, partadoshingga aytib ber. (hikoya bo'lsa mazmunini partadoshingga so'zlab ber). She'rda yoki hikoyada nima haqida aytilgan. Qaysi voqea yoki hodisani eslab qolding, nima uchun? O'z-o'zingni bahola va o'rtog'ing bahosini eshit.

2-modul Quvnoq daqiqa: 1. Nafas olishga oid mashqlar: «sharni pufla», «choyni sovit», «changni hayda», «chiroqni puflab o'chir».

2. Ovozga oid mashqlar: tovushlar artikulyatsiyasi, tez aytish, kichik sheʼrni sekin, tez, past, baland ovozda, ichda oʻqish, joʻr boʻlib oʻqish, intonatsiyaga rioya qilib oʻqish, yoddan aytish.

3 –modul. Tez oʻqish. Oʻqituvchining “Boshla” degan buyrugʻidan keyin boshla.

1. Lablarningni bir-biri bilan jipslashtir.

2. Faqat koʻzing bilan oʻqi. Imkon boricha tezroq oʻqi, tushunmaydigan soʻzlaringni belgila. Savollarga matndan javob ber. Javobingni oʻrtogʻing bilan muhokama qil, uni bilan maslahatlash. Umumiy muhokamada qatnash.

4- modul Tez oʻqish malakasini egallash uchun intensiv mashqlar. Yarim ovoz bilan boshlovchi(diktor)ga taqlid qilib oʻqish. Ritmik chertmalar asosida oʻqish. Matndan nigohni olib oʻqish. Tezlashtirib oʻqish. Juftlikda oʻqish. Tez aytish tempida oʻqish. Pichirlab oʻqish. Faqat koʻz bilan ichda oʻqish. Tez oʻqish.

5-modul Tavsiyalar Intonatsiyaga rioya qilib oʻqi, urgʻularni toʻgʻri qoʻy. Oʻqiyotganda pauzalarga toʻgʻri rioya qil. Ovoz kuchining baland yoki pastligini oʻzing belgila. Tempning tez yoki sekinligini aniqla. His-hayajon bilan oʻqi. Intonatsiya bilan asarga oʻz munosabatingni bildir.

6-modul Ijodiy daftardagi ish. (tanlash boʻyicha topshiriqlar). Darsni xulosalash – oʻz fikringni aytishni, dialogga kirishish, muammoga baho berishni oʻrgan. Tavsiyalar har bir oʻquvchiga beriladi. Oʻquvchilarda algoritmlardan foydalanish malakasini shakllantirish uchun har bir modulga toʻxtalib, alohida tushuntiriladi. 1-sinf oʻquvchilariga nutq apparatlarini va nafas mashqlarini yaxshi oʻrgatish. Bunday mashqlar oʻquvchilarda xotirani mustahkamlash va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham foydali. Oʻquvchilar algoritmlar bilan mustaqil ishlash malakalarini yaxshi egallaganlaridan soʻng har bir modulning maqsadi aniq koʻrsatilgan qiyinroq algoritmlarga oʻtish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayni paytda oʻqitish samaradorligini oshirish, bolalarga bilim, koʻnikma va malakalarni toʻla egallashga yordam berish, mustaqil bilim olishlarini taʼminlash, isteʼdodli hamda ayrim fanlarni oʻzlashtirishi qiyin boʻlgan oʻquvchilarga individual yondashish, bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy eʼtibor qaratish bugungi kundagi eng dolzarb masaladir. Oʻquvchilarimizni har tomonlama kamol topishlarida har bir ustoz va murabbiy, kerak boʻlsa har bir bolaning ota – onasi individual tarzda yondashish kerak. Shundagina, oʻquvchi yoshlarimiz davlatimizning umumiy taraqqiyotiga samarali taʼsir koʻrsata olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz.// Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq.-T.: «Oʻzbekiston» NMIU.2016.-13-b

2. Mirzajonova D. Taʼlim sifatini oshirishda zamonaviy oʻqituvchi kompetensiyasi.// Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, PUBLIC EDUCATION (scientific-methodical journal ministry of public education of the republic of Uzbekistan). «Toshkent».2020.-55-b

3. T.Gʻafforova-QDU p.f.n.dots. Boshlangʻich sinfda modulli oʻqitish texnologiyasi.

BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILLARINI IJODIY FIKRLASHGA OʻRGATISH.

Saydigʻaniyeva Dildora Qaxramanovna

Toshkent Shaxar YODJU Institutining II-bosqich ” Boshlangʻich taʼlim “ yoʻnalish talabasi.

Hayotda har xil kasb egalari bor .Ularning qiyinchilik darajasi xam turli -tuman.Lekin men uchun eng mashaqqatli kasblardan biri sifatida boshlangʻich sinf oʻqituvchisi koʻrinadi. Sababi shundaki hamma kasb egalarga dars berib, ilk savodini chiqaradi.Meni oʻylashimcha hamma poydevorni mana shu boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi quradi.Buning uchun oʻqituvchidan katta maʼsulyat talab etiladi.Boshlangʻich sinf oʻqituvchillari koʻproq oʻquvchini qiziqtirish kerak. Chunki makabga ilk qadam qoʻygan bola har taraflama qiynalishi mumkin .Sababi bolada oʻyin faoliyati hali davom etayotgan boʻladi.

Shuning uchun biz oʻqituvchilar ularni oʻqishga qiziqtirishimiz kerak.Buning uchun biz metod,turli xil oʻyinlar,multimedialardan foydalanamiz.

Oʻquvchillarni 3-4 sinfga oʻtganida biz eng asosiysi oʻquvchillarni ijodiy fikrlashga oʻrgatamiz. Albatta oʻqish ,ona tili darslari oʻquvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga moʻljallangan.Oʻquchillarni qiziqtirish uchun oddiy boʻlmagan usullardan foydalanish kerak.Masalan xar hil metod

,ko'rgazmalar,tarqatma materialar multimedialar bizga qo'l keladi. Masalan boshlang'ich sinf o'quvchillari uchun foydali metodlardan biri bu-"Orfagrafik estafeda" metodi.Bu metodi asosan 3-4 sinflarda o'tkazish mumkin.

"Orfagrafik Estafeda" metodi

"Orfagrafik estafeda" kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashning qiziqarli shakli bo'lib ,u o'quvchilarda mantiqiy taffakur qobiliyatini rivojlantirish imlonini beradi.U intensiv o'qitish bilan bir vaqtda bolalardagi harakat ehtiyojini ham qondirishga sharoi yaratadi. Orfografik estafeta an'anaviy aytib turib yozdirish maqsadida ,"an'anaviy" diktantga o'xshamay erishish imkonini beradi. Estafeta juda o'zgaruvchan ish shaklidir .Ozgina moslashuvdan so'ng undan birinchi sinf o'quvchilariga alifboni tanishtirishdan boshlab ,beshinchi va oltinchi sinflarda ham foydalanishi mumkin.

3.Mashq o'qituvchi ishorasi bilan boshlanadi .Guruhning vazifasi doskadagi matni bexato ko'chirib yoxishdir. Yuguruvchillar doska yoniga yugurib boradilar ,doskadagi yozuvni o'qiydilar va yozuvining mumkin qadar ko'proq qismini eslab qolishga harakat qiladilar (ularga birorta yozuvlar qilishga ruhsat etilmaydi).Yozuvchillar yuguruvchillar eslab qolib aytgan matnlarni yozadilar.Musahhix yozuvchi butun matni yozib bo'lgan ,uni tekshiradi ,xatolari bo'lsa,to'g'irlaydi.Tayyor matn o'qituvchiga tekshirtiriladi.

Tayyor matn o'qituvchiga tanishtiriladi.

Estafedani 1 sinfdan 1-yarim yillikda kiritar ekanmiz ,uning eng oddiy ariantidan foydalanmiz. Taqdirlash usuli o'qituvchi fantaziyasi va ishtiyoqiga havola. Vaqti kelib, diktantlar uzayib guruh soni ortib borganda eng yaxshi guruh uchun mukofot baho bo'lishi kerak.

Tassavur etish, taffakurning rivojlanishidir .Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo'lgan davri juda muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, psixalogik salomatligi shakllanadi va aqlli rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi.Bolaning ijodiy va mantiqiy taffakurini rivojlantirishda quyidagi yo'llarni amalga oshirish mumkin. Kitob o'qish. Bola bilan birga kitob rasmlarini tahlil qilib o'qish ,undagi ertakning mazmunini bolaga o'yin tarzida qayta so'zlatish ,o'yinchoqlariga kitob mazmunini aytirish juda foydali va qiziqarli mashg'ulot sanaladi .Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o'xshatishga harakat qiladi,u o'zi ertak yoki hikoyalarni mustaqil to'qiy olishi ham mumkin.

Chizish (bo'yoq, un,qum bilan). Bolalar odata chizishni juda yaxshi ko'rishadi.Lekin uddalay olishmasa ,hafa bolib chizmay qolishi mumkin.Bolaga qalamning o'rniga qollarida chizishni (faqat maxsus boyoqlar bilan)taklif qilib ko'ring. Bola rasm solar ekan ,rasmni sozlar bilan to'ldirib ,faollik bilan harakat qiladi,u o'z tasavvurlari asosida keyinchalik katta yoshdagi odamlarning soziga binoan rasmlar yaratishi mumkin,unda ayrim narsalarning obrazlari keladi. Pazl.Pazl yasash bola xotirasini rivojlantiruvchi juda foydali mashg'ulot. Bola yaxshi ko'rgan rasmlardan unga pazl olib bering yoki o'zingiz yasab bering.

Bolalar dominosi .Ertaklar qahramoni aks ettirilgan dominolarni bolangiz bilan birga o'yanab ,ba'zida unga yutqazib tursangiz ,bola juda zavq bilan o'ynaydi. Maktabgacha yoshidagi bola har tomonlama rivojlana olsa ,keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo'ladi. Yana bir boshlang'ich sinf o'quvchillar uchun ijodiy fikrlashiga yordam beradigan metodi ko'rib chiqsak: "Kichik Esse "texnologiyasi.

Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib ,o'rganilayotgan muommo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taasurot ,tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchillar tomonidan o'rganilgan mavzu ,muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish ,mazmun –mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik essenini yaratishda o'quvchillar mavzu g'oyalarini umumlashtirish ,xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi. Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda yo'lga qo'yiladi :

1.O'qituvchi kichik essenini yaratish uchun muommo yoki masalani tanlaydi; 2.O'qituvchi tanlangan muommo (masala) bilan O'quvchillarni tanishtiradi; 3.O'quvchillar muommo (masala) ning umumiy mohiyati yuzasidan fikr yuritadi;

4.O'quvchillar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladi;

5.Har bir o'quvchi kichik essenini yaratadi;

6.Sinf (guruh) jamoasi a'zolari esse yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi;

Bu metodi odatda 3-4 sinflar orasida maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu sinflarda ko'proq ertak, hikoyalar,she'rlar berilgan.Ularni o'qigan har bir bolada ijodiy fikr vujudga kelishi aniq va bu metod aynan shuning uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari yana har hildagi metodlar ham mavud. Boshlang'ich sinflarni ijodiy fikrlashini oshirish uchun biz ustozlar ularga maktab darsliklaridan tashqari ularga ertak ,hikoya ,xar hil turdagi she'rlar yodlatish kerak. Mana shularni hammasi aqliy faoliyatni yanada oshirradi. Keyin esa topishmoqlar, tez aytishlarni ko'proq berish lozim bunda o'quvchillar hozirjavob bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan interfaol metodlar // O'quv uslubiy qo'llanma. T.: 2008 y
2. Bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirish ko'rgazma qurollarining ahamiyati va yo'llari // @ustozlarim kanalidan
3. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan interfaol metodlar // O'quv uslubiy qo'llanma. T.: 43 bet.

MAKTABGACHA TA'LIM

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA MONITORING

Tashbayev Naim Sadikovich

Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari Rahbar Va Mutaxassislarini Qayta Tayyorlash Va Ularning Malakasini Oshirish Instituti. Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

Maktabgacha ta'lim tizimida 2017-2018 o'quv yili uchun pedagog xodimlar faoliyati reytingini aniqlash jarayoni joriy yilning may va iyun oylarida o'tkazilishi hamda reyting natijalari asosida pedagog xodimlar mehnatiga muvofiq baho berish va ularni rag'batlantirish tizimi joriy etish belgilangan.

2017-2018 ukuv yilida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini ish faoliyati reytingini aniqlash buyicha namunaviy ko'rsatkichlar va hisoblash metodikalarini muvofiqlashtiriladi.

Pedagog xodimlar faoliyati reytingini aniqlash davlag maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ukuv yili davomida bir marta, belgilangan muddatlarda Korakalnoqiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshkarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshkarmalari va tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bulimlari tomonidai mazkur buyrukning ilovalari asosida ugkazib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari faoliyati reytingini aniqlash tartibi belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash- Maktabgacha ta'limi xodimlarining o'z sohasi bo'yicha fan va texnologiyalar yutuqlari, yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy va pedagogik mahoratini, o'quv-tarbiya jarayonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion metodlaridan foydalanish bo'yicha ularning kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalarini tizimli rivojlantirib borish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish bo'yicha o'quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, o'zaro mashg'ulot kuzatishlar, shuningdek, nazariy va amaliy seminarlarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim sifatini ta'minlashda ta'lim va tarbiya jarayonlarini tizimli rivojlantirib borish bo'yicha strategik maqsadlar va funksional vazifalarni amalga oshiruvchi yangi sifatdagi ta'lim tashkiloti bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashning maqsadi - O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini sifatli va mazmunli bajarilishini ta'minlash, ularga metodik xizmat ko'rsatishni yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori darajada sifatli bo'lishiga erishish, ilg'or ish tajribalar asosida metodik tavsiyalar, ko'rgazmali qurollar yaratish va pedagoglar orqali amaliyotga tadbiq etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashning vazifalari:

maktabgacha va boshlang'ich ta'limni uzviylikini ta'minlash bo'yicha yagona talablarni ishlab chiqish;

pedagoglarni ijodiy salohiyatini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullari, turli vositalar, ilg'or va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishlariga yordam berish maqsadida o'quv-seminarlar o'tkazish;

ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini axborot, o'quv-metodik va ta'limiy ehtiyojlarini o'quv-metodik va ilmiy tomondan qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha ta'lim sohasiga oid maqsadli dasturlarni amalga oshirishda ko'maklashish;

pedagog va rahbarlarning metodik ehtiyojlarini o'rganish, ularga attestatsiyaga tayyorgarlik hamda malaka oshirish kurslari oraliq davrida amaliy yordam berish;

ta'lim-tarbiyaga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, borishini nazorat qilish, xulosalarini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va yuqori tashkilotlarga hisobot tayyorlash. Ta'lim tashkilotlari bazasida yangi pedagogik texnologiyalarni, ilg'or g'oyalarni approbatsiyadan o'tkazish uchun tajriba-sinov maydonchalarini tashkil etish va ularga metodik yordam ko'rsatish;

matbuot orqali ilg'or tajribalarni, ta'lim sohasidagi yangiliklarni targ'ibot qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari

Analitik faoliyat- bu taxliliy faoliyat demakdir.

Analitik (tahliliy) faoliyatga:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va tahlil qilish.

ta'lim tizimidagi xodimlarning kasbiy va informatsion ehtiyojlarini monitoringni olib borish;
ta'lim tashkilotlarining pedagoglari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish;
ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishlarining ahvolini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

ta'lim jarayonidagi metodik va didaktik xarakterdagi kamchiliklarni aniqlash;
ta'lim jarayoni haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
ilg'or pedagogik tajribalarini aniqlash, o'rganish va umumlashtirish masalalari kiritiladi.

Informatsion faoliyat:

Pedagogik ma'lumotlar bankini shakllantirish (huquqiy normativ, ilmiy-metodik va metodik);
Pedagog xodimlarini psixologik, pedagogik, metodik, ilmiy- ommabop adabiyotlar yangiliklari bilan tanishtirish;

Pedagog va rahbar xodimlarni maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion faoliyatlar bilan tanishtirish;

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning rivojlanishidagi yangi yo'nalish, yangi adabiyotlar, dasturlar, o'quv-metodik komplektlar, video va audiomateriallar va tavsiyanomalar;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi to'garaklar va ularning jihozlanganligi, metodik tavsiyalar bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;

Tarbiyachilar malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi ta'lim- tarbiya jarayonidagi ishlarni o'rganishga doir hujjatlar;

Iqtidorli bolalar bilan ishlash, zamonaviy pedagogik texnologiya bo'yicha ishlayotgan ijodkor pedagoglar haqidagi ma'lumotlar;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlar va boshqa turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlar bo'yicha ma'lumotlar;

Ta'lim tashkilotlaridagi ilg'or pedagogik tajribalar va ijodkor tarbiyachilar xaqida axboratlar bankini yaratish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Davlat talablari ijrosi monitoringini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazorat mezonlari va bolalarning bilimini aniqlash uchun ta'limiy topshiriqlar to'plami;

Matbuot orqali ilg'or pedagogik tajribalarni, ta'lim sohasidagi yangiliklarni targ'ibot qilish.

Tashkiliy-metodik faoliyat:

Tuman metod birlashmalarining ishini tashkil qilish;
tayanch tashkilotlarini aniqlash, ularda uslubiy yordam ko'rsatish tizimini ishlab chiqish;
ilmiy-amaliy anjumanlar, pedagogik o'qishlar, kasbiy ko'rik-tanlovlarni tayyorlash va o'tkazish;
festivallar, turli tanlovlar, seminarlarni tashkil etish va o'tkazish;
ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lgan tashkilot va korxonalar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish;

Viloyat, shahar va tuman miqyosida ijodiy guruh tashkil etish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

Pedagoglarning malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlarini rejalashtirish hamda davriyligini ta'minlash.

Ta'lim tashkilotlarida "Yil tarbiyachisi" ko'rik-tanlovlari o'tkazilishi yuzasidan metodik tavsiyalar berish. Tuman (shahar) bo'yicha "Yil MTTi" va boshqa tanlovlarni tashkil etish Nizomlarini ishlab chiqish va o'tkazishda ishtirok etish.

Tuman (shahar) ta'lim tashkilotlari bazasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ilg'or g'oyalarni sinovdan o'tkazish uchun tajriba-sinov maydonchalarini tashkil etish va ularga metodik yordam ko'rsatish.

Maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy salohiyatini oshirish borasida:

respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan tajriba- sinov ishlari bankini yaratish;

innovatsion jarayonlarning ilmiy-metodik ta'minotini ta'minlash;

innovatsiyalar bo'yicha doimiy ishlab turuvchi seminarlarni tashkil etish;

maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy jihatdan rivojlanish ko'rsatkichlari, tajriba-sinov va innovatsion ishlar natijalarini yoritish bo'yicha tadbirlar tashkil etish;

Metodik xizmat faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari:

maktabgacha ta'lim tizimini informatizatsiyalash;

uzluksiz malaka oshirish tizimi servis xizmatini tashkil etish, ushbu jarayonning metodik ta'minotini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tizimini axborot-kommunikatsiya ta'minotini yaratish.

AMALIY FAOLIYAT.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini bajarilishini metodik jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan istiqbol dasturni ishlab chiqish, shu asosida reja tuzish va bajarilishini ta'minlash;

Ta'lim tashkilotlariga metodik yordam ko'rsatish maqsadida metodik ishlarni tayyorlash, nashr etish va joylarga yetkazishni tashkil etish;

Xududdagi ta'lim tashkilotlari uchun ta'limiy o'yinchoqlar, ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar tayyorlashni tashkil etish;

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladigan ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniqlash, tanlash va ommalashtirish;

Barcha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ular qoshida tashkil etilgan rivojlantirish guruhi, bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhlariga metodik yordam ko'rsatish.

Viloyat, shahar, tuman xududidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, uni viloyat (shahar, tuman) Maktabgacha ta'lim bo'limi metodik Kengashi tasdig'iga kiritish hamda ushbu dastur asosida tadbirlar belgilash, ularning bajarilishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Davlat talablarining ijrosini amalga oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish, uni pedagogik kengashda muxokama qilish va bajarilishini ta'minlash.

Viloyat, shahar, tuman Maktabgacha ta'lim bo'limining monitoring xizmati xodimlari bilan hamkorlikda monitoring natijalarini tahlil qilish, tarbiyalanuvchilar bilimida aniqlangan kamchiliklarni (bo'shliqlarni) bartaraf etish (to'ldirish) chora-tadbirlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etilishini ta'minlash.

Viloyat, shahar, tuman miqyosida barcha faoliyat turlari, ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarini o'rganishga, tarbiyachilar malakalarini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik seminarlarni tashkil etish va o'tkazish.

Tuman (shahar) miqyosida barcha faoliyat turlari yo'nalishlari bo'yicha metod birlashmalarga amaliy metodik yordam berish.

Viloyat, shahar, tuman miqyosidagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, hamda ulardan talabga javob beradiganlarini metodika markazining Kengash qarori bilan tuman (shahar) bo'yicha ommalashtirish, viloyat bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etish.

Ta'lim tashkilotlarida iqtidorli bolalar bilan ishlashda metodik yordam ko'rsatish.

Ta'lim tashkilotlaridagi turli yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar ishini nazorat qilish hamda ularga tegishli metodik yordam ko'rsatish:

Metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish, tahlil qilish, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasiga takliflar kiritish:

Davlat talablari ijrosini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan metodik yo'riqnomalar, tavsiyalar va mashg'ulot ishlanmalar ishlab chiqish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazish:

Ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar

Ta'lim sifatini yaxshilash uchun ushbu prinsiplarga quyidagilar kiradi: har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi; bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv; maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi; ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi; ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi; maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligidir.

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH

Narimbayeva Lola Kuzibayevna

TVChDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda kasbiy rivojlanishni ta'minlash, ularni pedagogik jarayonlarni samarali boshqarishga o'rgatish uchun mustaqil bilim olish ko'nikmalarini mustahkamlashga erishish lozim.

Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga intilish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati, boshqaruvchilik salohiyati alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarga g'oyaviy-siyosiy bilimlarni taqdim etish jarayonida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga erishish talab qilinmoqda. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq talab va ehtiyojlar asosida mahoratli pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash ularda kasbiy qiziqish, ehtiyoj va layoqatlarni shakllantirish orqali amalga oshadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etish zarurligi maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy asoslarda o'zining aniq ifodasini topgan. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, ular mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etish taqozo qilinmoqda.

Maktabgacha ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilardan har tomonlama chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlik, har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni jadal rivojlantirish, maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyalanuvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatleri va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagog-tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi tarbiyalanuvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishdama muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, tarbiyalanuvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog-tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak. Ular:

- tarbiyalanuvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
- bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;
- guruhdagi faol tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;
- guruh tarbiyalanuvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar.

Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda pedagogik mahoratni shakllantirishda ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma'lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash hamda o'rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o'rin egallaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruh faoliyatiga rahbarlik qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan miliy urf-odatlarimizni ham singdiradilar. Ular bolalarda juda yoshlikdan boshlab, haqgo'ylik, bag'rikenglik, birdamlik, o'zaro yordam kabi sifatlarini shakllantirishga intiladilar.

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYON SAMARADORLIGINI BOG'CHA VA OILA HAMKORLIGI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna

*TVChDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası
o'qituvchisi*

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda kasbiy rivojlanishni ta'minlash, ularni pedagogik jarayonlarni samarali boshqarishga o'rgatish uchun mustaqil bilim olish ko'nikmalarini mustahkamlashga erishish lozim.

Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga intilish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati, boshqaruvchilik salohiyati alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarga g'oyaviy-siyosiy bilimlarni taqdim etish jarayonida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga erishish talab qilinmoqda. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq talab va ehtiyojlar asosida mahoratli pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash ularda kasbiy qiziqish, ehtiyoj va layoqatlarni shakllantirish orqali amalga oshadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etish zarurligi maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy asoslarda o'zining aniq ifodasini topgan. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, ular mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etish taqozo qilinmoqda.

Maktabgacha ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilardan har tomonlama chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlik, har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni jadal rivojlantirish, maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyalanuvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatleri va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagog-tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi tarbiyalanuvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishd muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, tarbiyalanuvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog-tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak. Ular:

- tarbiyalanuvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
- bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;
- guruhdagi faol tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;
- guruh tarbiyalanuvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar.

Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda pedagogik mahoratni shakllantirishda ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma'lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash hamda o'rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o'rin egallaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruh faoliyatiga rahbarlik qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan miliy urf-odatlarimizni ham singdiradilar. Ular bolalarda juda yoshlikdan boshlab, haqgo'ylik, bag'rikenglik, birdamlik, o'zaro yordam kabi sifatlarini shakllantirishga intiladilar.

BOLA NEGA QO'RQADI?

Sadullayeva Masuma

Maktabgacha talim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Hech qachon qo'rquvni his qilmagan kishini topish oson emas. Xavotir, tashvish, qo'rquv ruhiyatimizning ajralmas hissiy namoyonidir, quvonch, hayrat, g'azab, ajablanish, qayg'udir. Qo'rquv hammamizga ma'lum. U hayotimizni ajralmas qismi. Qo'rquv tug'ilganimizdan to o'lgunimizcha yangi va yangi shakillarda hamrohimiz bo'ladi. Qo'rquv-mavjud bo'lgan tahlikadagi ta'sirlanish bo'lib, normal holat deb hisoblanadi. Instinktiv ravishda o'z jonini saqlashga intilish sababidan bu holat yuzaga keladi. Bolalardagi qo'rquv esa kattalardan olingan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ularga xos keng tasavvur ila ko'z oldiga keltirilishidir. Bu tasavvurga javoban kattalar o'zlarini qanday tutishlari kerak? Bu holatda bolaga qanday yordam ko'rsatilishi kerak?

Qo'rquvlarning aksariyati yoshga bog'liq va vaqtinchalik. Har bir ota-ona farzandidagi ichki kechirmalarni doimo ko'rib sezib turadi. Ko'pincha bolalardagi tushunib bo'lmay o'jarlik va quloq solmaslikning ortida qo'rquvlar yotadi. Bu qo'rquvlarning sabablarni bilish va ularni yeish uchun ota-onalar har doim har to'g'ri yo'l tutavermaydi. Bolalarning qo'rquvlari, agar ularga to'g'ri munosabatda bo'lsangiz, ularning paydo bo'lish sabablarini tushunsangiz, ko'pincha izziz yo'qola

Qo'rquv bolalarning 40 foizida paydo bo'ladi va balog'at yoshida aks-sado bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir ota-ona, tarbiyachi va o'quv psixologining vazifasi bolaga qo'rquvni o'z vaqtida engishga yordam berishdir. Qo'rquv - bu eng xavfli tuyg'u. Inson tanasi qo'rquvga qarshi kurash uzoq davom etmaydigan qilib yaratilgan. Biologik darajada qo'rquvga javob bu adrenalinning qon oqimiga tushishi bo'lib, bu inson tanasida gormonal portlashga olib kelishi mumkin.

Bola o'sib ulg'ayganida va uning atrofidagi dunyoni o'rganishni boshlaganida, bilim faoliyati bilan birga paydo bo'ladi. Bu jamiyatda rivojlanadi va kattalar ta'limda etakchi rol o'ynaydi

Qo'rquvning bir necha sabablari bor. Birinchi va eng tushunarli sabab - bu bolani qo'rqitgan o'ziga xos hodisa (it tomonidan tishlangan, liftga qo'yilgan). Bunday qo'rquvni tuzatish eng osondir. Ammo it tomonidan tishlangan bolalarning hammasi ham boshqalar uchun sezgir bo'lgan qo'rquvni rivojlantirmaydilar.

Bu ko'p jihatdan bolaning fe'l-atvorining xususiyatlariga bog'liq (tashvish, shubha, noumidlik, o'ziga ishonch, boshqa odamlarga qaramlik va boshqalar). Va bu belgi xususiyatlari, agar ota-onalar bolani qo'rqitayotganlarida paydo bo'lishi mumkin:

Qo'rquvning eng keng tarqalgan sabablaridan yana biri bu bolalik xayolidir. Bola ko'pincha qo'rquvni o'ziga jalb qiladi. Bolaligimizda ko'pchiligimiz qorong'ulikdan qo'rqardik, u erda hayvonlar bizning ko'zimiz oldida hayotga kirishdi va hayvonlar bizni har tomondan urishdi. Ammo har bir bola bunday xayollarga boshqacha munosabatda bo'ladi. Kimdir ularni darhol unutadi va tinchlantiradi. Va kimdir uchun bu tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Uch xil qo'rquv mavjud. Tasniflash qo'rquv mavzusi, uning davomiyligi, paydo bo'lish sabablari va xususiyatlariga asoslanadi.

Obsesif qo'rquv - bola bu qo'rquvni muayyan, o'ziga xos vaziyatlarda boshdan kechiradi, u ularni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlardan qo'rqadi. Bunday qo'rquvlar, masalan, balandlikdan qo'rqish, yopiq va ochiq joylar va boshqalar

Xayolparast qo'rquv - bu qo'rquvning eng jiddiy shakli, sababini topib bo'lmaydi. Masalan, nima uchun bola o'yinchoq bilan o'ynashdan qo'rqadi yoki ba'zi kiyimlarni kiyishni xohlamaydi. Masalan, u ma'lum bir poyabzal kiyishdan qo'rqadi, chunki u bir vaqtlar sirpanib tushib, ularning ichiga tushib, uni qattiq urib, endi vaziyatni takrorlashdan qo'rqad

Qo'rquv eng keng tarqalgan tur ular tuzatish g'oyalari bilan bog'liq va bolaning o'z tasavvuridan kelib chiqadi. 90% hollarda amaliyotchi psixologlar ular bilan duch kelishadi. Avvaliga, bu qo'rquvlar har qanday hayotiy vaziyatga mos keladi, shundan keyin ular shu qadar ahamiyatli bo'ladiki, bola boshqa hech narsa haqida o'ylay olmaydi.

Bolalarning haddan tashqari oshirilgan qo'rquvini bolalarning xayolida dahshatli bo'rilar va ertak qahramonlari, shuningdek yo'qolish, hujum, suv, olov, og'riq va o'tkir tovushlar mavjud bo'lgan qo'rquv

bilan bog'lash mumkin. Ota-onalarning o'limi ham bolalik qo'rquvining keng tarqalgan shakli bo'lib, ko'pincha kattalarning o'zlari tomonidan yaratiladi. Ular ko'pincha turli xil ertak qahramonlari va multfilm qahramonlarining qo'rquviga asoslangan. Qo'rquvni yo'qotish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Bular o'yin terapiyasi, ertak terapiyasi, art-terapiya (turli "qo'rqinchli" belgilar chizish, salbiy belgilarni modellashtirish), shuningdek musiqa terapiyasi va raqs terapiyasi.

Bolalarning qo'rquvini engish uchun siz turli xil psixologik ta'sir usullaridan foydalanishingiz mumkin (o'yin terapiyasi, izoterapiya, ertak terapiyasi, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi, proeksion usullar, yengillik va o'zini o'zi boshqarish usullari)Qo'rquvni to'g'irlash bo'yicha ishlar bir necha bosqichda amalga oshi

Qo'rquv asoratlari

Bolalarda qo'rquv holati oqibatida jur'atsizlikni yuzaga keltiradi.Bolaning irodasi susayib,o'z kuchiga nisbatan ishonch yo'qoladi.Bunday holatda bola bo'a-bora bola asabini taranglashtirib,uni vahimaji qilib qo'yadi.Bola qo'rqqan paytida bosh miyadagi qo'rquvga nisbatan asab markazi boshqa asab markazlarini to'rmizlab ,qorong'idan himoyalash instinktini yuzaga keltiradi.Bola qo'rqqan sari qo'rqqan naesalari bosh miyadi aks etishi kuchayaveradi Ba'zan qattiq qo'rquv ta'sirida bolalarda nutq faoliyati buzilishi,duduqlanishi kuzatilishi mumkin.

Bolalarda tasavvur, ko'z oldiga keltirish qobilyati o'ta kuchli rivochlangan bo'lib u ertak qahramonlarni osonlik bilan xayolida jonlantira oladi.Salbiy qahramonlar qo'rquvni keltirib chiqarsa ,ijobiylari unga qo'rquvni yengishga yordam beradi.Bolani salbiy qahramonlar ijobiylaridan qattiq qo'rqishiga ishontirish kerak.Bolaga uyquga yotishdan oldin o'yinchoqlar bilan vaziyatli o'yin o'ynashi lozim.Bunda bolaga salbiy qahramonni jonlantirish vazifasi beriladi.Natijada bola o'zi qo'rqqan narsani ko'z oldiga keltiradi,bu obraz xayolida kichiklashib,kuchsizlashib yo'qoladi.

Foydalangan adabiyotlar

- 1.Kichik bolalarda katta qo'rquvlar Zebinso Ahmedova.
- 2.Qo'rquvdan qo'rqasizmi yoki qo'rquv jumbog'i Xenning Kyoler

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZMIDAGI ILG'OR TAJRIBLAR TAHLILI

Dosbekova Gulmira Kazibekovna
Maktabgacha pedagogika kafedrası Andijon DU

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yuqori sur'atlarda rivojlanishi jamiyat a'zolarining ijtimoiy tafakkuridagi ijobiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatda yashayotgan kishilarning tafakkurida ijobiy o'zgarishlar hosil qilmoq uchun, eng avvalo ta'lim tizimida tub burilishlar bo'lishi lozim.

Mamlakatda bugungi kun talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan Milliy dastur barcha ta'lim tizimlari oldiga "...ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash" vazifasini qo'ygan bo'lsa-da, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bajarilishining holatini uchala bosqichda ham to'liq amalga oshirildi deb bo'lmaydi.[1] Bu holni maktabgacha ta'lim tizimida ham uchratish mumkin. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda chet mamlakatlar ilg'or tajribalaridan, xususan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning tajribalarini ta'lim tizimiga joriy qilish zarur. Quyida rivojlangan xorijiy davlatlar maktabgacha ta'lim tizimidagi bir nechta ilg'or tajribalarini tahlil qilamiz.

Bolalar bog'chasi — olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonidan o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U davlat ta'lim tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. Bolalar bog'chasi ta'sischilari cherkov, xayriya uyushmalari va jamoalar, ba'zi hollarda esa korxonalar va ittifoqlardir. Tarbiyaviy ishlarning eng muhim jihati — jamiyatda yashashga qobiliyatli, mustaqil insonni kamol toptirish maqsadida guruhda o'qishdir. Bolalar bog'chalari oiladagi tarbiyani qo'llab-quvvatlashga, shuningdek keyingi hayoti va ta'lim olishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish uchun uning rivojlanishidagi kamchiliklarning o'rnini to'ldirishga qaratilgan.[3]

Nemis pedagoglari iste'dodsiz bolaning o'zi yo'q deb, hisoblaydi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" deydi mashhur faylasuf Rene Dekart.[2] Olmon bog'chalarida

ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda bolaning, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va pedagoglar o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi. Maktabgacha ta'lim tizimining hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda o'rni katta. Shu bois ham Germaniyada bu tizim "tafakkur ustaxonasi" deb ataladi.

Yaponiyadagi MTM larda tarbiyaning eng muhim vazifasi bolani gapga quloq soladigan kattalar gapini bo'lmaydigan va hushxulq etib tarbiyalashdir. Yaponlar oilasida bola tarbiyasi haddan ziyod yumshoq bo'lib bolaga kamdan-kam biror narsani ta'qiqlashadi. Ammo ko'cha-ko'ya tanimagan begona odamlar bilan iloji boricha kirishimlilik bilan gaplashish o'rgatiladi. Shuning uchun bog'chada ko'p marotaba virtual hayotdagi tanishuvlar, maner tarbiyasi o'rgatiladi. Bolalarga etiket normalari, ularni qachon va qanday sharoitda qo'llash o'rgatiladi.

Yaponiya tarbiyachilari bolalarni tarbiyalashda bolalarni o'zaro munosabatlarini hisobga oladi bolalarni "xan" nomli kichik guruhlarga bo'lib chiqadi. Bu jarayon tarbiya jarayonida muhim hisoblanadi. Kichik guruhlarning har birining o'zining stoli, o'rni, shaxsiy nomi bo'ladi. Guruh nomi bolalar tomonidan har bir guruh a'zosining fikrini hisobga olgan holda belgilanadi. Bu bolalarni o'z fikrini mustaqil bayon etish hamda qaror qabul qilishga o'rgatadi. Gruppa 6-8 boladan iborat bo'lib, ular qobiliyatlariga qarab emas, balki ularning faoliyatlarini yanada samarali bo'lishini hisobga olib taqsimlanadi. Bolalarga guruhda ishlash jarayonida tengdoshining fikrini tinglash va o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Guruhlarning bu tarkibi doimiy emas. Har yili guruh tarkibi boshidan tuziladi. Guruh a'zolari tarkibini bunday o'zgartirish bolada sotsializatsiya jarayonini yanada samarali kechirishda yordam beradi.[5]

Isroil davlati tamoyilga ko'ra bola hech narsaga majbur emas. Ularning oilasida bola soni ko'p bo'lishi kerak. Isroilliklarning bola tarbiyasiga doir yondashuvi o'ta sabrlik bilan olib boriladi.

Isroilda bolalarning sog'lom va baxtli bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha sharoitlar yaratib qo'yilgan. Mamlakatda asosan maktabgacha yoshdagi bolalarga e'tibor katta. U yerda maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos jihati ta'lim-tarbiya jarayonida turli qattiqqo'l streotiplardan xolilik, ma'lum qoida va reglamentlardan voz kechish hisoblanadi. Bu bolaning bog'chadan ishlayotgan har bir shaxsga bo'ysunishdan saqlaydi va u erkin tarbiya topadi.[4]

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining ilk bo'g'inini yanada takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizim oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING QOBILIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL

Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

TVChDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Hurmatli birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov „Barkamol avlod orzusi“ asarida „Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz“. Yana „Yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan odamlarning yetishmasligi bizning olg'a siljishimizda hamon katta to'siq bo'lib turibdi. Bunday kadrlarni, avvalombor, yosh kadrlarni topish, o'stirish, tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda“, deb juda o'rinli ta'kidlangan.

Maktabgacha ta'lim me'yoriy – huquqiy hujjati bo'lgan 2008 yil ishlab chiqilgan

„Maktabgacha ta'lim to'g'risida“gi Konsepsiyada ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirish usul va uslublari belgilab berilgan bo'lib, bu borada ilgari surilgan davlat talablari har bir bolaning yoshini e'tiborga olgan holda rivojlanish darajasini aniqlash, pedagog va tarbiyachilar ish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lajak tarbiyachilariga katta talablar qo'yilmoqda.

Bo'lajak tarbiyachining har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishga maqsadli yo'naltirish, uning dunyoqarashini, ehtiyojini ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan faoliyatini shakllantirish uchun maxsus

kasbiy bilim va ko'nikma zarur. Bo'lajak tarbiyachi shunday universal va o'ta kuchli ommabop ta'sir vositalariga ega bo'lishi kerakki, undan quvvat olgan tarbiyalanuvchi har qanday salbiy, hatto o'ta kuchli yomon ta'sirga tushib qolganda ham uning ta'siridan chiqib keta olsin. Pedagogik qobiliyat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagog-tarbiyachilarning har biri o'zicha paypaslab ijodiy izlanish olib boradi. Ayni paytda bir necha xil savollar tug'iladi. Bo'lajak tarbiyachilar bilan bolalar jamoasi qanday qilib til topishishi mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik - psixologik muhitni saqlab qolish va o'z kuch-quvvatini oqilona sarflash mumkin? Bolalarni pedagogik talablarini bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? kabi savollar muttasil takrorlanadi. Shu va shu kabi savollarga javob topish mazkur maqolaning asosiy muammosini belgilaydi. Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liq. Bu yerda har gal hamma narsa g'oya yangidan sodir bo'lganday tuyuladi. Binobarin, kishi o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi va rejalashtirishi amalda mumkin emas. Tarbiyachining mehnati - bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ko'pdan - ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va bolalar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilinadi. "Mutlaqo to'g'ri bo'lgan hech qanday pedagogik tadbirni yoki tizimni o'rnatish mumkin emas. Hozirgi daqiqa hozirgi bosqich sharoitlari va talablaridan kelib chiqmaydigan har qanday qotib qolgan aqida hamisha noto'g'ri qoida bo'ladi" - deb yozgan edi A.S.Makarenko.

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish, ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirish asosiy omillardir. Demak, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda bolalarni qobiliyat sirlarini o'rgatishimiz, mustaqil kuzatishlar olib borishga odatlantirishimiz, ilg'or tajribalarni kuzatib malakalarini shakllantirishimiz va nihoyat tarbiyachilik kasbiga ijodiy yondashish orqali mehr munosabatini rivojlantirishdir.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardorliklari, ularni ta'lim - tarbiya jarayonlarida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, bu vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshishi tarbiyachiga pedagogik qobiliyatning qay darajada shakllanganligiga bevosita bog'liq.

Bo'lajak tarbiyachilar hozirgi zamon yutuqlariga asoslanib davr talabiga mos keladigan pedagogik qobiliyatning shakllanish yo'llari va uning ayrim nazariy asoslarini yaratish juda muhimdir. Barkamol avlodni rivojlantirish va shakllantirish vazifalarining serqirraligiga va murakkabligi pedagogik qobiliyat muammosi ta'lim - tarbiya nazariyasi hamda amaliyoti uchun o'ta zarurligini hisobga olgan holda eng dolzarbligini belgilaydi. Barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'z kasbining ustasi bo'lgan bo'lajak tarbiyachilar nihoyatda zarur.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta'sir ko'rsatish emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchining aniq bir maqsadga qaratilgan, bir - biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatish ekanligi alohida ta'kidlanadi. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“,

„Ta'lim to'g'risidagi“ O'zbekiston Respublikasining qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash zarurligi va uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi“, deb takidlanishi bejiz emas, albatta.

„Tarbiyachining darsdagi pedagogik madaniyatini o'rgatmoq bu ikki karra o'rganilmoqdir“ - degan fikr tez-tez quloqqa chalinadi. Qachonki tarbiyachi o'z fanini mukammal egallasagina va faqat shu shart bilangina u ma'lum darajada dars o'tish qobiliyatlariga, bolalarning hurmatiga o'z bolalariga yanada kuchliroq tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dars har qanday ta'lim - tarbiya jarayoni kabi siyosiy elementlarni o'z ichiga oladi. Darsda tarbiyachi o'zining va bolalarning dunyoga munosabatini siyosiy mafkura bilan uyg'unlashtirib beradi. Avvalombor, tarbiyachi har bir darsning hatto bir xil mavzu turli guruhlarda o'rganilsada, ijodiy jarayon bo'lishiga intilish zarur. Buning uchun fantaziyaga erk berib dars - metod shaklini o'zgartirib, boshqa fakt va dalillarni keltirib, yangi-yangi ma'lumotlarni kiritib, ohangni o'zgartirib borish tavsiya etiladi. Tarbiyachining bolalarga talabi juda ko'plab qo'yiladi. Turli xil darslar kuzatilib, oddiy hisob-kitob qilinganda bir dars davomida 4-5 daqiqa ichida bolalarga 100 larcha talab qo'yiladi. Talab qilishni qanday o'rganish kerak? Ehtimol buning uchun tajribali tarbiyachilarning darslarini kuzatib borish lozimdir. Albatta, bu siz ishni amalga oshirib bo'lmaydi. Ammo bundan savol talab xususiyatlarini, talab xarakterlarini o'rganib olish zarur. Bolalarga nisbatan qo'yiladigan talabning turlarini aniqlashda ularning yosh xususiyatlariga e'tibor berish lozim. Bunda pedagogik vaziyat muhim omil bo'lib, maqsad va vazifa hamda natijaga erishishdir. Hissiy faollikni

shakllantirish - bu bolalar dars jarayonida nafaqat o'quv predmetini faol o'zlashtiriladi, balki va o'rganilayotgan narsaga o'zining turlicha munosabatlarini bildirib boradi. Ba'zi voqealar uni hayajonga solsa, u befarq biron narsa unga yoqishi yoki yoqmasligi mumkin, ba'zi tarbiyachilarni yoqtirsa ba'zilarni yoqtirmaydi. Psixologlarning aniqlashlaricha, ijobiy tuyg'ular insonda buyuk yaratuvchanlik va ilxomlantiruvchi kuchlarni uyg'otadi. Boshqacha qilib aytganda, inson hissiyotisiz haqiqatni izlay olmaydi, bolalar esa ta'limni o'zlashtirila olmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha bo'lajak tarbiyachilar pedagogik mahoratga ega bo'lishi, ya'ni ta'limiy - tarbiyaviy jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etishi, tarbiyalanuvchilarni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirishi, bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishi, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishi asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.

Sharipov Sh.S. Pedagogikheskiye usloviya formirovaniya izobretatelskogo tvorchestva studentov: Avtoref.dis.kan.ped.nauk. - T.: 2000. - 20 s.

Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. - Toshkent, 2005. -140 b.

Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 247 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK O'YINLARNI AMALGA OSHIRISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Xamzayeva Gavxar

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida 211 guruh talabasi


Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, halqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma'naviyatini takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloл g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolalarning kelajakdagi o'quv va mehnat faoliyati, kishilarga tmunosabatning qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. o'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. O'yin bolalarni jismoniy tamondan tarbiyalash tizimida, matabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tamondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shunday ekan, har bir o'yni-mashg'ulotini to'g'ri rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. O'yin mashg'ulotlarni rejalashtirayotganda har doim maqsadni hamda mashg'ulotdan kutilayotgan natijalarni aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shundan so'ng maqsadga erishish uchun qaysi o'yin, topshiriq yoki mashqdan foydalansa yaxshiroq samara berishi aniqlab olinadi. Buning uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

soddadan murakkabga qarab intilish; turli xillilikka e'tibor berish (nutqiy fpoliyatni turli harakatlar bilan, tinch o'yinlarni harakatli o'yinlar bilan uyg'unlashtirib turish);

guruhiy yoki kichik guruhlar uchun mashg'ulotlarni tashkil qilish. Tarbiyachi qachon katta guruh bilan hamda qachon kichik (6-8 boladan iborat guruh) guruh bilan ishlash lozimligini hal etmog'i darkor;

mashg'ulotlarning vaqt chegaralarini aniqlab olish (qaysi vaqtda bolalar bilan shug'ullanasiz va qancha vaqt davomida).

Mashg'ulotlar davomida bolalar o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganlaridagina mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari va o'zaro ishonchlari oshib boradi.



Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Metodika – bu tarbiyachi mehnatining professional texnologiyasi bo'lib, tarbiyachi uni egallagan bo'lishi va bolalarga rahbarlik qilish usullarini to'xtovsiz takomillashtirib borishi kerak.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrlil va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar.



Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsulotli, ijodiy, psixotexnik o'yinlar.

O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, syujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va drammalashtiruvchi o'yinlar.

Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta usida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim azifalaridan kelib chiqib, predmetli, syujetli-ishchan, drammalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.

BO'LAJAK PEDAGOG TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Ilxomova M.Z., Berkinova Ch.I., Xamrayeva E.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistrleri. Jizzax Davlat Pedagogika Instituti

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, "Ta'lim to'g'risida"gi [1; 28-b] va "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" [2; 19-b] to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" [1;13-b], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har omonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, mulqotchanlik va ijobiy fazilatlariga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagog-tarbiyachi o'zida yangicha bugungi pandemiya sharoitida ta'lim-tarbiya bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Shu nuqtai-nazardan respublikamizning birinchi rezidenti I.A.Karimov "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak".- deb ta'kidlaydi.

Respublikamizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 5 iyundagi "Oliy

ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlaridagi belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqot ish rejalarimizni belgilab oldik.

Kasbiy kompetentlik, jumladan, oliy ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarning kasbga tayyorlash, ularda pedagogik sifatleri va ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy masalalariga olimlarimizdan N.N.Azizxodjayeva, U.Sh.Begimqulov, U.I.Inoyatov, U.Tolipov, Sh.Sharipov, F.Yuzlikev, Yu.Asadov va R.Jurayevlar ishlarida yoritilgan. Pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda ularning umumiy tayyorgarligi hamda kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish jarayonlarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari esa, Sh.Mardonov, M.Mirsoliyev, Ya.Xaydarov, X.Ibragimov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq qilingan.

Respublikamizda ta'lim tizimini birinchi bosqichi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini ta'minlash, oila bilan hamkorlikda bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, 6-7 yoshli bolalarni umumo'rta maktabga tayyorlash masalalari A.Sulaymonov, G.Amirova, F.Qodirova, M.Abdullayeva, B.Djurayeva, M.Tolipov, T.Usmonxujayev, X.Meliyev, Sh.Sodiqova, M.Normurodova, S.Raximova tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Lekin, bevosita oliy ta'lim muassasasi "Maktabgacha ta'lim" bakalavr yo'nalishini 4-kurs talabalarini malakaviy amaliyot davrida kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari qayd etilmagan.

Shu munosabat bilan ilmiy tadqiqot ishimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- talabalarining tarbiyachilik kompetensiyasini shakllantirish dolzarb muammo ekanligini asoslash;
- bo'lajak tarbiyachilarning kompetensiyasini shakllantirishni mezon, ko'rsatkich va darajalarini aniqlash, ilmiy-nazariy va metodik jihatidan asoslash;
- koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olish maqsadida onlayn tartibida masofaviy tarzda mashg'ulotlar o'tkazish texnologiyalari.

Jizzax shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufida 101 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritadi.

Shulardan 31 ta davlat, 53 ta oilaviy, 5 ta DXSh asosidagi va 12 ta xususiy maktabgacha tashkilotlari faoliyat olib boradi. Jizzax shahar xududida jami 3-6 yoshli bolalar soni 11788 tani tashkil etib, shundan maktabgacha ta'lim tashkilotini qamrab olingan bolalar soni 8935 nafarni tashkil etadi.

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishini 4-kurs talabalarini malakaviy amaliyot davrida Jizzax shahridagi 6 ta Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini taglab olindi va "Ilk qadam" va "Aqlvoy" teledastur orqali amaliyotchilar 650 nafar bolalarga masofadan turib mashg'ulot o'tkazishdi, 50 nafarida uyali aloqa vositasi yo'qligi sababli mashg'ulotlar ushbu tarbiyalanuvchilarni ota-onalari yordamida televideniya orqali "Ilk qadam" va "Aqlvoy" teledasturlarida mashg'ulotlarni kuzatib borish yuzasidan tavsiyalar berib kelmoqdalar.

Har bir amaliyotchi MTTlaridagi gurux bolalari bilan ishlash uchun ota-onalar bilan telegram tarmoqlarida guruxlar ochib shu guruxlarda bolalarga va ota-onalariga tavsiyalar, maslahatlar va topshiriqlar berib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot ishlarimizni 2020-2021 o'quv yilida yakunlash va natijalari yuzasidan axborotlar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ - 637. 23.09.2020 yil 28 bet.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonun. O'RQ-595. 16.12.2019 yil 19 bet.
3. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi". PF-4947. 07.02.2017 yil 13 bet.

«ИННОВАЦИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ»

Д.Ш.Мирзаева

Учитель кафедры дошкольного образования

Д.Рахматова

Студент 14-5МТ-19 группы

Национальная образовательная инициатива «Наша новая школа» предусматривает внедрение новых образовательных стандартов, что требует от педагогов ДОО повышения качества

дошкольного образования. Качественное дошкольное образование рассматривается сегодня как существенный резерв повышения качества и доступности последующих ступеней образования.

Без внедрения новых идей и технологий в работе каждого ДОО невозможно реформирование всей системы дошкольного образования. Развитие образовательных систем происходит благодаря тому, что создаются, распространяются и осваиваются новшества.

Поэтому, в настоящее время в сферу инновационной деятельности включены уже не отдельные дошкольные учреждения и педагоги-новаторы, а практически каждое дошкольное учреждение; педагоги ДОО вовлечены в инновационные процессы, касающиеся обновления содержания дошкольного образования. Инновации определяют новые методы, формы, средства, технологии, используемые в педагогической практике, ориентированные на личность ребёнка, на развитие его способностей. Педагогические инновации могут либо изменят процессы воспитания и обучения, либо совершенствоват. Сел инновационной деятельности – улучшение способности педагогической системы образовательного учреждения достигат качественно более высоких результатов образования.

Источником инноваций является проблема. Решит проблему - значит изменит систему, привести ее в соответствие с желаемой. Если изменения имеют качественный характер, то в результате решения проблемы происходит развитие системы. Следовательно, изменения в развивающемся дошкольном учреждении происходят не хаотично, а прогнозируются руководителем на основе закономерностей и направлены на достижение конкретных целей. Руководителю необходимо знат, как инновации внедрят, осваиват и сопровождат.

С самого рождения ребёнок является первооткрывателем, исследователем того мира, который его окружает. Для него всё впервые: солнце и дожд, страх и радость. Всем хорошо известно, что пятилетних детей называют «почемучками». Самостоятельно ребёнок не может найти ответ на все интересующие его вопросы – ему помогают педагоги. В дошкольных учреждениях воспитатели широко используют метод проблемного обучения: вопросы, развивающие логическое мышление, моделирование проблемных ситуаций, экспериментирование, опытно-исследовательская деятельность, решение кроссвордов, шарад, головоломок и т.д.

Успешност и действенност инновационной работы, ее влияние на развитие дошкольного образовательного учреждения зависят от актуальности работы, заинтересованности и профессиональной компетентности участников, системы методических и организационных мероприятий.

Введение инновационных проектов в дошкольных учреждениях помогает воспитывать и обучать воспитанников в духе времени. Помогает подготовит ребят к дальнейшим трудностям связанных с их образовательным уровнем каждый педагог должен идти в ногу со временем, чтобы не отстат от своих воспитанников. Именно поэтому он должен находится в постоянном поиске новых и интересных способов обучения.

Предлагаю некоторые рекомендации к структуре Программы по реализации инновационной деятельности в ДОО, которые помогут ее разработат.

Сел программы: создание модели инновационного образовательного пространства ДОО как одно из условий повышения качества образования.

Основные задачи программы:

- повысит уровень профессионального мастерства педагогов и административного звена ДОО;
- стимулировать и активизироват экспериментально-научные исследования педагогов, натселенные на реализацию уже известных и разработку новых перспективных педагогических технологий;
- Создат необходимые условия для творческой деятельности педагогов-практиков;
- произвести методическое оформление инноваций, дающее возможность их массового использования.

Ожидаемый результат:

- повышение качества организации методической работы в ДОО;
- совершенствование инновационной модели образовательного пространства в условиях реализации приоритетных направлений работы ДОО;
- рост количества педагогов, повышающих свой профессиональный уровень и квалификацию;
- повышения уровня педагогов в овладении современными образовательными технологиями;
- оперативное и позитивное реагирование педагогов на внедрение инновационной деятельности в образовательный процесс ДОО.

Построение Программы основано на принципах:

- гуманизма;
- демократизации;
- научности, аналитической деятельности;
- системного подхода;
- перспективности;
- динамичности.

Дошкольное образование является первой ступеню системы непрерывного образования в Узбекистане. В качестве главного недостатка системы дошкольного воспитания указывалась авторитарность учебно-дисциплинарной модели педагогического процесса в детских садах, при которой педагог руководил и управлял действиями ребенка в соответствии с заданной программой, а дети обязаны были подчиняться требованиям программы и воспитателя. В качестве альтернативы авторитарной педагогике новая концепция предложила личностно-ориентированный подход в дошкольном образовании. При таком подходе ребенок является не объектом обучения, а полноправным участником педагогического процесса.

ПОЛЬЗА ПОДВИЖНЫХ ИГР ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Д.Ш.Мирзаева

Учитель кафедры дошкольного образования

З.Кенжаева

Студент 14-5МТ-19 группы

Аннотация

«Без игры нет и не может быть полноценного умственного развития. Игра – это огромное светлое окно, через которое в духовный мир ребенка вливается живительный поток представлений, понятий об окружающем мире. Игра – это искра, зажигающая огонек пытливости и любознательности».

В.А. Сухомлинский

Закон Республики Узбекистан о «Дошкольном образовании и воспитании» принят Законодательной палатой 22 октября 2019 г, одобрен Сенатом 14 декабря 2019 г. Цель настоящего Закона

Целью настоящего Закона является регулирование отношений в области дошкольного образования и воспитания.

Законодательство о дошкольном образовании и воспитании

Законодательство о дошкольном образовании и воспитании состоит из настоящего Закона и иных актов законодательства. Если международным договором Республики Узбекистан установлены иные правила, чем те, которые предусмотрены законодательством Республики Узбекистан о дошкольном образовании и воспитании, то применяются правила международного договора.

Основные принципы дошкольного образования и воспитания

- Основными принципами дошкольного образования и воспитания являются:
- доступность дошкольного образования и воспитания для каждого ребенка;
- равенство условий для развития задатков, наклонностей и способностей каждого ребенка;
- единство обучения, воспитания и оздоровления детей дошкольного возраста, воспитательного воздействия семьи и дошкольной образовательной организации;
- гармонизация образования и воспитания детей дошкольного возраста;
- личностно-ориентированный подход к развитию личности ребенка;
- преемственность и непрерывность дошкольного и общего среднего образования;
- демократический и светский характер образования и воспитания;
- прозрачность и открытость образовательно-воспитательного процесса;
- соответствие содержания, уровня и объема дошкольного образования и воспитания особенностям развития и состоянию здоровья детей дошкольного возраста.

Государственные гарантии на получение дошкольного образования и воспитания

Каждый ребенок имеет право на дошкольное образование и воспитание. Государство гарантирует право каждого ребенка на получение в государственных дошкольных образовательных организациях обязательной годичной подготовки к общему среднему образованию за год до его поступления в организации общего среднего образования. Государственные гарантии на получение ребенком дошкольного образования и воспитания обеспечиваются путем оказания дошкольных образовательных и воспитательных услуг на базе государственных дошкольных образовательных организаций, а также посредством организации альтернативных форм обучения и воспитания.

Медики считают, что активные естественные физические движения способствуют благотворным физиологическим процессам в организме и улучшению работы всех внутренних органов и систем. Такие дети быстрее развиваются физически, меньше подвержены сезонным простудным заболеваниям и аллергиям. Они растут более сильными, ловкими и уверенными в своих способностях. Интересно, что если заставляют ребёнка многократно повторять, например, наклоны, то он быстро устанет и станет капризничать. Если же организовать игру, где требуется также много наклоняться, например, чтобы собирать грибочки или ловить мышей, то дети, увлечённые игрой, не замечают усталости и весело проводят время. А у них в это время формируются двигательные навыки, развиваются мышцы и суставы. Психологи уверены, что дети, регулярно принимающие участие в подвижных занятиях, получают положительные эмоции. Это позволяет ребёнку избавиться от тревог и становится более общительным. Важно, что в игре любой ребёнок получает шанс стать раскрепощённым и без опасений попробует что-то новое для себя, особенно, если взрослый руководитель уделяет равное внимание каждому участнику игры.

Педагоги не сомневаются, что подвижные игры позволяют детям отлично "разрядиться" и быть более спокойными и благоразумными в остальное время. Поэтому, у детей, которые достаточно бегают, прыгают и лазают, более выражены способности к традиционному обучению "за партой". Также очень важно, что любые подвижные игры имеют набор правил и проводятся в группе. Каждый малыш волею или неволею общается со своими компаньонами, приучаясь подчиняться законам. Он с раннего возраста понимает, как важно быть честным и дисциплинированным, а также как хорошо умеет находить общий язык с товарищами и испытывает "чувство локтя". Не стоит также забывать, что именно в игре можно неожиданно для ребёнка создать ситуацию, которая потребует инициативы. А это, как известно, позволяет ненавязчиво проводить обучение на самые разные темы. Залог успеха при этом кроется в том, что ребёнок одновременно изучает теорию и осваивает практику нового для себя вопроса. Поэтому он лучше усваивает учебный материал, при этом, не только осваивая общепринятые приёмы, но и придумывая свои. Именно благодаря подвижным коллективным играм среди малышей проявляются лидеры, "светлые головы" и инициаторы.

Например игры: "Ходим по кочкам", "Пройди по линии", Ходба "восмёркой", Игры с мячиком

В дошкольном возрасте игра является ведущим видом деятельности, уровень её развития зависит от возраста ребенка, при этом сама игра – это реальный инструмент психического развития, а также овладения умениями, навыками взаимодействия с предметами, выстраивания взаимоотношений в социуме, инструмент воспитания личности. Развитие игровой деятельности, совершенствование игры, овладение новыми видами игр происходит постепенно под чутким наблюдением педагога, который в процессе руководства, организации игровой деятельности детей отслеживает реализацию в ней дидактических и развивающих принципов. Возможно, в плане реализации обучающих целей игра не принесет ожидаемых результатов, однако заряд положительных эмоций от совместного времяпровождения, коллективное переживание эмоций, взаимодействие, несомненно, даст отличный результат, который будет значить больше, чем овладение каким-либо учебным материалом. Ведь успех в жизни, в общении, умение найти себя и свое место в мире, гармонично развиваясь и живя, что, собственно, и является конечной целью современного образования, - это все отдаленный во времени результат хорошо продуманной и организованной игровой деятельности.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASH

G.Kushakova

A.Qodiriy nomli JDPI dots.v/b.

D.Raxmonova

2-kurs magistranti

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy siyosiy va ma'naviy o'zgarish umuminsoniy qadriyatlar tizimida insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlarini, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy va aqliy imkoniyatlarini yanada ko'tarishni taqozo etadi.

Shu jihatdan qaraganda, bolalarni ham jismonan, ham ahloqan, ham aqlan tarbiyalab voyaga yetkazish bugungi kunda Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bu milliyligimizga asoslangan, rivojlangan mamlakatlar ta'lim standartlariga javob bera oladigan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda o'z tasdig'ini topgan. Mazkur qonunning ijrosini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida "Bolajon" tayanch dasturi ishlab chiqildi. Bunda qonun va dasturlarda har tomonlama komil, ijodkor va aqliy faol shaxsni tarbiyalashda har bir bolaning aqliy imkoniyatlarini hizobga olish rivojlantirishda innovatsion-texnologiyalardan samarali foydalanish vazifa qilib qo'yilgan.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar barcha sohada qo'llanilgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham qo'llanilmokda. Ayniksa, innovatsion-texnologiyalar bolalarga aqliy tarbiya berishda qo'llanilishi o'z samarasini bermoqda. "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan informasiyaning 70 foizini 5yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak ana shu davrda uning qalbida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi".⁵

Bola ta'lim tarbiyasi, aqliy yetuk, barkamol bo'lib yetishishi xususida shark mutafakkirlari merosiga nazar tashlasak unda quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin.

A.N.Farobiy "Aqlli deb shunday kishilarni aytamizki, unda o'tkir zexn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin" – deb ta'kidlaydi.

A.A.I.Sinoning aql, aqliy tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o'z ifodasini topgan.

Olim aqli 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, yaxshi xali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli, uchinchi bosqichda aqliy shakllarni va ularga muvofiq xissiy obrazlarni egallagan inson tasvirlanadi.

I.Sino aql deganda, insonning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatlarini tushunadi.

Aqlni 2 kategoriyaga bo'ladi:

Nazariy aql – borliqni umumiy narsalarni idrok etish.

Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlar.

Ma'rifatparvar alloma A.Avloniy inson aql-zakovati va ma'naviy kamolotining yo'llari ustida tuxtalib shunday deb yozadiki: "Ilm dunyoning izzati, oxirating sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z axvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zexnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz mevasiz daraxt kabidur" deb ta'kidlab o'tgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashda mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati kattadir .

Mashg'ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilgor zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Ushbu tizimda:

Tarbiyalanuvchining yoshi, ruxiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi va boshqalar e'tiborga olinadi.

Ta'lim-tarbiyaning maqsadi, yo'nalishi, mazmuni, shakllari, usullari.

O'quv jarayoni.

⁵ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent Ma'naviyat 2008 yil 53 bet

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va maxoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qo'llab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida – o'yin, mashg'ulot, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi.

Biz hozir zamonaviy texnologiyalarni o'yin va mashg'ulot davomida qo'llash usulini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki o'yin faoliyati bolalar xayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o'quv faoliyatiga ro'xan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o'yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o'stirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jixatlar bolaning bundan buyongi xayotida muxim o'rin tutadi.

Kichkintoylarda o'yinga bo'lgan qiziqish shu darajadagi, ba'zilar faqat o'yin bilan band bo'lg'isi keladi. «Keling, birga o'ynaylik», «Dadajon, onajon, o'yinchoq olib bering» kabi iltijolarni ko'p eshitishimiz mumkin. Bu takliflarga kunib, hamma ishimizni bir daqiqa nariga surib, charchog'imiz, tashvishlarimizga qaramay: «Bupti, qaysi o'yinni o'ynaymiz» desak bormi, bir onda biz yo'lovchi, xaydovchi, o'quvchi, ochko'z buri, ko'rqoq quyon, ukolli doktor va boshqa personajlarga aylanib, ularning quvonchlariga sabab bo'lamiz. Bola bilan o'ynar ekanmiz, biz ham o'z oldimizga maqsad qo'yib borishimiz kerak. O'yin davomida albatta biz ularning xoxishi, istagi bo'yicha harakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog'lash va shu asosda muayyan ko'zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma'lum maqsadga yo'naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishimiz mumkin. Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra taxlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabga tayyorlov davriga kelib, bolalar 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllarni bilishlari lozim. Namunaga ko'ra, yoki nomi aytilgan ma'lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Shundan kelib chiqib, sizlarga 3-4 yoshli bolalar uchun o'yin mashg'ulotlarini tavsiya etamiz.

«Nima dumalaydi»

Bu o'yin mashg'uloti orqali bolalar narsalarning shakli bilan tanishadilar.

Shunday qilib bolalar bilan quvnoq o'yin – musobaqa uyushtiriladi.

-Kim o'z qo'lidagi shaklni pol yoki stolga o'rnatilgan o'yinchoq darvozadan tezroq dumalatib o'tkaza oladi

Dumalatish uchun sharcha yoki kubni taklif etamiz. Avvaliga bolalar uchun darvozaga nimani dumalatib kiritishning farqi bo'lmas, lekin bir necha urinishdan so'ng u sharchani tanlagan odam yutayotganligini tushunib qoladi. Ana shunda kelasi safar u ham sharchani olishga harakat qiladi. Xuddi shu paytda:

- Nega aynan shu shaklni, sharni dumalatmoqchisanmi – deb so'raymiz. Unga xatti-harakatlarini asoslashiga, xulosa chiqarishiga yordamlashamiz. «sharcha dumalaydi, kubik dumalamay tuxtab qoladi». Bola e'tiborini kubdagi o'tkir qirralarga qaratamiz. Sharning tekisligini, qirralari yuqligini ko'rsatamiz. Ana shunda kelasi safar u ham sharchani olishga harakat qiladi. Xuddi shu paytda:

- Nega aynan shu shaklni, sharni dumalatmoqchisanmi – deb so'raymiz. O'nga xatti-harakatlarini asoslashiga, xulosa chiqarishiga yordamlashamiz. «sharcha dumalaydi, kubik dumalamay tuxtab qoladi». Bola e'tiborini kubdagi o'tkir qirralarga qaratamiz. Sharning tekisligini, qirralari yukligini ko'rsatamiz.

Rasmda oddiygina doira va turtburchak shaklida namoyon bo'ladi. Bolaga shar va kub rasmini chizishni taklif etamiz.

Maktabgacha ta'limlarda ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodni bilimli, ma'rifatli, har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyos.

Xulosa qilib aytganda yosh bolalarga aqliy tarbiya berishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'z samarasini bergan. Maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodni bilimli, ma'rifatli, har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir.

MATEMATIKA FANI O'QITUVCHILARINING DARSLARNI LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Matmuradov Akbar Komiljon o'g'li

*TVCHDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası
o'qituvchi*

Ta'limni modernizatsiya qilish, o'qituvchining shaxsni o'z-o'zini anglashga qaratilishi, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda yangi imkoniyatlar yaratish o'qituvchining doimiy kasbiy o'zini -o'zi yaxshilashini talab qiladi. Ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanishining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, uni modernizatsiya qilish butun axborot almashinuviga, ishlatilayotgan kompyuter texnikasi hajmining va interfaol o'quv qo'llanmalarining kengayishiga, barcha maktablarni multimediali vositalaridan keng foydalanishga olib keldi.

Malaka oshirish jarayoni dars mashg'ulotlarini takomillashtirish va bugungi kunda har qanday ta'lim texnologiyalari darhol eskirishi, bu esa uzluksiz innovatsiyalarni hamda yangi metodlar bilan boyitilishi talab etadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan matematika darslarini loyihalashda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda

«innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadbqiq etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.

Maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li, bu dars mashg'ulotini loyihalashda integrallashgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Ta'lim muassasalarida fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi metodlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- o'yinli texnologiyalar;
- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- modulli o'qitish.

Bu texnologiyalar o'quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo'llanishi mumkin. Maktab o'qituvchilarining yo'nalishlarini hisobga olib, malaka oshirish jarayoni modullarini o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan.

- Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinishi:
- mehnat faoliyati;
 - o'yin faoliyati;
 - o'quv faoliyatida shakllanadi.

Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi. Bu uch faoliyatni mujassamlashtirgan kompyuter o'yinlaridan foydalanish bilan dars jarayonini yaxshi o'zlashtirilishi, dars samaradorligiga erishish bir muncha osonlashishiga erishiladi.

Ta'lim texnologiyasining variantlaridan biri bu "Kvest" deb nomlangan usuldir. Ta'lim kvesti - bu axborot resurslaridan foydalanish mumkin bo'lgan rol o'ynaydigan o'yin elementlari bilan muammoli vazifa.

"Kvest" atamasi birinchi marta ta'lim texnologiyasi sifatida 1995 yil yozida San-Diyego Universitetining (AQSh) ta'lim texnologiyalari professori Berni Dodj tomonidan taklif qilingan.

Kvest texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi ta'limning ustuvor faol usullaridan biri sifatida tan olinadi. Ta'lim kvestlari loyiha faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu usul sarguzasht yoki o'yin bilan bog'liq uzoq va maqsadli qidiruvdan iborat. Bu amalga oshirishning turli shakllaridan foydalanish mumkin: ta'lim veb-kvestlari, sarguzasht, o'yin-kvestlar, jonli kvestlar, maxsus kvestlar mavjud bo'lib, unda maqsadga erishish uchun harakat sodir bo'lgan hudud resurslari, axborot resurslari ishlatilishi mumkin bo'ladi.

Kvest texnologiya loyihasida ishlash jarayonida o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab o'rganadilar, muayyan vaziyatlarni boshdan kechiradilar, hodisalarga chuqur kirib, yangi jarayonlarni, ob'ektlarni yaratadilar.

Shunday qilib, Kvest texnologiyasini ta'lim jarayonida qo'llash quyidagi:

-axborotni qidirish, tahlil qilish va sharhlashni amalga oshirish;

-jamo'a va jamoada ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish;

-vazifalarni bajarish natijasida mas'uliyatni o'z zimmasiga olish bilan bog'liq ishlarni tashkil etish va nazorat qilish;

-bosqichlarni baholash va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish;

-jamo'a jarayoni va natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Kvest texnologiya o'quvchilarda nafaqat o'z ufqlarini kengaytiribgina qolmay, balki o'z bilim va qobiliyatlarini amalda faol qo'llashga imkon beradi, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va hissiy va ijobiy munosabatni tarbiyalash uchun umuman o'rganish istagini uyg'otadi.

PSIXOLOGIYA FANLARI

OILADA SOG‘LOM TURMUSH TARZI MUHITI – SOG‘LOM KELAJAKDIR

Sayyora Mirzayeva Rustamovna
TDPU tayanch doktoranti

Xalqimizning ilk yozma asarlaridan bo‘lmish “Avesto”da nikoh-oila masalasiga, oilalarning reproduktiv xulqiga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, “Avesto”da naslning asl bo‘lish omillariga ham alohida e‘tibor berilgan. Birinchi navbatda, oila quradigan yigit va qizlarning har tomonlama benuqson, sog‘lom bo‘lishi hisobga olingan. Uzoq o‘tmishdan boshlab to bugungi kunlarimizgacha bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratib kelinmoqda. Oilalarimizda avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik sezilarli darajada mustahkam. Ayol kishiga bo‘lgan munosabatga oid hadislarda ayol kishi bolaligida otasi izmida, yetukligida eri izmida va keksayganda o‘g‘li izmida bo‘lishi lozimligining ta‘kidlanishi ham, ayollarning farzandlari voyaga yetganlaridan so‘ng ham “o‘z holicha” qolmasliklarini bildiradi. Umuman, o‘zbek oilalarida ota-onalar o‘z farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazganlaridan so‘ng, ularning farzandlari tarbiyasi, ularning taqdiri masalalariga ham bee‘tibor bo‘la olmaydilar.

Mamlakatimizda milliy mentalitetimiz va asrlar davomida saqlanib kelinayotgan udumlar va an‘analarimizga e‘tibor bersak, bizning ajdodlarimiz uchun salomat bo‘lish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish azaliy qadriyatlardan biri bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz nasl tozaligiga, orastalik va ozodalikka katta ahamiyat berganlar. Farzandlariga zararli odatlar bo‘lmasligi uchun shu qadar oilaviy udumlar, rasm-rusumlar ko‘p bo‘lganki, ular tufayli yigit va qizlar sog‘-salomat nikohga kirganlar, kelin tanlashda ham yetti pushtini, nasl-nasabini surishtirish odatga aylangan.

Darhaqiqat, barkamol avlodni voyaga yetkazishda sog‘lom oilaviy muhitning ahamiyati beqiyosdir.

Sog‘lom oilaviy muhit – bu oilani tashkil etuvchi barcha a‘zolarining o‘zaro kundalik munosabatlari, o‘zaro muomalalari xarakteridan kelib chiqadigan ma‘naviy-ruhiy muhit bo‘lib, undagi ustivor qadriyat – hamjihatlik, murosa va o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat, qo‘llab-quvvatlov, ijobiy tajribaning bir avloddan ikkinchisiga ziddiyatlarsiz uzatilishini nazarda tutuvchi fazilatlar, sog‘lom turmush tarzi-qoidalariga barcha oila a‘zolarining rioya etishlari va kundalik odatga aylantirganliklaridan iboratdir.

Sog‘lom turmush tarzining eng muhim ko‘rsatkichi – bu oilaning barcha a‘zolarida sog‘lom turmush malakalari, o‘z salomatligiga nisbatan mas‘uliyat, g‘amxo‘rlikning mavjudligi, turli zararli odatlar – chekish, spirtli ichimliklar istimol qilishga ruju qo‘ymaslik, muntazam sport bilan shug‘ullanish, ovqatlanish, kiyinish va muomila madaniyati qoidalariga rioya qilishdir.

FILOLOGIYA FANLARI

TIL -MILLAT KO'ZGUSI

Qazaqova Sarvinoz Jahongirovna
Guliston Davlat Universiteti sirtqi BT va STI fakulteti 3-bosqich talabasi

Har yili 21 oktyabr yurtimizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida o'zgacha g'urur, faxr va iftixor bilan keng nishonlanadi. Albatta, har bir millat o'z ona tiliga ega. Ulkan boylik, bebaho qadriyat sifatida e'zozlanadigan tilda ajdodlarning bebaho merosi, tarixi, o'tmishi va buguni yashaydi.

Til-millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir. Shu bois ona tilimizni hurmat qilish, uning boy imkoniyatlarini o'rganish barchamizning asosiy burchimiz bo'lishi lozim. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar. Til xalqning yagona bir millat sifatida milliyligini, o'zligini, madaniyatini ko'rsatuvchi ko'zgidir. Millatning borligi va birligining bosh belgisi til hisoblanadi. «Har qanday millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millat ruhini yo'qotmakdir», degan edi ulug' mutafakkir Abdulla Avloniy. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, «Til-millat ko'zgusi», «Til-ma'naviyat ko'zgusi», «Til-millatning bebaho boyligi» va shu kabilardir. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'xna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa bugungi globallashuv-dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so'zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Ismoil Gaspirali aytganidek: «Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur».

Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdur. So'z mulkingning sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tlimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining «Hamsa» kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi.

Birinchi Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda «O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi». Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilingandan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda «Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish to'g'risida»gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rin egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellarda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina «O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador», deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning shunday go'zalligini, sofligini keyingi avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilini ulug'lash, asrab avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan Alisher Navoiy bobomizga tegishli «Ko'ngil qulfi maxranning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil». Inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki

bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalasa bo'ladi. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. »Davlat tili haqida»gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyish etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til- millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta. Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charag'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili» haqidagi qonun
2. I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» Toshkent Ma'naviyat 2008.
3. «Yosh avlod» gazetasi
4. Ona tili va adabiyot maktab darsliklari
5. Kollej va akademik litseylar uchun ona tili va adabiyot darsliklari

SPEAKING IS ESSENTIAL PHENOMENON IN ENGLISH LANGUAGE

Adilova Nilufar Axmadjonovna

TDAU

The four language skills of listening, speaking, reading, and writing are all interconnected. Proficiency in each skill is necessary to become a well-rounded communicator, but the ability to speak skillfully provides the speaker with several distinct advantages.

The capacity to put words together in a meaningful way to reflect thoughts, opinions, and feelings provides the speaker with these important advantages:

Ability to inform, persuade, and direct. Business managers, educators, military leaders, lawyers, and politicians, among others, seek to develop their speaking skills to such a level that they are transformed into master communicators.

Speaking clearly and confidently can gain the attention of an audience, providing the golden opportunity for the speaker to make the message known. Wise is the speaker who gains and then holds the attention of an audience, with well-chosen words in a well-delivered presentation, forming a message that is effective, informative, and understood.

Ability to stand out from the rest. When one thinks of speaking skills, one tends to think of it as a common skill. Think again. The ability to stand before others and speak effectively is not an ordinary ability.

Children need a foundation in writing to communicate ideas, theories, and information with one another. Fundamental writing skills are important to the students, yet they are not being taught to go deeper in their writing (Richard, 1993). Critical thinking calls for a greater analysis in writing, a form of evaluation that is taught only at the highest levels in schools (Richard, 1993). It can be defined as "the intellectually disciplined process of actively and skillfully conceptualizing, applying, analyzing, synthesizing, and/or

evaluating information gathered from, or generated by, observation, experience, reflection, reasoning, or communication, as a guide to belief and action” (Richard, 1993:22). However, critical thinking is also comprised of the element of creativity. Creativity is almost barren and nonexistent in the public education system at younger levels of writing because the system believes it is not important to the foundation of writing (Richard 1993). The argument is, however, that creativity is enormously important in the development of writing because it teaches children how to develop and communicate new ideas that will help push critical thinking forward.

Creative thinking in general can be defined as the “interaction among aptitude, process, and environment by which an individual or group produces a perceptible product that is both novel and useful as designed within a social context” (Plucker, Beghetto, and Dow, 2004, page 90). Creativity is important to students because it allows them to engage in divergent thinking in a subjective manner. Since it is a subjective form of thinking, it is important to couple critical thinking with creative thinking to prepare students for life as they go on to become independent individuals who contribute to society (Tarhan, Bacalni, Dombayci, Demir, 2011). Problemsolving and the need for invention grow over time because of the ever-evolving world.

If creativity is not part of this process, critical thinking will not be able to stand on its own (Runco, 2004). Out of creative thinking comes innovation and reaction, which are both needed in a society that is advancing. If students are only taught to be critical, they will not have the same innovation as students who are taught to think creatively as well as critically (Runco, 2004). Creative thinking will invent ideas, while critical thinking will evaluate ideas. It is imperative that the two forms of thinking be taught to students when their brains are developing in order to instill these processes into their schema (Richard, 1993). Children will develop skills that will carry over into adulthood, changing the future generations by allowing more room for invention and growth.

The curriculum focused solely on critical thinking in the United States is failing. Every year, there are about 1.3 million teenagers who drop out of high school without graduating (Alliance for Excellent Education, 2013). There is a large amount of students whom the United States is not reaching through their education.

Research shows that one of the largest factors in students dropping out of school is a frustration or boredom with the classroom material being taught (Convissor, 2010).

If the students are receiving the best education they can through the present curriculum, why are the 1.3 million students who are dropping out of school saying it is because of the curriculum? Creative thinking is an aspect simply not being stressed in schools. Art programs are being cut to focus on formal education. However, taking out the curriculum that will round a student and provide students with a different way to learn will continue to lead to a high number of high school drop-outs.

Used literature

1. Cazden, C.B., 1988. Classroom discourse: The language of teaching and learning. Portsmouth.
2. Heinemann. Dakowska, M., 2005. Teaching English as a Foreign Language. A Guide for Professionals. Warszawa:
3. Johnson, K.E., 1995. Understanding Communication in Second Language Classrooms. Cambridge University Press.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ONA TILI DARSLARIDA

Kiyasova Ra’no

Toshkent davlat transport universiteti Tillar kafedrasida katta o’qituvchisi

Ta’limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Umumiy dunyoqarashni belgilab beruvchi faol hayotiy pozitsiya ko`nikmasi yetarli darajada shakllantirilmasa, mustaqil davlatning talab va ehtiyojlariga mos keladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muammosi to`liq hal bo`maydi. Yosh avlodni o`qitishning o`zak nuqtasini darslar tashkil qiladi. Ayni mana shu jarayonda o`qituvchi va o`quvchi muloqotlarining oliy nuqtasiga ko`z tashlanadi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitilayotgan fanlar bo`yicha darslarning mazmuni qanday bo`lishi kerak, mavzu maqsadini qo`yishda nimalarga e`tibor qaratish kerak, darsning samaradorligi nimalarga bog`liq kabi qator savollar tug`iladi. XX asrda psixologiya-pedagogika fani bu savollarga o`zgacha yondashgan holda munosabat bildirdi. Oldingi qarashlarni tubdan o`zgartirdi. Bola

shaxsini shakllantirishda turli ijtimoiy va psixologik omillarning roli aniqlandi. O'sish va rivojlanirish jarayonida bola har xil ta'sir va munosabatlar ishtirokchisi (sub'yekti va ob'yekti)ga aylanadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda pedagogika va metodikada darsga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvga ko'ra, dars –bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish va shu asosida ularda ko'nikma, malaka shakllantirish, ularni tarbiyalash jarayoni. O'qituvchining asosiy vazifasi – “o'quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib, o'zlashtirib borish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash”. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, dars – chegaralangan vaqt ichida belgilangan mavzu va maqsad asosida o'qituvchi va o'quvchilarning teng huquqli hamkorligiga asoslangan bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish jarayoni. O'qituvchining asosiy vazifasi-o'quvchilarda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash. Tez yangilanib rivoj topayotgan zamonamiz eng avvalo innovatsiyaga ega axborot, yangi texnologiyalar yaratish, qadriyatli ishlab chiqarishni yulga qo'yish, inson resurslaridan keng va oqilona foydalanish payti kelganidan darak beradi. Yangi axborotni maqsadli tezda qabul etish, oydinlashtirish, tahlil asosida amaliyotda qo'llash, tafakkurdagi sintez, solishtirish, abstraktlash, konkretlashtirish kabi jarayonlarni ishga solib innovatsiyalar yaratishga harakat etish, ularni jahon bozoriga chiqarish har bir ijodiy faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxsdan muayyan tafakkur haqidagi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni rivojini talab etadi.

XXI – asr ta'lim-tarbiyasi o'qituvchining yuqori darajadagi bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, shaxsiy sifat, xislatlari bilan bog'liq. Hozirgi globallashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning intellektual qobiliyatlarini o'stirish orqali unda mavjud axborotlar oqimini qabul qilish, tushunish, fikrlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki, shaxs bu ta'lim tizimidagi axborotlar oqimining faol iste'molchisi bo'lishi bilan bir qatorda, uni tahlil qilish va amalga oshirish jarayonida ham yetakchi sub'ekt vazifasini o'taydi. Bu esa undan ijodkorlik, izlanuvchanlik va nostandart tafakkurni talab etadi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik – shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni

insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari, imkoniyat-lariga muvofiq tarzda o'zgartirish borasidagi faolligidir. Kreativlik insonni aql-zakovatining barcha ijobiy sifatlarini o'zida mujasamlashtirgan yangilik yaratish bilan bog'liq bo'lgan alohida faollik va mustaqillik turi sanaladi.

Kreativlik psixologiyasining asoschisi Dj. Gilfordning fikricha, shaxsning ijodkorligi ko'proq uning intellektual salohiyati, aqliy qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lib, ular asosan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsdagi kreativlikning shakllanishi bevosita ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ziga xos innovatsion yondoshuvni talab etadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ularning ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga erishish lozim. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar asosida o'tilayotgan darslarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchining nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Ona tili ta'limining bosh maqsadi bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash va rivojlanirishga qaratilishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.

Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad – o'quvchi - talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'ianligi – didaktik jarayon tuz-ilmasiga mosligi.

O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasi-ning ko'rsatilishi.

O'quvchi va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy mo-tivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, va boshqalar).

O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Kreativ fikrlashini shakllantirishda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va ku-tilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Kreativ fikrlashini shakllan-tirishning muhim vositasi – interfaol o'qitish metodlaridir. «Keys-stadi», «SCORE», «SWOT-tahlil»,

«Sinkveyn», «FSMU», «Xulosalash» (Rezyume), «Klaster», «Labirint», «Qora quti»,

«CHarxpalak» metodlari o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Interfaol ta'lim sharoitidagi bellashuv, raqobat, tortishuv ruhi-yati shaxsning intellektal faolligiga kuchli ta'sir qiadi. Bu talabalarni uyushgan holda muamoni yechishga bo'lgan harakatlarida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari bir qator omillar, ya'ni atrof-dagilar tomonidan bildirilgan fikrlarga munosabat bildirish, o'z pozitsiyasini shakllantirish, tanqidiy mulohazalar ta'lim oluvchini yangi imkoniyatlarini namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bunday ta'lim sharoiti esa ta'lim oluvchidan mustahkam bilim, keng dunyoqarash, faollik va ijodkorlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, interfaol ta'lim sharoitini ta'lim amaliyotiga joriy etish:

Birinchiidan, ta'lim jarayonida shaxsning bilish faolligi, motivatsiyasi va intellektual imkoniyatlarining rivojlanishini;

Ikkinchiidan, o'quvchilar uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirish samaradorligi va muvaffaqiyatini;

Uchinchiidan, adaptatsiya va faollikni;

To'rtinchiidan, nostandart tafakkur ko'nikmalari: mustaqil va tanqidiy fikrlashni ijodkorlikni shakllantirish uchun zaruriy psixologik-pedagogik muhit yaratadi.

Ona tili mashg'ulotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl bilan mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro zich bog'liqligi asoslarida ko'riladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lim sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrik standart o'lchovi orqali aks ettiriladi.

O'qish texnikasi.

O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash.

Fikrini yozma shaklda bayon etish malakasi.

Xulosa qilib aytganda, fikrlash – ob'ektiv borliq aksi, til esa – fikrni ifodalash, mustahkamlash va uni boshqa kishilarga yetkazish usuli hisoblanadi. So'z va tushuncha dialektik jihatdan o'zaro bir- biriga bog'liqdir.

Til bilan fikrlashning o'zaro uzviy bog'liqligi haqidagi qoida bolalarga ona tilini o'qitish tizimini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya ishlarining o'zaro bog'liq bo'lishi haqidagi talabni asoslash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim-sifat kafolati .-T., 2008
2.Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. Zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “Iqtisod-moliya”,2009.-658 b.

3.Maxmutov M.I. Organizatsiya problemnogo obucheniya v shkole.-M.:Pedagogika, 1977.

O'QUVCHILAR MA'NAVIYATIGA DOSTONLARNING IJOBIY TA'SIRLARI

Umid Jumanazarov

DJPI

Bu yorug' olamda har bir narsa ikkinchisi bilan qiyos qilinayotganda, boshqa qarama-qarshi voqea-hodisa, holat, narsa, xarakter bilan taqqoslanganda ongimizga mustahkam o'r mashadi. Masalan, ezgulikni yovuzliksiz, diyonatni xiyonatsiz, adolatni zulmsiz, yog'duni zulmatsiz tasavvur qilish qiyin. Shu ma'noda,

“Zaydinoy” dostonida yaxshilik ham yomonlik bilan ziddiyatda to‘la namoyon bo‘ladi, o‘quvchilarga ma‘naviy-ma‘rifiy ozuq beradigan xalqona o‘git-nasihatchilik mavjud:

Yomonning kasodi tegar har joyda,
Yaxshining yordami tegar tang joyda,
Yomonning makoni doim tor bo‘lar,
Yaxshining makoni bordir har joyda.

Ko‘ramizki, ushbu misralar bilan tanishgan har bir o‘quvchi homiylar-chiltonlarning epik qahramonga, murg‘akkina yosh go‘dak - Go‘ro‘g‘libekka dastlab umumiy tarzda yomon va yaxshi odam haqida soddagina ma‘lumot berilganligiga guvoh bo‘ladi, o‘zi tegishli xulosa chiqaradi. Xalqning nazarida, yomon odam hamma joyda yon-atrofdagilarga ziyon yetkazadi, zarar keltiradi. Yaxshi odam esa o‘zining ahvoli og‘ir bo‘lsa ham, qiynalgan, tang ahvolga tushib qolgan kishiga doimo ko‘maklashadi, uni qiyin vaziyatdan qutqazadi. Shu sababdan yomonlik qilib nafratga yo‘liqqanning makoni tor. Chunki uning qilmishlaridan xabardor kishilar hamma vaqt xursandchilik bilan qarshilamaydi: undan yanada uzoqlashishga, hatto o‘z xonadoniga yaqinlashtirmaslikka intiladi, lekin yaxshilar hamisha izzat-hurmatga sazovor, yorug‘ yuz bilan kutib olinadi. Odamning fe‘li-atvoridagi qaysi xususiyatlar va harakatlar yaxshiyu, qay birlari yomon? Inson nima qilsa hayotda obro‘-e‘tibor topib yashaydi-yu, qachon yomon degan isnodga qoladi yoki xalq nafratiga duchor bo‘ladi? «Zaydinoy» dostoni sahifalarida bunday savollarga har bir o‘quvchi odilona javob topadi: xalqona xulosalar sermazmun bandlarda izchil bayon etilganligini ko‘radi, ularning mag‘zini chaqishga harakat qiladi:

Yaxshidan, yomondan birday nom qolar.
Har kim qilganiga haqini olar.
Yomonga la‘natdir, yaxshiga rahmat.
Yaxshini bu olam ardoqlab kelar.

Hayotda ezgu amallar juda ko‘p va xilma-xil: ularning ichida eng asosiysi insonni qadrlash, beva-bechora, yetim-esir, qashshoqlarga yaxshilik qilish, muhtojga yordam berish, katta-kichikning ko‘nglini qoldirmaslikdan iborat. Ajdodlarimizning farzandlarga qilgan vasiyatida, o‘git-nasihatchilik muqaddas dinimiz ta‘limotida ham, hadislardagi muborak o‘gitlarda ham eng avvalo dilga yaxshilikni jo qilib, odatga aylantirib olgan holda musulmonchilik farzlarini bajarish uqtiriladi. Bular tag zamini bilan milliy pedagogikamizda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlarining eng sarasi hisoblanadi. Buni har bir zamondosh, har bir farzand bilishi shart va amalda rioya qilmog‘i farz va burch deb hisoblamog‘i zarur. “Zaydinoy”da ham ana shu ma‘naviy fazilatlar alohida qayd etilganki, ular o‘quvchilarni yuksak ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarini rivojlantirishga bevosita xizmat qila oladi:

Bir yetim boshini silasa ummat,
Tul ayolga qilsa beminnat xizmat.
Miskinning holidan ololsa xabar.
Ro‘za ibodatdan har biri qimmat.

Baxshi-pedagog o‘rinli ta‘kidlaganidek, odam bir insonga yaxshilik qilmay, ibodatga o‘tirsam, uning bu ishi piliksiz chiroqdek foydasiz. Chunki unga elning duo olqishi ham, yaratganning shafqati ham, Rasulning karami ham bo‘lmaydi.

«Zaydinoy» dostonidagi sermazmun didaktik nasihatlarining har biri garchi umumbashariy bo‘lsa-da, ijodkor xalqning milliy qadriyatlari, e‘tiqodi, qarashlaridan kelib chiqib aytilgan. Ularning ba‘zilari xalqona xulosalarga to‘la mos keladi. Masalan, “yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar”, degan maqol bejiz to‘qilmagan va xalq orasida aytilmagan. Insonga til berilgan, qudratli so‘z berilgan ekan, u so‘zning kuchini, dillarga ochqich bo‘lgan salomning qimmatini anglamog‘i shart. Yaxshi va yomon tushunchasi avvalo shu so‘zni insonning bilishidan ko‘zga tashlanadi. “Zaydinoy”da bu haqda shunday ibratli va xalqona xulosa mavjudki, bu chilton-homiylarning yosh Go‘ro‘g‘liga aytgan navbatida o‘giti sanaladi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,
Bemavrid ish qilib tortmagin alam.
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,
Kim bo‘lsa oldidan o‘tma besalom.

Xalq orasida va kundalik turmushda muqaddas tushunchaga aylangan, o‘zaro insoniy munosabatlarning, muomilaning, tanishishning asosi bo‘lgan salomlashish qoidalari yaratilgan. “Zaydinoy” dostonidagi bir o‘rinda odamning kimligi, aql-idroki, fikr tushunchasi, xarakter xususiyati salomda ayon bo‘lishi alohida ta‘kidlangan:

Salomning ham salmoqlisi bo‘ladi,

Kinoyali, ilmoqlisi bo'ladi.
Salomni bilganga kelmaydi ofat,
U Allohning bir belgisi bo'ladi.

Har bir inson bu yorug' dunyoda imkoniyati darajasiga ko'ra yashar ekan, ko'rgan bilganlarini, dardu quvonchlarini, bu cheksiz-chegarasiz olamdan olgan taassurotlarini kimgadir aytishni, dilidagini to'kib sochishni, sirlashishni istaydi. Bu dunyodagi siru sinoatlarni, ajoyib g'aroyibatlarni, ulardan tug'ilgan o'y-fikrlarni o'zga bilan baham ko'rish, mushkul ishlarni uddalash uchun yordamga ehtiyoj sezish hissi unga do'st, yelkadosh o'rtoq topishni taqozo qiladi. Ko'ngil-ko'ngilga mos keladigan sirdosh topish esa g'oyat mushkul. Do'stingman deyish, do'stlik haqida baland parvoz gaplarni istagancha aytish mumkin. Ammo do'stga sodiqlik, do'stlik udumlariga rioya qilish undan-da og'ir, har bir insondan katta ma'suliyatni talab qiladi. Xalqimiz do'stlikni shuning uchun ham e'zozlaydiki, u Allohning sifatlaridan biri ham. Demak, do'stni aldash, yaratgan egamni aldash, do'stga xiyonat qilish Ollohga xiyonat qilish bilan bab-barovor. Yigitning mardligi, mard yigitning kuch-qudrati do'stlarining ko'pligida, sirdosh va yelkadosh shu do'stlarga sidqidildan xizmat qilishida, ulardan bor narsani ayamaslikda, deb biladi ijodkor xalq. Shuning uchun ham "Zaydinoy"da yosh go'dak Go'ro'g'liga shunday nasihat-o'git berilgan:

Nor tuyalar nori bo'lsa toyama,
Oq narsani qora qilib bo'yama,
Mard yigitga mingta do'st ham kam bo'lar,
Do'stdan aslo bor narsangni ayama.

Bilamizki, nor tuya haqiqatdan kuchga to'lgan, chinakam nor bo'lsa, qanchalik ustiga og'ir yuk ortilgan bilan yo'lda toymaydi, egasini og'ir ahvolda qoldirmaydi. Safar chog'ida, nor tuyalar toymagani kabi haqiqiy va chinakam iymoni butun inson hech qachon va qanday vaziyatda bo'lishidan qat'iy nazar ezgulikni qabohat, sadoqatni xiyonat tarzida baholamaydi, ularni bir-biri hech qachon tenglashtirmaydi. Sobit turgan mard yigitning hayotdagi do'stlari ko'p bo'lgani holda, shu yelkadosh va sirdosh do'stlardan bor narsasini hech bir ayamasligi, o'rtalikda birgalikda baham ko'rishi, o'z saxovatidan chekinmasligi zarur. Nor tuya yukni ko'tarib, toymay, munkimay, qoqilmay yo'l tortgani, o'z egasiga sidqidildan xizmat qilgani kabi do'stning yaxshi-yomon fazilatlarini bilgan haqiqiy mard yigit do'stning boridan quvonib, yo'g'ida ko'maklashib yashasa iqboli baland bo'ladi, el orasida obro'si yanada kuchayadi: natijada hamma unga havas qiladi, elu xalq olqishini oladi, ayni paytda, bularni o'z farzandlar

QISASI RABG'UZIY" – O'ZBEK NASRINING ILK NAMUNASI MAVZUSIDAGI DARS ISHLANMASI Jabborova SHohida

*Buxoro viloyati Olot tumani XTB ga qarashli 4- umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

"Mavzu: "Qisasi Rabg'uziy" - o'zbek nasrining ilk yirik yodgorligi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga "Qisasi Rabg'uziy" asari haqida bilim berish. TK1 kommunikativ kompetensiyadan foydalanamiz.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda insoniylik fazilatlarini yanada rivojlantirish. TK4 milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni rostgo'ylikka, saxiylikka, mehnatsevarlikka, kamtarin bo'lishga o'rgatish, insoniylik fazilatlarini shakllantirish TK2 o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.

Dars shiori:

Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin.

Dars turi: noan'anaviy.

Dars usuli: "Musobaqa", "Aqliy hujum", "Suhbat", "Badiiy ko'rinish", "Teskari savol", "Test sinovi".

Dars jihozi: Tarqatma materiallar, baholovchi kartochkalar, yozuv taxtasi, rasmlar, slaydlar, testlar, ko'rgazmali qurollar, badiiy adabiyotlar, kompyuter.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism	5 daqiqa
II. Uy vazifasi	5 daqiqa
III. Yangi mavzu	10 daqiqa

IV. Mustahkamlash 15 daqiqa

V. Baholash 5 daqiqa

VI. Uyga vazifa 5 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, davomadni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

Dars rejasi:

1. Rabg'uziy hayoti va ijodini mustahkamlash.

2. "Qisasi Rabg'uziy" asari hikoyatlari mazmuni bilan tanishish.

3. Sahna ko'rinishi.

4. Test sinovi.

II. Uyga vazifani so'rash.

"Aqliy hujum", tezkor savol-javob, tarqatma materiallar asosida.

1. Rabg'uziy qayerda tavallud topgan?

2. Rabg'uziyning otasi qaysi kasb egasi bo'lgan?

3. Shoirning bizgacha yetib kelgan asari qaysi?

4. "Qisasi Rabg'uziy" asari kimning topshirig'i asosida yozilgan?

5. "... bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz yozug'lug', ko'p yozug'luqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin...", deyilgan qaydlar qaysi manbada yozilgan?

6. Nosiruddin To'qbug'abekka bag'ishlangan asar qaysi?

Ushbu savollar ayiqcha ko'rinishidagi niqoblar shaklidagi tarqatmalar ko'rinishida o'quvchilarga taqdim etiladi.



O'quvchilar baholanadi. Baholash mezonini uchun turli xil ko'rinishdagi antiseptik niqoblar ko'rinishidagi kartochkalardan foydalaniladi. 2020-yil juda esdaqolarli yil bo'ldi. Karona virus bizni hech ham qo'rqitmaydi. Biz, albatta, hammasini yengib o'tamiz!!! Buning uchun o'zimizni himoya qilishimiz niqobsiz yurmasligimiz kerak.

O'quvchilarni ikki jamoaga ajratib olamiz.

Birinci guruhga: ZANJABIL nomi beramiz. Zanjabil dorivor o'simlik bo'lib, undan asarda shinni hosil bo'ladi.

Ikkinchi guruhimizga esa SALSABIL nomini beramiz. Salsabil esa jannatdagi buloq nomi. Asarda undan sirka hosil bo'ladi va bu ikki narsa qaysiki uyda bo'lsa, u uyda farishta kam bo'lmaydi.

Yangi mavzu bayoni. Slayd asosida ham tushuntiriladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq haqqoniy tariximizni qayta tiklashga, ma'naviyatimizni yuksaltirishga, milliy san'atimizga, adabiyotimizga alohida urg'u berildi. Prezidentimiz I.A. Karimovning "Jahon madaniyati yutuqlariga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga oliyanob milliy va diniy an'analarga hurmat bilan qarash, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab etilganligi - mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining milliy ma'naviy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi" degan fikrlari ma'naviyatimizning mustahkam poydevori sanalgan mumtoz adabiy merosimizni chuqur tadqiq etish va unga yangicha yondashishni talab etmoqda. Bizning ushbu ishimiz XIII-XIV asrlar adabiyotining eng yirik vakili bo'lgan mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida e'tirof etiladigan adibimiz Nosiruddin Rabg'uziy va uning bebaho asari "Qissasi Rabg'uziy" (Qissasul-anbiyo) asari haqida bo'lib, uning asaridagi badiiy xususiyatlar talqini, Rabg'uziy qissalari mavzu doirasi, kompozitsiyasi haqida baholu qudrat ma'lumotlar berishga harakat qilganmiz. Asar badiiy nasrining ilk namunasi sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki asarda badiiy adabiyotimizdagi ko'plab elementlar ilk marotaba Rabg'uziyning yozuvchilik mahoratida nomoyon bo'lgan. NOSIRUDDIN RABG'UZIY QISSA VA HIKOYATLAR USTASI Rabg'uziy o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida mavqe qozongan adibdir. U Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy" asarining muqaddimasida otasi Burhoniddinning O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asar Nosiruddin To'qbug'aning

topshirig`i asosida yozilgan.1 Muallif uni "...yigitlar arig`i (poki) ulug` otlig`, qutlug` zotlig`, ezgu xulqlig`, islom yorug`lig`, mo`g`ul sonlig, ` musulmon dinlig`, odamiylar ishonchi, mo`minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak) aqli tengiz" deb ta`riflaydi. Nosuruddin To`qqbo`g`abekka bag`ishlangan sheri madhiyada uning "arslon mengizlik surasi" "ko`rkluk sifatlig` surasi" "tuz so`zlayur so`zni uqa" singari sifatleri keltirilgan. Rabg`uziyning ushbu asardan boshqa ijodiy merosi haqida ma`lumotlar mavjud emas. "Qissasi Rabg`uziy" asari turkiy xalqlar orasida tarqalgan. U payg`ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir. Bu asar o`zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XIII asr oxiri XIV asr boshlaridagi o`zbek adabiyotining bir qator o`ziga xos xususiyatlari juda yorqin nomoyon bo`lgan. Payg`ambarlar haqidagi Rabg`uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo`lgan. Ularda adib olamning yaratilishi, tabiat va jamiyat hodisalari insoniy munosabatlar borasida fikr yuritadi. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil qiladi. Ular o`z ildizlari bilan "Qur`on" va "hadis"larga tarixiy ma`nbalarga, xalq og`zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning hammasi birinchi

Rabg`uziy badiiy tafakkur mevalaridir. Mavzu doirasiga ko`ra asar qissalari juda rang barang, hilma xil va yorqin tasvirlarga ega. Olamdagi butun mavjudot egasi bo`lgan Ollohni ulug`lash payg`ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, Vatan, vatanparvarlik, erk va adolat, ota-ona farzand minosabatlari, sevgi-sadoqat, do`stlik va hamjihatlik urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir. Bular asardagi 72 bob qissalarda o`z ifodasini topgan. Bu qissalarning hajmi turlicha. Masalan "Qissasi Yusuf" salkam yuz sahifadan iborat bo`lsa "Lut" haqidagi qissa bir necha sahifadan iborat. Qissalarning ko`pi hayot va qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi. So`ng she`riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Ba`zi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlari ham bor, Masalan Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g`azal va boshqa janr namunalari uchraydi, ammo ular asarda olg`a surilgan asosiy g`oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Misol sifatida "Dovud haqida" gi qissa bilan tanishish mumkin. Qissa Dovudning ta`rifi bilan boshlanadi. So`ng she`riy tavsif beriladi. Undan keyin Dovud payg`ambar haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi. "Dovud Yalavoch (payg`ambar) bani Isroildan erdi. O`n qarindosh erdilar. Otalari Isho otlig` Dovud qomug`idan (barchasidan) kichik erdi. Tun-kun yig`layur erdi ibodat ichinda " Ko`rinib turganidek Rabg`uziy nasrda nihoyatda soda, lo`nda, tushunarli ta`sirchan ifodalarni topa olgan. Shuning uchun ham bu asar asrlar davomida qo`ldan tushmay o`qildi. Dovud bilan bog`liq hikoyalarda adib adolat va zulm, hunar egalari, ota-ona farzandlar munosabati singari muommolarga asosiy e`tiborni qaratgan. "Aytmishlar, Dovud yalavoch tunla o`zin belgusiz qilib raiyatlaridin so`rar erdikim, podshoh sizing birla netag muomala qilur? Aytur erdilar: yavloq "juda odil turur" Bir kecha andog` so`zlayurda Mavlo Taollo bir farishtani izdi (jo`natdi) bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so`radi: "Podshohingiz netag turur, o`ntasi (shunisi) bor, kishilar molin yeyur" Dovud duo qildi: Iyo (egamey), menga bir harf hunar o`rgatgil. Aning birla qazg`achiligi (Nasibamni) yeyayin. Xalq mani so`zlamasunlar Mavlo taolo bir taqachilik san`atin anta o`gratuv berdi. Aymishlar Temur Dovud ilkinda mumtek yumshar erdi. Netakkim xamir o`zgarlar ilkinda" Halollikka o`z mehnati bilan kun ko`rishga boshqalarga zulm qilmaslikka undash hikoyaning asosiy maqsadidir. O`zbek nasrida ilk marotaba diologlar, Rabg`uziy tomonidan keng qo`llangan Ana shu diologlar vositasida asosiy g`oyaviy maqsad yorqin va ta`sirchan ifodalangan. Rabg`uziy hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik insonni komillikka ko`tarish AXLOQIY poklik, ma`naviy barkamollik sari undash g`oyalari yetakchilik qiladi. Ular orasida til odobi qalb pokligi ham alohida o`rin tutadi. Bu jihatdan "Luqmon va uning xojasi" hikoyati ibratlidir. "Luqmong`a xojasi aydi:"Borg`il bir qo`y bo`gizlab etindin qayu yaxshiroq ersa menga kelturgil. Qo`yni bo`g`izladi, tili birla yurakni olib keldi. Xojasi so`radi-"bularni naluk (nima uchun) kelturding?" Aydi: "qo`yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo`qdur. Agar yovuzroq ersa tildin yurakdin yovuzroq yo`q." Tilga e`tibor berish, har bir aytiladigan so`z mas`uliyatini ta`kidlash, hikoyadagi g`oyaviy niyatdir. Bu yerda donolik hozirjavoblik ulug`langan. Hikoyalarda xalq og`zaki ijodining ta`siri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyaga ko`chib o`tgan. Suhbatning diolog asosida olib borilishi soddalik hozirjavoblik, donishmandlik topqirlik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa aniq lo`ndaligi, og`zaki ijoddan ta`sirlanish natijasidir. Rabg`uziy hikoyalarining asosini ko`pincha real hayotiy voqea hodisalar tashkil etadi. Ularni ifodalash uchun mifologik, afsonaviy -hayoliy yoki hayotiy mantiq taqozo etadigan bayon uslubi tanlab olinadi. Masalan, insonlarning mast holda yurishini umuman o`tkir ichimliklar ichishini qoralash maqsadi uchun "Uzum hikoyati" berilgan. Undagi asosiy qahramon Shaytondir. U to`g`ridan-to`g`ri Shaytoni mal`undir"-,deb ta`riflanadi. "Mal`un" - la`natlangan haydalgan demak. Ana shu uzumning urug`ini o`g`irlagan. Bu hol oshkora bo`lib qolgach, uni Nuh payg`ambar huzuriga olib kelishadi. Shayton aybini bo`yniga oladiyu, lekin urug`ni qaytarib berishdan oldin uni uch marta sug`orishga imkon so`raydi. Bu ish uchun rozilik oladi. Chog`ir ichkilikning paydo bo`lishini shu tarzda shayton nomi bilan bog`lanadi. Chog`ir ichgan odamning holati ham nihoyatda ta`sirchan o`xshatishlar

bilan tasvirlanadi. Buning uchun tulki yo`lbars, to`ng`iz obrazlaridan foydalangan. Hikoyada Nuh payg`ambarning ulug`ligini ko`rsatuvchi dalillar ham keltirgan. Xususan, shinni va sirkaning paydo bo`lishi bevosita ana shu payg`ambar faoliyati bilan bog`liq. Rabg`uziy hikoyalarida qadimiy mifologik tasavvurlarning ildizlari ham ko`zga tashlanadi. Ma`lumki, miflarda dunyoviy hodisalarning paydo bo`lishi, ularning ilohiyot bilan aloqasi o`ziga xos tarzda izoh va isbot etiladi. Bu jihatdan “Ilon va qarlug`och” hikoyati xarakterlidir. Unda mushuk bilan sichqon, ilon bilan baqa, ilon bilan qarlug`och hamda ari, inson, qushlar va boshqa hayvonot olami orasidagi o`ziga xos munosabatlar izohlanadi, badiiy tadqiq etiladi. Namrud haqidagi hikoyatda inson hayolotining imkonlari madh etiladi. Unda Namrudning osmon mamlakatiga chiqishi tasvirlangan. Hikoyada o`sha davr kishilarining osmon haqidagi tasvirlari ham ifodasini topgan. Ayni paytda hikoya mazmuni badiiy jihatdan to`la asoslangan va shuning uchun ham kishida zavq uyg`otadi. Shu bilan birga hikoyada shuhratparastlik takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan boshi aylanib qolgan Namrud hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi. Oqibatda u qattiq jazolanadi, o`g`ir dardga chalinib xor-zorlikda halok bo`ladi. Bu ibratli hikoya har qanday o`quvchiga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Rabg`uziy qissalari va hikoyalarida axloqiy- ta`limiy qarashlarni targ`ib qilish yetakchi o`rin tutadi. Deyarli har bir hikoyada shunday qarashlar aks etgan. Sulaymon – Dovud payg`ambarning o`n ikkinchi kenja o`g`li. U ham boshqa akalariday olim faqih oqil yigit edi. Dovudning podshohligi unga meros qoldi. Ammo otasiga o`xshab o`z hunarini hech qo`ymas edi. U tol novdalarini yig`ib savat to`qib sotardi. O`zbek adabiyotidagi payg`ambarlar tasvirida Dovud va Sulaymon nomi ko`p uchrab turadi. Ayniqsa, “Taxti Sulaymon” iborasi ko`p qo`llanadi. Rabg`uziyning yozishicha: “Taxti bir yig`och yer ichinda erdi. Ul taxtni oltun, kumush birla qilmish erdi. Sulaymonni chumolilar podshosi bilan suhbat hikoyasi katta ma`rifiy va axloqiy- ta`limiy ahamiyatga bog`liq hodisa hisoblanadi. Unda kishilik jamiyatiga xos bo`lgan ayrim illat va kamchiliklar ustida so`z boradi. Hikoyada Sulaymon katta mavqega ega bo`lgan manman, kibrli, manfaatdor hukmdor sifatida gavdalanadi. Aksincha, qarinchqa chumolilar podshosi dono, tadbirkor, xalq g`amini yeydigan hukmdor sifatida gavdalanadi. Chumolilar podshosi sifatida Sulaymonni izza qilish tasviri kishini qiziqishini uyg`otadi. Rabg`uziy shaxs kamoloti faqat shaxs jismoniy sifatlar bilan belgilanmasligini buning uchun aqliy ma`naviy belgilar mezon bo`lishini ta`kidlaydi. Nosiruddin Rabg`uziy mahoratli nosirgina emas nozikta`b shoir hamdir. “Qissasi Rabg`uziy” dagi qissa hikoyatlar orasida o`nlab she`rlar ham mavjud. Bahor vasviga bag`ishlangan birinchi o`zbek g`azali ham Rabg`uziy qalamiga mansub. U shunday boshlanadi. Kun hamalga kirdi ersa keldi olam Navro`zi, Kechdi bahman zamharir qish qolmadi qori, Quyosh hamal burjiga ko`chdi, demak, Navro`z keldi, qattiq sovuq keltirgan qish chekindi, uning qor va muzlari qolmadi. So`ng olamning go`zal bir manzara kasb etgani, atrofning go`zallashgani tavsiflanadi. Kun kelu ming ko`rki ortib tirulur o`lmish jahon, Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi. Tasvirda jonlantirish sifatlash va o`xshatishlar asosiy o`rin tutadi. Muhimi, ularda Rabg`uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko`rinadi. O`rlasa bulutlari gulchirar bog`-u bo`ston, Tol yig`ochlar yeng solushur o`ynayurtek qo`y qo`zi. Lola sag`roqin icharda sayrar usrub sanduvoch. Turna un tortib o`tarda sakrashur baqlan qo`zi. Ko`kda o`ynar qo`l solushur qug`u, qoz, qil, qarlug`och, Yerda yugrub juft olushur as, tiyin, kishi, qunduzi Tol yig`ochlar minbarinda to`tiqush majlis tutar, Qumri, bulbul, muqri bo`lib un tuzar tun kunduzi, Huri ayn ujmo`h ichinda yeng solib tahsin qilur Yoz uza mundog` g`azallar aymishdi nosir Rabg`uziy. O`zbek adabiyotidagi bu ilk g`azalda Rabg`uziy janrining barcha shakily-badiiy talablarini mukammal darajada ado etgan. Dastlabki bayt –matla`dan to oxirgi – maqta`gacha navro`z ta`rif-tavsifi vasf etiladi. Navro`zi buzi, yuzi, tuzi, qo`y-qo`zi, juzi, qunduzi, yulduzi, Rabg`uziy so`zlaridan tashkil topgan. Qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko`rsatuvchi omillardan biri bo`lgan. Maqta`da ilk bor taxallus ishlatilgan vazn ham o`ynoqi. G`azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko`p qo`llangan vazn ramal bahri tanlab olingan. Ko`rinib turibdiki, ramal vaznining rukni foilotun ohanglariga tayanadi. Bir baytda rukn sakkiz marta qo`llangani uchun musamman nomini oladi. Musamman arabcha so`z bo`lib sakkiz degan ma`noni bildiradi. Oxirgi rukn avvalgilaridan qisqaroq. Unda bir hijo kam. Uning ushbu shakli mahzuf deyiladi. Vaznning to`liq nomi ramali musammani mahzuf deyiladi. G`azalning barcha baytlari hozirgi shaklda o`zaro mantiqiy ip g`azal yaxlitligini ta`minlamoqda. Uning o`zagini Navro`z-ilk bahor tashkil etadi. Dastlabki bayt umumiy axborot berishga qaratilgan. Qishning o`rniga bahorning kelishi ko`rsatilgan. Bunda muallif munosabatining ochiq ifodalanishi e`tiborni tortadi. Bahorga nisbatan olam navro`zi ifodasi qo`llansa qishga nisbatan bahman (ayoz qahraton izg`irin) “zamharir” (qirovli qahraton qattiq sovuq) sifatlashlari tanlangan. Keyingi baytlar bahorning xususiy shakldagi tasvirini ko`zda tutadi. Dastlab, dunyoning yangidan chiroy ochgani (tirilur bu yer-yuzi) qalamga olinadi. Osmon va yer yuzidagi o`zgarishlar navbatdagi bayt qamroviga kiradi. Unda bulut va daraxtlarning o`ziga xos manzarasi ko`rsatilmog`da. Lola, bulbul, qo`zi, turna kabi so`zlar bahorning turli belgilarini

ko`rsatish vositasi bo`lgan. “Yer-osmon” zidligi asosida bahorning o`ziga xos tasvirini berish keyingi baytda ham davom etadi. Bahor osmonida qushlarning ko`payishi qug`u, oqqush kabi qushlarning ko`rsatilishi yerdagi harakatning jonlanishi (oq suvsar), tiyin (olmaxon) kish (qunduzning bir turi) singari hayvonlar vositasida tasvirlangan. Qadimgi turkiy tilda “yig`och” so`zi yog`och ma`nosidan tashqari asosan “daraxt” tushunchasini ifodalagan. Navbatdagi baytda tilga olingan “tol yig`ochlarining borinda” ifodasi (tollarning ya`ni shohlarida) xuddi shu ma`no ifodalaydi. Bu baytda bir qator qushlarning xonishi, sayrashi orqali bahor faslining tarovati yana bir bor ta`kidlanmoqda. Qissa va hikoyatlari haqida: qissa epik janrga mansub. Unda muayyan voqea hodisalarning izchil tasviri, ularda ishtirok etuvchilarning o`ziga xos xususiyatlarini aks ettirish yetakchilik qiladi. Qissalar hajmiga ko`ra emas balki tasvirlanayotgan voqea-hodisalar ko`lami ishtirokchilar sonida ham ko`rinadi. Rabg`uziy qissalarida qahramonlar voqea-hodisalar rivoji davomida o`zligini o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatib borishadi. Qissalarda bir necha sujet yo`nalishlari bo`lishi mumkin. Asar qurilmasi ham sujetning shu xususiyatiga bog`liq bo`ladi. Asar sujetiga asos bo`lgan voqealar ko`p jihatdan “Qur`on”ga tayanadi. Rabg`uziy ularni o`z dunyoqarashi hamda tajribasi asosida qayta ishlangan, o`z badiiy tafakkuri bilan boyitgan. Qissalar asosan nasrda bitilgan ammo ko`p o`rinlarda she`riy parchalar ham uchraydi. Asar hammasi bo`lib 72 qissadan iborat. Ularning asosiy payg`ambarlar (Nuh, Iso, Yoqub, Sulaymon, Dovud, Muhammad va boshqalar) to`g`risidadir. Goho bir qissa ichida uning mazmunini to`ldiruvchi boshqa qissa, rivoyat, hikoyatlar keltiriladi. Qissalar bayonida xalq og`zaki ijodining bevosita ta`siri yaqqol ko`rinadi. Ayniqsa Sulaymon payg`ambar, Luqmoni Hakim, Dovud payg`ambarlar bilan bog`liq qissalarda ana shu ruh kuchlilik qiladi. Tasvirda mubolag`a, hayolot fantastikaga keng o`rin berilgani sehrli hodisalar tavsifi bayonda ertakona ohang bevosita og`zaki ijod tasirida yuzaga kelgan. Qissalar tarkibida hikoyatlar ham uchraydi. Ular qissalardagi muayyan voqea hodisalar alohida qahramonlarga xos fazilatlarini izohlash vazifasini bajaradi. Bu hikoyatlar ham nasrda ham nazmda bitilgan bo`lib juda ixchamligi bilan ajralib turadi. Shunga ko`ra ularning sujeti ham anchayin sodda hikoyat uchun faqat bir epizod tanlab olinadi; Voqealarning bundan oldingi yoki keyingi rivojiga ahamiyat berilmaydi. Ko`ramizki, hikoyatlarda qahramonlarning muayyan xususiyati ko`proq ular amalga oshirgan ish faoliyat orqali aks ettiriladi. Bunda asosan ta`rif tavsif usuli yetakchilik qiladi. Ularda hikoyachilikning keyingi davrda ko`zga tashlanadigan batafsil tasviri kurtak holidagina uchraydi. “Uzum hikoyati” “Ilon va qarlug`och” hikoyatlari uchun diologlar ham xos. Har ikki hikoyatda ham diologlar bor. Ammo u keyingisida u asosiy o`rin tutadi. Diologlarning mavqeyi jihatidan “Sulaymon qarinchqa bilan so`zlashgani” hikoyati muhimdir, chunki u to`lig`icha ikki tomonning so`zlashuvi savol-javoblarga tayanadi. Albatta, ularda muallif izohi yoki bayoni ham mavjud. Muallif bayoni hikoyatlarda turli darajada nomoyon bo`ladi. U “Sulaymon qarinchqa bilan so`zlashganda ozroq o`rin tutsa, boshqa hikoyatlarda ancha kattaroq, “Namrud hikoyati”da esa asosiy o`rinni egallaydi. Hikoyatlarda ham og`zaki ijodning kuchli ta`siri seziladi. Ularda katta latifa janriga xos tasvir usullari ham ko`zga tashlanadi. Umuman “Qissasi Rabg`uziy” o`zbek badiiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o`ziga xos o`ringa ega. Yodgorlikning insonlarni o`zaro to`g`ri munosabatda bo`lishga, bir-birlariga nisbatan jabra-zulm qilmaslikka, nohaq qon to`kmaslikka, harom-harish ishlarga berilmaslikka, sharm-hayoni yo`qotmaslikka undovchi o`gitlari bugungi kunda ham o`z mohiyatini yo`qotgani yo`q:”...Ma`siyatdin yig`iling, xalq orasida ko`ni hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to`kmang, xiyonat qilmang” Tarixiy muhit, diniy tafovutlar xalqlar va millatlar orasida nizo solgan, bema`ni urush va ixtiloflarni vujudga keltirgan bir sharoitda turli el va yurtlarni inoq va hamjihat bo`lib yashashga va ijod qilishga chorlaydi.

Uzum hikoyasi

Yilon va qarlug`och hikoyati

Sulaymonning qarinchg`a bilan so`zlashgani

Bu hikoyani o`quvchilar sahna ko`rinishi asosida rollarga kirib maxsus kiyimlar kiygan hoda bajaradilar.

Bitta o`quvchi boshlovchi, biri chumoli va biri Sulaymon payg`ambar bo`ladi.

Boshlovchi: Bir kuni Sulaymon taxt uzasida lashkar bila havoda borur erdilar.

Qarinchg`a: Maning amr –u toleimdagi qarinchg`aki, bordursan, qochgil, yerning tagiga kir, nobud bo`lursan, charoki, Hazrat Sulaymonning lashkarlari o`tadur. Poymol bo`lmagil.

Boshlovchi: Sulaymon bu ovozni eshitib, havodin yerga tushdilar. Ersu bir oq qarinchg`a kelib salom qildi...

Sulaymon: Oting nima?

Qarinchg`a: Otim Manzara.

Sulaymon: Qarinchg`alarni na uchun qochirding?

Qarinchg'a: Siz hammaga podshohdursiz, man ham o'z jismimga podshohdurman. Manga 40 tabaqa yer berilubdur. Har tabaqada 40 ming furqa, har furqada 40 ming muakkirlari bordur. Hammasining podshohi mandurman. Sizning lashkaringiz orasida poymol bo'lsa, uboli manga bo'lur.

Sulaymon:Hammasini qochirib, o'zing na uchun qochmading?

Manzara:Man alarning kattasidurman. Ulug'lar raiyasiga base mehribon bo'lur. Balog'a ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidur.

Sulaymon: Mundog' nasihatni qaydin ta'lim olding?

Manzara: Hamma ilm o'zimdadur deb xayol qilurmisiz? Bizga ham sizga berilgan buyurg'on ilmdan buyurubdurlar. Agar ruxsat bo'lsa, sizdin bir necha masala so'rasam.

Sulaymon: Har na savoling bo'lsa so'rag'il.

Manzara aytdi: Haq taolodan nima talab qildingiz?

Sulaymon: Bir mulk tiladimki andog' mulk hech kimga berilmish yo'q.

Manzara: Baxil ekansiz. Ma'lum bo'ldiki, mandin o'zga also podshoh bo'lmasin debsiz. Agar yuz hissa sizning davlatingizni ming kishiga bersa ham, Xudo taoloning xazinasi kam bo'lmas. Shuncha tilaganingizga nima berdi?

Sulaymon: Shamolni musaxxar qilib berdi. Muncha hashamat va saltanat lashkarlarimni taxt-baxtlarim birla ko'tarib yurur.

Qarinchg'a: Aning bahosi olam yeldek o'tar . Ani minguncha ma'rifat maktabini minganingizda erdi, ko'z ochib yumguncha arshi a'loga borur edingiz.Andin yana nima berdi.

Sulaymon: Bu uzukni berdi. Hamma olamning bandi shu uzukdadur.

Qarinchg'a: Mag'ribdan Mashriqqacha tamom olamni musaxxar qilib berubdur.Aning bahosi o'zining nazdida bir parcha tosh ekan, bas, andog' bo'lsa, anga tamanno qilgudek ish emas.

Sulaymon: Muncha aql donishni qaydin bilding?

Manzara hamma narsani bildirguchi Haqdur.

Sulaymon: Mundin o'zga nima bilursan?

Manzara: Qorong'u kechalarda sizga mute bo'lg'on xalqning holidan xabardormusiz?

Sulaymon: Yo'q.

Manzara: Man bu zaif holim birla har kecha uxlamay, hamma lashkarlarimning atrofini aylanib, agar ag'rig'I bo'lsa, borib ko'rub sihatligiga muhojot qilurman...

Sulaymon: Ilohi, man o'zumni dono bilub yurur erdim. Maning bilganim bu qarinchg'aning oldida hech nimarsa ekan.

«Teskari savol» metodi bilan hikoyatlar mustahkamlab olinadi. Buning uchun o'quvchilarga hikoyatlar qahramonlari bo'lgan: ari, ilon, qaldirg'och, uzum, chumoli, sher, tulki, sichqon va boshqalarning kompyuterdan chiqarilgan rasmlari beriladi. Bu rasmlar savol emas, aksincha, javobdi. O'quvchining o'zi shu rasmga mos hikoyatlardan kelib chiqqan holda savollar tuzishi kerak va tuzgan savolining javobi o'sha qo'liga berilgan rasm bo'lishi kerak.

Masalan, bir o'quvchiga qaldirg'ochning rasmini bersak, u "Inson bilan bir tom ostida yashaydigan qush qaysi?", yoki "Arining tilini nima tishlab uzib oladi?" shunga o'xshagan savollar tuzishi mumkin.

Test sinovi. O'quvchilarning har biriga alohida test savoli va bo'yash uchun maxsus aylanalar tushirilgan javob varaqalari tarqatiladi. O'quvchilar qaysi javob to'g'ri ekanligini o'sha javob ostidagi doirachaning ichini ruchka yordamida bo'yagan holatda belgilaydi.

Bu usul 11 –sinf o'quvchilarni davlat imtihonlariga tayyor bo'lishlariga yordam beradi.

1."Uzum" hikoyatida Nuh alayhissalom uzum urug'ini necha marta sug'oradilar? A) 1 B) 2 C)3 D)4

2.Behishti zanjabildan nima hosil bo'ladi?

A)Sirka B) May C)Shinni D)Xushbo'y ichimlik

3."Yilon va qaldirg'och" hikoyatida kemada nimalar yo'q edi?

A)Mushuk, sichqon, tulki B)Qo'ng'iz, tulki, ayiq

C)Qo'ng'iz, mushuk, bo'ri D) Mushuk, sichqon,qo'ng'iz

4.Nuh alayhissalom dunyoda nimaning go'shti shirinligini topib kelishni kimga yoki nimaga buyuradilar?

A)Qaldirg'ochga B)Oruga C)Ilonga D)Tulkiga

5."Qisasi Rabg'uziy" asarida Manzara nimaning nomi?

A)Qo'ngizning B)Sherning C)Tulki ning D)Qarinchg'aning

6.Sulaymon payg'ambarga Olloh taolo hamma olamning bandi shunda deb nimani beradi? A)Sirg'a B)Taxt C)Saltanat D)Uzuk

7. Nuh alayhissalom yilonga nimani yeshishni buyuribdilar?
 A) Baqani B) Toshbaqani C) Qaldirg'ochni D) Insonni
8. "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi qaysi hikoya savol-javob tariqasida yozilgan? A) "Uzum" B) "Yilon va qarlug'och" C) "Sulaymonning qarinchg'a bilan so'zlashgani" D) "Luqmon va uning hojasi"
9. "Uzum" hikoyatida shayton uzum urug'uni necha marta sug'oradi?
 A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
10. Jannatdagi buloq nomini anglatuvchi so'z qaysi?
 A) Zanjabil B) Salsabil C) Behisht D) Sarsar
- Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.
 Uyga vazifa. "Qisasi Rabg'uziy" asari hikoyatlarini o'qib kelish.

O'QUVCHI-YOSSLARDA "OMMAVIY MADANIYAT"GA QARSHI KURASHISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Yuldasheva Fazilat Shamilovna

Tashkent shaxar Sergeli tuman 237-maktab O'qituvchisi

Jamiyat a'zolari fan-texnika yutuqlari ko'paygan sari yengil-elpi narsalarga ko'proq bog'lanib qolmoqdalar. Buning natijasida yoshlar voqea-hodisalarga yuzaki munosabatda bo'lmoqdalar. Bugungi kunga kelib, jamiyat a'zolariga taqdim etilayotgan kundalik axborotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda.

Axborotlar oqimining jadallashuvi kishilarni og'ir mehnatdan bezdirmoqda. Inson miyasi miqyosi jihatdan nihoyatda keng va ko'p bo'lgan axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirishda hamma vaqt ham ulgurmaydi. Inson axborotlarni tahlil qilishi, unga ob'ektiv munosabat bildirishi uchun kitobxon bo'lishi, mutolaa madaniyatini egallashi, o'zining siyosiy-ijtimoiy dunyoqarashini rivojlantirishi lozim. Shundagina u turli aqidalarga qarshi kurasha oladi, axborotlarni saralagan holda o'zlashtiradi, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash tajribasini egallaydi. O'quvchilar "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmasini egallashlari uchun, dastlab, bilimlarni puxta o'zlashtirishlari, muayyan ijtimoiy tajribaga ega bo'lishlari, ajdodlarimiz merosini qunt bilan o'rganishlari kerak. "Ommaviy madaniyat" yoshlarda didsizlik, mas'uliyatsizlik, sovuqqonlik, boqimandalik, fikrlash sohasida beqarorlikni vujudga keltirmoqda. "Ko'ngilochar industriya" mahsulotlari, sayoz, hajviy, tizimlashmagan, intim voqeliklar, suratlar, turli qotilliklar, mashhur shaxslarning ishqiy mojarolarini aks ettiruvchi "sariq matbuot"ning mahsulotlari yoshlar orasida "ommaviy madaniyat"ning keng yoyilishiga ko'maklashmoqda. Pedagoglar, ota-onalar bunday holatni salbiy oqibatlarini chuqur anglab, har tomonlama tahlil qilgan holda "ommaviy madaniyat"ning o'quvchi-yoshlar ongini zabt etish imkoniyatlarini yo'qotishga bartaraf etishga harakat qilishlari zarur. Bunda ajdodlarimiz merosidan asosiy tarbiyaviy vosita sifatida foydalanishlari o'sib kelayotgan har bir yoshning o'zligini anglashga ko'maklashadigan qadriyatlarni ular ongi va qalbiga singdirishlari ayni muddao hisoblanadi.

"Ommaviy madaniyat" o'zining mohiyatiga ko'ra, milliy madaniyatlar taraqqiyotiga ziyon yetkazib, madaniy rang-baranglikni ta'minlash imkonini bermaydi. Uning asl maqsadi – milliy madaniyatga putur yetkazib, bu sohada bir xillikka erishishdan iborat. "Ommaviy madaniyat" jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlarni axloqsizlikka undashga xizmat qiladi. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy madaniyati va diniy qadriyatlari o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra uzoq asrlar davomida shakllangan qimmatli qadriyatlar majmui hisoblanadi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar jamiyat a'zolari orasida hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro do'stlik, tolerantlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy madaniyatni o'zlashtirmagan yoshlar ruhiyatiga turli yot kuchlarning safsatabozlikdan iborat g'oyalari tez singadi. Ajdodlarimiz asrlar davomida o'zbek xalqi milliy madaniyatida sharm-hayo, andisha, ibo, o'zaro hamjihatlik, birdamlik kabi axloqiy fazilatlarini ustuvor bo'lishiga erishganlar. "Ommaviy madaniyat" esa aynan millatimizga yot bo'lgan xatti-harakatlarni targ'ib qilishga qaratilgan. U hayo, andisha, oqibat, mehr-muhabbat, hamjihatlik kabi go'zal axloqiy qadriyatlarimizga qarshi bo'lgan axloqsizlik va yovuzlikni o'zida aks ettirgan g'ayriinsoniy harakat sifatida baholanadi.

"Ommaviy madaniyat" ta'sirida bugungi kunda ayrim yoshlar, hatto, o'smir yoshdagi o'quvchilar ham milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimizga zid tarzda yarim yalong'och kiyinishlari, quchoqlashib, o'pishgan holda salomlashishlari tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Ularning aksariyati "Muqaddas Valentin" kuni kabi tarbiyaviy jarayonlarga ziyon yetkazadigan tadbirlarda ishtirok etmoqdalar. Bu "ommaviy madaniyat"ning yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligidan dalolat beradi.

Pedagoglar ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar uchun yot bo'lgan bunday illatlarga qarshi kurashishda ajdodlarimiz merosidan samarali foydalanishlari kerak. "Ommaviy madaniyat" ta'sirida yoshlar orasida keng tarqalayotgan salbiy illatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: axloqiy hayosizlik – jamoat joylari, hiyobonlar, maktab, kollej va litseylar hududida o'pishish; inson hirsini uyg'otadigan shahvoniy film va suratlar tomosha qilish; ijtimoiy saytlarda zo'rvonlik va zo'rvonlikni targ'ib qiluvchi filmlar va kompyuter o'yinlariga odatlanib qolish; yoshlarda xudbinlik kayfiyatining rivojlanishi; manfaatparastlik, o'z manfaati yo'lida hech kim bilan hisoblashmaslik, hattoki, ota-onalarining fikrlari bilan ham kelishmaslik kayfiyatining shakllanishi; o'z nafsi yo'lida hech narsadan qaytmaslik; hayosizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, shahvatparastlikka mukkasidan ketish kabilar.

Ko'rinib turibdiki, "ommaviy madaniyat" o'quvchi-yoshlarning madaniy ongini to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni xudbin, manfaatparast bo'lib shakllanishlariga asos bo'ladi. Ularning shiori "Biz erkinmiz, o'z bilganimizcha yashaymiz, bu bizning hayotimiz", "Biz mustaqilmiz, ko'nglimiz tusagan ishni qilamiz, hattoki ota-onamiz ham biz uchun qaror qabul qila olmaydi" kabilardan iborat. "Ommaviy madaniyat" o'quvchi-yoshlarni diniy e'tiqod, milliy qadriyatlar va madaniy dunyoqarashdan chalg'itadi.

Natijada ularda jamiyat hayoti uchun mas'ullik hissi shakllanadi. Ular farzandlik burchlarini unutib, ota-onalariga begona bo'lib qoladilar. "Ommaviy madaniyat" o'spirinlik davrida inson hayotini buzib yuborish omiliga aylanmoqda. Yoshlarning shakllanishi va ma'naviy kamoloti barcha davrlarda ham dolzarb masala hisoblangan.

OLIY HAMSHIRALIK ISHI YO'NALISHI TALABALARIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Xolmuminova S.A.

304-gurux Oliy xamshiralik ishi fakulteti

Ilmiy raxbar: Mirzayeva S.R

ToshPTI, Pedagogika va psixologiya kafedrası

Mavzuning dolzarbligi: Xozirgi kunda tibbiyot oliygoxlarida oliy xamshiralik ishi yo'nalishini bitirgan bakalavriyat talabalari o'z ish faoliyatlarini tibbiyot kasb-hunar kollejlarda pedagog sifatida davom ettirishlari mumkin. Bu pedagogik faoliyatda esa pedagogik qobiliyatlarning o'rni katta. Chunki pedagogga qo'yiladigan asosiy talab bu unda pedagogik qobiliyatlarning mavjud bo'lishidir

Tadqiqot maqsadi: Oliy xamshiralik ishi yo'nalishi talabalarida pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish va buni amalga tadbqiq etish

Tadqiqot vazifalari: Pedagogik qobiliyat turlarini, ularni o'ziga xosligini o'rganish va shakllantirish

Tadqiqot ob'ekti va usullari: Tadqiqot Toshkent Pediatriya Tibbiyot Institutida oliy xamshiralik ishi yo'nalishida taxsil olib kelayotgan 3- kurs talabalari orasida o'tkazildi. Tadqiqot so'rovnoma usulida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda jami 10 nafar talaba katnashdi.

Natija: Pedagogik qobiliyat turlari: Didaktik qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, suggestiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, akademik qobiliyat, persektiv qobiliyat, nutq qobiliyati, gnostik qobiliyatlar buyicha o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra quyidagi natijalar olindi: Didaktik qobiliyat 20%, tashkilotchilik qobiliyati 10%, suggestiv qobiliyat 35%, kommunikativ qobiliyat 5%, akademik qobiliyat 10%, persektiv qobiliyat 5%, nutq qobiliyati 10%, gnostik qobiliyat 5%

Xulosa: Pedagogik qobiliyat turlari buyicha o'tkazilgan tadqiqotda eng yuqori %ni suggestiv qobiliyat tashkil etdi. Suggestiv qobiliyatli pedagog talabalarga ruxiy va emotsional irodaviy tasir ko'rsatishi, ularni o'z imkoniyatlariga ishonтира olishi bilan ajralib turadi. Pedagogik faoliyatda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish ta'lim sifatini oshiradi ta'lim berish va ta'lim olish jarayonini mustaxkamlaydi

XORIJIY TILNI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Raximova Nigora Nimadjonovna

TDAU. Tillar kafedrası o'qituvchisi

Bugungi kunda jamiyatimizning yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan talabini qondirish muammosi mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanib, har tomonlama etuk

mutaxassis va xorijiy tillarni mukammal biladigan kadrlarni tayyorlashni davr taqozo etmoqda. Ilgari xorijiy tilni o'qitish shu til tizimini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi ko'zlangan muhim narsa bu talabalarni xorijiy nutqini o'stirishdan iborat. Tabiiyki, xorijiy tillarni o'rganishdagi maqsadlar, o'z-o'zidan yoki biror kimsalar tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanidagi o'zgarishlar va jamiyatning rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, audiolingvual metodni olib ko'raylik.

Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar ta'siri bo'ldi, ya'ni:

Xorijiy tilni o'rgatish avval og'zaki nutqni o'rgatishdan boshlanadi.

Til o'rganish turli strukturalar, nutq na'munalari asosida amalga oshiriladi.

Mashqlar ham shunga asoslangan holda til materialini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi kerakligi taqozo etiladi.

Mashqlar va leksikani tanlash xorij tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog'liq bo'lishi kerak.

Talaffuzga katta e'tibor berilishi lozim.

Ammo bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko'pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir. Bu metod asoschilari amerikalik metodist olimlar C.H.Friz va R.Ladodir. Ularning fikricha, talabalar avval og'zaki nutqda ishlatiluvchi strukturalarning yig'indisini o'rganishi va eslab qolishlari kerak.

Keyinchalik shu strukturalar asosida yangi-yangi gaplar tuzishi zarur. Bular rejalashtirilgan mashg'ulotlarga mo'ljallangan mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

So'ngi yillarda xorijiy tillarni o'qitishni intensivlashtirish masalasi bo'yicha bizning mamlakatimizda va chet ellarda ancha ishlar qilindi va qilinmokda.

Bular yangi intensiv metodlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Xo'sh, intensiv metodni kanday tushunish mumkin? Intensiv o'qitishning ma'nosi bu qisqa vaqt ichida yoshlarimizni o'rganayotgan xorij tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya'ni gapirishga o'rgatish. Bu o'quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga, rezerviga tayangan holda amalga oshiriladi. Taniqli metodist E.I.Passovning aytishicha, hozirgi vaqtdagi xorijiy tilni o'qitishda amalda qo'llanilayotgan kommunikativ yondashish shu intensiv o'qitishning bir ko'rinishidir.

Intensiv metod bilan o'qitishning quyidagi ikki harakterli xususiyatini ko'rsatish mumkin:

Juda bir qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv materialini asosida xorijiy nutq faoliyatini amalga oshirish.

Shaxsning barcha psixologik rezervlaridan maksimal darajada foydalanish, ya'ni talabalarning faolligini oshirish.

Intensiv o'qitish metodi dastlab XX asrning boshlarida "to'g'ri" metod asosida shakllandi. Tilshunos N.I.Geiz aytishicha, "ushbu metod xorijiy intensiv o'qitishga o'tishga qulay imkoniyat, asos yaratib berdi". Chunki bu metodning ba'zi bir prinsipial tomonlari mavjud, chunonchi, og'zaki nutqqa bo'lgan qiziqish, ayniqsa, dialog ko'rinishdagi nutqqa; situatsiyalar tanlash; talabalarning darsdagi faolligini oshirish.

Hozirgi zamonaviy intensiv metodlarning u yoki bunisiga asos qilib olingan yangi metod o'zidan oldin o'tgan metodning yaxshi tomonlarini saqlab qoladi. So'ngi yillarda audiolingvual, audiovizual, gipnopediya, relaksopediya, suggestopediya, ritmopediya kabi yangi bir yo'nalishni bildiruvchi so'zlar tez-tez metodik adabiyotlarda uchray turadigan bo'lib qoldi. Aytish joizki, olingan metodlardan audiolingual va audiovizual metodlar intensiv o'qitish amaliyotida qo'llana olmaydi. Bunga ularning prinsipial tomoni, ya'ni ona tilini ishlatishga suyanmaslik, til imitatsiyasi, ya'ni taqlid qilish orqali o'rganish, yod olish va ijodiy mashqlarning yo'qligi halaqit beradi.

Keyingi yillarda shaxsni ob'ekt sifatida o'rganish va uni barcha ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda pedagogika, psixologiya, sotsial psixologiya, tibbiyot fanlaridagi izlanishlarni birlashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtdagi muhim masala – yoshlarimizni yangicha fikrlashga, ijodiy fikrlashga va ularni hayotga tayyorlashga jiddiy e'tibor berishga qaratilgan. Bu esa shaxsni har tomonlama o'rganishga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Shunday qilib, bugungi yoshlarimiz o'quv jarayonining markaziy, asosiy figurasiga aylanib qoldi.

Shu bois, bolg'ar olimi psixoterapevt, tibbiyot fanlari doktori G.Lozanov insonni ichki rezerv imkoniyatlarini o'rganishni kun tartibiga olib chiqib, 3 muhim faktorni o'rganishga kirishdi:

Xotiraning rezervlarini ochish.

O'quvchi shaxsini intellektual faolligini o'rganish.

Ijobiy emotsiya (charchash hissini yo'qotish), bunda pedagogning roli, avtoriteti, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabat, o'zaro ishonch, yuqori darajadagi motivatsiya, shaxsning ichki rezerv imkoniyatlarini ochish.

Shunisi qiziqarliki, ushbu metodni taklif qilgan bolgar olimi G.Lozanov o'z oldiga xorijiy tillarni o'qitish metodikasini ishlab chiqishni vazifa qilib qo'ygani yo'q.

Ammo oxirgi yillarda bir qator pedagoglar G.Lozanov metodikasini xorijiy tillarni o'rganishda qo'llashga harakat qilib ko'rishdi va qoniqarli natijalar olishga muyassar bo'lishdi.

Tabiiyki, o'zlashtirishning bunday samaradorligini tashkil etishda, ya'ni bilim berish jarayonida pedagog ijodkor va izlanuvchan bo'lsa, uning bilim darajasi va usullari ham baland bo'ladi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ta'lim berishda har bir pedagogning o'z o'qitish va o'rgatish falsafasi bo'ladi.

Adabiyotlar

Mamatov A.E. Nutq madaniyati va til normasiga oid terminlar va tushunchalar izohi. – T.: Bayoz, 2014.

Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006.

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА: ТЕХНОЛОГИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Мамедова Наргиза Зираддиновна

*ТашГАУ кафедра Узбекского языка и литературы, старший преподаватель
русского языка*

Современной дидактике во многих методических работах встречается термин педагогическая технология. В практике встречаются такие термины, как педагогические технологии, технологии образования, новые педагогические инновационные учебные технологии. Однако понятие «технология» еще уточняется, термин употребляется в достаточно широком контексте. Чаше образовательную технологию определяют как совокупность определенных форм и методов, обеспечивающую создание учениками образовательной продукции (А.В.Хуторской). В основе определения образовательных технологий лежат те цели, которые должны быть достигнуты (образовательный результат), способ взаимосвязанной деятельности учителя и ученика и их роль в образовательном процессе. Главное направление личностно-ориентированных технологий образования в педагогике – формирование и развитие интеллектуальных и речевых умений учащихся, их нравственное развитие, формирование критического и творческого мышления как приоритетных направлений интеллектуального развития человека. Современные личностно-ориентированные образовательные технологии учитывают возрастные, индивидуально-психологические особенности учащихся, ориентируются на ученика как на субъект образовательного процесса, который совместно с учителем может определять учебную цель, планировать, подготавливать и осуществлять образовательный процесс, анализировать достигнутые результаты. В соответствии с таким подходом роль учителя в образовательном процессе можно охарактеризовать так: учитель создает условия для формирования личности ученика в учебном процессе, вовлекает каждого учащегося в активную познавательную деятельность, организует учебные ситуации, в которых ученик может пробовать свои силы для решения возникающих учебных проблем, помогает их решать совместными усилиями, планирует совместную работу в сотрудничестве при решении разнообразных учебных задач, знакомит с путями получения необходимой информации с целью формирования собственного аргументированного мнения по той или иной проблеме, возможности ее всестороннего исследования.

Очевидно, что разработка личностно-ориентированных технологий – это поиски путей получения гарантированного качественного образовательного результата. В современной дидактике созданы теоретические предпосылки в развитии этой идеи, определены структурные компоненты образовательной технологии. Как правило, в структуре технологии обучения выделяются такие компоненты: диагностика уровня усвоения учебного материала; мотивация и организация учебной деятельности учащихся; действие средств обучения; контроль качества усвоения материала. Возникает вопрос, чем же отличаются эти современные технологии от традиционных способов обучения и как они соотносятся с ними? В основном методисты, учитывая проблемы практики

преподавания русского языка, шли в направлении внедрения современных методов форм обучения в традиционную структуру урока. Одной из наиболее эффективных технологий обучения русскому языку можно считать технологию уровневой дифференциации. Проблема использования дифференциации в обучении является актуальной, поскольку направлена на создание оптимальных условий для индивидуального подхода в развитии личности.

Дифференцированное (от лат. *differentia* – разница) обучение в истории педагогики известно давно. Еще Я.А.Коменский стремился найти такой общий порядок обучения, при котором оно осуществлялось бы по единым законам человеческой природы. Тогда обучение не потребовало бы ничего, кроме «искусного распределения времени, предметов и методов». В идеале, при едином совершенном методе обучения, полагал Коменский, «все пойдет вперед не менее ясно, чем идут часы с правильно уравновешенными тяжестями, так же приятно и радостно, как приятно и радостно смотрит на такого рода автомат, и, наконец, с такой верностью, какую только можно достигнуть в подобном искусном инструменте».

По характерным индивидуально-психологическим особенностям детей, составляющим основу формирования гомогенных групп, различают следующие способы дифференциации: по возрастному составу (школьные классы, возрастные параллели, разновозрастные группы); по полу (мужские, женские, смешанные классы, команды); по области интересов (гуманитарные, физико-математические, биолого-химические и другие группы, направления, отделения, школы).

BADIIY ADABIYOTDA ZAMONAVIY QAHRAMON MASALALARI

Mamasoliyeva Nilufar Suyundikovna

Tosh DAU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida qadimgi ajdodlarimiz bo'lgan buyuk allomalar ko'p hikmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Mustaqillik o'zbek adabiyoti shakllanishida davom etmoqda. Lekin adiblarimiz hali ko'proq izlanish yo'lida ijod qilmoqda, hali badiiy adabiyotda zamon qahramoni kim va qanday bo'lishi haqidagi fikr to'la pishib yetilmadi. Lekin bu sohada mustaqillik davrida bo'lganidek aniq bir tavsiya, ko'rsatma, qolip berib bo'lmaydi, ijodkorga unday yozasan, bunday yozasan degan fikrni bildirish noto'g'ri bo'lar edi. Negaki ijodkor o'z qalbiga quloq solib asar yaratadi. Shunday bo'lsada, ushbu maqolada o'zimizning zamonaviy qahramonimizni yaratish sohasidagi ba'zi fikrlarimizni bildirishni lozim deb topdik. Ma'lumki, o'zbek adabiyoti bolalar va kattalar adabiyoti singari turlarga shartli ravishda taqsimlanadi. Hozirga paytda, ayniqsa, bolalar adabiyotida zamonaviy qahramon qiyofasini yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Albatta, yaqin o'tmishda maktabda yaxshi o'qiydigan, o'qituvchilar topshirig'ini so'zsiz bajaradigan, kattalar o'gitiga amal qiladigan “yaxshi bola” zamon qahramoni bo'lib keldi.

Bularning barchasini inkor etmagan holda zamonaviy bola obraziga ma'lum darajada mustaqil fikrlay oladigan, san'at va adabiyotga ixlos qiladigan, o'zining fikr doirasida mustaqillik mafkurasini tushuna oladigan, boy ma'naviyat sari intilayotgan, xorijparastlikni inkor eta oladigan, zamon talabi asosida bir necha tillarni bilishga va eng yangi texnikalarni egallashga qiziqayotgan bolalar obrazini yaratish hozirgi bolalar adabiyotining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda. Yangi adabiyotimizdagi zamonaviy qahramon bolalar obrazi har qanday tazyik, qoliplardan holi ravishda erkin talqin etilishi lozim. Buning uchun maktab va kollejlarda tahsil olayotgan va zamonaviy adabiyot qahramoni bo'la olish darajasidagi o'quvchi yoshlarning hayoti, psixologiyasi, tumush tarzi, intilishlari, qiziqish va o'ylari, iqtidori kabilarni chuqur o'rganish, “yaxshilar” va “tarbiyasizlar” o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni haqqoniy yoritish talab qilinadi. Ayniqsa, shahar va qishloqlarda yashayotgan iqtidorli o'smir va qizlarning intilishlari, ularning qiziqishlari badiiy aks ettirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yangi qahramonni yaratishda milliy mentalitetimiz, an'analarimizga, odob-axloqqa e'tibor qaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim olayotgan yoki xalq xo'jaligining turli sohalarida xizmat qilayotgan yoshlar ham yangi adabiyotimizning zamonaviy qahramoni bo'la oladi. Negaki yoshlarning, o'smirlarga qaraganda, hayot tarzi, intilishlari, dunyoqarashi anchagina o'sgan, hayot olami ancha kengaygan bo'ladi.

Yoshlar hayoti bu davrda murakkab pallaga kiradi. Ular yaxshilikni ham, yomonlikni ham birday qabul qilishga tayyor turadi. Yozuvchilar yoshlar haqidagi o'z asarlarida ularning yuqoridagi xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur bo'ladi, aks holda qahramon sxematik, qolipli va zerikarli bo'lib

qoladi. Namunali qahramon sifatida yozuvchilar har sohada iqtidorli, turli mukofotlar sovrindorlari, xalq xo'jaligi sohalarida ilg'or, tadbirkor, ma'naviyatli yoshlarni olishi mumkin. Buning uchun ularning hayoti, faoliyati, oilaviy sharoiti, qahramonni o'rab turgan muhit, uni muvaffaqiyatlarga olib borgan yo'l – barchasi chuqur o'rganiladi. Qishloq yoshlari hayotini badiiy tasvirlashda yosh fermerlar, tadbirkorlar, xunarmandlar obrazlarini yaratish maqsadga muvofiq. Milliy armiyamiz saflarida o'z yigitlik burchini o'tayotgan yosh zobitlar va askarlar obrazlarini yaratish o'quvchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi tabiiy. Yoshlarning hozirgi kunlardagi hayotini chuqur o'rganish orqali barkamollikka intilayotgan yoshlar obrazi vujudga kelishiga shubha yo'q va bu, o'z navbatida, mustaqillik davri o'zbek adabiyotini boyitadi hamda yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga xizmat qiladi. Katta yoshdagi kishilar qiyofasida ham zamonaviy qahramon obrazini yaratish mumkin. Buning uchun chuqur hayot tajribasiga ega bo'lgan o'rta yosh va keksa olimlar, ijodkorlar, xalq xo'jaligi xodimlardan iborat namunaviy hayot kechirayotgan, piri badavlat, har tomonlama yetuk kishilar hayoti batafsil o'rganiladi va badiiy ifoda etiladi. Yangi zamon qahramoni yosh avlod qurshovida, boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda gavdalaniradi, bu bilan uning o'z hayoti davomida amalga oshirgan ishlari, jamiyatga keltirgan foydasi, o'z shogirdlarini yetuk mutaxassis bo'lishiga qo'shgan xissasini, mustaqillik davridagi millat ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan xizmatlari badiiy ifodasini topadi. Zamon qahramoni qiyofasini yaratishda xalqimiz tarixi, an'analari va folklorga e'tibor berish orqali asarning badiiyligi hamda ta'sirchanligini oshirish mumkin. Asardagi badiiy obraz pishiq, puxta chiqishi uchun badiiy qahramon yaratishning barcha adabiy unsurlaridan foydalaniladi. Ko'rinadiki, qadimgi davrlarda Tohir va Zuhralar, Farhod va Shirin, Layli va Majnunlar, Yusuf va Zulayholar, Otobek va Kumushbibilar, Anvar va Ra'nolar zamon qahramonlari sifatida o'zbek adabiyotidan joy olgan edi. Ularning hayoti, ma'naviy qiyofasi hamon yoshlarimiz uchun taqlid maktabi bo'lib qolmoqda. Yangi davr – mustaqillik davri ham yozuvchi, shoir va dramaturglar oldiga yangi zamon qahramonini yaratishdek ezgu vazifani

WHY DO WE LEARN ENGLISH LANGUAGE?

Umarxodjayeva Dilnoza Mirzakirovna

TDAU Ingliz tili o'qituvchilari

People began to speak many centuries ago, and since then they have been speaking different languages. Every language reflects the soul, behavior and temperament of each nationality. People created their own alphabets and rules, but they always wanted to communicate with each other. Languages help people to understand and to know more about each other. Languages help people to understand each other better, they help them to solve different economic and political problems. Nowadays, a lot of people study English language in every possible way. Foreign-language study groups are organized at industrial enterprises, at the offices of big firms, at the educational establishments, at research institutes. Year by year the globe is getting smaller with the development of communication means and increase in transportation velocities. People of different countries and nations have to get along well with the progress in world trade and technology as well as with each other. "Knowledge is power", one of the great men said.

Speaking a foreign language one can not only read the papers, magazines and original books by outstanding writers, but as well watch satellite TV programs, travel easily in the different parts of the world. Besides, understanding and speaking a foreign language or two became necessary while applying for a good and well-paid job. In our country English is very popular. It is studied at schools (sometimes even at nursery schools), colleges and universities. Learning English is not an easy thing as it takes a lot of time and patience. Sometimes it is boring to study grammar or to learn new words, but it is well known that reading books in the original, listening to the BBC news, communicating with the English speaking people will help a lot. Fortunately, I began learning English even before I could understand it.

XXI century professional no matter what job to choose. I try to read books, poems of English writers, I learn poems by heart and 10 words daily, I try to translate English songs. I also want to use English in my future job, because I want to become a professional English teacher. I learn English because I want to read Charles Dickens and Oscar Wilde in their native language. I like Hemingway and Agatha Christie. Besides, I like to travel. But it is difficult to visit countries, when you do not know the language of the country, where I am going to, it will be easy to travel there, if I want to ask something, I can do it in English. I like to talk and make friends with people from different countries. I have many foreign friends in social sites as facebook and so on.

Now I have much fun writing letters to my American and British pen friends. I hope, some day we shall meet each other and have a good time. All languages are different. Some are very difficult, some are easy, some are similar, but there are no identical languages in the whole world. There are more than 7000 languages in the world. Most of them are “alive” because people use them, but there are “dead” languages, for example, Latin was the world’s most important international language two thousands years ago. Today this title belongs to English. Over two billion people speak English.

That’s almost one fifth of the world’s population. For over 800 million inhabitants’ it is the first language. For other 1200 million it’s either a second language or a foreign language. Today, in fact, over 550 million people are learning English. That’s more than the population of the USA. English, is an international language in the world. Most people are using this language in the daily life. Knowing English has lots of benefits not only in communication, but it also helps to improve the development in all the spheres.

Learning English takes an important and valuable part of a person’s education, especially for people working in companies using English as a main language.

There are many explanations for the importance of learning English: 1) Learning English helps people communicate and travel easily. 2) Learning English is a good opportunity for your career. As you can get more opportunities to cooperate with the customers and partners from different countries, using language without barriers. 3) Understanding documents relating to your job. 4) Understanding the English language may help you to get acquainted with the worlds’ heritage of literature. 5) English is the language of the media industry. If you speak English, you will not need to rely on translations and subtitles anymore, enjoy your favorite books, songs, films and TV shows. 6) English is also the language of the Internet. Majority of websites use English – so you will be able to take part in forums and discussions. 7) English is based on a simple alphabet and it is fairly quick and easy to learn compared to other languages. 8) By learning English, you will also learn about other cultures. Few experiences will make you grow as a person more than learning the values, habits and way of life in a culture that is different from yours. Today, there are many people all over the world study English.

Most of them think that maybe English becomes their second language. But have you ever wondered: “Why do we need to learn English?”. I am sure that it is very necessary and important to learn English now, because English is the language of the planet. Now, I would like to say some words about the history of this language. The rise of English is a story of wonderful success. When Julies Caesar landed in the 5th century, English was already spoken by people, who inhabited Great Britain, but they were not many and their English was not the language we know today. Nearly thousand years later, at the end of the 16th century when William Shakespeare created his works, English was the native language about 6 million Englishmen. At the time English was not used anywhere else except Great Britain, but now English is the main language of international aviation, shipping and the major language of diplomacy. In order to have a good job one should know foreign languages. One of the most widespread language in the world is English. But every well-educated person in the world speaks English, because it is the language of communication, business, science and culture.

English is now the most important and popular language in the world. It is the state language in five countries: Great Britain, Canada, the USA, Australia and New Zealand. English is one of the six official and working languages of the United Nations. It is the second working language in the European Community. In many Asian and African countries, such as India or Egypt, in former British colonies people speak English besides their native one. People also speak English in Europe. English is spoken practically all over the world. In a word, I understand that I have to learn English hard in a proper way.

I think English is worth studying. There is a proverb “A new language – a new world”. So I can say that English is absolutely necessary to know for every educated person, for every good specialist today. In conclusion, we will know learning English can get three major benefits, which are becoming an international person, communicating with any people in the world, and improving the changes in the job.

BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA MOTIVATSIYANING ROLI

Suyarova Shaxnoza Toyloqovna
Tillar kafedrası o'qituvchisi

Bo'lajak chet til o'qituvchisining motivatsion jihati hamda o'zligini anglashi ta'limning mufaffaqiyatli olib borilishi bilan uzviy bog'langandir.

Shuning uchun chet til ta'limida motivatsion jihatni hisobga olish kasbiy yo'naltirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, motivatsiya so'zi "energizator" (kuch bag'ishlovchi) ma'nosini anglatadi, ta'limda esa "gid" (yo'l boshlovchi) degan tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu ikki psixologik hodisa o'quv faoliyatining asosini tashkil etadi va ular harakatga keltiruvchi omil hisoblanib, o'z navbatida, faoliyat paytida ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Psixolog olim Zimnyaning ta'kidlashicha, o'quv faoliyati – bu sub'yekt (talaba)ning o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga baho berish shaklidagi tashqi nazorat va baholashga asoslangan, muallim tomonidan maxsus beriladigan vazifalarni o'quv harakatlari orqali hal etish jarayonida kamol topishga qaratilgan faoliyatdir.

O'quv faoliyatida o'zlikni anglash asta-sekin yuz beradigan jarayon bo'lganligi bois, talabalar ko'proq tashqi ta'sirga muhtojlik sezadilar. Bunday holat chet til o'qitish ta'limida motivatsiya (motivation) deb yuritiladi. Ma'lumki, "motiv" atamasining lug'aviy ma'nosi "harakatlantirmoq" fe'lidan kelib chiqib "harakatlantiraman" degan ma'noni bersa, "motivatsiya" so'zi esa "harakatlantiruvchi kuch, sabab, omil, vaj, undovchi" degan ma'nolarni beradi. Har qanday motivatsiya ehtiyojdan kelib chiqadi.

Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Motivatsiya so'zining ma'nosini ba'zan "emotsiya, maqsad" tushunchalari bilan, ba'zida esa "qo'zg'ovchi, undovchi, turtki" tushunchalari bilan almashtirish holatlari uchraydi. Chet til ta'limi jarayonida o'qituvchi asosiy undovchi, talabalar qiziqishini rivojlantiruvchi shaxs hisoblanadi. Shunday ekan, dars jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarni bilim olishga, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ta'lim berishning turli yordamchi vositalari (o'qish, tinglash matnlari, video, televideniye, kompyuter, internet) orqali oshirishga harakat qilishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bo'lajak chet til o'qituvchilarining til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim rol o'ynaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri – darslarni kompyuter texnologiyalari yordamida tashkil qilishdir. Hozirgi kunda kompyuter texnikasi ta'lim samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar ochmoqda.

Bunday imkoniyatlaridan biri – internetdir. Ingliz tili darslarida internet texnologiyalari axborot olish va muloqot qilishning eng zamonaviy shaklidir. Talabalar internet texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib, amaliy yoki nazariy fanlardan ma'ruza, referat hamda taqdimnomalar tayyorlashlari mumkin.

Multimediadan foydalanish ham darsning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Multimedia o'quv materialini ovoqli tarzda taqdim etish qobiliyatiga ega bo'lib, virtual o'qituvchi vazifasini o'taydi. Talaba so'z va gaplarning sof inglizcha talaffuzini tinglaydi, o'zining nutqini eshitgan talaffuzga moslashtirishga harakat qiladi.

Ma'lumki, talabalar oldida turgan muhim muammolardan biri – so'z boyligini oshirishdir. Bu muammoni ijobiy hal etishda elektron lug'atlarning o'rni beqiyosdir.

Bu lug'atlar bosma lug'atlarga qaraganda ko'proq afzalliklarga ega bo'lib, ularning qidirish tezligi juda katta. Bunday lug'atlar fanning turli sohalariga mos bo'lgan lug'at turlarini ajratish va ma'lumot olish uchun qulaydir. Chet til o'qituvchisi hal etadigan murakkab vazifalardan yana biri talabalar o'rtasida muloqot uyushtirish hisoblanadi.

Muloqotni tashkil etishda – muloqot mavzusi, qatnashuvchilarning rollari va muloqot joyi muhim ahamiyat kasb etadigan omillardir. Do'stlar o'rtasidagi muloqot turi va tarzi, rasmiy muloqotlar holatida umuman to'g'ri kelmasligi mumkin.

Shuning uchun, bo'lajak chet til o'qituvchilari kommunikativ savodxonlikka ega bo'lishga harakat qilmog'i lozim. Kommunikativ jihatdan savodli bo'lgan kishi har doim qaysi holatda qanday muloqot usulini qo'llashni va qayerda qanday so'zni ishlatish zarurligini biladi. Muloqot yuritishda tanlab olingan so'z, hosil qilingan so'z birikmasi va ular yordamida tuzilgan gap – barchasi mustaqil va ijobiy fikr mahsuli – talaba egallagan bilim, ko'nikma va malakalar tizimining amaliy tatbiqi hisoblanadi.

Zero, Amerikalik olimlardan biri Savignonning fikricha: “Savodxonlik – bu kimdir biladigan narsa bo‘lsa, uning namoyon qilinishi esa bironing amaliy harakatini anglatadi”.

Adabiyotlar

1. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostrannym yazыkam v shkole. – M.:
2. Prosveщeniye, 1991.
3. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge, 1981.
4. Brandl, K. Communicative language teaching in action: putting principles to work. – Prentice Hall, 2001.

CHET TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MULOQOTNING AHAMIYATI

Azizova Zilola Ravshanovna

TDAU Ingliz tili o‘qituvchisi

Ma’lumki, pedagog jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, shunday ekan har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi, mustaqillik g‘oyasiga e‘tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, o‘z kasbining bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, shuningdek, pedagogik, psixologik va uslubiy bilim, malakalarni egallagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o‘rganishi va baholay olishi, pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng maqbul usul, vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Chet tilini o‘rgatishda ham ana shu kabilarning o‘z o‘rni bor.

Til o‘rgatish jarayonlari bir qator aniq va tabiiy fanlarni o‘rgatishdan muayyan darajada farq qiladi. Chunki bunda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida samimiy va samarali muloqot o‘rnatilishi kerak. Dars soatining har bir daqiqasi, o‘qituvchi va o‘quvchining bir-biri bilan bevosita dialogi, guruhdagi boshqalar bilan bahslari mazkur fandan bilim berishning zaruriy talablaridan biridir. Shu bois, o‘qituvchi pedagogik muloqot va auditoriyani boshqarishning turlicha usullaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak.

Pedagogik muloqot – qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o‘qituvchining o‘quvchi bilan dars va undan tashqari jarayondagi haqiqiy muloqotidir. Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat bo‘lmagani kabi pedagogik muloqot ham hayot davomida bilim, izlanish, tajriba asosida yaratilgan qobiliyat hisoblanadi. Shuning uchun pedagogik muloqot mahorati hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki tinimsiz izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Noto‘g‘ri pedagogik muloqot o‘quvchida qo‘rquv, ishonchsizlik tug‘diradi, diqqati, xotirasi va ishlash qobiliyatini susaytiradi, nutq me‘yorini buzadi. Natijada ularning o‘qishga, mustaqil o‘rganishga va fikrlashga bo‘lgan qiziqishlari susayadi.

Oqibatda o‘quvchilarda o‘qituvchiga, uning faniga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq vaqt shakllanib qoladi. Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalar bilan karakterlanadi: shaxsni o‘rganish (bilish), axborot almashish, faoliyatni tashkil etish.

Muloqotning turli shakllari: yig‘ilish, munozara, bo‘sh vaqtni o‘tkazish o‘qituvchidan muloqotning o‘ziga xos uslubidan foydalanishni, uning ohangdorligini o‘zgartirib turishni taqozo qiladi. Muloqotda taktikani tanlash rollar pozitsiyasidan foydalanish bilan bog‘liqdir. A.V.Dobrovich rollar pozitsiyasi uch xil bo‘lishini isbotlagan. “Yuqoridan kelish pozitsiyasi” – o‘qituvchi o‘zining to‘la mustaqilligi, javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini namoyon qiladi. Bu pozitsiya ota-ona pozitsiyasi deb ataladi. “Pastdan kelish pozitsiyasi” – o‘qituvchi o‘z shaxsini mustaqil emas, balki bo‘ysunuvchi va o‘ziga ishonmaydigan qilib ko‘rsatadi. Bu bolalar pozitsiyasi deb ataladi va o‘quvchi mustaqilligini oshirish maqsadida ishlatiladi (doskada o‘qituvchi ataylab xatoga yo‘l qo‘yadi). “Yonma-yon turish” – o‘qituvchi xushmuomalaligida va vazminligida, vaziyatga qarab ishlashni bilishida, boshqalar holatini tushunishida hamda javobgarlikni o‘zi va boshqalarga taqsimlashida ifodalanadi. Bu kattalar pozitsiyasi deb ataladi.

Albatta, xorijiy tillarni o‘rgatishda mazkur rollardan qaysi birini tanlash o‘qituvchi zimmasiga tushadi, biroq bu borada pedagog har bir dars mavzusi xarakteri va ko‘zda tutilgan maqsadidan kelib chiqib, turlicha yondashuvni qo‘llashi zarur bo‘ladi. So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi va fe‘l zamonlari kabi til birliklarini yakka holda qo‘llashni o‘rgatishga oid dars mashg‘ulotlarida ko‘proq “pastdan kelish” pozitsiyasi ish bersa, aksariyat darslarda “yonma-yon turish” pozitsiyasining o‘rni muhimroq. Chunki boshqa tillarni o‘rganishda bahs-munozaralar ko‘p o‘tkaziladi, ayrim hollarda “o‘zaro tanishuv” sahnalari, turli mavzudagi dialoglar, o‘quvchining sinf oldida o‘zini tanishtirishi kabi vaziyatlarda o‘quvchi o‘zini erkin tutishi zarur. Agar u xato qilishdan yoki sinf oldida kulgiga qolishidan qo‘rqsa, bu keyinchalik shu

tilda gapirishga kirishganda ana shunday hissiyotlarni yana boshidan kechirish odatini shakllantirishi mumkin.

Pedagogik muloqot jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi, avvalo, o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi-talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchining pedagogik muloqot mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongli, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligi, bilim va fikr doirasining kengligi, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi.

Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta, fikr orqali hal etadi. Shuning uchun pedagogik muloqot sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'quvchi-talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab borishi zarur. Buning uchun ko'p o'qishi, o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik muloqot mahoratiga baho berish uni muloqotining mohiyati qay darajada natija berishi bilan bog'liqdir.

Bugungi kun pedagoglaridan o'zlaridagi mavjud bilim, saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt bilan o'rganib, turli muloqot uslublarida, har qanday sharoitda pedagogik taktga amal qilgan holda, takomillashgan kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligini zamon talab etmoqda. Rossiyalik psixolog olim A.Leontev kommunikativ malakalarga quyidagicha xarakteristika beradi: ijtimoiy persepsiya (yuzidan o'qib olish) malakasini egallash; o'quvchining tashqari belgilariga xos ravishda uning shaxsi, psixik holati va boshqa xususiyatlarini modellar; o'quvchilar bilan muloqot paytida vazmin bo'lish; nutqni psixologik nuqtai nazardan eng maqsadga muvofiq qilib tuzish, ya'ni nutq muloqotida o'quvchilar bilan nutq va nutqsiz muloqot qilishni bilish. Muloqotda rollar pozitsiyasidan unumli foydalanishga A.S.Makarenkoning ko'cha bezorini kollektordan koloniyaga olib kelishidagi mahoratini misol qilib keltirish mumkin. "Uni kollektordan koloniyaga borishga hech kim ko'ndira olmadi, o'zim borishga majbur bo'ldim. Meni u krovatda yotgan holda e'tiborsiz nazar tashlab kutib oldi:

– Hammangni jin ursin! Men hech qayoqqa bormayman!

Menga uning qahramonlarcha g'ururi ma'lum edi. Shuning uchun ham muloyimlik bilan so'z boshladim: Hurmatli janob, Sizni bezovta qilish men uchun ham noqulay, lekin men o'z xizmat burchimni bajarishga majburman. Shuning uchun ham o'rningizdan turib, siz uchun mo'ljallangan ekipajdan joy olishingizni iltimos qilaman. Mening bunday "ajoyib" muomalamdan Oprishko dastlab hayratlandi, hatto krovatdan biroz ko'tarildi.

Lekin uning o'jarligi ustun keldi va o'zini yostiqa otdi:

– Bormayman dedimmi, bormayman! Yo'qol!

– U holda, hurmatli janob, ma'lumingiz bo'lsinki, men sizga nisbatan kuch ishlatishga majbur bo'laman!

– Buni qarang-a! Sen qayerdan kelib qolding? Meni kuch bilan ko'ndirish oson deb o'ylayapsanmi?!

– Har qalay e'tiborga olib qo'ying.

– Men tovushimni baland ko'tarib, istehzo bilan:

Hurmatli Oprishko, – va birdaniga unga baqirdim, – tur o'rningdan! Nega cho'zilib yotibsan. Tezda tayyorlang! Senga tur deyaqman!!!

U o'rmidan turdi va deraza tomon otili.

– Xudo ursin, hozir o'zimni derazadan tashlayman!!!

– Men unga xavotir bilan qarab shunday dedim: Yo zudlik bilan derazadan tashla yoki aravaga chiq! Sen bilan adi-badi aytishgani vaqtim yo'q!

Biz uchinchi qavatda edik, shuning uchun Oprishko sho'x va quvnoq ko'lib yubordi: muncha yopishib qoldingiz! Nima ham derdim? Siz Gorkiy koloniyasining mudirimisiz?

– Ha.

– Shunday demaysizmi? Allaqachon jo'nab ketgan bo'lar edim!

Ko'rinib turibdiki, pedagogik soha mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan turli konsepsiyalar, muloqot usullaridan birini yaxshi, birini yomon deb bo'lmaydi. Har bir muloqot pozitsiyasi ta'lim jarayonlarining turli bosqichlarida, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan ishlashda qo'l kelib qolishi mumkin. Shuning uchun bo'lg'usi ingliz tili o'qituvchilari va shu sohada ta'lim olayotgan talabalar pedagogika sohalaridan yuqori bilim va malakaga ega bo'lish bilan birga muloqot mahorati o'ziga xos bo'lishi ularning kelgusi kasbiy faoliyatlarida katta yordam beradi.

Adabiyotlar

1. G'aybullayev N., Yodgorov R., Mamatqulova R., Toshmurodova K. Pedagogika: ma'ruzalar matni: O'quv qo'llanma. – T., 2000.
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 368 b.
3. Kan-Kalik V.A. Uchitel v pedagogicheskom obshchenii. – M.: Prosveteniye, 1987.
4. Makarenko A.S. Pedagogik poema. – T.: O'zdatnashr, 1956. – 282 b.

CHET TILIDAGI SO'ZLARNI TEZ VA OSON O'RGANISH METODIKASI

Aripova Shoira Djurakulovna
TDAU Tillar kafedrası Ingliz tili ukituvchisi

Globallashuv jarayoni tezlashgan sari chet tillarini o'rganish zamon talabi bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada ingliz tilidagi so'zlarni oson va tez o'rganish usullaridan bir nechtasi keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining qarorida "Zamonaviy pedagogic va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish" ta'kidlangan. Shu sababli bugun hayot tarzini chet tillarisiz faraz qilib bo'lmaydi.

Hozirgi davrda ham bir sohani yaxshi bir mutaxassisi bo'lish uchun chet tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Bizning yurtimizda ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor doim yuqori bo'lgan. Ayni kundalarda ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan e'tibor kundan-kun ortib bormoqda. Shu maqsad yo'lida yangi izlanishlar, nashrlar va zamonaviy uslub yo'llari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, o'quvchi va talabalarda xorijiy tilga bo'lgan talab juda katta bo'lib, unga qo'yilgan yo'ldagi mashaqqatlar esa undan-da ulkandir. Ushbu maqolada esa, shu tilga oid bo'lgan so'zlarni qulay va oson o'rganish yo'llari keltirib o'tilgan. Biz chet tillarini o'rganish davomida ba'zi bir qiyinchiliklarga uchrashimiz tabiiy xol. Biror bir tilni mukammal o'rganish uchun eng muhimi hayotdagi har bir sohada bo'lgandek ishtiyoqdir.

Har doim o'rganuvchi shaxs doim bu tilni nima uchun o'rganishim kerak degan savolni berishi va har qanday qiynalgan vaziyatida maqsadini eslashi shart. Endigi navbat esa, chet tilidagi so'zlarni qay yo'sinda oson va tez o'rganish. Ba'zi odamlar uchun yangi so'zlarni o'rganish oson kechadi, chunki ular eslab qolmoqchi bo'lgan so'zlarini va ta'rifini ko'radilar, so'ngra o'sha ma'lumotni o'z miyalarida saqlaydilar.

Ko'pchilik esa so'zlarni eslab qolish, ularni va jummalarni qanday ishlatish bilan kurashadilar. Agarda yangi so'zlarni eslab qolishga qiynalsangiz ushbu keltirib o'tilgan yo'llarni sinab ko'ring. Ba'zi odamlar borki, ular tinglash orqali yaxshi o'rganadilar, ba'zilar esa yozish orqali. Avvalo, qaysi toifaga mos ekanligimizni aniqlab olishimiz kerak. Misol uchun, siz so'zlarni yozganingizda yaxshiroq eslayotgan bo'lsangiz, yozishni ichiga olgan qiziqarli va samarali ishlarni qilishingiz mumkin. Qaysi o'rganish uslubi siz uchun eng yaxshisi ekanligiga amin bo'lsangiz, unda quyida tavsiya etilgan barcha usullarni qo'llash orqali o'zingiz va miyangiz haqida ko'p narsalarni bilib olasiz:

1. Chet tilidagi so'zlar har xil audiolarni tinglang

Tillarni o'rganayotgan olimlarning fikricha, til o'rganishning biz bilmagan bir usuli mavjud. Bu ongsiz va yopiq til o'rganishdir. Bunday o'rganish biz harakat qilmasak ham sodir bo'ladi. Bu usul biz stolda o'tirib, qoidalarni qayta-qayta takrorlash orqali ro'y bermaydi. Buning o'rniga, ko'plab chet tillarini tinglaganimizda va e'tibor bermaganimizda sodir bo'ladi. Ajablanarlisi shundaki, biz so'zlar nimani anglatishini tushunmasak ham, tinglashni o'rganamiz. Tadqiqotlardan so'ng o'rganish shuni ko'rsatadiki, odamlar bu usulni tinglab, har qanday tilni o'rganishlari mumkin. Buning sababi biz tilni tinglaganimizda, har xil so'z va tovushlarni eshitamiz. Bu o'rganishning tabiiy yo'li. Bolalar doim buni amalga oshirishadi. O'ylab ko'ring, bolalar juda yosh bo'lishganida gapira olish qobiliyatiga ega bo'lishmaydi. Tinglashlari mumkin xolos. Ular so'zlashuvlarni to'liq tushunishdan oldin va tilni o'zlarida foydalanishlari uchun ular soatlab tinglaydilar va so'ngra o'sha so'zlarni birma-bir qo'llaydilar.

Xullas, shuning uchun barchamizda bu qobiliyat bolaligimizdan buyon shakllanib boradi, lekin biz bundan oqilona foydalanolmaymiz. Shuning uchun doim xorijiy tillardagi har xil musiqa va audio kitoblarni ko'proq tinglang. Mahalliy chet tilidagi ma'ruzachilar bir-birlari bilan gaplashadigan joylarga borish shart. Siz diqqat bilan tinglashingizni hojati yo'q, faqatgina atrofda yurish, diqqatga sazovor joylardan zavq

olishingiz mumkin. Nima bo'lishidan qat'iy nazar chet tillariga oid bo'lgan so'zlar quloqlaringiz va miyangizga eshutilib va yetib turishi zarur.

2. Tovushlarni o'rganing

Yangi tilni o'rganishning eng qiyin narsalardan biri hamma yangi tovushlarni o'rganishdir. Xorijiy tillarda ona tilingizdagi kabi hech qachon foydalanmaydigan tovushlar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun, eng avvalo, tovushlar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. So'zlarni so'zlashuvda foydalanayotganda, so'zlarni boshqa so'zlar, tovushlar, harakatlar, fikrlar yoki rasmlar bilan bog'lash zarur.

Quyoshning rasmini ko'rganda, darhol "quyosh", "issiq" so'zlarni o'ylash tabiiy hol. Bu haqida o'ylash uchun vaqt kerak emas, bu so'zlar doim miyangizda avtomatik ravishda paydo bo'ladi. Shuning uchun so'zlarni yodlayotganingizda, voqealarga bog'lab eslab qolishga harakat qiling. Uyushmalar orqali o'rganiladigan so'zlar nafaqat qiziqarli, balki chet tilini o'rganishni jadallashtirishning juda foydali usuli hisoblanadi. Olimlar bu ishni imo-ishora tiliga, tillarni gapirishga undaydigan va so'zlarni tovushlar o'rniga qo'llar va barmoqlar ishlatiladigan tilga qarash uchun ishlatgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, so'zlarning so'zlar kabi ko'rinadigan belgilarni eslash ancha oson.

Yangi so'zlarni o'rganayotganda ularni guruhlab o'rganishga harakat qilish kerak. So'zni tasvir, harakat yoki boshqa so'zlar bilan birlashtiring. Sizning fikringizdagi bu kuchli aloqangiz bo'lsa, uni eslab qolishingiz osonroq bo'ladi. O'zingiz o'rgangan so'zlarning ma'nosini ko'rsatish uchun qo'llaringiz va har xil narsalardan foydalaning. Ta'riflarni yozish o'rniga ba'zi su'ratlarni chizishga harakat qilishingiz mumkin. Bu usullar esa, xorijiy tilga oid bo'lgan so'zlarni tez va oson o'rganishingizga qo'l keladi.

Xulosa qilib shuni aytganda, hozirg kunda davr talabiga mos kelajak avlodni tarbiyalashda xorijiy tillar muhim rol o'ynaydi. Yuqorida keltirilgan maslahatlarga rioya qilinsa, xorijiy tillarni o'rganish yanada osonroq kechadi. Hozirgi kunda yoshlarga chet tillarini o'rgatishda turli metodlardan foydalanish zarur. Shunda ular xorijiy tillarni mukammal o'rganib, respublikamizga ravnaqi tegadigan kadrlar bo'lib yetishadi.

Adabiyotlar

1. Language, Mind and Brain. – Edinburg: Edinburg University Press. – 262 p.
2. Raximov G'.X. Dunyo ingliz tillarining maqomi haqida // Filologiya masalalari. – T., 2017. – 1-son. – 35-43 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-1875-sonli qarori.
4. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012.
5. Sattorov B.G'. Chet tilidagi so'zlarni o'rganish // Filologiya masalalari. – T., 2017. – 1-son.

СОВРЕМЕННЫЙ УРОК РУССКОГО ЯЗЫКА

Тулаева Гулшан Шамсиевна

Преподаватель русского языка, школа № 6. Город Наваи.

В современном образовании наряду с традиционными средствами обучения, которые нам всем хорошо известны, учителя все больше используют современные технологии.

Использование информационных технологий повышает эффективность урока, развивая мотивацию обучения, что делает процесс обучения успешным.

Стратегии модернизации образования подчеркивается необходимость изменения методов и технологий обучения на всех ступенях, повышения веса тех из них, которые формируют практические навыки анализа информации, самообучения, стимулируют самостоятельную работу учащихся, формируют опыт ответственного выбора и ответственной деятельности.

Возникла необходимость в новой модели обучения, построенной на основе современных информационных технологий, реализующей принципы личностно-ориентированного образования.

Информационные технологии не только открывают возможности вариативности учебной деятельности, ее индивидуализации и дифференциации, но и позволяют по-новому организовать взаимодействие всех субъектов обучения, построить образовательную систему, в которой ученик был бы активным и равноправным участником образовательной деятельности.

Сегодня необходимо, чтобы каждый учитель по любой школьной дисциплине мог подготовить и провести урок с использованием ИКТ, так как теперь учителю представилась возможность сделать урок более ярким и увлекательным.

Использование ИКТ позволяет погрузиться в другой мир, увидеть его своими глазами. Управление обучением с помощью компьютера приводит к повышению эффективности усвоения и активизации мыслительной деятельности учащихся.

Информационные технологии значительно расширяют возможности предъявления учебной информации. Применение в презентациях текста, графики, звука, всех современных средств видеотехники позволяет воссоздавать реальную обстановку деятельности. Компьютер позволяет существенно повысить мотивацию учащихся к обучению. ИКТ вовлекают учащихся в учебный процесс, способствуя наиболее широкому раскрытию их способностей, активизации умственной деятельности. Изменяется содержание деятельности преподавателя, он перестает быть просто «репродуктором» знаний, становится разработчиком новой технологии обучения, что повышает его творческую активность и требует высокого уровня технологической и методической подготовленности.

Использование ИКТ на уроках русского языка позволяет разнообразить формы работы, деятельность учащихся, активизировать внимание, повышает творческий потенциал личности. Построение схем, таблиц в презентации позволяет экономить время, более эстетично оформить материал.

Задания с последующей проверкой активизируют внимание учащихся, формируют орфографическую зоркость. Использование кроссвордов, иллюстраций, рисунков, различных занимательных заданий, тестов воспитывают интерес к уроку, делают его более интересным.

Причем материал находят сами учащиеся в Интернете, составляют презентации, таким образом, ИКТ развивает самостоятельность учащихся, умение находить, отбирать и оформлять материал к уроку, который в компьютерном классе развивают умение учащихся работать с компьютером и самостоятельно решать учебные задачи.

Многоаспектную проблему совершенствования современного урока можно рассматривать с разных позиций.

Нашей задачей была разработка (как в теоретическом, так и в практическом плане) методики современного урока русского языка с учетом идей системно-деятельностного и проблемно развивающего обучения и требований Государственного образовательного стандарта Республики Узбекистан как главного документа, ориентирующего на дальнейшее развитие и модернизацию учебного процесса и современного урока как основной формы обучения в школе.

Литература

Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. – М., 1990.

Власенков А.И. Общие вопросы методики русского языка в средней школе. – М., 2003.

Пасечная В.В. Учебно-исследовательская деятельность школьников как модель педагогической технологии // Русский язык в школах и вузах Казахстана. – А., 2008. – № 6.

TIL O'RGANISHDA O'QISH FAOLIYATI

Jumayeva Laylo Shukrulloevna

Karmana tuman 19-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi.

Qo'ziyeva Dilafro'z Jo'raqulovna

Navoiy viloyati Karmana tumnidagi 19- maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi.

Hozirgi zamonda xar bir shaxsning chet tilini bilishi zamon talablaridan biri bo'lib kelmoqda. Bizning mamlakatimizda chet tilini, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilyapti. Oxirgi o'n yillikda chet tilining nazariy jihatdan shakllanishi sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Til o'qitish uslubiyati sohasida ilmiy tadqiqotlar soni keskin oshib borishi bunga sabab bo'la oladi. Shu bilan birga, o'quv dasturlar hamda o'qitish tizimidagi o'zgarishlar o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayoni samarali bo'lishiga olib kelyapti.

Boshlang'ich bosqich til o'rganishning asoslaridan tashkil topgandir. Bu bosqichdagi til o'rganuvchisi uchun o'qish ko'nikmasini egallashi boshqa ko'nikmalarni o'rganishida oson kechadi.

O'qish ko'nikmasiga ega bo'lish deganda, biz tez, ravon, ifodali o'qish, o'qilayotgan matnni bir vaqtda tushunish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishdir. Rus tilshunosi G.V.Rogova shunday deydi: "O'qish nutq faoliyatining retseptiv turidir, chunki u retsepsiya, kodlangan grafik belgili ma'lumotni tushunish bilan chambarchas bog'liqdir".

O'qish matnni qabul qilishning murakkab psixolingvistik jarayoni bo'lib, uning natijasi esa matndagi ma'lumotni tushunishdir. Bunday xususiyatlar har bir til o'rganuvchida mavjud deb bo'lmaydi. Chunki, endigina boshlagan til o'rganuvchi uchun bu muhim masala hisoblanadi. O'qish tizimini nutq faoliyati sifatida mohiyati, maqsadi, sharti va natijalarga bo'lish mumkin. O'qish mohiyati bosma so'z yordamida doim muloqot qilishdir. O'qish maqsadi o'quvchi qiziqqan masala bo'yicha ma'lumot olishdir. O'qish faoliyatining shartiga esa tilning grafik tizimini mukammal egallash hamda ma'lumot olish usullaridir.

Faoliyat natijasi esa turli darajadagi o'qilgan aniqlikni tushunishdir. Yuqoridagi o'quv texnikalari bir-birdan farq qiladi. Ovoz chiqarib o'qish texnikasi metodik uslubdan tarkib topgan bo'lib, ovoz chiqarmay o'qishda esa o'quvchining e'tibori yozma nutqning ma'nosiga qaratilgan bo'ladi. Ovoz chiqarib o'qishda nazoratlanadigan gapirishni o'zida namoyon etadi.

Chet tili o'rganuvchisi ingliz alifbosidagi harflarni o'rganishi lozim. Bunda o'rganuvchilar so'zdagi harfni nomlab hamda u qanday tovushni berayotganini aytib berishlari kerak. Ingliz tilida harflar o'zaro munosabatga ega bo'lgan va o'zaro munosabatga ega bo'lmagan xususiyatlari mavjuddir. O'zaro munosabatga ega bo'lgan harflar o'qilish jarayonida deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bunday turdagi harf boshqa tovush bera oladigan xususiyatga ega emas.

Xulosa qilib aytganda, o'qish jarayoni eng faol nutq faoliyati turlaridan biridir. Mazkur faoliyat xotirada avtomatik ishlab chiqish va so'zlarni tanishgina emas, balki o'qilayotgan gapdagi birikkan sxematik tarzda talaffuz qilish va xotirada saqlash xususiyatlarini o'z ichida mujassam etishi shart.

Boshlang'ich bosqichdagi til o'rganuvchisi o'qish ko'nikmasini shakllantira turib boshqa ko'nikmalarini egallashi oson bo'ladi.

Adabiyotlar

Rogova G.V., Verещagina I.N. Metodika obucheniya angliyskomu yazyku na nachalnom etape v sredney shkole. – M., 1988.

NAVOIY IJODIDA ORIFONA BAYTLAR

Bazarova Guljahon Ismatullayevna

Navoiy shahridagi 16- maktabning Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

Alisher Navoiyg'azallarimavzusioshiqona, orifona, ijtimoiy, hajviy va tabiat tasviriga bag'ishlangan kabi turlarga bo'linib, orifona ruhda yozilgan asarlar Navoiy ijodida oshiqona g'azallardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Yana shunday baytlar bo'ladiki, shoirning boshqa turdagi g'azallari tarkibiga kiritilgan bo'lib, orifona mazmun-mohiyat kasb etadi.

"G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 227- g'azal shaklan musalsal va mazmunan oshiqona turga kirib, to'qqiz baytdan iboratdir. G'azalda orif oshiqning Ilohiy ma'shuq visolidan uzoqda – hijron va hasratda kechgan damlari, visol umidi, o'zini bu ulug'vor martabaga tayyorlash va unga loyiq ko'rish faxriyasi qalamga olingan. Undagi orifona ruh, ayniqsa, g'azal yakuni bo'lmish maqtada yaqqol ko'ringan:

Navoiy o'ldi, gar parvona kuydi, bulbul un chekti, Bular gar yaxshidurlar, ishq aro ul ham yomon ermas.

Parvona kuydi, bulbul sayradi, lekin Navoiy (ishq va hijrondan biryo'la) o'ldi, avvaligilar (bulbul va parvona) yaxshi edilar, lekin u ham yomon bo'lmadi.

Maqta'da Navoiy majoziy obrazlaridan bo'lgan parvona va bulbulga murojaat etadi. Ma'lumki, bulbulni – ishq yo'lida fig'on chekuvchi tasavvufning sershovqin sukur yo'lini tutgan oshiqqa, parvonani esa bu maslakdagi sokin savh yo'lini tutgan orifga qiyoslaydilar. Har ikkila obrazga murojaat etgan shoir ularni ulug'laydi, lekin ular har qancha kuyib, navo chekkanlari bilan Navoiyga tenglasholmadilar, chunki Navoiy bu yo'lga kirib, birato'la o'lib qo'ya qoldi, deydi u. G'azal so'ngida Navoiy payg'ambarimizning "o'lmasdan burun o'ling!" xadisi shariflariga ishora qilgan holda bu yo'lda kamolotga yetganini faxr va ayni paytda kamtarinlik bilan e'tirof etmoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, Navoiyning eng dunyoviy g'azallarida ham ilohiy-orifona ma'no yashirilgan bo'lib, hech bo'lmasa, bir baytda bu pinhonalik oshikor etiladi. Devondagi 423-g'azalning beshinchi baytida mana shunday oshkoralikni ko'rishimiz mumkin.

Yasay dard o'qlaridin bir oq uy jon gulshani ichra
Ki, ko'nglumda toriqsa, anda kirgay mohi xirgohim.

Jon gulshani ichida dard o'qlaridan oq uy yasayki, oy (kabi) chodirnishin go'zalim ko'nglimda
yayrab turolmasa, o'shanga kir(ib istirohat qil)ar.

Oq uy – oq kigizdan yasalgan hamda Chingiziylar udumi bo'yicha hukmdorlar va hurmatli zotlar
uchun atalgan maxsus qo'nalg'a hisoblanadi. Shoir ma'shuqasi uchun jon gulshani ichida dard o'qlaridan
shunday hashamatli va e'tiborli maskan tortiq etmoqchi! Toki chodirnishin (ya'ni boshqalardan o'zini
pinhon tutadigan) go'zal oshiqning tor ko'ngilda yayrolmasa, jonidagi o'sha oq uyda farog'at topsa.

Baytda so'z bandani ko'ngiliga jo bo'ladigan ma'shuqa xayoli yoki ilohiy ma'shuq yodi haqida
ketmoqda. Unga ko'nglini tortiq etgan shoir endi jonini ham peshkash qilmoqchi va buni shunday obrazli
tarzda go'zal ifodalamoqda. Baytda jon gulshani, mohi xirgohim birikmalari asosida istiora san'atiga
murojaat etilgan.

Navbatdagi 424-g'azaldagi baytga murojaat etamiz. Ushubayt ham oshiqona, ham orifona mohiyat
kasb etib, zulma'naynlik hodisasini hosil qilmoqda:

May ichkali ul no'shlab zohir qilur har dam tarab,

Bu nav' ochilmoq ne ajab, andoq su ichkan gulshanim.

May ichib, u labi shirin mahbubam, har lahza hursandchilik qiladi, axir bu qadar suv ichgan
gulshanimning unday (go'zallishib) ochilmog'ligi ajab emas-da!

Husni ta'lil san'atiga murojaat etgan shoir may ichayotgan shirinlab ma'shuqani ochilib borayotgan
gulzorga, mayni esa gulshanni yashnatadigan suvga qiyoslaydi. Baytni orifona ma'noda izohlaydigan
bo'lsak, komil insonning qalbi ilohiy ma'rifat sharobidan xuddi suv ichgan gulshan kabi yashnab turadi va
bu shu ma'rifatga tashna toliblar talabini yanada kuchaytiradi, obrazli qilib aytganda ularni qalbini
alanganlatadi.

Devondagi 11-g'azal sof oshiqona hisoblanib, uning faqat bir –begona bayti orifona hisoblanadi.

Boda hajridin oqarmish ko'zlarim, ey piri dayr, Aylagil may shishasidin sindurub aynak manga.

Boda sog'inchidan ko'zlarim oqardi, ey mayxona sohibi, menga may shishasini sindirib, undan
ko'zoynak yasab ber. Navbatdagi bayt orifona mazmunli begona bayt hisoblanadi. Ishq, hijron va visoldan
so'z yuritgan oshiq o'z fikrini, endi irfoniy mavzuga qaratadi. Boda – may istelohini ilohiy ishq yoki
ma'rifat, piri dayr – mayxona sohibi istelohini esa piri komil ma'nosida talqin etadigan bo'lsak, baytning
ma'nosi quyidagicha sharhlanadi. Ya'ni: ilohiyishq va ma'rifatdan biribir qalbim qonmayapti shuning
uchun, ey komil ustoz, bu ma'rifat va ishq asosini qalbimga singdir. Natijada men shu tuyg'ularga asoslanib
olamga qarab, uning mushkulotlarini mushohida etay.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida bunday o'ziga xosliklar ko'plab uchraydi. Oshiqona
g'azallarda orifona baytlarning kiritilishi ham shunday o'ziga xosliklardan bo'lib, ulug' shoirning bemisil
donishmanona dahosidan darak beradi.

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Adizova Gulchiroy A'zamovna, Xolova Nigina Sur'atovna
Navoiy shahridagi 6- maktabning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari.

Xozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet
tarmoklari va zamonaviy pedtexnologiyalar bilan bog'lik yangi imkoniyatlar yaratib berilmokda. Ta'limni
an'naviy usullari urnida intefaol usullarni qo'llash orkali uni samaradorligiga erishish dolzarb bulib turibdi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga
bo'lgan qiziqish, kundan-kunga rivojlanib bormokda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaktgacha
an'anaviy ta'limda o'quvchilarni fakat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy
pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiiq etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari kidirib
topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil kilishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chikarishlariga
o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar
o'quvchilarni bilimli, ko'nikma va malakaga ega bulishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga
bo'lgan kizikish, kundan-kunga rivojlanib bormokda. Bunday bulishini sabablaridan biri, shu vaktgacha

an'anaviy ta'limda o'quvchilarni fakat tayyor bilimlarini egallashga urgatilgan bolsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbik etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini uzlari kidirib topishlariga, mustakil o'rganib, taxlil kilishlariga, xatto xulosalarni xam uzlari keltirib chikarishlariga urgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogig maxoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar o'quvchilarni bilimli, kunikma va malakaga ega bulishlarini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar bu-jamoa bulib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari uziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va boshlayetich sinf o'quvchilarning kichik guruxlarga bulib, birgalikda faoliyat kursatishi orkali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni uziga xos xususiyatlarga ega bulib, ularga kuyidagilar kiradi:

o'quvchining dars davomida befark bulmaslikka, mustakil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

o'quvchilarni o'quv jarayonida fanga va bilim olishga bulgan kizikishlarini doimiy ravishda bulishini ta'minlashi;

o'quvchining bilimga bulgan kizikishini mustakil ravishda bajarishi va xar bir masalaga ijodiy yondoshgan xolda kuchaytirishi;

Pedagog va o'quvchilarning xamisha xamkorlikdagi faoliyatini tashkil kilinishi nazarga tutiladi..

Jamiyat tarakkiyoti xech kachon tuxtab kolmaydi, uning Fildiragi doimo oldinga karab aylanaveradi, bu albatta tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun xam biz o'qituvchilar bu borada ilFor pedagogik taxnologiyalarni dars jarayoniga keng tadbik etishimiz darkor. Dars jarayonida o'quvchilarga ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish maksadga muvofikdir.

O'qituvchi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axlokiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Biz bilamizki «Pedagogika» ta'lim - tarbiya xakidagi fan sifatida tarbiyaning moxiyatini tushunishini va uning konuniyatlarini ochib berishi xamda shu orkali inson manfaatlar tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi. Bu albatta kuppina muammolarni xal etishda yakindan yordam beradi. Ilg'or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir katorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari xam o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonidagi muammo: yutuk va kamchiliklar aniklanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va og'zaki xamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarni o'rganish metodlaridan unumli foydalaniladi.

O'qituvchi-o'quvchi darsning maksaddan natijaga erishishida kandy texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki xar ikkala tomonning asosiy maksadi anik natijaga erishishga karatilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, gurux xarakteri, sharoitga karab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balkim film, tarkatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bular, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'lik.

O'qituvchi o'qitish jarayoni oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonida pedagog o'kuv predmetining uziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va extiyojini xamda xamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini xisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Kiska kilib aytganda, o'quvchini ta'limning markazita olib chikish kerak.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni takazo etadi. Ular juda xilma - xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta'lim metodlari xamda xozirda dars jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Shu bilan birgalikda aytish lozim-ki, yukorida keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o'quvchilarda mantikiy, akliy, ijodiy, tankidiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ayniksa, o'quvchilarni kobiliyatlarini rivojlantirishga, rakobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga xamda mutaxassisga kerakli bulgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

PEDAGOGIK TA'SIRNING TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Axunxadjayeva Go'zal Erkinovna

Toshkent davlat transport universiteti "Tillar" kafedراسi katta o'qituvchisi

Respublikamiz istiqlolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'yiladi lekin ikkinchi tomondan shaxsga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsga bo'lgan talablarni va unga

bo'lgan izzat-xurmatni birga qo'shib – ikki xil shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari o'z o'quvchilari taqdiriga berparvo bo'lgan kishilar qo'lida sof kasb-korlik vositalari emas, balki inonlar orasidagi jonli munosabatlar majmuidir.

Umuman pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini mukammal egallamasdan va undan mohirona foydalanmasdan turib ta'lim-tarbiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi.

Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o'zaro fikr almashishda ta'sir ko'rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta'sir etish. Rus pedagogi Uspenskiy

«Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin», degan edi. O'qituvchi faoliyati o'z o'qituvchilarini ishontirish va ta'sir etishni talab qiladi. Pedagogning barcha ta'sirlari: o'quvchilarning munosabatlari, fikrlari, xis-tuyg'ulari, xarakterlarini o'zgartirishga va mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, u muhit va tabiatning hamkorligiga ta'sirlanadi. O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishonchdir. Ishonch asosida o'qituvchining bilimlar tizimi, dunyoqarashlari, munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi.

Ishonch – o'zaro hamkorlikdagi ta'sir etishning natijasi ekanligini ko'ramiz. Ishonch ikki xil, ya'ni haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Haqiqiy ishonch real borliq hayot talablariga mos bo'lib, u insonni qadrligi, obro'li qiladi. Soxta ishonch o'zi va birovlarining salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo'ladi. O'qituvchilardagi soxta ishonchni o'zgartirish uchun o'qituvchi ko'p kuch sarflaydi. U uch yo'nalishda olib boriladi: sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirish, qimmatli maxsus individual tajribani yaratish, noto'g'ri ishonchdagi qarash, bilim, tasavvur, tushunchalarni bartaraf etish.

Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog'lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog'i ixlos qilmog'i kerak. Halollik, adolat sof vijdonlilik, poklik, so'z va ish birligi ishonchning mezonlaridir. Ikkiyuzlamachilarga, firibgarlarga, munofiqlarga hech kim ishonmaydi.

Insonda ishonch uchta tarkibiy qismdan tarkib topadi: bilim – xissiyot – xulq-atvor. Ishonch quyidagi formula: tushunish – kechinmalari – o'ziga qabul qilish – bajarish (o'z faoliyati va atrofida) asosiy amalga oshiriladi.

Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki o'zgaradi. Ishontirish shakllari tubandagilar: munozara, baxs, suhbat, xikoya qilish va namuna.

Ishontirish hamkorlikda ta'sir ko'rsatishda maksimum ta'sirli bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berish kerak.

-ishontirish mazmuni, shaklli o'quvchining rivojlanish darajasiga mos bo'lishi (kichik o'quvchilar ertak, fantastik xikoyalari va boshqa);

-ishontirishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

-ishontirish umumlashgan, konkret asoslarga, misollarga. Boshlang'ich sinflarga ovoqli materiallarga tayanishi;

-ishontirishda o'qituvchi o'z habar qilayotgan narsaga o'zi chuqur ishonishi va h.k. ishontirishning o'zaro hakorlikdagi ta'sir ko'rsatish samarasi quyidagi shartlarda yuz

beradi:

-o'zaro hamkorlik ta'sirning kuchi ishontirishning obro'siga va voqeaning mazmuniga bog'liq (o'quvchi o'qituvchiga qanchalik ijobiy munosabatda xo'lasa, shunchalik unga tez ishonadi):

-ishontirishda o'quvchining individual ruxiy holatini hisobda olish;

-ishontirishda ishontiruvchining intellektual xissiy holati bilan ishonuvchining holati mos bo'lishi kerak. Masalan, bola haddan tashqari hayajonlanganda noxush his-tuyg'ular unda hamkorlik qilganda uning hulqidagi kamchiliklarni ko'rsatish orqali ta'sir ko'rsatish samara bermaydi.

Ishontirish metodi ta'sirli bo'lmaydi qaysiki, fikr, hissiyot va iroda bir butun holda muvofiqlashadi. Ishontirishning samarasi o'qituvchining so'z va ish harakat birligiga bog'liq.

Ta'lim va tarbiyada o'qituvchining ishontirish haqida Ibn Sinoning quyidagi iboraning so'zlarni qimmatidir: «Har bir so'z harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi zarur».

Pedagogik ta'sir ko'rsatishda ishontirish metodi bilan bir qatorda ta'sir ko'rsatish metodi ham qo'llaniladi. Uzoq yillar pedagogik jarayonda ta'sir etish tan olinmas edi. Biz xoxlasak, xoxlamasak ta'sir ko'rsatish elementlari hayotda o'zaro hamkorlikda muxim rol o'ynaydi. So'z yordamida biz o'qituvchilarga ziyraklik yoki qo'rquvni, o'ziga ishonch yoki ishonchsizlikni, zerikish ishonch yoki suxbat singlarlarini hosil qilamiz.

O'qituvchilarga ta'sir qilish so'zning fandagi ma'nosiga qarab emas so'z va nutq intonatsiyasi, aniqligini ifodolovchi hamda bularni mustahkamlovchi imo-ishoralari – yuz, qo'l harakatlari bilan bevosita

hissiyotga ta'sir etadi. Bu haqida Makarenko: «... Yuz harakatlarni yaxshi egallamagan, o'z yuzida zarur ma'nolarni bera bilmaydigan yoki o'z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas» - deydi o'rinli ta'kidlab.

Suxomlinskiy so'zning ta'siri haqida: o'qituvchining so'zi – o'quvchining qalbiga ta'sir o'tkazadigan yagona so'z. Tarbiyachilik san'ati – avvalo, gapirish, inson yuragiga murojaat qila olish san'atiga bog'liq. Men astoydil ishonamanki, ko'pincha katta janjal bilan tugaydigan, maktabda tez-tez sodir bo'lib turadigan mojarolar – o'qituvchilarning o'quvchilar bilan gaplashishni bilmasliklari oqibatidir» degan fikrlari qimmatlidir.

Umuman, pedagogik ta'sirning samarali bo'lishi shartlari: o'quv materialining mazmuni: ta'sir ko'rsatishdagi xolatiga bog'liqligi; o'qituvchining ta'sir ko'rsatish texnikasiga; ta'sir ko'rsatishning asoslangan sifatiga va amalda qo'llash uchun yaratilgan sharoitga va boshqalarga bog'liq.

O'QUVCHIGA QOIDA YODLATMASDAN AMALIY KO'NIKMANI RIVOJLANTIRAYLIK

Abdullayeva Barno Baxodirovna

Urganch shaxar 28-son maktab uzbek tili fani Oliy toifali o'qituvchisi.

So'z – nutqning asosiy xom-ashyosi. O'quvchini bu xom-ashyo bilan ta'minlashning asosiy mas'uliyati ona tili ta'limi zimmasiga tushadi. Shuning uchun so'z ustida ishlash, o'quvchilarni ularga notanish bo'lgan so'zlar olamiga olib kirish, nutq sharoitiga qarab ularni to'g'ri va o'rinli ishlatishni ta'minlash ona tili mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismiga va ona tilidan o'quvchi bilimni baholashning asosiy omillaridan biriga aylanmog'i lozim.

Ona tili ta'limidan asosiy maqsad "O'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini, fikrni turli yo'sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat" ekan, bunga erishishni boy va barkamol so'z xazinasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Nutq boyligi masalasi ona tilidan ta'lim samaradorligining amaliy ko'rsatkich darajasiga ko'tarilishi va so'z boyligini oshirish hamda boyitish esa ona tili ta'limining asosiy maqsadiga aylantirilishi ta'limning jahon andazalariga mos keladi.

Haqiqatda ham, o'quvchilarga ona tilini o'qitishdan maqsad nima?

Maqsad – ularda savodli va go'zal nutq madaniyatini hosil qilish. Ta'lim samarasi har bir o'quvchining amaliy nutqi asosida baholanishi lozim. Ona tili ta'limi oldida hozirgi davr qo'ygan zamonaviy talab mana shundan iborat. So'z boyligini oshirishga mone'lik qiladigan omillar bir nechta bo'lib, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.




Ona tili ta'limi mazmunining o'ta ilmiyligi, nazariyashtirilganligi va maydalashtirilganli bolalarning so'z boyligini muttasil oshirib borish, so'zdan tez, to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga juda katta g'ovdir. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning asosiy vaqti nutqiy tadbirkorlik va samaradorlikni ta'minlashga mutlaqo aloqasi bo'lmagan til xodisalarini tahlil qilish-u, ularni quruq yodlab olish bilan band bo'lmoqda. Hali yetarli so'z boyligiga ega bo'lmagan, o'z ona tilining imkoniyalaridan nutqda foydalanish

malakalariga ega bo'lgan o'quvchi gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabilarni aniqlash-u, ularning talqinini berish bilan cheklanmoqda. Bu esa o'quvchi nutqining rivojlanishida hech qanday ahamiyatga ega emas. Chunki ma'lumot mazmunining ilmiylashuvi, nazariylashuvi va maydalashuvi bolalarni fandan bezdiradi: amaliyotdan yiroq, murakkab nazariy bilimlarni o'zlashtirishning qiyinligi o'quvchilarda shu fanga nisbatan salbiy munosabat va o'zlashtira olmaslik xavfini tug'diradi. Ko'r-ko'rona vaqtincha o'zlashtirilib, tez orada xotiradan ko'tariladigan bilimlar esa, besamara faoliyat bo'lib, u o'quvchilarda o'qishga nisbatan salbiy ruhiy munosabatni vujudga kaltiradi, ulami o'qishdan bezdiradi. Eng asosiysi bolalarning lug'at boyligini oshirishdek foydali amaliy ishlar grammatik talqinlar soyasida qolib ketadi. Jumladan, tilshunos olim B.Mengliyev ona tili ta'limi yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirar ekan, o'quvchilarga son-sanoqsiz qoidalarni yod oldirishimiz, gaplarni ipidan ignasigacha tahlil qildirishimiz bu esa o'quvchinig og'zaki va yozma nutqiga qay darajada ta'sir etish haqida o'ylab ham ko'rmaymiz deya kuyinib gapirarkan yana shunday misollarni keltiradi: "Bolalarimizning nutqida tutilish, duduqlanish, "anaqa", "haligi", "nima desamikin" va h.k kabilarni har ikki so'z orasida xuddi bog'lama sifatida qo'llashlari va bundan hijolat ham bo'lmasliklari haqida gapirib, buning sababini shunday ko'rsatadi: "...ona tili predmeti to'la-to'kis tilshunoslik faniga aylanib bo'ldi. O'qituvchi ham, o'quvchi ham, ota-onalar ham ona tili ta'limi deganda tilshunoslik qoidalarini yodlash va ularga doir mashq va topshiriqlarni bajarishdan boshqa narsani tasavvur qila olmaydigan bo'lib qoldi. Birinchi planda turishi kerak bo'lgan og'zaki va yozma nutq bo'yicha savodxonlik, nutq va muloqot madaniyati, boy so'z zaxirasi, notiqlik eng oxirgi o'rinlarga tushib ketdi"12.

Tilshunos olimning yuqoridagi fikrlari qanchalik to'g'ri va achinarli. Keyingi yillarda o'zbek tilidan tuzilgan dasturlarda "Nutq o'stirish" bo'limi ajratilgan. Unga maxsus soatlar berilgan. Lekigin dars jarayonida lug'atlar bilan ishlamaslik, so'zlarning izohini bilmaslik o'quvchilarni na so'z boyligini, na savod darajasini oshiradi. Bugungi kunda chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil va mantiqiy fikrlovchi o'quvchi yoshlarni tarbiyalashimizda oldimizda turgan muhim vazifalardan biri amaldagi ta'lim tizimidagi grammatik qoidalar va ilmiylikni bartaraf etishdan iboratdir. Bu grammatik bilimlardan to'la-to'kis voz kechish degani emas, albatta. Ayni bir masalaga ikki xil yondashuv usuli va uning samarasini ko'rib o'taylik:

Grammatik, ilmiy. Gap ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, undalma, kiritma kabi tarkibiy qisimlarga ajratiladi va tahlil qilinadi. Bu usul bolalarda tayyor nutqni parchalash va uni chaynash, maktab amaliyoti uchun keraksiz bilimlarni ajratishga mo'ljallangan. Shu bilan birga bolada faqatgina nazariy bilimlarni tushunish va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Amaliy - ijodiy usul. Bu usul ona tilida «gapni kengaytirish» usuli deb yuritiladi. Gapni kengaytirish ham o'z navbatida 2 turga bo'linadi:




Gapni vertikal kengaytirishda berilgan gapdagi har bir so'zga ma'nodoshlar, uyadoshlar topilib pastga qarab ustuncha shaklida kengaytiriladi. Bunda o'quvchi mustaqil, ijodiy fikrlaydi, so'z izlaydi, so'z topadi va nihoyat ana shu so'zlarni o'z nutqida to'g'ri va o'rinli qo'liash uchun so'z tanlash imkoniyatlariga ega bo'ladi. bu jarayonda o'quvchi lug'atlar bilan ishlaydi, mehnat samarasi sifatida ijodiy yaratiq yaratadi.

Gapni kengaytirish usullari:

So'zga ma'nodoshlar topib gapni kengaytirish va ixchamlash.

Do'stim	bugun	xursand	edi.
o'rtog' im	Xushnud		

dugonam	shod-xurram	
jo'ram	Baxtiyor	
Oshnam	vaqti chog'	
Birodarim	kayfi chog'	
qadrdonim	dimog' i chog'



Ushbu ma'nodosh so'zlarning qo'llanilish darajasi, nutq uslublari bilan bog'liqlik jihatlari, ijobiy, salbiy bo'yoqdorligi ya'ni stilistikasi yuzasidan ko'nikma va malaka esa mashg'ulot davomida "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" bilan ishlash jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi.

Kesimdan savol berib gapni kengaytirish va ixchamlash.

Yozdim							
Men	yozdin						
Men	bugun	yozdin					
Men	bugun	inshoni	yozdin				
Men	bugun	adabiyot	fanidan	inshoni	Yozdim		
Men	bugun	adabiyot	fanidan	komillik	haqida	inshoni	yozdin....

Bu topshiriqlarni bajarishda bola yangi jumlasini uchun eng to'g'ri, eng nafis, eng joiz so'zni o'zi mustaqil tanlaydi va asosiy mazmuni saqlagan holda yangi, o'zining mustaqil fikri asosida shakllantirilgan "gapi"ni quradi. Bu jarayon bola uchun juda jiddiy va qiziqarli. Chunki bu yerda bolaning so'z tanlash qobiliyati rivojlanadi va takomillashadi.

Ikkinchi usul «Gapni gorizontallik kengaytirish va ixchamlash» deb ataladi. Bu jarayon kesimdan savol berib gapni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Navbatdagi bosqichlarda o'quvchilar har bir kengaytirilgan bo'laklarning o'zini kengaytirish, boshqa so'zlar bilan almashtirish orqali ham gap bo'laklari haqida ma'lumot hosil qilishlari, ham so'z boyliklarini oshirishlari hamda ravon nutq malakalarini hosil qilishlari mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, maqsad grammatik ma'lumotlarni ona tili mashg'ulotlaridan chiqarib tashlash emas, balki uni nutq

o‘stirishga, o‘quvchi nutqida to‘g‘ri va ravon qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qildirishdan iboratdir.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda yuzaga keladigan metodik qiyinchiliklar. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga mone‘lik qilayotgan omillardan yana biri ko‘p hollarda ona tili mashg‘ulotlarida ta‘lim metodi, usuli va vositalarining noto‘g‘ri tanlanganligidir. Ma‘lumki, ta‘lim jarayonida hamon o‘qitishning deduktiv usuli o‘z hukmronligini saqlab kelmoqda. O‘qitishning bu usulida o‘quvchi faqatgina tinglovchi nari borsa, o‘qituvchining ko‘rsatmalari asosida harakat qiluvchi, berilgan andozaga qarab, faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsga aylanib qoladi. Til materiallarini berishning bu deduktiv (qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka) usuli o‘quvchini faollashtirishni qiyinlashtiradi, uni ta‘lim jarayonining tinglovchisiga aylantirib qo‘yadi. Chunki umumiy qoida, xulosa, ta‘rif va talqinlardan amaliy ishga o‘tish jarayonida o‘quvchining fikrlash faoliyati chegaralanadi. U o‘rganilayotgan til hodisalarini o‘z aqliy faoliyati jarayonidan o‘tkaza olmaydi. O‘quvchi o‘ylamaydi, o‘zi hodisalarini kuzatib, hukm va xulosa chiqarishni o‘rganmaydi; tayyor qoidani qabul qiladi, singmagan qoidani bir-ikki mashg‘ulotda baholi qudrat amalda qo‘llaydi va navbatdagi mashg‘ulotga o‘tgach, o‘zida singmagan tushunchani batamom unutadi.

Shuni unutmaslik lozimki, ona tili mashg‘ulotlarida bolaning ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishiga ko‘makiashadigan so‘zlarni kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan foydalanilmas ekan, ta‘lim samaradorligiga umid bog‘lash qiyin.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi o‘zi mustaqil izlanib, qoida va xulosalar hosil qilmas ekan, bu qoida va xulosalarning o‘quvchiga hech qanday foydali jihati yo‘q. Shuning uchun mashg‘ulotlarni deduktiv (umumiylikdan xususiylikka) emas aksincha induktiv (xususiylikdan umumiylikka) usulida amalga oshirish zarur. bunda o‘quvchiga o‘xshash hodisalar berilib, undan o‘xshash hodisalaridagi umumiylikni ajratish va hodisalar sirasini davorn ettirish talab etilsa (“Venn diagrammasi”, “T- chizmasi”, “Klaster” tarmoqlash va h.k) samara tamoman boshqacha bo‘ladi. Birinchidan, umumiylikni hosil qilishda bolaning mehnati singadi: hosil qilingan umumiylik bolaning faoliyat samarasiga aylanadi (o‘ylaydi, izlanadi, farqlaydi, xulosa chiqaradi). Shuning uchun bu umumiylik o‘quvchining shaxsiy mulki sifatida abadiy uniki bo‘ladi va unutilmaydi. Berilgan hodisalarini davom ettirish talabi esa hosil qilingan umumiylikni amaliy tatbiq bilan mustahkamlaydi. Umumiylikning xususiy voqealanishi cheksiz bo‘lganligi sababli, bunday faoliyat o‘quvchini doimiy shakllanishga, rivojlanishga undaydi.

O‘quvchining ona tili va adabiyot fanidan samarali ta‘lim olishlari va ularning so‘z biyigini oshirishda ularning intellektiga ham alohida e‘tibor qaratish yuqori natijani ta‘minlaydi. Bunda konstruktivizm nazariyasiga amal qilish ya‘ni konstruktivist o‘qituvchi bo‘lish lozim. Biz o‘quvchilarimizga bilimni yodda saqlashni emas, balki olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish va hayotlari davomida samarali foydalanishga o‘rgatishimiz, yo‘naltirishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Ne‘matov.H., Gulomov A., Ziyodova T. Hozirgi olzbek adabiy tilini o‘rganishda o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. – Toshkent: «Xalq merosi», 2002.
2. G‘ulomov A., Shukurov A. Ona tilidan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
3. T.: «O‘qituvchi»,1989.
4. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tilidan ta‘lim mazmunini yangilashning asosiy yo‘nalishlari.
5. T.: «O‘qituvchi», 1992.
6. Ziyadova T. So‘zi boyniig – o‘zi boy. Ona tili o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, RTM,1994, 60 bet.
7. Ziyadova T. Dunyoni so‘z boshqaradi. Ona tili o‘qituvchilari uchun o‘quv -metodik qo‘llanma. – Guliston, 1995.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING BADIY TARJIMADA BERILISHI

Husenova Gulnora Saidovna

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 40-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Bugungi kunda badiiy adabiyotlarda uchraydigan frazeologik birikmalarni tarjima qilish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarga katta e‘tibor berilmoqda. Lingvistik tarjimashunoslik bo‘yicha yaratilayotgan ko‘pchilik tadqiqotlarda tarjima nazariyasi va amaliyotining juz‘iy masalalari bilan bir qatorda mazkur sohaning mahiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko‘lamda

bosh qotirmoqda. Bu hol lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqotchilar e'tiborini borgan sari ko'proq o'ziga tortayotganligidan dalolat beradi.

Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo'lmish frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o'ta murakkab va shu bilan birga, juda mas'uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularni ushbu vazifalarini hisobga olgan holda, ularning tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo'lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga – ularning leksik, semantik va qurilish jihatdan murakkabligiga bog'liqdir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi.

Asl nushada qo'llanilgan frazeologik birliklar tarkibidagi badiiy muqoyasalar umuminsoniy haqiqat, ma'lum va mashhur tarixiy dalillar, tarjima tili vakillariga yaxshi tanish narsa va boqea- hodisalar asosida yuzaga kelgan bo'lsalar, boz ustiga muqoyasa unsurlari orasidagi mantiqiy bog'lanish ko'zga yaqqol tashlanib tursa, bunday frazeologik birliklarni kalka usulida tarjima qilish aksariyat hollarda adekvatlikni yuzaga keltiradi.

Frazeologik birliklarni tasviriy yo'l bilan talqin qilish kitobxonga ularning ma'nolarinigina yetkazib beradi, uslubiy vazifalarini so'ndirib, ifodalarni badiiy-tasviriy xususiyatdan mahrum qiladi.

Ma'lumki, xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy -siyosiy sharoitlarda yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashi va axloqida goho bir -biridan farq qiladigan turli tuman o'ziga xos tushuncha va qarashlar shakllanadiki, ular so'zsiz o'sha xalqning tilida o'z aksini topadi. Shunga ko'ra ayrim narsa va hodisalar hamma tillarda bir xil timsolli mazmun kasb etavermaydi. Bir tilda muayyan hislat yoki sifat timsoli bo'lgan narsa yoki voqea-hodisa boshqa bir tilda o'sha xususiyat ramzi bo'la olmasligi mumkin. Masalan, tropik iqlim sharoitida yashovchi xalqlar qor nimaligini ko'z oldiga keltira olmagan bir paytda ularning tillarida ijobiy baholanayotgan bir narsaning ittifoqo "qor"ga o'xshatilishi zaruriy obrazli ifodani yarata olmaydi. Binobarin, eslatilgan tushunchalar asosida qaror topgan lisoniy birliklarni o'zgacha sharoitlarda istiqomat qiladigan xalqlar tiliga o'girish tarjimon oldiga qator muammolarni qo'yadi.

O'zbek tilida tim qora, ya'ni chiroyli, jozibador ko'zning charosga muqoyasa qilinishi fikrni obrazli ifoda etishni an'anaviy uslubi bo'lib, rus tilida bunday vazifa "qora smorodina" – "chyornaya smorodina" zimmasiga yuklanadi. Shu asosida mazkur tillarda "charosdek qop-qora ko'zlar" va "glaza chernye kak mokraya smorodina" komparativ frazeologik birliklari hosil bo'lganki, tarjimada ularni ekvivalentlar sifatida tan olib, birini ikkinchisi orqali talqin etish pragmatik adekvatlikni yuzaga keltiradi. Birliklar tarkibidagi "smorodina" va "charos" so'zlari anglatadigan ma'nolar mahalliy hususiyatga ega ekanliklari tufayli mazkur so'z birikmalarini kalka usuli vositasida o'girib bo'lmaydi. Bunday o'ziga xosliklar boshqa tillarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, dilbar qizning yuzi inglizlar nazarida "gilos"ga yoki "atirgul"ga o'xshatilsa, o'zbeklar ta'rifida "olma"ga muqoyasa qilinadi, ingliz tilida beozorlik timsoli sifatida "kabutar", o'zbek tilida "musicha" qabul qilingan.

Demak, tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi.

TA'LIMDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR VA MENTALLIKNI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Gulhayo Jo'rayeva

NavDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an'ana, udum, taomil, ramzlarini tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy va taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi, mentallik va mentalitet kategoriyalarini tashkil etadi.

Darhaqiqat, mentallik – milliy xarakterning intellektual, ma'naviy va iroda xususiyatlarini o'zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko'rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi. A. Ya. Gurevichga ko'ra, mentallik – dunyoni ko'rish yo'li,

u g'oya bilan o'xshamaydi. "Mentallik falsafiy, ilmiy yoki estetik tizimlar emas, u fikr emotsiyadan qismlarga ajralmagan jamiyat tafakkurining darajasi".⁶ Xalq mentalligi tilning muhim konseptlarida dolzarblashadi.

Lingvokulturologik birliklarda mentallik va mentalitet xalq urf-odatlarini, an'analari, afsonalari, aforizmlari, turli bayram va marosimlari, diniy aqidalari, pul birligi, o'lchov birligi, sanoati, savdosi, fan va texnikasi, san'ati, ta'limi, milliy taomlari, me'moriy obidalari, milliy xarakteri kabilarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu borada o'zbek adabiyotida Tog'ay Murod asarlari salmoqli o'rin tutadi.

Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalari. Said Ahmad ta'biri bilan aytganda, Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirdangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa sira o'xshamaydi. Bunday qahramonlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni tiniq eshitadigan bo'lishi kerak. Ana shunday qobiliyat bilan u o'zbek xalqining mentalitetiga ko'zgu tutadigan o'lmas asar- "Oydinda yurgan odamlar" asarini yozdi.

"Oydinda yurgan odamlar qissasida o'zbek millatining, o'zbekning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, bir so'z bilan aytganda mentaliteti aks etadi. Mentalitet (nem. mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok) turli masshtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo-intellektlarini namoyon qiladi. Bu asar lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlar asosida tasniflash o'rinlidir:

Muqobilsiz leksik birliklar. Har qanday til yoki dialektida boshqa

bir tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. O'zbek madaniyatining belgilarini palov, patir, sumalak, halim kabi so'zlarda ko'rish mumkin.

Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Bular arxetiplar va mifologemalar,

udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. O'zbek kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Ota- bobolardan qolib kelayotgan udum, an'anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo'ymaydilar, nonni ustidan hatlab o'tmaydilar, agar non qo'ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pib, peshanalariga suradilar, non ushoqni dasturxon ustida ko'rsalar barmoqni ho'llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo'yadilar. Nonga hurmat-ehtiromlar bilan munosabatda bo'lish bolalarga yoshlikdan o'rgatiladi, ularga nonning ushog'ini yerdan yig'ib olish, uni e'zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biror o'zbek yo'lga chiqsa, albatta, o'zi bilan birga non oladi. Shunga ko'ra, tarkibida non komponenti ishtirok etgan non yemoq, noni butun, noni yarimta bo'ldi, non ursin singari frazeologizmlarning asosida non arxetipi hayot, tirikchilik, rizq-ro'z, to'kin-sochinlik ramzi sifatida keladi.

Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi. Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallarni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlarini, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, ko'rpa-siga qarab oyoq uzatmoq "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq", tanobini tortmoq "faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'yimoq", to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirmoq", to'nini teskari kiyib olmoq "o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq", xamir uchidan patir "katta ko'p narsadan boshlang'ich va kichik bir qism", Xo'ja ko'rsinga "shunchaki nomigagina", Xizni yo'qlasam bo'lar ekan "kimnidir ko'rish istagi qo'qqisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora". Biron tilning o'zigagina xos bo'lgan hisob so'zlari qolipining frazeologizmlarga ko'chganini ko'rish mumkin.

O'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar. O'xshatishlar o'ziga xos obrazli

⁶ Z. N. Xudoyberganova. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari. T.:2016. B. 27.

tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsionalekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo'ladi. Prof. N. Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi. "...O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi"⁷. Masalan, aksariyat tillarda tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi. Mazkur o'xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan.

Adabiyotlar

1.Z. N. Xudoyberganova. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari. T.:2016. B. 27.

2.N. Mahmudov. "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..."//O'zbek tili va adabiyoti. – T.:2012. – 5-son. B.3.

AUDIOVIZUAL MATERIALLAR ASOSIDA CHET TILIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Shamsiyeva Hilola Rajabovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 40 maktab fransuz tili fani o'qituvchisi

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodikalardan foydalanish samarali natijalarga erishishda zaruriyatga aylanib bormoqda. Bu jarayon mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2012 yil 10 dekabrda tasdiqlangan "Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"⁷gi PQ-1875-son qarorida ham o'z aksini topgan (1). Bunda ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion metodikalardan foydalanish, AKT va multimedia texnologiyalarini samarali tatbiq etish kerakligiga alohida urg'u berilgan.

Chet tilini o'rganish va o'qitishning zamonaviy yondashuvlari muloqot yuritishga o'rgatish (kommunikativ yondashuv) va nutqiy vaziyatga mos harakat qilish (faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv)ga asoslanadi. Bu jarayon AKT, xususan, Internet-video materiallari bilan bog'lab amalga oshirilsa, ta'lim sifatini oshirishda qo'shimcha afzalliklarni keltirib chiqaradi.

Shunga ko'ra, bugungi kunda Yevropa mamlakatlari, xususan, Fransiyada xorijiy tillarni o'qitishda eng zamonaviy va samarali yondashuv sifatida faoliyatga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv faol qo'llanilmoqda. Kompetensiya biror faoliyatga yo'naltiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarning uyg'unligidir.

Ma'lumki, video materiallar o'z manbasiga, metodik va metodologik asosiga ega bo'ladi va har qanday video materialda muayyan muammoga e'tibor qaratiladi. Shundagina unga muloqotni rivojlantiruvchi vosita sifatida qarash mumkin. Demak, videoni tomosha qilish jarayonida nutq amaliyotining interfaol, ijodiy xususiyati namoyon bo'ladi.

Lug'atlarda video material ovoz va tasvirning uyg'unligi sifatida ifodalanib, ta'lim-tarbiya jarayoniga qaratilganligi ta'kidlanadi (8).

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilayotgan audiovizual materiallarning manbai bo'lgan Internet esa kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanuvchilar o'rtasidagi muloqotning xalqaro tarmog'i sifatida izohlanadi (9). Demak, Internet o'quvchilar uchun til o'rganishning motivatsiya manbai, dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni biror bir til vositasida audiovizual materiallar orqali anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Audiovizual materiallar xususida gapirilar ekan, "audiovizual" tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tish joiz. Lotin tilida audire – tinglamoq, videre – ko'rmoq, ya'ni, "tinglashga ham, ko'rishga ham mo'ljallangan" degan ma'noni anglatadi(2, 9).

Xorijiy tillarni audiovizual materiallar asosida o'qitish metodi audiovizual metod deb ataladi(2, 9). Chet tilini ham tinglash, ham ko'rish orqali o'zlashtirish ushbu metodning asosi qilib olingan. Bu metod

⁷ N. Mahmudov. "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..."//O'zbek tili va adabiyoti. – T.:2012. – 5-son. B.3.

Fransiyada o'tgan asrning 50-yillarida shakllangan bo'lib, xorijiy tillarni o'qitishda asosan video va audio materiallardan foydalanish bilan ifodalangan(7, 5).

Bu borada F. Manjeno, M. Katru, S. Pyuran, T. Lansiyen, M. Tome kabi olimlar fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganish/o'qitishda multimedia vositalari va raqamli texnologiyalarning ahamiyatini o'z asarlarida ta'kidlab o'tishgan. Shuningdek, F. Paskiyning fikricha, video materiallar so'zlovchidan to'g'ridan-to'g'ri (og'izning harakatlanishi, lablarning kengayib-torayishi, mimika, pantomimikalar orqali) artikulyatsiya jihatidan muhim ma'lumotlarni audiovizual qabul qilishga imkoniyat tug'diradi(3, 12). Bu esa tinglovchining nafaqat xorijiy tilni puxta o'rganishiga yordam beradi, balki bilim doirasini ham kengaytiradi, qabul qilinayotgan axborotni tahlil, sintez qilish orqali ijodiy erkin fikrlash doirasini rivojlantiradi. Ushbu jarayon talabning chet tilidagi nutqiy kompetensiyasi, ijodiy erkin muloqot ko'nikmasini yanada rivojlantiradi. Mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantirishga, interfaollikka imkoniyat yaratadi.

J.M. Dyukroning fransuz tili auditoriyasi uchun video materiallardan foydalanish xususidagi (5, 1), F. Manjenoning fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganish/o'rgatish jarayonida Internet resurslarining ahamiyati haqidagi (6, 1), shuningdek, M.Katruning fransuz tilini o'qitishda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda AKT va multimedia vositalaridan foydalanish yuzasidan (4, 1, 4, 7, 14) olib borilgan tadqiqotlari fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganish/o'rgatishda audiovizual materiallarning nechog'li muhimligini ko'rsatadi.

Video material media vosita sifatida ma'lumotni ikki xil yo'sinda ifodalaydi: tasvir va tovush. Bunda tasvirni didaktik vosita sifatida, tovushni ma'lumot beruvchi vosita sifatida tushunish mumkin.

Tasvir reallikni ifodalagani uchun o'quvchida qiziqish uyg'otadi, ma'lumotni kengroq tushunishga imkon beradi. Eshitilgan materialni vizual tasvirlashga imkon yaratadi. Ma'lumki, tasvir va tovush jamiyatda muloqot va axborot yetkazishning fundamental, samarali vositasi bo'lib, video sifatida berilganda real voqelikni aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovush va tasvir o'rtasidagi aloqadorlik animatsion tasvir yoki video tasvir vazifasini aniqlab beradi. Shu nuqtai nazardan, video tasvirning vazifasi quyidagi afzalliklarda namoyon bo'ladi:

Gapirish / so'zlash uchun imkoniyatga keng o'rin berilishi. Agar tovush va tasvir video sifatida ifodalansa, tinglovchida mazmun haqida ko'proq so'zlash imkoniyati paydo bo'ladi. Videodagi manzara (insonlar, narsa-mavjudotlar va harakatlar) tovushda ifodalanib, tasvirda paydo bo'ladi. Bu esa tinglovchida xotiradagi leksik boylikdan to'laqonli foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O'rganilayotgan manba haqida keng ma'lumot olish imkoniyatining mavjudligi. Animatsiya jarayonda tovush orqali berilayotgan ma'lumot tasvir orqali tinglovchining ko'z o'ngida gavdalanadi va ma'lumot ham audial, ham vizual bo'ladi.

Manbani o'zlashtirishning vizual tomoni. Tovush videodagi voqelik bo'yicha vizual ma'lumot beradi, ya'ni tovush videoda sodir bo'layotgan voqeaga mos tarzda gavdalanadi. Bunda materialning vizual tomoni talabning ko'z o'ngida voqea sifatida gavdalanib boradi, bu jarayon o'quvchida kognitiv xususiyatni rivojlantiradi va dunyo qarashini boyitadi. Demak, didaktik material nafaqat chet tilini o'rganishda bir vosita sifatida, balki ma'naviy va madaniy dunyo qarashni rivojlantiruvchi vosita sifatida ham qaraladi.

Manbani o'zlashtirishning audial tomoni. Materialning audial tomoni nutqning nima haqida ekanligi to'g'risida to'liq verbal xabar beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, har qanday audiovizual materialdan foydalanishdan asosiy maqsad talabada nutqiy faoliyat turlaridan biri bo'lgan tinglab tushunish kompetensiyani rivojlantirishdir. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, audial matn real hayotni aks ettirishi va o'quvchini kommunikativ muhitga moslashtirishi kerak. Shundagina, o'quvchi audial nutqni tez va aniq anglaydi, sintez qila oladi.

Tovush va tasvirning uyg'unligi hisoblangan audiovizual materiallar video ko'rinishda aks etib, didaktik jihatdan ta'lim jarayonida maqsadli foydalanishda ham samarali hisoblanadi. Shuningdek, audiovizual materiallardan ta'limda didaktik jihatdan bir tomonlama, ya'ni audio yoki ovozsiz video sifatida ham foydalansa bo'ladi. Bunda talaba-o'quvchida muayyan jihatni, ya'ni eshitish, tasavvur qilish yoki ko'rib fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi

Tovush, albatta, tasvir bilan chambarchas bog'liq, biroq tasvirning tovush bilan bir vaqtda animatsiya orqali berilishi ma'lumotni tushunishda tasvirga nisbatan muhimroqdir. Ma'lumotni tushunib qabul qilishda tasvir tovushni to'ldiruvchi vosita hisoblanadi. Video materialdagi tovushning berilishi didaktika jihatidan o'ziga xos farqli xususiyatga ega bo'lib, uni uchta farqli qismga bo'lish mumkin:

verbal kanal (ya'ni nutqiy jihati);

musiqa (melodiya va jarangdor musiqiy ohang);

epizodga mos shovqin.

Bu vositalar materialni global tushunishni ta'minlashga, eng muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Audiovizual materialning verbal kanali, ya'ni nutqiy jihati talaba uchun berilayotgan voqelikning mazmunini anglashda muhim vosita hisoblanadi. Audiovizual materialni ko'rishdan maqsad uning mazmunini anglash. Bunda verbal kanal materialdagi muloqotning asosi sanaladi.

O'quvchilarda esa nutqiy kompetensiyalardan biri hisoblangan tinglab tushunish kompetensiyasi verbal kanal orqali amalga oshadi.

Materialning musiqiy jihati va epizodga mos shovqini muloqotning mazmunini tushunishda yordamchi vosita sifatida talabani tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda, voqelikni tez anglashida samarali natija beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadli foydalanishga mo'ljallangan audiovizual materiallarda epizodga mos melodiya, jarangdor musiqiy ohang va shovqinning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Audiovizual materialning, xususan, videoning didaktik xarakteridan kelib chiqib, fransuz tili o'qitiladigan auditoriyada video materialning uchta asosiy vazifasini ta'kidlab o'tish mumkin:

Illyustrativ (tasvirli) – video tasvir lingvistik mazmunga nisbatan mimika, jestlarni ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Qiziqish uyg'otuvchi yoki stimuly beruvchi – video material talabani chuqur tahlil qilishga, mazmunni rivojlantirishga undaydi.

Harakatga keltiruvchi (motivatsion) – videoning tasviri videoga ilova qilingan mashqlarni ongli tarzda bajarishga, mavzuni chuqurroq o'rganishga turtki bo'ladi. Bu esa mashq ishlash jarayoniga ijodiy yondashish, o'sha mavzu bo'yicha boshqa bir mashqlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quvchilarning chet tilida nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda audiovizual materiallardan foydalanishning afzalliklarini quyidagi xususiyatlardan kelib chiqib ham baholash mumkin:

Pedagogik xususiyati. Audiovizual materiallardan foydalanishda ta'lim jarayoni talabalarni ko'proq erkinlikka, mas'uliyatlilikka, interaktivlikka va ijodiy fikrlashga undaydi.

Didaktik xususiyati. O'rganilayotgan manbani bir necha bor takroran eshitish, o'z xohishiga xos metodikani tanlashi mumkin.

Psixologik xususiyati. Bu jarayonda o'quvchilarning tilni o'rganishga ichki motivatsiyaning kuchliligi, o'rganilayotgan manbaga nisbatan butun e'tiborning va qiziqishning yuqoriligi kabi xususiyatlar bilan izohlanadi. Shuningdek, ta'kidlab o'tish joizki, boshqalarning nigohidan chetda va auditoriyaning bosimidan holi bo'lish kabilar psixologik jihatdan muhimdir.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositasi sifatida qaraladigan har qanday didaktik material singari video materiallarning ham didaktik xususiyatlarini qo'yidagicha baholashimiz mumkin:

Tovushli va tasvirli ma'lumot orqali tilga nisbatan stimulatsiya;

Turfa xillikni tatbiq etish orqali pedagogik mahorat;

Aniq motivatsion vazifalar;

Noverbal nutq ustida ishlash imkoniyatlari;

Tushunish ko'nikmasini tadrijiy rivojlantirish;

Auditoriyada jonli chet tili muhitini, ya'ni chet tilida gaplashuvchilar nutqi bilan boyitilgan muhitni yaratish.

Yuqorida qayd etilgan video materiallarning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqib, Internet tarmog'idagi audiovizual resurslardan foydalanish auditoriyada jonli chet tili muhitini yaratish orqali talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Didaktik mazmundagi didaktik videolar, hujjatli videolar, axborot-yangilik videolari va boshqa turdagi audiovizual resurslarga murojaat qilish mumkin bo'ladi. Didaktik material tanlanganda video materialning mazmuni, davomiyligi, interaktivligi, originalligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda audiovizual materiallardan samarali foydalanilmoqda. Biroq, olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalarning chet tilida nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi audiovizual materiallarning didaktik jihatdan to'g'ri tanlanishi va ta'lim jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etilishi har qanday o'qituvchiga o'ta jiddiy mas'uliyatni yuklaydi. Yana bir jihati shundaki, audiovizual materiallar asosida chet tillarni o'qitishda retseptiv va reproduktiv jarayonlar amalga oshiriladi. Retseptiv jarayon talabalarni muloqot qilishga tayyorlasa, reproduktiv jarayon ularning nutqiy kompetensiyasini muloqotga aylantiradi.

Demak, audiovizual materiallar talabalarning xorijiy tilda erkin muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali xizmat qilishi bilan birga ularning ma'naviy, madaniy va estetik dunyoqarashini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Karimov I.A. "Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-1875 sonli qaror, 2012 yil 10 dekabr.

Xodjayev M., Qahharova M. Chet tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 176 b.

Abry D. La vidéo en classe de FLE: vers un développement de la compétence communicative// Dissertation de master. – Paris: Université Stendhal de Grenoble, 2009. – 103 p.

Catroux M. Perspective co-actionnelle et TICE: quelles convergences pour l'enseignement de langue de spécialité? – Paris: JEEA, 2006. – 14 p.

Ducrot J.-M. L'utilisation de la vidéo en classe de FLE. – Paris: Edufle, 2005.// http://casnav.ins.ac-guyane.fr/IMG/pdf/jean_michel_ducrot.pdf

Mangenot F. Classification des apports de l'Internet à l'apprentissage des langues. – Grenoble: Université de Grenoble, 1998. – 14 p. <https://edutice.archives-ouvertes.fr/edutice-00000175>

Strike J. L'apprentissage du français langue étrangère facilité par la technologie// Dissertation de master. – Prétoría: Université de Prétoría, 2002. – 146 p.

<http://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/vidéo/81881>

<http://le-dictionnaire.com/definition.php?mot=internet>

ФОРМЫ РАБОТЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРЕЗЕНТАЦИЙ MICROSOFT POWER POINT НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Хомидова Сарвиноз Исоевна

Учитель французского языка. Школа № 40. Бухарской область, Гиждуванский район.

За годы независимости в Узбекистане подготовлено свыше 51,7 тысяч преподавателей иностранных языков, созданы мультимедийные учебники по английскому, немецкому и французскому языкам для 5-9 классов общеобразовательных школ, электронные ресурсы по изучению английского языка в начальных классах, оснащено свыше 5 тысяч лингафонных кабинетов в общеобразовательных школах, профессиональных колледжах и академических лицеях [1, 2]. При традиционных методах ведения урока главным носителем информации для ученика выступает учитель, он требует от школьника концентрации внимания, сосредоточенности, напряжения памяти. Не каждый ученик способен работать в таком режиме. Психологические особенности характера, тип восприятия ребенка становятся причиной неуспешности. При этом современные требования к уровню образованности не позволяют снизить объем информации, необходимой для усвоения им на уроке. При организации урока с использованием компьютерных технологий информация предоставляется ученику красочно оформленной с использованием эффектов анимации, в виде текста, диаграммы, графика и рисунка. Все это позволяет более наглядно и доступно, чем устной форме объяснить учебный материал. Сегодня новые методики с использованием презентаций Microsoft Power Point противопоставляются традиционному обучению иностранным языкам. Эта форма организации уроков является наиболее доступной для работы учителя и применения ее на уроках в нашей школе. Формы работы с использованием презентаций Microsoft Power Point на уроках иностранного языка включают: проведение фоноречевой зарядки; изучение лексики; обучение чтению; обучение диалогической и монологической речи; отработку грамматических явлений. Проанализируем некоторые из них.

Изучение лексики. При введении и отработке тематической лексики, этапы работы с компьютерными программами следующие: демонстрация, закрепление, контроль. На примере рассмотрим эти этапы.

Презентация «Времена года»: На I-м этапе – введение лексики по теме. Используя демонстрационный компьютер, учитель выбирает показ слайдов: на экране появляется первый слайд. Второй слайд показывает фразы. Учащиеся смотрят и слушают. Время работы – примерно 1 минута. На II-м этапе идет работа по отработке произношения и закрепление лексики. Учащиеся работают индивидуально или в парах, возвращаясь к 1 или 2 слайду, заучивая выражения и слова.

Время работы – примерно 5-10 минут, оно зависит от количества слов изучаемой темы. На III-м этапе проводится контроль изученной лексики.

Учитель предъявляет учащимся следующий слайд:

Укажите правильный вариант перевода.

Какое из написанных слов является лишним по смыслу.

Обучение диалогической речи. На экране появляется слайд – сцена данного диалога: I-этап – знакомство с диалогом. II-этап – разучивание диалога. III-этап – инсценирование диалога. Учащиеся воспроизводят диалог сначала с опорой на слайд, затем инсценируют его самостоятельно. Следующий этап – это контроль диалогической речи. Учащиеся выбирают карточку с заданием (учитель сам готовит карточки с описанием ситуации) и составляют свой диалог, используя лексику данной программы и проявляя свою фантазию. Формы уроков, так или иначе, предусматривают отработку определённых грамматических структур.

На каждом уроке отрабатываются свои грамматические явления: утвердительные, отрицательные и вопросительные предложения, степени сравнения прилагательных, причастие, страдательный залог, местоимения *some, any*, структуры *there is / there are*, предлоги.

Все виды работы одного урока направлены на отработку определённого грамматического явления.

Для объяснения используются эффекты анимации, выделение ярким цветом грамматического явления, вставка картинки, облегчающая понимание.

Учитывая большие дидактические возможности компьютерного представления знаний, уже в ближайшее время следует ожидать более интенсивного использования компьютерных презентаций в образовании.

Использование компьютерной презентации на уроке позволяет повысить мотивацию учащихся; использовать большое количество иллюстративного материала; интенсифицировать урок, исключив время для написания материала на доске; вовлечь учащихся в самостоятельный процесс обучения, что особенно важно для развития у них общеучебных навыков.

Литература

Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» // Народное слово. – Т., 2012. – № 240 (5630). – 11 декабря. – С. 1-2.

ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ЛЕКСИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Жумаева Дилноз Тураевна

Преподаватель Бухарский инженерно-технологический институт академический лицей.

Преобразования, происходящие в речевом сознании и жизни носителей языка, вызвали потребность в новых номинациях. Влияние экстралингвистических факторов наиболее ярко отражается в лексике говорящего, поскольку основная функция слов номинативная и значение слова изменяется вместе с денотатом.

Сегодня в лексике русского литературного языка происходит множество изменений. К самым интенсивным процессам можно отнести: образование новых слов по продуктивным моделям XIX-XXI веков; активизация; аббревиация; адаптация заимствований; графодеривация (сочетание кириллических букв с элементами других знаковых систем) и др. Происходит демократизация литературного языка: просторечная, диалектная, профессиональная, жаргонная лексика частично входит в состав нормативной лексики и фразеологии; влияние внутриязыковых процессов и экстралингвистических факторов приводит к изменениям в семантической структуре целого ряда слов; выходят из употребления некоторые лексические и фразеологические единицы, связанные с историческими событиями и устаревшим укладом жизни. Русский язык активно пополняется окказионализмами и сленговой лексикой, которая формируется также с помощью лексико-семантического способа образования, считавшегося непродуктивным в веке. Большой интерес вызывает особый класс лексики, в котором иноязычные слова, соединяясь с русскими приставками и суффиксами, приобретают новый вид и значение. Примеры такого явления можно встретить в просторах Интернета, который занял прочное место в нашей жизни, оказывая существенное влияние на нашу устную и письменную речь. Использование новых слов, замена существующих

аналогами из другого языка – стало нормой. Большинство этих слов пользуются большой популярностью среди молодежи, благодаря чему русская лексика пополняется новым пластом – интернет лексикой или сленгом технологий.

Чаще всего эти слова приходят из английского языка, так как он является самым используемым в интернет пространстве. В трансформации таких терминов в русскую лексику активно участвуют процессы словообразования. Пользователи Интернета, совмещая английские слова с родными, изобретают гибридные языки.

Не удивительно, если с таким быстрым ростом интернет сленга появится язык «Runglish» и др. примеру, слова *загуглить* (поиск информации), *лайкнуть* (выделение понравившегося объекта), *заспамить* (переполнить страничку ненужной или непроверенной информацией), *тегнуть* (отметить кого- или что-либо), *репостнуть* (поделиться информацией с выделением автора), *расшарить* (поделиться информацией с большим количеством людей), *зачекинить* (отметить с помощью карты место своего расположения) и т.д. успели просто обосноваться в речи русскоговорящих пользователей. Однако есть слова, способные даже знатоков английского языка ввергнуть в долгие раздумья. Если ваш собеседник в социальной сети вдруг интересуется наличием *аськи* (ICQ), а кто-то советует установить программу *кастом* (custom install), то взгляните на эти слова проще, забудьте о сложных правилах чтения, так как многие эти слова обязаны своим появлением полному безразличию к правилам чтения: “*усер*” (user – пользователь), “*филе*” (file – дело, папка).

Трансформация русского языка в интернете обусловлена игровыми условиями виртуального пространства или игровой коммуникацией. Языковая игра позволяет в общении примеривать на себя самые различные роли, реализовывать собственные творческие способности в процессе создания новых слов, иначе воспринимать действительность. Развитие и преобразование словообразовательных средств русского литературного языка осуществлялось в связи и в соответствии с общими тенденциями развития его семантических и стилистических категорий.

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA VIDEO LAVHALARDAN FOYDALANISH

Qobilova Aziza A., Jumayeva Oydin

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi

Barcha insoniyatning bilimlari, tafakkuri, izlanishlari jamlanib borayotgan bu tarmoq kun sayin jadallashib bormoqda. Internetdan olinayotgan ma'lumotlarning aksariyati ta'lim sohasida, biroq qolgan bazalar bilan hech kimning ishi yo'q desak yanglishamiz. Internet o'z o'rni bilan ishlatilgandagina samara beradi. Ko'p holatlarda yoshlarimizni bu o'rganchak to'ri domiga ilinib qolayotgani ham sir emas. Vaholangki, har bir insonning o'z tafakkuri bor. Bu texnologiyaning ravnaqi kun sayin ildamlab borayotgan bo'lsada, undan oqilona foydalanayotgan kishilar afsuski ozchilikni tashkil etadi. Nimaniki taqiqlasak, unga bo'lgan qiziqish ortib borishi aniq bo'lsada, biz bu tarmoqni cheklashga intilamiz. Bizning fikrimizcha, bu borada erkinlashuv muhim. Chunki erkinlikda bo'lgan gul ham boshqacha o'sadi. Faqat yoshlarni bu borada taqiqlashimiz o'rinli emas. Avvalambor taqiq emas, tushuntirish olib borish lozim. Shundagina bolalar bunday ba'zadan oqilona foydalanishni tushunib yetishadi. Davr rivojlanib borsada, biz buning imkoniyatlarini cheklab qo'ysak, natijada bu rivojning hech kimga keragi bo'lmay qoladi.

Ildamlab borayotgan dunyo ma'lumotlar omboridan ma'lumot olishni bilmaydigan kishilar kam qoldi. Faqat undan oqilona foydalanish lozim. Aytaylik, bir inson kerakli ma'lumotlarni izlab topish va uni kompyuterga yuklashni bilmasa, undan foydalana olmasa bu tizim nimaga kerak? Internetdan olingan ma'lumotlarni qay tarzda va qanday qilib ishlatish lozim? Olinajak har qanday ma'lumotlarni keragini kerakli joyda ishlata olgan kishi mahoratli hisoblanadi. Biz sizga internetdan olingan ma'lumotni qanday qilib bolalarga berishimiz mumkinligi yoki undan balalar qanday qilib foydalanishi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz:

Darslarni tashkil etishda video lavhalarini o'rni juda katta. Agar darslarni qiziqarli va shiddatli tashkil etish lozim bo'lsa, o'quvchilar eshitganlaridan ko'ra ko'rganlariga ko'proq ishonishi nazarda tutilib video lavhalarini taqdim etilishi maqsadli bo'ladi. Deylik, O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi o'tilishi lozim. Bunda adib hayotiga mos video lavhalar, asarlari haqidagi video lavhalar, kino qilib olingan asarlarining kino lavhalarini (darsga mos ravishda kichikroq va mantiqiy bo'lishi lozim) o'quvchilarga taqdim qilib, shu jarayonning o'ziga munosabat bildirishi topshirilsa, dars anchagina qiziqarli va “jonli” bo'lishi kutiladi. Bu

ma'lumotlarni internetdan topish va uni yuklab olishni ko'rsatish ham mumkin. Shu bilan birgalikda o'qituvchi ham bularni bilishi lozim.

Dars qanchalik qiziqarli o'tayotgan bo'lsa ham, o'quvchilar bir xillikdan zerikishadi. Mashg'ulotlar paytida turli o'yinlar ham yaxshi samara beradi, ayniqsa, dars metodi to'g'ri tanlangan bo'lsa, guruhning faollashuvi oshadi. Bunda pedagog oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi osonlashadi. Dars nafaqat qiziqarli, balki samarali, mavzuni to'liq o'zlashtirishi, o'quvchilarning bilimini oshirishi, yangiliklarga boy bo'lishi, tarbiyaviy ahamiyatning bo'lishi lozim. Yuqoridagi bazani internetdan topish oson, biroq buning uchun ham bu tizimni qayerdan toppish, qanday toppish lozimligi haqida ham tushuncha bo'lishi kerak.

Dars jarayonlarida video lavhalarni taqdim qilish o'quvchilarni darsga qiziqishlarini kuchaytirish bilan birgalikda e'tiborini ham tortadi. Shunday vaziyatlarda bu ba'za qayerdan olinganligi, qanday olinishi haqida to'xtalib ketish zarur. O'quvchilar aksar hollarda ko'rgan narsalarini eslab qolishadilar va ularni shunday talqin etishadilar. Bunda o'qituvchi juda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Aks holatda noto'g'ri ko'rsatilgan video lavhalar o'quvchilar dunyoqarashini boshqa tomonga yo'naltirib qo'yishlari mumkin. Har bir darsda qo'llanayotgan video lavhalarni qayta-qayta ko'rib chiqib, keyin taqdim etilishi ham nazardan chetda qolmasin. Bola ongi, ayniqsa, yuqori sinflarda jadal rivojlanishda bo'ladi. Shu boisdan ehtiyotkorlikni ko'proq talab etadi. Video lavhalarni yuklab olish jarayonida boshqa ma'lumotlarda ham duch kelib qolish mumkin. Bu borada bolaga to'g'ri tanlov tushunchasini berib o'tish maqsadli.

Bulardan tashqari o'quv mashg'ulotlarida bunday lavhalarni, masalan, M.Yusuf ijodini o'tish jarayonidagi shoirning shaxsan o'zi tomonidan aytilgan she'rlari va fikrlari ko'rsatilib berilganda o'quvchilarni shu shoirga o'xshashni yoki qahramonga o'xshashni istab qolish qolatlarini ham ko'rish mumkin. Bu esa o'qituvchi darsning qaysi sifatini berayotganligi bilan bog'liq. Ijodkorning o'zidan eshitgan she'ri o'zinikidan, nafaqat o'zinikidan, balki o'qituvchisidan ham yaxshiroq ta'sir etadi. Bunda o'quvchilar, birinchidan, she'rlarini shoirlarga xos o'qishga harakat qilsa, ikkinchidan, shoirlarning o'zlari haqidagi munosabatini va ularning ijodlari haqidagi haqiqatlarni ijodkorning o'zidan eshitgani ma'qil. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, ijodkorning o'zidan eshitilgan fakrlar "jonli" muloqotga yaqin turadi. Shu bois o'quvchilarni darsga qiziqishlari ortadi va kelgusi darslarni ham intiqlik bilan kutishadi. Faqat, o'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan maqsadlarni to'g'ri belgilagan bo'lsa bas. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda ham bunday texnologiyaning imkoniyatlari va u bergan ma'lumotlar bazasi o'z samarasini beradi. Internet tizimida o'tiladigan darslar, va aloqalar ham jadallashib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini o'rgatishda video lavhalardan oqilona foydalanish, uning dars samaradorligiga ko'tarish uchun asos bo'ladi. Dars samaradorligini oshirish uchun har bir ijodkor va uning asariga qo'yiladigan video lavha o'rinli va mazmunli, qisqa hajmda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

BADIIY MATN TAHLILIDA MUSTAQIL TA'LIMGA INNOVASION YONDASHUV

Bafoyeva Nigora Azimovna. Nuriddinova Mehriniso

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi

Uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini sifatida oliy ta'lim tizimida o'quv faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, yosh avlodni yuksak axloqiy va nafosat ruhida tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish davr talabi ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Yangi davr kishini shakllantirishda badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdiridagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Shuning uchun badiiy asarlar tilini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining o'qitilishi talabalarning umumfilologik saviyasini oshirish, matn tahlili bo'yicha bilimlarini kuchaytirishda ahamiyati katta bo'lmoqda. Mazkur fan umumlashma xususiyatga ega bo'lib, u tilshunoslik, adabiyotshunoslikdan olgan bilimlarni yangi ilmiy va uslubiy bosqichga ko'taradi. O'quv jarayonida quyidagi vazifalarning bajarilishini taqozo etadi:

Matn tiplari va turlari, ularni tahlil qilish metodi va prinsiplari bilan tanishtirish.

Har qanday matnning u yoki bu funksional uslub talablari asosida yaratilgan bo'lishidan, bunda badiiy matnning o'ziga xos jihatlari borligidan xabardor qilish.

Til birliklarining lisoniy va uslubiy xususiyatlarini farqlay olishga o'rgatish.

Mazkur kurs bo'yicha olingan nazariy bilimlarni badiiy asardan tanlangan matn tahlilida sinab ko'rish.

Mustaqil ta'lim talabalarning bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari-mavjud o'quv resurslaridan foydalangan holda amaldagi o'quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o'zlashtirishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi.

Talaba o'zi anglashi va harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, talabalarning tadqiqot olib borish ko'nikmalari, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashi lozim. Talabalarni mustaqil faoliyatni tashkil etishga va uni bajarishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari -fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilishda qator tamoyillarga tayanib ish ko'rish mumkin. Jumladan, "Badiiy matnning lingvistik tahlili" fani bo'yicha "Lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari" mavzusini o'rganishda quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi ana shunday tamoyillardan biri - lisoniy birliklar indeksini tuzishni talabalarga mustaqil topshiriq sifatida berishi mumkin.

Buning uchun talaba badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqishi kerak bo'ladi. Buning uchun dastlab, asardagi eng ko'p qo'llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo'lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar, epitetli birikmalar, metafora, metonimiya, okkazonalizmlar bo'lishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining (shoirning) lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini o'taydi. Masalan, mohir so'z san'atkori Erkin Vohidovning she'riyatida qo'llangan yuzlab ibora, xalq maqollari, ko'chma ma'noli so'zlar, sinonimlar, antonimlar va omonimlar indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqish mumkin.

Frazeologik birlik:

Ayt, qachon ko'nglimga solding

Ishq o'tin, ey sohira, Dil o'zi bog'landimu, yo Bog'lading jodu bilan?

Men senga ko'nglimni ochdim, Ha deb ayt, yo yo'q deb ayt, Buncha qiynaysan dilimni, O'rtama kulgu bilan.

Xalq maqoli:

Ko'yida men tosh boshimni Urmagan ostona yo'q.

Elda bor shunday masal:

Jon chekmasang jonona yo'q.

Yoki:

Seving, deb she'r bitib avval, O'zim bo'ldim asiri ishq,

O'zi tushgay emish oxir Birovga kimki qazgay chox. Bo'libsan oshiq, Erkin,

Uz umid jondin, o'kinch qilmay, O'zingga, deydilar, dushman Keyin chekkan pushaymon, oh.

Metafora:

Sinonimlar:

Dilkusho do'st, dilrabo yor- Birla kechgan dam shirin. Do'stu yor birlan hayotu Siynai olam shirin.

Sevgining dardi faqat Beishq uchun begonadir, Ishqi yor bo'lsa firoq- Chekkanda hatto g'am shirin.

Dilga oqsin baxtli umrim

Kuy bo'lib, ohang bo'lib, Sen uning "Oromijoni", "Gulyoru Shahnozi" bo'l. Orzu-istakdin-ku shodon Dilga bog'labsan qanot, Bu tilak osmonining Doim baland parvozi bo'l.

Antonimlar:

Omonimlar:

Barcha shodlik senga bo'lsin, Bor sitam, zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu, Barcha xushtorlik menga.

Bu jahonning rohatin ol, Bor azobin menga ber.

Senga bo'lsin barcha orom, Barcha bedorlik menga.

Ko'rdimu lol bo'ldi aqlim, o'ngmidi bu yoki tush, Bo'lsa ham o'ng, yo seni ko'rgach, boshimdan uchdi hush. Sen baland tog' uzra erding, misli ohu yoki qush, Yolvorib men pastda derdim: bir nafas yonimga tush, Azganush, hoy Azganush, Azganushjon, Azganush.

Topshiriqning shu tarzda qo'yilishi tadqiqotchiga induktiv metoddan foydalanish, ya'ni fakt, dalillardan qoidaga, nazariyaga borish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabaga til birliklari haqidagi bilimlarni ongli o'zlashtirishiga keng imkoniyatlar ochadi.

Lingvopoetik tahlil har bir asarga individual yondashishni taqozo qiladi. Chunki lisoniy birliklar asarga alohida maqsad va badiiyat ehtiyoji bilan olib kiriladi. Shuning uchun har bir asar lisoniy jihatdan yaxlit butunlik deb qaraladi. Tahlil asardan uzib olingan misol haqidagi mulohazalardangina iborat bo'lib qolmasligi uchun har bir unsur asarning butuniga aloqador estetik yukni o'zida aks ettirishini nazardan chetda qoldirmaslik muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn tahlilida talabalar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta'limning o'rni beqiyosdir.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

N.Z.Qodirova

BDU "Xorijiy tillar" fakulteti 2-bosqich talabasi

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talabalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrda PQ 1875 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Xorijiy tillarga e'tibor yanada ortdi. Xorijiy tillarni o'qitish va o'quvchi bilim samaradorligini oshirishda turli kompetensiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish g'oyalari ilgari surildi. Xalqaro konferensiya ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazila boshlandi. Buning isboti o'laroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 133-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi"da belgilangan tadbirlarni amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 28-fevraldagi "Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2019-yilda o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi №205-sonli buyrug'ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida joriy yilda xorijiy tillarni o'rganishning innovatsion texnologiyalari mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Anjumanda qator mutaxassislar tomonidan fikr- mulohazalar almashildi.

Hozirgi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rmini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Har qanday o'yin zahirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bema'lol faoliyat ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi.

Tajriba shundan dalolat beradiki, har qanday o'yinda ishtirokchilarning malakasi va yoshidan qat'iy nazar, ular o'ng'aysiz holatga tushib qoladilar.

Shuning uchun o'yinni o'quv amaliyotiga tadbiiq qilishdan avval quyidagi pedagogik-psixologik masalalar hal etilishi zarur. Har bir o'quvchi o'yinga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagilarni bilishi lozim:

o'yinning maqsadini;

o'yinning vazifasini;

o'yinning rejadagi qaysi mavzuga taalluqliligini;

avvalgi o'yinlarda shakllangan malaka va ko'nikmalarni keyingi o'yinlarda ham qo'llay olishi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim.

Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

“Muammoli vaziyat yechimi” (Creative problem solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

“Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

“Chigil yozdi” (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;

“Pantomima” (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

“Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi;

“Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

“Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

“Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

“Kviz kartochkalari” (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonida faol harakati, ziyrakligi asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtirib, yodda saqlab qolishidir.

Chet tili darslarining oq'itilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumiyevropa mamkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham

axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rish ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innavatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim visitalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar va o'yinlar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'yektlariga aylantiradi.

ФОРМИРОВАНИЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ТЕКСТОВЫХ УМЕНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Дустова Д.С

Преподаватель Буг.Гу кафедры «Теории начального образования»

Шарапова Н

студентка 2 курса. (Бухара, Бухарский государственный университет)

Текстовые умения определяют тему текста, а так же его заголовок, основную мысль и ключевые слова, первое и последнее предложения, развивают умение составлять текст на свободную тему или предложенную.

Улучшить речь школьников можно благодаря 4-м умениям:

- ориентирование в ситуациях общения и осознание своей коммуникативной задачи;
- планирование содержания сообщения;
- четкое представление своих мыслей и понимание чужих;
- самоконтроль собственной речи, восприятие ее собеседником и понимание речи собеседника.

Целью изучения развития речи - рост у детей главных видов речевой работы (говорение, чтение, слушание, письмо).

В методологии становления речи присутствует правило, сформулированное для учащихся: работу над сочинением нужно начинать с рассуждения над формулировкой темы. Обучить младших школьников размышлять над темой создаваемого текста может помочь упражнение на сравнение нескольких схожих, хотя различных названий. Ученикам предлагается в заголовках обнаружить те слова, которые демонстрируют, чем различаются последующие тексты. На выборочных ступенях обучения возможно проводить не сопоставление тем, а анализ точных сведений исходя из убеждений соответствия рассматриваемой темы. К примеру: для выставки словесных рисунков в последствии экскурсии создается миниатюра "Зимний наряд для парка". После раскрытия того, о чем и собственно хотим сказать собственной миниатюрой, педагог даёт задание детям найти среди записанных на доске предложений те, которые имеют все шансы быть применены в сочинении, а какие не могут. Есть аналогичные упражнения, которые могут помочь обучать младших школьников вникать в суть высказывания, обдумывать и проводить главную мысль, этим упражнением считается разбор названия сочинения с точки зрения вероятных разновидностей главной мысли. Становлению умения обдумывать предмет речи и главную идею выражения сможет служить не столько работа с представленными формулировками, но и создание своих заголовков или же выбор из уже имеющихся разновидностей. В этом упражнении подразумевается о заглавливание не текстов, а картин, серий сюжетных рисунков. Умение раскрыть тему в высказывании и проводить главную мысль исполняется в ходе анализа текстов любого эмоционального окраса. Чтобы достичь желаемого результата будет полезно принимать на вооружение сначала слова писателей, а потом детские сочинения. Примерное формулирование учениками личных планов ("Что пытаюсь сказать?") до начала творческой работы содействует развитию названного умения. Как правило, еще во время обучения грамоте, педагоги развивают у школьников умение составлять мысленный план с последовательностью изложения мыслей через систематизацию сведений. Для этого обычно употребляются серии сюжетных иллюстраций. Когда для работы предлагается не спутанные иллюстрации, а так называемый искаженный текст, то есть текст, в котором предложения присутствуют в беспорядке, школьникам необходимо самостоятельно найти и провести взаимосвязь между сутью и последовательностью предложений.

В число упражнений, способствующих развитию умения высказывания, относится подготовка самых разных рабочих материалов, в их число входят: составление плана предмета и проговаривание разных вариантов содержания. К примеру, "О чем можно написать или повествовать, рисуя нынешний день?" - "Можно о солнце, о небе, о деревьях, о снеге..." и т.д.; подготовка раскрытого(полного)плана будущего высказывания, порой с заготовками довольно широких рядов аналогичных средств, служащих опорами для становления идеи в любой из частей слова.

Одной из видов работы в ходе изучения планирования содержания выражения считается редактирование плана; обычно, такой "искаженный" вариант нарочно готовит преподаватель.

Рассмотрим так же упражнения, которые обеспечивают воплощение плана, то есть формулирование идей. Традиционно, эти свойства, как точность и выразительность, сопровождаются еще одним - богатство речи, предполагающее явное многообразие применяемых средств языка. Когда в момент выбора языковых средств рекомендация "чем точнее, тем лучше" постоянно справедлива, то увеличение контраста средств, например, насыщение метафорами, сравнениями и т.д., порой бывает к месту, а порой и просто излишне, безвкусно. Тогда как повторы слов могут быть целесообразны, в случае если усиливают выразительность, снимают неточность, либо в том числе и необходимы, к примеру, в научной речи.

Самоконтроль - это нужная ступень в каждой деятельности, а так же и речевой. В реализации контроля могут помочь соответствующие знания о речи, а конкретно, о том, собственно "в различных случаях мы говорим по-всякому"; о том, что в тексте практически постоянно должно быть самое главное - его главная идея. Как раз такие познания позволяют осознанно относиться к речи, точно расценивать её. Принимая во внимание, что направлений контроля при проверке письменного выражения несколько, а возможности восприятия у небольших школьников еще ограничены, может быть полезно предоставлять ребятам несколько прочтений своего текста. Любое из чтений производится с конкретной установкой :

а) расценить, все ли станет ясно читателю, получилось ли высказать собственную идею и решить поставленную задачу (уверить, поделиться, пояснить и так далее), нет ли в содержании чего-

то излишнего, не пропущено ли что-нибудь главное, поочередно ли рассказаны мысли, есть ли между ними взаимосвязь;

б) решить, успешно ли сформулированы все мысли (верно ли построены предложения, правильно ли и достаточно ли точно подобраны слова, не присутствуют ли повторения).

С появлением у школьников внимания к собственной речи, постепенного развития у них подходящих умений возможно с годами задания по самоанализу текстов раздавать и на устные выражения. В тех случаях перед ответом учащегося подходящую установку должен обрести не столько класс, да и сам разговаривающий. Искусство осуществлять контроль над своей речью и вносить в неё перемены позитивно оказывает большое влияние, в общем, на речевую деятельность человека, например на его способность разговаривать и писать.

Следовательно, адекватно сформулированный текст представляет из себя единство смысла и структуры, в котором части имеют не только семантическую, но и синтаксическую взаимосвязь. Исследование структуры текстов раскрывает безграничные возможности для улучшения речи учеников и формирует умения стилистически анализировать художественные произведения.

Литература

1. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л.И. Божович. – М.: Педагогика, 1968 – 296 с.
2. Жесткова Е. А. Формирование ценностных ориентиров у младших школьников в процессе изучения лексики на уроках русского языка / Е.А. Жесткова, Е.В. Цуцкова // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 12 – С. 85-88.
3. Жесткова Е.А. Развитие речи младших школьников в процессе работы с толковыми словарями // В сборнике: Культура, наука, образование: проблемы и перспективы Материалы III Всероссийской научно-практической конференции. Ответственный редактор А.В. Коричко; Министерство образования и науки Российской Федерации, Департамент образования и молодежной политики Ханты-Мансийского автономного округа – Югры, Нижневартовский государственный университет. 2014. С. 43-45.
4. Тяжелова М.Г. Приемы развития личностной заинтересованности младших школьников в изучении русского языка.//Начальная школа.-2007.-№11.-С.29-33.
5. Тикунова Л.И., Игнатъева Т.В.. Начальная школа: 1200 диктантов и творческих работ по русскому языку: пособие для учителя. – М.: Дрофа, 1999. – 320с.
6. Филиппова Л.В. Лексические упражнения как средство формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Проблемы современной науки. – 2012. – №5.1. – С.60-69.

BUYUK SHARQNING KITOBXONLIK TARIXI VA KELAJAGI

Abdurahmonova Muhabbat Obloqulovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Mustaqil respublikamizning kelgusi taraqqiyoti, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi hozirgi davrda hayotga qadam qo'yayotgan yosh avlodga, ularning kamolotiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat istiqboli ham, xalqimiz istiqloli ham har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishni taqozo etadi. Kitobxonlik madaniyati xalqning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Shu bois bugun yurtimizda aholining, ayniqsa, yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Prezidentimizning 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirish, yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg'otish, komil insonni tarbiyalash borasida juda muhim qadam bo'ldi. Mazkur farmoyish biz, tilshunoslarning zimmamizga ham ulkan mas'uliyatni yukladi. Avvalo, kitobxonlik

masalasi jamiyatning negizini tashkil etuvchi oiladan boshlash lozim. Har bir oila o'ziga xos an'anaga, boy ijodiy-intellektual boylikka ega. Ana shu ma'naviy-madaniy boylikni o'rganish, undan jamiyat taraqqiyotida foydalanish, kelgusi avlodlarga yetkazish uchun bilim va tafakkur manbai kitobxonlikni oiladan va maktabdan boshlamoq zarurligini ko'rsatadi. Lekin bu muammo O.Sharofiddinov ta'kidlaginidek, "Keng ma'nodagi kitobxonlik masalasi faqat chaqiriqlar-u da'vat bilan, xitobu shiorlar bilan hal bo'ladigan masala emas... ma'naviyat masalalariga juda katta ahamiyat berayotgan, uni har bir fuqaro qalbiga yetkazish tadbirlarini juda jiddiy o'ylayotgan jamiyat... bu yo'ldagi dasturiga kitobxonlik dasturini ham qo'shib qo'ymasa bo'lmaydi"-juda jiddiy masaladir. Olim bejizga bu haqda kuyinib gapirmagan. Chunki, oilada bolalarni kitob vositasida tarbiyalash juda qiyin jarayon. Ana shu jarayonda o'qilayotgan kitoblardagi barcha hodisa-voqealar ota-ona, oilaning boshqa a'zolari va bolalar uchun tushunarli bo'lishi, o'quvchilarda insoniy fazilatlarni tarbiyalashi, bilim berishi, ezgulikni his etishga yo'llashi zarur. Ana shu taqdirdagina kitobxonlik o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishga yordam beradi. Bunda ota-onaning ma'naviy dunyosi, xulq-odobi, orzu-umidlari, hayotiy tajribasi, an'analari, kasbi katta yordam beradi. Kitob bolani dunyoni anglab olishi bilan bir qatorda ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, uning shaxsiy fazilatlari tarkib topib boradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini tushunib yetadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir o'quvchi yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishadi.

Uzoq yillik tarixga nazar tashlasak, Sharqda farzand ham oilani, ham yurtni shon-shuhratga burkashni o'zining ilk burchi deb bilgan. Islom olamida shunday hikmat mashhur bo'lgan: "Joy kishini emas, kishi joyni aziz etadi". Buning quyidagicha sharhlari bor:

Birinchidan, sen farzandlik burchingni o'tamog'ing uchun dunyoga chiq, dunyo seni va tug'ilgan joyingni tanisin. Qadimda bu hol "el kezish" deb atalgan.

Ikkinchidan, ilmida, axloqda va faoliyatda farishtasimon bo'l, toki tug'ilgan yurtingga olam sajda qilsin.

Uchinchidan, tug'ilib o'sgan joying bilan g'ururlanma, bu o'tkinchi haqiqatdir. Qo'lingdan kelsa joy nomini aziz qil.

Sharqda farzandlar butun hayotida ana shu aqidani amalga oshirishga intilganlar. Misol uchun Bahouddin Naqshband tug'ilgan qishloq o'sha kezlari "Qasri hinduvon" - hindlar yashaydigan qishloq deb atalar ekan. Bahouddin Naqshband olamni valiylik nuriga to'ldira boshlagach, qishloq "Qasri Orifon" Xudoni taniganlar - bilimlilar qishlog'i deb atala boshlangan. Bu darajada o'z joyini shon-shavkatga burkash uchun har bir inson oila va maktabdan qalbgacha nur va ilm bilan chiqishi lozim. Xuddi shu maqsad bilan tarbiyalangan insonlar yurti ham obod bo'lib boravergan. Buyuk allomalarimizning onalari oilada farzand kamoloti uchun kitob mutolaasi, bilim egallash nechog'lik muhim ekanligini yaxshi anglagan holda o'z farzandlarini tarbiyalaganlar. Buyuk sharqning kitobxonlik an'anasi tarix zarvaraqlariga o'z izini qoldiraolgan. Bizgacha yetib kelgan manbalarning guvohlik berishicha sharq gavhari bo'lmish Buxoroda o'sha davrlardanoq katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqot, munozaralar o'tkazgan. Abu Ali ibn Sino kitob do'konlaridan birida Forobiyning Aristotel "Metafizika" sigiga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi. Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan. Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar. Kitobga bo'lgan qiziqish uzoq o'tmishdan asrlar osha bizga ulkan meros bo'lib yetib kelgan. Tarixdan bizga ma'lumki, buyuk mutafakkirlarimiz tarbiyasi juda erta, ya'ni 3-4 yoshdan boshlangan, kitob mutolaa qilishga, o'z onalari yoki enagalari (tarbiyachilari) yordamida ertaklar, dostonlar, qissalar, rivoyatlar, hikmatli so'zlarni tinglashga, kitob bilan do'stlashishga ahamiyat berganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak buyuk allomalarimiz ham olim, ham shoir, ham san'atkor, ham ijodkor, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk bilimli va komil inson bo'lib tarbiyalanganlar. Kitobxonlik masalasida bejizga tarixga nazar tashlanmadi. Chunki o'z tarixini yaxshi bilmagan, ajdodlari qoldirgan ilmiy merosni puxta egallamagan va ularning yo'lini davom ettirmagan kelajak avlod mustaqil, mustahkam yurtning poydevori bo'lolmaydi.

O'quvchi bolalikdan oilada va maktabda kitob o'qishni bilgan taqdirdagina kitobxon bo'la oladi. Adabiyotshunos olim S.Matchonov "Kitob o'qishni bilasizmi?" degan asarida shu masalada mulohaza yuritadi. U kitobxonlik ko'p jihatdan adabiyot va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq deb ko'rsatadi va kitobxonlikni ijodiy mehnat sifatida ta'rif etib, kitobxonlik mehnatining shakli, darajasi, tanlangan asarning turiga qarab o'zgarib boradi, deydi. Bu borada ilmiy asarlar, albatta muayyan mehnat talab etishi, badiiy asarni o'qish garchi mehnat talab etmaganday ko'rinsa ham, aslida kitobxon qahramon boshidan kechirgan voqealar orqasidan borib, asarda tasvirlangan voqealar ustida fikr yuritadi, qahramonlar taqdirini o'ylab, diqqatini jamlaydi, tafakkurini ishga soladi. Bu yozuvchi maqsadini, asarda ilgari surilgan muammoni o'ylashga, fikr qilishga yo'llaydi. Ana shu jarayon kitobxonda estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Shuning uchun

ham badiiy asarni o'qish va o'qiganini tushunib o'qish muhim sanaladi. Xullas, kitobni "tushunib" o'qish, kitobxonlik darajasini, uning madaniyatini ko'rsatadi. Buyuk mutafakkirlar birinchi navbatda qobiliyatli kitobxon ham bo'lganlar. Demak, kitobxonlik qobiliyati tug'ma emas, balki insonning kitob ustida ishlashi, malaka va ko'nikmalar hosil qilishi orqali kamol topa boradi, deydi olim. [2; 25-26] Adabiyotshunos Safo Matchonovning fikriga qo'shilgan holda kitobxonlik bu – insonda o'qilganlari yuzasidan his-tuyg'u uyg'onishi, uning ruhiyatini o'stirishi, kitob o'qishning zaruriyatga aylanishi, bilim va tafakkurning ortishi, madaniy-ma'naviy saviyasining ortishi, hayot bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi o'xshashlikni anglab olish, adabiyot bilan jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish bilan bog'liq jarayondir. Xudoyberdi To'xtaboyevning yozishicha: "Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda – kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir". Adabiyotimizning buyuk namoyandalarining ushbu xulosalaridan kelib chiqqan holda kitobxon o'qimoqchi bo'lgan asari goh ilmiy, goh badiiy, goh ilmiy-fantastik bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchining yuragidan joy olsin, tafakkur dunyosini kengaytirsin, unga yangi g'oyalar bera olsin, uni o'z kelajagiga ishonch tuyg'usini shakllantira olsin. Shundagina biz, ya'ni shu yurtning har bir fuqarosi kitobxonlik masalasining mevasini ko'ra olamiz. Kitobxonlik qobiliyati tug'ma emas, u insonning o'z ustida ishlashi orqali, tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik bu ijodiy mehnat. Buyuk mutafakkir olimlar, fan va madaniyat arboblari avvalambor iste'dodli kitobxon ham bo'lganlar. Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda biz tilshunoslarning oldidagi muhim vazifasi yoshlarimiz, nainki yoshlar barcha kitobxonlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatlarini yanada kuchaytirish va asarlardagi so'zlarning sofligi, ma'nodorligi bilan shug'ullanishdan iboratdir. Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Buni jahon tarixi, jumladan, yurtimiz tarixi ham isbotlaydi. Bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz qadim tariximiz davomida necha bor yovuz bosqinchilar hujumiga duch kelib, Vatanimiz ozodligi uchun kurash olib borganlar. Masalan, To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Torobiy, Amir Temur singari mard va bahodir sarkardalarimiz boshchiligida yovlarga qarshi qilingan jangu jadallar, so'nggi 130 yildan ortiqroq davom etgan istibdod davridagi ozodlik kurashlari, jadid bobolarimizning xalqimizni jaholat va mustamlakachilik domidan xalos etish yo'lidagi ma'rifiy harakatlari bu fikrning tasdig'idir. Qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritilgan mustaqilligimizni asrab-avaylash siz-u bizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharofiddinov O. Kitobsiz yashab bo'lmas. O'zAS, 1999. 24-sentabr. 2. Donishmandlar tarbiya xususida: Arab, fors va boshqa sharq tillaridan Shorasul Zunnun tarj. To'pl. va nashrga tayyorl. A. Zunnun. Toshkent: O'qituvchi, 1982.

ONA TILI DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASH

Amanova Nazira

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 17- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, ya'ni "interakt", "inter"-o'zaro, "akt"-harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi.

Interfaol metod– bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Interfaol metod o'qituvchi bilan o'quvchini hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol metod o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi shuki, dars qaysi shaklda, qayerda o'tkazilmasin, darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsda turli muammoli vaziyatlar hosil qilgan holda o'quvchilarni turli muammolarga jalb etishi, ularning harakatlarini faollashtirishi va natijada o'quvchilarning o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim. Bunda o'qituvchi asosan yo'l yo'riq ko'rsatuvchi, xulosalovchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Interfaol metod orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarini boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Darsning mazmunli va samarali o'tishi uchun kichik guruhlarda ishlash qo'l keladi, chunki bunda har bir o'quvchi o'zi va guruhi uchun kurashadi. Kichik guruhlarda ishlash an'anaviy darsdan nimasi

bilan farq qiladi. O'quvchilar faol ishlaydilar va topshiriqlarni bajarishga mas'uliyat bilan qaraydilar. O'quvchilar jamoa bo'lib fikr-mulohazalarini muhokama qiladilar. Tushuntirish uchun bir-birlarini tinglaydilar, savollar beradilar. Bir – birlariga yordam beradilar. Guruh ishlarida o'quvchilar o'zlarini erkin tutadilar, o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. O'qituvchi mavzu bilan tanishib chiqishi va uning mazmuniga oid muammolarni belgilashi, guruhda ishlashning eng samarali yo'llarini belgilab olishi kerak. Masalan: guruhni 4 ta kichik guruhga bo'lib, guruhlarga topshiriq beradi va vaqtni belgilaydi va mustaqamlash darsi o'tilsa, topshiriqlarni bajarish uchun 10 daqiqa beradi. O'quvchilar guruhda ish boshlaganda bir – birlariga savollar beradilar, egallagan bilimlari bo'yicha o'zaro fikr almashadilar. O'quvchilar guruhlarda ish bilan band bo'lgan vaqtda o'qituvchi xona bo'ylab yuradi, u barchani kuzatib topshiriqni izohlab beradi, yordamga muxtojlik sezayotganlarga yordam ko'rsatadi, hamda dars mavzusi bilan band bo'lishini kuzatadi. Vaqt tugagandan so'ng hammaning e'tiborini doskaga jalb qiladi. va har bir guruhdan bittadan vakil doskaga chiqib, guruh bajargan ishni butun guruh oldida taqdim etadi. Har bir guruh taqdimotidan so'ng boshqa guruhdagilar savol beradilar. O'qituvchi ham guruh ishlarini yakunlab bo'lgandan so'ng, ularga izoh beradi: xatolari bo'lsa, to'qiraydi va xulosalaydi, guruh ishini baholaydi. Guruh bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoyillarniesdan chiqarmaslik kerak:

1. Guruhlar tarkibi 3-7 o'quvchidan iborat bo'lishi kerak. O'quvchilar sonini ko'paytirish guruhlarda ishlash jarayonini qiyinlashtiradi va ba'zi o'quvchilarning chetda qolib ketishiga sabab bo'ladi. Ba'zan esa o'rtaga tashlangan fikrlar ko'payadi va natijada bu javob variantlarini qayta ishlashda o'quvchi qiyinaladi. Natijada esa ba'zan to'g'ri javoblar chetda qolib ketadi.

2. Guruhlar tarkibini o'zgartirib turish kerak. Har bir darsdan yangi guruhni tashkil etish lozim. Bu hamma bolalarni bir birlari bilan do'stona munosabatda ishlashlarining imkonini tug'diradi.

3. Guruhda og'il va qiz bolalardan bir xil guruh bo'lib qolmasligiga e'tibor berish lozim.

4. Guruh tarkibini o'qituvchi belgilashi lozim: har bir guruhga qobiliyatli o'quvchilar bo'lishiga, qobiliyatli o'quvchilardan guruh tuzilib qolmasligiga e'tibor berish kerak. 5. Guruh ishining taqdimotini o'tkazish, yakunlash va ularni rag'batlantirib borish kerak. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchining psixologik jihatdan rivojlanishiga ham quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

-avvalo o'quvchilar notanish masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda, har bir ishtirokchi guruh ishining yaxshi natijasi uchun mas'uliyatni sezgan holda ishga kirishadi; kichik guruhlarda ishlaganda kamgap o'quvchilar o'zlarini erkinroq his qiladilar; -o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari oshadi va kelajakda boshqa masalani muhokama qilishda o'z fikrlarini bildirib, faol ishtirok etadilar; -shu uslub yordamida uyatchan o'quvchilar o'z fikrlarini o'rtaga tashlashni o'rganadilar. Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon pedagogika nazariyasi va amaliyoti tendensiyalaridan biri- bu an'anaviy o'qitish doirasidan chiqishga intilish, o'quv jarayoniga zamonaviy nuqtai nazardan yondashishdir, ya'ni interfaol usullardan foydalanish.

Adabiyotlar: 1.N.S.Sayidahmedov "Ilg'or pedagogik texnologiya" 2.J.G'.Yo'ldoshev "Ilg'or pedagogik texnologiya" Toshkent,"Fan",2004 yil.

IQTISODIYOT FANLARI

MARKETING FANINI O'QITISHDA MINTAQADA TOVAR VA XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA INNOVASION YONDOSHUV

M.M.Tairova

Buxoro davlat universiteti. Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tovar va xizmatlar bozorini rivojlantirish, uni oziq-ovqat va boshqa xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, Xorazm viloyati mintaqasida tovar va xizmatlar bozori samaradorligini quyidagi usullar orqali baholash taklif etiladi:

SWOT tahlil usuli. Ma'lumki, mintaqada tovar va xizmatlar bozorining samaradorligini baholash uni tahlil qilishni talab qiladi. Buning uchun SWOT tahlilni amalga oshirish iqtisodiyot va aholi turmush farovonligiga uning qanchalik darajada ta'sir eta olish salohiyatini ko'rsatadi (jadval).

Mintaqada tovar va xizmatlar bozori samaradorligini baholash bo'yicha SWOT tahlil jadvali

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
ijtimoiy-iqtisodiy muhit; savdoning ixtisoslashuvi; zamonaviy xizmat turlarini o'sishi; aholini iqtisodiy faoliyati.	norasmiy savdoni mavjudligi; ayrim xizmatlarda narxlarning egiluvchanligi; bir maromda taraqqiy topmaganlik; tavakkalchilik holatlari.
Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
yanada kengaytirish va yiriklashtirish; ulgurji tovarlarni sotish; chetdan xaridor jalb etish; ishchanlik orqali daromad olish.	ichki monopollashuv holatlari; korxonalarining bankrot bo'lishi; yangi raqobatchi guruhlarining paydo bo'lishi; turli o'zgarishlarni paydo bo'lishi.

Jadvalga asosan, mazkur tahlilning natijasi tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizim hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining eksport va importga bog'liqligini kuchaytirib, bozordagi ayirboshlash jarayonlarini takomillashtiradi.

Kompleksli tahlil usuli. Mazkur tahlil mintaqada tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshiruvchi variantlardan biri sifatida o'z ichiga iqtisodiy tarmoqlarni barqaror rivojlantirishni taqozo qiladi. Bu baholash tovar va xizmatlar bozorini samarali tashkil etish va rag'batlantirish, turli resurslaridan oqilona foydalanish, iste'molchilarga servis xizmati ko'rsatishni jadallashtirish asosida kelajakda mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirishni ta'minlaydi.

Korrelyatsion-regression tahlil usuli. Ma'lumki, korrelyatsiya va regressiya tahlilining asosiy vazifalaridan biri o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning ko'rinishi va miqdoriy ifodasini tahlil qilish hisoblanadi. Buni korrelyatsiya koeffitsiyentlari tahlili yordamida bajariladi.

Umuman olganda, mazkur tahlillar asosida mintaqada tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishdagi ustuvor masalalar hal qilinadi hamda tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". 2017 yil 7 fevral.

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

FIZIKA FANIDA MASALALARNI YECHISHNING SAMARALI USULLARI

Soatmurodova Xurshida Jo'rayevna

Toshkent shahar Chilonzor tumani 179-maktab fizika fani o'qituvchisi

Gorizontga nisbatan burchak ostida otilgan jismning harakati bilan bog'liq masalalarni yechishda bir nechta kattaliklarni topish talab qilinadi. Bunday masalalar ikki xil usulda yechish mumkin: algebraik va geometrik.

Bir jinsli gravitasion maydonda, og'irlik kuchi ta'sirida, Yer sirti yaqinida harakatlanayotgan moddiy nuqtaning harakatini ko'rib chiqaylik va uning harakat traektoriyasi tenglamasini topamiz. Moddiy nuqta radius vektorining t vaqtga bog'liq tenglamasi:

$$\vec{r} = \vec{r}_0 t + \frac{g t^2}{2} \quad (1)$$

Radius vektorining koordinata o'qlaridagi proeksiyasi, $x_0=0$ va $y_0=0$ dagi ko'rinishi quyidagicha:

$$x = v_0 t \cos \alpha \quad (2) \quad \text{va} \quad y = v_0 t \sin \alpha - \frac{g t^2}{2} \quad (3)$$

Moddiy nuqtaning harakat traektoriyasi uchun, x ning ifodasidan t ni topib y ning ifodasiga qo'ysak

u:

$$(4) \quad y = x \operatorname{tg} \alpha - \frac{g x^2}{2 v_0^2 \cos^2 \alpha}$$

ko'rinishga ega bo'ladi. Tenglamani $1 + t g^2 \alpha = \frac{1}{\cos^2 \alpha}$ tenglikni hisobga olib quyidagicha yozamiz.


$$y = y(x) = x \operatorname{tg} \alpha - (1 + t g^2 \alpha) \frac{g x^2}{2 v_0^2} = x \operatorname{tg} \alpha - \frac{g x^2}{2 v_0^2} \operatorname{tg}^2 \alpha - \frac{g x^2}{2 v_0^2} \quad (5)$$

Bu tenglamaning grafigi paraboladan iborat bo'lib ikkita parametrga v_0 boshlang'ich tezlikka va α burchakka bog'liq.

Muayan masalani yechishda bu tenglamaning yechimidan foydalanib ko'ramiz.

Masala: Moddiy nuqta gorizontga nisbatan burchak ostida qanday minimal tezlik bilan otilganda, u gorizonttal yo'nalishda s masofada, vertikal yo'nalishda h balandlikda joylashgan nuqtaga yetib boradi.

Yechish: 1-usul. Bu masalani yechishda $x=s$, $y=h$ o'tuvchi parabola tenglamasi $y=y(x)$ (5) tenglamadan foydalanamiz.



$h = s \operatorname{tg} \alpha - \frac{g s^2}{2 v_0^2} \operatorname{tg}^2 \alpha - \frac{g s^2}{2 v_0^2}$ bu ifodani $\operatorname{tg} \alpha$ ga bog'liq holda quyidagi kvadratik tenglama keltirib

olamiz.

$$\frac{g s^2}{2 v_0^2} \operatorname{tg}^2 \alpha - s \operatorname{tg} \alpha + \frac{g s^2}{2 v_0^2} + h = 0 \quad \text{yoki} \quad \operatorname{tg}^2 \alpha - \frac{2 v_0^2}{g s} \operatorname{tg} \alpha + \frac{2 v_0^2 h}{g s^2} + 1 = 0$$

$$D = \left(\frac{b}{2}\right)^2 - c = \frac{\theta_0^4}{g^2 s^2} - \frac{2 v_0^2 g h}{g^2 s^2} - 1 \quad \text{nolga teng bo'lganda} \quad \theta_0^4 - 2 v_0^2 g h - g^2 s^2 = 0 \quad \text{tenglama ildizi}$$

Tenglama diskriminanti masalaning yechimi bilan mos tushadi.

$$\theta_0^2 = \frac{g h \pm \sqrt{(g h)^2 + \sqrt{g^2 s^2 + \sqrt{g^2 (h + s^2)^2 + s^2}}}{2 v_0^2} \quad \text{va} \quad v_0^2 = \frac{g h \pm \sqrt{(g h)^2 + \sqrt{g^2 s^2 + \sqrt{g^2 (h + s^2)^2 + s^2}}}{2}$$


usul. Masalani yechishda (5) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozamiz.

$$h = s \operatorname{tg} \alpha - \frac{g s^2 (\operatorname{tg}^2 \alpha + 1)}{2 v_0^2} \quad \text{va} \quad \frac{g s^2 (\operatorname{tg}^2 \alpha + 1)}{2 v_0^2} = s \operatorname{tg} \alpha - h; \quad \text{bundan ni topamiz va uning hosilasini nolga}$$

tenglashtirib $\operatorname{tg} \alpha$ ning qiymatini topamiz.

$$\theta_0 = \sqrt{\frac{g s^2 (\operatorname{tg}^2 \alpha + 1)}{2 (s \operatorname{tg} \alpha + h)}};$$

$$\text{yoki} \left(\sqrt{\frac{g s^2}{2} \cdot \frac{(\operatorname{tg}^2 \alpha + 1)}{(s \operatorname{tg} \alpha + h)}} \right)' = 0 \quad \left(\sqrt{\frac{\operatorname{tg}^2 \alpha + 1}{s \operatorname{tg} \alpha - h}} \right)' = 0$$



$$\begin{aligned} & \left(2tg\alpha \cdot \frac{1}{\cos^2\alpha}\right)(S tg\alpha - h) - (1 + tg^2\alpha)\left(S \cdot \frac{1}{\cos^2\alpha}\right) = 0 \\ & \frac{2S tg^2\alpha}{\cos^2\alpha} - \frac{2h tg\alpha}{\cos^2\alpha} - \frac{S}{\cos^2\alpha} - \frac{S tg^2\alpha}{\cos^2\alpha} = 0 \\ & tg^2\alpha - \frac{2h}{S}tg\alpha - 1 = 0 \\ & tg\alpha = \frac{h}{S} \pm \sqrt{\frac{h^2+S^2}{S^2}} = \frac{1}{S}(h \pm \sqrt{h^2+S^2}) \end{aligned}$$

$tg \alpha$ ning bu qiymatini $\forall 0$ qo'yib, uning minimal qiymatiga ega bo'lamiz.

$$\vartheta_{0 \min} = \sqrt{\frac{g S^2(1+tg^2\alpha)}{2(S tg\alpha - h)}} = \sqrt{\frac{g S^2 \left(1 + \left(\frac{1}{S}(h \pm \sqrt{h^2+S^2})\right)^2\right)}{2\left(S \cdot \frac{1}{S}(h \pm \sqrt{h^2+S^2}) - h\right)}}$$

bu ifodani soddalashtirib

$$\vartheta_{0 \min} = \sqrt{g(h + \sqrt{h^2+S^2})}$$

) yechimga ega bo'lamiz

usul; Endi masalani geometrik usulda yechamiz. h balanlikdagi oniy $\vartheta = \sqrt{\vartheta_0^2 - 2gh}$ tezlik, boshlang'ich ϑ_0 minimal tezlikka perpendikulyar bo'ladi. ABC tezlik uchburchagi ADE uchburchakka o'xshash. Bu uchburchaklardan quyidagi tengliklarni yozamiz.

$$\text{va} \quad \sin\alpha = \frac{S}{\vartheta_0 t} \quad \sin\alpha = \frac{g}{g t}$$

$$\frac{S}{\vartheta_0} = \frac{g}{g} \quad \text{yoki} \quad \frac{S}{\vartheta_0} = \sqrt{\vartheta_0^2 - 2gh}$$

$$\left(\frac{S}{\vartheta_0}\right)^2 = \vartheta_0^2 - 2gh \quad \text{tenglamani } \vartheta_0 \text{ ga nisbatan yechamiz.}$$

$$\vartheta_0^4 - 2gh\vartheta_0^2 - S^2g^2 = 0 \quad \text{bu tenglama yechimi}$$

$$\vartheta_0^2 = gh \pm \sqrt{g^2h^2 + S^2g^2}$$

$$\text{Demak minimal tezlik;} \quad \vartheta_{0 \min} = \sqrt{g(h + \sqrt{h^2+S^2})}$$

Biz bu masalani yechishda uch xil usuldan foydalandik.

MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALARNI YECHISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Teshayeva Ruxsora Farhod qizi

Qiziltepa tumani 12-maktabning matematika fani o'qituvchisi


Matematika fanini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor matematik tushunchalarni o'rgatish bilan bir qatorda formulalar yordamida hisoblash ishlarini to'g'ri amalga oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, berilgan masalani hal qilishda, avvalo, qo'yilgan shartni va noma'lumni aniqlab olish kerak. Shunga monand matematik model qurib olinadi va tenglama shakliga keltiriladi. Tenglamani yechish orqali esa noma'lumni aniqlaymiz va qo'yilgan masalaning shartiga e'tibor qaratamiz. Chunki, noma'lumni aniqlaganimiz bilan qo'yilgan masalani hal qilgan bo'lmaymiz. Demak, qo'yilgan masalani tasavvur qilib, ko'z oldimizga keltirishimiz kerak bo'ladi. Bu jarayon, ya'ni tasavvur qilish, ayniqsa, maktab o'quvchilarida hali unchalik darajada shakllanmagan bo'ladi. Natijada matnli masalalarni hal qilish jarayonida o'quvchilarda qiyinchiliklar vujudga keladi. Ana shunday qiyinchiliklarni bartaraf etishda elektron o'quv qo'llanmaning ahamiyati shundaki, unda berilgan matnli masalalarning ba'zilarini bosqichma-bosqich yechish jarayoni keltirilgan. Unda harakatli tasvirlar orqali o'quvchilarning tasavvur qilishlariga undaydi va matnli masalalarni hal qilishda nimaga ahamiyat berilishi kerakligiga turtki beradi. Quyida matnli masalalarni elektron o'quv qo'llanma orqali yechish jarayonini keltiramiz.

Masala-1. Sayohatchilar 3 marta har 6 km dan keyin dam olib, so'ngra yana 7 km yo'l bosdilar. Agar boradigan manzillarigacha bo'lgan masofa 34 km bo'lsa, ular yana qancha yo'l yurishlari kerak bo'ladi?

Yechish. Ekranda masalaning matni keltirilgach, manzara, sayohatchilar va ularning harakatlanishlari namoyon bo'ladi. Ekranda matnga mos holda sayohatchilarning har 6 km da dam olishlari va yana 7 km yo'l yurgach to'xtashlari, qolgan masofa esa so'roq belgisi bilan ifodalanishi va uni x km

bilan belgilanishi namoyon bo‘ladi. Shundan so‘ng, masalaning qo‘yilish sharti belgilashlar orqali ifodalanadi. Belgilashlarga mos holda yana ekranda harakatlar namoyon bo‘ladi va qolgan masofa noma‘lum bilan belgilanib, uni aniqlash talab etiladi. Sayohatchilar yurgan yo‘l hamda ular turgan joydan manzillarigacha qolgan masofa ekranda ko‘rinib turadi va o‘quvchilar barcha jarayonni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, matnli masalalar yechimini topish tasavvuriga ega bo‘ladilar.

Yechish jarayonida ekranda mavjud bo‘lgan belgilanishlar va qolgan masofani aniqlash uchun barcha masofalar yig‘indisi 34 km ga teng bo‘lishi paydo bo‘ladi va noma‘lum son aniqlanib, 9 km qolganligi ma‘lum bo‘ladi.



Masala-2. Teploxod ikki pristan oralig‘idagi masofani daryo oqimi bo‘yicha 7 soat, oqimga qarshi 9 soatda o‘tdi. Agar oqimning tezligi 2 km/soat bo‘lsa, pristanlar orasidagi masofani aniqlang.

Yechish. Avvalo ekranda masalaning matni beriladi va teploxod, ikki pristan, daryo oqimlari namoyon bo‘ladi. Masala matnida keltirilganga mos ravishda ekranda jarayon namoyon bo‘la boshlaydi va berilganlar belgilanib ekranning quyi qismida tenglamalar hosil qilinib boriladi. Soatning bir aylanish davomida teploxod va daryo to‘lqini harakatlanib to‘xtaydi, so‘ngra teploxod yonida V_1 , daryo oqimi yonida V_2 paydo bo‘ladi, bular mos ravishda teploxod va daryo oqimining tezligi hisoblanadi. Birinchi pristanning yonidan teploxod harakatlanadi boshlaydi. Teploxod ikkinchi pristanga borguncha soat millari harakatlanadi va daryo oqimi tezligini ko‘rsatuvchi yo‘nalish (strelka) ham yonib o‘chadi. Yetib borgach 7 soat o‘tganligi yoziladi va $S=7(V_1+V_2)$ paydo bo‘ladi, bu yerda S ikki pristan orasidagi masofa. Keyin teploxod orqaga qaytib harakatlanadi va daryo oqimi tezligini ko‘rsatuvchi yo‘nalish qarama-qarshi holatda o‘chib yonadi. Bunda teploxod sekin harakatlanadi va birinchi pristanga yetib borgach to‘xtaydi hamda 9 soat o‘tganligi yoziladi. Daryo oqimi tezligi qarama-qarshi bo‘lganligi uchun ekranda ko‘rsatkichlar yordamida belgilanadi va tenglama quyidagi ko‘ranishga keladi: $S=9(V_1-V_2)$. Ekranda oqimning tezligi 2 km/soat ekanligi va $V_2=2$ km/soat yozuvi, ikki pristan orasida “Masofa = ?” hamda berilganlar oldida “ S ?” yozuvi paydo bo‘ladi. Yechimni ko‘rsatishda tenglamalar sistemasi tuziladi:

$$\begin{cases} S = 7(V_1 + V_2) \\ S = 9(V_1 - V_2) \end{cases}$$

Tenglamalarning chap tomoni tengligidan, ularning o‘ng tomonlari tenglashtiriladi

$$7(V_1 + V_2) = 9(V_1 - V_2) \quad \text{hamda yechiladi. } 7(V_1 + 2) = 9(V_1 - 2),$$

$$7V_1 + 14 = 9V_1 - 18,$$

$9V_1 - 7V_1 = 14 + 18, 2V_1 = 32, V_1 = 16.$ Teploxodning tezligi 16 km/soat ekan. Masofani aniqlaymiz: $S = 7(V_1 + V_2), S = 7(16 + 2) = 7 * 18 = 126, S = 126$ km. Ekranda “Demak, ikki pristan orasidagi masofa 126 km ekan.” degan yozuv paydo bo‘ladi.

Kema ikki pristan oralig'idagi masofani daryo oqimi bo'yicha 7 soat, oqimga qarshi 9 soatda o'tdi. Agar oqimning tezligi 2 km/soat bo'lsa, pristanlar orasidagi masofani aniqlang.

$V_2 = 2 \text{ km/soat}$

$S = 7(V_1 + V_2)$
 $S = 9(V_1 - V_2)$

Masofa = ?

Berilgan:
 V_1 = kema tezligi
 V_2 = oqim tezligi
 oqim tezligi 2 km/soat
 $S = 7$

Yechish:
 $\begin{cases} S = 7(V_1 + V_2) \\ S = 9(V_1 - V_2) \end{cases}$

$7(V_1 + V_2) = 9(V_1 - V_2)$, $7(V_1 + 2) = 9(V_1 - 2)$
 $7V_1 + 14 = 9V_1 - 18$, $9V_1 - 7V_1 = 14 + 18$,
 $2V_1 = 32$, $V_1 = 16$, $S = 7(V_1 + V_2)$,
 $S = 7(16 + 2) = 7 \cdot 18 = 126$, $S = 126$

Demak, ikki pristan orasidagi masofa 126 km ekan.

Bunda ham yuqoridagi kabi har bir jarayon ekranda namoyon bo'lib boradi. Xulosa qilib aytganda, matematikada matnli masalalarni hal qilishda harakatli tasvirlar, animatsiyalar orqali foydalanish, buning uchun esa informatikadan olgan bilimlarini ishga solib, elektron ta'lim resurslarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday elektron ta'lim resurslardan foydalanish matematikada masalalarni yechishda o'quvchilarning tasavvurlarini oshiradi.

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON O'QUV QO'LLANMADAN FOYDALANISH

Shukurova Ziyoda O'roqovna

Navoiy shahridagi 6-maktabning Fizika fani o'qituvchisi

Tolibova ShaxloMuxtarovna

Navoiy shahridagi 6- maktabning Matematika fani o'qituvchisi

Respublikamiz miqyosida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda, ayniqsa ko'plab mablag'lar ta'lim sohasiga ajratilgan bo'lib, bundan maqsad ta'lim sohasini rivojlantirishdir. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inidagi ta'lim muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida yangi muammolar, ya'ni o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish vazifasi turibdi. Bu borada matematika fanini o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda, bundan ko'zlangan asosiy maqsad matematika fanini o'qitishni takomillashtirishdan iboratdir. Matematika fanini o'qitishda, undagi mavzularni tushuntirishda va ko'rgazmalilikni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalaridan ham foydalanish mumkin. Axborot texnologiyasi vositalaridan biri multimedia muhitida har xil animatsiyalar, dasturlar orqali matematikani o'qitishni tashkil qilish mumkin.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanilmoqda. Ayniqsa, multimedia muhitida "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "3D Max", "Microsoft Power Point" lar orqali har qanday jarayonlarni namoyish qilish imkoniyati mavjud. Bu imkoniyatlardan matematika darslarida matnli berilgan masalalarni yechishda ham foydalanish mumkin. Bunda rangli, tasvirlar hamda ovoz yordamida izohlanishi, masalani yechish jarayoni tasvirlanib borilishi o'quvchilar tasavvurlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Matematik masalaning sharti, ya'ni matni ekranda beriladi va shunga mos ravishda tasvirlar paydo bo'ladi. Shartning qo'yilishi orqali matematik model tuziladi. Masalaning berilishiga bog'liq holda hamda tuzilgan matematik model asosida noma'lum belgilanib, uning yechilishi, shunga mos holda harakatlar ham namoyon bo'lib boradi va yechim topiladi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari bilan ishlaydigan o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

ma'ruza matnlari, adabiyot bilan bog'liq topshiriqlarni tayyorlash;
uslubiy ko'rsatmalarni, nazorat savollarini to'g'ri javoblar variantini tuzish;
ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
bilimni nazorat qilish natijasini tahlil qilish;
ma'ruza matnlarini tahrirlash;

har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish;

mustaqil ishlar bo'yicha talabalarning nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;

o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzular bo'yicha talabalar bilan suhbat o'tkazish talablar qo'yiladi.

Qo'yilgan ushbu talablar bo'yicha axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog-o'qituvchilarning yumushini osonlashtirib, o'quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko'tarishga erishiladi. Shu bilan bir qatorda ta'lim muassasasi rahbariyatiga talaba, guruh, mutaxassisliklar bo'yicha test natijalarini ko'rib borish va ularning o'zlashtirish natijalariga baho berish, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo'ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual stendlar joriy etish, kursni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Elektron darslik loyixalash va ilmiy ishlab chiqarishda ma'lumotlarni tasvirlanishini chegirmali texnologiyasiga asoslangan maxsus uskunaviy vositalardan foydalanishdir. Bu texnologiya darslikning o'zida faqat matnli ma'lumotlarni saqlovchi emas, balki matematik formulalar, dasturlar va boshqalarni ham saqlovchi, yagona bog'langan ma'lumotli hujjat ko'rinishida tasvirlash va saqlashni ta'minlaydi. Elektron darslik har bir mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganish, o'rganilayotgan usul va uning tadbiqini tadqiq etishni namoyish qilish, modeli dasturlarni modifikatsiyalash va boshqarish, hamda egallangan bilimlarni sinashga yo'naltirilgan. O'rganilgan hodisa yoki jarayon modelini qurish, uni hal etish uchun algoritm loyihasini va ko'rilgan algoritmnii dastur ko'rinishda tadqiq qilishi zarur bo'ladi. Bunday maqsadga erishish uchun elektron darslik tarkibiga o'quvchilardan induktiv va obrazli fikrlashni rivojlantirishga ko'mak beruvchi modeli dasturlar seriyasi kiritilgan.

Ma'lumki elektron o'quv qo'llanmalar yaratish jarayoni, an'anaviy "qog'ozli" o'quv qo'llanmalar yaratishga nisbatan o'quv materiali mazmunini tuzilishga sifat nuqtai nazaridan yangi-yangi talablar qo'yadi. Shuning uchun, o'quv qo'llanmalar mazmunini strukturalashning texnologik vositasi sifatida "daraxtsimon" tizim imkonini beruvchi "integratoridan" foydalaniladi. Chunki o'quv kursi predmet sohasining bunday modeli o'rganilayotgan fanga mos test va topshiriqlarining to'la tizimini ko'rishni avtomatlashtirishga imkon beradi.

O'quvchilarning biror-bir sohani yoki predmetni faol egallashi uchun faqatgina nazariy bilimcini yetarli bo'lmasdan, balki masalani hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalar ham shakllangan bo'lishi kerak. Shuning uchun maktab darsliklari mavzusini faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy ko'rinishda, yani ko'rgazmali qurollar, harakatli tasvirlar, turli taqdimotlar orqali o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛНЫХ КЛАССАХ

Н.Б. Юлдашев

Кафедра теории начального образования. БухГУ

Использование занимательного материала на уроках помогает активизировать учебный процесс, развивает познавательную активность, наблюдательность детей, внимание, память, мышление, снимет утомление у детей. Форма занимательных упражнений различная: ребусы, кроссворды, головоломки, викторины, загадки, задачи. Еще К.Д.Ушинский советовал включать элементы занимательности, игровые моменты в учебный труд учащихся для того, чтобы процесс

познания был более продуктивным. В процессе игры на уроке математики дети незаметно для себя выполняют различные упражнения, где им приходится сравнивать множества, выполнять арифметические действия, тренироваться в устном счете, решать задачи. Игра ставит ученика в условия поиска, пробуждает интерес к победе, а отсюда – стремление быть быстрыми, собранными, находчивыми и т.п. Ученик работает с интересом, если он выполняет посильное для него задание.


На каждом уроке математики я провожу устный счет, используя при этом игровые и занимательные задания, дидактические игры: «Собери букет», «Математическая рыбалка», «Кто быстрее?», «Молчанка», «Собери грибы», «Математический футбол», ребусы, кроссворды, задачи в стихах, задания с геометрическими фигурами и т.д. Дидактические игры на этапе ознакомления, повторения и закрепления изученного материала выполняют функцию формирования в процессе игры общеучебных умений и навыков, а так же психологических образований, крайне необходимых для активизации учебного процесса. Вот некоторые примеры дидактических игр используемых мною на уроках.

1. Игры с геометрическим материалом


- Из каких геометрических фигур составлены данные рисунки? Каких фигур больше? На сколько?




- Какие фигуры вы видите на этом чертеже?
- Найди треугольники. Сколько их?
- Сколько одинаковых треугольников?
- Сколько квадратов, четырехугольников? Они одинаковые?
- Есть ли здесь еще фигуры? Сколько всего фигур?




- На какие две группы можно разделить фигуры на доске?
- На какие три группы можно разделить оставшиеся фигуры?
- Сколько углов у этих фигур?




2. Игра «Молчанка»




3. Игра «Цепочка»




- Проверь все ли в цепочке верно?



- Объясните, как получили каждое следующее число из предыдущего?



4. «Назови соседей числа»



5. Продолжи ряд

Рассмотри ряд чисел, выясни закономерность и продолжи ряд.

5, 8, 11, ..., ..., ...

21, 34, 47, ..., ..., ...

19, 29, 39, ..., ..., ...

6. 25, 17, 36, 28, ..., ..., ..., ...

6. Заполни таблицы


Слагаемое	40		85	50	4
Слагаемое		12	15		36
Сумма	56	20		90	

Уменьшаемое	30		45	60		14
Вычитаемое		12		36	8	
Разность	8	6	30		7	6

1-е слагаемое	2-е слагаемое	Сумма
13	26	?
25	30	?
42	6	?
5	31	?
40	30	?
26	51	?

Уменьшаемое	Вычитаемое	Разность
?	10	25
28	7	?
?	6	9
38	5	?
?	12	13
44	11	?

7. Набери число



8. Магические квадраты


	10			4	
	8			6	
11	6			8	3

9. Волшебные палочки


- Составь из 12 палочек 5 квадратов. Убери 2 палочки так, чтобы осталось 2 квадрата. В фигуре первого задания переложи 4 палочки так, чтобы получилось 3 квадрата.



10. Игра «укрась елочку»



11. Игра «Чья ракета быстрее взлетит»



Дидактическая игра является ценным средством воспитания умственной активности детей, она стимулирует психические процессы, вызывает у учащихся живой интерес к процессу познания. В ней дети охотно представляют значительные трудности, тренируют свои силы, развивают способности и умения. Она помогает сделать любой учебный материал увлекательным, создает радостное рабочее настроение, облегчает процесс усвоения знаний. Интересная игра, доставившая детям удовлетворение, оказывает положительное влияние и на проведение последующих игр. При проведении дидактических игр забавность и обучение надо сочетать так, чтобы они не мешали, а, наоборот, помогали друг другу. Средства и способы, повышающие эмоциональное отношение детей к игре, следует рассматривать не как самоцель, а как путь, ведущий к выполнению дидактических задач. Математическая сторона содержания игры всегда должна отчётливо выдвигаться на первый план. Только тогда игра будет выполнять свою роль в математическом развитии детей и воспитании интереса их к математике.

Дидактическая игра может быть использована как и на этапах повторения и закрепления, изучения нового материала. Она должна в полной мере решать как образовательные задачи урока, так и задачи активизации познавательной деятельности, и быть основной ступенью в развитии познавательных интересов учащихся.

Дидактические игры особенно необходимы в обучении и воспитании детей младшего школьного возраста. Благодаря играм удаётся сконцентрировать внимание и привлечь интерес даже у самых несобранных учеников. Вначале их увлекают только игровые действия, а затем и то, чему учит та или иная игра. Постепенно у детей пробуждается интерес и к самому предмету обучения.

Таким образом, дидактическая игра – это целенаправленная творческая деятельность, в процессе которой обучаемые глубже и ярче постигают явления окружающей действительности и познают мир.

O‘QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIK BO‘YICHA PISA TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR

Raximova Gulora Ibragimovna

Urganch shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

PISA – o'quvchilar yutuqlarini xalqaro baholash dasturi doirasida ko'p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'laroq, quyidagi xulosalarga kelingan:

Dunyoning aksariyat o'quvchi yoshlari XXI asrda yashashga tayyor emaslar, ya'ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetensiyalariga to'liq ega emaslar;

maktab ta'limi ko'p jihatdan bu kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiril-magan;

o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini qayerda ishlatilishini bilishmaydi;

Hali ham ko'p maktablarda eskicha usullarda ta'lim berilayapti, ya'ni tayyor bilimlar berilayapti.

Aslida maktab o'quvchilarni "o'rganishga o'rgatish" ya'ni mustaqil bilim olishga o'rgatishi kerak bo'ladi;

darsliklar va undagi o'quv topshiriqlari mazmuni ham bunday vazifani bajarish-ga mo'ljallanmagan.

Yuqoridagi bu xulosalardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2021-yilda o'tkazilishi mo'ljallanayotgan PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlikni baholashda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin:

darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi sababli, o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida PISA tadqiqotlarida ularning natijalari past bo'lishi mumkin;

PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo'limiga murojaat qilish haqida ko'rsatmalar yo'q;

PISA topshiriqlari (matnli, rasmi, diagramma va jadvallar, real bog'lanishlar grafiklari kabi) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga o'girish va yechim topilgandan so'ng uni yana real sharoit bilan bog'lab baholash va talqin qilish talab qilinadi.

odatda matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya'ni o'quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma'lum algoritmlar asosida yechishga o'rgatiladi. PISA topshiriqlarida esa unday emas. Odatda matematika darsliklaridagi masalalar muayyan bobda beriladi va bu bilan ularni yechish usullari ham shu bobda ko'rilgan usullarga bog'langan holda beriladi, ya'ni muayyan bo'limining masalalari qanday yechilishi haqida ko'rsatma beriladi;

bundan tashqari, darslikdagi masalalar sof matematik masalaning tavsifidan iborat bo'lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo'ladi;

darsliklarimizda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalar juda kam yoki umuman yo'q. Masalalarda ko'rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko'p yangi matnli ma'lumotlarning borligi – masalani tushunish va uni yechishni yanada og'irlashtiradi;

ma'lumot turli: matn, raqam va tasvirli shakllarda taqdim etilad. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar matnning turli qismlaridan olinishi kerak bo'ladi. Ba'zi masalalarda "aylana" so'zi topshiriq matnida qayd etilmasada, o'quvchilarning o'zlari ob'ektning aylana shaklida ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

mamlakatimiz maktablari matematika fani o'quv dasturi PISA tadqiqotlarining matematik savodxonlikni baholash dasturi mazmuni va ketma-ketligidan farq qiladi. PISA sinovlarida hali o'tilmagan mavzular bo'yicha topshiriqlar ham berilishi mumkin;

PISA topshiriqlarining berilishi va unga javob berishning o'zgachaligi ham o'quvchilarda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Sinovning kompyuter asosida o'tkazilishi esa kompyuterda ishlash va ba'zi maxsus ilovalardan foydalanish ko'nikmalarini ham talab etadi. Ba'zi intraktiv topshiriqlarni bajarish oldindan bunday topshiriqlar bilan tanish bo'lish va ularda ishlash dasturidan foydalanish ko'nikmalarining shakllanganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Bu va shunga o'xshash muammolar borki, PISA tadqiqotlarida ilk bor qatnashayotgan mamlakatimiz ta'lim tizimi oldida bir qator qo'shimcha vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu muammolarni oldindan bilish va ularni hal qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar grafigi va rejasini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, sinovlarga tayyorlanish ishlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishini tavsiya qilamiz:

barcha tadqiqot yo'nalishlari doirasidagi umumta'lim fanlari o'qituvchilarning maqsadli malakasini oshirish, PISA tadqiqotlari bilan tanishtirish, topshiriqlar mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumot berish, ularni tahlil qilishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilish;

Seminar qatnashchilarini tegishli o'quv materiallari bilan ta'minlash, turli o'quv-uslubiy adabiyotlarni chop ettirib, joylarga yetkazish;

Matematika fani o'qituvchilarini nafaqat matematik savodxonlik bo'yicha, balki kreativ fikrlash bo'yicha ham tadqiqotlarni o'tkazishga tayyorlash;

Malaka oshirishdan o'tgan o'qituvchilar maktabda to'garak soatlari hisobidan "PISA-2021 tadqiqotlariga tayyorlanamiz" deb nomlangan fakultativ kurslarni 7-, 8- va 9- sinf o'quvchilari uchun haftasiga 2 soat hajmida tashkil qilish tavsiya etiladi. Asosiy e'tiborni 2021-yilda sinovdan o'tadigan 8-sinf o'quvchilariga qaratish;

Respublikadagi matematikani o'qitishga tayanch maktab sifatida belgilangan maktablarning PISA-2021 tadqiqotlariga tayyorlanishga mas'ul markaz sifatidagi faoliyatini tashkil qilish va ularga har tomonlama uslubiy yordam ko'rsatish;

Televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot ishlarini olib borish, "Ma'naviyat va ma'rifat" kanalida har haftada berib boriladigan turkum ko'rsatuvini tashkil qilish. Bu ko'rsatuv orqali ochiq PISA topshiriqlarini tahlil qilish va o'qituvchilarga yil bo'yi tegishli uslubiy tavsiyalarni berib borish;

Xalq talimi vazirligi portalida va Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-saytida "PISA-2021 tadqiqotlariga tayyorlanamiz" deb nomlangan alohida interaktiv rukn tashkil qilish va ularga tadqiqotlar bilan bog'liq barcha ma'lumot, xabar va materiallarni joylashtirib borish. Onlayn maslahat olish imkoniyatlarini yaratish.

Ma'lumki, PISA topshiriqlari matematika fanining quyidagi mazmun sohalari (bo'limlari) ga doir tuziladi: Miqdorlar (arifmetika); O'zgarishlar va munosabatlar (algebra); Fazo va shakl (geometriya); Ma'lumotlar va aniqmasliklar (ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari).

Shundan kelib chiqib, o'quvchilarni PISA tadqiqotlariga 5- sinfdan boshlab tayyorlab borish lozim bo'ladi. Chunki, aynan 5-6- sinflarda matematikaning asosiy hisob-kitob, ya'ni arifmetik ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish boshlanadi. Shuningdek, PISA topshiriqlarining ko'pchiligi aynan sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish, hisoblash texnikalaridan foydalanishni taqozo qiladi. 7-9- sinflarda esa algebra va geometriya fanlarini tizimli o'rganish boshlanadi.

O'rta umumiy ta'lim maktablari uchun matematika fanidan yangilangan o'quv dasturi aynan PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlik mazmunidan kelib chiqib qayta tuzilgan. Undagi ba'zi mavzularning oldingi sinflarga surilgani, dasturga kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarining 5-sinfdan boshlab erta qo'shilganining boisi ham shu bilan bog'liq. Shuningdek, 5-6- sinflarda planimetriya elementlari va fazoyiy shakllarni o'rganishga ko'proq e'tibor berilgani, hamda 7-9- sinf geometriya kursida stereometriyaning boshlang'ich tushunchalarining ham kiritilishi PISA topshiriqlari bilan bog'liq amalga oshirilgan. Shu bilan birga, boshqa umumta'lim fanlarida bu mavzularga ehtiyoj bo'lgani uchun ham bunday qarorga kelingan. Dasturni yangilash jahonda matematika fanini o'qitishga bo'layotgan innovatsion yondashunlarga javoban amalga oshirildi. Shu bilan birga, dasturni yaratishda matematika fanini o'qitishning ming yillar davomida shakllanib kelgan jahon va yurtimizdagi ilg'or an'analar va fanning nazariy asoslangan mazmuni, hajmi, ketma-ketligi va uzviyligini ta'minlagan holda va unga putur yetkazmagan holda ish tutildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko'nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o'zlashtirilgan muayyan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo'llashga juda katta e'tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs (to'garak) mashg'ulotlarida ham muhokama qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, matematika o'quv dasturiga yangi kiritilgan loyiha ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bu loyiha ishlariga mavzu sifatida PISA topshiriqlari yoki ularga o'xshash kichik ilmiy ishlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni berish tavsiya etiladi.

BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

Rajabova Zamira Jumaboyevna

Urganch shahar 25-son IDUM ning matematika oliy toifali o'qituvchisi

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri —bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. Bolalar matematik tushunchalarini rivojlantirish uchun pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fundamental fanlarda o'rganiladigan xususiyatlar va qonuniyatlarni bilishi kerak. Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Bunda bolalarda matematik tushunchalardan oldin mavjud bo'lgan g'oya katta ahamiyatga egadir. Har bir yangilikdan oldin g'oya paydo bo'ladi, keyin shu yangilik haqida fikr yuritiladi. Fikr o'z qarorini topishi uchun voqealarni

taqqoslaydi, ko'rib chiqadi va ularga asoslanib, kelib chiqqan natijalarni isbotlash uchun umumiy uslubni anglashga va shu natijani umumiy ifodalashga harakat qiladi.

Matematik masalalarni yechish jarayon o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limda boshlanadi. Har bir mustaqil yechilgan masala, tuzilgan masala va masalani yechish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni mustaqil yengishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Ruhshunoslarning fikriga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi murakkab va serqirralidir. O'zining mohiyati bo'yicha har bir fikr ijodiy, past yoki yuqori darajaning mahsulidir. Har bir fikr — izlanish va yangilikni yaratish hamda uni ommalashtirishga qaratilgan mustaqil harakatdan iborat. Adabiyotlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, matematik tushunchalarni rivojlantirish mahsulining yuqori darajadagi yangiligi, unga erishish jarayonining o'ziga xosligi va aqliy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatish bilan ifodalanadi. Ayrim mualliflar bolaning turli fikrlashlari ularning oldida turgan yangi muammolarni mustaqil yechishga, chuqur bilimlarni tez egallashga, qulay imkoniyatga yengil o'tishga undaydi, deb hisoblaydilar. S.L.Rubinshteynning birinchilardan bo'lib umumiy aqliy rivojlanish borasida qilgan izlanishlari maqsadga muvofiqdir. U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning obyekt hamda maqsadi qilib kiritdi va asosladi. Faoliyat nazariyasi asosida S.L. Rubinshteyn faoliyat tushunchasini subyektdan obyektga o'tish deb kiritadi. S.L.Rubinshteyn faoliyatning ikkinchi bosqichini obyekt dan subyektdan qarab borgan aloqadan iborat deb hisoblaydi. S.L.Rubinshteynning diqqat markazida, inson faoliyati jarayonida faqatgina o'ziga xos bo'lgan shaxs sifatida o'zining xususiyatlarini namoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi obyekt bo'lib aniqlanadi, degan mazmun turadi. „Faoliyat“, „harakat“ tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A. N. Leontev ishlarida yoritilgan.

Faoliyat — subyektning bir-biriga bog'langan realligining o'zaro ta'sir ko'rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning bola ongida aks ettirilishi — „ta'sir“ning natijasi bo'lmay, o'zaro ta'sir, ya'ni bir-biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir, deb hisoblaydi. A. N. Leontev va S.L. Rubinshteynning o'qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi hamda ta'limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o'tkazilishi eng foydali va natijali yo'nalishdir. Matematik tushunchalarni rivojlantirishda qo'lgan barcha izlanishlar ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchi yo'nalishda matematik tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. Shu nuqtai nazardan muammolarni o'rganishga ko'p olimlarning ishlari bag'ishlangan. Ularda bir necha g'oyalari aniq aks ettirilgan:

g'oyalardan biri — bolalarning amaliy faoliyati bajarilishidagi ayrim belgilar ularning har xil birikmalarini ajratib ko'rsatmoqda, ya'ni amaliy masalalarni mustaqil ravishda tuzmoq, bajarish, ijodiy xarakterdagi masalalarni yechish, aniq va yashirin jarayonlarning funksional bog'lanishini tushungan holda bajarish;

izlanishlarning ikkinchi guruhi matematik tushunchalarni shakllantirishning xususiyatlarini bilim boyligi va uni o'zlashtirish darajasi orqali izohlashni o'z ichiga oladi;

uchinchisi — matematik tushunchalarni shakllantirishning asosini tarbiyachilarning turli xil (masalan, tushunchalar yig'indisini: qo'shmoq, mulohaza qilmoq, mantiqiy bog'lanishni aniqlamoq, bilmoq) masalalarni yechishda namoyon bo'lgan umumiy qobiliyatlari bilan bog'laydi.

Ikkinchi yo'nalishdagi izlanishlar matematik tushunchalarni shakllantirishning mexanizmi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tushuntirishga bag'ishlangan. Bunda matematik tushunchalarni shakllantirishni shaxs xususiyatlari (kasbga bo'lgan qiziqish, shaxs uchun ijodiy fikrlashning ahamiyati, shaxsning yoshiga xos bo'lgan xususiyatlar) bilan bog'lashga harakat qilingan.

Agar bolalar masalani yechishdagi yangilikni, masalani qiziqarli yechish uslubini, doim qo'llab kelgan standart uslublaridan voz kechib, masalaning yangi yechimlarini, muammoning asosiy bog'lanish mohiyatini anglash va uni yechish uchun turli usullarni topish, amaliy masalalarni yechish muammolaridan chiqish, oldindan aytib berish qobiliyatlariga ega bo'lsa, matematik tushunchalar rivojlangan hisoblanadi. L. S. Vigodskiy fikrlashning rivojlantirish muammosini o'rganib, dastlab matematik tushunchalarni shakllantirishni ilgari suradi. Bunda u bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni topish lozimligini ta'kidlaydi. L.S. Vgodskiyning fikri bo'yicha, bolaning tasavvuri rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonisiz o'tmaydi, faqatgina o'quv axborotlarining to'plami (bilim, bilish) fikrlashni harakatlantiradi, bolalarning fikrini rivojlantiradi. O'z navbatida matematik tasavvurning hosil bo'lishi bilim va bilishni o'zlashtirish yuqori darajada bo'lishiga dastlabki shart hisoblanadi. L. S. Vgodskiydan keyin psixolog va didaktlarning ko'pchiligi o'rgatish — rivojlanish manbai, tarbiyachilarning bilimi va bilishi — ularning rivojlanishi uchun muhim shartlardan biridir, deb hisoblaydilar. Bunda o'qitish

jarayonida tasavvurni hosil qildirish jarayonini ko'zda tutish muhimdir, ya'ni tarbiyachilarning egallagan matematik tushunchalarni rivojlanish darajasini e'tiborga olish va ularni keyingi yengilroq maydonga siljitish kerak. Ushbu maydonni aniqlash uchun L. S. Vgodskiy ikki ko'rsatkichdan foydalanishni tavsiya etadi:

bolaning yangi bilimlarni kattalar yordamida egallashi;
boladagi o'zlashtirilgan bilimlarni masalalarni mustaqil yechishda qo'llash, tatbiq etish qobiliyati.

L. S. Vgodskiyning takliflarini amaliyotda qo'llaganda:

bolalarga masalani yechilishini ko'rsatib, xuddi shunga o'xshash masalani o'zlariga yechish uchun beradi;

tarbiyachi boshlab qo'ygan masalani bolaning yechib tugatishini tavsiya etadi;

murakkabroq masalalarni yechishni bolaga tavsiya etadi;

masalaning yechilish prinsipini tushuntiradi, yordamchi savollar beradi, muammolar qo'yadi, masalani qismlarga bo'ladi va hokazo. Bundan tashqari, masalani yechish jarayonida tasavvurni hosil qildirish jarayonini aniqlash uchun tavsiya etilayotgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

Ataboyeva Shoira Azatovna

Urganch shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

Таълим сифатини ошириш учун унинг ҳолати ва ривожланиш тенденцияларини узлуксиз мониторингини олиб бориш ва ўқувчиларнинг ўқув ютуқларини объектив ва адекват баҳолашни амалга ошириш зарур. Бу айниқса, ўқувчиларнинг кейинги шахсий ва фуқаролик ривожланиши учун замин яратадиган умумий ўрта таълим даражасида муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги 997-сон “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори билан халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш, халқаро алоқаларни ўрнатиш, ўқувчиёшларнинг илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини, энг аввало, ёш авлоднинг ижодий ғоялари ва ижодкорлигини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси ҳузурида Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази ташкил этилди.

Ҳар бир педагог шуни доим эсда тутиши керакки, дарс ўқув тарбия жараёнининг асосий формасидир. Ҳозирги замон тарбиясининг барча жараёнлари ўқувчиларни мустақил фикрлашга ва мустақил ижод қилишга ўргатишдан иборат. Биз ушбу ишда ана шундай долзарб муаммоларни математика фанини ўқитиш жараёнида ҳал этишга қаратмоқчимиз.

Математика фани ўрганилиши жиҳатдан бошқа соҳаларга нисбатан биров қийинроқ бўлганлиги учун ўқувчиларда бу соҳага қизиқиш, ўзлаштириш даражаси фарқ қилади. Шунинг учун ҳам дарсларда ўқувчиларга яқинроқ бўлишга, қизиқарли мисол, масалалар билан бойитилишига тўғри келади. Айниқса, ўқувчиларда теорема, ёки қийинроқ масалаларни ҳал этиш давомида миянинг қабул қилиш даражаси сусайиб, уларда зерикиш аломатлари содир бўла бошлайди. Агар ўқитувчи бу ҳолатни ўз вақтида сезиб, уларни бу ҳолатдан чиқаришга ҳаракат қилмаса, бу дарсдан кутилган мақсадга эришиб бўлмайди. “Ўқитувчи - киши руҳининг муҳандисидир” деб бежиз айтилмаган.

Шундай экан, ўқитувчи ўқувчилар ақлий фаолиятини вақти билан ўзгартириб туриш хусусиятига эгадир. Ўқувчиларнинг дарс жараёнида толиққанлиги сезилган вақтда дидактик ўйинлар ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Иш тажрибаларимизда кўп қўллайдиган бундай ўйин турларидан “Ишчанлик ўйинлари”ни мисол қилиб олишимиз мумкин. Бундай ўйин турида ўқувчилар ўртасида ақлий иш юзасидан мусобақа ташкил қилинади. Мусобақада тез, тўғри, чаққон ҳолда ишни якунлаган гуруҳ ғолиб саналади. Ҳақиқатдан ҳам, болаларда билим олишдан ҳам биринчи бўлиш, ўқитувчининг рағбатини эшитиш иштиёқи анча кучли бўлади.

Моҳир ўқитувчилар мана шу вазиятдан унумли фойдаланадилар. Мактабларда математика дарсларидаги ташкил этиладиган “Ишчанлик ўйин”ларидан мақсад ўқувчилардаги билим,

малакаларни мустаҳкамлаш бўлса ҳам энг асосийси уларни дарсга бўлган қизиқишларини орттиришдир. “Ишчанлик ўйинлари”ни масала ечиш, мисол ишлаш, тестлар ечиш, оғзаки савол-жавоб ташкил этиш орқали амалга ошириш мумкин. “Ишчанлик ўйини”ни ташкил этишдан мақсад:

1. Дарс жараёнида ўқувчи фикрини чалғитиш
2. Билим ва малакаларни мустаҳкамлаш
3. Тез, чаққон, тўғри иш бажаришга ўргатиш
4. Ўқувчини математика соҳасига бўлган қизиқишини оширишдир.

Вазифаси эса ўқувчиларни қисқа муддатда турли тушунча, формулалардан фойдаланган ҳолда амалий иш бажариш, кўникмалар ҳосил қилиш ёки мавжуд, борларини бойитишдан иборатдир. “Ишчанлик ўйини”да арифметик мисоллар, алгебраик соддалаштириш, масала-мисоллар, геометрик масалалар, тест саволлари ёки викторина саволларидан фойдаланиш мумкин.

Ҳамма ҳолларда ҳам бу вазифалар қисқа муддатда ҳал этилиши лозим бўлганлиги учун сарф этиладиган вақт ҳам шунга мос бўлади.

“Ишчанлик ўйини”ни ташкил этиш тартиб қоидалари куйидагича: аввало “Ишчанлик ўйини” ўқувчиларни дарсдан чарчаш ҳолларида амалга оширилганлиги учун қисқа вақтга мўлжалланади. “Ишчанлик ўйини” да синфдаги ўқувчилар ўтирган жойларини қаторига қараб гуруҳларга ажратилади. Олинадиган вазифа (мисол, масала, тест, савол, жавоб) танланади ва чегаравий вақт белгиланади. Синфдаги ёзув тахтаси гуруҳлар сонига қараб қисмларга ажратилади. Ҳар қайси гуруҳни вазифаси ёзув тахтасига ёзилади ёки тайёрланганлари қўйилади. Ҳар бир гуруҳдан биттадан ўқувчи ёзув тахтасига ўзига берилган топшириқни бажариб ўрнига ўтиради. Иккинчи ўқувчи эса ёзув тахтасидаги вазифаларни бажаришни давом эттиради. Ўқитувчи ўқувчилар ишини, сарф этаётган вақтини назорат қилиб боради. Гуруҳлар ёзув тахтасидаги ҳамма топшириқларни бажариб бўлишгандан сўнг, қилинган ишларни умумлаштирилади. Бунда берилган топшириқни тўғри бажарилишига, иккинчидан шу топшириқни бажаришга сарф қилинган вақтни тежалишига эътибор берилади.

Демак, умумлаштириш натижасига кўра қайси гуруҳ кўпроқ тўғри жавоб топган ва оз вақт сарф қилинган бўлса, шу гуруҳ ғолиб деб топилади. Бу машғулотни 5-9 синфларда ўтказилиши мумкин.

Ғолиблар аниқлангач ўқувчилар диққатини яна дарсни давомига қаратиш мумкин. Тажрибаларимиздан маълумки, математикадан ташкил этиладиган дидактик ўйинлардан “Ишчанлик ўйинлари”ни ўтказиш дарс самарадорлигини оширади, ўқувчилар фаоллигини оширишнинг муҳим омили сифатида таъсир этади.

TA'LIM TIZIMIDA MATEMATIKA FANIDAN SAVODXONLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION METODLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Turdiyev Yorqin Ochilovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi O'IBDO, matematika fani o'qituvchisi

“O'rtacha o'qituvchi bayon qiladi, yaxshi o'qituvchi tushuntiradi, mashhur o'qituvchi namoyish qiladi, buyuk o'qituvchi ruhlantiradi”

I.V. Gyote

Har bir darsda turli xil didaktik maqsadlar ko'zlanadi, ular orasida bittasi bosh maqsad bo'lib hisoblanadi, uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi. Har bir alohida darsning maqsadi darslar sistemasining maqsadini aniqlab, uning yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchilarga ochib beradi. Bu holda yangi tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirish va chuqurlashtirish, uchinchisida esa, biror malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, to'rtinchisida esa, bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish bajariladi. Har bir darsda yuqorida aytilganlarning bir nechtasi yoritilishi mumkin. O'tilganlarni takrorlash oldin o'tilgan bilimlarni yangi sistemaga solish, shu bilan bilimlarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Yangi materialni bayon qilish har doim mashqlar bajarish bilan davom ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil

etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Bu esa o'quvchilar bilim bo'shlig'ini to'ldirishga xizmat qiladi.

O'quvchilariga taqdim etilgan topshiriqlaridan namuna

1. Fudji tog'iga ko'tarilish. Yaponiyadagi Fudji tog'i "uyqudagi" vulkani bilan mashhur tog' hisoblanadi. Fudji tog'i faqat 1 iyuldan 27 avgustgacha bo'lgan davrda odamlar uchun ochiq. Taxminan 200 ming kishi hozirgi vaqtda Fudji tog'iga chiqmoqda. O'rtacha har kuni Fudji tog'iga qancha odam ko'tariladi?

2.2-masala (dunyo bo'yicha o'rtacha 73%, Singapur 95%, Rossiya 14%).

Tom nonning $\frac{1}{2}$ qismini, Yanna esa $\frac{1}{4}$ qismini yedi. Ikkalasi ham nonning qaysi qismini yeyishdi?

3.3-masala (dunyo bo'yicha o'rtacha 45%, Singapur 78%, Rossiya 47%). Xaltada 5 ta qizil va 5 ta ko'k shar bor. Murod ihtiyoriy ravishda bitta sharni oldi. U qizil ekan. Bundan keyin u bu sharni sumkaga soldi. Keyingi olingan shar qizil bo'lishining ehtimolligini toping.

Matematika imtihonlarida o'quvchilar qanday muammolarga duch kelishi mumkin?

Darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi va shuning uchun o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida ularning natijalari past bo'lishi mumkin.

PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo'limiga murojaat qilish haqida ko'rsatmalar yo'q.

PISA topshiriqlari (matnli, rasmlil, diagramma va jadvallar, real bog'lanishlar grafiklari) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga o'girish va yechim topilgandan so'ng uni yana real sharoit bilan bog'lab baholash va sharhlash talab qilinadi.

Odatda matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya'ni o'quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma'lum algoritmlar asosida yechishga o'rgatiladi.

PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston 2021-yilda 3 ta (o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) yo'nalish bo'yicha ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ilmga keng jalb qilish va intellektual salohiyatini oshirish, matematika fani uchun bo'lg'usi kadrlar tayyorlash ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro viloyati Qorako'l tumanida "Xalqaro matematika maktabi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 9 avgust, 654-sonli qarori qabul qilindi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, chet tillarini chuqur o'qitish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish hamda ularni respublika va xalqaro fan olimpiadalariga qatnashishga tayyorlash xalqaro maktabning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Xalqaro Matematika Olimpiadasi dunyoning yosh matematiklari uchun eng katta va eng muhim forum hisoblanadi. U sport Olimpiadasi kabi nufuzli bo'lib, unda ishtirok etish har bir mamlakat uchun katta sharaftir. Har yili iyul oyida, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatidan kelgan 500-600 nafar iqtidorli yoshlar o'zaro bellashadilar, muloqotda bo'lishadi va tajriba almashishadi. Birinchi xalqaro Matematika Olimpiadasi Brashovda 1959 yilda bo'lib o'tgan va unda Bolgariya, Vengriya, Sharqiy Germaniya, Polsha, Rumyniya, SSSR, Chexoslovakiya terma jamoalari ishtirok etgan. O'zbekiston jamoasi birinchi bor 1997 yili Argentinada bo'lib o'tgan Xalqaro Matematika Olimpiadasida 3 nafar ishtirokchi va 1 nafar rahbar bilan faol qatnashgan. Bu yerda amaliy tajribalarni almashib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida “Xalqaro matematika maktabi”ni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2019 yil 9 avgust, 654-sonli qarori

KIMYO FANLARI

KIMYO FANIDAN UY TAJRIBALARI – O‘QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODHONLIGINI OSHIRISH OMILIDIR

Davlatov Ismat Xudoyqulovich, G‘aybullayeva Mo‘mina Shofayzovna

Kimyo fani o‘qituvchilari

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi

Bugungi kunda ta‘lim sohasini isloh qilish, uni rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimi yutuqlari asosida takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar olib borilmoqda [1, 2]. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy majlis senatorlarga murojaatnomasida kimyo, biologiya, matematika, geologiya fanlarini rivojlantirish, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha o‘zlarining takliflarini berib o‘tdilar.

Zamonaviy umumta‘lim maktablarida kimyoviy ta‘lim mazmuni, ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari takomillashtirilmoqda. O‘qitishda yangi yo‘nalishlar belgilanmoqda. Lekin bir jihat – kimyoviy eksperimentga bo‘lgan munosabat o‘zgarmasdan qolmoqda. Kimyo eksperimental fan bo‘lib kelgan va bo‘lib qoladi, chunki kimyoviy eksperimentsiz, laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlarni bajarmasdan kimyoviy bilimlarning minimal xajmini ham egallash mushkul [3].

Zamonaviy kimyo ta‘limi konsepsiyasida o‘quv eksperimentini amaliy yo‘naltirish borasida katta urg‘u beriladi. Lekin hozirda qo‘llanilayotgan maktab eksperimenti vositalari asosida bu fikr to‘laligicha ro‘yobga chiqmaydi. Maktab kimyoviy eksperimentini takomillashtirish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar XX asrning 50-60 yillarida olib borilgan. Bu davrda ishlab chiqilgan tajribalar boshqa o‘quv maqsadlari, dasturlar, maktab moddiy bazasiga, kimyoni o‘rganishga ko‘proq vaqt miqdoriga mo‘ljallangan edi [4].

Maktab o‘quv eksperimentini amaliy yo‘nalishini kuchaytirish muammosini an‘anaviy maktab eksperimenti bilan birgalikda uy sharoitida bajarilishi mumkin bo‘lgan kimyoviy tajribalardan foydalanish orqali yechish mumkin.

Uy tajribalari – barcha o‘quvchilar bajarishi shart bo‘lgan individual amaliy ish, mustaqil uy vazifalaridan biridir. Bu tajribalar uy-ro‘zg‘or buyumlari va moddalaridan foydalanib, o‘qituvchining bilvosita rahbarligi va nazorati ostida olib boriladi. Uy tajribalarida katta imkoniyatlar mavjud. Uy tajribalari o‘quv jarayonida alohida o‘rinni egallaydi. Birinchidan bu – amaliy mashg‘ulot bo‘lib, mustaqil kimyoviy eksperiment turlaridan biridir. Uy tajribalari o‘qituvchining bilvosita rahbarligi ostida olib borilganligi sababli kimyoviy eksperiment texnikasi nuqtai-nazaridan o‘ta murakkab bo‘la olmaydi. Bunday tajribalarni bajarishda asosiy maqsad natija emas, balki tajribani bajarish jarayonidir. Bunda umum o‘quv va eksperimental ko‘nikmalar takomillashadi. Uy tajribalarini bajarish davomida o‘quvchilar tajriba maqsadini aniqlaydi, o‘zining faoliyati bosqichlarini belgilaydi, xarakter usullarini tanlaydi, huloosa chiqaradi, o‘zini nazorat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bu faoliyatini zarur yo‘nalishda borishini nazorat qiladi.

O‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga uy tajribalarini kiritish bilish motivlarini takomillashishiga, ayniqsa keng bilish motivi bo‘lgan mazmuni bilishga qiziqishni ortishiga olib keladi. Uy tajribalarini bajarish davomida o‘zini ishtiroki darajasida o‘quvchining o‘quv-bilish motivlari – bilim olish usullariga qiziqish ham takomillashadi. O‘z faoliyatlarini rejalashtirish, maqsadni aniqlash usullariga doir ko‘nikmalar rivojlanadi. Uy tajribalari ijobiy emotsiyalar ham keltirib chiqaradi, chunki ular “kattalar uchun xos” ish shaklidir. Boshqa tomondan, uy tajribalari uy vazifalari turlaridan biridir. Umumiy uy vazifalari sistemasida uy tajribalarining o‘rni va ahamiyatini tasavvur etish uchun, asosiy (an‘anaviy), o‘quvchilar uyda bajarishlari kerak bo‘lgan ish turlarini ko‘rib chiqamiz. Ular quyidagilar:

- Darslik matni bilash ishlash;
- Reaksiya tenglamalarini yozish;
- Masala va mashqlar ishlash;
- Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish;
- Ma‘lumotlar to‘plash, ma‘ruza tayyorlash;
- Ilmiy-ommabop adabiyotlar o‘qish;
- Ma‘lumotnomalar bilan ishlash.

Bu uy vazifalari turlari orasida ma‘lum bog‘liqliklar mavjud. Masalan, darslik bilan ishlashda bevosita masala va mashqlar ishlash, laboratoriya ishi va amaliy mashg‘ulotga tayyorlanish bilan bog‘liq

bo'lib, ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qishga aloqasi yo'q. Uy tajribalari esa ularning barchasi bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Uy tajribalari mustaqil ish turlaridan biri bo'lib, alohida va boshqa mustaqil ishlar bilan birgalikda qo'llanilib, uni bajarish uchun o'quvchilarning ijodiy yondashuvi talab etiladi. Uy tajribalari bilan maktab kimyoviy eksperimentini to'liq almashtirish emas, balki darslarda o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarni turli hodisalar mohiyati va mexanizmini chuqurroq anglash uchun yordam beradigan tajribalar ishlab chiqish bizni maqsadlarimizdan biridir [5].

Quyida «Uglerodning fizik va kimyoviy xossalari» mavzusi uchun shunday uy tajribalaridan misollar keltirilgan:

Uy sharoitida adsorbsiya

Zarur jihoz va moddalar: aktivlangan ko'mir, siyog' yoki akvarel, suv, stakan, makkajo'qori qalamchalari, odekolon, 0,5 l shisha banka qopqoqi bilan.

Ishning borishi: stakanga yarim suv quyib, unga siyoh yoki rangli akvareldan soling va aralashiring. Rangli eritma hosil bo'lganiga e'tibor bering. Unga maydalangan dorihona aktivlangan ko'miridan solib aralashiring. Eritma rangining o'zgarishiga e'tibor bering.

Yarim litrli shisha banka 1 -2 tomchi odekolon yoki boshqa biror xidga ega suyuqlikdan tomizing. Bankani ikkala kaftingiz bilan bir oz vaqt ushlab turing. So'ngra idish og'zini ochib banka ustidagi havoni yelpib hidlang. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, siz hidni tabiiy tarzda sezasiz. Endi banka ichiga 1 dona aktivlangan ko'mir soling va og'zini yopib, bir necha daqiqaga qoldiring. So'ngra idish og'zini ochib hidlab ko'ring. Xid nima uchun yo'qoldi? Bu tajribalarni makkajo'qori qalamchalari bilan ham takrorlang. Aktivlangan ko'mir va makkajo'qori qalamchalari xossalarini taqqoslang.

Yuqoridagi tajribalarga o'xshash uy tajribalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish natijasida o'quvchilarning kimyo fani, sanoati mahsulotlarini kundalik turmush, hayotdagi o'rni va ahamiyatini anglashlarida, nostandart sharoitlarda ishlash, ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son

«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda VM-997- son «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

Ivanova R.G. Obщaya metodika obucheniya ximii v shkole. Ximicheskiy eksperiment – osnova izucheniya ximii. – M.: Drofa, 2008. – s.170-184.

Shipareva T.A. Domashniy eksperiment po ximii kak sredstvo formirovaniya motivov k izucheniyu uchebnogo predmeta. Dis kand. ped. nauk. – M.: 2001. – 160 s.

I.R.Asqarov, K.G'.G'opirov, N.H.To'xtaboyev. Kimyo. 8-sinflar uchun darslik. –Toshkent,

«Yangiyo'l poligraf servis» nashriyoti. – 2019 yil. – 156 b.

O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODHONLIGINI OSHIRISHDA KIMYO O'QUV FANIDAN AMALIY MAZMUNDAGI, INTEGRASIYALASHGAN MUSTAQIL ISHLARNING ROLI

G'aybullayeva Mo'mina Shofayzovna, Zayniyeva Raisa Bahodirovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi.

Kimyo fani o'qituvchilari

Bugungi kunda Respublikamiz Prezidenti, Xukumatimiz tomonidan ta'lim sohasini jaxon talablari asosida isloh qilish, DTS, o'quv dasturlari, darsliklar mazmunini takomillashtirishga qaratilgan qator Farmon, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda [1, 2].

Kimyo fani va sanoati yutuqlari insonlarning yaxshi yashashiga imkoniyatlar yaratib berdi. Sintetik va sun'iy materiallarni, maishiy kimyo vositalari, yangi dori preparatlari, bo'yoqlar va boshqa ko'plab narsalarning paydo bo'lishi nafaqat sifat jihatdan kishilar xayotini o'zgartirib yubordi, balki ularning ijtimoiy ongini ham o'zgartirdi. XX asr oxirida zamon talablari asosida kimyo kursida xomashyodan

kompleks foydalanish, ilg'or va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni kimyoviy ifloslanishdan saqlash kabi masalalar yuzaga keldi. Kimyo sanoati o'sishiga qaramasdan, kimyoga bo'lgan munosabat o'zgardi. Kimyo foydalimi? degan savolgan ko'p xollarda quyidagi javoblar olinmoqda:

«Yo'q, chunki kimyoviy moddalar zaxarli».

«Yo'q, chunki kimyo tabiatni ifloslantiradi» va x.k.

Lekin "kimyoviy birikmalarga" qarshi oqoxlantirishlar ular tomonidan bo'lgan xavfdan ko'proq zarar keltirmoqda. Biz kimyoviy dunyoda yashamoqdamiz va xayotni kimyosiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'quvchilarga bizning o'zimiz ham kimyoviy elementlardan tuzilgan ekanligimizni, bizda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar negizida kimyoviy o'zgarishlar bo'lishini tushuntirish bugungi kunda kimyo o'qituvchisining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Kimyo o'qitishni xayot bilan bog'liqligi masalasini ko'rib chiqayotganda kimyo fanining xayot bilan bog'liqligiga katta e'tibor berilgan chet el o'quv qo'llanmalarini ham eslash zarur.

Bu sohada 1995 yili rus tiliga tarjima qilingan Amerika kimyo jamiyati olim va pedagoglari tomonidan yozilgan "Kimyo va jamiyat" keltirish mumkin. AQSh da 60% dan ortiq kimyo o'qitiladigan umumta'lim maktablarida bu kitobdan asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalaniladi [3].

Bu darslikda material faqat amaliy aspektda bayon etiladi.

"Kimyo amalda" nomli M.Frimantl darsligi Angliya kollejlari talabalari uchun yozilgan bo'lib, zamonaviy maktab kursi uchun biroz murakkab material saqlab, kimyoni izchil o'rganishga mo'ljallangan. Shunisi diqqatga sazovorki, kitobga qiziqishni oshirish uchun muallif uni Yer yuzining turli burchaklarida kimyoning turli-tuman inson faoliyati bilan bog'liq soxalardagi ahamiyatiga doir misollar, rasmlar bilan boyitgan. Bundan tashqari, kitobga buyuk kimyogar olimlar xaqida qisqacha biografik ma'lumotlar, kimyo bo'yicha nobel mukofoti laureatlarining ishlarini aks ettiruvchi ilmiy ommabop maqolalardan lavxalar keltirilgan [4].

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning tabiiy fanlar, jumladan kimyo o'quv fani mazmunini samarali o'zlashtirishlarida bilim va ko'nikmalarni takrorlash, mustahkamlashga xizmat qiluvchi mustaqil ishlar, turli topshiriqlar muxim ta'limiy vazifani bajaradi. Xozirda o'quvchilar uchun mo'ljallangan test topshiriqlari, masala va mashqlar mazmunining taxlili natijasida ularda berilgan ma'lum bir tushuncha fundamental tilda, murakkab izohlanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, ularning mazmunida turdosh tabiiy fanlar (fizika, biologiya, geografiya va boshq.) ga doir tushunchalardan juda ham oz foydalanilayotganini aniqlandi. 2021 yilda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodhonligini baholash xalqaro dasturi (PISA) asosida sinovlar o'tkazilishini e'tiborga olsak, bugungi kunda o'quvchilar foydalanishlari uchun ishlab chiqilayotgan mustaqil ishlar mazmunini takomillashtirish nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Biz bir necha yillar mobaynida kimyo fani o'qituvchilarining test banklari, ular tuzib foydalanayotgan mustaqil ishlarini taxlil etish natijasida masala va mashqlar mazmuniga kimyoning amaliy ahamiyatini anglashga yordam beruvchi, turdosh tabiiy fanlar tushunchalaridan unumli foydalanish orqali ularning o'zlashtirayotgan bilim va ko'nikmalarini ahamiyatini anglashlari erishish mumkin [5]. Quyida shunday mazmunga ega topshiriqlardan namunalar keltirilgan:

Gipsning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan kalsiy sulfatdan 2,5 kg olish uchun zarur bo'lgan so'ndirilmagan ohak va konsentrlangan sulfat kislotaga zarur bo'lishini hisoblang. Bu reaksiya qanday reaksiya turiga mansubligini aniqlang.

2 mol sulfat kislotaga va 1 mol kalsiy ortofosfatning o'zaro to'liq ta'sirshashuvi natijasida oddiy superfosfat – mineral o'g'it olinadi. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozib, fosfor (V) oksidiga hisoblaganda undagi foydali komponent ulushini hisoblang.

Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi mis kuporosi qo'llaniladi. U laboratoriyada misni konsentrlangan sulfat kislotaga bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida olinadi. Bunda yana suv va oltingugurt oksidi hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini tuzing va uni oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi sifatida ko'rib chiqing. 10 kg (bir paqir) 16% li mis

(II) sulfat eritmasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan mis kuporosi massasini hisoblang

Natriy gidroksid bilan ta'sirlashganda sizning daftaringizni tayyorlash uchun (18 varaq) yetarli bo'lgan natriy sulfat tuzini olish uchun zarur bo'lgan 96% sulfat kislotaga massasini hisoblang. 1 varaqni tayyorlash uchun 0,142 gr bu tuzdan sarflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son

«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda VM-997- son «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

Follmer G. Evolyutsionnaya teoriya poznaniya. K prirode chelovecheskogo poznaniya //Kultura i razvitiye nauchnogo znaniya. M.,1991.S.141

Frimantl M. Ximiya v deystvii. V 2-x ch.Ch.1: Per.s ang.- M.: Mir,1998 -528 s.

I.R.Asqarov, K.G'.G'opirov, N.H.To'xtaboyev. Kimyo. 8-sinflar uchun darslik. –Toshkent, «Yangiyo'l poligraf servis» nashriyoti. – 2019 yil. – 208 b.

KIMYO FANINING O'QITISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MUAMMO VA YECHIMLAR

Zayniyeva Raisa Bahodirovna, G'aybullayeva Mo'mina Shofayzovna
Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi. Kimyo fani o'qituvchilari

Mamlakatimiz uchun ilm – fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm – fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm – fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

Joriy yilda matematika, kimyo – biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlarni faollashtirib, olimlarga barcha shart – sharoitlar yaratib beriladi. Ilm – fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim.1

Globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbli va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatdosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga2 muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy – axloqiy va intellektual rivojlanishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv – tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030 – yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi kimyo – biologiya, fizika fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shunday ekan biz kimyo fani o'qituvchilari o'z oldimizga o'quvchilarning xalqaro ta'lim standartlariga mos holda o'qitishimiz kerak. Buning uchun biz PISA asosida o'quvchilarning testlarga tayyorlashimiz ularga PISAning asl mohiyatini tushuntirishimiz, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Hozirgi kunda bizni oldimizdagi eng katta muammolardan biri PISA xalqaro dasturi reytingiga tayyorgarlik ko'rsatish va kuchli natijalarni egallashimiz kerak.


PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi hamda ularning muammoni hal qila olsh ko'nikmalarini, masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi yoshlarning fikr – mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.3

Biz oksidlar mavzusini o'qitishda yangi PISA xalqaro reytingiga mos holda o'quvchilarga bu mavzuni tushuntiramiz. Oksidlar deb biri kislorod bo'lgan, ikki elementdan tashkil topgan murakkab moddalarga aytiladi. Oksidlarning umumiy formulasi : E_2O_n (E – element, n – E elementning valentligi).4

Nomlanishi : doimiy valentlikka ega element, oksidining nomi “element nomi + oksid” shaklida yasaladi. Magniy (II) – oksid MgO , alyuminiy (III) – oksid Al_2O_3 . Oksidlarning toifalanishini quyidagicha usulda tushuntirish mumkin.



ter oksidlar



Agar oksidlarning toifalanishini shu usulda ko'rgazma qilib tayyorlanib tushuntirilsa o'quvchilar yaxshiroq eslab qoladi.


Kislotali oksidlar – asoslar yoki asosli oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar. CO_2 , SO_2 , P_2O_5

Asosli oksidlar - kislotalar yoki kislotali oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar. Na_2O , CaO , FeO

Amfoter oksidlar – kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham tuz hosil qiluvchi oksidlar. ZnO , Cr_2O_3 , Al_2O_3

Befarq oksidlar – tuz hosil qilmaydigan oksidlar. NO , CO , N_2O

Mavzuni mustahkamlash qismiga yoki keyingi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash qismida qo'llash mumkin bo'lgan metodni taklif etmoqchimiz.



Bu bulutlar zanjiri deb nomlangan metod bo'lib, o'quvchilar ko'zi bilan bulutlar orasidan oksidlarning tanlab mavzuni yaxshi eslab qolish imkoniyatini beradi. O'quvchilar mavzuni ko'zlari bilan ko'rib, ularni eslab qolsa shu bilan birga mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham shakllantirishimiz kerak.

Endi mantiqiy fikrlashlarini shakllantirish uchun quyidagi metodni o'ylab topdik.

$$\text{Al} + \text{Al} + \text{Al} = 162$$

$$\text{O} + \text{Al} + \text{Al} = 140 \quad \text{C} + \text{O} + \text{Al} = 55$$

$$\text{CO} + \text{Al}_2\text{O}_3 + \text{C} = ?$$

Endi buni isbotlab beradigan bo'lsak kimyoviy elementlarning atom massalarini hisobga olingan. Masalan : Alyuminiyning molekulyar massasi 27 ga teng. Shundan foydalanib biz birinchi savolni ishlaymiz.

$(27 \cdot 2) + (27 \cdot 2) + (27 \cdot 2) = 162$ Agar yaxshilab e'tibor bersak, Al ni ikkita ekanligini ko'ramiz. Endi ikkinchi qatorni ishlaymiz.

$140 - ((27 \cdot 2) + (27 \cdot 2)) = 32 \quad 32 : 2 = 16$ Demak bunda ham elementlar ikkitadan ekan. Uchinchi qatorni ishlaymiz.

$$55 - 27 - 16 = 12 \text{ To'rtinchi ustunga o'tamiz.}$$

$$(12 + 16) + (27 \cdot 2 + 16 \cdot 3) + 12 = 142 \text{ Demak javob 142 ekan.}$$

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kimyo fani mo'jizakor fan hisoblanadi. Ko'pchilik kimyo fanini qiyin yoki murakkab fan deb aytadi. Aslida unday emas kimyo fani juda ham qiziqarli va mo'jizakor fandır. Kimyo fanining yaxshi bilgan inson qanday daromad olishning biladi. Chunki bu fan insonlarga yo'qdan bor qilishni yoki tabiatdan olib daromad qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun muxtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tabiiy fanlarga ya'nikim kimyo –biologiya, geologiya fanlarini rivojlantirish kerakligini aytib o'tdilar. Shunday ekan biz yosh pedagoglar bunga nisbatan javoban kuchli bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashimiz kerak. Kuchli kimyogar yoshlarimiz Yurtimizni sha'nini

yanada ko'klarga ko'tarishimiz kerak. Biz sizga taqdim etgan yangi metodimiz orqali o'quvchilarimiz bilim salohiyati oshsa, biz bundan hursand bo'lamiz.

Adabiyotlar

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatasiga murojaatnomasi 2020 – yil 24 – yanvar
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030
– yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019 – yil 29 – apreldagi PF – 5712
sonli Farmoni

U.N. Tashkenbayev “Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini
baholash” Jurnal “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019

I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev Kimyo darslik “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosh tahririyati Toshkent 2017

<https://www.google.com>

BIOLOGIYA FANLARI

O'QUVCHILARDA MORFOFUNKSIONAL O'ZGARISHLARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.

Mirzayeva Gulrux Axtamova

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi. Biologiya fani o'qituvchisi

Mirzayeva Mahbuba Axtamovna

JDPI Tabiiy fanlar fakulteti. Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Hozirgi kunda dars jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish o'qituvchidan ta'limga ijodiy yondoshuvni ta'lab etadi Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli bo'lib kamol topishni vazifa qilib qo'ymoqda.

Ig'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularning mustaqil fikrlashga undaydi. Dars samaradorligini oshirish uchun tayyorlangan topshiriqlarning tekshirish uchun qisqa vaqt talab qiladigan javob variantlarini tayyorlash, tayyor javob varaqasi yordamida bajarilgan ishlarni tekshirishda iqtidorli o'quvchilar yordamidan foydalanish darsning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Quyida "Odam va uning salomatligi" fanidan o'quvchilarda morfofunktsional o'zgarishlarga doir tushunchalarni shakllantirishga doir ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan mantiqiy fikrlashga asoslangan didaktik tarqatma namunalarini tavsiya etamiz.

"Jumboq ko'chasi" o'yin metodi.

Mio... d – eshitish a'zosida nuqson bo'lgan odamlarga nisbatan qo'llaniladigan atama, yurakning o'rtaqavati. Javob: (Miokard – "kar").

En... rd – bog'lov materiali, yurakning ichki epiteliy qavati. Javob: (Endokard – "doka")

Qor... cha – jonivorlarning, qushlarning yashash joyi, yurak kamerasi. Javob: (qorincha – "in")

Dias... a – yuksak o'simliklarni nomlashda ishlatiladi, yurakning kengayishi Javob: (Diastola –

Av... iyasi – pomidordan tayyorlanadigan quyuq ozuqa, yurakning ma'lum vaqt davomida kengayib ishlab turishi. Javob: (Avtomatiyasi – "tomat")

To'g'ri- noto'g'ri "metodi.

N	Savollar.	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Yurakorqali 1 minutda 5 l qonoqibo`tadi		
2.	Yurakqorinchasibirmartaqisqarganda 65-70 ml qonnaortagachiqaradi.		
3.	Tinchholatdayurak 80 martaqisqaradi.		
4.	Yurakningvazniyollarda 180-220 g gacha.		
5.	Bo`lmachalarningdevoriqalin ,qorinchalarnikiyupqaroq.		
6.	Birkechakunduzdayurak 100000 martaqisqarqdi.		
7.	Yurak chap tomondajoylashgan.		
8.	Yurakda 4 ta klapan bor.		
9.	Yurako`zidanbioelektriktokhosilqilmaydi.		

10.	Yuraknasossingariishlaydi.		
-----	----------------------------	--	--

Javobi:

N	Savollar.	To`g`ri	Not o`g`ri
1.	Yurakorqali 1 minutda 5 l qonoqibo`tadi	+	
2.	Yurakqorinchasibirmartaqisqarganda 65-70 ml qonnaortagachiqaradi.	+	
3.	Tinchholatdayurak 80 martaqisqaradi.		+
4.	Yurakningvazniayollarda 180-220 g gacha.	+	
5.	Bo`lmachalarningdevoriqalin ,qorinchalarnikiyupqaroq		+
6.	Birkechakunduzdayurak 100000 martaqisqarqdi.	+	
7.	Jismoniy mashqbajargandayurakmusullariga 200-250ml qonboradi.		+
8.	Yurakda 4 ta klapan bor.	+	
9	Yurako`zidanbioelektriktokhosilqilmaydi.		+
10.	Yuraknasossingariishlaydi.	+	

“Atamalarbilanishlash” metodi.

N	Tushunchalar	Izoh
1.	Endokard	
2	Miokard	
3	Perikard.	
4	Sistola.	
5	Diastola.	
6	Yurakavtomatiyasi	
7	Sistolikhajm.	
8	Epikard.	

Javobi:

N	Tushunchalar	Izoh
1.	Endokard	Yurakningichkiepiteliyqavati.
2	Miokard	Yurakningo`rtamuskulqavati.
3	Perikard.	Yurakningtashqiqavati.

4	Sistola.	Yurakbo`lmachalarivaqorinchalariningqisqarishi.
5	Diastola.	Yurakbo`lmachavaqorinchalariningkengayishi.
6	Yurakavtomatiyasi	Yurakningo`zmuskullaridapaydobo`ladiganqo`zg`alishlar.
7	Sistolikhajm.	Yurakqorinchalariningbirmartaqisqarishida 65-70 ml qonnaortagachiqarishi.
8	Epikard.	Perikardningichkiqavati.

“Fikrlartesti” metodi.

Qon xujayra ichi suyuqligi hisoblanadi.

Qon kislorod toshishida ishtirok etadi.

Qon plazmasi faqat suvdan tuzilgan.

Kamqonlik gemofiliya kasalligi deb ataladi. 5.Qonda 3 xil shaklli elementlar bo`ladi.

Dunyo bo`yicha eng ko`p 3-qon guruhi tarqalgan.

Antitoksin mikroblarni n eritib yuboradi, antitelo-mikroblar ajratadigan zaharli moddalarni neytrallaydi

8.1-gruppa qon universal donor, 4-gruppa qoni universal retsipient hisoblanadi. Javobi:

1.Yo`q hujayra tashqarisidagi suyuqlik. 2.Ha.

3.Yuq, plazmada oqsil uglevod, yo`q,mineral tuzlar garmonlar, fermentlar, antitelalar bo`ladi. 4.Yo`q kamqonlik anemiya deyiladi.

5.Ha, eritrosit, leykosit va trombositlar deyiladi. 6.Yo`q, 1-qon guruhi eng ko`ptarqalgan.

Yo`q, antitoksin zaharli moddalarni netrallaydi, antitelalar mikroblarni eritib yuboradi.

Ha.

“Biologik mashq”metodi. .

Muskullarni harakatga keltiruvchi nerv hujayralari, ya`ni motoneyronlarning har biri o`z tolalari orqali va muskul tolalari bilan tutashadi.

Skelet muskullarining ishi ikki xil bo`ladi:..... va

Ma`lum vaqt davomida ish bajarish natijasida muskullar..... .

Jismoniy mehnat, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug`ullanuvchi odam yaxshi.....boladi. .

Javobi:

Muskullarni harakatga keltiruvchi nerv hujayralari, ya`ni moto neyronlarning har biri o`z tolalari orqali onlab va yuzlab muskultolalari bilan tutashadi.

Skelet muskullarining ishi ikki xil bo`ladi: static va dinamik

Ma`lum vaqt davomida ish bajarish natijasida muskullar charchaydi.

Jismoniy mehnat, jismoniy tarbiyava sport bilan muntazam ravishda shug`ullanuvchi odam organizmi yaxshi chiniqqan boladi.

”Mantiqiy masala ”metodi.

14 yoshli bolada 4ta suttishi, 8ta kesuvchi, 4ta qo-ziq, 8ta kichik oziqva 12ta kata oziq tishlari chiqqan bo`lsa, bolaning jami tishlari soni qancha?

Javob:14 yoshli bolada suttishlari bo`lmaydi. Yuqori va pastki jag`lardagi oxirgi kata oziqtishlar ya`ni aqltishlar 18 yoshdan keyin chiqadi. Demak, bolada 28ta doimiy tishlar bo`ladi.

“Raqamlidiktant” metodi.

	Suyaknomi	№	Suyaknomi	Suyakningshakllari
	Yelka	16	Bosh tepa	Naysimonsuyaklar
	Ensa	17	O`mrov	
	Son	18	Yuqori jag`	

	Qo'l	19	Dumg`aza	
	Kaftusti	20	Peshona	
	Yuzsuyagi	21	Ponasimon	
	Oyoqkafti	22	Miya qutisi	
	Boldir	23	G`alvirsimon	
	Bilak	24	Yetimqovurg`a	Yassisuyaklar
0	Kurak	25	Bilaguzuk	
1	Umurtqa	26	Tirsak	
2	Barmoq	27	Oyoqpanjasi	
3	Qovurg`a	28	Chakkasuyak	G`alvirsimonsuyaklar
4	Chanoq	29	Burunsuyakgi	
5	To`sh	30	Qilichsimon	

Javobi:

	Suyaknomi	№	Suyaknomi	Suyakningshakllari
	Yelka	16	Bosh tepa	Naysimonsuyaklar 1, 3, 4, 7, 8, 9, 12, 26, 27,
	Ensa	17	O`mrov	
	Son	18	Yuqori jag`	
	Qo'l	19	Dumg`aza	G`ovaksuyaklar 5, 11, 13, 15, 17, 19, 24, 25, 30
	Kaftusti	20	Peshona	
	Yuzsuyagi	21	Ponasimon	
	Oyoqkafti	22	Miya qutisi	
	Boldir	23	G`alvirsimon	Yassisuyaklar 2, 6, 10, 14, 16, 22, 28, 29
	Bilak	24	Yetimqovurg`a	

0	Kurak	25	Bilaguzuk	G`alvirsimonsuyaklar 18, 20, 21, 23
1	Umurtqa	26	Tirsak	
2	Barmoq	27	Oyoqpanjasi	
3	Qovurg`a	28	Chakkasuyak	
4	Chanoq	29	Burunsuyakgi	
5	To`sh	30	Qilichsimon	

Xulosa qilib aytganda, tayyorlangan topshiriqlarning mantiqiy fikrlashga yo'naltirilishi, o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi, ta'lim samaradorligini oshiradi. Javob varaqasining ham tayyorlanishitopshiriqning tekshirilishi uchun vaqtning kam sarflanishiga dars jarayonida vaqtdan samarali foydalanilishiga olib keladi. Bu esa darsda yana boshqa bir so'rash xarakteriga ega bo'lgan nazorat topshirig'ini joriy qilish uchun sharoit yaratadi va ko'p sonli o'quvchilar bilimni nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. O'quvchi har darsda bilimni nazorat qilinishini bilsa, darsga tayyorlanib keladi, javob berishga harakat qiladi, fanga qiziqishi ortadi. Eng muhimi ularning anatomic, morfofunksional tushunchalari mustahkamlanadi. Tabiiyki erishilgan yuqori natija o'qituvchini yanada ijodiy faoliyatga yonaltiradi.

BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA INNOVATSION TA`LIM TEKNOLOGIYALARNING O`RNI

Atavullayeva Mahbuba Qobilovna, Mirzayeva Gulrux Axtamova

Biologiya fani o'qituvchilari

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi

Innovatsion hisoblangan interaktiv metodlar barcha olimlar tomonidan ishlab chiqildi va uning anhanaviy metodlardan ko'ra foydali ekanligi isbotlab berildi. —Interaktiv so'zi inglizcha —interact fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, —inter – o'zaro ma'nosini, —act – esa harakat qilmoq, ta'sir etmoq ma'nosini bildiradi. Bundan kelib chiqib, bu metodlar o'quvchilarning o'zaro bir – biriga ta'siri, fikri, mulohazasi, faolligi orqali mustaqil muloqot o'rnatish degan ma'noni beradi. Ta'limda innovatsion metodlarning an'anaviy metodlardan farqi shundaki, innovatsion metodlar o'quvchining mustaqil holda erkin fikr yuritishi va o'qituvchiga hamkor sifatida ishlashiga qaratilgan metoddir, an'anaviy metodlar esa o'quvchining faktlarni esda saqlash qobiliyati va uning hajmiga qaratilgan metoddir. Bu bilan ta'limda an'anaviy metodlarni chegaralab o'qitishimiz kerak degan xulosa emas, balki faqatgina o'quvchilarning bilish faolligini va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan effektiv usul va vositalarni qo'llash kerak, xolos.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari biologik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta'limda pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida qalbi pok, mehdariyo o'quvchilar uchun yangi o'qitish kurslarini yaratishlari taqozo etiladi. Hozirda ta'lim muassasalari innovatsion kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu o'z navbatida pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zero, —innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladil.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari Ta'lim tizimida zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish quyidagi afzalliklarni yaratadi:

o'quvchilarga keng spektrdagi imkoniyatlarni taqdim etadi, ya'ni o'rganilayotgan ob'ekt – predmetni multimediali tizimlar yordamida o'rganish;

o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini qayta - qayta namoyish qilish va imitatsiya qilish imkoniyatini beradi;

S) maxsus kompyuter dasturi yordamida predmetning o'lchami va hajmini, uni mukammalroq o'rganish maqsadida, kattalashtirish yoki kichiklashtirish, yaqiklashtirish yoki uzoqlashtirish imkoniyatini beradi;

D) virtual tasvir yordamida oddiy, tabiiy holatda yaratib bo'lmaydigan sharoitlarni ham kompyuter yordamida tasvirlash va har xil o'lcham hajmga ega bo'lgan eksperiment natijalarni ekranda paydo qilish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan talim Nashr materiallari Interaktiv ma'lumotlar bazasi Audio va video materiallari Kompyuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o'quv materiallar Elektron darsliklar va jurnallar Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, ta'limda innovatsion texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutq yuritishiga karatilgan" metod ekanligiga amin bo'ldik. Shuni ham ta'kidlab o'tmoq joizki, o'qituvchi darsga tayyorlanayotganida darsning maqsadiga muvofiq keladigan turli xil interaktiv va innovatsion o'yin - topshirikdarni tanlash lozimligini unutmashlik kerak.

Darsga tayyorlanishda o'qituvchi o'yin - topshiriqlarning miqdorini, uni bajarishga sarflanadigan vaqtini ham aniq belgilab olishi lozim. Ustma — ust o'quvchilarni o'yin — topshiriqlar bilan band qilib qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun topshiriqni bajarishga ortiqcha vaqt sarflash ham o'quvchilar faolligini oshirishga putur yetkazib qo'yishi mumkin. Shu sababli o'yin - topshiriqlarni sharti o'quvchilarning yosh xususiyati va real o'quv imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim.

O'qituvchi o'yinda o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolarni bartaraf etishni ham unutmashligi kerak. Ammo o'yin davomida bu ishni amalga oshirish ancha murakkab. Shuning uchun o'qituvchi o'yinning oxirida o'quvchilar kuchi bilan yo'l qo'yilgan xatolarni izohlashi, uni bartaraf etishi choralarni ko'rishi lozim. Shundagina u ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan to'g'ri va oqilona foydalangan bo'ladi. Bular esa yana bir bor ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarining qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent,1997 y. 99b.

A.T.G'ofurov ,Tolipova J. umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari,Toshkent 1990

y.45 b.

A.T.Gofurov,M.Maxkamov –Botanikadan ekskursiyalar o'tkazish metodikasi, O'qituvchi 1991 y.22b.

TARIX FANLARI

TARIX FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Yakubova S. Sh., Sohibova N. S.

Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi.

Namangan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi To'raqo'rg'on tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi Abdullayeva Ma'luda Abdulboqiyevna

Bugungi kunda zamonaviy darslarni tashkil etish o'quv jarayonlariga ilg'or texnologiyalarni olib kirish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish kechiktirib bo'lmas vazifalardan biriga aylanib qolmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosidir. Ta'lim sifatini oshirishda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim yondashuvlari, interfaol metodlar, didaktik topshiriqlar va ularning tarix fanida qo'llanilishi bo'yicha namunalaridan foydalanish bilan bir qatorda mavzuga oid aforizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan "Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o'qish va o'rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi" Abdurauf Fitrat, "Kishi ikki narsa tufayli qarimaydi, biri - ezgu xulqi, biri ezgu so'zi" Yusuf Xos Hojib, "Men muvoffaqiyatning uchta omilini bilaman: boshqalardan ko'proq bilish; boshqalardan ko'proq ishlash; boshqalardan ko'proq kuta olish" - Shekspir.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan foydalangan holda, yo'l qo'yilgan xatolarlarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimizni tezlashtiradi. Shu sababli tariximizni va rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqurroq o'rganib uni respublikamiz ravnaqi uchun foydalanish zarur ekanligini anglagan holda o'quvchiga har bir mavzuni to'laqonli yetkazib berish tarix fani o'qituvchisining muqaddas burchidir.

Tarix o'qitish metodikasida darsliklarning ahamiyati katta. Darsliklarda berilayotgan ma'lumotlar bola psixologiyasini hisobga olgan holda berilishi ahamiyatlidir. Darslikdagi tushuncha va sanalar bilan bir qatorda tarixiy lug'atlarni alohida alohida yoritib borish ijtimoiy fanlar oldidagi dolzarb masalalardan biridir. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki darsliklarda berilgan ma'lumotlar bir-biriga zid kelishi holatlari mudom uchrab turadi. Misol uchun 2014-yilda nashr etilgan 8-sinf O'zbekiston tarixi darsligida 13-§. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi mavzusida "1753-yildan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi" - deb ma'lumot berilgan bo'lsa, 2019- yil qayta ishlangan 8-sinf uchun O'zbekiston tarixi darsligi 14-§. Buxoro amirligining tashkil topishi mavzusida "1756-yildan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi" - kabi ma'lumotlar o'quvchida ikkilanish hosil qiladi. Xo'sh shu va shunga o'xshash muammolar ta'lim sifatiga qanday ta'sir etishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'quvchi fan olimpiadasida, abituriyentlar oliy o'quv yurtiga imtihon topshirayotgan paytda quyidagi holatga duch kelishlari va unga qanday yechim topishlari mumkin?

Savol: Buxoro xonligi qachondan boshlab amirlik deb atala boshlandi? A)1753-yil B)1756-yil C)1758-yil D)1747-yil

Yana ushbu ma'salani e'tibotli tomoni shundaki, o'quvchining bitta noto'g'ri javobi uchun millionlab kontrakt to'lashi yoki talabalik baxtidan mosuvo bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, umumta'lim maktablari o'quvchilari foydalanayotgan darsliklar ularning hayotida oliy ta'limga yo'l olishlariga qanot bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan ta'limning uzviyligini hisobga olib ma'lumotlarning aniqligianiqligi, asosiligi va har tomonlama aniq bo'lishi masalaning yechimlaridan biridir. Tarix fani o'qitish metodikasida yangiliklardan habardor bo'lish va qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limning umumiy o'rta ta'lim maktab bosqichida ijtimoiy fanlarni yanada chuqurroq o'rganishlarida ushbu fan, aynan tarix fanini nima uchun o'qishlari kerakligini anglashlari lozim. Datlabki ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayolidan kechayotgan "Tarix nima uchun kerak", "Biz nima uchun bu fanni o'qiyamiz" kabi savollarga o'quvchilar tarix fani o'qituvchisidan javob olishlari zarur. Tarix fani o'qituvchisining salohiyati, hur fikirliligi o'quvchilarning "TARIX- IBRAT UCHUN KERAK", "TARIX-SABOQ UCHUN KERAK" ekanligini anglab yetishlari uchun xizmat qilishi kerak. Shunday ekan bugungi kunda tarix fanini o'rganayotgan har qanday o'quvchi kelajakda vatanparvar, tarix va tarixiy shaxslarga xurmat bilan tarbiyalangan, o'zligini anglab yetgan jamiyatning faol kishisi bo'lib yashamog'i lozim.

Tarix fani muammolaridan yana biri o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. Bunda o'qituvchi darslikdan tashqari ma'lumotlardan berib borishi jumladan tarixiy shaxslarning go'zal insoniy

fazilatlarini, axloqiy tarbiyaga oid hikmatlar, ibratli hikoyalardan namunalar keltirib borishlari lozim. Ayniqsa bugungi kunda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida tarixchilarni ta'sirlari katta deb o'ylayman. Masalan 5-7-sinflarda "Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda" mavzusini yoritishda Sh.Isaxanovning «Sulton Jalliddin Manguberdi asari»ning hamda "Mirzo Ulug'bek akademiyasi" mavzusida Odil Yoqubovning «Ulug'bek hazinasini» eng etiborga molik joyidan bir parcha keltirish tavsiya etiladi. O'quvchini izlanishga chorlagan bo'lamiz. Bu esa bir necha o'quvchining shonli tariximizni yaqidan o'rganishga va albatta kitobga bo'lgan xurmatini oshirishga xizmat qilgan bo'lamiz.

Talim berishning nazariyasi va amaliyotida o'quvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda pedogolarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o'qitishning interfaol shakl va uslublarini o'zlashtirishga qaratilgan. Ta'lim berish jarayoni quyida ko'rsatilgan talablarga amal qilgan taqdirida samarali bo'lishi yaxshi natijalar berishi amalda o'z isbotini topmoqda:

O'quvchilar talim olish uchun ochiq va talim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabat va hamkorlikka faol kirishib ketadilar;

O'z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish uchun imkonga ega bo'ladilar;

O'quvchilarda o'ziga ishonch uyg'otish va fikrlarini kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.

Hozirgi kunda sifatli ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy toliqishsiz yuqori natijalarga erishishdir. Belgilangan qisqa muddatda muayyan nazariy va ilmiy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda fanlar yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda bugungi kunda ta'lim sohasida mustahkam o'rin egallayotgan pedagogik texnologiya – interfaol metodlarni qo'llashni talab etadi. Bunda o'qituvchi tanlanilayotgan metodni mavzuga mos va hosligini ko'rib chiqishi lozim va o'quvchilarni yosh hususiyatlarini hisobga olishi talab etiladi.

Ta'lim sifatini pasayishiga yana bir sabab sinflarda bolalar sonining haddan ziyod ko'pligidir. Ularni bilim olishga intilishi va ishtiyoqi ham bir-biridan farq qiladi. Taklifim shundan iboratki sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish, 20-22 nafardan oshmasligi, pedagogning har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim sifatida samarali natija beradi degan umiddaman.

Bunday darslarni sifatli qilib yaratish murakkab jarayon, ammo biz pedagoglar tarbiyalanayotgan yosh avlodning o'ziga ishonch ruhida tarbiyalashimiz, o'quvchi qalbiga joylanayotgan o'ziga ishonch urug'i bir kun daraxt bo'lib meva beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Q.Usmonov, U.Jo'raev. «O'zbekiston tarixi» 8-sinf uchun darslik. «O'qituvchi» nashriyoti. Toshkent 2014. 54-sahifa.

Q.Usmonov, U.Jo'raev, G.Jo'raeva «O'zbekiston tarixi» 8-sinf uchun darslik. «O'qituvchi» nashriyoti. Toshkent 2019. 53-sahifa.

ZAMONAVIY TARIX TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI

Hayitbayeva Sanobar Nazirovna

Urganch shahar 19- son IDUM tarix fani oqituvchisi

Hozirgi kunda tarix ta'limi. Umumiy o'rta ta'lim tizimi. Tarix ta'limi islohoti. Ta'lim tizimi jamiyatdayuz berayotgan barcha jarayonlarga, jamiyatning o'zgarishiga ijobiy tas'ir qiladi. Shu sababli davlat va jamiyat uchun har bir sohani rivojlanishi zaruriyati ta'limning ustuvorliginibelgilaydi. Jahon miqyosida globallashuv va integratsiya jarayonlarining kichayib ketishi yangi ming yillik boshlarida ta'limda yangi g'oyalar, yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy sohalarida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Tabiiyki har qanday jamiyatning taraqqiyoti shu jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning bilimi, ko'nikma va malakasi sifatiga bog'liq bo'ladi, shu sababli ta'lim jamiyatning ustuvor sohasi hisoblanadi. Ta'lim va jamiyatning yaxlitligi shunda ko'rinadi. Ta'lim jamiyat hayotida o'z nufuziga ega bo'lgan soha. U jamiyatning jadal taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan malakali kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimi jamiyatning barcha sohalarida kechayotgan tub o'zgarishlarni, muammolarni o'z vaqtida ilg'ab, ularni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash vazifasini bajarishi lozim.

Ta'lim tizimi tarixan jamiyat taraqqiyotidan orqaga qolish an'anasiga ega. Shu sababli u davriy ravishda isloh qilinadi. Jamiyat tizimidagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi

jamiyatda yuz beradigan an'analar rivojiga jiddiy ta'sir qiladi. Shu sababli ta'lim jamiyat va shaxsning rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Yangi XXI asrga soniyat tarixiy taraqqiyotida juda katta o'zgarishlar, muammolar bilan kirib keldi. Ta'lim tizimi jamiyatning bu o'zgarish va muammolariga javob berishi kerak bo'ldi. Shu sababli XXI asrga kirish ta'limdan tub o'zgarishlar, yangi g'oya va yondashuvlarni talab qildi.

Davlatimiz siyosatida ta'lim sohasi ustuvor soha hisoblanib bu sohani rivojlantirish uchun mustaqilligimizning birinchi kunlaridayoq katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi siyosatni belgilaydigan asosiy hujjat "Ta'lim" to'g'risidagi qonundir (1997 y). Qonunda ta'limning barcha bo'g'inlari davlat – jamiyat va shaxsning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi davlat ta'lim siyosatini zamon talablariga mos ravishda amalga oshirishni jadallastiruvchi dasturamal sifatida xizmat qildi.

Davlat hokimiyati jamiyat manfaatlariga, ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim tizimiga maqsad va vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalar ilmiy va amaliy asoslanib, maxsus hujjat –davlat ta'lim standartida o'z aksini topadi. Bu hujjat asosida ta'lim- tarbiya amalga oshiriladi. Barcha ta'lim muassasalari uchun ta'lim standartini davlat belgilaydi. Standart o'quv yurti tomonidan amalga oshiriladi. Shaxs esa ta'lim hujjatini bilish uchun uni o'zlashtiradi. Namunaviy fan dasturlari standart talablari asosida tuziladi va amalga oshiriladi. Hujjatlarda davlat ta'lim standartlarida ta'lim mazmunining davlat minimumi, o'qituvchilarning erkin pedagogik ijod huquqi huquqiy mustahkamlanadi.

Jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlarning yutug'i ta'lim siyosatiga, uning tizimliliigi, izchilligi va mahsuldorligiga bog'liq bo'ladi. Respublika maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi jamiyatning barqaror demokratik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu jarayonda boshqa fanlar qatoridamaktabtarix ta'limi rivojlanishining strategiyasi yosh fuqarolarning mentalitetiga ta'sir qiladigan omil sifatida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda maktab partasida o'tirgan o'quvchi 15-20 yildan so'ng jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va man'aviy sohalarining faol ishtirokchisi bo'ladi. Bu o'quvchining o'rta maktabda oladigan bilimi, ko'nikma-malakasi va dunyoqarashi jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda ta'lim olayotgano'quvchilar 20-30 yildan so'ngjamiyat hayotining turli sohalarida maqsadlifaoliyat ko'rsatishiningsifat darajasi jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. O'quvchilarda zamonaviy bilim, komil inson sifatlarining shakllanishi jamiyat taraqqiyotida ijobiy tas'ir qiladi. Ortamaktab mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchi shaxs, zamonaviy bilim va malaka-konikmalarga ega bo'lgan qonunga itoatkor fuqaroni shakllantiradi.

Ta'lim tizimida jamiyat taraqqiyotining yangi an'analariga mos ravishda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, yangi ta'lim paradigmalarini izlash va amalga qo'llash ishlari bermoqda. XX asrning 80-90 - yillarida ta'limda yuz bergan tushkunlikni bartaraf qilish uchun jiddiy ishlar amalga oshirildi, davlat ta'lim siyosatini ustuvor vazifa sifatida qo'yib, Ta'lim to'g'risidagi qonunni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qildi. Bu rasmiy hujjatlar ta'limning yangi tizimini yaratishda huquqiy asos bo'ldi. Bu hujjatlar davlat ta'lim standartlarida ta'limning yangi tizimini yaratishda asos bo'ldi. Ta'lim muassasalarining yangi tiplari paydo bo'ldi: gimnaziya, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va ixtisoslashgan maktablar. Ta'lim tizimini isloh qilish asosida shaxs ustuvorligi tamoyili qo'yildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim tizimini gumanitarlashtirish, tabaqalash vosita bo'ldi. Ta'lim tizimining markaziga inson muammosi, ta'lim olishning milliy va jahon madaniyatining yutuqlarini o'zlashtirishga yo'naltirish, insoniyatning ma'naviy tajribasini o'zlashtirish, dunyoning yaxlit manzarasini qabul qilish, o'quvchilarda tizimli tafakkur qilishni shakllantirish turadi. Mamlakatimizda bugungi kunlarda ta'lim islohotida yangi bosqich boshlandi desak xato bo'lmaydi.

Tarix o'quv predmeti sifatida boshqa fanlar orasida alohida o'ringa ega, uni boshqa biror-bir predmet bilan almashtirib bo'lmaydi. Bugungi kundatarixni fan sifatida qadriyati, jamiyat hayotidagi nufuzi qanday bo'ladi? Bu tarix ta'limini sifat va mazmuni qanday bo'lishiga bogliq bo'ladi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fan sifatida zamonaviy ta'lim tizimida alohida mavqega ega. Eng avvalo, tarix fani o'quvpredmeti sifatida o'quvchining tafakkur tizimiga ijobiy ta'sir ta'sir qiladi. U insonga tarixiy kenglikda erkin harakat qilish imkoniyatini beradi, o'quvchini tarixiy tajribani bilish bilan qurollantiradi, shaxs va fuqaro sifatida zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy- amaliy to'g'ri baholashga imkon beradi. Tarix ta'limi o'quvchida mustaqil fikrlash, tushunchalar hosil qilish, umumlashtirish, xulosalar qilish ko'nikmasinishakllantiradi. O'quvchida tarixiy xotira, tarixiy ongning shakllanishi unda tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Kundalik ijtimoiy-siyosiy hayotda siyosiy etnik shaxs sifatida faol harakatini ta'minlaydi. Bundan tashqari tarixiy bilim shaxsning o'z nuqtai-nazarinishakllanishiga uni mustaqil baholash, boshqalarning fikrini hurmat qilishga yordam beradi.

Tarix boshqa fanlarni (ijtimoiy fanlar) o'qitish uchun asos bo'ladi. Tarix fanlari shaxsda zamonaviy jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan fikrlash, dunyoqarashning kengligi, tolerantlik, fuqarolik jasorati va ijodiy tasavvurnitarbiyalaydi. Natijada tarixiy bilim yoshlarni zamonaviy ziddiyatli dunyoda mustaqil yashashga tayyorlaydi, turli millat, irq, din va madaniyatga mansub kishilarning o'zarobir-birini tushunishga shart-sharoit yaratadi.

Agarda tarixning tuzilmasi, uning mazmuni va metodikasi bilishning obyektiv qonunlariga mos bo'lsa, o'rganish ilmiy asoslangan va natijali bo'lishi mumkin. Tarix o'qitish metodikasi samarali bilimlarning shakllanishi - bu mustahkamlash, chuqurlashish jarayonidir. Tarix fani ijtimoiy fanlar - falsafa, sotsiologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, milliy g'oya, huquq va boshqa fanlar bilan yaqin aloqada bo'ladi va ularning tamoyil va tushunchalaridan foydalanadi. Tarix o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan yaqin aloqada bo'lib, uning yutuqlaridan foydalanadi. Psixologiya ongning rivojlanishi turli xil ko'rinishlarini mavjudligini obyektiv qonunlarini o'rnatadigan fan hisoblanadi. Misol uchun, materialni esdan chiqarish, xotirada qoldirish. O'qitishning metodikasi bu qonunlarga mos bo'lsa ilmiy asoslangan bo'ladi. Bunday holda nafaqat mustahkam xotirada qoldirish, balki xotiraning funksiyasini yaxshi rivojlanishiga erishiladi. Agarda o'qitish jarayonida tarixiy jarayon mantig'i va mantiq qonunlariga rioya qilinmasa, tarix o'quvchi tomonidan o'zlashtirilmasligi mumkin. Agarda didaktikaning yutuqlari hisobga olinmasa, tarix o'qitish o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Hozirgi kunda zamonaviy tarix ta'limi tizimining qurilishida amaliy muammolardan biri milliy tarixni rivojlantirish bilan bog'liq. Tarix ta'limining milliy ustuvorligi va qadriyatlarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri. Jahon tarixi, vatan tarixini maktabda o'qitish jarayonida eng muhim vazifalardan biri - o'zligini, milliy o'zligini anglagan fuqaroni shakllantirish vazifasi turadi. Bu fuqaro ozod va obod vatanda fuqarolik jamiyatini barpo qilishda faol ishtirok etadi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida tarix ta'limidagi marksistik metodologiya eskirgani va tushkunligi yaqqol ko'rinadi. Bu tushkunlik o'sha vaqtda mavjud bo'lgan siyosiy tuzumning yalpitushkunligi va halokati bilan bog'liq edi. Shu sababli tarix fanivat a'limni yangilash zaruriyati paydo bo'ldi. XX asrning 90-yillari boshlarida tarix ta'limini tubdan o'zgartirish g'oyasi amalga osha boshladi. Tarix ta'limini isloh qilishda shartli ravishda quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin; Birinchi bosqich (1987-1992 yillar). Bu davrda eski ta'lim tizimidan voz kechishva tizimni shakllantirish uchun harakat davri. Bu bosqichning chegarasi ta'lim to'g'risidagi qonunni qabul qilish bilan tugallanadi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunlik, umrini o'tab bo'lgan tuzum va tizim, uning mafkuraviy halokati jarayoni tarix fani, tarix ta'limiga jiddiy tub o'zgarishlar qilish zarurligini anglatadi. Tarix fani eski qarashlar, yondashuvlardan xolos bo'lishi uchun kuch to'play boshladi.

Ikkinchi bosqich 1992-yildan 1997-yilgacha bo'lgan oralqini o'z ichiga oladi. Bu davrda ta'limning mohiyat-mazmunini yangi g'oya, qat'iy yondashuvlar va yangi ruh bilan sug'orish, ta'limning me'yoriy qoidalari, uning standartlarini ishlab chiqish uchun izlanishlar bilan tavsiflandi. Uning natijasida 1997-yil "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Va zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan strategik "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Tarix fani o'z o'tmish qarashlari, g'oyalaridan voz kechdi. Jahon tarix fanida e'tirof etgan metodologik tamoyillar va ta'limotlardan foydalana boshladi.

Uchinchi bosqich (1998-yildan hozirgi kungacha davom etib keladi). Bu davr ta'lim standartlarini yangilash, zamonaviy ta'lim tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish, tarix ta'limining yangi tuzilmasini amalga faol tadbiiq qilish, yangi metodologiya va metod ruhini singdirish tomon jadal yo'l tutildi. Bu bosqichda ta'limning barcha bosqichlarida tarix ta'limini amalga oshirishda umume'tirof etilgan konseptual tamoyillar asosida o'quv metodik adabiyotlar kirib keldi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1998-yili tarixchi olimlar bilan uchrashuvda aytilgan fikrlar, tarixiy tadqiqotlarda tarix tamoyillariga suyanish, eski metodologiyadan voz kechish, milliy tariximizning dolzarb muammolarini tahlil qilish tarix ta'limida tub o'garishlarni amalga oshirish vaqti kelganini anglatar edi. Ana shunday tarzda tarix fanida paradigmalarning almashinuvi yuz berdi. Tarix ta'limi shaxsga yo'naltirilgan plyuralistik va ko'p xillik bo'lishi tomon qadam tashlandi.

Tarix ta'limi tarix metodologiyasiga asoslanib amalga joriy qilindi. Hozirgi kunda tarix fanining nazariy asosi tarix metodologiyasida to'plangan boy tajribani o'zlashtirishga kirishildi. Milliy tarixiy tadqiqotlarda umumjahon fani miqyosida e'tirof etilgan tarix fani metodologiyasi ta'limotlari, konsepsiyalari, nazariya va maktablari g'oyalarini o'zlashtirish boshlandi. Insoniyatning o'tmish taraqqiyoti tarixiy jarayonlariva tarixiy voqea -hodisalarning tarixiy tadqiqotlarida tarixiylik va xolisilik ustuvorligi tomon yo'l tutildi. Milliy tariximizning ochilmagan qo'riqlari keyingi 20 yil ichida jadal tadqiq qilinib, sezilarli natijalarga erishildi. Hozirgi kunda tarix ta'limning turli bosqichlaridatarix fanini o'qitishda umume'tirof etilgan nazariya va ta'limotlardan unumli foydalanishmuammosi mavjud. Milliy

tarixiy tafakkurdagi muammolarni tadqiq qilish va tadqiqotnatijalaridan tarix ta'limida foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda tarix o'qituvchilari tarix ta'limida to'plangan an'analarimiz, jahon tajribasini o'rganish asosida yangi zamonaviy milliy yo'naltirilgan maktab tarix ta'limini yaratish vazifasi turganini anglab yetdilar. An'analar vorosiylik va yangiliklar o'rtasidagi nisbatlarda optimal muvozanat zamonaviy tizim qurilishida saqlanishi lozim.

Tarix ta'limining samarador bo'lishi uchun umumiy tarix, milliy va o'lka tarixi o'rtasida optimal nisbatni belgilashni nazarda tutadi. Mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biri bo'lganligi sababli milliy tarix fanida uchun vatanimiz tarixining har bir bosqichi maktab tarix ta'limi tizimida o'z munosib o'rnini topishi lozim. Viloyat, shahar, tuman, qishloqlar tarixini o'rganish avlod-ajdodlar, ularning vorisiyiligi vaqt-zamonlar aloqasini ko'rsatadi. Davlat ta'lim standartidagi o'lkashunoslik unsurlari joylarda tarix o'quv dasturlarida o'z aksini topadi. Shaxsning o'zligini va milliy o'zligini anglashi millatning o'zligini anglashida tarix fani alohida o'rin tutadi. Tarixiyong millatning o'zligini muhim o'rin tutadigan, ajdodlardan kelajak avlodga o'tadigan xotira vazifasini bajarib keladi. Xotira -millatning o'tmishi to'g'risidagi uzuq-yuluq ma'lumotlar bilan bir qatorda izchil ma'lumotlarni ham to'playdi. Har bir xalq, millat o'z-o'zini anglab yetgan taqdiridagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Turk mutafakkiri Ziyi Ko'k Alp: "Qavmlar birdaniga millat holiga yetishmaydilar, dastavval ijtimoiy hayotning odatdagi chaqaloqlik davrini o'z boshidan kechiradilar" deya o'sha qavmlarningmillat bo'lib jiplashishioson kechmasliginie'tirof etgan edi.

Bugungi kunda tarixni o'rganishning maqsadlaridan biri-shaxsningmadaniy-tarixiy muhitga kirishi, vaqt-makonda o'zini erkin his qila olishini shakllantirishdir. Bugun oliy maktab talabasi tarixiy dalillarni emas, balkitarixning mazmun-mohiyatini (tarix falsafasini) o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ular voqeaviy tarixni o'rta maktabda, litsey va kollejlarda o'tiladigan tarix kursida o'rganadilar. Tarix falsafasi tafakkurning mustaqilligini shakllantirishga yordam beradi, insoniyat jamiyati taraqqiyotining asosiy yo'llarini tavsiflab, dunyoqarashni kengaytiradi, ancha darajada real tarixiy kenglikni tartibga soladi. Oliy maktabda tarix fanini o'qitishda eng asosiysi-butalabada tafakkurning tarixiyiligi rivojidir. Tafakkurning tarixiyiligi-madaniyatning, o'qimishli zamonaviy odamning qobiliyatlarini, voqealarning nihoyasiz dalillar qatorida mos baholash qobiliyati tavsiflaydigan eng muhim madaniy ko'rsatkichlaridan biridir.

Tarix talimining barcha bosqichlarida shaxs dunyoqarashida tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllantirish shaxsda tarixiy ongning rivojiga olib keladi. Tafakkurda tarixiylikning mavjud emasligi o'tmish voqealarini bugungi kun o'lchovlari bilan baholashda ko'rinadi. Aksincha, yana tayyor tavsiya-ko'rsatmalar bermaydigan o'tmishda zamonaviy muammolarni yechish izlanadi. Tarix fani uzoq va yaqin otmish, kecha va bugungi taraqqiyot va madaniyatni organish asosida kelajakka umid va ishonch bilan qarash, oz faoliyatini shunga mos qurish imkoniyatini yaratadi.

Tarix fanini o'qitish jarayonida tafakkurning tarixiyiligini shakllantirish uchun bu fanning metodologik asoslarini ilmiy organish va olingan tegishli bilim asosidaijtimoiy taraqqiyotni tushunish, haqiqatga yaqin bilimga yanada ko'proq yaqinlashish mumkin boladi. Chunki tarixni qayta tiklashning o'ziga xosligi sababli tarixni to'la hajmda bilish mumkin emas.

Tarix darslarida loyihalash texnologiyasi. Amerika-Yevropa ta'lim tizimidakeng qo'llanib kelinayotganloyiha metodi o'quvchi shaxsiningrivojlanishida nufuzli mavqeni egallab turgani yaqqol ko'rinmoqda. Hozirgi kunda tarix ta'limida yuz berayotgan ijobiy siljishlar loyiha metodini o'qitish jarayonida tadbiiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Loyihalash metodini o'quv jarayonidatadbiiq etish o'qituvchidanyuqori pedagogik mahorat, ilmiy salohiyatni talab qiladi. O'quv loyihalariniishlab chiqish va uni pedagogik amaliyotda qo'llash uchun o'qituvchilardayetarli darajada ilmiy-amaliy ko'nikmalar bo'lishi kerak. Bunday malaka va ko'nikmagaega bo'lish uchun o'qituvchi loyihalar metodi bo'yicha maxsusbilim olishi zarur. Tarix o'qituvchisieng avvaloo'qitishning loyihalash texnologiyalari to'g'risida tushunchava ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. U loyiha texnologiyasining to'la zanjiri bo'yichaamaliy faoliyatni tashkillashtirish ko'nikmasini o'zlashtirishi, boshqacha aytgandag'oyadan uniamalga oshirishgacha bo'lgan zanjirni bilishi lozim.

Tarix fanida boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farq qilgan holda loyihalash metodini uning har bir mavzusi bo'yicha turli shakl va ko'rinishlarda tadbiiq etilishi mumkin. Loyihalash metodi asosida tarix darslarini o'tkazish tarix o'qituvchisining yuqori malaka, bilim va ijodkorligini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Chunki har bir loyiha ijodkorlik bilan yondashib, zaruriy materiallarni tanlab, ajratib olishni, topshiriq va mashqlaringsamarali tizimini ishlab chiqishnitalab qiladi. Shu bilan birga loyihalarni o'quv jarayoniga kiritish, tashkiliy va psixologik jihatdan bir qator muammolarni yechishnitalab qiladi.

O`quv bo`limi yangi o`quv yilida o`quv loyihalarini bajarish rejasini tuzadi. O`quv yilining boshlanishidagi bir sinfdan bir fan o`quv dasturidan uning bo`limlari, mavzulari va savollar loyiha asosida o`qitish uchun tanlab olinadi. Tarix o`qituvchisi loyihalar metodini o`quv jarayonida tadbiriq etish uchun o`quv yil boshlanishidan loyiha metodi bo`yicha dars o`tishni rejalashtirishi lozim. Loyihalardan bir mavzular o`quv metodini birlashtirishni ma`lumot berishga e`tibor beriladi. Mavzular bo`yicha o`quv loyihalari tarix o`qituvchisi tomonidan tuziladi. Eng avvalo tanlangan mavzu o`quvchida qiziqish uyg`otishi, shu mavzu ustida ishlash istagi paydo bo`lishi kerak.

Tarix fani o`qituvchisi tanlangan mavzuning mohiyat – mazmunini har tomonlama tahlil qilib, loyihaning asosiy muammosini aniqlashtiradi. Loyiha ilmiy-nazariy va amaliy asoslanib, uning asosnomasi shakllantirilib, o`quv-metodik birlashtirishni ma`lumot berishga e`tibor beriladi. O`quv loyihalari puxta ishlangan bo`lsa, u o`quvchilarda yangi bilim hosil qilishga samarali xizmat qiladi.

Hozirgi o`quvchi-yoshlar faol va yangilikka qiziquvchan bo`lib, axborot uzatishning yangi vositalarini tez va jadal o`zlashtiradilar. O`quvchilarning narsani bilishni istaydilar. Shu sababli tarix o`qituvchilari nafaqat o`z bilimlari sohasida, balki faoliyatning ko`p turlari bo`yicha layoqatli bo`lishlari lozim. Tarix o`qituvchisi o`quvchilarning tarixga bo`lgan qiziqish ehtiyojini qondirishi, ularni kerakli oqimga burib yuborishi, faoliyatning qiziqarli yo`nalishlarini aniqlashtirishda yordam berishi lozim. Ta`lim xususiyatidagi o`z g`oyalari bilan jalb qilishi lozim. Hozirgi vaqtda tarix darslarida o`quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish keskin turadi. Loyiha aynan o`qitishning shunday metod sifatida u o`quv predmatining ta`lim muammolarini yechishga yordam beradi, o`quvchilarning o`z ijodiyotini namoyon qilishiga yordam beradi. Fan bo`yicha loyihani amalga oshirish vaqtida o`quvchining yoshini hisobga olish zarur. Shunga ko`ra o`quv loyihasi maqsadi, vazifalari, muddati va shakllari belgilanadi. O`qitishning loyihalari metodi tarix darslarida, ayniqsa takrorlash, umumlashtirish darslarini o`tkazishda foydali bo`ladi.

Tarix darslarida loyihalash faoliyatini tashkil etishda ma`lum bir kompleks tadbirlar mavjud bo`lsada, o`quvchilarni loyiha ustida ish faoliyatini baholash tizimi, o`rta maktabdan tarix fani bo`yicha loyiha faoliyatini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari bo`yicha qator savollar ochiq qoladi.

Ta`lim texnologiyasini ta`minlash – bu doimo strategiyani tanlash, ustuvor yo`nalishlarni o`zaro faoliyat tizimlarini o`qitish taktikasini va o`quvchilar bilan ish uslubini tanlashdir. Loyiha texnologiyasi ta`lim metodikasi va metodi sifatida tarix fanida tadbiriq etilganda quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Har bir o`quvchida tarixiy ong, tarixiy tafakkurni shakllantirish;
- Insoniyatning o`tmish tarixiy taraqqiyotini atroflicha tahlil qilish;
- Insoniyat o`tmishiga retrospektiv nazar tashlash;
- Har bir o`quvchining shaxsiy bilim, qobiliyatlarini rivojlantirish;
- O`quvchilarga faoliyatning mazmun va shakllarini tanlashda topshiriqlarni murakkabligini tanlashda yuqori darajada erkinlik berish;
- O`quvchining shaxsiy tajribasini maksimal aniqlash, ro`yobga chiqarish va foydalanish;
- Loyihaning barcha ishtirokchilariga teng imkoniyatlar berish;
- O`quvchini o`z-o`zini baholaydigan ta`lim faoliyatiga rag`batlantirish;
- Loyihani bajarish jarayonida uni o`qitish, o`zini rivojlantirish, o`zini ifodalashga ko`maklashish;
- O`quvchining har bir mavzuni bilish ehtiyojini kuchaytirish (qaysiki har bir mavzu o`quvchining loyihasi bilan tugallanadi);
- Ijodkor shaxsni tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qobiliyatli, noyob g`oyalarni ilgari suradigan, nostonadart qarorlar qabul qilishga qodir shaxsni shakllantirish;
- O`z mazmun mohiyati jihatdan tadbiriqot, izlanish va ijodkor bo`lgan metodlar, usullar va vositalardan foydalanish.

Tarix fani qiziqarliva o`tmishning boy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti to`g`risida ma`lumot beradigan tarixiy voqea-hodisalar to`g`risida tushuncha beradi. Agar tarix o`qituvchisi loyihalash metodidan unumli foydalansa, o`quv maqsadini to`la amalga oshiradi. Boshqacha aytganda o`quvchilar o`quv topshiriqlarini ko`ngildan bajarib, o`z tarixiy bilimlarini muntazam oshirib borish imkoniyatlariga ega bo`ladilar. O`quvchilar loyiha metodi asosida o`quv jarayonining faol ishtirokchilari bo`ladilar. Bu jarayonda ular o`zlarini o`zgartirib boradilar. Ularning o`quv jarayonida olgan bilimlari eskirishi mumkin, lekin loyihalash faoliyatini jarayonida tasvirlash, tushunchalar hosil qilish, umumlashtirishlar qilish, xulosalar chiqarish ko`nikmalarini hosil qilishi o`quvchilarni shaxs sifatida shakllantiradi. Bu eng asosiy ta`limiy vazifa hisoblanadi.

Agar o`quvchi mavzuga ko`ngildan yondashadigan bo`lsa (qalban his qilsa), loyiha ustida ishlaydigan yangil kechadi va natija samarali bo`ladi.

Loyihalash metodining asosiy qurol o'quv loyihasi bo'ladi, chunki o'qitish o'quv loyihasini bajarish davomida amalga oshiriladi. Bu metod o'qitishdafaoliyatliyondashuvni amalga oshiradi. Har bir o'quv loyihasining asosida qandaydir bir muammo yotadi. Ana shu muammodan maqsad va o'quvchining loyiha faoliyati vazifasi kelib chiqadi.

Oquv loyihasiga qo'yilgan ta'limiy muammo uni yechishga qaratilgan faoliyat metodini shartlaydi. Loyiha metodining maqsadi muammoni yechish usullarini izlash bo'ladi, loyiha vazifasi esa ma'lum bir sharoitlarga maqsadga erishish vazifasi sifatida shakllanadi. Loyihalar metodi o'quvchining faoliyatini jadallashtiradi, uni ixtiyoriy-ko'ngilli ravishda o'quv predmetini o'zlashtirishiga turtki beradi.

Tarix darslarida loyihalarning qaysi ko'rinishlaridan foydalanish mumkin? Tarix darslarida ko'pincha axborotli o'yin, tadqiqotchilik, ijodiy loyihalardan foydalanadilar. Tarix fanini o'qitishda loyihalar metodidan o'quv dasturidagi materiallar asosida har qanday darsda ham foydalanish mumkin. Tanlanadigan mavzular muhim ahamiyatli, qiziqarli va o'quvchilar yoshiga ko'ra murakkablashib borishi zarur. Loyihani bajarish davomida ijodiy faoliyat o'quvchilarda ko'tarinki ruh bag'ishlaydi, bilish jarayoniva muloqot yengil kechadi.

-Tarix fani bo'yicha loyiha yakka tartibda va guruh shaklida bajarilishi mumkin. Guruh bo'lib bajarilganda, o'quv hamkorligining samaradorligi va muhimligi yaqqol ko'rinadi. Tarix fanida loyihani guruhiy bajarish shaklini qo'llagan ma'ul. Chunki tarix fani juda katta miqdorda manbalar, dalillar va ma'lumotlarga ega. Ularni o'rganish, tahlil qilish juda katta kuchni talab qiladi. Loyihalarda o'quvchilarni faollashtiradi, ular loyihani bajarish jarayonida xilma-xil ishlarni bajaradilar.

Tarixiy bilimlarni shakllantirish tashqaridan olinadigan ma'lumot va mavjud bilimlarni faollashtirishning sintezi bilan amalga oshiriladi. Shu sababli loyihalash metodi asosida tarix ta'limini tashkil qilganda, ayniqsa 5-7 sinflarda muzeylar, tarixiy-madaniy yodgorliklarga, qadimiy shaharlarga sayohat, ularga oid manba va ilmiy, tarixiy – badiiy asarlarni o'rganish bajariladigan loyihaning asosini tashkil etishi lozim. O'quvchilarni tarixiy dalillar va tarixiy jarayonni bilishida obrazli (va predmetli), ko'rgazmalilik ma'lumotni uzatish vositasi sifatidagi o'rni beqiyos. Ko'riladigan obraz va shartli belgini tarixiy dalillar to'g'risida ma'lumotlarni uzatish vositasisifatida tarixni o'qitishda o'rni belgilash zarur. O'qitishda ko'rgazmalilikning ahamiyati yaxshi ma'lum. Ob'ektiv mavjud bo'lgan tabiat va kishilik jamiyatipredmetlar, odamlar, voqea-hodisalar, ranglar va shakllar ko'p xilligida aks etadi. Shu sababli bilish faoliyati jonli hissiy qamrab oladigan va oqibatda samarali bo'ladi. Obrazlilik o'quvchilarni real voqelik bilan yaqinlashtiradi va hamma vaqt uni his qilishga imkon beradi.

Obrazli ko'rgazmalilik me'morchilik yodgorliklari va tasviriy san'at asarlari to'g'risida bilimlar shakllanishida asosiy va almashtirib bo'lmaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi va turli davr tarixiy shaxslari va ijtimoiy qatlamlari vakillari to'g'risida tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Ko'rgazmali obrazlar o'quvchilarni tarixiy voqelik guvohlari mavqeiga yaqinlashtiradi. Bu tarixga hissiy munosabatlarni kuchaytiradi, unda harakat qiladiganlar bilan birga his qilishlarini kuchaytiradi. O'quvchilar xotirasidako'rib tasavvur qilishning barqarorligi va ko'z oldida tasviriyqo'llanmalar, ularning mazmunini tahlil qilish, qiyoslash va sintez qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tarixiy bilimning shakllanishida birinchi bosqichda (5, 6, 7 -sinflar tarix darslari) obrazli ko'rgazmalilikning ahamiyati katta. Chunki bu davrlar jamiyatlari moddiy-ma'naviy hayoti zamonaviy hayotdan keskin farq qiladi. Bu sinf o'quvchilarida tabiat va jamiyat to'g'risida qarashlar va tushunchalar juda kambag'al, mavjud qarashlarda aniqlik va mazmun yetishmaydi. Bu sinf o'quvchilari ko'rgazmalilikka katta qiziqish bilan yondashadilar. Bu yondashuvni, u bilan bog'langan mavzuni og'zaki bayon qilishga ko'chiradilar.

Tarixni o'rganish, uning boshlang'ich asosi Qadimgi dunyo tarixini o'rganishdan boshlanadi. Aynan qadimgi dunyo tarixini o'rganishdan o'quvchilar o'zlari uchun sirli bo'lgan insoniyat o'tmishini o'rganishdan boshlaydi. Aynan 6-sinf dan o'quvchi tarix darslarini o'rganish asosida o'zida ilk tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllantiradi. Bu sinfda o'quvchi ilk tarixiy tushuncha, tarixiy atamalarni o'zlashtiradi, turli tarixiy so'z, tushunchalarning mag'zini chaqishga urinadi.

5-6 -sinfda o'quvchilarning tarixiy ongi, tarixiy xotirasini shakllantirish orqali ularning ilk tarixiy tafakkuri unsurlari rivojlantiriladi. Qadimgi davrda insoniyatning paydo bo'lishi va ilk sivilizatsiyaning rivojlanishi yorqin tasvirlarda, oddiy tushunarli obrazlarda tushuncha hosil qilish samarali bo'ladi. Bu sinflarda tarix o'qituvchisi bir necha o'quv loyihalarni tashkil qilishi mumkin. Loyihalar bo'yicha manba va adabiyotlar to'planadi, hujjatli va badiiy filmlar tahlil qilinadi. Bajarilgan loyihalar taqdimoti turli shakllarda bo'lishi mumkin: Rasm-tasvirlar ko'rgazmasi, ilk mehnat qurollari ko'rgazmasi, kiyimlar, ro'zg'or buyumlar ko'rgazmasi, sahna ko'rinishi, hikoya, bellashuvlar va boshqalar. Olingan asosiy natija bu o'quvchilar qadim o'tmish to'g'risida ilk hayotiy tushuncha va bilimlarga ega bo'ladilar. Tarixiy

jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy vaziyatlar, ular o`rtasidagi aloqalar yorqin ifodali tasvirlanadi. Misol uchun, mehnat qurollarining takomillashib borishi bilan urug` jamoalarida ijtimoiy-iqtidosiy munosabatlarning o`zgarib borishi, davlat va jamiyatning paydo bo`lishi tushunchasi o`quvchilar tomonidan yengil o`zlashtirib olinadi.

Tarixiy bilimlarning asosini dalillar tashkil etadi. O`qituvchi qadimgi dunyo tarixi va vatan tarixining boy dalillari orasidan eng muhimlarini vaqt va kenglikda lokallashtirgan holda o`quvchilar xotirasiga qolishiga erishishi lozim. O`quvchi eng muhim dalillarning o`zaro bog`liqligini anglash asosida insoniyat tarixining rivojlanishi, sabab-oqibat aloqalari va tarixiy jarayonning ba`zi qonuniyatlarini tushunishi hamda tarixiy tushunchalar tizimini shakllantirish uchun asos bo`ladi. O`quvchi qadimgi dunyo tarixini o`rganish asosida tarix faniga ilk bor kiradi, tarixiy atama, tarixiy tushunchalarga duch keladi va ularni tahlil qilish asosida tarixiy bilim hosil qiladi. 6-sinfda ibtidoiy jamoa, ishlab chiqarish, davlat, ijtimoiy tabaqa, madaniyat, tarixiy manba, qo`shin, urush, xalq, aholi, qonun, demokratiya, respublika, senat, din, shahar-davlat tushunchalari o`zlashtiriladi. 6-sinfda o`quvchilarmurakkab tarixiy umumlashtiruvchi tushunchalarni o`zlashtira olmaydilar. Shu sababli o`qituvchimurakkab tarixiy tushunchalarningeng muhim belgilarini oson vaobrazli qilib ochib berishlari lozim. 6-sinf tarix darslarida o`quvchi ilk bor insoniyat madaniyatiningyutuqlari bilan tanishadi, insoniyatning tarixiy taraqqiyotdagiilk qadamlarini ko`z oldiga keltiradi, odamlar jamiyat munosabatlari murakkab, ziddiyatli ekanini, urushlar va ularning oqibatlari to`g`risida ilk tasavvurga ega bo`ladi. O`quvchi tarixni tasavvur qilish, tahlil qilishga ilk bor urinadi. Uning tarixiy ongi, tarixiy xotirasi shakllana borib, natijada mushohada qobiliyati rivojlanadi, mustaqil fikrlash va mushohada qilish ko`nikma uquvi rivojlanadi.

O`quvchilarning bilim darajasini chuqur o`rganmasdan turib, o`qitish jarayoniga maqsadli ta`sir qilish va o`quvchining bilimini chuqurlashtirib bo`lmaydi. Ko`pgina psixologlar va pedagoglarning fikriga ko`ra, 11-14 yoshli o`quvchilarda aniq-obrazli mushohada yetakchi bo`ladi va ularda mavhum mushohada ham mavjud bo`ladi. Shu sababli o`quvchilarnixulosalarga olib kelish, tushunchalarni shakllantirish uchun yorqin, obrazli tasavvurlarga suyanish lozim.

O`qituvchi loyiha metodi asosida darsni tashkil etib, o`quvchini o`tmishga qaytarishi, uni o`sha davrni tasavvur qilishiga yordam berishi lozim. Buning uchuntanlangan loyihani bajarishda ko`hna davr voqea-hodisalari yorqin, o`quvchi tomonidan obrazli qabul qilish jarayoni boradi, loyihani bajarishda tarixiy kinofilmlar, tarixiy qissa, roman yoki tarixiy ommabop hujjatli filmlardan, rasm-tasvirlardan foydalanish mumkin. Bu obrazli tasvir ta`sirini kuchaytiradi. O`qituvchi dalillarni o`rganish jarayonida tushunchalar hosil qilish yoki bir necha tushunchalarniyanada umumlashtirishni shakllantirishga olib kelishi lozim.

Maktab tarix ta`limida loyihalash metodini 5-sinfdan "Tarixdan hikoyalar" kursini o`tishdan boshlash mumkin. O`quvchilar kursdan loyihalarni bajarish jarayonida o`tmish davrga beixtiyor kirib borishlari vao`qish jarayoninisamarali o`tkazishlari mumkin. 5-sinfdan boshlab tarix ta`limida turli xil didaktik o`yinlarni (faollashtiradigan, shakllantiradigan, umumlashtiradigan va nazorat korreksiya) qo`llash mumkin. Bu metod kursning asosiy vazifasini bajarish, o`quvchilar ongida tarixiy xotira, tarixiy ongni shakllantirish asosida tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarixiy bilimlarni egallash, tarixni bilishga qiziqtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shu maqsadda tarix kursini o`qitishda turli loyihalar metodidan foydalaniladi.

5-sinf tarix darslaridaloyihalar metodini amalga tadbiiq etilishi natijasida o`quvchining mavzuni o`rganishi ixtiyoriy va shaxsiy faoliyatini jadal bo`lishiga olib keladi. Loyiha asosida dars o`tilganda o`quvchilar tanlash vamas`uliyatni his qiladilar. 5-sinf o`quvchisining ijtimoiylashuv jarayoni murakkab kechadi. Bu yoshda o`quvchidaegosentrizm kuchli bo`ladi. O`quvchi yurish-turishning ijtimoiy mos shaklinio`zlashtira boshlaydi, hamkorlik tuyg`usi shakllana boradi. Bu yoshda guruhiy loyihalaryetakchi o`rinni egallaydi. Yakka tartibdagi loyihalarumumiy mavzu yoki mahsulotni taqdimot qilish (misol uchun, ko`rgazma, viktorina, panno, kitob va h. k) shaklida bo`lishi mumkin. Loyihalar o`quvchining yoshi, qobiliyati va intilishlariga mos ravishda tuziladi.

6-sinf tarix kursininghar bir mavzusi bo`yicha dars mashg`ulotini loyiha metodi asosidadars o`tish mumkin. Qadimgi Sharq va Yunon-Rim tarixining ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayot tasviri loyiha ishiuchun boy materialni beradi. Misol uchun, ibtidoiyjamoa davri bo`yicha"tosh asri" yoki "birinchi odam" mavzusida bajariladiganloyiha xilma-xil antropologik, etnografik va etnologiyamateriallarigasuyanadi. Yoki madaniy hayotga tegishli "Qadimgi dunyoning yetti mo`jizasi" mavzusiga murojaat qilish mumkin. Bu mavzu bo`yicha ilmiy, ilmiy ommabop, adabiy manbalar mavjud. Ushbu manbalar va adabiyotlar ustida ishlash o`quvchilarning tarixiy bilim va tafakkurini boyitadi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Tarix fani bo'yicha o'quv loyihalari o'rta maktabfan o'quv dasturiga sinflarga mos holda tuziladi. 7, 8, 9 sinflarda tarix fanidan bajariladigan o'quv loyihalari ancha murakkab bo'lib, maxsus manba va adabiyotlarga murojaat qilinadi. Shu sababli bu sinflarda o'quvchilar loyihani bajarishda tarix o'qituvchisining yoki boshqa o'qituvchilarning doimiy metodik yordamiga muhtoj bo'ladi. Tanlab olingan mavzular ustida ishlash muddatlari rejalashtiriladi. O'quvchilar loyihani bajarishda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, mahalliy olimlarning yordamiga tayanishlari mumkin. Loyiha mavzusini tanlash muhim vazifa. To'g'ri tanlangan mavzu loyihasi samarali natijalari bilan tugallanadi. O'quvchilar yoshi, psixologiyasiga mos ravishda tanlangan mavzu samarali yakun topadi. Ba'zida o'quvchilar o'zlari bajara olmaydigan mavzularni tanlaydilar. O'qituvchi har bir mavzu bo'yicha tegishli maslahatni o'z vaqtida berishi zarur. O'quvchiga mavzu mazmun-mohiyati to'g'risida atroflicha tushuntirilishi lozim. O'quv loyihasi odatda manba adabiyotlar, boshqa tegishli hujjatlar yetarli bo'lgan mavzular bo'yicha tuzilsa, bunday loyiha samarali natija beradi.

Dars jarayonida loyiha metodiningishini asosiy shakli guruh bo'lib olib boriladi. Agar har bir guruh uchun bir xil topshiriq berilgan bo'lsa (bir objekt talqin qilinadigan bo'lsa), guruhlar turli darajaliqilib tuziladi. Topshiriq tabaqalashtirilsa, guruhlarga bir xil ta'lim darajasidagi o'quvchilarni kiritish mumkin.

7-sinf O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi bo'yicha o'rta asrlar davri tarixi o'rganiladi. 7-sinf tarix darslarida loyihani ijodiy jamoadan bajarish samarali bo'ladi. O'quvchilar ijodiy guruhga birlashganda o'qitish jarayonida har bir o'quvchi ma'lum bir rolni o'ynaydi. Bu ishtirokchilarning topshiriqlarini belgilangan muddatlarda bajarishga faoliyat davomida o'zaro yordam, ko'ngilli ravishda vashinchilik bajarish mas'uliyatini shakllantiradi. O'rta asrlar tarixining boy va xilma-xil ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy lavhalari bo'yicha ko'plab o'quv loyihalarini bajarish mumkin. O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi kurslaridan quyidagi mavzular bo'yicha loyihalarni bajarish mumkin:

1. O'rta asr shaharlik odami.
2. O'rta asr siyosiy arboblari.
3. O'rta asr oshxonasi va taomlari.
4. Ular qanday kiyinganlar.
5. O'rta asrning yetti mo'jizasi.
6. O'rta asrlar shaharlari qurilishi va tuzilishi.
7. O'rta asrlar harbiy tarixi.
8. O'rta asrlar zargarlik san'ati.

Bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. Har bir mavzu bo'yicha o'rganilgan manbalar asosida maqolalar tayyorlab, rejalashtirilayotgan ilmiy to'plamga kiritish mumkin. To'plam asosida munozara, davra suhbatini uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari turli ko'rgazmalar (etnografik, tasviriy san'at, tangalar, badiiy adabiyot, miniatura san'ati, rasmlar galereyasi), konferensiyalar uyushtirish mumkin. Har bir loyihama'lum bir mavzugategishli bo'lib, ularni bir yoki bir necha dars mashg'ulotlari davomida bajarish mumkin. Loyihalar chorak yoki o'quv yili, bir, ikki, uch oyga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. O'quvchilar tanlangan mavzu ni bajarishda turli usullardan foydalanishlari, o'z jurnal-gazetalarini tashkil etishlari, rasmlar, maketlar, tayyorlash, jadvallar, xaritalar, teatr ko'rinishlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Tarix o'qituvchisi loyihani bajarish jarayonini maslahat soatlarini tashkil qilib, tuzilgan guruhlarni yo'naltirib boradi. Tizimli ravishda bajarilayotgan ishlarni kuzatib boradi.

Loyiha metodining yutuqi uchun eng avval loyihani bajarishning samarali metodini tanlash va loyihani taqdim etishdir. O'quvchilar loyiha bajarilishi to'g'risida ma'lum bir tasavvur va tushunchaga ega bo'lishlari lozim. O'quvchilar loyiha uchun maxsus daftar tutadilar. Loyihani bajarish jarayoni daftarda aks ettirib boriladi. Guruhlar o'rtasida musobaqabo'lishi ham mumkin. Musobaqa ruhi loyihani yutuqi va sifatini ta'minlaydi.

O'quvchilarning loyihalashtirilayotgan mavzuni chuqur sinchiklab o'rganishi uchun shart-sharoit yaratishi lozim. O'quvchilarning o'ziga mavzuning muammosini aniqlashtirish tashabbusini berish zarur, loyiha natijasi yangi bilimni shakllantirishdir. O'quvchilar loyihani bajarish uchun ma'lum bir vaqtni sarflaydilar. Ammo bu boshqa fanlar bo'yicha o'quvchilarning ishlashdan ozod qilmaydi. Ammo bir o'quvchilarning ravishdaturli fanlar bo'yicha to'la loyihalar bilan band bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Vatan tarixi darslarida uy topshiriqlari va o'lkashunoslik, yosh tarixchi to'garaklarida miniloyihalarni bajarish mumkin. 5-9 sinflar uchun "Mening qishlog'im" (shahrim)ga sayohat", "Quyida Zarafshonning qadimgi yodgorliklariga sayohat", "Muqaddas ziyoratgohlar", "Buyuk ipak yo'lining bir halqasi", "XV-XVIII asr kiyim-kechaklari", "Meni oilam tarixi" va h. k. o'lkashunoslik va etnografiya mavzularida bajariladigan loyihalar yakuniy qismisifatida foto albomlar tayyorlash, konferensiyalar, avra

suhbatlari, ko`rgazmlar (uy-ro`zg`or buyumlari, rasm-tasvirlar, foto-tasvirlar) uyushtirish bilan tugallash mumkin.

Maktabda tarix fani bo`yicha loyiha metodihafталigini o`tkazish mumkin. Bu haftalikka tayyorgarlikyil davomidaaniq tuzilgan rejaasosida olib boriladi. Loyiha haftasi loyihalar tanlovi bilan tygallanadi. Loyihani tayyorlash va jihozlash o`qituvchi va o`quvchi uchunan`anaviy tayyorgarlikdanko`ra murakkabroq, shu sababli loyihalash metodi bo`yichao`qituvchi va o`quvchilargamo`ljallangan metodikmaslahatlar, tavsiyalar ishlab chiqiladi va amalda qo`llaniladi.

O`rta maktabda tarix o`qituvchisi o`quvchida, „O`z hayot faoliyatini loyihalashtirish“ ko`nikmasini hosil qilishi va o`z hayotini yaxshilash yoki o`zining asosiy maqsadini hayotga samarali tadbiquetishga o`rgatishi lozim. Har bir o`smir –o`quvchi uchun ahamiyatli baho- bu uning yutug`ini jamiyat tomonidan tan olinishidir. Loyihalash metodi orqali o`quvchi o`z mehnatini tan olinishi uchun tinimsir izlanadi. Bu ko`ngilli amalga oshadi. O`qituvchi uchun o`quvchining loyihasi ijobiy natija bilanyakunlanishimuhim emas. Muhimi o`quvchi loyihani amalga oshirish jarayonida o`z faoliyatini tahlil qila olish, ish faoliyatini qanday amalga oshirganini tahlil qilishdir. Bu ishning natijasini ko`zdan kechirib, o`zi uchun tanqidiy xulosalar chiqara olishimuhim bo`ladi. O`quvchi olingan natijalar bo`yicha o`z faoliyatining tanqidiy tahlili asosida o`z xato-kamchiliklarini bilishga urinishi va xulosalar chiqarishi eng asosiysi bo`ladi. Agar o`quvchi o`z faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, o`z bahosini chiqarish qobiliyatiga ega bo`lsa, bu eng yuqori natija bo`ladi.

TASVIRIY SAN'AT VA TEXNOLOGIYA FANI

CHIZMACHILIK DARSLARIDAI ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH VA OMMALASHTIRISHDAGI UZVIYLIK

Rajabova Gulhayo Axmadovna

Qiziltepa tumani 12-maktab. Tasviriy san'at o'qituvchisi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. SHunday ekan ta'lim - tarbiya jarayoni ham juda murakkab va mahsuliyatlidir. O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biri milliy qadriyatlarimiz, ezgu g'oyalarimiz asosida mustaqil fikrlaydigan, jamiyatga munosib, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalashdir.

Ilmiy texnik taraqqiyotni talablarining asosi bu chizmachilikdir. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida yangi zamonaviy metodlardan foydalanish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish davr ta'labi. SHu asosda o'quvchilarni mehnatga va ijodiy yaratuvchanlik faoliyatiga tayyorlashga, fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga yordamlashadi. Bunda o'quvchilarni real buyumlarning shaklini va konstruksiyasini taxlil qilish va ularning obrazini chizmaga qarab tasavvur qilishga, chizmani o'qishga o'rgatish vazifasi qo'yiladi.

O'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy axvoli, ularning nazariy tomondan tayyorgarligini oshirishning yangi yo'llarini izlash, ijodiy mehnatga tayyorgarli, asosiysi esa vosita va metodlar, shu jumladan boshlang'ich maktab chegarasida vosita va metodlarni izlashdir.

Keyingi yillarda ta'limning o'yinli shakli eng istiqbolli va eng muvaffaqiyatli yangilik bo'lib namoyon bo'ladi.

Didaktik sharoitda maqsadga intilish, faollik, tezkorlik va tafakkur mahsuldorligi, mustahkamlik, xotira tezkorligi, takomillashganlikva o'z kuchi, irodasiga ishonch tuyg'ular shakllanadi.

SHunga ko'ra kichik yoshdagi bolalarning chozmachilik ta'lim-tarbiyasida asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib hisoblangan narsa o'yindir. O'yin texnologiya yordamida tashkil qilingan chizmachilik darslarda atrof-muhit bilan tanishtirish, ularning kuzatuvchanligi, diqqat-e'tibori, chizmachilik xotirasini rivojlantirish, ya'ni aqliy faoliyatlarini kuchaytirish nazarda tutiladi.

O'yinning vazifasi.

O'yin harakati;

O'yin qoidasi;

O'yin yakuni;

Har bir o'yinda ma'lum didaktik maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Har bir o'yin bolalardan ma'lum vazifani bajarishni talab qiladi. Bu vazifani bajarish maqsadida bola o'zining fikrlash qobiliyatini aktivlashtiradi, oldingi olgan bilim va tushunchalarini esga tushitishga harakat qiladi.

Har bir o'yin o'zining ma'lum yakuni natijasiga ega. O'yinda ma'lum kutilgan natijaga erishish esa o'yin qoidasiga rioya qilish, vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi. O'yin shunday yakunlandiki, bolalar o'yindan ma'naviy ozuqa oladilar, ularga ma'lum darajada bilim beradi, yangi bir naesaga o'rgatiladi. O'quvchilar esa har bir qiziqarli o'yindan so'ng o'zlarini xursand, xushchaqchaq sezadilar, ularning ehtiyoji qoniqtiriladi. O'uin oxirida o'yin jarayonida vazifani, o'yin qoidasini yaxshi, namunali bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi, ularning faoliyatlari alohida qayd qilib o'tiladi.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarini ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o'quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil hulosalari chiqarishlarini, bir- birlaridan o'rganishlarini tashkil qilish, ularning o'qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, ijobiylashtirish va rivojlantirish. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini ta'lim- tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o'quvchilarning bir - birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va

fanlarni turlicha o'zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o'qituvchilarning ham bir- biridan o'qitish uslubi, o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o'qituvchining ma'lum vaqt davomida opedagogik texnologiyaimal natijaga, ya'ni o'quvchilarning ko'zda tutilgan darajada o'zlashtirishlariga erishish yuzasidan individual yondashuvlari mavjud.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarini ijobiyashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o'quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil hulosalar chiqarishlarini, bir- birlaridan o'rganishlarini tashkil qilish, ularning o'qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho'ng'ish darsi - ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o'rganish mashqlaridan iborat. Musobaqa darsi- o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi - dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi - o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi - o'quvchilarning o'zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi - dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar notog'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi- o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi - ilgari o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o'tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi - o'quvchilarning o'rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o'ylab topishlari mashqini o'tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi - dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishni ta'minlash darsi.

"Paradokslar" darsi- o'quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o'rganilayotgan mavzuni har turli "paradokslarga" bog'lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o'tkazish asosida to'g'ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi- yangi dars mavzusiga doir savollar bo'yicha o'quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to'g'risida ma'lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsni o'zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta'minlash darsi.

Ekskursiya darsi - bu darslarda o'quvchilarni turli ob'yektlar: muzey, ziyoratgoh, korxon, ustaxona, tabiat ob'ektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog'lash va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo'lgan ob'ektlarga, ular to'g'risida filmlar, turli ko'rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo'lgan hollarda, ularni o'quvchilarga namoyish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA XORIJ TAJRIBASI

Atamurodova Fotima Ziyodullayevna

Qiziltepa tumani 12-maktabning tasviriy san'at va chizmachilikfani o'qituvchisi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli —axborotli o'qitish sifatida tavsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda. Bu bir tomondan.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek kadrlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'lim-tarbiya ishlarini davlat standarti darajasiga ko'tarish uchun pedagogik jarayonga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur.

Shu o'rinda maktab chizmachiligida MDH davlatlarining ayrimlarida chizmachilik bo'limining yoritilishini qisqacha tahlil qilib chiqamiz.

Rossiya Federatsiyasida darsliklar tayyorlash alternativ (muqobil) shaklda bo'lib, maktab ma'muriyati o'quvchilarning qiziqishlari, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishi kabi tasirlarni hisobga olib o'qitiladigan darslikni mustaqil ravishda tanlaydi. Shuning uchun chizmachilik darsliklarining ba'zilarida mashinasozlik, amaliy san'at, gumanitar yo'nalish kabi sohalarlarga alohida urg'u berib tayyorlangan. Biz internet materiallarida 10 ga yaqin turdagi shunga o'xshash darsliklarni ko'rib chiqdik. A.Pavlova, Ya.Roytman, G.Preobrajenskaya, V.Stepakova, G.Xakimov kabi mualliflar tomonidan tayyorlangan darsliklar o'quvchilarni ma'lum soha yoki kasbga yo'naltirishga mo'ljallab tuzilgan.

Mavzu bo'yicha ma'lumotlar sodda chizmalardan foydalanib, eng ko'p qo'llaniladigan va o'quvchilarga tanish bo'lgan mahsulot (buyum) larning chizmalarida shartli belgilanishi hamda shartli tasvirlari tushuntirilgan. Mavzular o'quvchilar uchun tushunarli tarzda ochib berilgan. Mavzularni o'zlashtirgandan keyin o'quvchilarga bir qancha topshiriqlar ham taklif qilinadi. Ko'rib chiqilgan darsliklarda o'quvchilarning yosh xususiyati hamda ular o'zlashtirishi zarur va amaliy ahamiyatli materiallar keltirilgan. Ukraina respublikasida bugungi kunda amalda bo'lgan umumta'lim maktablari uchun —Chizmachilik darsligida ham shunga o'xshash tarzda yondashilgan.

Rossiya Federatsiyasi maktablarida qo'llanilib kelinayotgan Chizmachilik darsliklari dan ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi kunda chizmachilik kursi bo'yicha RF da ko'plab alternativ darsliklar amalda qo'llanilayotganiga qaramasdan A.D.Botvinnikovning Chizmachilik darsligi keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu darslik MDH davlatlardagi umumta'lim maktablari chizmachilik fani uchun asos, klassik ko'rinishga kelib qolgan. Darslikni maktablarda qo'llanilib boshlanganiga 30 yildan oshib qoldi. Ushbu darslik Rossiya Federatsiyasi ta'lim va fan vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi dasturga mos bo'lib, chizmachilik fani bo'yicha asosiy o'quv qo'llanma hisoblanadi. Darslikka nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda o'rganilgan materialni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar va topshiriqlar, grafik va amaliy ishlar ham kiritilgan. Kitobdagi illyustratsiyalar o'quvchilarning mavzuni tushunishlarini osonlashtirishga ko'maklashishga yo'naltirilgan va yetarlicha yuqori sifatda bajarilgan. Ushbu darslikda o'quvchilar mavzularni o'zlashtirib olganlaridan keyin o'qituvchi tomonidan beriladigan chizmalarini o'qishni bilishlari ko'zda tutilgan.

G.F.Xakimov va boshqalar tomonidan 9-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan —Chizmachilik. Amaliy kurs darsligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu darslik Boshqirdiston davlat pedagogika universitetining —Tasviriy san'at, chizmachilik va mehnat o'qitish metodikasi kafedrasida va Ufa davlat aviatsiya texnika universitetining —Chizma geometriya va chizmachilik kafedralari hamkorligida yaratilgan.

Darslik chizmachilik fanidan o'quv daturiga mos tayyorlangan bo'lib, hududiy komponentlarga ega. Darslikda chizmachilik fanining ayrim bo'limlarini chuqur o'rganish hamda texnologiya va mehnat ta'limi darslarida bajariladigan loyihalarning grafik qismlarini

taxt qilishga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar ham keltirilgan. Darslik ta'limga faoliyatli yondashuvga asoslangan original metodika asosida tayyorlangan. Unga o'quvchilarning ijodiy fazoviy tasavvurlari va obrazli fikrlashlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan har xil grafik topshiriqlar kiritilgan.

Ushbu darslikning o'rganib, respublikamizda nashr qilinadigan darsliklarga joriy qilish mumkin bo'lgan afzallik tomonlari bor. Unga qo'shimcha ravishda darslikdagi barcha materialni o'z ichiga olgan kompyuter test topshiriqlari ishlab chiqilgan. 122 ta test topshiriqlari quyidagi mavzular bo'yicha tuzilgan:

- amaliy grafika;
- proektsiyalash;
- chizmalardagi tasvirlar;
- texnik grafika;
- qurilish grafikasi.

Kompyuter test topshiriqlari darslikning asosiy bo'limlaridan o'quvchilarning bilim darajalarini o'qituvchi yordamisiz baholash imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu testlar yordamida o'z-o'zini testdan o'tkazib, mavzularni o'zlashtirishdagi kamchiliklarni aniqlash mumkin. Test topshiriqlarining amaliy qimmatini shundan iboratki, chizmachilikda testlardan foydalanishda o'quvchilarning chizmachilik fanini o'rganishga bo'lgan intilishlari ortib, ularning grafik savodxonlik darajasi ko'tariladi.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVASION YONDOSHUVLAR ASOSIDA QR- KODLI DARSLARNI TASHKIL ETISH

Sattorova Fotima Izzatullayevna
Qiziltepa tumani 12-maktabning Texnologiya fani o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4199-son qaroriga [1] asosan Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochiladi.

Ular STEAM fanlarini o‘qitishga ixtisoslashgan.

STEAM — maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi.

U bolalarni bir vaqtning o‘zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san‘at) va Mathematics (matematika) bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan, bunda o‘quvchilar amaliy va ko‘ngilochar loyihalar mashg‘ulotlari yordamida saboq oladilar.

STEAM ta’limiteknologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, [3] ya’ni o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta’limi o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag‘ulotlarimiz ozmi- ko‘pmi matematika fani bilan ham bog‘langandir. Jumladan texnologiya fanini maqsadli qilib darslarini malaka oshirish kurslarida tashkil qilinishi tinglovchilarni o‘z ustida ishlashga yanada faollashtirishga undaydi. Hozirgi kunda QR-kodli video rolikdan foydalanib darslarni tashkillashtirish tinglovchilarga zavq bag‘ishlaydi. Masalan, mavzu: Izonitdan namunalar tikish. Dars maqsadi: “QR kod” –metodi orqali nazariy saboqlarga ega bo‘lish va amaliy ishlar bajarish. Ta’limiy: tinglovchilarga izonitdan namunalar tikishni o‘rgatish. Tarbiyaviy ahamiyati: tinglovchilarni tejamkorlikka, tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Texnik vositalar: proyektor, noutbuk, elektron doska.

QR-kod [4] ingliz tilidan olingan bo‘lib, Quick Response –tezkor javob ma’nosini beradi.

QR-kod juda ko‘p ma’lumotni yetkazishda va undan foydalanish uchun qulay hisoblanadi.

QR-kod 1994-yilda Yaponiyada Denso Vave kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu kodning afzalligi:

Skanerlovchi [5] uskuna mobil telefon, fotoapparat yoki qo‘l skaneri yordamida oson va tez o‘qish imkonini beradi.



STEAM ta’limiasosida yondashuv o‘quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Ilmiy–texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash

STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi.

Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelini rivojlantiradi.

Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar. STEAM dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'ishda, so'ngra uni sinovdan o'tkazishadi.

STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat:

savol (vazifa), muhokama, dizayn, qo'rish, sinovda no'tkazish va rivojlantirish.

Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi yoki birgalikda ishlatilishi o'z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o'rganilishi ko'pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun. Toshkent. – O'zbekiston 1998 yil.

Sharipov Sh.S., Muslimov N. A “Badiiy ijodkorlik va dizayn” o'quv qo'llanma.

G.B. Abdiyeva “Badiiy ijodkorlik va dizayn” metodik qo'llanma. 2020.T. 88 b.

www.Uzedu.uz – xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti

Eduportal.uz – xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali.

a fani o'qituvchisi.

Механизмы внедрения индивидуального подхода к процессу начального образования

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MEHNATGA AXLOQIY JIHATDAN TAYYORLASH

Xaydarova Malika Djamshitovna

Boshlang'ich talim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi.

Shu o'rinda buyuk allomalarning hadislarini, ilm, mehnat va hunar haqidagi fikrlaridan foydalanamiz:

Ey o'g'il! Qaysi fan bo'lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to'xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo'l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab qo'yma! (A. Sheroziy)

Hunarni asrabon ketgumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdir oxir. (A. Navoi)

Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. Abdulla Avloniy.

Mehnat inson hayotini farovon qiluvchi davlatdir. Abu Rayxon Beruniy.

Mehnat qilmoq insonga xosdur. Agar sen inson bo'lsang, o'z xulqingni mehnat tumori bilan beza. Alisher Navoiy.

Sen avvalo mehnatni qadrla va o'zgalar qilgan mehnatni ham qadriga yet, shunda sen o'zingni haqiqiy mehnatsevar deb bilursan. Imom al-Buxoriy.

O'z mehnating bo'lsin doim yo'ldoshing, O'zga minnatidan og'ritma boshing. Kunlaring o'tarkan terib dur-hikmat, Kunlaring to'liqdir bo'lsa hur mehnat. Abdurahmon Jomiy.

Agarda boshlang'ich sinflar o'quvchilariga tadbiquan gapiradigan bo'lsak, ularning bu yoshidan mehnatni sevish, shu mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi. Mehnatga munosabat shu mehnatning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday mehnatda jonbozlik ko'rsatish, ishga shax- san mas'uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash — bolalarga jamoada ishlashni, do'stona o'zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilot- chilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda xatti-harakat normalarini o'rgatishdan iborat.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat — bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatleri rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, mehnat ta'limi uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinf o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma'lumot haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi. Mehnat bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega.

Barcha yangi asboblari, materiallari, jarayonlarning nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari buyumni ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar. O'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, jarayonlarning izchilligini ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat ta'limida eshitish, ko'rish xotirasi va xarakatlaniruvchi xotira ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda xotirlab qolish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat malaka va ko'nikmalarini o'rgatish natijalari ko'p jihatdan psixologik jarayonlarining rivojlanganligiga, bosh miya nazorati ostidagi mushak harakat apparatining takomillashganligiga bog'liqdir.

Mehnat ta'limining to'g'ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga yerishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda turli psixologik holatlar: faollik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi.

Mehnatga ruhiy jihatdan va axloqiy jihatdan tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

Mehnatga ma'naviy va psixologik tayyorlash o'zining real bazasiga — texnikaga oid bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarining ma'lum zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Agarda bola mehnat qilishga o'rgatilmagan bo'lsa, uning uchun mehnat faoliyati maqbul mashg'ulotga aylanmaydi, unda kerakli ijobiy emotsiyalarni va boshqa psixologik ko'rinishlarni keltirib chiqara olmaydi. Bunday hollarda mehnatga munosabatni ifodalovchi mehnatga muhabbat ham boshqa axloqiy sifatlar ham namoyon bo'lmaydi

TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI MASHG‘ULOTLARIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA REFLEKSIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI

Ro'zmetova Zamira Masharipovna

Urganch shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi

Ertangi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy refleksiv tafakkurini rivojlantirish uchun harakatlantiruvchi kuchlar qatorin i texnologiya ta‘limi metodi asosida ta‘lim-tarbiya jarayoniga kiritish maqsadga muvofiqdir. Harakatlantiruvchi kuchlar deb biz Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi o‘quv fani bo‘yicha talabalarining auditoriyadagi va dam olish vaqtidagi tadbirlarining shunday sifatlarini tushunamizki, har doim ta‘lim-tarbiya jarayoni va yoshlarning boshqa rivojlantiruvchi faoliyati davomida mavjud qarama- qarshi tendensiyalarining doimiy kurashida ijobiy o‘rin kasb etadi va oxir oqibat kechagi abituriyentlarning pedagogik mahoratning yangi va yangi cho‘qqilariga chiqishlarini ta‘minlaydi.

Birinchi harakatlantiruvchi kuch-Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarining shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishining yuksak ma‘naviy ehtiyojlari va motivlari.

Ikkinchi harakatlantiruvchi kuch-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik ta‘limi va kichik yoshdagi o‘quvchilarni tarbiyalash san‘atini egallash sohasidagi faol hayotiy vazifasidir.

Uchinchi harakatlantiruvchi kuch-fakultetda texnologiya va uni o‘qitish metodikasining ixtisoslashgan xonaning zamonaviy xarakter va mazmunda jihozlanishi.

To‘rtinchi harakatlantiruvchi kuch-OTMda texnologiya va uni o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonini to‘laqonli dasturiy-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlanishi.

Beshinchi harakatlantiruvchi kuch-bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologiya va uni o‘qitish metodikasi va shu kabi uydagi mustaqil ishlari bo‘yicha xilma-xil samarali izlanish-ijodiy faoliyatlari.

Oltinchi harakatlantiruvchi kuch-fakultet talabalari tomonidan umumiy ta‘lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarda pedagogik amaliyotda kasbiy mahoratni maqsadli o‘tashlari va egallashlari.

Yettinchi harakatlantiruvchi kuch-boshlang‘ich sinflarda texnologiya fani bo‘yicha fakultet o‘qituvchilarining pedagogik kasbiy mahorati. Fakultet pedagogik personalining nufuzli ittifoqchilarining biz taklif qilgan tuzilishini sinchiklab ko‘rganda, ular o‘quv tizimi kasb-hunar ta‘lim usullarini ishlab chiqish paytida barcha faoliyat qismlarini o‘zida aks ettirganiga amin bo‘lish mumkin: dastlabki va ikkinchisi-talabalarining o‘zlari, uchinchi va to‘rtinchilari-O TM metodik xizmati rahbarlari va fakultetda o‘quv-tarbiya jarayoni tashkilotchilari, va beshinchi, oltinchi hamda yettinchi o‘qituvchilar-haqiqiy mutaxassislar, umumiy pedagogik va metodik g‘oyalarning yetarlicha malakali talqinchilari, o‘rnatilgan intizomning qidiruv va ijodiy salohiyatini o‘z ichiga oladi va qo‘l ostidagilarning professional va refleksiv fikrlashni rivojlantirishda pedagogik amaliyotni tashkil qiladi.

Frontal vakillik bizga bo‘ysunadigan ta‘lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari majmuasining bu tuzilishini o‘ziga xos deb xarakterlaydi va uning samaradorligi texnologiya va uni o‘qitish metodikasi usullarini ishlab chiqish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy- refleksiv tafakkurni shakllantirishning rasmiy ko‘rsatkichlari bilan tasdiqlanadigan pedagogik mahoratning eng yorqin belgilaridan biri. Ushbu majmuani batafsilroq ko‘rib chiqaylik.

Birinchi harakatlantiruvchi kuch-Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarining shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishning yuksak ma‘naviy ehtiyojlari va motivlari. Uning mohiyati shundan iboratki, Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalari shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun yuksak axloqiy ehtiyoj va motivlarni shakllantirgandagina texnologiya va uni o‘qitish metodikasi asosida talabalarda kasbiy-refleksiv tafakkurni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarini kasbiy va pedagogik o‘z-o‘zini takomillashtirishga tayyorlash yo‘llarini izlashda talabalarining psixologik tayyorgarligi, ya‘ni ularning bilim olish ehtiyojlari va qiziqishlarining motivatsiyasini kasbiy refleksiv fikrlashni shakllantirish uchun harakatlantiruvchi kuch sifatida belgilaydigan shaxs fazilatlarini shakllantirish masalalariga e‘tibor qaratish kerak. Zamonaviy sharoitlarda talabalar turli sabablarga ko‘ra oliy ma‘lumot olishni istaydilar. V. D. Shadrikov, kasbiy faoliyat motivlarining shakllanishini o‘rgana

turib, aytadi: "Inson, kasb tanlay turib, o'zining motivatsion tuzilishini murakkab motivatsion jarayondagi ehtiyojlarni qondirish mumkin bo'lgan o'zining kasbiy faoliyati bilan bog'langan faktorlar tizimiga "nusxa ko'chiradi", kasbining imkoniyatlarini o'zining ehtiyojlari bilan taqqoslaydi va inson kasbni qabul qilish yoki qabul qilmaslik haqida bir qaror qabul qiladi, agar qabul qilsa, qay yo'sinda yoki qaysi aspektda ekanligini. Kasbni qabul qilish biror faoliyatni muayyan tarzda bajarishga intilishni keltirib chiqaradi, ma'lum deterministik moyillik hosil qiladi va faoliyatning psixologik tizimini shakllantirish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi¹⁵" Kasb bilan yanada yaqinroq tanishishda, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari jarayonida va psixologik- pedagogik amaliyot jarayonida "faoliyat sub'ektining motivatsion strukturasi ishlab chiqish va o'zgartirish amalga oshiriladi. Bu rivojlanish ikki yo'nalishda boradi: birinchidan, shaxsning umumiy motivlarining mehnat faoliyati motivlariga aylanishi kuzatiladi; ikkinchidan, kasbiy faoliyat motivlarining dinamikasi kuzatilib, u quyidagilarda ifodalanadi:

bir qator eski motivlarning evolyutsiyasi va yangi motivlarning paydo bo'lishida;

ba'zibir motivlarning mutlaq va nisbiy ahamiyatini o'zgartirishda;

motivlar strukturasi o'zgartirilishida, professionalizatsiya jarayonida shaxs ehtiyojlari o'z ob'ektini va faoliyatini topadi va shu tariqa kasbiy motivlar strukturasi shakllantirish va ularni anglash yuzaga keladi.

Shaxs rivojlanishining eng yuqori bosqichini o'rganib, S. Ilkalov aytadiki "o'z-o'zini takomillashtirish uchun undovchi omil to'g'ridan-to'g'ri tashqi talab emas va hatto, ozgina majburlash talab etiladigan, irodaviy intilishlar talab etiladigan, o'zini yengish talab etiladigan, o'zining tayyormasligini yengish talab etiladigan istak- ehtiyojmandlik ham emas, balki tom ma'noda majburlash talab qilmaydigan shaxsiy ehtiyojlar xizmat qiladi¹⁷" Motivatsiyani o'z-o'zini tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismi sifatida hisobga olib, S. Ilkalov kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash tartiblarini interiorizatsiya qilish jarayonining o'ziga xosligiga e'tibor berishni taklif qiladi. Haqiqiy pedagogik harakatlar ketma-ketligi pedagogik mahorat strukturasi tashkil etganidek, tashqi omillar ta'sirida bajarilgan o'z-o'zini tarbiyalash harakatlari ketma-ketliklari ham o'z navbatida o'z harakatlari ichki rejasining strukturasi tashkil etadi. O'z-o'zini tarbiyalash faoliyatining ham motivatsion, ham protsessual tashkil etuvchilari mana shunday hosil bo'ladi. Tashqi ideal ichkiga o'tadi.

Shunday qilib, o'z-o'zini tarbiyalash motivatsiyasini shakllantirish jarayoni har qanday shaxs sifatini shakllantirishning muntazamligining alohida holatidir. Ularning asosida shaxsning o'zining harakati yotadi: suzishga o'rganish uchun suvga tushish kerak, har qanday munosabat, har qanday sababni shakllantirish uchun tegishli istaklar tajribasi to'planishi kerak, va o'z-o'zini takomillashtirish o'rganish uchun o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanish kerak¹⁸"

Harakatlantiruvchi kuch- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologiya ta'limi va kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tarbiyalash san'atini egallash sohasidagi faol munosabati. Faqat va faqat faol shaxsgina o'z-o'zini takomillashtirish, shu jumladan, o'zining kasbiy va refleksiv fikrlashini shakllantirish bilan shug'ullanadi.

O'qituvchini tarbiyalash, - mutaxassislarining aytishicha, - "kamida ikkita sharoit tufayli qiyinlashadiki, ularning ob'ektiv mavjud bo'lishiga, agar pedagogika o'zining ishida haqiqatga tayanishni istasa, ko'zlarini yumishga haqli emas.

Birinchidan, o'qituvchilarning ijtimoiy maqomi nisbatan hali ham yuqori emasligi. Bu esa eng qobiliyatli va ijodiy iqtidorli shaxslar o'qituvchilikka nisbatan juda katta mehr qo'yibgina o'qituvchilik kasbini egallashni ko'rsatadi.

Ikkinchidan, pedagogik OTMda hech bir o'quv dasturi o'qituvchining axloqiy shaxs sifatida tarbiyalanishini ko'zda tutmaydi. Faqatgina uning turli xil bilim, ko'nikma va malakalarni qurollantirishi ko'zda tutilgan. Tom ma'noda o'qituvchining shakllanishi shaxsning mayllari, shaxsiy taqdiri va o'qituvchi bo'ladigan muayyan shaxs hayotining holatlariga qarab tasodifiy jarayon bo'lib qolmoqda.

O'qituvchi ishonchli shaxs bo'lishi kerak, shundagina u o'zini axloqiy shaxs sifatida ko'rsatadi, ya'ni o'zini axloqli shaxs sifatida ko'rsatib va axloqlilikni tarbiyalabgina ma'naviy javobgar bo'lishi mumkin. Aynan shu sababli, deydi R. V. Knushevitskaya "pedagogika OTMning maqsadi faqat oliy ma'lumotli mutaxassisni emas, balki eng mas'uliyatli kasb- o'qituvchi kasbining mutaxassisini tayyorlashdir. O'qituvchiga davlatning kelajagi ishonib topshiriladi, shuning uchun u g'oyaviy jihatdan o'ziga ishongan, o'z ishiga mehr qo'ygan, har tomonlama rivojlangan, yuksak ma'naviy- axloqiy mezonlarga ega, chuqur nazariy bilim va yaxshi amaliy ko'nikmalarga ega, bo'lajak ishga psixologik jihatdan tayyor bo'lgan shaxs bo'lishi kerak.

Shu sababli mutaxassis o'qituvchini tayyorlash ta'limning boshidanoq aniq yo'nalishga ega bo'lishi va pedagogik ishga qat'iy qiziqishni shakllantirishga yordam berishi kerak".

Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'lum bir sharoitlarda pedagogik ta'sir ko'rsatish ob'ekti ta'lim va tarbiya sub'ekti vazifasini ham bajaradi, deb qaraladi. Bu jarayonda shaxs faolligi belgilangan maqsadlarga erishish uchun eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun talabalarning o'qishi va o'zini-o'zini tarbiyalashi masalalari, o'quv- bilim olish va ish faoliyati masalalari doimiy ravishda o'qituvchi va psixologlar e'tibor markazida bo'lgan.

Faollik bilan o'qitish motivatsiyasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosini hal etish ta'sirning faollik xususiyatiga asoslanadi. A. N. Leontev ta'sirni aks ettirish "ta'sirning natijasi emas, balki o'zaro ta'sirning natijasi, ya'ni bir- biriga qarama-qarshi jarayonlarning natijasidir. Ulardan biri- ob'ektning jonli tizimga harakati jarayoni bo'lsa, ikkinchisi- tizimning o'zining ta'sir qilinayotgan ob'ektga nisbatan faolligidir 19".

Agar o'quvchilar ich-ichidan o'qituvchilarning harakatlaridan va talabalar jamoasining harakatlaridan rozi bo'lsa, ularning talablari uning ham talablariga mos kelsa, o'qituvchilar o'z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishadilar. "Insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirish borasidagi ishlarning muvaffaqiyati shu ishga, ta'limning qay darajada rag'batlantirishi va unga rahbarlik qila olishiga bog'liq. Asosiysi mana shunda" yozgan S. L. Rubinshteyn.

Shaxsning faollik manbalaridan biri ijtimoiy shaxsiy ehtiyojlardir. D. N. Uznadze shaxsning faolligini ehtiyojlarni qondirish jarayoni sifatida, sub'ektning haqiqatga bo'lgan munosabatining bir ko'rinishi deb hisobladi.

Shaxsning ehtiyojlari-"zudlik bilan ularni qondirishni talab qiladigan haqiqiy ehtiyojlarning o'ziga xos hissiy kechinmasi", - deydi A. Rudik. Ehtiyojlarning kuchi va barqarorligi ijtimoiy hayot tajribasi hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi.

Axloqiy ehtiyojlarning namoyon bo'lish shakllaridan biri talaba shaxsining yo'nalishini aks ettiruvchi qiziqishdir. Ehtiyoj va manfaatlar kishilarni faol harakat va ishlar qilishga undaydi.

"Qiziqishni rivojlantirish jarayoni-deydi I. Baka, -quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) yangi, yorqin, g'ayrioddiy narsalarga intilish; 2) nafaqat tashqi sifat va xususiyatlarni baholash, balki tahlil qilish, analoglar bilan taqqoslash sodir bo'ladi; fikrlash idrokdan ustun turadi; 3) maqsadlar va ijtimoiy ehtiyojlar tushunib yetiladi, o'z nuqtai nazarlari va pozitsiyalari faoliyat uchun motivlar sifatida belgilanadi. Qiziqishni rivojlantirishning bosqichlilikini hisobga olishga bunday yondashuv o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, yashash sharoiti va idrokini hisobga olishni talab qiladi".

"Texnologik ta'limining tarbiyaviy va ijodiy yo'naltirilganligini mustahkamlash, tarmoqni kengaytirish va texnik to'garaklar, fakultetlar va boshqa birlashmalarning profillari sonini oshirish shaxsning motivatsion sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktab bitiruvchisining motivlari tizimida u eng muvaffaqiyatli ishlayotgan faoliyat turiga yo'naltirilganligi va moyilligiga ko'proq o'xshash bo'lganlari ustunlik qiladi20".

Uchinchi harakatlantiruvchi kuch - fakultetda texnologiya va uni o'qitish metodikasiga ixtisoslashtirilgan fan kabinetini jihozlanishining zamonaviy xarakteri va mazmuni. Bu vazifa o'quv ishlarini moddiy-texnik jihozlar bilan maksimal ta'minlashdan iborat.

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishdir. Amaliy tayyorgarlikka ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri-texnologiya va uni o'qitish metodikasi bo'yicha mashg'ulotlarni ixtisoslashgan fan kabinetida o'tkazish zarurligidir. Barcha mashg'ulotlar, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya, turli ko'rgazmali qurollar: jadvallar, diagrammalar, namunalar, texnologik xaritalar va boshqalarni ko'rsatish bilan birga olib borilishi kerak. Ta'lim jarayonini tashkil etishga bunday yondashuv talabalarga mashg'ulotda texnologiya va uni o'qitish metodikasi o'qituvchisi yoki texnologiya fanidan dars olib boruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishi, pedagogik faoliyatning ma'lum turi haqida tez tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Sinfda har xil turdagi texnik o'quv vositalari ish holatida bo'lishi va mashg'ulotlar davomida ishlatilishi kerak.

To'rtinchi harakatlantiruvchi kuch - OTMda texnologiya va uni o'qitish metodikasiga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonini to'laqonli dasturiy- metodik va kutubxonaviy ta'minlashdir. Bu harakatlantiruvchi kuchning mohiyati boshlang'ich sinflarda "texnologiya ta'limi" kursini tashkil etish uchun ham, oliy ta'limda "texnologiya va uni o'qitish metodikasi" kursini tashkil etish uchun ham o'qituvchi mehnatini va talabaning o'qish faoliyatini metodik adabiyotlar, dastur materiali bilan ta'minlashdan iborat.

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakultetida texnologiya va uni o'qitish metodikasi bo'yicha darslarni takomillashtirish uchun zahiralari qidirib, biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik refleksiyaga qobiliyatini rivojlantirishning ta'sirchan harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'lim-tarbiyaviy jarayonining to'laqonli dasturiy ta'minoti va adabiyotlar bilan ta'minlanishiga katta e'tibor beryapmiz.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari yuqori malakali o'qituvchilar uchun tegishli ta'lim darajasini to'liq ta'minlay olmaydi, chunki talabalar o'rganayotgan fanlar bo'yicha bizga yetib kelayotgan axborot oqimi talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning haqiqiy imkoniyatidan oshib ketadi. Shuning uchun ham pedagog kadrlar oldidagi dolzarb vazifa tegishli didaktik prinsiplarni, shuningdek, muntazam fanlarni o'qitish metod va usullarini takomillashtirishdan iborat.

BOSHLANG'ICH SINFLAR MEHNAT TALIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maxmudov Yunusbek Bazarbayevich

Urganch davlat universiteti magistri

Mustaqillik davrida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan an'anava urf-odatlarini atroflicha o'rganish, yosh avlodga mehnat tarbiyasi berishni keng targ'ib etishimiz lozim. Darxaqiqat, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash masalasida pedagog olimlarimiz juda ko'p ishlar qilishgan. N.Saidaxmedov, E.Choriev, U. Nishonaliev, R. Mavlonova, R. Xasanovlar yosh bolalarni kasbga yo'naltirish ularga kasb-xunar o'rgatish jarayonida ijtimoiy foydali mehnatning ahamiyatiga doir, targ'ibot-tashviqot ishlarni pedagogik tarbiyasini berishda mehnat an'alaridan foydalanish yo'llari haqida birmuncha ma'lumotlarni berganlar.

Tarbiyaning bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Ta'lim sohasida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmuni fan va texnikaning eng yaxshi yutuqlar bilan boyitishga ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalashga ajratilgan. Bu o'z navbatida mehnat ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan mehnat o'qituvchisi shaxsini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyat beradi. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarni aplikatsiya ishlari orqali estetik tarbiyalash, mehnatsevarlik ruhida tabiyalash va ijodiy mehnatni o'stirishdagi ro'li va o'rni katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi, ayniqsa, boshlang'ich sinflar faoliyati ham ijodiy tanqid ostiga olingan edi. Bunda asosiy jihat maktab boshlang'ich sinflarda kasbga qiziqtirish va maktab ko'nikmalari shakllanmay qolayotganliklari, mehnat fanini to'g'ri tashkil etish ham sust darajada ekanligi, yigit va qizlarning o'z qobiliyatlarini, istaklari ijodiy mehnat moyilliklariga monand holda hayot yo'llarini belgilab olishda qiyinchiliklar sezayotganliklariga ta'kidlangan va shu bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq vazifalar belgilab olingan edi. Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'lim-tarbiyasi va ma'lumoti, maktabdan mehnat ta'limini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati o'z -o'ziga xizmat qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish estetik va jismoniy rivojlanish jarayonidagi mehnat kuchi harakatlarini qamrab oladi.

Boshlang'ich ta'limi mehnat ma'lumoti buning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim olayotgan o'quvchilar mehnatning nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarbiyaviy qismlarni, umumlashgan mehnat malakalarini bilish va amaliy faoliyat usullarini egallashga qaratilgan.

1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini fanlardan foydalanib o'tish ishlab chiqildi. O'quv rejasiga boshqa o'quv fanlari bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil fan bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'tiladigan sifatida ta'limga kirib keldi.

1952-yilda mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori maktab boshlang'ich sinflarda ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirishning zarurligi ko'rsatildi.

1954-yilda mehnat ta'limini boshlang'ich sinf o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi.

Mehnat fani ham albatta qadimdan ma'lum bir g'oyalar asosida tarkib topib kelgan. Bu g'oyalar ulug'allomalar, buyuk insonlar g'oyalari bo'lib, mehnat fanining rivojlanishiga zamin yaratgan. Sharq mutaffakkirlarining pedagogik g'oyalari, uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyodan o'tgan qadimiy buyuk ipak yo'li Xitoy, Vizantiya, Hindiston shaharlari bilan bog'lanib, madaniyat va sanoatni rivojlantirishga, ilmga bo'lgan qiziqishiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat qilishga bo'lgan munosabatini o'zgartirib raqobatga arzigulik

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga, hunarmandchilikka, chevarchilikka qiziqishlarini takomillastiradi.

Forobiyning insoni fazilatlarini to'g'risidagi ta'limidan quyidagi ma'lum xulosalariga kelish mumkin:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshlikdanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuv yordamida insonlarning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi va jamiyatdan tashqarida insondan, jamiyatdan ajralgan holda o'zaro yordamsiz o'z ehtiyojini qondira olmasligini tushuntirib berish.

O'quvchilarning barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga hamda mukammallikka erishishi uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zini qurshagan tabiati hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'ysindiradi, buning uchun ilm-fanni turli hunarlarni o'rganadi Al-Xorazmiy, Al-Roziylarning pedagogik qarashlarida ham jamiyatning rivojlanishida ta'lim tarbiyaning o'rni yosh avlodlarni tarbiyalashda kasbkorlikning, hunarmandchilikning ijodiy ta'siri u insonlarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishlari zarurligini targ'ibot qilganlar. Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Aqliy tarbiya.

Jismoniy tarbiya.

Estetik tarbiya .

Axloqiy tarbiya .

Mehnat tarbiyasi.

Ibn sino fikricha bolaga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatish zarur. O'quvchi kasb-hunarni ma'lum darajada o'rganib bo'lgandan so'ng hunardan foydalanishi va mustaqil hayot kechirishini o'rganish lozim. Bundan ko'rinadiki mehnat fani, o'quvchilarni bilimli, dono, mehnatsevar, ijodkor, tadbirkor, ishbilarmon, barkamol, yetuk kesb- hunar egasi qilib tarbiyalash uchun fan sifatida bir manba hisonlanadi.

Beruniy mamlakatning obodonchiligi ilm-faning ravnaqiga bog'liq, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti uning bilimi, ma'rifatida deb biladi. Shuning uchun ham olim, yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlarda rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, xayrxoh bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, jur'atsizlik, boylikka xirs qo'yish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab etadi. Ulug' allomalarimizning nodir qarash va fikrlari har bir fanning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bolaning barkamol bo'lib rivojlanishida ham muhim o'rinni egallaydi.

Mehnat ta'limi o'qituvchilar rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikmalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligini beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatidir³⁰.

Mehnat ta'limi mazmuni shu vazifalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan: ta'limni unumli mehnat bilan birga qo'shishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga, jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talab qo'yadi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga tartiban qo'shib ketishi kerak.

Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining xarakteri hisobga olinishi kerak.

Maktab boshlang'ich sinflarga ta'limning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi jarayonida

o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga alohida e'tibor berilishi zarur. Mehnat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar, o'yinchoqlar, tabiiy materiallardan buyumlar tikadilar va yasaydilar. I-IV –sinflarda ustaxona amaliy mashg'ulotlari bilan mehnat darslarining bog'lanishi va xarakteriga ko'ra bir tomonlamadir ya'ni, V-VII-sinflardagi mehnat ta'limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Mehnat ta'limining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat bilim ko'nikma va malakalar berishgina emas, balki ularda mehnatga, jamoa va mulkka, jamoa va uning alohida a'zolariga ongli munosabatini, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir.

KASBLAR TO'G'RISIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Yaqubova Roza Matyaqubovna

Urganch shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi

Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi kasbini o'zi belgilashga tayyorlash umumta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan sanaladi. Ushbu vazifalarni hal etish, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ilmiy-metodik va dasturiy ta'minlash yuzasidan O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi tomonidan quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilmoqda:

Kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va uslubiy asoslarini yaratish;

Uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish dasturi;

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining me'yoriy asoslari-me'yoriy hujjatlar, nizomlarni ishlab chiqish;

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari va maktablar uchun axborot, uslubiy, dasturiy materiallarni tayyorlash;

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik - pedagogik tashxis metodikalari (anketalar, so'rovnomalar, testlar) ni tayyorlash, ularni o'tkazish, natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;

Turli yoshdagi o'quvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltiruvchi o'quv - ko'rgazmali vositalar, rivojlantiruvchi o'yinlarni tayyorlash;

- Maktablarning rahbarlari, psixologlari va o'qituvchilari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish yuzasidan uslubiy tavsiyalar va qo'llanmalar yaratish.

2006-2007 o'quv yilida Respublika tashxis markazi tomonidan o'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish Dasturi ishlab chiqildi, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan (2007 yil 5 fevraldagi 35-sonli buyruq) tasdiqlanib, amaliyotga kiritildi.

Ushbu dasturda kasb-hunarga yo'naltirishning aniq maqsadlari, vazifa va yo'nalishlari, maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining quyidagi bosqichlari belgilab berilgan:

Birinchi bosqich – “Kasblar alifbosi” bilan tanishish, erta kasb-hunarga yo'naltirish; Ikkinchi bosqich – “Kim bo'lsam ekan?” – boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirish;

Uchinchi bosqich – “Kasblar olamiga sayohat” – rivojlantiruvchi kasbga yo'naltirish;

To'rtinchi bosqich – “Men orzu qilgan kasb” – shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirish;

Beshinchi - yakuniy bosqich - kasbiy moslashish, kasbiy o'sish va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi.

Ushbu dasturning bajarilishini ilmiy-uslubiy ta'minlash maqsadida quyidagi uslubiy ishlanmalar yaratilib, joylarga foydalanish uchun yetkazildi: 1-2-3-4 sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan mashg'ulotlar ishlanmalari, “Kasblar o'yini” metodik qo'llanmasi, “Kasblar alifbosi” ko'rgazmali ommabop o'quv qo'llanmasi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-metodik va dasturiy ta'minoti “Kasb-hunarga yo'naltirish Konsepsiyasi”ning ajralmas qismi bo'lib, har bir o'quvchining kasb-hunar hamda kadrlar tayyorlash yo'nalishlari (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji)ni tanlashda faol ishtirok etishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisiga hozirda har bir o'quvchida mustaqil kasb tanlashga ijobiy munosabatni, qiziqish hamda ehtiyojni shakllantirish birmuncha qiyin kechmoqda. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda shaxsning kasb tanlashi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik-pedagogik omillar ta'siriga bog'liqdir. Bunda ayniqsa, O'zbekistonda tarixan shakllangan faoliyat turlari, xalq hunarmandchiligi va zamonaviy kasb-hunarlar spetsifikasini belgilovchi milliy an'analar muhim rol o'ynaydi.

Kasbga yo'naltirish tizimini rivojlanishi va uning ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rni shundaki, kasbga yo'naltirish, o'sib kelayotgan o'quvchi yoshlar kasblar olami to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari, ularni keyinchalikda to'g'ri, o'z imkoniyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga asoslanib kasb tanlashlarini ta'minlab berishdir. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, to'g'ri kasb tanlagan, shu, kasbini yetuk mutaxassisi bo'lib yetishgan shaxs, keyinchalikda, birinchidan:

Davr talabi, ya'ni davlatning kadr potensialini oshirishda;

O'z kasbini mutaxassisi bo'lib yetishish, davlatning iqtisodiy, siyosiy va boshqa soxalariga o'z xissasi qo'shishda;

Zamon talablariga mos ravishda, iqtisodiy rivojlanish templari bilan hamnafas bo'lgan xolda o'z bilim va salohiyatlarini amalda qo'llash va tizimdagi kamchiliklar va o'zgartirish kerak bo'lgan joylarini aniqlab va muammolarga to'g'ri yechim toplari, va xokazolar kabi kriteriyalarga javob berib va shu xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar, nafaqat o'zi uchun, balki kelgusida, u yoki bu kasb egasi bo'lgan taqdirda shu yo'nalishni rivojlanishi va takomillashishi yo'lida ish yuritishidir.

-

JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY MADANIYAT

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA JISMONIY HATTI-HARAKATLARNI MUSTAQIL EGALLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Atabekov Fozil O'razali o'g'li

TVChDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası

Maktabda jismoniy tarbiyaning xilma-xil shakllari mavjud. Afsuski, boshlang'ich sinflarda faqat dars shaklini tashkil qilish va o'tkazish bilan cheklanib qolinmoqda. Bu esa o'quvchilarda harakatga bo'lgan talablarini qoniqtirmaydi. Pedagogik kuzatishlarning ko'rsatishicha jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilar hayot uchun zarur bo'lgan harakat faolligini nihoyatda kam qismini oladilar. O'zbekiston xalq ta'limi Vazirligining 1989 yil

30 yanvar, 45- sonli buyrug'iga binoan haftasiga 3 soat jismoniy tarbiya darsini o'tish mo'ljallangan edi. Lekin jismoniy tarbiya o'qituvchilari bundan unumli foydalana ololmadilar. Bundan tashqari darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinmasligi (ko'pchilik maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darsini mutaxassis bo'lmagan o'qituvchilar tashkil qiladi va o'tkazadilar), o'quvchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy rivojlanishini hisobga olmagan holda mashqlar tanlanishi natijasida o'quvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash, harakat malakalarini shakllantirish yetarli darajada emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun zarur va faol dam olishiga qaratilgan tadbirlar: mashg'ulotgacha o'tkaziladigan gimnastika, katta tanaffuslarda qiziqarli harakatli o'yinlar, umumta'lim darslar jarayonida o'tkaziladigan quvnoq daqiqalar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishiga e'tibor berilmay qoldi. Natijada o'quvchilarning harakat faolligi, ishchanligi tez pasayib boradigan bo'ldi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalaridan biri – kelajakdagi barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga qadar bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv ishlarni rejalashtirishda va samarali olib borishda yangicha hamda ijodiy qarashimiz lozim, ishga tashabbuskorlik bilan yondashishmog'imiz kerak.

Demak, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish zarur, bolalarni harakat mahoratini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning tarbiyasida, ularni jismonan baquvvat, aqlan barkamol bo'lib yetishishlarida jismoniy tarbiya yetakchi rolni o'ynaydi. Bu muammolarni hal etishda asosiy o'rin bolalar orasida, o'qituvchilar, ota-onalar o'rtasida organizmni chiniqtirish, gigiyenik qoidalari va talablarini o'rgatish va tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini tartib etish egallaydi. Shu sababli birinchi navbatdagi vazifa bolalarni har tomonlama to'liq rivojlanishiga yordam berish, salomatligini mustaxkamlash, hayotga va mexnatga tayyorlash, yetuk shaxs bo'lishiga hissa qo'shishdir.

O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning turli xil shakllaridan foydalanish maktabda nafaqat jismoniy tarbiya o'qituvchisining vazifasi, balki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining, maktab jamoatchiligining va maktab yoshlar uyushmasi faollarining ham bevosita vazifasidir. Ammo ko'pgina maktablarda jismoniy tarbiya davlat dasturida ko'zda tutilgandek tashkil qilinmaydi. Buning birinchi sababi maktab o'qituvchilarining jismoniy tarbiya mas'ul bo'lganlarning barchasida jismoniy tarbiya nazariyasiga va metodikasiga oid bilimlar yetarli emas. Bu muammolarni hal qilishga qaratilgan, metodik adabiyotlar va qo'llanmalar ham juda kam.

Respublikamiz mustaqilligining xalqimizga bergan eng buyuk ne'matlaridan biri yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga berilayotgan katta e'tibordir.

Keyingi yillarda bolalar sporti va jismoniy tarbiyani rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani hammamiz uchun quvonarlidir. Ammo shunga qaramay hali ta'lim muassasalarida bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish borasida qator muammolar mavjud.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy jihatdan sog'lomlik darajasi qoniqarli emasligi ko'pgina mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'rtinchi qismi birdaniga ortiqcha o'quv yuklamalari bilan band etilganligi oqibatida odatdagi o'quv predmetlarini o'zlashtirishga qiynalmoqdalar. Sir emaski, ko'pincha boshlang'ich sinf o'qituvchilari birinchi sinfga

kelgan o'quvchilarining savodini tezroq chiqarish, ularni yozishga va o'qishga, hisob-kitobga tezroq o'rgatish uchun yozuv, o'qish va matematika mashg'ulotlariga asosiy e'tiborni qaratadilar-da, aksincha, bolalarning qiziqishi va ehtiyoji ko'proq seziladigan jismoniy tarbiya, musiqa, mehnat kabi mashg'ulotlarni ikkinchi o'ringa surib qo'yadilar. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisi rivojlanishida ham jismoniy, ham psixologik nosozliklar vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida bolaning maktabdan, o'qishdan tez bezib qolishiga sabab bo'ladi. Maktab uning uchun o'z imkoniyatlarini namoish etadigan, bilish, o'qish va o'rganish ehtiyojlarini qondiradigan, uni takomillashishga bo'lgan intilishini qanoatlantiradigan joy emas, balki uni har tomonlama ezib qo'yadigan zindonga aylanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi uning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan asoslanadi. Bu davrda bolaning suyak- muskul tizimi shakllanishda davom etib, uning organizmida suyaklashish davri kechayotgan bo'ladi. Ana shu holatning o'zi uning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Ko'p aqliy mehnat talab etadigan mashg'ulotlarda vaqti-vaqti bilan fizikultdaqiqalarni o'tkazib turishning o'zigina bolaning yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Hatto haftada ikki marta o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'zi ham o'quvchilarda jismoniy ko'nikmalarni, qolaversa, jismoniy madaniyatni talab darajasida shakllantirish uchun yetarli emas.

Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining faqat 9%i - yuqori darajadagi, 57%i – o'rta darajada, 34%i – past darajadagi jismoniy ko'rsatkichlarga ega.

T.V.Korneyevaning fikricha, 95,3% boshlang'ich sinf o'quvchilari darsdan tashqari paytlarda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaydilar, 87,8 %i esa ertalabki badantarbiyani bajarmaydi, faqat 12% bolalar ota-onalari bilan faol dam oladilar.

Bu ko'rsatkichlar, albatta, bizni tashvishga soladi. O'quvchilarda boshlang'ich sinfdan, hatto undan ham oldinroq jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish faqat ta'lim muassasalarining emas, balki ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan barcha ijtimoiy institutlar – oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari, huquq-targ'ibot organlarining birgalikdagi bahamjihat faoliyat ko'rsatishlariga bog'liqdir.

Ammo barcha ijtimoiy institutlar ishini bolalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishga oid zarur metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar, zarur bilimlar bilan qurollantiradigan tashkilot – bu ta'lim muassasalaridir. Ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini yuqori darajada takomillashtirish ham muammoning yechimini topish uchun asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy ko'nikmalar va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vositasi bu jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridir.

Xulosa qilib aytganda harakat malakalarini takomillashtirish jarayonida oson tushunarli va individuallashtirishni ta'minlash bilan birga, o'rganilgan harakatning qanchalik mustaxkamlanganligiga qarab musobaqa metodidan oldin harakat texnikasiga asosan, so'ngra butun funksional imkoniyatlarini ko'rsatib yanada kengroq foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Qurbonov, A.Qurbonov. Jismoniy mashqlarining fiziologik asoslari. «O'AJBNT» Markazi, 2003 y.
2. Q.Sodiqov, S.X.Atipova. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. «Yangi asr avlodi» Toshkent 2009 y.
3. N.Q.Qosimova. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. Buxoro 2005 y.
4. A.Q.Atoev. Bolalar sportini rivojlantirish. Buxoro-2007 y
5. M.Raxmatxo'jayev, B.Safarov. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport maktablarining rahbar va murabbiylari uchun qo'llanma. Toshkent 2009 y.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLASH MASALALARI

Rashidov Komron Kamoliddinovich

DTPI o‘qituvchisi

Manzura Xolmirzayeva

TerDu o‘qituvchisi

Mustaqil O‘zbekistonning mustqillik davri mobaynida juda muhim va ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarish va progresni kuzatdik. Bularni nafaqat iktisodiyot, siyosat boshqaruvi sohasida, balki madaniyat, ma‘rifat, ta‘lim va fan sohasida, xususan ijtimoiy sohaning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan sportda ham yaqqol kuzatdik.

“Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, xususan, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va kishloqda zamonaviy o‘quvchilarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlar o‘zining ijobiy samarasini bermokda”[3; 5-b]. Shu ma’noda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.


Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta‘limni tashqil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi. Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy tarakkiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - "texnos" (techne) - san‘at, maxorat, xunar va "logos" (logos)- fan so‘zlaridan tashqil topib "xunar fani" ma‘nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to‘lik tavsiflab berolmaydi [1; 21-b].

Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko‘zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon - bu mehnat kurollari bilan mehnat ob‘ektlari (xomashyo)ga bosqichma-bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir.

Pedagogik texnologiya-bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning ta‘lim-tarbiya vositalari yordamida o‘quvchi (o‘quvchi)larga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shaqllantirish jarayonidir.

Ammo ushbu jarayonni jismoniy tabiya, umuman olganda barcha darslarda qo‘llashning o‘ziga xos muammolari mavjud:

- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishning ilmiy tahlili;
- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etish nazariy asoslanishi bilar birga uning metodikasini qo‘llash va uning omillari k‘rsatish;
- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni faollashtirish omillari, y‘quvchilarning y‘qish faoliyat motivlari va ularni rivojlantirish y‘llarini belgilab berish
- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etish tizimini ishlab chiqish.



Ta'limda texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi.

Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmokda. Ta'limga yangicha, texnologik yondashish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Yangi pedagogik texnologiya asosida O'qitishni yo'lga ko'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmokda[1; 7-b]. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol sub'ektlariga aylansinlar. Barcha ta'lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarni faollashtirish, Mustaqil ishlashga o'rgatish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning ta'lim jarayonining faol sub'ektlariga aylanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta'lim texnologiyasi masalalariga kam e'tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda jismoniy tarbiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmokda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shaqqlantiradi.

Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, yangilik yaratish, yangilik kabi ma'noni anglatadi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaqlidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bu texnologiyada kommunikativ usullardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Interfaol ta'lim usuli - har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi[2; 46-b].

Интерфаол (“Inter” – бу ўзаро, “act” – ҳаракат қилмоқ) – ўзаро ҳаракат қилиш (ёки ким биландир сўхбатда, мулоқотда)

Инновация (инглизча **Innovation**) – янгилик киритиш, янгиланиш, ниманидир ўзгартириш демакдир. **Инновацион**

Interfaol ta'lim texnologiyasi – har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishni ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi [2; 61-b].

Interfaol usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol haraqati ko'zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o'rgatishda uni modellashtirish qismida o'qituvchi o'quvchilarga modelni namoyish qilish oldida “Aqliy hujum” usulidan foydalanishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so'ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o'quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi.

Amaliy boshqaruv qismida o'qituvchi “Bir-biriga o'rgatish” usulidan foydalanishi mumkin. Bu usul darsni yuqori saviyada tashqil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Uni qo'llash quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi:

Darsni o'tish usulidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga o'yin qoidasining qismlarini o'rgatadi. O'qituvchi xohlovchilarga ta'lim usullari vositasida mashq qismlarini avval tushuntiradi keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydi va bajaradi.

O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkorlariga o'rganilayotgan mashqni bosqichma-bosqich bajartirib ko'radi. Tushunmaganlarini tushunib o'rganishlariga yordam beradi.

O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismni bir-birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni haraqatlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o'tiladi. O'qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishga o'qituvchiga yordamlashadi.

Bu ish usuli darsning boshqa qism-larini ham bajarishda davom etadi. Bu o'quvchilarni bir-biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi.

Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interfaol usullar (“Bumerang”, “Charxpalak”, “Aql charxi” va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, “Charxpalak” usuli. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa o'quvchilarga tarqatiladi. Ular tegishli o'zgartirishlar kiritganlaridan keyin yana boshqa o'quvchilarga beriladi va shu tarzda o'quvchilarning har birining ishi guruhdagi barcha o'quvchilar qo'lidan o'tadi va oxiri o'ziga qayddadi. Har birlari o'zlari nuqtai nazaridan ishga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin. Keyin o'qituvchi to'g'ri javobni ko'rsatadi. Bu usulda o'quvchilar ijodiy fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga va o'z kamchiliklarini bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

V. A. Suxomlin, “Innovatsionnye informatsionno-pedagogicheskiye texnologii dlya razvitiya prepodavatelskix kadrov” Moskva-2010

M.Kamol'dinov, B.Vaxobjonov. Innovatsion pedagogik. Texnologik asoslari Toshkent. "TALQIN"-2010.

K.D.Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» Abu Ali ibn Sino nashrieti 2002 y.

Google.com, facebook.com; Minsport.uz, hozir.uz; Library.ziyonet.uz, arxiv.uz;

Refereat.uz, www.uzdenemetr.com; www.aim.uz, ziyonet.com; lex.uz, strategiya.uz;

fayllar.org., izvestiya.nikolaev.ya, bookash.pro

MAKTAB O'QUVCHILARI JISMONIY TARBIYASINING MAQSADI VA SPORT FAOLIYATIGA QIZIQISHNING MAZMUN-MOHIIYATI

Toshpo'latov Juma Toshpo'latovich
p.f.n professor

Rashidov Komron Kamoliddinovich
TerDU 2-bosqich magistranti

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining asosiy maqsadi asta-sekin o'quvchilarni jismoniy kamolot darajasiga erishtirish. Ushbu jarayonda ijodiy mehnatga hayotga, va Vatan mudofasiga tayyorlashni hamda sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati sohibiga aylantirishni nazarda tutadi.

Maktab o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan jismoniy tarbiya umumiy va xususiy vazifalarni hal qiladi

Jt-Umumiy vazifalar – bilim berish, jisman tarbiyalash va sog'lom-lashtirishdan iborat jarayonlar bo'lib, xususiylariga jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standarti dasturidagi o'rta maxsus umumiy davlat jismoniy tarbiya ta'limi vazifalarini hal qilish vazifalari kiradi

Izoh: DTS da jismoniy tarbiyaga oid minimal talablar berilgan, bular dars soatidan tortib, qonun qoidalarigacha

Jt- Xususiy vazifalarga:

1) Maktab o'quvchilar organizmining sog'lik darajasini mustahkamlash, morfo-funksional rivojlantirish, chiniqtirish tarbiya va odobli qilish;

2) Harxil turdagi mehnat faoliyatiga hozirlik uchun yoshga doir JS ni rivojlantirish

3) Hayotiy faoliyat davomida kerakli harakat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish keying o'rinda kerak bo'lishi kutilgan JS va HM bilan qurollantirish;

4) o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim minimal me'yorida jismoniy madaniyatga oid yangi nazariy jismoniy bilimlarni dasturga qarab berish berish va ularni yildan yilga takomillashtirib borish

5) o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga zamin yaratish va unga ushbu qiziqish-odatni shakllantirish;

6) o'quvchilarni jismoniy madaniyat sohasida faol shaxs qilib tarbiyalash.

7) ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning tarkibiy elementlari axloqiy, ruhiy, estetik, mehnat tarbiyasi bilan hamohang qilib bog'lash, urf-odat qadriyatlarimizga oid vazifalari bilan birgalikda ularning jisman va ruhan o'sishini inobatga olish. Ta'limning ayrim bosqichlariga aniqliklar kiritish orqali qator vazifalar hal qilinadi.

Maktab yoshidagilarning quyidagi 3 guruhi uchun ta'lim tarbiya ishlari tashkil etiladi.

Maktab o'quvchilarining 6-7, 10-11 yoshdagi davrda (1-4 sinflar) organizmi tabiiy rivojlanishda bo'lib, uning garmonik rivojlanishini yo'lga qo'yish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Markaziy nerv tizimidagi boshqarish funktsiyasini harakat - tayanch apparati faoliyati ishi, yurak-tomir, nafas olish organlari ishini yanada rivojlantirishga e'tibor qaratiladi, qomatni to'g'ri tutish, tashqi ko'rinish ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi⁸. Bu bilan birga ushbu jarayonga shaxsiy gigiena qoidalariga oid bilimlar qo'shib berilishi bilan tarbiya madaniyatini shakllantirish yo'lga qo'yiladi.

O'quvchilarning 12-15 yoshdagi (5-9 sinfdagi)lik davrida jismoniy mashqlar o'sayotgan yosh organizmga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ham bu davr jismoniy sifatlarning rivojlanishiga qulay imkoniyatlar davri deb ham aytiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonining jismoniy bilimlar berish vazifasi-hayotda uchraydigan harakat malakalarini ratsional texnika-sini, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, velosipedda yurish va boshqa sport turlari, sport taktikasiga oid boshlang'ich nazariy tushunchalarni berishdan iborat. Bu yoshdagilarda asosan "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testining talab-lari va normalarini topshirishga tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish natijasida sport mahoratini oshayotganligini, jismoniy madaniyatni jamiyatdagi roli va mohiyatini tushuntirish yo'lga qo'yiladi. Vaqt o'tishi bilan bilan tashkilotchilik qobiliyati takomillashtiri boriladi. Musobaqa qonun-qoidalari puxta malaka bilan o'zlashtiriladi, hakamlar ko'nikmasi malakaga aylanadi, rivojlantiriladi, chiniqtirish maqsadida tabiatning sog'lomlash-tiruvchi kuchlaridan foydalanishga o'rgatiladi.

16-18 yoshdagi umumta'lim maktabi, akademik litseylari va o'quv texnikum kollejlarning o'quvchilari organizmi yoshi ulg'aygan sari kuchayadi. Jismoniy tarbiya jarayoni buni yanada

⁸ Sh.Xonkeldiev Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari" Farg'ona 2011 8-b

kuchaytirishga xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar bilan regulyar shug'ullanish ta'lim tizimining shu yoshdagi a'zolarini ish qobiliyatini yaxshilash, asosiy harakat faoliyatlari uchun chidamlilik zahiralari oshirish, o'z tanasini boshqara olish, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va boshqa har tomonlama jismonan garmonik tarbiya alomatlarini chuqurlashtirishga e'tibor qaratiladi⁹.

Organizm tabiiy o'sib borar ekan, uning funktsional imkoniyatlarini oshib borishi ham muqarrar. Oldin egallangan harakat malakalari zahirasi bazasida yangi, keyin egallanishi lozim bo'lgan harakat malakalari uchun poidevor yaratiladi. Bu yoshdagilarda ularning jismoniy madaniyat sohasidagi bilimlarini boyitish, sport treni-rovkasi asoslari, sportchini o'z-o'zini nazorat qilishi qoidalariga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan maktab o'quvchilari xususan 5-7 sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sportning ma'lum bir turiga yo'naltirilishini nazoratga olish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Xonkeldiev Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari" Farg'ona 2011 8-b;
2. Matveyev L.P. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" 1975 y 114 b.
3. Salomov R.S. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari" Toshkent 2005 yil;
4. Olimov M.S. "O'rta masofaga yuguruvchi sportchi talabalarni musobaqalarga tayyorlash uslubi" 34-49 bet, Toshkent 2011yil;

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Mashrapova Ozodaxon Pozilovna

Farg'ona shahar 29-o'rta maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning jamiyatdagi o'rni yuqori darajada ekanligi hech kimga sir emas.

Hurmatli birinchi Prezidentimiz Islom Karimov farmoyishida "Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotida joriy etish va keng o'zlashtirish asosiy vazifalardan etib belgilansin" -deya ta'kidlab o'tishi, bu sohaning keng ma'noda ommaviy targ'ib qilinishi yaqqol dalildir. Mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'lim sohada internet resurslaridan foydalanish yuzasidan ko'plab Qonunlar va qarorlar qabul qilinib, amalda ijrosi ta'minlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi 2002 yil 6-iyun 200-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli, 2013 yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989 sonli qarorlari, Hukumatning tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari Kompleksining 2014 yil 9- yanvardagi 21-sonli majlis qarori, Xalq ta'limi Vazirligining 2014 yil 20-fevraldagi 38-sonli buyrug'I va boshqalar. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan Qonun va qarorlarning asosiy maqsadi, mamlakatimizda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimediyaga resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojining zamirida axborot- kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Jumladan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini pedagogik yo'nalishda malakasini oshirish, ularni bilim olishga, pedagogik texnologiya elementlarini chuqur egallashga undash va bu hatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borishi lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Pedagogik mahorat jismoniy tarbiya o'qituvchisining mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, shu tarzda o'qituvchi mahorati asta-sekin takomillashib, komillikka erisha boradi. Ammo bu jarayon o'qituvchidan uzoq davom etadigan ma'suliyat, sharaflilik mehnat, qunt va irodani talab etadi.

O'qituvchilarni pedagogik mahoratlarini to'g'ri tarbiyalashda axborot-texnologiyalarining muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida ilmiy-uslubiy, sog'lom sifatlarning shakllanishida axborot texnologiyalariga, atrofdagi, institutdagi ilmiy -uslubiy muhit va ularga bo'lgan munosabat muhim

⁹ Olimov M.S. "O'rta masofaga yuguruvchi sportchi talabalarni musobaqalarga tayyorlash uslubi" 34-49 bet, Toshkent 2011 yil

rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari asosida metodist o'qituvchilarining pedagogik mahoratlarini ko'rgan o'qituvchining shunga qarab pedagogik qobiliyati shakllana boradi. Ular avval kuchli metodist o'qituvchilarga taqlid qiladilar. So'ng, sekin-asta o'zlarining pedagogik mahoratlari mohiyatini anglaydilar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik mahoratini shakllantirishda multimediya vositalaridan foydalanish ham o'qituvchi ma'naviyatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi mahorati shakllangan sari, uning axborot dunyosini rivojlantirib borish zarur. Bu rivojlantirish maktabdagi muhit, ichki intizom, ahloq, maktab o'qituvchilarining bir-biriga, yon-atrofdagilarga, o'zi yashayotgan makonga – Vatanga, borliqqa bo'lgan munosabati orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik muhitning maktabda mavjudligi, kelajak hayotda o'qituvchining ilm-ma'rifat olishga, pedagogik mahoratini oshirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qituvchining teran fikrli, ma'naviy etuk, sog'lom pedagog bo'lib etishishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh pedagoglarimiz orasida o'qituvchilikga bo'lgan munosabat ijobiy, bunga sabab bitta! Bu ham bo'lsa, ta'lim tizimidagi pedagogik muhitning yaxshiligi, malaka oshirish institutlarida pedagogik-ma'naviyatning qondirilganligidadir. Malaka oshirish jarayonida pedagogic ehtiyoji qondirilgan o'qituvchi, keyingi davrda maktab dargohiga boranda ham pedagogik mahoratini oshirish bilan shug'ullanishga qiynalmaydi, pedagogik usullarni o'zlashtira oladi.

Malaka oshirish davomida axborot texnologiyalari asosida pedagogik madaniyatni shakllantirish milliy ta'lim-tarbiyaning asosidir. Aynan shu omil orqali o'qituvchilarning ongiga, hulq-atvoriga ma'naviy ta'sir qilinadi. Ustoz-murabbiylar yosh o'qituvchilar pedagogik mahoratini shakllantirish bilan shug'ullanishar ekan, axborot – texnologiyalari asosida milliy pedagogikamiz, qadimiy an'analarimiz va qadriyatlarimizga katta e'tibor berishlari kerak. Shu nuqtai nazardan "Ustoz-shogird" ijodiy hamkorligini axborot texnologiyalari asosida pedagogik tizimga yo'naltirishda malaka oshirish institutlari oldida turgan quyidagi vazifalarni keltiramiz;

-O'qituvchi faoliyatini axborot texnologiyalari asosida pedagogik tizim qonuniyatlariga moslashtirish;

-malaka oshirish jarayonini amalga oshirishda har bir o'qituvchini o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qiladigan va sog'lom fikrlashga o'rgatadigan interfaol usul va uslublardan foydalanish ;

-malaka oshirish jarayonida turli xil interaktiv usullarni qo'llash va sog'lom muhitga erishish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish;

-jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida yagona pedagogik tizim asosida faoliyat olib boorish va hozirgi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun yaxlit pedagogic mahoratni shakllantirish tizimini axborot texnologiyalari asosida yo'lga qo'yish va boshqalardan iborat. Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlangan axborot texnologiyalari asosida jismoniy tarbiya o'qituvchilaripedagogik mahoratini shakllantirishdagi vazifalarni "Ustoz-shogird" ijodiy hamkorligini axborot texnologiyalari asosida hal etilishi o'qituvchi shaxsining kelajakda malakali pedagog bo'lib

etishishida muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

AJDODLARIMIZ BOLALARDA IJTIMOY SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIDA

Xurramov Eshmaxmat Eshqulovich

TVChDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchi

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlashda shubhasiz, davlatimizning ko'p asrlik tarixi, xalqimizning urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari, pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizning taraqqiyot yo'li milliy xususiyatlarni tiklash va rivojlantirish yo'lidir. Bu esa ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biri ham yoshlarda milliy odob, axloq, saxiylik va sahovatpeshalik, vatanparvarlik, do'stlik, mehr-shafqatlilikni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarda ustoz va ota-onalarni ulug'lash, kattalar va qavmu-qarindoshlarni hurmat qilish, ilmu-ma'rifatni egallash kabi milliy xususiyatlarga bevosita bog'liq bo'lgan fazilatlar shakllantirilishi kerak.

O'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, shubhasiz, umumiy o'rta maktab va undagi ijtimoiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning sog'lom, baquvvat bo'lishlari jamiyat ravnaqi kafolati hisoblanadi.

Ajdodlarimiz o‘z vaqtida yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishlarida quyidagilar zarurligini ta’kidlaganlar:

o‘qituvchilar ta’lim oluvchilarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishlari;

ularni darsdan keyin yoki tanaffuslarda turli ijtimoiy mehnat turlariga jalb etish, jumladan, duradgorchilik, dehqonchilik va h.k.;

kitobxonlik, she’rxonlik, ashulaxonlik kabi tadbirlar uyushtirish;

oilada hadislar o‘qib berish, ularning mazmunini aytib berish, shuningdek, ertaklar, maqollar, masallar hikoya qilib berish.

Yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida jismoniy jihatdan rivojlanishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida amalga oshiriladi. Jismoniy jihatdan baquvvat o‘quvchilarda vatanni sevish, mehnatsevarlik, do‘stlik, o‘rtoqlik, mehr-shafqatlik, ustoz va ota-onalarni hurmat qilish kabi shaxsiy sifatlarni rivojlanadi.

O‘quvchilarda shakllangan har bir shaxsiy sifatlarini asoslashga harakat qildik. Vatanni sevish – bu o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtini sevish, unga sodiq farzand bo‘lish;

vatanimizning tarixi va hozirgi kuni haqida bilimga ega bo‘lish; O‘zbekiston davlat ramzlarini bilish va Prezidentiga sadoqatli bo‘lish.

Mehnatsevarlik – har bir o‘quvchida mehnatsevarlik hissi shakllangan bo‘lishi, mehnat orqasidan jamiyat va davlat ravnaq topishi, bu sohada do‘stlariga o‘rnak bo‘lishga harakat qilishi, mehnat qilgan shaxs yaxshi yashashi haqida ko‘nikmalar singdirilishi.

Do‘stlik, o‘rtoqlik – o‘quvchilar do‘stlik, o‘rtoqlik sifatlarini tushunishi, uni qadrlashi, bir-biriga har doim yordam ko‘rsatishi, do‘stining manfaatini o‘zining manfaatidan ham yuqori qo‘ya olishi.

Mehr-shafqatlik – jamiyat a‘zolariga nisbatan shafqatli va marhamatli, oilasi va sinfdoshlariga nisbatan mehrli bo‘lishi, o‘simliklar va hayvonot dunyosini yaxshi ko‘rishi, ularni asrab-avaylashi.

Ustoz va ota-onalarni hurmat qilish – ustoz va ota-onalarga nisbatan ehtiromlib bo‘lish, ularning qadriga yetish, ustoz va oilasi sha’ni, obro‘sini saqlashga bor kuchi va bilimni ayamasligi, ustoz va ota-onasiga nisbatan mehrsizlik va ularni obro‘sizlantiradigan ishlarga qarshi kurasha olishi kerak.

Biz yuqoridagi shaxsiy sifatlarning shakllanganligini aniqlash maqsadida o‘quvchilar o‘rtasida anketa savollari o‘tkazdik va olingan javoblarga qarab o‘quvchilarda axloqiy fazilat va xislatlarni tushuna bilishi, ularni mazmun va mohiyatini anglash darajasida o‘zgarishlarni belgilash uchun, ularni quyidagi uch daraja(yuqori, o‘rta, quyi)ga ajratishga harakat qildik:

vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stining yaxshi va yomon kunlarida u bilan birga bo‘la oladigan, mehr-shafqatli, ustoz va ota-onasini hurmat qila oladigan o‘quvchilarni yuqori daraja; vatanparvarlik va mehnatsevarlikning ma’no va mazmunini yuzaki tushunadigan, shaxsiy manfaat yuzasidan do‘st va o‘rtoq bo‘ladigan, ustoz va ota-onasini nomigagina, majburiy ravishda hurmat qiladigan o‘quvchilarni o‘rta daraja; vatanparvarlik va mehnatsevarlik tushunchalarini farqlay olmaydigan, do‘stlik, o‘rtoqlik fazilatlarini va mehr- shafqatlilikning mazmuni va mohiyatini tushunib yetmaydigan, ularga amal qilmaydigan, yolg‘on gapiradigan, ustoz va ota-onasini hurmatlash lozimligini tushunmaydigan o‘quvchilarni esa quyi darajaga kiritdik.

O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari, savol-javoblarning tahliliga asoslanib quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga vatan, vatanparvarlik, mustaqil O‘zbekistonning hududi, davlat ramzlari, aholisi, tili, dini, jamiyat a‘zolarining turmush tarzi, qadriyatlarini haqidagi tushunchalarni singdirib borish, vatanparvarlik tarbiyasining ma’no-mazmuni va mohiyati haqida bilim berishni kuchaytirish;

o‘quvchilarda mehnatsevarlik, do‘stlik, sadoqatlilik, ustoz va ota-onalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, do‘stlik, sadoqatlilik kabi tushunchalarning ma’no-mazmuni va tavsiflarini bilishlariga yetarli darajada e’tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, o‘quvchilarning barkamol bo‘lib shakllanishlarida Qur’on, Hadis hamda xalqimizning milliy qadriyatlarini, xalq og‘zaki ijodi hamda buyuk allomalar, fozilu- fuzalolar tomonidan yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid yozilgan asarlarni o‘rganish

MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN JISMONIY MADANIYAT DARSLARIDA FOYDALANISHNING AXAMIYATI

Ubaydilloyev Doston Husen o'g'li
Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi.

Yöldoshov Abror

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi. Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi

Ta'lim – tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. O'quvchini tarbiyalash, uni bilim olishga jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishga undash va bu hatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Jismoniy madaniyat o'quvchining mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, shu tarzda o'quvchi asta-sekin takomillashib, komillikka erisha boradi. Ammo bu jarayon o'quvchi va o'qituvchidan uzoq davom etadigan ma'suliyat, sharafli mehnat, qunt va irodani talab etadi.

O'quvchilarni jismoniy –madaniy to'g'ri tarbiyalashda multimediya vositalarning o'rni muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda jismoniy-ma'naviy, sog'lom sifatlarning shakllanishida multimediya vositalari, atrofdagi, jamiyatdagi jismoniy-ma'naviy mihit va ularga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Multimediya vositalari asosida sportchilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan o'quvchi shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kuchli sportchilarga taqlid qiladilar. So'ng sekin-asta shug'ullanayotgan sport turlarining mohiyatini anglaydilar.

Biz agar boy ma'naviy merosimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda allomalarimiz tomonidan yaratilgan jismoniy-ma'naviy ta'limotning nihoyatda sermazmun ekanligiga amin bo'lamiz. Masalan, buyuk alloma Abu Ali Ibn Si'no o'zining (Donishnoma) asarida bola tarbiyasi xususida quyidagi fikrni bildiradi: “Bola hulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak”. Bundan ikki manfaat bor:

Birinchisi –bolaning ruxi uchun bo'lib, u yoshligidan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchisi-uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli quritadi.

Jismoniy- madaniyat tarbiyada multimediya vositalaridan fodalanih ham o'quvchi ma'naviyatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi ulg'aygan sari, uning ma'naviy dunyosini rivojlantirib borish zarur. Bu rivojlantirish maktabdagi muhit, tartib intizom, ahloq, sinf o'quvchilarining bir-biriga, yon atrofdagilarga, o'zi yashayotgan makonga –Vatan'ga, borliqqa bo'lgan munosabati orqali amalga oshiriladi. Bunday jismoniy-madaniy muhitning maktabda mavjudligi, kelajak hayotda o'quvchining ilm-ma'rifat olishga, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quvchining teran fikrli, ma'naviy yetuk, sog'lom shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yoshlarimiz orasida sportga bo'lgan munosabat ijobiy, bunga sabab bitta! Bu ham bo'lsa, maktabdagi jismoniy madaniy muhitning yaxshiligi, yoshlikda jismoniy-ma'naviyatning qondirilganligidadir. Yoshligidan jismoniy-ma'naviy ehtiyoji qondirilgan o'quvchi, keyingi davrda ilm dargohiga borganda ham sport bilan shug'ullanishga qiynalmaydi, mashqlarni o'zlashtira oladi.

Jismoniy-madaniy tarbiya milliy ta'lim-tarbiyaning asosidir. Aynan shu omil orqali o'quvchilarning ongiga, hulq-atvoriga ma'naviy ta'sir qilinadi. Ustoz murabbiylar o'quvchilar jismoniy-tarbiyasi bilan shug'ullanishar ekan, multimediya vositalari asosida milliy urf-odatlarimiz, qadimiy an'-analarimiz va qadriyatlarimizga katta e'tibor berish kerak.

Sport sog'lik garovi. Sport bilan shug'ullanayotgan har bir o'g'il-qiz mukammal, yetuk, sog'lom inson sifatida tarbiya oladi. Maktabdagi jismoniy-madaniy muhit o'quvchi tarbiyasiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ustoz – murrabiy o'quvchi jismoniy-madaniy tarbiyasi uchun ma'sul. Ular o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishlari, ilm olishi, o'qimishli bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim.

Shu nuqtai nazardan “murabbiy – o'quvchi – oila” ijodiy hamkorligini multimediya vositalari asosida jismoniy – madaniy tarbiya tizimiga yo'naltirishda murrabiyilar oldiga turgan quyidagi vazifalarni keltiramiz:

O'quvchi va murabbiy faoliyatini multimedia vositalari asosida jismoniy – madaniy tarbiya tizimi qonuniyatlariga moslashtirish;

Jismoniy – madaniy tarbiya jarayonini amalga oshirishda har bir o'quvchini o'quv tarbiya jarayoniga jalb qiladigan va sog'lom fikrlashga o'rgatadigan interfaol usul va usublardan foydalanish;

Jismoniy – madaniy tarbiya jarayonida turli xil interaktiv usullarni qo'llash va sog'lom muhitga erishish uchun multimedia vositalaridan foydalanish;

O'zbekistonda yagona jismoniy – madaniy tarbiya tizimi asosida faoliyat olib borish va hozirgi kunda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim muassasalari (boshlang'inch ta'lim, maktab, kasb hunar kolleji, oily o'quv yurtlari) uchun yaxlit jismoniy – madaniy tarbiya tizimini yo'lga qo'yish va boshqalardan iborat.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlangan jismoniy – madaniy tarbiya vazifalarini “murabbiy – o'quvchi – oila” ijodiy hamkorligini multimedia vositalari asosida hal etishi o'quvchi shaxsining kelajakda sog'lom inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdullayev Abduqayum Abdulkayevich

TVChDPI “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsent k. mudiri v.b

Bugungi kunda ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim darajasiga nisbatan kompetensiyaviy yondoshuvni talab etadi.

Hozirda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi usullar interfaol usullar nomi bilan yuritilmoqda. Quyidagi ta'lim amaliyotida interfaol usullaridan “Aqliy hujum”, “Klaster”dan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

Bu jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta'limni sifatini oshirish orqali, uni samaradorligini ta'minlashdir.

Ma'lumki jismoniy tarbiya darslarida tushuntirish, ko'rsatish, amalda bajarib ko'rish uslubiyatlaridan keng foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish, o'qituvchilarni aniq tafakkurini shakllantirish qaratiladi. Jismoniy tarbiya ta'limida reproduktiv ta'lim (harakatlarni namuna asosida o'zlashtirish) o'qituvchiga o'zlashtirib kelgan usullar asosida bir turdagi andozadagi vaziyat bo'yicha harajatlarni o'zlashtirishga imkon beradi. O'quv materialini aniq tushunarli qilib qayd etilgan o'quv mahsulotlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilib alohida qismlarga ajratiladi.

Ta'lim va mashq qilishning qidiruv modellari jismoniy tarbiyani mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro aloqasi, shaxsning tadqiqotchilik holatiga hamda faol-ijtimoiy faoliyatiga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Ma'lumki ta'lim tizimi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy isloxlarning barcha bo'g'inlarida muhim kasb etadi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturida oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar tizimidan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirishga erishish deb takidlangan.

Shu boisdan ham jismoniy tarbiya mutaxassislarini innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyalash ta'lim sifatini va kadrlar tayyorlash saviyasini oshiradi.

Bulajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini o'z mutaxassiliklari bo'yicha innovatsion texnologiyalar asosida tayyorlashni kompleks ravishda amalga oshirish kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» 3-bandida ham «Ta'lim dasturlarini tanlashga tabaqalashtirishga yondashuv zarurligi alohida ko'rsatilgan. Hozirgi vaqtda chet el ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish asosida yangi loyihalarni yaratish nihoyatda muhimdir. Bu borada jismoniy tarbiyada katta imkoniyatlar borligi va shu imkoniyatlardan foydalanish innovatsion texnologiyalardan foydalanmay turib o'zlashtirishda yuqori samaraga erishish mumkin emas.

Shu bois oldimizda innovatsion texnologiyalarni o'rganish va tahlil qilish, ularni ma'lum qonuniyatlarga bo'ysundirish va qaytadan ta'lim tizimiga joriy etish kabi murakkab va ko'p bosqichli vazifalar turadi.

Jismoniy tarbiya darslarini innovatsion texnologiya asosida o'tkazilishi o'z oldiga o'qitish shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishini jismoniy imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimli usulidir.

Jismoniy tarbiya darslarida dars mavzulariga ishlov berish usullari tasnifi (masalan jismoniy tarbiya darsi mashqlarni yangi usullar yordamida o'zlashtirish, ishlov berish texnologiyasini) bildiradi. Ta'lim texnologiyasi esa ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berish va ularning ongini rivojlantirib borish san'ati, mahorati va usullari majmui to'g'risida ta'minot degan ma'noni anglatadi.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion texnologiya metodlari (uni dastlabki tushunishda) dastlab ta'limni reproduktiv darajasi (harakatni namuna asosida o'zlashtirish) ni egallash uchun ishlab chiqilgan edi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishdan ko'zlagan maqsad: birinchidan o'qituvchilarni dars jarayonida o'quvchilarni bilim faolligini, ijodiy mustaqilligini, esda saqlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan o'qitish va o'rganishning noan'anaviy (yangi) usullari bilan qurollantirish, ikkinchidan: ularni o'qituvchilarning sezgi, idrok, tasavvur, xissiyot, idoraviy xarakter kabi ichki ruxiy (mixik)

faoliyatini ko'chaytirish va dunyoqarashini tarkib topdirish aqliy rivojlanishga ko'maq beradigan o'qitish va o'rganishning yangi noan'anaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyani bog'lanishi, bu shubhasiz ta'limga o'ziga xos innovatsion yondashuvidir. Jismoniy tarbiya innovatsion texnologiyada fikrning ifodasi, ta'lim sohasida ta'lim jarayonini standartlashtirish bilan aniqlanadigan texnokratik ilmiy ongning tasviridir.

Shunday ekan bugungi jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'limning asosiy maqsadi va mazmuni tashkil etadi. Maqsadga yo'naltirilgan, joriy natijalarni diagnostik tekshirish, ta'limni alohida-alohida o'rgatuvchi epizodlariga bo'lib chiqish, kabi ta'lim jarayonini to'zishning barcha xususiyatlarini qayta tiklanadigan ta'lim sikli jarayonini tuzishning barcha xususiyatlarini qayta tiklanadigan ta'lim sikli g'oyasiga mujassamlashtirish movfiq bo'ladi. U quyidagi asosiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiyada ta'lim maqsadini umumiy tarzda qo'yilishi;

Jismoniy tarbiyada ta'lim maqsadlarini umumiy tarzda qo'yishidan aniqlashtirishga o'tish;

Jismoniy tarbiyada ta'lim olayotganlarning bilim darajasini dastlabki baholash;

Jismoniy tarbiyada o'quv sohasi bo'yicha bajariladigan ishlar majmui.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida natijalarni baholash.

Ana shunday qayta tiklanadigan tuzilma tufayli o'quv jarayoni modeli maqsadlarining shajarasi quyidagi tipik usullarni o'z ichiga oladi;

Jismoniy tarbiyani umumiy qoidalarini o'rganish. Maqsaini va mashg'ulotlarda qaraladigan bilimlar sohasini o'rganish fanning mazmunini ko'rsatadi xolos. Ammo jismoniy tarbiyada o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishganlik haqida fikr yuritish uchun qiyinchilik to'g'diradi. Shu boisdan ham o'quv maqsadlarini u yoki bu mavzu orqali amaliyotga nisbatan instrumental bo'lolmaydi.

O'quvchilarni jismoniy mashq jarayoni bilan tanishtirish yoki shartli belgilangan mashqlarni uslublari bilan namoish qilish. Maqsadi pedagog tomonidan ana shunday qo'yilishi uning shaxsiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib qoladi.

Jismoniy tarbiyada maqsadlarni o'quvchilarning intellektual emotsional, shaxsiy rivojlanishning ichki jarayonlari orqali qo'yish.

Kundalik amaliyotda jismoniy tarbiya mutaxassisi va o'quvchi uchun maqsadlarni alohida-alohida ifodalash qabul qilingan.

Bu mantiqqa to'g'ri keladi, chunki ta'lim pedagogni o'qitish bo'yicha va o'quvchini o'qish buyicha xamkorligidagi faoliyatdir.

Bunda maqsad o'qituvchi faoliyatiga ta'luqli o'rgatmoq, tushuntirmoq, namoish qilmoq, xikoya qilmoq ta'lim oluvchi o'quvchilar harakati orqali ifodalangan rejalashtirilgan ta'lim natijalarini vazifa deb ataladi.

Yuqorida yuritilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida, quyida boshqotirma, sport topishmoqlari, krossvord, mantiqiy savollardan namunalaridan foydalanish lozim.

BOSHLANGICH SINIF TEXNOLIGIYA DARSLARINI TASKIL QILIB UTKAZISHDA INTRFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING YO'L VA USULLARI

Xayitova N. B.

BuxDU BTU 4-kurs iqtidorli talaba

M Tilavova

Ilmiy rahbar: BuxDU BTMsi kaf si dotsenti

Bugun asrlarga tatigulik ulkan o'zgarishlar, tarixiy voqealar va ma'naviy kashfiyotlarga boy bo'ldi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sodir bo'layotgan islohotlar shaxs tafakkuri, ma'naviy-madaniy saviyasi va kasbkorlik faoliyati bilan bog'liq ravishda amalga oshirilmoqda.

Ta'limning mazmuni shunchaki o'qitish, bilim berishdan iborat emas. Ta'lim mazmuni shaxs ongining shakllanishi, tarbiyasi, manaviyati va uning ijodkorligini zamon ruhi bilan hamohang bo'lishiga yo'naltirish hamda o'z kasbining fidoiysi bo'lib xizmat qiluvchi yetuk kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Bu jarayonni bir tizim deb qaraydigan bo'lsak, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchidan tashqari unga quyidagi tashkil etuvchi elementlarni ham kiritish mumkin: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, talim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari, monitoring va baholash. Ta'lim jarayonini tashkil etishda yuqorida sanab o'tilgan elementlarning barchasi muhimdir. Ulardan birortasi chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi. Demak, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi.

Ta'lim maqsadlarini boshqacha tarzda o'quv maqsadlari, deb ham atashadi. O'quv maqsadlari ta'lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma'lumki, jonli ta'lim jarayonida ikki tomon: ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi ishtirok etadi. O'quv maqsadlari ta'lim jarayoni ishtirokchilarning qaysi bir tomonidan qaralishiga qarab o'rganish va o'rgatish maqsadlarga ajratiladi. Ta'lim jarayoni natijasida, ta'lim beruvchi, ya'ni o'rganuvchining nimaga erishgani muhim bo'lgani uchun kelgusida o'quv maqsadlari deganda, o'rganish maqsadlarini tushunamiz.

Boshqacha qilib aytganda, o'quv maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to'g'ri tanlash ta'lim jarayoni uchun o'ta muhimdir.

O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni ifodalaydi.

Demak, ta'lim jarayonida interfaol usullarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini ta'minlovchi, ta'lim oluvchilarning faolliklarini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi asboblari, materiallar, jarayonlar nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari buyumni ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar. O'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki, asosan, material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, jarayonlarning izchilligini ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat ta'limida eshitish, ko'rish qobiliyati va harakatlantiruvchi xotira ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarda darsdan darsgacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda eslab qolish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat malaka va ko'nikmalarini o'rgatish natijalari ko'p jihatdan psixologik jarayonlarning rivojlanganligiga, bosh miya nazorati ostidagi mushak harakat apparatining takomillashganligiga bog'liqdir.

Texnologiya ta'limining to'g'ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda turli psixologik holatlar: faollik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon

bo'ladi. Texnologiyada shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi.

Umumta'lim maktablarida ta'limning zamonaviy texnologiyalari interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda. Quyida texnologiya darsisamaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, mehnat darslarida qo'llaniladigan metodlar haqida ma'lumotlar beriladi:

"Aqliy hujum" metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

“Klaster” metodi yordamida o’quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu metod turli xil g’oyalarni o’rtasida aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Klaster metodidan o’quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

“Fikriy hujum” metodi o’quvchilarning dars jarayonida faolliklarini ta’minlash, ularni bir xil standart tarzda fikrlashdan ozod qilish, erkin fikrlashga rag’batlantirish, muayyan mavzu yuzasidan turli-tuman g’oyalarni to’plash, ijodiy yondashishga o’rgatish uchun xizmat qiladi. Fikrlashning shiddatli hujumi metodning mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o’quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga ko’maklashishdan hamda o’quvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g’oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat. Bu metodning asosiy tamoyili va sharti har bir o’quvchi tomonidan o’rtaga tashlanadigan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil mutoyibalarni rag’batlantirishdan iborat. Bundan ko’zlangan maqsad, o’quvchilarning dars jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir.

“To’rt pog’onal” metod - amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish jarayonining to’rt pog’ona doirasida kechadigan metodidir. Bu metod ta’lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo’l ko’nikmalarini tez va mukammal o’rganib olishlariga yordam beradi. “To’rt pog’onal” metod qo’llanilganda, ta’lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so’ng takrorlaydilar va to’rt pog’onal o’zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi tushuntirish: nima qilish kerakligini ko’rsatib berish; ko’rsatilgan tarzda qaytarish; mashq qilish kabi bosqichlardan iborat. “To’rt pog’onal” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

“Tushuntirish” bosqichida muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga avval oddiy operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.

“Nima qilish kerakligini ko’rsatib berish” bosqichida muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko’rsatib beradi.

3. Uchinchi bosqichda ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog ko’rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi.

Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o’z fikrini bildirib, xatolarini to’g’rilab turadi.

“Mashq qilish” bosqichida ta’lim oluvchilarning hatti-harakati muhandis pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta’lim oluvchilar ish amallarini mukammal o’zlashtirganlaridan so’ng, uni mustaqil bajaradilar. “To’rt pog’onal” metodning asosiy belgisi-ta’lim oluvchilarning harakatlari muhandis-pedagog ko’rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidir.

Laboratoriya usuli – bu shunday ta’lim usulki, unda o’quvchi o’qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o’tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni anglaydi va tushunib yetadi. Laboratoriya usulining asosiy funksiyasi – yangi bilimlarni o’rgatish va rivojlantirish:

Bu usulni qo’llash orqali o’qituvchi o’quvchilarni quyidagi imkoniyat-lar bilan ta’minlaydi:

asbob-uskunalaridan foydalanish ko’nikma va malakalarini egallash;

mustaqil tadqiqotning yangi yo’llarini tanlash va ma’lum bo’lganlarini tekshirish;

amaliy malakalarni egallash: o’lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va ilgari olinganlari bilan taqqoslash.

Mashq usuli -o’tilgan materiallarni amaliyotda qo’llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko’p marotaba bajarishdir.

Ishlab chiqarish - mehnat mashqlari o’quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo’ladi:

birinchisi alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari,

ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko’zda tutilgan. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning innovatsion texnologiyalari keng qo’llanilmoqda. Mazkur o’qitish texnologiyalarni amalga oshirishda bir qator passiv, faol, interfaol va treninglardan keng foydalaniladi. Passiv metodlar turkumiga ma’ruza, hikoya, tushuntirish; namoyish, kitob bilan ishlash, illyustratsiya, videousul, to’rt pog’onal metod, laboratoriya, mashq, kabilar kiradi.

TA'LIMDA GENDER TENGLIK VA FARQLARNI INOBATGA OLIISHNING MUHIM JIHATI

Sharopiva Zarnigor Tolib qizi

BT 2-bosqich magistri

M.Tilavova

Ilmiy rahbar: BuxDU BTMsi kaf si dotsenti

Jamiyat hayotining qay darajada kechishi, rivojlanish sari qo'yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o'qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilik masalasi ham mazkur jarayonlarda munosabatlarni qonunan tartibga solinishi bilan ahamiyatli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda tub burilish yasadi. Mazkur qarorda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish yuzasidan yangi qonunlar ishlab chiqilishi muhim vazifa sifatida belgilangan edi. Belgilangan qonunlarning ishlab chiqilib, muhokama etilib, ma'qullangani qaror ijrosining ta'minlanganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda faol iste'molda bo'lgan gender so'zining tushunilishi va qo'llanish holatlaridagi noto'g'ri talqin va tasavvurlar mavjudligini aytish joiz. Xususan, genderni ayollar mavzusi yoki ularning ustunligiga oid tushuncha deb qarash kuzatiladi. Albatta, bu to'g'ri emas. Gender – bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti hamda faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ekanligi mazkur qonunda aniq yozib qo'yilgan. Bu masalaga oid tushunchalarga berilgan tegishli izohlarning mavjudligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Gender farqlar hamda o'xshashliklar ta'lim jarayonida qiz va o'g'il bolalar o'quv faoliyatidagi o'xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. U yoki bu jinsga mansublik o'quvchi shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi. Qiz va o'g'il bolalar orasidagi gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan tadqiqotlar amalda gender pedagogikasi hamda psixologiyasida bir qadar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo'nalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jinsga asoslangan ta'lim-tarbiya – o'quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy vositalar yig'indisidir. Bugungi kunda o'quv-biluv jarayonida gender farqlar va o'ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. O'quv-biluv jarayonida gender farqlarga oid o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta'lim natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislariga ayon bo'lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta'lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limning yuqori bosqichlarigacha bo'lgan bo'g'inlar zimmasiga yuklatilgan. Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtai nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat: 1) genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi; 2) gender tizimi nazariyasi. Genderga ijtimoiy jihatdan bo'lgan yondashuv quyidagilardan iborat bo'ladi: biologik nuqtai nazardan jins muayyan jamiyatda qaror topgan jinsga xos bo'lgan vazifalar va o'g'il hamda qiz bolalarning o'ziga xos xatti-harakatlari, o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlari. O'g'il va qiz bolalarning o'zaro hamkorligi tushunchasi R.Xof tomonidan kiritilgan bo'lib, o'g'il va qiz bolalarning ma'naviy-madaniy qiyofalarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga muvofiq ravishda gender muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning oliy ta'lim tizimida talabalar tomonidan o'rganilishi gender yondashuv asosida talabaqizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ko'mak beradi.

Gender nazariyasi ta'lim jarayonida o'g'il bolalar va qizlarga xos xususiyatlarni farqlash masalasiga turli nuqtai nazardan yondashadi. Bu yondashuvda jinslar o'rtasidagi asosiy farqlar ijtimoiy o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Ushbu farqlar jamiyatda ijtimoiy institutlar, me'yorlar va madaniy qarashlar vositasida shakllangan. Bunda gender farqlarning ijtimoiy jihatlari muhim ahamiyatga egadir. Gender tabaqalashtirish jamiyat va ta'lim tizimida ijtimoiy-pedagogik jihatdan insonparvarlik tizimini rivojlantirishga asos bo'ladi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Dilova Nargiza Gaybullaevna

Buxoro Davlat Universiteti p.f. bo'yicha falsafa doktori (Ph.D)

Raxmatullayeva Nilufar Komiljonovna

*Buxoro Davlat Universiteti "Maktabgacha
va boshlang'ich ta'lim" 1-kurs magistranti*

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,
eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,
eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!

Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda O'zbekistonni jahonga yuz tutishida va barcha sohalar bo'yicha rivojlanishda oldinda borayotgan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olishidagi asosiy talab - yoshlarga berilayotgan bilimning sifati bilan belgilanmoqda. Bu haqda O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqida "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi" 10 deb ta'kidlab o'tdilar. Zero ushbu dasturul amalga asosan har bir O'zbekiston fuqarosi uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakkam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Yosh avlodga sifatli ta'lim berishga to'liq erishishda eng qisqa yo'l raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rganishdan iborat ekanligidan kelib chiqib, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirishni zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida yurtboshimiz tomonlaridan 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nomlandi. Ushbu yil davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida horijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, o'quvchilar bilimini xalqaro baholash standartlari talablari asosida baholash to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosini to'liq ta'minlash va belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlash har bir mahoratli va kompetentli o'qituvchi zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklaydi. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy ta'lim yondashuvlariga asoslanish, o'quvchiga do'stona munosabatdagi muhitni yaratishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning yaxlit manzarasi sifatida o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) - o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan bo'lib, kelgusida mamlakatimiz ta'lim sifatini baholash bo'yicha quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko'zda tutildi:

- PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

- TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

¹⁰ O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqidan

- PISA (The Programme for International Student Assessment) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- TALIS (The Teaching and Learning International Survey) - umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari va o'qituvchilari bilan so'rovnomma o'tkazish orqali maktabda o'qitish va ta'lim olish jarayonlari samaradorligini baholash.

PIRLS - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir.¹¹

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholashga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida dars maqsadlari o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga asoslangan holda belgilanadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishishni kafolatlaydi, o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorligi va o'quv harakatlarini aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilar bilimini baholash, o'qitish va ta'lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini qamrab oluvchi mavzular, ko'rsatmalar, sinf xona muhiti, baholash mexanizmi va texnik qo'llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta'minlash, ko'zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi.

O'quvchilar bilimini baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish ("Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

- o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;

-ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rganish;

-har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimini oshirib borishni boshqara olish;

-o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish;

-qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Matnini tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi

Matnini o'qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma'lumotlarni to'plash;

Xulosa chiqara olish;

G'oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg'unlashtirish;

Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabilar.

Natijada o'quvchilarda: matnini to'liq tushunish, matn elementlarini baholash, g'oyalar va axborotlarni tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash, axborot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, shaxslararo va hamkorlik, muammolarni aniqlash, shaklga solish va yechimini topish, o'z-o'zini yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi hayotiy ko'nikmalar shakllana boradi.

Boshlang'ich ta'limda o'qish fani o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Unda ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligi ko'zda tutiladi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qusur haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilar og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojida muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda yaratilgan, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan, badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlari shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emosional (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtai nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

O'qish fani bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining majburiy ta'lim bitiruvchilari PIRLS asosida:

¹¹ Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi 2019 y. T.

o'qish fanining estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati, so'zning ifoda imkoniyatlari, so'z orqali inson his-tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi, xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalari, adabiy tur va janrlar haqida umumiy bilimga ega bo'lish;

o'rganilgan asarlarga mustaqil ravishda baho berish; o'rganilgan adabiy-nazariy tushunchalarning qo'llanilishiga doir test topshiriqlarini bajarish;

turli manbalar (darslik va o'quv qo'llanmalar, lug'at, bolalar adabiyotlari)dan foydalanib, adabiy mazmundagi axborotlarni izlash va foydalanish;

o'rganilgan xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, jahon bolalar adabiyoti namunalaridan tegishli xulosalar chiqarish, ibrat olish, yaxshi insoniy fazilatlarni o'ziga singdirish, o'rganilgan maqol, she'riy satrlar va boshqa badiiy asarlardan kundalik og'zaki so'zlashuvlarda o'rinli foydalanish, asar va uning qahramonlariga yozma va og'zaki tavsif berish, badiiy ijod namunalari (nasriy, she'riy)ni ifodali o'qish, ularning mazmunini tushunish, anglash va idrok etish. Badiiy matn yoki uning parchasini ifodali yod aytish, qayta hikoyalash, o'zgalarga tushuntirib berish, munosabat bildirish va baholay olish, og'zaki va yozma nutqni boyitish, rivojlantirish, tushunarli va ravon, og'zaki hamda yozma nutqqa ega bo'lish;

o'quvchilarga adabiy ta'lim (o'qish) adabiy o'qishlar tarzida o'rgatiladi. Bolaning o'qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasi shakllantiriladi, og'zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish o'rgatiladi. Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ya'ni bir daqiqada nechta so'zni ravon o'qiy olishi belgilanadi. Bolaning matn mazmunini to'liq uqib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Adabiyotlar

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqidan

Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi 2019 y. T.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: www.tdi.uz.

OILADA YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI TARBIYALASHNING MA'NAVY ASOSLARI

D.S.Davronova
p.f.f.d.,(PhD)

Bugungi kunda texnogen sivilizatsiya va globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olg'a surilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ta'kidlanganidek: "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [1.4/5]. mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, globallashuv, integratsiya jarayonida barcha sohalaridagi shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot insoniyatni ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Bu o'rinda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor berish davr talabidir. Shu bois, ularning iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intellektual salohiyati, kreativ va sog'lom tafakkurini jamiyat talablariga mos rivojlantirishdan davlat va jamiyat manfaatdordir.

Xo'sh ijtimoiy faollikning o'zi nima? Nima sababdan bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga davlat ta'lim siyosati darajasida qaralmoqda? – degan haqli savol tug'iladi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili va lug'atlarda izohlanishicha "Ijtimoiy faollik-ijtimoiy sub'ektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi" demakdir. Shuningdek, "ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishni asosiy sharti hisoblanadi" [3;]

Bizning nazarimizda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda oiladagi ma'naviy muhit, ijtimoiy psixologik jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, ijtimoiy faollik-shaxsning jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, yaratuvchanlik hamda insonparvarlik siyosati mazmun va mohiyatini ongli ravishda bilishi hamda unga kreativ yondoshuv asosida amal qilishi demakdir. Ijtimoiy faollik natijasi shaxs ongi va tafakkuri mahsuli sifatida o'zini amaliy faoliyatda namoyon etadi. Aynan oilada olib borilayotgan tarbiyaviy

jarayon negizi ham yoshlarning g'oyaviy –siyosiy, ijtimoiy ongini boyitishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kun yoshlarini “o'tmishning ertaklari” bilan tarbiyalash ancha mushkul, chunki akseleratsiya davrida ulg'ayayotgan bugungi avlod “real voqealarga asoslangan” ma'lumotlarga tayanadi. Shunga javoban biz oiladanoq yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.

Buning uchun oilada tashkil etilgan ta'lim tarbiya jarayonida qo'yidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi:

oilada sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish;

bolalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash va kamolga yetkazish sifatini oshirish;

oilalarda sog'lom ma'naviy-ahloqiy muhitni shakllantirish, bolalarni tarbiyalash uchun munosib shart-sharoitlar yaratish;

Tajriba va kuzatishlarimiz asosida shu narsaga amin bo'ldikki, mazkur ustuvor yo'nalishlar zamirida yoshlar ijtimoiy faolligining to'rtta tarkibiy komponentlari:

-yoshlarda globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishga;

-umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik asosida zamonaviy keng dunyoqarash va bag'rikenglikni rivojlantirishga;

-ma'naviy-ma'rifiy tarbiya negizida yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirishga;

-kreativ tadbirkorlik tafakkurni tarbiyalash zamirida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, oilalarda sog'lom ma'naviy-ahloqiy muhitni shakllantirish, bolalarni tarbiyalash uchun munosib shart-sharoitlar yaratishda jamiyatdagi barcha institutlar ya'ni, oila, ta'lim muassasalari, tegishli vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 70-modda

2. Tillayeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq in-ti, 2009. - 166 b.

3. Pedagogik atamalar lug'ati. / O'zbek, rus, ingliz tillarida/ O. Musurmanova va boshqalar. T.: “TURON – IQBOL”, 2019.844

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI JISMONIY TARBIYASINING IJTIMOIIY-RUHIY ASOSLARI

Do'stov Baxtiyor Akmalovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunnig dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bu hayotning hamma jabhalarida turli darajada o'zini namoyon eta boshladi, jumladan tarbiyaning asosiy qismlaridan biri jismoniy madaniyatda ham. «Jismoniy tarbiya, - deyiladi O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuni»da, - O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunida, - O'zbekiston Respublikasi xalqlar milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va madaniy, ma'naviy kamolatining muhim vositasi» ekanligi ta'kidlanadi.

Tarbiya doimo jamiyat uchun muhim vazifani bajargan va kishilarning turli avlodlari o'rtasidagi aloqa va vorislikni amalga oshirgan tarbiyaning o'z maqsadi va vazifalari, mazmuni, shakli va usullari bo'yicha davrlarosh o'zgarib borgan. Bu o'zgarishlar kishilar o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Shundan kelib chiqib, tarbiyada Vatan himoyasiga tayyor, mehnatga ijtimoiy faoliyatga, hayotga har tomonlama rivojlangan komil insonni tarkib toptirishga e'tibor berish kerak. Jismoniy ma'daniyat tarbiya jarayonida bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun tarbiyaning bir-biri bilan o'zaro bog'langan har birining mazmuni, vositalari, shakl va usullarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish kerak bo'ladi. Bizning ilmiy tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan xarakterli va milliy o'yinlarida umum ta'lim muassasasi tayyorlov guruxi bolalarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashda ham ana shu o'ziga xosliklarni hisobga olish zarurligi kelib chiqadi. Pedagogikada qabul qilingan yosh davrlaridan biz uchun eng muhimi 7-9 yoshidagi bolalar. Har bir yosh guruhiga jismoniy va ruhiy rivojlanishining muayyan darajasi mos keladi.

7-9 yoshidagi bolalarning xususiyatlari. Kichik maktab yoshida o'qish bolaning butun hayot tarzini o'zgartiradi va unga yangi talablar qo'yadi. Chunki bog'cha yoshida bolalarda, asosan nutqining rivojlanishiga, ahloq me'yorlarining shakllanishiga asosiy e'tibor beriladi. Ularni tarbiyalashda maxsus tashkil etiladigan o'yin faoliyati katta o'rin tutadi. Bolaning rivojlanishi uchun didaktik ta'lim beruvchi va jamoa bo'lib birgalikda harakat qilishga o'rgatuvchi o'yinlardan foydalaniladi.

7 – 9 yoshida organizmning umumiy yetilishi fonida bolalarning harakat sohasi jadal rivojlanadi. Bu davr sport bilan, jismoniy madaniyat bilan faol shug'ullanish uchun juda qulaydir.

Mana shu jihatdan bolaning aynan shu xususiyatlarni rivojlantiruvchi xarakterli va milliy o'yinlaridan foydalanish tarbiyada ko'zlangan maqsadga yetish imkonini tezlashtiradi.

Jismoniy rivojlanishning jadalligi skeletning tez o'sishi, umurtqa pog'onasini bukikligining shakllanishi, yurak, tomir tizimining rivojlanish xususiyatlari va boshqalar bolaning oqilona tashkil etilgan va butun hayot rejimini talab etadi.

Turli yoshdagi har xil jinsdagi bolalar ruhiyatining rivojlanishi, o'zgarishlari, ularning axloqiy va jismoniy kamol topishiga ijobiy ta'sir qiladigan omillar, shart-sharoitlarni bilish, ulardan unumli foydalanish xozirgi kunlarda o'qituvchilar, jismoniy madaniyat mutaxassislari uchun nihoyatda zarur bo'lib qoldi.

Har bir yosh davrining ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy madaniyat darslarini olib borish orqali bolalar ongiga, ruhiga ta'sir o'tkazish o'z vaqtida o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Boladagi e'tiqod, muomala, muloqot, mustaqil xulq - atvorni shakllantirish, ulardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni jismoniy madaniyatda milliy xalq o'yinlari orqali xam tarbiyalash mumkin, bunda ularga yosh psixologiyasi xussiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli va milliy o'yinlarining bolalarning ruhiy jihatdan kamol toptirishda ahamiyati ulkan. Umuman, o'yinlarning ahamiyati haqida ko'pchilik ruhshunoslar va pedagoglar qimmatli fikrlarni aytib ta'kidlab o'tishgani ma'lum. Eng sodda ruhiy jarayonda eng murakkab ruhiy jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarni shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynashini jahon psixologlari ham turli davrlarda tur-licha yo'llar bilan isbotlab berishgan .

O'yinlar bolalar uchun voqe'likni aks ettirish vositasidir. Bu voqe'lik bolani qurshab turgan voqe'likdan ancha qiziqarli. O'yinning qiziqarliligi, uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar xayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bolalar hayotida ham o'yin xuddi shunday ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin.

O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofda voqea-hodisalarga munosabatining o'zgarishida, shuningdek, o'yin mazmuni ham syujeti shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushining tobora to'g'ri aks ettirishida ko'rinadi. Shuning uchun bolalarda o'yin qobiliyatining o'sishi o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi, balki kattalarning, tarbiyachilarning ta'siri natijasi atrof muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslar aro munosabatlarning mohiyatini tushuntirish va hokozalar natijasida amalga oshadi.

Katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi narsalar ularni harakatini umulashgan xolda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatini rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning hatti-harakati qanchalik ihsam va umumlashgan bo'lsa, ular kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishda shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-birlariga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o'yinning va o'yin faoliyatining diqqat markazida bola kattalarning faoliyati va o'zaro munosabatini, muomalasini o'ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko'ra o'yin ijtimoiy axamiyat kasb etib, bolada insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni, xalqning ijodiy boyliklarini o'rganishga imkoniyat yaratiladi, oqibatda uni shaxslar aro muloqotlarning mohiyatiga olib kiradi.

Bolaning ruhiy o'sishida o'yinning ahamiyati. Bolalarda harakatning o'sishida o'yinning ta'siri xaqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yin tashkil qilishning o'ziyoyoq bolaning karakterini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadi. ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulotlar orqali o'zlashtirishadi. O'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati hatti-harakatini amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, o'yin sub'ekt (bola) onginging dastlabki ob'ekti darajasiga o'sib o'tadi. Bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan o'yinni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu o'yin orqali kattalarga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi, shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylanib boradi va yangi shakldagi

harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan esda tutish ehtimoli yaqqol voqe'likka aylana boshlydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni, xalq o'yinlarini ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarini bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esda tutish jarayonlariga aylanadi.

Bolalar darsining boshqa shakllariga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlashni eslab qolish va esda tutish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Bundan esa shunday xulosa kelib chiqadi.

O'yin bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bo'lib, birtalay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi.

Shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, hatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning hulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ham, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ham, yuqori sinf o'quvchilarida ham o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini o'yinlar orqali ham tarkib toptirish mumkin. Chunki biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan milliy xalq o'yinlarida xulq ko'nikmalarni oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil 7-9 yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktab yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham boshqa sharoitlarda ham qariyb baravrlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan; musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga erishishlari ham mumkin.

O'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi bilan bog'liq holda narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki, shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tovchi narsalarning aksariyatidan o'yinlarda bevosita ob'ekt sifatida foydalanish mumkin.

Xalq o'yinlari faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatining yaqqol narsalar bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. Narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli, xususiyati, bosqichi, u kabilarni qisqartirish va umumlashtirish xisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishidagi mantiqan izchil, shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN KASBIY TALABLAR

G'afurova Mohira Yunusovna

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Sog'lom avlodni voyaga yetkazish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bog'chada boshlanib, maktabda sekin-asta jiddiylashib boradi. Aynan shu davrda jismoniy tarbiya faniga qiziqtirish orqali bolada jismoniy madaniyat shakllantiriladi. Tabiiyki, bu jarayonni qanchalik to'g'ri tashkil etish jismoniy tarbiya o'qituvchisining bilim va mahoratiga bog'liq. Xo'sh, bugungi kun talabiga javob beradigan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

Jahon tajribasida mazkur fanga shunchaki mashg'ulot o'tkazish emas, balki butun boshli tizim sifatida qaralgani bois mutaxassisga ham qator talablar qo'yiladi. Yevropada jismoniy tarbiyadan dars beradigan o'qituvchi nafaqat sportchi va pedagog, balki tibbiy malakaga ega, bolalarni yaxshi tushunadigan psixolog ham bo'lishiga e'tibor qaratiladi. U o'quvchilarni darsga qiziqtirishi, ular bilan muloqotda sabrli, ba'zan talabchan va qattiqqo'l bo'lishi talab etiladi. Pedagog ham sport ustasi, ham sog'lom inson sifatida bolalarga namuna bo'lishi kerak.

Respublikamizdagi maktablar misolida jismoniy tarbiya darslari sifati va fan o'qituvchilarining malakasini tahlil qilsak, afsuski, ularning aksariyati talabga javob bermasligini ko'ramiz. Darslarning ko'pi shunchaki, xo'jako'rsinga o'tilayotgandek.

O'quvchilarning barchasidan formada bo'lishni qat'iy talab qilgan o'qituvchi bolalarning oldiga bitta to'p tashlaydi-yu, 45 daqiqa o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Yoki o'quvchilar bilan «kelishgan» holda, darsni «offsayd»ga chiqaradi. Achinarlisi, bundan o'qituvchi ham, o'quvchilar ham mamnun. Qolaversa, ko'pchilik o'yilaganidek - jismoniy tarbiya fani shataloq otib yugurish, to'p o'ynatish degani emas, ushbu fanni o'tishdan

maqsad — tizimli mashg'ulotlar yordamida har bir bolada jismoniy madaniyat tushunchasini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

Shiddat bilan rivojlanayotgan asrimizda har bir kishi, ayniqsa, pedagog hayot talablariga javob berishi, zamon bilan hamqadam bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi ham kasbiga professional yondashib, o'z oldiga bo'lajak jahon chempionlari, hech bo'lmaganda, jismonan sog'lom insonlarni voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yishi zarur.

Darsni reja asosida olib boish o'quvchining har safar bir xil mashqlarni bajarib zerikishining oldini olish uchun eng to'g'ri yo'l.

Harakatli o'yinlar, estafetali musobaqalar bolalarning zavqini, darsga qiziqishini oshiradi. Natijada ularda jismoniy tarbiya darslari bahonasida ephillik, tetiklik, o'ziga ishonch shakllanadi. Biroq ayrim muammolar ham borki, ular darsning ko'ngildagidek o'tishi, o'qituvchining o'z mahoratini to'la namoyon etishiga xalal beradi.

Masalan, sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi. Har bir sinfda 35—45 nafargacha o'quvchi bor. Tasavvur qiling, 45 daqiqalik darsda har bir o'quvchiga 1-2 daqiqadan vaqt ajratish lozim. Bu esa ko'p sonli o'quvchiga ega sinflarda individual shug'ullanishga vaqt yetmaydi, degani. Tabiiyki, umumiy mashg'ulotlar bilan kifoyalanishga to'g'ri keladi.

Qolaversa, bolalarni tinchlantirish, ularning diqqatini jamlashga ham ko'p vaqt ketadi. Axir, o'rtacha 35 nafar ayni o'yinqaroqlik qilib, yerga ursa, ko'kka sapchiydigan yoshdagi bolalarni tartibga keltirish osonmas. Jismoniy tarbiya fani — harakatlar majmuasi. Demak, dars jarayonida kichik jarohat olish, kimgadir turtilib ketish kabi holatlar yuz berib turadi.

Jismoniy tarbiya fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylandi. Jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladigan Yevropa davlatlarida buning ilg'or usullari allaqachon ishlab chiqilgan. Masalan, o'quvchi darsda o'zi yoqtirgan sport turiga oid texnikani elektron vositalar yordamida o'rganishi mumkin. Yaponiyada esa bolalar 1-sinfdayoq tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib, imkoniyatiga mos sport turi bilan shug'ullanishi tavsiya etiladi. Deyarli barcha maktablarda basketbol, futbol va voleybol o'ynash uchun maydonlar, hatto suv havzalari ham mavjud. Salomatligi yomonlashgan o'quvchi bilan o'qituvchi alohida shug'ullanadi. Ya'ni, salomatlik uchun foydali bo'lgan sog'lomlashtirish mashqlari bajariladi. Buyuk Britaniyada jismoniy tarbiya darsi eng muhim fanlar — matematika va ingliz tili qatorida turadi. Maktablarda basseyn, kriket yoki futbol bilan shug'ullanish uchun maydonlar qurilgan. Bolalar o'ziga yoqqan sport turini tanlaydi, biroq ayrim maktablarda qizlar balet bilan shug'ullanishi majburiy.

Ha, individuallik muhim. Ammo jismoniy tarbiya darslarini universal tarzda o'tishning ham ijobiy tomonlari ko'p. Masalan, o'quvchi bir sport turi bilan kifoyalanmay, barcha ommaviy sport turlari texnikasidan xabardor bo'ladi, o'g'il-qizlar orasida uyushqoqlik, jamoaviylik yaxshi shakllanadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, darslarni interaktiv usullarda o'tish barcha fanlar singari jismoniy tarbiya fani uchun ham muhim. O'quvchilarga savollar yozilgan kartochkalar tarqatib, bilimni, estafetali musobaqalarda jismoniy imkoniyatlarini sinash mumkin. Har safar amaliy mashg'ulotlarga kirishish arafasida o'quvchilarga 5—10 daqiqa nazariy bilim beriladi. Shunda o'quvchilar faqat kuch emas, tafakkur ham jismoniy tarbiya fanining muhim bo'lagi ekanini anglaydi.

Ta'kidlash joizki, o'quv rejasiga 2 soatlik shaxmat o'yinining ham kiritilgani ayni muddaodir.

BOLALARNI JISMONIY TARBIALASHDA XALQ VA MILLIY O'YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Nurullayev Abduxamid Ro'zimboyevich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Respublikada amalga oshiralayotgan ishlar sirasiga insonlarning jismoniy madaniyatini yuksaltirish vazifasi ham o'rin egallagan. Bu esa Respublikada jismoniy madaniyat bilan shug'ullanuvchi barcha muassasa tashkilotlar uchun zaruriy vazifalarni belgilab beradi.

Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalari ruxida kamol topgan insonni tushunamiz.

Har kim o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy madaniyat va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o'ziga yoqqan ma'lum bir jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Xalqimiz farzandlarining jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jarayonida amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyatning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Jismoniy madaniyat jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi: a) sog'liqni mustahkamlash organizmni chiniqtirish va jismoniy rivojlanish darajasini hamda ish qobiliyatini oshirish; b) hayotga zarur bo'ladigan, jumladan, amaliy xarakterga ega bo'lgan harakat malaka va ko'nikmani egallash; v) kishining ma'naviy va irodali sifatini tarbiyalash; g) jismoniy sifat (tezkorlik, kuch, epcillik, chidamlilik) ni o'stirish; d) maxsus sport mashqini bajarish texnikasini egallash.

Shu bilan birga xarakterli va milliy o'yinlarini to'plash va ularni hayotga tadbiiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga ham katta ma'suliyat yukladi. Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni maktabgacha va umumta'lim maktab o'quvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda xarakterli va milliy o'yinlarining roli katta ekanligini qayta-qayta ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan xarakterli va milliy o'yinlarini avaylab-asrab keyingshi avlodga yetkazish yo'llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish bizning maqsadimizdir.

Milliy o'yinlarini xalqimizning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytiradi, hozirgi hayotga singdirish yo'llarini boyitishga yordam beradi.

Xarakterli va milliy o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, bolalarda aqliy, axloqiy va nafas tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlarga ham e'tibor berish zarur. 7-9 yoshidagi bolalar va kichik sinf o'quvchilari jismoniy madaniyatini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi xarakterli va milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak.

Bolalarda qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanib bilishga bog'liq. Chunki xarakterli va milliy o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, jismoniy madaniyaga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

15-16 YOSHLI VOLEYBOLCHILARNING TEZKORLIK KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MA'NAVIY VA AXLOQIY TARBIYALASH

Narzullayev Farrux Ashrapovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Har bir sport turida ijro etiladigan harakat malakasi negizida tezkor-kuch sifatleri hal qiluvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Masalan, voleybolda to'r ustidan xujum zarbasini ijro etish uchun tezkor-kuch sifati ushbu malaka muvaffaqiyatini ta'minlovchi omildir; kurashda esamazkur sifat xujum yoki qarshi xujum usullarini qisqa vaqtda katta kuch bilan qo'llashda as qotadi. Darhaqiqat, kuzatuv natijalariga ko'ra voleybol bo'yicha Jahon, Olimpiya, Ovro'pa, Osiyo va boshqa xalqaro musobaqalarda g'alabaga erishgan aksariyat voleybolchilar yuksak darajada rivojlangan tezkor-kuch qobiliyatiga ega bo'lganlar.

Voleybolda chidamkorlik sifati ham g'alabaga yetaklovchi asosiy manbalardan biridir. Bu borada taniqli tadqiqotchi-olim Yu.V. Verxoshanskiy (12) diqqatni jalb qiluvchi o'ta muhim ma'lumotlar keltiradi. Chunonchi, sport o'yinlarida texnik mahoratning nisbatan farq qiluvchi xususiyatlaridan biri – bu o'zgaruvchan musobaqa vaziyatida tezkor-kuch asosida ijro etiluvchi murakkab harakat malakalaridir. Aynan ushbu sifat hal qiluvchi vaziyatlarda o'z yetakchiligini namoyish etadi. Shu bilan bir qatorda uzoq muddat davom etadigan musobaqa jrayonida texnik malakalarni yuqori samarada ijro etish birinchi navbatda maxsus chidamkorlik sifati ga bevosita bog'liqligi isbotni talab qilmaydi. Yu.V. Verxoshanskiyning kuzatuvlariga qaraganda, voleybol bo'yicha Jahon chempionati ishtirokchilarining musobaqa davomida ijro etgan texnik malakalari musobaqaning 3-davrida o'z samarasini keskin susaytirgan. Ushbu vaziyat ana shu voleybolchilarning maxsus chidamkorligi yuqori darajada shakllanmaganligiga e'tibor qaratadi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, texnik mahorat samarasini musobaqalar davomida uzoq vaqt saqlab turishda maxsus chidamkorlik sifati alohida o'rin egallaydi.

Ma'lumki, maxsus chidamkorlik umumiy chidamkorlikni yaxshi rivojlangan holda samarali shakllanishi isbot qilingan.

Zimkin A.V ning (15) fikricha, maxsus chidamkorlikni rivojlantirish uchun voleybolchi maxsus texnik mashqlarni uzoq vaqt davomida, hatto charchash asoratlari mavjud bo'lganda ham, ijro etishi kerak bo'ladi. Umumiy chidamkorlik o'rtacha shiddatda ko'p hajmli mashqlarni (uzoq masofaga chopish, eshkak eshish, suzish, velosipedda yurish va hakazo) surunkasiga bajarish asosida shakllantiriladi.

Voleybolchilarni tayyorlashda va texnik mahoratini shakllantirishda egiluvchanlik sifati ham zarur omillardan biridir. Yuqori darajada rivojlangan egiluvchan qobiliyatiga ega bo'lgan voleybolchi «most» holatidan keskin halos bo'lish kabi texnik malakalarini mohirona ijro etishga muvaffaq bo'ladi.

Egiluvchanlik asta-sekin, uzoq muddatli mashg'ulotlar evaziga shakllanadi. Agar egiluvchanlikni rivojlantirishga oid mashg'ulotlar biroz to'xtatib qo'yilsa, bu sifat keskin yo'qolib ketishi yoki susayishi mumkin.

Voleybolda qo'llaniladigan usullar(texnik) malakalarni o'z egiluvchanlikni shakllantirib boradi. Lekin, buni o'zi ushbu sifatni to'laqonli rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Bu sifatni samarali takomillashtirish uchun mushak, pay, bo'g'imlarni cho'zish, egish, yoyish, siqish, burash kabi maxsus mashqlarni sekin-asta muntazam qo'llash kerak bo'ladi.

Egiluvchanlikni yoshlikdan boshlab shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda bu sifatni rivojlantirish ehtiyoqkorlikni talab qiladi. Zo'rma-zo'raki va keskin tarzda qo'llangan mashqlar mushak, pay, bo'g'imlarni shikastlanishiga, hatto og'ir jarohatga olib kelishi mumkin (23).

Malakali voleybolchilarni tayyorlashda, bundan tashqari chaqqonlik va kuch sifatlarini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Ta'kidlab o'tish joizki, o'quv-trenirovka jarayonida barcha jismoniy sifatlarni garmonik ravishda rivojlantirish mahoratli voleybolchilarni tayyorlash garovidir.

O'QUVCHINI SPORTGA QIZIQISHINI OSHIRISH SABAB VA MOTIVLARI

Kadirov Shoxrux Ne'matovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Ushbu determinantlar (faoliyatini tug'diruvchi va yo'nal-tiruvchi omillar) ruhiy faollikni boshqarib borishda navbatma-navbat bir-biriga o'rin bo'shatib berib turadi.

Ehtiyoj – odamning o'zi yashab turgan muhit bilan uning hayotiy faoliyati o'rtasidagi o'zaro munosabat muvozanatining buzilishi natijasida hosil bo'ladi.

Diskomfort, ya'ni noqulay sharoitni sezish, his etishdan boshlanadi. Bunday holat odamda izlanish faoliyatini uyg'otadi. U mana shu ehtiyojni iloji boricha tezroq qondirishga intiladi. Bi-nobarin, ehtiyoj bu asab-ruhiyat jarayonlarining harakatiga ta'sir ko'rsatishdir. Izlanish faolligining kutilajak natijasi komfort, ya'ni qulaylik holatiga qaytish hisoblanadi. Shuning uchun ehtiyojni qondirish jarayoni mustaqil asosiy qadriyat sifatida ahamiyat kasb etadi.

Motiv (sabab) – bu shunday bir ehtiyojki, unda ehtiyoj obraz-li bo'ladi, muayyan bir predmet shakliga kirib, moddiy narsaga ay-lanadi, predmetlangan ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunday qilib, motiv ehtiyojdan farqli o'laroq izlanuvchan faollikka emas, balki muayyan bir faollik predmetiga aniq yo'naltirilgan da'vat hisoblanadi.

Ehtiyojning motivga tomon rivojlanib borish bosqichida mu-ayyan bir predmet orqali texnik faoliyatni qayd etish sodir bo'ladi. Qayd etish shundan iboratki, inson o'z tasavvurida amalda o'ziniki bo'lmagan predmetni allaqachon egallab olgan bo'ladi.

Bu xilda ilgari keladigan ruhiy o'zgarish, real holat bi-lan ideal holat o'rtasida uzilish hosil qiladi. Bu esa odamda izti-robli va hayajonli his-tuygularning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Bayon etilgan tasavvurdagi o'zlashtirish bilan moddiy o'zlashtirish o'rtasidagi uzilish katta bo'lsa, insonda ehtiyojni amalga oshirish, uni qondirish zaruriyati shunchalik kuchli bo'ladi.

Maqsad – bu amaliy harakatlar ongli ravishda yo'naltirib turilgan taxminiy natijadir.

Maqsadga qaratilgan faoliyat u sodir etiladigan tashqi shart-sharoitlarni hisobga olmay iloji yo'q. Maqsad har tomonlama xabardorlikni taqozo etadi. U ta'lim va bilimni, maqsadga erishish vositalarining mavjud bo'lishini, ya'ni bilimlari, ko'nikma va malakalarni talab qiladi.

Tahlil va bashorat qilishning rivojlangan apparatini taqozo etadi. U ehtiyotkor bo'lishni, umidsizlikni yengishni, his-hayajonni o'ziga singdirishni, ruhiy zo'riqish holatini susay-tirishni, uni ongli ravishda boshqarib turishni talab qiladi:

Motivatsiya – bu organizmni faollik holatiga keltirishdir. Motiv – muayyan hatti-harakatlarni tanlab olishdir.

Murabbiylarga shunday bolalar bilan ishlashga to'g'ri keladiki, ularda muvaffaqiyatni qo'lga kiritish va faoliyatni yo'naltirishning asosiy ehtiyojlari shakllangan bo'ladi.

Masalan: a) ota-ona tomonidan o'z farzandi oldiga doim aniq va oson yo'l bilan qo'lga kiritiladigan maqsad qo'yilgan hamda ularga yordam ko'rsatib turilgan vaqtlarda, bunday bolalarda o'z maqsadiga erishish ehtiyoji past darajada rivojlanadi;

b) Ikkinchi tomondan, basharti ota-onalar bolalarning oldiga qiyin, lekin bajarsa bo'ladigan vazifa qo'yan bo'lsalar va bunda o'sha vazifani qanday bajarishni uning o'ziga qo'yib bergan bo'lsalar, keyinroq esa uni maqtab qo'yan bo'lsalar, bunday hollarda ko'pincha maqsadga erishish uchun juda katta ehtiyoj

shakllanadi. Bu ehtiyoj, o'z navbatida, bolaning mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatiga, sport faoliyatidagi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

«Motivatsiya» atamasi keng ma'noni bildirib va omillar, jarayonlarni degan ma'noni anglatadi ular turli vaziyatlarda odamlarning harakatchanligi yoki loqaydligiga sababchi buladi.

Ushbu jarayon sabablarini tadqiq etish natijasida odamlar nima uchun muayyan masalalarni hal qilayotgan vaqtda yetarli darajada tashabbuskorlik bilan harakat qiladilar va nima uchun biror ishni yoki qandaydir bir xatti-xarakatni ancha uzoq vaqt mobaynida bajaradilar degan savollarga javob topib, ularning sabablari izohlab beriladi.

Sportchilar sportning muayyan bir turi bilan shug'ullanishi sabablari bizning o'zimizning ham biror ishni bajarishga majbur qiladigan sabablarga o'xshash) g'oyat xilma-xil bo'lishi mumkin va ularni qandaydir muayyan yo'nalishlarga bog'lash ma'quldir. Sportchi qaysidir bir jamoaning a'zosi bo'lib qolishiga sabab bo'lgan motivlar bilan bir qatorda uni ochiq-oydin musobaqalarda qatnashishga hamda ochiq-oydin vaziyatlarda muayyan tartibda harakat qilishiga undaydi, motivlar xam har xil bo'ladi.

Muvaffaqiyat qozonishga o'zida juda katta ehtiyoj sezadigan bola bilan shug'ullanadigan murabbiy o'zida shunday ehtiyojni kamroq sezadigan bola bilan mashg'ul bo'lgan vaqtdagidan ko'ra o'zini boshqacharoq tutmog'i kerak. Keyingi xolatda bolani qayta tarbiyalash, uni har bir yutuq uchun rag'batlantirib turish, his-hayajon bilan uni qo'llab-quvvatlash hamda u o'z kuch-g'ayrati bilan yuqori natijalarga erishishi mumkin ekanligini ko'rsatib berish zarur.

Ilgari erishgan yutuqlari va o'zining mustaqilligi tufayli ancha aniq maqsadni ko'zlovchi xususiyati shakllanib qolgan o'smir bilan boshqacharoq ishlash lozim bo'ladi. Goho o'yinlarda yutqazib qo'yganda uni qo'llab-quvvatlash yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash havfi paydo bo'lganda unga dalda berish va uning ko'nglini ko'tarib qo'yishga to'g'ri keladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan bolalarda ko'p hollarda boshqalar bilan maxsus aloqa o'rnatishga bo'lgan ehtiyojning susayish jarayoni ham kuzatiladi.

SPORT RIVOJLANISH, HAR TOMONLAMA TARBIYALASH VA HAYOTIY TAJRIBAGA TAYYORLASH VOSITASI SIFATIDA

Fatullayeva Muazzam Azimovna

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Sport faoliyati jismoniy mashqlarni keng miqyosda qo'llashga asoslanganligi uchun ham sportchi organizmiga o'z-o'zidan sog'lomlashtiruvchi, mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega ekanligi ayondir. Jismoniy sifatlarni rivojlantirib borish, irodani tarbiyalash va mustahkamlash shaxsning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishiga imkon beradi. Sport mashg'u-lotlari jarayonida sportchi o'z funksional imkoniyatlarining yuqori darajasiga erishishi va unda juda ko'p boshqa foydali malakalarning hosil bo'lishi unga ayrim hayotiy vaziyatlarda vujudga keladigan muammolarni yaxshiroq hal qilishga yordam beradi va shu tariqa amaliy xususiyat kasb etadi.

Sportning sog'lomlashtirish vazifasi. Sportning ushbu vazifasini amalga oshirilishida ommaviy yoki bazaviy sport, ayniqsa, katta rol uynaydi. Bunda sport natijalari unchalik yuqori bo'lmasada, lekin kishining qo'lidan keladigan, bajarsa bo'ladigan mashg'ulot yuklari, mashg'ulotlar va musobaqalarning yuqori darajada his-hayajon tuyg'ulari bilan to'liq o'tkazilishi turli yoshdagi hamda har-xil ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan million-million kishilarni sportchilar safiga jalb kilish imkoniyatini beradi.

Inson organizmi, uning qalbi va hayotiy kuchlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tufayli hamda ayni vaqtda bir talay his-hayajon manbai bo'lganligi uchun ham sport bo'sh vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilli dam olish va ko'ngil ochar tadbirlar tashkil qilishning keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi.

Sportning estetik hususiyatlari. Sport tomosha turi sifatida qadimdan mashhur bo'lib kelgan. Hozirgi zamon ommaviy kommunikatsiyasi (aloqa) turlari, ayniksa, televideniye dunyoning istalgan yerida bo'lib o'tayotgan musobaqalardan millionlab kishilarning bahramand bo'lishiga yordam bermoqda.

Sportga xos bo'lgan ob'ektiv xususiyatlar uning juda ko'p kishilarni qiziqtiruvchi tomosha turlaridan biriga aylanishi asosi bo'lgan. Musobaqalashish sharoitidagi yuqori ruhiy xolatlar, oldindan aytib bo'lmaydigan natijalar, o'z jamoasi yoki o'z mamlakati, millati, mintaqasi, sportchisi uchun qayg'urib, vatanparvarlik his-tuyg'ularining namoyon bo'lishi va boshqa shunga o'xshash xolatlar sportning yuksak darajadagi estetik ahamiyatini ko'rsatadi. Shuning uchun ham adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at va boshqa san'at turlarida sport o'z ifodasini topganligi tasodifiy emas.

Sport ijtimoiy munosabatlar sohasi ekanligi. Sport faoliyati jarayonida insonlar bir-birlari bilan quyidagicha turli munosabatlarga kirishadilar:

– raqobatchilik munosabatlari;

- hamkorlik munosabatlari;
- jamoa aʼzolari oʻrtasidagi munosabatlar;
- raqobatlashayotgan jamoalar orasidagi munosabatlar;
- sportchilar oʻrtasidagi munosabatlar va

a) sportchilar bilan sport hakamlari oʻrtasidagi munosabatlar;

b) sportchilar bilan tomoshobinlar oʻrtasidagi munosabatlar; v) sportchilar bilan murabbiylar oʻrtasidagi munosabatlar; Mazkur munosabatlarning hammasi birgalashib sportchining shakllanishiga yordam beradi va ular sportning shaxsga taʼsir koʻrsa-tish (shaxsning ijtimoiylashuvi) asosini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarning ushbu masala boʻyicha jiddiy shugʻullanish va unga katta eʼtibor berish zarur hamda amalda sport faoliyatidan ijtimoiy munosabatlarda har kanday shaklda boʻlsa ham namoyon boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik kerak.

Sportning insonparvarlik (gumanitar) vazifasi. Gumanitar – fransuzcha soʻz boʻlib, insonparvarlik, degan maʼnoni anglatadi. «Sport tili» baynalminal til boʻlganligi tu-fayli, sport kurashining mantiqi halollikdan iboratdir. Raqiblar izzat-nafsiga tegmaslik, ularni bir-biridan ajratmaslik, aksincha, ularning eng yaxshi fazilatlarini namoyon etishga yordam berish xususiyatiga ega boʻlganligi tufayli, sport faoliyati xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikka, ularni jipslashtirishga xizmat qiladi. Sportning insonparvarlik asoslarini mustahkamlash va kengaytirishda halqaro olimpiya harakatining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Sport koʻp qirrali ijtimoiy hodisa sifatida. Sport insonga badan tarbiya tarzida jismoniy taʼsir koʻrsatadiki, faol omillar insonni mehnatga va ijtimoiy faoliyatining boshqa zarur turlariga tayyorlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi, millatlararo va baynalmilal aloqalarni mustahkamlash hamda kengaytirishga yoʻnaltirilgan etik va estetik tarbiya vositalaridan biri boʻlib xizmat qiladi.

Sport musobaqa faoliyati sifatida. Musobaqalar, bellashuvlar, yaʼni muayyan chegaradagi raqobat-chilik sportning musobaqalashish faoliyatini ifoda etadi. Shu tariqa raqiblar oʻrtasidagi natijalar obʼektiv ravishda bir-biriga taqqoslanadi, hamda bir-biriga qarshi kurashayotgan shaxslar va jamoalarning muayyan qobiliyatlariga baho beriladi.

Sport faoliyatining ehtiyojlari, motivlari, tabiiy va ijtimoiy stimullari. Sportni hayotga tatbiq etadigan boʻlsak, sport – bu inson imkoniyatlari chegarasini kengaytirishga umumiy taʼsir etish, buning uchun maxsus tayyorgarlik orqali oʻsha imkoniyatlarni roʻyobga chiqarish, tobora oshib boradigan qiyinchiliklarni yengish bilan bogʻliq boʻlgan musobaqalarga maxsus tayyorlanish va ularda muntazam ishtirok etishdan iborat ekanligi; sport – bu muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladigan hissiyotlar olami ekani, bu jismoniy munosabatlarning murakkab majmuasi hamda shu bilan birga eng keng tarqalgan tomosha shakli ekanligi, hozirgi zamonning ommaviy ijtimoiy harakatlaridan biri ekanligini koʻramiz.

Sport sohasidagi oʻzaro munosabatlar. Sportning sohaga taʼsirini shakllantiruvchi omillardan biri bu sport faoliyati jarayonida va shu faoliyat bilan bogʻliq holda vujudga keladigan odamlar oʻrtasidagi musobaqalar, bu musobaqalarning koʻlami va keskinligidir. Mazkur musobaqalar hech qachon sof holda faqat shaxsiy musobaqalardan iborat boʻlmaydi. Ular har doim jamoalararo, millatlararo va halqaro sport musobaqalaridan iborat boʻlib, bu musobaqalar sportchini keng koʻlamdagi ijtimoiy munosabatlar olamiga olib keladi. Sport hayotining murakkab vaziyatlarida insondagi olijanoblik, halollik, oʻz raqibiga hurmat, musobaqa qoidalariga va sport etikasiga qatʼiy rioya qilish singari fazilatlarining namoyon boʻlishiga sabab boʻladi.

MILLIY HARAKATLI OʻYINLAR VOSITASIDA OʻQUVCHILARNI TARBIYALASH IMKONIYATLARI

Shoximov Jonibek Jalolovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi

Hozirgi zamon pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri xalq xazinalarini insonparvar pedagogik tarbiya tizimida qoʻllash va ulardan mohirona foydalanish, bu bebaho, xalqchil, maʼnaviy boyliklarni bolalarning har kungi taʼlim tarbiyaviy ishlariga aylantirishdan iborat. Shunga koʻra oʻsib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq pedagogikasi tajribalari yoshlarning xarakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadini xarakatli va milliy oʻyinlaridan foydalanish orqali 7-9 yoshli bolalarning jismoniy sifatlarini oshirish yoʻllarni aniqlash, rivojlantirish, xarakatli va milliy oʻyinlarning rolini oshirishning samarador shakllarini topish, xalq oʻyinlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash, aniqlash tashkil etadi.

Milliy va harakatli oʻyinlar

QOPQON

O'yinnint tavsifi. O'ynovchilar ikki guruhga bo'linadilar. Bir guruhdagilar aylana bo'lib tiziladi va qopqon bo'ladi. Ikkinchi guruhdagi bolalar sichqonlar bo'lib aylanadan tashqarida turadilar.

Qopqondagi guruhdagi bolalar qo'l ushlab quyidagi so'zlarni aytib, aylana bo'ylab yuradilar.

Voy qurg'ular, bu sichqonlar jonga tegdi, u beorlar nima ko'rsa –shuni yeydi, hamma yoqni ship-shiydon qiladi.

Shoshmang, sizlar badnafs zotlar qo'lga tushmayin qolmassiz.

Uyangizga qo'ydik qopqon, hammangizni tez ushlarmiz.

Ular so'nggi satrdagi so'zlarni aytib turgan joylarida to'xtaydilar va qo'llarini ushlagan holda yuqoriga ko'taradilar. Shu payt sichqonlar qopqon orasidan yugurib o'ta boshlaydilar. Rahbarning "Qopqon yopildi!" ishorasi bilan aylana hosil qilib turgan o'quvchilar cho'qqayib o'tiradilar va qo'llarini pastga tushuradilar. Bu holat qopqon yopilganini bildiradi. Shunda aylana ichidan chiqolmay qolgan sichqonlar tutilgan hisoblanadi. O'yin hamma sichqonlar qopqonga tushgunicha davom etadi. So'ngra ikkala guruhdagilar o'rin almashadilar va o'yinni takrorlaydilar.

O'yinning qoidalari. 1. Qo'llarni faqat "Qopqon yopildi!" ishorasidan tushirish mumkin.

Pedagogik ahamiyati. O'yin bolalarda jamoa bo'lib tashkiliy ravishda harakat qilishni tarbiyalaydi. Tashkiliy ravishda bir vaqtda va signal bo'yicha she'rni aytishga va o'yin boshiga bo'ysunishni talab qiladi. O'yin epchil va tez harakatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Metodik ko'rsatmalar. O'qituvchi "QOPQON YoPILDI!" ishorasini o'z vaqtida berish uchun sichqonlarning qopqon orasidan qanday yugurib o'tishganini diqqat bilan kuzatib turish, shuningdek, qopqon orasidan yugurib o'tishga yuragi betlamayotgan sichqonlarga dalda berishi lozim. O'yinni qiziqroq o'tkazish uchun aytiladigan so'zlarni o'quvchilarga oldinroq yaxshilab yodlatish lozim.

EShITIB TOP

O'yinga tayyorlanish. Bu o'yin yalanglikda, dalada yoki tekis ko'katzorda o'tkaziladi. O'ynovchilar oralarida 3 metr dan joy qoldirib, bir qatorga saflanadilar va ko'zlarini bog'laydilar. Onaboshi o'ynovchilardan taxminan 100-500 m nariroqda turadi.

O'yinning tavsifi. Onaboshi signal beradi (hushtak chaladi, qarsak uradi yoki qo'ng'iroq chaladi). Hamma signal berilgan tomonga qarab yuradi va onaboshiga yaqinroq kelishga harakat qiladi. Ikkinchi signal berilgach, hamma ko'z bog'ichini yechib tashlaydi va o'zi onaboshidan qanchalik uzoqda turganini kuradi. Onaboshiga eng yaqin kelgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Pedagogik ahamiyati. O'yin bolalarda diqqatni, eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'yin qatnashchilarini chaqqonlik, chidamlilik sifatlarini takomil-lashtiradi. O'yinni o'ziga xos harakati – onaboshiga yaqinroq kelish.

"MUZLATAMIZ" O'YINI

O'yinga tayyorlanish. O'yin ochiq tekis joylarda qish faslida o'ynaladi. U bolalarni sovuqdan qo'rqmaslikka, dadillikka va jasoratga da'vat etuvchi o'yindir. Umumiy yo'nalishi – harakatlar va og'zaki nutqni belgilaydi. Chegara uzunligi 10 metr, eni 5-6 m bo'lgan yo'lakcha muzlar hisoblanadi.

O'yin tavsifi. O'yinboshi – muzlarning biri "men burun yaxlataman", ikkinchisi "men qulok yaxlataman" deb bolalarni sovuqdan qo'rqitadi, bundan cho'chigan bolalar "panada qaltirashadi", o'ynagani chiqmaydilar. Shunda aka-uka o'yin boshilar o'z po'pisasidan mamnun bo'lib:

Botir bola bo'lsa- chi?

Yo'l safarga chiqsa- chi?

deb kerila boshlaydilar. Bu bolalarning izzat-nafsigaga tegadi. Ular g'ururi qo'zg'ab:

Biz do'qingdan qo'rqmaymiz, muzni pisanda qilmaymiz, deb yoppasiga qiy-chuvlashib muzlatadigan joydan o'tishga harakat qiladilar. Ikkala muz o'yinboshi bolalarni tutib muzlatishadi. Eng ko'p o'yinchini muzlatgan o'yinboshi g'olib hisoblanadi.

O'yin qoidalari. 1. Muz o'yinboshilari faqat o'zlari muzlatadigan joylarida muzlatishlari mumkin. 2. O'ynovchilar muzlarning joyidan yugurib, sakrab o'tadilar. 3. O'yin so'zlarini o'yinboshilar jo'r bo'lib, bir vaqtda aytishadilar, so'ngra muzlatadigan joydan o'tishlari kerak. 4. Muzlarning qo'li o'ynovchiga tegishi bilan takqa to'xtab qolishlari kerak.

Pedagogik ahamiyati. O'yinda bolalarni jamoada tashkiliy ravishda harakat qilishga o'rgatadi; shuningdek tashkiliy ravishda yugurishga, signal bo'yicha bir vaqtning o'zida harakat qilishga va o'yinboshiga bo'ysunishni tarbiyalaydi. O'yin yengil va tez harakat qilishga yordam beradi. O'yin mustaqillikni, diqqatni, ziyraklikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakatchan borib yugurishdir.

"QIDIRIB TOP" O'YINI

O'yinga tayyorlanish. O'yin sport mydonchasida, dam olish bog'larida o'tkaziladi. O'yinda to'rtta o'quvchi onaboshi qilib saylanadi.

O'yin tavsifi. O'qituvchi signal bergandan so'ng to'rtta o'quvchi o'yinboshi bo'lib o'girilib yoki bolalarga orqasini o'girib ko'zlarini yumib turgan holda quyidagi so'zni aytadilar.

Oyog'ingni tagida osh taxta,

Ko'zingga qumu, paxta

Shu so'zni aytib bo'lganlaridan so'ng orqalariga qaramaydilar, qolgan o'yinchilar esa har tomonga tarqalib yashirinib oladilar. Yashirinib olganlaridan so'ng ular turli joylarga, chuqurlarga, butalar, daraxtlar, predmetlar orasiga yashirinishlari mumkin. Shundan so'ng o'yinboshilar yashiringan o'yinchilarni maydon o'rtasiga olib keladilar. Agarda yashiringan o'yinchilarni bitta yoki ikkitasini topolsalar, unda o'yinboshilar o'rtaga chiqib biz yengildik, deb aytadilar. Maydon o'rtasiga olib keladilar.

O'yin qoidalari. 1. Ro'mol boshni siqmaydigan qilib bog'lanishi lozim. 2. Agar ro'mol adras bo'lmasa, ko'p qatlamlilik bo'lishi shart. 3. Har ikkala tomonda o'ynovchilarining yangi nomlari sir saqlanishi kerak. 4. Chertayotgan o'ynovchi og'ritmasdan sekin chertishi darkor.

Pedagogik ahamiyati. O'yin bolalarda diqqat-etiborni, sezgirlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi. O'yin chidamlilik, epchillik, tezkorlik, aniq mo'ljal olish sharoitlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakati sekin bildirmasdan yurishdir.

"ChORI-ChANBAR " O'YINI

O'yinga tayyorlanish. O'yin bolalarda ziyraklik va epchillikni tarbiyalaydi. Bu o'yinni turli fasllarda o'ynasa ham bo'ladi. O'ynovchilar oyoqlarini cho'zib, qo'llari bilan tizzalarini silab turishadi. Qur'a tashlab o'yinboshi aniqlanadi. Diametri 6-8 m li doira chiziladi, bolalar doira bo'ylab joylashadilar.

O'yin tavsifi. O'yinchilar baravariga quyidagi so'zlarni ijro qilishadi:

Chori chambar

Bari anbar

Onaqiz qayda

Ola-bula tog'da

Tog'man zuvman

Piltakash to'ti qiz

San tur, san chiq.

So'zlar tugashi bilan o'yinboshi ishora qiladi, hamma oyoqlarini tortib olishlari, ya'ni tizzadan bukishlari lozim.

O'yin qoidalari. 1. So'zlarni to'g'ri va chiroyli talaffuz qilishga e'tibor qilinadi. 2. Kim oyog'ini oxirgi bo'lib tortib olsa, unga raqsga tushish, qo'shiq aytish, she'r aytish vazifasi yuklatiladi. Z. Ishora bo'lmasdan oyoqni yig'ib olgan o'ynovchilar ham jazolanadi.

O'yinning pedagogik ahamiyati. O'yin bolalarda ziyraklik, epchillik, og'zaki nutqni, harakatni aniq bajarishni tarbiyalaydi. O'yinda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakati – oyoqni tez tortib olishdir.

YENGIL ATLETIKA SPORT TURI XUSUSIDAGI QIZIQARLI TARIXIY MA'LUMOTLAR

Usmonov Alisher Sharifovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Yengil atletika «Sport qirolichasi» deb nomlanadi va u eng ajoyib va ommabop sport turlaridan biri.

Yengil atletika — sportning eng ommaviy turlaridan biri. Turli masofalarga yugurish, sportcha yurish, sakrash (balandlikka, uzunlikka, uch hatlab, langarcho'p bilan), uloqtirish (nayza, lappak, bosqon), yadro irg'itish, ko'pkurash (o'nkurash, yettikurash) mashqlarini o'z ichiga oladi. Yengil atletikada 50 dan ziyod mashq bor, ulardan 49 tasi Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan (2000 yilgi Sidney olimpiadasida erkaklar Yengil atletikaning 22, ayollar 20 turida musobaqalashishdi). Bundan tashqari, Yengil atletika zamonaviy beshkurash va triatlon sport turlarining bir mashqini tashkil etadi, barcha sport turlarining mashg'ulot, ta'lim muassasalarining o'quv, harbiy-tayyorgarlik, salomatlik mashqlari, o'quvchi-yoshlarning «Alpomish» va «Barchinoy» sport sinovlari dasturidan joy olgan. Gomerning «Iliada», Ibn Sinoning «Tib qonunlari» va boshqa kitoblarda Yengil atletika mashqlariga oid ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi Olimpiada o'yinlarida (miloddan avvalgi 776 yildan milodiy 394 yilgacha) asosan Yengil atletika bo'yicha musobaqalar uyushtirilgan. Zamonaviy Yengil atletikaning rivojlanishida 19-asrda Angliyada (1837 yildan) musobaqalar, Afinada (1859 yildan) umumgrek o'yinlari o'tkazilishi va olimpiada tiklanishi (1896 yildan)ning ahamiyati katta bo'ldi. 1912 yilda Xalqaro havaskor Yengil atletikachilar federatsiyasi (IAAF) tuzilgan, unga 200 mamlakat a'zo (2001 yil; O'zbekiston Yengil atletika federatsiyasi 1993 yildan a'zo). IAAF 1977 yildan jahon kubogi (hozirgi kunda Gran-pri musobaqalari), 1983 yildan jahon birinchiligi musobaqalarini o'tkazib keladi.

O'zbekistonda Yengil atletikaga qiziqish 1885 yilda Marg'ilonda shu turga moslashtirilgan o'yingoh barpo etilgandan keyin kuchaydi. Toshkentda 1902 yildan Yengil atletika musobaqalari, 1919 yildan mamlakat birinchiliklari, 1927 yildan spartakiada o'tkazila boshlagan. O'zbekistonda 135 mingdan ziyod kishi 140 dan ortiq murabbiy qo'l ostida Yengil atletika bilan shug'ullanadi, murabbiylardan 3 nafari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi, 10 nafari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustozlari unvoniga ega (2001). O'zbekistonlik Yengil atletikachilar 1952 yildan Olimpiada o'yinlarida qatnashadi.

Olimpiadalarda Marina Shmonina (4x100 m ga estafetali yugurish, 1992) oltin, Rodion Gataulin (langarcho'p bilan sakrash, 1988) kumush medalni qo'lga kiritgan, Ramil G'aniyev (o'ntkurash, 1996) 8-o'rinni egallagan. Oleg Ryaxovskiy (uch xatlab sakrash), Roza Babich (200 m ga to'siqlar osha yugurish) va Tatyana Biryulina (nayza uloqtirish) jahon rekordini yangilagan. Ashur Normurodov (uzok, masofaga yugurish) uch marta sobiq Ittifoq chempioni bo'lgan (1967— 69). Osiyo o'yinlarida 1994 yilda Svetlana Munkova (balandlikka sakrash), Ramil G'aniyev (o'ntkurash), Oksana Yarigina (nayza uloqtirish), 1998 yilda Oleg Veretelnikov (o'ntkurash), Sergey Voynov (nayza uloqtirish) oltin medal bilan taqdirlangan Yengil atletika AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kuba, Xitoy kabi mamlakatlarda yaxshi rivojlangan.

Bugun uning tarixi bilan bog'liq ba'zi qiziqarli ma'lumotlarni to'pladik.

1. Yengil atletikaning paydo bo'lish sanasi miloddan avvalgi 776 yilga to'g'ri keladi. O'shanda qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlarida birinchi yugurish musobaqalari bo'lib o'tdi.

2. Yengil atletikada pastdan start olish har doim ham bo'lmagan. 1887 yilgacha start oldidan yuguruvchilar shunchaki buyruqni kutishgan. Sprinter Sherill kenguruning harakatini kuzatib, yangi holatni taklif qilganda, hammasi o'zgarib ketdi.

3. 1936 yilda Berlindagi Olimpiya o'yinlarida yaponiyalik sportchilar Syuxey Nisida va Sueo Oe bir xil natijani namoyish etishdi va ikkalasi ham ikkinchi o'rinni egalladi. Ammo Yaponiya sport federatsiyasi Oeni bronza medali bilan taqdirladi. Uyga qaytgach, sportchilar medallarini eritishdi va yangi kumush-bronza medallarini yasashdi.

4. Dastlabki Olimpiya o'yinlarida marafon uzunligi doimiy ravishda 40 km dan 42,75 km gacha o'zgarib turdi. 42 kilometr 195 metrlik zamonaviy standart 1908 yilda Londonda bo'lib o'tgan o'yinlar masofasi sifatida o'rnatildi.

5. 10 000 metrga yugurish bo'yicha ikki karra Olimpiya chempioni, efiopiyalik Xayle Gebreselassi yugurish paytida o'ziga xos ko'rinish kasb etardi: chap qo'li tanasiga bosilgan va gavdasi biroz egilgan edi. Sportchining o'zi buni har kuni ertalab chap qo'lida kitoblarni bag'riga bosganicha, maktabga 10 kilometr yugurib, uyiga kechqurun qaytib kelishi bilan izohlaydi.

6. Yangi zelandiyalik yuguruvchi Myurrey Xalberg yoshligida regbi o'ynagan, ammo o'yinlarning birida u jiddiy jarohat olgan va chap qo'li falajiga olib kelgan. Ammo Myurrey sportni tashlamaslikka qaror qildi va yugurishni boshladi. Iroda kuchi unga 1960 yilda Rimda bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida 5000 metr masofaga yugurishda oltin medalga olib keldi.

7. «Stadion» so'zi miloddan avvalgi 776 yilda birinchi Olimpiya o'yinlarida 192 metr masofaga yugurilgan joyga tatbiq etilib, qadimgi yunoncha «stadiy» («bosqichlar») so'zidan kelib chiqqan.

8. Yuqorida aytib o'tilgan yugurish masofasida birinchi g'olib oshpaz edi. Uning ismi elidalik Koreb edi.

O'QUVCHINI JISMONIY TARBIYALASHDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIK

Toshov Murod Xalilovich

Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Har bir pedagogik jarayonning asosini uzviylik va uzluksizlik tashkil etadi. O'qitish yoki tarbiyalash jarayonlari mazkur tamoyillar negizida o'z mazmunini yanada mukammal boyitib boradi. Jumladan, pedagogikaning bir qismi hisoblangan jismoniy tarbiya va sport ham uzluksizlik, uzviylik va izchillik kabi tamoyillar negizida amalga oshirishni taqozo etadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi amaliy va nazariy jihatlari bilan ajralib turadi. Bu esa sohani amalga oshirishda yuqorida aytib o'tilgan uzluksizlik va uzviylik tamoyimlari qo'llanilishini ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya va sportda amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uzluksizlik va uzviylikni talab etadi.

Respublikada 2000 yildan buyon o'tkazib kelinayotgan va dunyoda yagona hisoblangan uch bosqichli sport musobaqalari tizimi – «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada sport musobaqalari aynan ta'lim tizim hamda jismoniy tarbiya va sport sohalarining uyg'unlashtirilgan, bir-biriga yo'g'rilgan shakli hisoblanadi. «Milliy model» nomini olgan mazkur sport musobaqalari tizimi ta'lim tizimining uchta asosiy bosqichini qamrab oladi, ya'ni umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim bosqichlarini. O'quvchi va talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida mazkur sport musobaqalariga tayyorlanadilar. Sport bilimlari

o'shishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishi asnosida o'quvchi va talab yoshlarning salomatlik darajasi ham yaxshilanib boradi. Ular orasida sog'lom turmush tarzi shakllanadi.

Respublikamizda aholi salomatlik darajasini aniqlash va oshirish masalasi hukumatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu o'rinda aholining barcha qatlamlari, xususan, ta'lim tizimini ham qamrab oluvchi «Alpomish» va «Barchinoy» test me'yorlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu test me'yorlari O'zbekiston Respublikasi aholisining 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan qatlamini o'z ichiga oladi. Mazkur test me'yorlari ham ta'lim tizimidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Yuqorida aytilgan sport musobaqalari va test me'yorlaridan tashqari jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari sport to'garaklari ham o'ziga xos o'ringa ega. Umumta'lim maktablari, Akademik litsey va ksb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari DTS asosida o'qitilib kelinayotganligi, darsdan tashqari sport to'garaklarining tashkil qilinganligi jismoniy tarbiya va sportdagi uzluksizlik hamda uzviylikning amaliy ifodasidir.

Yoshlarning sportga qiziqishlari ortishi, salomatlik darajasi yaxshilanib borishida ta'lim tizimiga jismoniy tarbiya va sport chuqur kirib borganligining natijasi, deb tushunish mumkin. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport harakatini aniq tasavvur qilish uchun quyidagi rasmni misol tariqasida keltirish mumkin.

Umuman, jismoniy tarbiya va sport sohasi amaliy xarakterda ekanligi, doimiy mashg'ulotlar va shug'ullanishlar natijasida rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shu sababli sohani rivojlantirish, uni yanada yuqori bosqichlarga olib chiqish yuqorida aytilganidek uzviylik va uzluksizlik asosida amalga oshadi.

Hozirda ko'pgina mutaxassislar, yetakchi olimlar jismoniy tarbiya darslarini, xususan, umumta'lim maktablarida tashkil qilinayotgan jismoniy tarbiya darslarini yanada takomillashtirish masalasi ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ma'lumotlarga ko'ra jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning harakatga ehtiyojining 10 – 11 %ini qondirar ekan. Shunga ko'ra aytib o'tish kerakki, o'quvchilarning harakatga ehtiyojini to'la qondirish maktab va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya ishlari orqali amalga oshiriladi.

O'quvchi hamda talaba yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada qiziqtirish, ularni sport mashg'ulotlariga keng jalb etish mazkur sohada uzluksizlik va uzviylikning mazmunini tashkil etadi. Ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvlar asosida, maqsadli tarzda amalga oshirish samardorligi yuqori hisoblanadi.